


Chingiz
AYTMATOV



ASRNI QARITGAN KUN



821
4-39

JAHON ADABIYOTI DUNDONALARI

CHINGIZ

АТМАТОВ

ASRNI QARITGAN KUN

(roman)

-da18-

Shahar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIN VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRICHO
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«Ilm-ziyo-zakovat»
TOSHKENT – 2020



Ushbu kitobni
il va ideali
iy mulkni
nken, deb
ig barcha
ing nomi;

nam-
agdir
i qud-
nehmat
alim?
tir.
liy bir
jilgani
diy va
kunda
myosi,
in ham
nizning

mma-
ilgan-
halol
b tur-
qadar
hiyati

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество претъ, туших
ыдач

10.10.12

UO•K:
K BK:

Chingiz Aytmatov. «Asrni qartigan kun» / roman / ruschadan Asil Rashidov tarjiması/ «Jahon adabiyoti durdonalari» turkumi – T.: T.: «Ilm-ziyo-zakovat», 2020. – 384 b.

Nashrga tayyorlovchi, qoʻshimcha iqtibos va izohlarni kirituvchi: Ergashboy Matyoqubov.

Chingiz Aytmatovning ushbu asarini tom maʼnoda oʻzlikni anglash va onaning farzandiga boʻlgan muhabbati tarannum etilgan haqiqat desak boʻladi.

Kitobda onaning farzandiga boʻlgan muhabbati va insonning azizligi, uni tarixiy ijdizlaridan, tilidan, gʻururidan mahrum qilish joniga qasd etishdan ham dahshatli jinoyat ekani yovqur Nayman onaning tengsiz fojiasi tasviri asnosida aks ettirilgan.

Asarning yana bir qahramoni Edigey kechagi kunini unutmagan, bobolar arial qilgan yuksak udumlar asosida yashashga oʻzida kuch topa oladigan chin insondir. Uning ezgu insoniy sifatlari qiyinchiliklarga qaramay marhum Kazangapning vasiyatini bajarishga oʻzida kuch topganida, qanchalik gʻazablansin, oʻlik bor joyda janjallashmaslikka qudrati yetganida, Sobitjonning gap-soʻzlariga munosabatida yaqqol koʻrinadi. Ezgu insoniy tuygʻulardan mahrum, odanning koʻnglini his etmaydigan, bobolar qoʻllagan udumlarni mensimaydigan, kechagi kundan uzilgan, ammo oʻzini ilgʻor fikri ziyoi hisoblaydigan Sobitjon Manqurting zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi ham juda taʼsiri koʻrsatilgan.

ISBN: 978-9943-6653-6-1

© Chingiz Aytmatov.
© «Ilm-ziyo-zakovat» nashriyoti

MALLIFDAN

Azaldan maʼlumki, mehnatsevarlik – inson qadr-qimmatini belgilovchi mezonlardan biridir.

Shu maʼnoda Edigey Jongeldin yoki uni yaxshi bilganlarning taʼbiri bilan aytganda, Edigey Boʻron chinakam halol mehnatkash inson. Aytishlaricha, u zaminni yelkasida tutib turganlardan biri. Edigeyning hayoti oʻz davri bilan shu qadar payvand boʻlib ketganki, oʻylashimcha, uning insoniy mohiyati ham shunda – oʻz zamonasining farzandi ekanida.

Xuddi shuning uchun ham romanda tilga olingan muammolarni urush qatnashchisi, temir yoʻl ishchisi Edigey taqdiri orqali koʻrsatish men uchun muhim edi. Bu vazifani baholi qudrat uddalashga harakat qildim. Edigey Boʻron obrazi – mehnat kishisini asosiy tahlil obyektı qilib olgan sotsialistik realizm¹ adabiyotining oʻzak negiziga boʻlgan munosabatim ramzidir.

Biroq men «mehnatkash» tushunchasiga u «oddiy bir banda» boʻlgani, ter toʻkib yer haydagani yoki podachilik qilgani tufayli sigʻinmoq kerak, degan fikrdan yiroqman. Abadiy va oʻtkinchi hodisalar doimo toʻqnashib turadigan bugungi kunda mehnatkash odam menga shaxsiyati, boy maʼnaviy dunyosi, zamonning qay jihatlarini oʻzida mujassamlashtirgani bilan ham qiziqarli va qadrli. Shu boisdan Edigey Boʻronni davrimizning

¹ **Sotsializm** (fransuzcha: socialisme < lotincha: socialis – ijtimoiy) – 1) muqaddi va ideali ijtimoiy adolatlarni, erkinlik va tenglikni amalga oshirishdan iborat boʻlgan, xususiyl mulkni ijtimoiy (umumiy) mulkka aylantirish orqali mazkur prinsiplarga erishish mumkin, deb hisoblovchi taʼlimot; 2) XX asrda bir qator davlatlarda jamiyat hayotining barcha sohalariga davlatning narahshuvini taqozo etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning nomi; sobiq Ittifoqda hukm surgan totalitar tuzum.

² **Realizm** (lotincha: realis – moddiy, haqiqiy) – adabiyot va sanʼarda voqelikni, hayotni ifoda vositalari orqali, badiiy obrazlar butun toʻlatligi bilan oʻziga oʻxshash shakllarda haqiqiy-aks ettirish usuli.

charxi olam mehvariga – o'zinni hayajonga solayotgan muammolarning makaziga qo'yib tasvirlashga intildim.

Edigey Bo'ron tabiatan yoki kasb-koriga ko'ra mehnatkash bo'lib qolmay, qalban ham mehnatkashdir. Qalban mehnatkash insongina o'zini shunday botiniy murakkab savollarga tutadiki, bunday savolga kimsalarning javobi hamisha tayyor bo'ladi. Shuning uchun ham o'sha kimsalar loqaydlik bilan ish qiladilar, ishini yaxshi uddalaganlarida ham, majburiyat yuzasidagina bajaradilar va yashaydilar...

Qalban mehnatkash insonlar esa bir-birlari bilan yor-ubirodar bo'ladilar – ular hamisha bir-birlarini tanqid qiladilar va bir-birlarining tillariga tushunadilar. Mabodo tushunmagan taqdirlarda ham xotirjam qololmaydilar, o'ziga toladilar. O'ziga toldiradigan muammolar shu qadar ko'pki, bunaqasi hech bir zamonda ko'rilmagan. Endilikda inson o'z-tafakkuri zamindan o'sib, koinotgacha ulanib ketgan.

Binobarin, XX asr so'ngidagi eng fojiaiy ziddiyat – inson dahosining cheksizligi-yu, bunday poyonsiz insoniy dahoni imperIALIZM¹ vujudga keltirgan siyosiy, g'oyaviy, irqiy to'siqdar tufayli amalda qo'llab bo'lmaslikdan iboratdir.

Koinotga muntazam parvoz qilib turish uchun texnik imkoniyatlar o'z-o'zidan vujudga kelibgina qolmay, balki insoniyatning iqtisodiy, ekologik ehtiyojlari ham ana shu imkoniyatlardan tezroq foydalanishni talab qilib turgan hozirgi sharoitda xalqlar o'rtasida nizo olovini kuchaytirish, moddiy resurslarni² va aql-idrok qudratini qurallanish poygasiga sarflash odamzotga qarshi qaratilgan jinoyatlarning eng qabihidir.

Bugungi kunda xalqlar o'rtasida vujudga kelgan keskinlikni yumshatishga tarqatqiyparvar siyosat hisoblanishi mumkin. Dunyoda hozir bundan mas'ulroq vazifa yo'q.

¹ ImperIALIZM (fransuzcha: imperialism < latincha: imperium – buyurish; boshqarish; hokimiyat) – hududlarni kengaytirishga, mustamlakalar bosib olishga, boshqa davlatlar ustidan siyosiy yoki iqtisodiy nazorat o'rnatishga qaratilgan davlat siyosati; marksizmda: kapitalizm tarqatqiyotining eng yuqori va so'nggi bosqichi, monopoliistik kapitalizm.

² Resurs (fransuzcha: ressource – yordamchi vosita, usul; pul manbasi) – inson turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun zarur bo'lgan narsalarning mavjud zaxirasi.

Insoniyat doriolomon hayotni taomil qilmas ekan, halokalgacha uchraydi. O'zaro ishonchsizlik, tahlikali vaziyat, siyosiy taranglik iqlimi insoniyatning osoyishta va baxtli hayot kechirishiga mutlaq mone holdir.

Odam bolasi bir-biri bilan murosar-yu madora qilib yashashi mumkin, biroq inson ekan, insoniy xislatlar unga yor ekan, hech qachon bir xilda fikrlay olmaydi. Insonni o'zligidan, o'ziga xoslikdan mahrum etib, bir qolipga solib qo'yish davosi azal-azaldan to bizning kunlarga qadar imperiyalar¹, imperialistlar² va gegemonchilarning³ maqsadi bo'lib kelgan.

O'tmishni xotirlay olmaydigan, dunyoda o'z o'zini yangidan topishga mahkum etilgan odam, o'z xalqi va boshqa xalqlarning tarixiy tajribasidan bexabar odam tarixan istiqbolga ega emas, u faqat buguni bilangina yashashga qodir, xolos.

Bu hodisalarning bir-biriga payvasla ekani uchun hosil qilmoq uchun Xitoydagi «madaniy inqilob»⁴ – xalq ongiga qilingan tajovuzni, murakkab hayot dialektikasini⁵ Maoning⁶ «qizil dafarcha» atalmish aqidanasidan bir necha iqtibos yodlash darajasida jo'nlashirishga sabab bo'lgan Xitoy rahbarlarining gegemonchilik siyosati oqibatlarini eslash kifoyadir. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bunga hamohang boshqa hodisalar ham mavjud: o'tmishni inkor etish yoki soxtalashtirish, takabbur,

¹ Imperiya (latincha: imperium – yuqori hokimiyat) – 1) podshoh, qiro, imperator boshqaradigan yirik, ko'p millatli davlat; 2) bir qancha mustamlaka yerlari bo'lgan, to'liqlar tuzumiga asoslangan yirik davlat (bu yerda shu ma'noda).

² Imperialist – imperIALIZM siyosatini yurgizadigan yirik kapitalist.

³ Gegemon (yunoncha: hegemon – dohiy; yo'lboshchi) – hokim, hukmron; rahbar, yetakchi.

⁴ «Madaniy inqilob» – Xitoyda 1966-1976-yillarda Mao Szedun (1893-1976) tomonidan o'tkazilgan siyosat. Bu siyosat natijasida Xitoy xalqining ko'pgina tarixiy-madaniy merosi yo'q qilindi. Ko'plab madaniyat arboblari qirg'in qilingan yoki surgan qilingan.

⁵ Dialektika (yunoncha: dialektika – subhastlash, bahs qilish san'ati) – 1) tabiat, kishilik jamiyati va tafakkur tarqatqiyotining umumiy qonuniylari haqidagi fan; 2) tabiat qarshiliklarini o'z ichida hamda bu ziddiyat turuvchi ichki ziddiyatlari, qarama-alloqadorlik va kurash mohiyatini aniqlashdan iborat falsafiy metod; 3) biror narsaning harakati, rivojlanishi, tarqatqiyot jamiyati (bu yerda shu ma'noda).

⁶ Mao Szedun (1893-1976) – Xitoy Kompartiyasi (XKP) MK raisi, XKP asoschilardan biri, 1954-1959-yillarda XXR raisi. U o'tkazgan «katta sakrash» siyosati (1958-1960) Mao Szedunning davlatdagi obro'siga putur yetkazdi.

chiranchiq shovinizm¹ ham o'z atrofini «xiyoy devori» bilan o'rab olmogda, zotan bir xalqning boshqa barcha xalqlardan ustunligi haqidagi afsonalarni ham xuddi shu «xiyoy devori» zaminida targatish mumkin.

Oldingi asarlarimda bo'lgani kabi bu gal ham o'tmish ajdodlardan bizga metros qolgan afsonalarga, ertaklarga, rivoyatlarga tayangan holda ish tuidim. Shu bilan birga, yozuvchilik tajribamda birinchi marta fantastik syujetdan² foydalanishga urindim. Unisi ham, bunisi ham men uchun asosiy maqsad emas, balki faqat tafakkur tarzi, voqelikni tadqiq va talqin qilish usullaridan biridir.

Tabiiyki, g'ayrizaminiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari va unga bog'liq barcha voqealar hech qanday real asosga ega emas, albatta. Aslida, dunyoning hech qayerida Sario'zak kosmodromi³ ham, Nevada kosmodromi ham yo'q. Barcha «fazoviy» kechmish voqealar tasvirdan muddao – yer kurtasidagi odamlarga xavf-xatar tug'dirishi mumkin bo'lgan vaziyatni favqulodda tabiiy va mubolag'ador formada keskinlashtirib ko'rsatishdan iboratdir.

Fantastik to'qimaning ahamiyatiga kelganda, o'z davrida Dostoyevskiy⁴ shunday deb yozgan edi: «Fantastika real voqelik bilan shu qadar omxalashib ketsinki, siz unga qariyb ishoning». Dostoyevskiy fantastika qonuniyatini aniq ta'riflagan,

¹ **Shovinizm** (fransuzcha: Napoléon I boshqirchilik siyosatining muxlisi fransuz askari N. Shoven nomidan olingan) – millatchilikning o'ta agressiv shakli. O'zga millatlarni kam-milliy xudbinlik illatlarini o'zida mujassam etadi.

² **Syujet** (fransuzcha: sujet < lohncha: subjectum – predmet, mazmun, mohiyat, narsa) – badiiy asarda, filmda voqea-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o'zaro aloqa; badiiy asar mazmuni.

³ **Kosmodrom** (yunoncha+yunoncha: kosmos + dromos – chopish, yugurish joyi) – sun'iy yo'l-dosh, kosmik kema va shu kabi kosmik apparatlarni uchirish uchun maxsus jihozlangan joy.

⁴ **Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiy** (1821-1881) – rus yozuvchisi. Asarlari: (1844) «Bechona odamlar», «Jinoyat va jazzo», «O'rlik xonadondan makublar», «Telba», «Jinlar», «O'smir», «Xo'rliqlanganlar va haqoratlanganlar» romanlari, «Qiyofadosh», «Oq tunlar» qissalari va boshqalar.

Haqiqatan ham, qadimgi xalqlar mifologiyasi¹ deysizmi, Gogol², Bulgakov³ yoki Markesning⁴ fantastik realizmi deysizmi, yoxud ilmiy fantastika deysizmi – bular bari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, real voqelikka yo'g'irib tasvirlangan tufayli ishonarlidir. Fantastika real hayotning qaysidir tomonlarini qabarib ko'rsatadi, «o'yin qoidalarini» tayin etib, hayotning o'sha tomonlarini falsafiy umumlashtiradi va tanlab olingan xususiyatlarining rivojlanish potensialini oxiriga qadar ochib berishga xizmat qiladi.

Fantastika – hayotni yangicha, favqulodda nazar bilan ko'rishga yordam beradigan majoziy shakldir. Asrimizda majoziy fikrlashga bo'lgan ehtiyoj odatdagi fantastika olamiga so'nggi yillar ilmiy-texnik kashfiyotlarning jadal kirib kelayotgani bilangina o'sib qolmadi, balki, to'g'irrog'i, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, irqiy singari mudhish ziddiyatlarga yem bo'layotgan dunyomizning o'zi aql bovar qilmas majozlarga boydir.

Shu bois ham ushbu romanida tasvirlangan Sario'zak majozlari mehnatkash insonga uning zaminimiz taqdini uchun naqadar mas'ulligini yana bir karra eslatib qo'yishini istar edim...

¹ **Mifologiya** (yunoncha: mythos – afsona, rivoyat + logos – fan, Ta'limot) – 1) muftlar haqidagi fan; 2) biror xalqning miflari, afsonalari majmumi.

² **Nikolay Vasilyevich Gogol** (1809-1852) – rus yozuvchisi. Rus adabiyotida tanqidly realizmga asos solgan. Asarlari: «Gans Klyukelgartendostoni», «Dikanka qishlog'i oqshomlari» hikoya va qissalar to'plami, «Mirgorod» to'plami «Arabeskalari» to'plami, «Taras Bulba», «3 darajali Vladimir» (tugallanmagan), «Ulyanish», «Revizor» komediyasi va boshqalar.

³ **Mixail Afanasevich Bulgakov** (1891-1940) – rus yozuvchisi. Asarlari: «Iblisnom», «Oq gvardiya» (tugallanmagan roman), «Turbinlar kuni» (pesa), «Zoykaning uy», «Baxmal orol» komediyalarida va boshqalar.

⁴ **Gabriel Garzia Markes** (1927-2014) – kolumbiyalik yozuvchi. Asarlari: «To'kilgan yaproqlar», «Polkovnikka hech kim yozmaydi», «G'arazi soat» qissalari, «Grande-Ona dafn marosimi» hikoyalar to'plami, «Yuz yil tanholikda», «Vabo va muhabbat» romanlar va boshqalar.

fasli turli tomonlardan kelib, bir-birlari bilan topishib, qaytadan uchrashganlarida nar tulkilar hayot-mamot uchun shunday olishib ketar edilar, u yog'ini asii qo'yavering. Azal-azaldan dunyoning ishlari shunday...

Qosh qorayganda tulki chuqurlikdan chiqdi. O'zicha xavfsirab, bir zum payt poylab turdi-da, so'ng temir yo'l ko'tarmasi tomon yurib ketdi. U tovush chiqarmay goh yo'lining u tomoniga, goh bu tomoniga yugurib o'tardi. Bu yerda vagonlarning oynasidan yo'lovchilar tashlagan oziq-ovqat chiqindilarini izladi, biror arzigulik yemish topguncha, qiyaliklar bo'ylab dimog'ni qitqilovchi va ko'ngilni aynituvchi turli-tuman narsalarni hidlab, uzoz chopib yurdi. Poyezd o'tgan joylarda qog'oz parchalari, g'ijimlangan gazetalar, shisha sinig'lar, papiros qoldiqlari, pachaqlangan konserva bankalari va boshqa tashlandiq narsalar sochilib yotardi. Ayniqsa, yumalab yotgan shishalarning og'zidan badbo'y hid taralardi. Tulkining ikki marta boshi aylanib, ko'zi tungach, spirtli¹ havoni hidlashdan voz kechdi. Shunga hidni sezdi deguncha darhol burun qoqib, sakragancha o'zini chega oladigan bo'ldi.

Uzoq taraddudlanib, xavf-xatardan jon saqlab qanchalik izlamasin, baribir, aksiga olganday, izlagan narsasini topolmadi. Shunga qaramay, biror yegulik umidida temir yo'l bo'ylab tinimsiz yugurar, ko'tarmaning goh u yog'iga, goh bu yog'iga g'izillab o'tardi.

Tulki chopib borayotib, kutilmaganda qarshisida nogahoniy bir falokat sodir bo'lganday, oldingi oyoqlarini ko'targancha dong qotib qoldi. G'ira-shira oy yorug'ida ko'zdan g'oyib bo'lgan tulki temir izlar orasida qimir etmay, ko'lanka singari turardi. Uzoqdan guvullab kelgan ovoz uning tinchini buzib, qulog'i ostidan ketmay turdi. Ammo bu ovoz hali juda olisda edi. Hamon dumini yoyib qotib qolgan tulki qat'iysizlik bilan og'irligini bu oyog'idan u oyog'iga tashlab, yo'ldan qochishga shay-

¹ **Spirt** (inglizcha: spirit < lotincha: spiritus – nafas, dam; jon, ruh) – serkxumal, shirali mahsulotlardan (bug'doy, kartoshka va boshqalardan) haydash yo'li bilan hosil qilinadigan, alkogolga boy, o'kir ta'mli, tussiz, yomuvchi suyuqlik.

landi. Lekin qochish o'rni, aksincha jon saqlash uchun biror yemish topilib qoladiganday, shosha-pisha qiyaliklardan chopqillab ketdi. Olisdagi shovqin – temirlarning dahshatli shagirtashi-yu yuzlab g'ildiraklarning guldurosini tobora yaqinlashib kelayotganiga qaramay, tulki xuddi shu onda ham ovqat topib oladiganday yo'ldan chiqmasdi. U o'zi bilan o'zi andamon bo'lib, bir lahzagina hayallab qolgan edi, shanga kelib urilgan parvona singari gangib, o'ralsib, ag'darilib tushishga bir lahzagina kifoya qildi. Shu vaqt vagonlarni ergashitirib muylisidan chiqib kelayotgan qo'shaloq lokomotivning¹ yaqin va yiroqni birday yorituvchi chiroqlari ko'zini qamashitirib qo'ydi. Qudrati proyektorlar² dahlilik qat'iga oqish nur sochib, uning jonsiz, ruhsiz manzarasini yoritlar, poyezd esa vajohat bilan bostirib keldi. Havoni shamol aralash chang-to'zon ko'tarilib, dimoqni achishtiruvchi kuyundi hidi tutdi.

Tulki shiob bilan o'zini chetga ordi, u dahshatli qo'rquvdan yer bag'irlab qochar ekan, ahyon-ahyonda orqasiga qayitib qarab qo'yardi. Shokosaday ko'zlaridan o't balqitib kelayotgan haligi maxluq esa uzoz vaqtgacha gumburlab, g'ildiraklarini tarqatib o'tib turdi. Tulki turgan joyidan sakrab, jon talvasasida tirqaylab qochdi...

U nari borib biron nafas roslab olgach, nafsini qondirish ilinjida yana temir yo'l tomon intildi. Ammo yo'lda tag'in og'ir yuki bilan qator vagonlarni sudrab kelayotgan qo'shaloq lokomotiv chiroqlarining nuri ko'zga tashlandi.

Shunda tulki dalani aylanib o'tib, temir yo'lining poyezd yurmaydigan boshqa joyidan kesib chiqmoqchi bo'ldi...

Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan³ mag'ribga⁴ tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

¹ **Lokomotiv** (fransuzcha: locomotive < lotincha: loco moveo – o'rtidan siljilaman) – temir yo'lda o'ziga tikalgan vagonlarni tortib boradigan parovoz, elektrovoz, teplovoz va shu kabi uning umumiy nomi.

² **Proyektor** (fransuzcha: projecteur < lotincha: projectio – oldinga ing'itish, otish) – yorug'lik nurlari, shu'larni to'plab, ma'lum tomonga yo'naltiradigan optik qurilmali yoritish asbobi.

³ **Mashriq** (arabcha) – sharq, kunchiqar.

⁴ **Mag'rib** (arabcha) – kimbobot (toy va vaq); g'arb; oqshom.

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor¹ bilan qoplangan hayhotday dastlik – Sario'zak, o'tracho'l yastanib yotadi.

Har qanday masofa Grinovich meridianidan² o'chlangani singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'chlanadi.

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay gamab turadi...

Yarim tunda allakim halloslab uzog' yo'l bosib, temiryo'lichilar uychasi tomon shoshilardi. U avvaliga shpallar³ ustidan yurdi, so'ng qarshidan kelayotgan poyezd ko'zga tashlangach, qiyalikdan pastga surilib tushib, tezyurar yuk poyezdi g'ildiraklari ostidan ko'tarilayotgan qorli to'zondan yuzini qo'li bilan to'sib, chap bergancha ilgariab keldi. Hech yerda to'xtamay, shiob bilan kelayotgan bu poyezd ilic⁴ vagonlardan iborat maxsus poyezd edi; u keyin alohida temir yo'l tarmog'i orqali I – «Sario'zak» yopiq hududiga burilib, to'ppa-to'g'ri kosmodromga kirib keldi. Qisqasi, bu yuklangan poyezd boshdan oxirigacha brezent⁵ bilan berkitilgan bo'lib, har bir vagonni harbiy soqchilar qo'riqlab borishardi. Edigey shoshib kelayotgan ayol o'zining xotini ekanini darhol anglab yetdi – uning shoshilishi bejiz emas, shekilli. Rosidan ham shunday bo'lib chiqdi. Ammo Edigey hozir xizmat burchi taqozosiga ko'ra ochiq maydonchasida konduktor⁶ turgan oxirgi vagon o'tib ketma-

¹ Yovshan – murakkabguillilarga mansub, yem-xashak bo'ladigan ko'p yillik o'simlik.
² Grinovich meridiani – boshlang'ich meridian, nolnchi meridian. Yerdagi geografik uzunliklarni hisoblashda shartli ravishda boshlang'ich deb qabul qilingan meridian. Xalqaro kelishuvga muvofiq, Grinovich astronomiya rasadxonasidan o'tadi. Bu rasadxona Buyuk Britaniyaning London shahrida joylashgan.

³ Shpal (nemischacha: Spale – zina pog'omasi; uzun, yassi xoda yoki spal – tirg'ovuch, tirgak) – temir yo'l ko'tarishiga ko'ndalang yotqiziladigan va relslar uchun tayanish vazifasini o'taydigan, yog'och, temir yoki betonidan tayyorlangan choroqirga to'sin.

⁴ Illic (lotinchacha: littera – harf, belgi) – poyezd, paroxod va boshqa transportlarda bepul yoki arzon bilet olib yurish uchun beriladigan va ma'lum harflar bilan belgilangan guvohnoma.

⁵ Brezent (gollandchacha: presentning yoki lotinchacha: praesentingere – o'rtaq) – zig'ir to'lasidan yoki zig'ir to'lasidan paxta ipidan to'qiladigan, suv o'tkazmaydigan qalin, qo'pol mat.

⁶ Konduktor (lotinchacha: conductor – kuzatib boruvchi) – 1) poyezdni kuzatib boruvchi, undagi yo'lovchilar xavfsizligi hamda yuklarning saqlanishi ustidan nazorat qilib

guncha, joyidan jilishga haqqi yo'q edi. Konduktorga qo'llaridagi fonusida yo'l xatarsiz, degan ma'noda ishora qilgach, shovqin-surondan qulog'i bitgan Edigey terlab-pishgan xotiniga qayrilib qaradi:

– Ha, tinchlikmi?

Ayoli tashvishli boqdi va nimadir demogchi bo'lib lablarini juftladi. Edigey hech narsa uqmad, ammo nima demogchi ekanini angladi. O'sha narsa bo'lsa kerak.

– Shamolda turma, bu yoqqa kel, – deb uni uycha ichiga boshladi.

O'zi gumon qilgan voqeaning sodir bo'lganini xotini ning og'zidan eshitishdan avval Edigey shu lahzada boshqa bir narsadan hang-u mang bo'lib qoldi. U ilgari ham yoshlari o'tib borayotganini bilardi, ammo shu tobda xotinining tez yurib kelgani sababli nafasi qisilib, hansirab, ko'kragi g'ijirayotganini, ayni chog'da g'ayritabiiy bukchayib qolganini ko'rib, ichi achib keldi. Devorlari top-toza qilib oqlab qo'yilgan, kichkina uychasidagi o'tkir chiroq nurida Ukkubolaning ko'karib-qorayib ketgan yuzlaridagi chuqur ajinlar yaqqol ko'zga tashlandi (ilgari qanaqa edi – qoramag'iz yuzlari bug'doy rangida tovlanar, qop-qora ko'zlari chaqnaq turar edi), yana buning ustiga, gurnuchday tishlari tushib ketibdi, har qancha oshini oshab, yoshini yashagan bo'lsa-da, ayol kishining tishsiz qolishi yarashtirmas ekan (allaqachon uni bekatga olib borib, haligiday temir tish qo'ydirish kerak edi. Hozir yosh-u qari demay, hamma shunaqa tish qo'ydirib olgan-ku); bular ham yetmaganday ro'moli yelkasi sig'a sirg'alib tushgan boyaqshining oppoq oqarib, to'zib ketgan o'rana sochlari Edigeyning galbini o'rtaq yubordi. «Eh qanchalik qartayib ketibsan, bechoraginam», – o'yladi Edigey rahmini kelib, bunga o'zining ham aybi borligini alam bilan his etar ekan. Shu tobda ko'nglida uzog' yillar birga yashab, hayotining ne-ne achchiq-chuchuklarini churq etmay birga totib kelgan zahmat-

boruvchi temir yo'l xodimi (bu yerda shu ma'noda); 2) tramvay,rolleybus, avtobuslarda yo'lovchilarga bilet sotuvchi, ularning chiqish-tushishini kuzatib boruvchi xodim.

kash ayoliga nisbatan iliq mehr, cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari uyg'ondi. Mana, hozir ham yarim kechada, uzoq yo'l bostib, odamgarchilik, insoniylik burchi yuzasidan, qolaversa, bu xabarning Edigeyga naqadar muhim ekanini bilganidan bechora Kazangap choling choldor uyida yakka-yu yolg'iz yotib vafot etganini shoshilinch xabar qilishga kelibdi. Chunki bu o'lim yorug' dunyoda faqat Edigey uchungina og'ir judolik ekanini u yaxshi tushunar edi. Holbuki, marhum eriga na uka, na qudanda emas.

– O'tir, nafasingni roslab ol, – dedi Edigey ikkalasi uychaga kirishganda.

– O'zingiz ham o'tiring, – dedi ayol.

O'tirishdi.

– Nima gap, tinchlikmi?

– Kazangap o'tib qoldi.

– Qachon?

– Yaqindagina. Biron narsa zarurmikin, deb xabar olgani kirgan edim, qarasam, chiroq yoqiq, u kishi o'rmda yotibdi. Biroq sog'li hurpayib qolgan.

Yaqinroq borib: – Kazaka, issiq choy ichasizmi, – dedim. Bilam, boyaqishning joni uzilgan ekan, – Ukkubolaning ovozi bo'g'ilib, qizarib ketgan, piyoz po'stiday yupqa qovoqlari ichida yosh halqalandi.

Oxiri xo'rsinib, sekin yig'lay boshladi.

– Shunday kunda o'ladi, deb kim o'ylabdi. Qanday mo'min-qobil odam edi-ya! Ko'zi ochiq ketdi dunyodan. Yopib qo'yishga ham odam topilmabdi, – deya zori tanib yig'lardi u. – Bunday bo'lishi kimning xayoliga kelibdi! Dunyodan o'tdi, rahmatli... – U: «*iting o'limday*», – deb so'zini davom ettirmoqchi bo'ldi-yu, yana jim qoldi, busiz ham ahvol ravshan edi.

Edigey Bo'ron – urushdan qaytib kelgan o'sha kunlardan boshlab «Bo'ronli» bekatida ishlayotgani uchun atrofdagilar uni shunday atashardi – ayolining so'zlarini tinglab, devor ostidagi kursida gurziday qo'llarini tizzasiga qo'yganча, g'amgin o'tirardi. Boshidagi eskitirib, moyga botib ketgan temiryo'lchilar

furajkasining¹ soyaboni ko'zini to'sib qo'ygan edi. Shu payt u nimani o'ylayotgan ekan?

– Endi nima qilamiz? – deb so'radi xotini nihoyat.

Edigey boshini ko'tarib, xayrixohlik bilan unga qaradi:

– Nima qilamiz deysanmi? Shunday mahalda odamlar nima qilishadi? Dahn etamiz. – U bir qarorga kelganday o'rmidan turti. – Sen tezroq uyg'a yetib bor. Ha, oldin gapimga qulog sol.

– Eshityapman.

– Borishing bilan O'spanni uyg'ot. Boshliq deb o'tirma, buning ahamiyati yo'q, o'lim oldida hamma bir. Kazangap o'lganini ayt. Bilib qo'ysin qirq to'rt yil bir joyda ishlagan odam o'lganini. Kazangap bu yerlarda ish boshlaganda O'span onasidan tug'ilgan edi. U vaqtlarda har qancha pul beraman deganing bilan Sario'zakka hatto it ham kelmas edi. U ishlagan davrda bu yerdan o'tib-qaytgan poyezdlarni sanasang, boshingdagi sochingning tolalari ham yetmaydi, degin... Yaxshilab o'ylab ko'rsin. Shunday deb ayt. Yana bunday qil...

– Eshityapman...

– Hammani birma-bir uyg'otib chiq. Derazalarini taqilat. U yog'i bu yog'i – sakkiz xonadonimiz – barmog bilan sanarli... Hammasini uyg'ot. Bunaga odam o'lganda hech kim uxlamasligi kerak. Hammani oyogga turg'az.

– Koyib berisha-chi?

– Uyg'otib qo'yish – biz uchun ham qarz, ham farz. Koyishsa koyishaversin. Uyg'ot, deb men buyurganimni ayt. Axir, vijdon bo'lishi kerak odamda. Sabr qill!

– Yana nima?

– Avvalo, navbatchining oldiga kirib o't, bugun Shoy-mardon dispetcherlik² qilyapiti. Bo'lgan vogeani ayt, nima qilish zarurligini o'ylab ko'rsin. Balki, bu safar o'rimga boshqa odam-

¹ Furajka (*fransuzcha*: fourrage – yem-xashak tayyorlovchining bosh kiyimi; fourre – somon) – erkaklarning gardsihi va qisqa soyabonli bosh kiyimi.

² Dispetcher (*inglizcha*: dispatch – tez bajarman) – transport vositalari harakatini yoki korxonadagi ish jarayonini xabar berish qurilmalari va aloqa vositalari: telefon, radiotelefon, signalizatsiya, faks va televizion uskunalar kompyuter va shu kabilar orqali bita markazdan, bir joydan turib nazorat qiluvchi va boshqarib turuvchi xodim.

ni qo'yib turar. Rozi bo'lsa, xabar bersin. Gapimni ugdingimni, xuddi shunday deb ayting!

— Xo'p, shunday deb aytaman, — dedi-da, Ukkubola yana muhim bir narsani unutganini eslab, gap boshladi, — Iye, farzandlari-chi! Ana xolos! Axir, avvalo, ularga xabar qilish kerak-ku! Otasi ko'z yumgan bo'lsa...

Edigey bu so'zlarni eshitib, ko'ngli g'ashlandi, qosh-qovog'i uyilib, battar jahli chiqdi. Miq elmad.

— Nima bo'lsayam bolalari, — deya gapida davom etdi Ukkubola o'zini oqlaganday bo'lib, Edigeyning xushlamay turganini sezsa ham.

Edigey qo'l siltadi.

— Bilaman. Nima, esimni yebmami? Hamma gap shunda-da, farzandlarini chaqirmay bo'larmidi. Agar ixtiyor o'zinda bo'lganida ularni yaqin yo'latsadimi!

— Edigey, u yog'i bizning ishimiz emas. Mayli, kelib otalarini o'zlari ko'mishsin. Agar chaqirmasak, keyin bir umr gap-so'zdan boshimiz chiqmaydi.

— Nima, men kelmasin deyapmami? Kelaverishsin.

— Shahardagi o'g'li yetib kelishga ulgurarmikan?

— Xohlasa, ulguradi. O'tgan kuni katta bekatga borganimda o'z qo'lim bilan telegramma jo'natganman, otangning ahvoli og'ir, deganman. Yana nima kerak?

O'zini aqli sanab yuradi u, agar shu rosi bo'lsa, gap nimada ekaniga tushunar...

— Unday bo'lsa, mayli, — dedi Ukkubola Edigeyning gaplarini ma'qullaganday bo'lib va yana o'zini tashvishga solgan allaganday narsalar haqida so'zlay ketdi. — Xotini bilan birga kelisa, yaxshi bo'lardi: har holda, qaynatasi dafn etilyapti, yeti yot begona emas...

— Mayli, buni o'zlari hal qilishsin. Yosh bola emas-ku.

— Shundayku-ya, — deb qo'ydi arang Ukkubola hali ham shubhalanib.

Ikkalasi jimib qolishdi.

— Bo'ldi, endi ko'pam vaqtini o'tkazma, bora qol, — deya eslatdi Edigey.

Xotini yana nimadir demogchi edi:

— Aytganday, qizi-chi, haligi, o'zidan ortmagan yuvig-siz, aroqxo'r bilan yashayotgan sho'rlik Oyzoda churvaqalari bilan kapa bekatdan yetib kelishga ulgurar?

Edigey beixiyor jilmayib, xotinining yelkasiga qoqdi.

— Bo'pti, qo'yib bersa, har birining qayg'usini qo'sha

tortmoqchisan... Oyzoda qo'l cho'zsa, yetgunday joyda: ertalab biortasi katta bekatga o'tsa, xabar qilar, uyam yetib keladi, albatta. Sen xotin, bir gapni tanangga singdirtir ol: Oyzodasidan ham, o'g'li Sobitjondan ham, ming farzand bo'lgani bilan hech bir naf yo'q. Mana ko'rasan, hammasi kelishadi, kelmay qayoqqa borishardi, ammo kelganda ham mehmonday bir chekkada qo'l qovushitirib turadi, marhumni esa o'zimiz ko'mamiz, hali ko'rasan... Endi bor, nima degan bo'lsam, shunday qilgin.

Xotini keia turib, ikkilangancha bir to'xtab qoldi-yu, so'ng yana yura boshladi. Ammo bu safar uni Edigeyning o'zi chaqirib to'xtardi:

— Avvalo, navbatchiga — Shoymardonga uchrashishni unutm, o'rninga biorta odam yuborsin, boshqa kun ishlab beraman. Marhum kimsasiz uyda yotibdi, yolg'iz qoldirib bo'ladimi?... Shunday deb aytingin...

Xotini bosh iring'agancha jo'nab ketdi. Shu mahal taxtachadagi signalizator¹ g'ig'illab, o'tli ko'zlarini yoqib-o'chirib «Bo'ronli»ga yangi taritb yaqinlashayotganini xabar qildi. Navbatchining buyrug'i bilan poyezdni qo'shimcha yo'lida qabul qilib, qarshidan kelayotganini asosiy yo'lga o'tkazib yuborish zarur edi. Odardagi ish. Poyezdlar yaqinlashib kelar ekan Edigey yo'l yogasidan borayotgan Ukkubolaga xuddi esidan chiqib qolgan biror zarur gapi borday dam-badam qarab qo'yardi. Ayisa, aytadigan gapi ko'p edi, dafndan oldin qilinadigan ishlar

¹ Signal (*nemischa*: Signal < *lotincha*: signum — belgi) — 1) biror ma'lumot, buyruq, xabar va shu kabilarni yaqin yoki uzoq masofaga yetkazish, kishilarni o'ziga qaratish, ogohlantirish, tartibga chaqirish uchun qo'llanilgan shartli belgi, ishora, tovuq; 2) Biror hodisaning oldini oluvchi, u haqda ogohlantiruvchi, ta'kidlovchi xabar yoki belgi, ishora. Signalizatsiya (*fransuzcha*: signalisation — belgilarni masofaga uzatish) — signallar sistemasi va signal beruvchi asboblari, qurilmalar majmumi. Signalizator — signalizatsiya uskunasini yoki ularning signal beruvchi qismi.

oz deysizmi, qaysi birini eslab qolsin. Ammo Edigey hozir xotini tomonga buni o'ylab qarayotgani yo'q edi. U shunchaki yo'l bo'yidagi dud aralash sarg'ish nur shu lasida yurib borayotgan xotinining so'ngi paytlarda qanchalik qartayib, bukhayib qolganiga hozir e'tibor berarkan, ko'ngli ranjib, o'zini koyiy boshladi.

«Qarilik yelkangda turadi deganlari shu ekan-da. Qaridik-horidik – kampir bilan chol bo'ldik!» Aslida unga sihat-salomatlilikdan xudo bergan, hali bardam, lekin bir yoqdan yosh qurg'ur ham o'tyapti-da. Oltinshini urib qo'ydi, yo'q, yo'q, oltinshini birni. «Hlash-pash deguncha, oradan yana bir-ikki yil o'tib, marhamat nafaqaga deb qolishlari mumkin», deya o'yladi Edigey o'zicha istehzo bilan. Lekin u hali-beri nafaqaga chiq-masligini bilardi. Bu yerlarda yo'l nazoratchisi, ta'mirchi ishchi degan vazifalarda ishlash uchun hadeganda o'rninga odam topila qolarmidi. Vaqti kelib birortasi kasal bo'lib qolsa yoki ta'tilga chiqqudek bo'lsa, temir yo'l ko'rsatkichlariga ham ko'z-quloq bo'lib turardi. To'g'ri, ish joyining olisligi va suv tanqisligi uchun unga qo'shimcha haq ham to'lashadi. Lekin shuni deb ko'zi uchib turganlar topilarmikin? Hozirgi yoshlar ichida bunagasing topilishi amrimahol.

Sario'zak dashtlarida ishlaydigan odamning joni mingta bo'lishi kerak. Aks holda sho'ri quriydi. Dastl hududsiz, odam qum donasiday ko'rindi bu yerda. Birov qiyinaldimi, yo'qmi – dashtning zarracha ishi yo'q. Odamga esa qayerda qanday ishlash baribir emas. U boshqa joyda yaxshiroq yasharmidim, taqdir adashirib bu yerlarga kelib qoldim, deb ich-etini yeydi... Shuning uchun inson ulkan va dahshatli dasht qarshisida o'zini juda ojiz sezadi. Bu yerda odam xuddi Shoyrardonning uch g'ildirakli mototsiklining akkumulyatoriga¹ o'xshab qoladi. Egasi uni ayaydi, o'ziyam minmaydi, boshqaga ham mindir-maydi. Oqibarda mototsikl bekor turganidan yurgizadigan kuchi, javhari tugab qoladi. Sario'zak temir yo'llaridagi odam ham

shunaga – o'zini ishga urmasa, dashtga tomir otmasa, o'sib-ummasa, chidashi qiyin. Yo'lovchilar vagonlarning derazasidan qarab, boshlarini changallashadi: – yo xudoyim, shu yerlardayam odam bolasi yashaydimi-ya, – deb ajablanishadi. Teverak qitrang dasht, faqat tuyalargina ko'rindi, xolos. Boshqa hech vaqo yo'q! Shunga qaramay bu yerlarda ham odamlar yashashadi. To'g'ri, har kim toqati yetguncha: birov uch yil, juda chidasa, to'rt yil yashaydi, keyin tamom, hisob-kitobini oladi-yu, bu yerdan uzroqqa ketadi...

Ammo «Bo'ronli»da faqat ikki kishi: Kazangap bilan Edigey Bo'ron o'troqlashib qolishdi. Eh-ha, bu orada qanchadan qancha odamlar kelib ketmadi deysiz bu yerga! O'zini aytmay qo'ya qolsin, hayrovur, chiyi degani yo'q. Kazangap ham bu yerlarda qirq to'rt yil ishlab qo'ydi. Boshqalar yaxshi-yu, u yomon bo'lgani uchun emas, albatta. Bitta Kazangapning o'zini Edigey o'nta odamga alishmas edi... Endi u ham manguga ketdi...

Kelgan poyezdlar ajralishdi. Biri mashriq tomonga, ikkinchisi mag'rib tomonga yo'l oldi. «Bo'ronli»ning ayri yo'l-lari yana bir muddat huvullab qoldi. Poyezdlar jo'nashi bilan hamma yod birdan ochilib ketganday bo'ldi – zim-ziyo osmonda yulduzlar tag'in ham ravshanroq charaqlab, shamol qiyaliklar, shpallar, sal-paljaranglayotgan, qisirlayotgan temir iz o'rasidagi shag'al yuzasida amin-erkinroq sho'xlik qila boshladi.

Edigey uychaga kirmadi. Ustunga suyanib, o'ylanib qoldi. Uzoqda, temir yo'l ortidagi dalada o'tlab yurgan tuyalarning qoralari ko'rindi. Ular oy nurida tik turganicha miq etmay tongni kutishardi. Edigey o'zining ikki o'rkaqli, yirik boshli notuyasini – Sario'zakda eng kuchli, eng ildam, xo'jayini kabi «Qorator Bo'ron» deb nom olgan tuyasini – tanidi. U Edigey-ni faxri edi: o'lgunday baquvvat, lekin odamni qiyirab yuboradi o'zi ham. Chunki Edigey uni bo'taloqligida axta qilmagan², ke-

¹ Akkumulyator (lotincha: accumulator – to'plovchi) – elektr yoki issiqlik energiyasini keyinchalik foydalanish uchun to'playdigan qurilma.

¹ Chiy – 1) cho'l-adirlarda o'sadigan baland, boshqoli, yem-xashakbop o'simlik; chalo'vning bir turi (bu yerda shu ma'noda); 2) qamishdan yoki savag'ich po'ysasidan ip, sim bilan qatorlab bog'lab to'qilgan qurilish materiali.

² Axta (mo'g'ulcha) – jinsiy bezi, moyagi olib tashlangan, bichilgan, axta qilmog' bichmoq.

uyn shundayligicha qolib ketgan, shuning uchun tuyalar orasida bo'g'ra¹ bo'yib gendayib yutar edi.

Edigeu etang²ni yutushlari orasida batvaqtoq Doranotni uyga haydab kelish, unga egar-jabduq qo'yish kerakligini eshladi. O'lik chiqarishda lozim bo'ladi. Miyasida yana shunga o'xshash ming xil xayollar aylandi...

Bu paytda bekatdagi odamlar uylarida xohirjam uxlab yotishardi. Temir yo'lining bir chekkasida katta bekat turti mayda-chuyda idoralari, hovli sahniida qurilgan o'choqlar, biri-biriga o'xshash ikki bo'g'otli yig'ma-taxta devorli, shiferli uyachalar (bor-yo'g'i olita uyni temir yo'l boshqartmasi qurdirgan), ular yonida Edigeu o'zi qurib olgan uy, rahmatli Kazangapning paxsa devorli kulbasi, hovlilardagi turlicha qo'ndirilgan tandir, o'choq-boshlar, bositmalar, mol-hol uchun chetar³ devorli qo'ta, o'tada shamolda aylanadigan, aslida o'zi universal³ elektr nasosxona⁴, zarur bo'lganda ishga tushadigan suv tortqich (bu yerda u keyingi yillarda paydo bo'ldi), xullas, «Bo'ronli» qishloqchasi shulardan iborat edi.

Buyuk temir yo'l tarmog'ida, buyuk Sario'zak dashtida qon tomitiladigan har yooqqa tarqalgan turli bekatcha, bekat, shoxobcha, shaharlarni bir-biriga bog'lab turgan mo'jazgina bekatlardan biri edi «Bo'ronli»... U kafi day ochiq joyda, dunyodagi hamma shamollarga bag'ini tutgan holda joylashgan... Ayniqsa, qishda uylarni derazasigacha qorga ko'mib, temir yo'l-ni qalin muzlagan do'ngliklarga aylantirib yuboradigan Sario'zak qorbo'roni tursa botmi, xuddi bekatni uchitib ketguday bo'lardi. Shuning uchun ham dashtdagi bu bekat «Bo'ronli» deb

¹ Bo'g'ra, bo'g'ro – ikki o'rkachi nor tuya.

² Chetan – 1) sochliqvechi yuklarni tashish uchun tol, tut novdalaridan to'qib yasalgan maxsus kufiya, kuzov; 2) chetandan qilingan, chetan bilan o'ralgan;

³ ra hovldoshlar o'lasiga mansub, qizil yoki sarq'ish shoda-shoda meviali daraxt yoki buta hamda uning meviasi.

⁴ Universal (lotincha: universalis – umumiy, keng qamrovli, ko'p tomonlama) –

1) ko'p yoki hamma narsani o'z ichiga qamrab olgan; har tarfham; 2) bir nechta xil ishni bajarishga moslangan; 3) bir nechta xil ishni bajarar oladigan traktor.

⁵ Nasos (rusecha: насос – tortmoq, so'rmoq, tortib (so'rib) olinmoq) – suyuqlik yoki gazni tortib chiqarish yoki yuborish uchun qo'llanilgan asbob, mashina.

atalar, bekat peshloqiga qozog'cha va ruscha qilib «Bo'ronli – Буряныш», deb yozib qo'yilgan edi.

Edigeu qor tozalaydigan mashinalar kelgunga qadar bo'lgan davetni eshladi. Bu mashinalar yo'lidagi muzga aylanib qotib qolgan qor uyumlarini bo'laklarga bo'yib, tish-kafilari bilan ikki tomonga surib tashlaydi. U kezlarda-chi, qor bosgan yo'llarni tozalash uchun Kazangar ikkovlari o'lar-titlariga qaramay, it azobida olishgan edilar. Bu ishlar xuddi kechagina bo'yib o'tgan day-a. Ellik bitinchi-ellik ikkinchi yillarda qish juda og'ir keldi. Frontida shunday kezar bo'lganki, odam umri faqat bir marta jangga kirishmagina yoki tankka qarshi bir marta granata¹ uloq-tirishmagina kifoya qilgani singari «Bo'ronli» da ham ahvol xuddi o'shanday bo'lgan edi. Bu yerda seni hech kim o'ldirmasa ham, o'zingni o'zing nobud qilishingga to'g'ri keladi. Qanchalab qor bosgan joylarni qo'l bilan kurab, surib, qorni namatlarga solib sudrab, hatto qorlarga orqalagancha teralikka olib chiqilardi. Ishlar bekatdan yetti chaqirim narida, temir yo'l kesib o'tgan teralik epishida olib borilar, har safar ham bu kurash qorbo'ron bilan so'ngi olishuvdek bo'yib tuyulardi. Yo'l ber, deb dasht bo'yab o'kirtib kelayotgan royezdlarning dahshatli ovozinini boshqa eshitmaslik uchun o'ylab o'timay, jonini berishga ham rozi bo'lardi odam.

Endi qorlar erib keldi, royezdlar yelib, u yillar ortda qoldi... Ular bilan endi hech kimning ishi yo'q.

O'ldi-yu, keldi. Hozirgi yo'l ishchilari g'ala-g'ovurda zuv kelib, zuv ketishadi. Ulatni nazorat-ta'mir brigadalari² deyishadi. Bir zamonlar mana shu Sario'zakdagi qor bosishlar haqida gapirib, unda atigi ikki-uch kishigina belkurakda ishlaganini aytasang, hozirgilar buni tasavvur ham qila olmaydi, ishomaydi ham! Mo'jiza bu! Ba'zilar ochiqdan ochiq masxara qiladi: «bun-

¹ Granata (italyancha: granata < lotincha: granatus – domador) – portlovchi modda to'ldirilgan artilleriya snaryadi.

² Brigada (fransuzcha: brigade < italycha: brigata – oryud, odamlar guruh, qo'shin) – bir nechta polk, batalyon yoki diviziondan va maxsus qo'shinlar bo'yimlaridan, dengiz flotida esa bir nechta turdagi harbiy kemalardan iborat harbiy-taktik qo'shin.

³ mehnatning muayyan bir turini birgalikda bajarish uchun tuzilgan va ish natijasi uchun umumiy javobgar bo'lgan jamoa, mehnatchilar guruh (bu yerda shu ma'noda).

day koni azobning kimga keragi bor, ko'ra bila turib, o'zini qiynoqqa solishdan nima foyda, deydi. Biz bo'lganimizda bu ishga sira qo'l urmagan bo'larik! O'zlarini xudo urib qo'ygan: bo'lmasa qurilishmi yoki boshqa biror joyda ishlash mumkin edi-ku, ish qurib ketibdimi? Zarur bo'lib qolsa, qo'shimcha ishlarga xalqni to'plab hayda – vassalom...

Qancha ishlasang, shuncha haq olasan. Agar buni hashar deb qolishsa, xalqni to'plagin-u, qo'shimcha haqni talab qil. Shu ham gap bo'ldi-yu... G'irt anoyi bo'lgansizlar, boboylar, anoyilarcha o'lasizlar!..»

Mana shunaga «qayta qiyib bichuvchilar» uchrab qolsa, Kazangap xuddi daxli yo'qdek so'zlarga parvo qilmas, hayotning boshqalar tushunmaydigan qandaydir sirini o'zi biladiganday miyig'ida kulib qo'yar edi. Edigey bo'lsa bunday gaplarni eshitganda chidab turolmas, qizishib, tutaqib ketib bahslashardi, ammo bu bilan faqat o'zining dilini siyoh qilib qo'yardi.

O'shanda, Edigey bilan Kazangap turmush muammolari haqida uzoz-uzoz subhat qurgan vaqtlarida hozir maxsus nazorat-ta'mir vagonlarida kelib, ularning ustidan kuladigan nuxxalar ko'ylagining etagini orgasiga tugib olib, ishtonsiz yurgan bo'lishlari ham mumkin, albatta. Turmush haqida aqli yetganicha farosat yurgizib, uzoz subhat qurishar, vaqt ham bermalol edi unda. Axir, qirq beshinchi yildan boshlangan edi bu subhatlar. Ayniqsa, Kazangap nafaqaga chiqqandan keyin turmush muammolari to'g'risida ko'proq o'ylaydigan bo'lishdi. Nafaqaga chiqib, u ko'ngildagidek yashay olmadi. Shaharda turaman deb o'g'lining oldiga ketgan edi, uch oy yashab, qaytib keldi. O'shanda Edigey ikkalasi olamdagi ko'pgina masalalar xususida gurgunglashar edilar. Dono odam edi rahmatli. Eslasa, eslagulik gaplar ko'p edi u haqda... Shu lahzada Edigey achchiq haqiqatni ravshan anglab yetdi: endi ularan faqat xotiralargina qoldi, xolos. Mana shunga ich-ichidan achindi...

Edigey mikrofonning shirig-shirig citib ishlayotganini eshitdi-da, shoshilganicha uychaga kirdi. Bu ahmoqona qurilmadan odam ovozi kelish o'rni, avvalo, qor bo'ronida bo'lgani singari allaqanday guvullagan-shuvullagan tovushlar eshitildi.

– Edike, allo, Edike, – xirillardi bekat navbatchisi Shoy-mardon, – Edike, gapimni eshityapsanmi? Javob ber!

– Eshityapman, eshityapmi!

– Eshityapsanmi, gapir!

– Eshityapman deyapman-ku, eshityapman!

– Qalay eshityapsan?

– Narigi dunyodan eshityalganday bo'lyapmi!

– Nega endi?

– Bilmadim.

– Ha-a... Shunday qilib, Kazangap chol, haligiday...

– Nima, haligiday?

– O'libdi chog'il! – Shoymardon bunday vaziyatda nima deysiz kerakligini topolmay qiyналardi. – Nima desam ekan, haligiday, ya'ni, masalan, o'zining shonli hayot yo'lini yakunlabdida.

– E-e, – qisqa javob qildi Edigey.

«Voy aqlsiz hayvon, – deya o'yladi o'zicha, – o'lim haqida ham odamga o'xshab gapirolmaydi-ya».

Shoymardon bir lahza jim qoldi. Mikrofon yana battarroq g'ijillab, bo'g'iq ovoz chiqardi. Yana Shoymardonning xirillagan ovozi eshitildi:

– Edike, aylanay sendan, hadeb boshimni achitaverma.

O'lgan bo'lsa o'libdi, endi nima ham qilardik... Menda boshqa odam yo'q. O'likning boshida o'tirishdan ne foyda? Marhum tiritilib qoladi, deb o'ylaysanmi?

Edigeyning jahli chiqdi:

– Men senga aytсам, hech baloni tushumas ekansan! Boshimni achitma deganing nimasi? Sening bu yerga kelganingga endi ikki yil bo'lyapmi, biz esa u bilan o'tiz ikki yil birga ishlaganmiz. Tanangga ozroq o'ylab ko'rsang bo'larik. O'rannizda odam o'lgan, marhumni kimsasiz uyda yolg'iz qo'yib bo'lmaydi, mumkin emas, axir.

– Yolg'izmi, yolg'izmasmi – o'lgan odam uchun baribir emasmi?

– Ammo biz uchun baribir emas.

– Mayli, shovqin solma, qariya, shovqin solma!

– Senga tushuntirib qo'yyapman.

– Nima demogchisan o'zi? O'zingga odam yo'q. O'ilk-ning yoniga yarim tunda borib nima qilasan?

– Janoza o'qiyman. Irim-sirimini qilib, marhumning haqiqiga duo qilaman.

– Janoza o'qiyasan? Sen-a, Edigey Bo'ron-a?

– Ha, men. Janoza o'qiyman.

– Ana xolos... Haligiday, Sovet hokimiyatining tashkil etilganiga olmish yil to'lganda-yal!

– Qo'ysang-chi! Sovet hokimiyatini oraga qo'shmal! Odam o'lganda janjoza o'qish qadimiy udum. Axir, hayvon emas, odam o'lgan-ku!

– Bo'pti, bo'pti, duolaringni o'qiyver, faqat shovqin solma. Edilboy Darozga odam yuborib ko'raman. Rozi bo'lsa, o'zingga borib turar... Hozir esa qimirla, 117-kelyapti, ikkinchi qo'shimcha yo'lni tayyorla...

Shoyrardon shirq etkizib mikrofonni o'chirdi. Edigey temir yo'l ko'rsatkichi tomon shoshildi. U o'z ishi bilan andamon bo'lib yurar ekan, Edilboy rozi bo'larmikin, deb o'ylardi. Ba'zi uylarning derazalaridan ravshan yongan chiroqlarni ko'rib, haytovur, odamlarda insof, diyonat degan narsa bor, deb xursand bo'ldi u. Itlar hura boshladi. Demak, xotini bo'ronlarni uyg'otib, oyoqqa turg'izyapti.

Bu orada 117-poyezd qo'shimcha yo'lga o'tib oldi. Qarshi tarafdin sistemalar¹ ulangan neft tashuvchi poyezd kelayverdi. So'ng yana ikkala poyezd bir-biridan uzoglasha boshladi: biri mashriqqa, ikkinchisi mag'ribga yo'l oldi...

Tungi soat ikkilari edi. Osmonda yulduzlar charaqladi. Ularning har biri o'zicha pirpiraydi. Oy ham Sario'zak dasthi uzra yog'dusini ravshanroq socha boshladi. Go'yo u qayerdandir muttasil qo'shimcha quvvat olayotganga o'xshaydi. Yulduzli osmon ostida esa cheksiz yastanib ketgan ermanli² Sario'zak

¹ Sistemalar (lotincha: sistema – hovuz, havza; suv ombori) – 1) suyuqliklar, suyuq gazlar, to'kiladigan mahsulotlar saqlanadigan yoki tashiladigan ko'chma yoki stantsionar rezervuar, idish; 2) shunday rezervuar o'rnatilgan avtomobil, vagon va shu kabilar.

² Erman – murakkabguldozlar o'lasiga mansub ko'p yillik, to'p bo'lib o'sadigan o't.

dasthi savlat to'kib yotardi, berigi tomonda tuyalar, ularning orasida qo'sh o'rkachli pahlavon – Qorator Bo'ronning qorasi ko'rinar. Oydingda yana yaqin atroflardagi manzillarning ko'lagalari¹ ko'zga tashlanar, qolgan hamma narsa temir yo'lning ikki tomonidagi zim-ziyu tun cheksizligida g'oyib bo'lgan edi. Bedor shamol uvullab hushak chailib, yo'l atrofidagi tashlandiq qog'ozlarni shittiratgancha uchirib yurardi.

Edigey goh uyga kirib, goh chiqib, yo'lida Edilboy Daroz ko'rinish qolmasmikan, deb toqatsizlandi. Shu payt bir chekkada qandaydir jonivorni ko'rib qoldi. Bu jonivor – boyagi tulki edi. Ko'zlari yashil rangda tovlanib chagnaydi. U telegraf² ustuni ostida boshini xam qilganicha na yaqinlashishni, na qochishni bilmay turardi.

– Senga nima bor bu yerda? – g'udrandi Edigey shuncha-

ki po'pisa qilib tulki. Tulki bundan cho'chimadi. – Hali shunaqami! Hozir seni... – deb Edigey oyoqlarini tapirladi.

Tulki nariga sakrab qochdi-da, yana Edigeyga qarab o'tirib oldi. Edigeydanni yoki uning ortidagi allaqanday boshqa biror narsadanni, har qalay, ko'zini uzmay ma'yus termilib turdi. U qaydan va nima niyatda keldiykin? Elektr chiroqlari o'ziga tortimikin yo ochlik sudrab kelgannikin? Shunday kechada tulkingning paydo bo'lishi Edigeyga juda g'alati tuyuldi. O'lja o'z oyog'ida kelib turibdi, tosh bilan bir urib, qo'lga kiritisa-chi? Edigey yerni paypaslab, kattaroq tosh izladi. Mo'ljalga olib qulochkashladi-yu, ammo tosh qo'lidan tushib ketdi. Hatto terga boidi. Xayolga nimalar kelmaydi deysiz shunday chog'da! Tulkini tosh bilan urishga chog'lanayotganda bir narsa esiga tushib qoldi. Bema'ni gap, albatta. Kelib-keib yurgan odamlardan bittasi aytuvdi: bir suratlash bilan Xudoyi taolo to'g'risida gaplashib qolishgan edi, shekilli, o'sha odammidi yoki allagan-

Uning hidli mayda surg'ish-yashil, kakra barglari dori tuyayotlash uchun ishtirilladi.

¹ Ko'lagar, ko'lanika – 1) o'tob nuridan to'silgan joy; soyar; 2) kishi va narsalarning yotug'likka qarana-qarshi tomoniga tushadigan soyasi; 3) uzogda, qorong'ilikda, tumanda g'ira-shira ko'rimgan narsa; qora, sharga (bu yerda shu ma'noda).

² Telegraf (tele. + yunoncha: grapho – yozaman) – uzog masofalarga telegramma, radiotelegramma tarzida shoshilinch xabar uzatish yoki uni qabul qilib olish uchun xizmat qiladigan aloqa tizimi va uning vositalari.

day boshqa bir kimsa aytganmide... Yo'q, endi esiga tushdi. Sobitjon aytgan ekan; bolasi tushmagur doim g'alati gaplarni gapirib yuradi, odamlar quloq solaversa, hammaning og'zini ochib, hayron qoldirishni yaxshi ko'radi: ha-ya, odam o'lgandan keyin ruhi boshqa odamlarga yoki jonivorlarga ko'chib o'tishi haqida Kazangapning o'g'li Sobitjon gapirib bergan edi.

Vasayini boshimizga balo bo'lsin, deb o'qigan ekanmiz. Bir qarashda kiroyi yigiti. Hamma baloni biladi, hamma narsani eshigan, lekin bulardan naf yo'q. Uni internatda o'qitishdi, institutda o'qitishdi, lekin odam qilisholmadi. Ichib olib, maqtanishni yaxshi ko'radi, qadah aytishni do'ndiradi, ammo ish deganda yo'q. Xullas, puch yong'oq chiqdi, Kazangapning tirmog'iga ham arzimaydi. Diplomni ko'z-ko'z qilmasin, baribir, noshud chiqdi, otasiga tortmadi.

Mana shu Sobitjonning gapirib bershicha, Hindistonda shunday bir e'tiqod bor emishki, uning aqidasi bo'yicha odam o'lgandan so'ng joni qanday bo'lmasin, ishqilib, biror jonivorga, hatto chumoliga o'tib ketar emish. Yana uning aytishicha, har bir inson qachonlardir, tug'ilmasdan ilgari parranda yo hayvon, yoki hasharot qiyofasida yashab kelgan emish. Shuning uchun ham hindlarda har qanday jonivorni, hatto oddiy ilomni yoki ko'zoynakli ilomni, baribir, o'ldirish katta gunoh hisoblanib, yo'l-cho'lida uchrab qolgudek bo'lsa tegmasdan, ta'zim qilib, yo'l berib o'tisharkan.

Dunyoda g'aroyibotlar ozmi? Qay biri rost-u, qay biri yolg'on kim biladi, deysiz? Olam keng, inson esa hamma narsaning oxiriga yetolmaydi. Shuning uchun ham Edigey tulkini tosh bilan urib o'ldirmog'chi bo'lganida bu yana Kazangapning arvohi bo'lmasin, deb o'ylanib qoldi. Ehtimol, Kazangap o'lgandan so'ng kimsasiz, huvullagan kulbasida yolg'iz qolgani zerikib, tulkiya aylangan va qadrdon do'sti Edigeyni ko'rgani kelgan-dir?.. «Aqldan ozib qolmasaydim! – deb xavotirlandi Edigey

o'zicha. – Odam degan shunaga xayollarga ham boradimi? Tfu! Alahsitayapmami o'zi!»
Baribir, Edigey tulkiya asta yaqinlashib borib, xuddi u gapga tushunadiganday, so'z qoldi:

– Bor, bora qol, bu yerda ne qilasan, dalaga bor. Eshitingimi? Jo'nab qol. Faqat anov yozga yo'lay ko'rma, u yozga itlar bor. Xudoning maxluqi, dalaga jo'na.

Tulki shartta burilib, ohista yo'rib ketdi. Bir-ikki orqasiga qarab qo'ydi-da, shu bo'yi qorong'ilik qo'yinda g'oyib bo'ldi.

Bu orada bekatga yana bir poyezd kirib keldi. U asta-sekin yurish tezligini sekinlatganda vagonlar bir-biriga shag'irshuqur urilib, manzilga kelib to'xtadi. Orqasidan ko'tarilgan chang-to'zon vagonlar ustiga yopirilib, anchagacha yorug'da yall-yult etib, uchqunlab turdi. Motori bir maromda sekin guvullab turgan lokomotivdan mashinist boshini chiqarib:

– Ey, Edike, Bo'ron aka, assalomu alaykum! – dedi.

– Alaykum assalom!

Bu kim bo'ldi ekan, deganday Edigey uni yaxshiroq ko'rib olish uchun qayrilib qaradi. Bu yo'lida ishlayotganlar bir-birini yaxshi bilishadi. Yigit o'z odamlaridan ekan. Edigey Qumbeldagi bekat uyezdidagi yashaydigan Oyzodaga otasi dunyodan o'tganini xabar qilib qo'yishni shu yigitga tayinladi. Mashinist marhumning xotirasi xurmati uchun iltimosini bajonidil bajo keltirishni zimmasiga oldi. Buning ustiga, Qumbelda poyezd brigadalari almashadi, qaytishda – agar Oyzoda ulgursa – hatto birga olib kelishga ham va'da berdi.

U ishonchli odam edi. Edigey yana bir ish bitdi, deb o'zini yengil his qilganday bo'ldi.

Bir necha daqiqadan so'ng poyezd o'rtidan qo'zg'aldi. Edigey mashinist bilan xayr-xo'shlashar ekan, o'zi tomon temir yo'l yozgalab kelayotgan uzun bo'yli allakinga ko'zi tushdi. Bu kishi – Edilboy edi.

¹ Internat (lotincha: internus – ichki) – 1) o'quvchilari davlat tomonidan ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlanadigan o'quv yurti (bu yerda shu ma'noda);
²) nogironlar va nuroniy kexsalar uyi; 3) o'quv yurti qoshidagi o'quvchilar yotoq'i.

Edigey navbatchilikni topshirdi, Edilboy Daroz bilan yuz bergan voqea haqida gaplashib, Kazangapni eslab, oh-voh qilishguncha, «Bo'ronli»ga yana bir juft poyezd kelib, ajralib ketishdi. Mana shu yumushlaridan bo'shab, uyiga yo'l olar ekan, Edigey kechasi xotiniga Kazangapning o'limi haqida o'zlarining qizlari-yu kuyovlariga xabar qilish zarurligini aytishni yodidan chiqaribdi, to'g'risi, maslahat solmabdi. Edigeyning turmushga chiqqan ikkita qizi butunlay boshqa tarafdadi. Qizil O'rda yaqinida turishardi.

To'ng'ichi sholichilik xo'jaligida yashaydi, eri – traktorch. Kenjasi ilgari Kazali yaqinidagi bekatda yashardi, so'ng opasiga yaqinroq bo'lish uchun oilasi bilan o'sha xo'jalikka ko'chib kelishdi, kuyovi haydovchi bo'lib ishlaydi. Kazangap garchi ularning tug'ishgan kishisi bo'lmas-da, Edigeyning o'y-lashicha, har qanday tug'ishgandan ortiq edi. Qizlari «Bo'ronli»da Kazangapning ko'z o'ngida tug'ilib, shu yerda voyaga yetishdi, so'ng Qumbel bekatidagi maktab-internatda o'qishdi. Ularni dam Edigey, dam Kazangap olib borib qo'yardi. Edigey kichik qizalog'ini esladi: u ta'tilga chiqqanida tuyaga mindirib kelishar va ta'til tugab, o'qish boshlanganida yana olib borishar edi. Kichigi oldinda, o'rta otasi, orqada esa katta qizi – uchaloqi tuyaga mingashishardi. Qorator shu zaylda katta-katta qadam tashlab, «Bo'ronli»dan Qumbelgacha uch soat, qishda esa undan ham ziyod yo'l bosardi. Edigeyning vaqti tangligida qizaloqlarni Kazangap olib borardi. U bolalarga xuddi o'z otalariday bo'lib qolgan edi. Edigey ertalab telegramma¹ yuborishga qaror qildi, u yog'ini yana o'zlarini bilishardi. Har holda, Kazangapning dunyodan o'tganidan xabardor bo'lishin...

So'ng yo'lida keta turib, ertalab birinchi galdagi Qoratorni o'lib yurgan yeridan olib kelish zarurligini o'yladi. Axir, u shunday paytda ish bermasa, qachon ish beradi. O'limning o'zi

¹ Telegramma (tele. + yunoncha: gramma – yozuv) – telegraf orqali uzatilgan yoki qabul qilib olingan shoshilinch xabar, hujjat va shunday xabar yozilgan qog'oz.

bo'lmaydi, ammo uni o'rninga qo'yib ko'mish ham oson ish emas... Vaqt tangligida hali u yo'q, hali bu yo'q, deb qotishadi. Kafandan tortib, ta'ziyada yoqiladigan o'tingacha – hammasi uchun yugur-yugur boshlanadi.

Xuddi shu mahol allaqanday dahshatli gumburlagan ovozi yer-u ko'kni larzaga keltirdi. Bu ovozi urush kezlari o'lsida portlagan bomba vahshatini eslatardi. Edigey dastning ancha ichkarisida – kosmodrom o'sha yoqda joylashgan bo'lsa kerak, deb o'zicha mo'ljallab yurgan tomonda tobora alanganib, loyullab, yashin tezligida yuqoriga ko'tarilib borayotgan allaqanday olovli quyumni ko'rdi. U osmonga raketa uchirilganini ko'rib, sarosimaga tushib qoldi. Bunday manzarani ilk bor ko'rish edi. Barcha Sario'zakliklar qatori Edigey ham bu yerdan qirg' chiqirinar chamasi narida, balki, undan ham yaqinroqda – «I-Sario'zak» kosmodromi joylashganini, u yoqda «Tug'ruq Tom» bekatidan alohida temir yo'l tarmog'i ketganini bilardi. Hatto, o'sha yoqlarda dastlikda katta magazinlari bo'lgan kattakon shahar qad ko'targan, deyishardi. Fazogirlar, kosmik parvozlar to'g'risida radiodan, odamlarning subbatidan ko'p marta eshitgan, gazetalardan o'qigan edi. Bu gaplarning hammasi Sobitjon yashaydigan viloyat markazidagi shaharda, badiiy havaskorlar konsertida aytilardi. Shahar esa bu yerlardan ancha olisda – poyezdda bir yarim sutkalik yo'l. Shunga qaramay, kichikintoylar faxrlanib: «Biz dunyoda eng baxti bolalarimiz, chunki fazogir amakilar fazoga bizning yerimizdan ko'tariladi», – deb xor bo'lib qo'shiq aytilishardi. Lekin kosmodrom va uning atroflari yopiq hudud bo'lganidan, Edigey shu atrofda yashasa ham, o'qiganlari va eshitganlari bilangina qanoatlanardi. Mana, endi raketaning alanganib loyullab, butun atrofini yoritib, zim-ziyo yulduzli osmonga ko'tarilganini o'z ko'zi bilan birinchi marta kuzatishi. Edigey hayratdan yoqa ushladi: nahotki, shu o't-olov ichida odam o'tirgan bo'lsa? Bittamikin yoki ikkitamikin? Nimaga shuncha vaqtdan beri shu yerda yashab, raketaning parvozini ko'rmagan ekan, axir, koinotga nechanchi marta parvoz qilinishi – hisobiga ham yeti olmayasan. Balki, oldinlari kosmik kemalar kunduzi uchgandir? Quyosh nurida shunchalik uzoqlikda nima

uchganini farqlash ham qiyin. Buni nega tunda uchi ekan? Qistov bo'ldimkin yoki o'zi shunday bo'lishi kerakmi? Ehtimol, yer yuzidan tunda ko'tarilsa ham, u yerga yetganda, balki, kunduzi bo'lar? Bir kuni Sobitjon xuddi o'zi kosmosda¹ bo'lganday gapirib bergan edi: u yogda kecha bilan kunduz har yarim soatda almashib turar emish. Yana Sobitjondan so'rab ko'rish kerak. U hamma narsani biladi. Bilimdonlikni, o'zini martabali odam qilib ko'rsatishni biram yaxshi ko'radiki, asi qo'yavering. Viloyat markazida yashayotganidan g'ururlanadi. Mug'ambirlik qilmasa, nima qilarkin? Nima keragi bor? Qanday bo'lsang, shunday yuravermaysammi? Lekin u: «falon kattakon bilan birga bo'ldim, unga falon gapni aytdim», – deb maqtangani-maqtangan. Bir kuni Edilboy Daroz Sobitjonning ishxonasiga borib qolganini gapirib bergan edi. Uning aytishicha, bizning Sobitjon uzzukun telefon oldida o'tirar, boshliqning xonasi bilan gubul-xona o'rtasida bo'zichining mokisiday yelib-yugurar: «Eshitaman, Alijapar Qahramonovich! Xo'p bo'ladi, Alijapar Qahramonovich! Hozir, Alijapar Qahramonovich!» – deyishdan boshqa narsaga ulgurmas ekan. Boshlig'i esa kabinetida o'tirib olib, tugmachani bosishga zo'r berarkan. Shu tariqa Sobitjon bilan odamga o'xshab ikki og'iz gaplasha olmadi... «Bo'ronli»dan chiqqan hamsoyamiz shunaqaykan, bilmay yurgan ekanmiz, deydi. Bo'lgan-turgani shu bo'lsa, nimayam qilardi... Fagat Kazangapga iching achiydi. O'g'lim, deb ko'p azob chekdi. Umrining oxirgi kunlarigacha o'g'liga biron og'iz yomon gap aytinadi. Bir yili o'g'li bilan kelini yalinitib-yolvorib shaharga o'zlarinikiga olib ketishdi. Oxiri nima bo'ldi? Bu yog'i boshqa gap...

Mana shunday o'y-xayollarga berilgan Edigey qoq-saharda, kosmik raketa osmonda ko'zdan butunlay g'oyib bo'lganicha kuzatib turdi. Kuzatganda ham, mo'jizani uzoq kuzatdi. Olovni kema borgan sari kichirayib, ko'zdan yiroqlashib, tuman yanglig'i oq nuqtaga aylanib tubsiz zulmat ichiga kirib borarkan,

¹ Kosmos (yunoncha: cosmos – butun olam; koinot) – Yer atmosferasidan tashqarida cho'zilish ketgan, o'zida mavjud bo'lgan barcha obyektlarni ham qamrab olgan fazo, yer atrofidagi fazo.

Edigey hayrardan bosh chayqab, ajib, ziddiyatli hissiyotlar og'ushida yo'lga tushdi. Mo'jizadan hayratlanar ekan, ayni chog'da bu mafunkor va dahshatli voqeaning unga hech qanday aloqasi yo'qligini angladi. Shu mahal yana haligi, temir yo'ldan yugurib o'tgan tulki yodiga tushib ketdi. Kimsasiz cho'ldagi bu olov quyuni unga qanday ta'sir qildi ekan? Ehtimol, dahshatdan o'zini qo'yargu joy topolmay qolgandir?..

Biroq tungi parvoznig shohidi bo'lgan Edigey fazogir boshqargan kosmik kema «Partey» samoviy bekatida yuz bergan favqulodda hodisa ekanini – falokat tufayli shoshilinch ravishda uchirilganini, bu parvoz hech qanday tantanalarsiz, jurnalistlarning qatnashuvsiz pinhona amalga oshirilganligini bilmasdi. Bilishi ham mumkin emasdi. Shartli ravishda «Tramplin» deb atalgan orbitada¹ bir yarim yildan beri «Partey» samoviy bekatida ishlab turardi. Bularning hammasini Edigey qayoddan bilsin? Bu voqea unga, uning hayotiga ham ta'sir etishini – inson va insoniyatning uzviy aloqasi deb atalmish olamshumul hodisa sababligina emas, balki to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatishini – hali xayoligayam keltirmasdi. Sario'zakdan kosmik kema uchirilganidan so'ng oradan ko'p o'tmay sayyoramizning narigi chekkasida, Nevada kosmodromidan xuddi «Partey» bekatiga qarab, o'sha «Tramplin» orbitasi tomonga Amerika kosmik kemasi uchirilgani, faqat u teskari tomondan yo'l olgani Edigeyning tushiga ham kirmagan edi.

Fazoviy kemalar Sovet – Amerika «Demiurg» Qo'shma dasturi boshqarish markazining okeandagi suzib yuruvchi bazasi bo'lmish «Konvensiya» ilmiy-tadqiqot aviabardoridan² yuborilgan buyruqqa ko'ra, shoshilinch suratda kosmosga uchirilgan edi.


«Konvensiya» aviabardori o'zining doimiy manzilida – Tinch okeandagi Aleut orollarining janubiy qismida, ya'ni Vladivostok bilan San-Fransiskoning taxminan o'rtasidagi

¹ Orbita (lotincha: orbita – yo'l, iz, bo'shliq, chugurlik) – ixtiyoriy tabiiy yoki sun'iy kosmik jismlar fazoda boshqa osmon jismlariga nisbatan harakatlanish yo'li.

² Aviabardor – kosmik kemalarni kosmosga uchirishga yoki kosmosda ularni qo'ndirishga mo'ljallangan stansiya.

kvadrata turardi. Qo'shma Markaziy Boshqarma – Qo'shmar-bosh – shu mahal ikkala kosmik kemaning «Traplın» orbitasiga chiqishini sinekov kuzatmoqda edi. Hozircha hamma ishlar ko'ngildagiday borar, endi «Paritet» kompleks¹ bilan kosmik kemalarni tutashirish ishlari qolgani edi. Vazifa nihoyatda murakkab – kemalar samoviy bekat bilan mayyan vaqt orali-g'ida navbatma-navbat emas, balki uning ikki tomonidan bir vaqtning o'zida bab-baravar tutashirish zarur edi.

«Konvensiya»dan Qo'shmarbosh yuborayotgan signal-larga «Paritet» samoviy bekati javob bermay qo'yganiga o'n ikki soatdan oshib ketdi. Bekat tutashish uchun borayotgan kemalar-ning signalini ham javobsiz qoldirdi. «Paritet» fazogirlariga nima bo'lganini aniqlash kerak edi.



Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qop-langan hayhotday dastlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi.

Har qanday masofa Grinovich meridianidan o'lgangan singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'lganadi.

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

«Bo'ronli» bekati dan to Naymandagi xesh-ajdodlar qabristoni Ona Bayitgacha temir yo'ldan hisoblaganda, kamida o'tiz chaqirim keladi. Sario'zak dastligi orgali to'ppa-to'g'ri kesib chiqilganda ham shuncha masofa. Mabodo cho'lda adashib qolmayin-u, yaxshisi, temir yo'l bo'ylab boraveray, degan odam qabristonga hali ancha uzoq yurishi kerak. Shunday qilganda, «Qiyshiqsoy» jarligidan o'tib, Ona Bayitga borguncha ancha-

muncha aylanishga to'g'ri keladi. Boshqa yo'l yo'q edi. Shunday qilib, eng yaqin yo'ldan yurilganda ham borishi-yu kelishi oltinchi chaqirim kelardi. Ona Bayit qabristoniga borish yo'lini bo'ronliklardan fagat Edigeygina bilardi, xolos. Qadimiy Ona Bayit qabristoni haqida xalq orasida turli rivoyatlar aytilib kelin-ganini odamlar eshitishga eshitgan-u, bu gaplar haqiqatni yoki afsonani – hech kim bilmasdi; u yerni o'zlari borib ko'rmagan, borishga ehtiyoj ham tug'ilmagani edi. Yo'l ustidagi sakiz xonadonli qishloqchadan uzoq yillar mobaynida endi o'lik chiqa-yotgan edi. Bundan ancha yil avval bir norasida qizcha damqisma¹ kasalidan nobud bo'lganida, ota-onasi uni o'z vatani – O'rol viloyatiga olib ketishgan. Kazangapning xotini Bo'key kampir bir necha yil avval Qumbeldagi kasalxonada qazo qilga-nida, uni «Bo'ronli»ga olib kelish hojati yo'qligidan bekat qabristoniga ko'mib qo'ya qolishgan edi. Qumbel Sario'zak dastlidagi eng katta bekat bo'lib, qizi Oyzoda kuyovi bilan o'sha yerda turadi. Kuyovi noshudroq, ichkilikka berilgan bo'lishiga qaramay, har holda o'z kishilari emasmi, kichkinagina qabrga ko'z-quloq bo'lib turishadi. Lekin u vaqtda Kazangap hali hayot edi, o'zi bilganicha ish tutardi.

Hozir esa o'yay-o'yay odamlarning boshi qotdi. Baribir, Edigey o'z gapida turib oldi:

– Qo'ysalaring-chi, yigiting sha'niga to'g'ri kelmay-digan gaplarni, – deb tinchlantirdi u yoshlarni. – Bunday odamni ajdodlari yotgan joyga, Ona Bayitga qo'yishimiz kerak. Rahmati o'zi shunday vasiyat qilgan. Kelinglar, gap sotib o'tirmay ishga o'taylik, dafnga tayyorlanaylik. Yo'limiz olis. Ertaga azonlab yo'lga tushamiz...

Edigeyning ayrgani-ayrgan, buni hamma tushunardi. Shuning uchun ham hamma rozi bo'lishdi. To'g'ri, Sobitjon biroz tixirlik qildi. U shu kuni yuk poyezdida (yo'lovchi poyezd-lari bu yerda to'xtamay o'tib ketadi) yetib keldi. Sobitjon bu yoqqa kelayotganida otasining tirikligini ham, o'lganini ham

¹ Kompleks (lotincha: complexus – aloqa, bog'lanish; qo'shib, qamrab olish) – bir butunni tashkil qiluvchi narsalar, hodisalar, belgi-xususiyatlar majmua, yig'indisi.

¹ Damqisma, astma – bronxlar teshigining to'stadan torayib qolishi yoki yurak kasalliklari natijasida tutadigan bo'g'itilish xuruj.

bilmasdi. Shunga qaramay, dafn marosimiga yetib kelgani Edigeyning ko'nglini yumshatib, quvontirib yubordi. Boshlariga tushgan og'ir musbaddan ikkalasi bir lahza quchoqlashib, yig'isig'i qilib olishdi. Edigey keyinroq o'zining nega bunday qilganiga ajalandi. Sobitjonni ko'ksiga bosib mahkam quchoqlaganicha, o'zini tutolmay hiqillab yig'lab yubordi: «Yetib kelganing yaxshi bo'ldi, chirog'im, kelganing yaxshi bo'ldi», — dedi u go'yo o'g'ilining kelishi Kazangapni titirib yuborayotganday. Hech qachon u bunday holatga tushmagan edi, bu gal esa qanday yig'lab yuborganini o'zi ham bilmay qoldi. Ikkalasi hovli sahnida — Kazangapning egasiz qolgan paxsa devorli kulbasi eshigi oldida — uzoz yig'lab turishdi. Edigey nimadandir qatitq ta'sirlanganday bo'ldi. Sobitjonning yoshlik chog'lari esiga tushdi: u mushday bola edi, otasining suyanchig'i edi. Temiryo'chi-larning bolalari uchun Qumbelda ochilgan maktab-internatga olib borib joylashtirganlari yodida. Qo'llari bo'shadi deguncha, goh yo'lovchi poyezdda, goh tuyada ko'rgani borishardi. Sobitjon yotoqda qanday yashayapti, birov xafa qilmadimikin, o'zi biror nojo'ya ish qilib qo'ymadimikin, o'qishlari qalay ekan, o'qituvchilari u haqda nima derkin, deb xavotirlanib borishardi. Ta'til tugagan paytlari o'qishga kechikib qolmasin, deb ayoqli kunda necha marta lab po'stinlarga o'rab, tuyada qalin qor bosgan Sario'zak dashtligi orqali olib borib qo'yishardi.

Eh, u vaqtlar ham o'ldi! Hammasi tush ko'rganday o'ldi-ketdi! Mana endi qarshingda qiyofasidan yoshlik davri arang seziladigan ukki ko'zli, doim kulib turuvchi kattagina kishi turibdi. Endi u ko'zoynak taqib olgan, boshida tepasi bukib qo'yilgan shlyapa, bo'yunda urinib qolgan bo'yinbog' — zo'rg'a tanib olasan. Hozir viloyat markazida yashaydi, o'zini g'oyatda martabali, mehnatkash qilib ko'rsatishga intiladi. Lekin hayot ayab o'tirmaydi, aytganing bo'lavermaydi. Boshliq bo'lish oson emas, durustroq suyanchig'im yoki osma-og'aynim, qarindosh-urug'im bo'lmasa, deb hasrat qilgan edi o'zi necha bor. Kimman, allaganday «Bo'ronli» bekatida ishlaydigan allaganday Kazangapning o'g'iliman-da. Peshanam sho'r ekan. Endi shu otadan ham ayrilib o'tiribman. Asli o'zi nobop ota edi. Lekin — yomon

bo'lsa ham — otaning tirik yurgani yaxshi, otang ming dongdor bo'lmasin, o'lgandan keyin o'lik-da. Mana, endi o'sha yomon ota ham yo'q...

Ko'z yoshi qilib olishgach, hol-ahvol so'rashga o'tishdi, ishdan gap ochishdi. Shu lahzada ma'lum bo'lib qoldiki, arzanda, biyag'on o'g'il otasini izzat-ikrom bilan ko'nglidagidek dafn etishga emas, balki qarzdan qutulish uchun naridan beri ustiga tuproq tortib, tezroq qaytib ketishga kelgan ekan. U g'alati-g'alati gaplarni aytib boshladi: marhumni uzundan uzoz Ona Bayriga olib borib nima qilamiz, shunday ulkan Sario'zak cho'li-da bir qabrga joy topilmadimi? Ostonadan boshlab dunyoning narigi chekkasigacha joy degan narsa to'lib-toshib yotgan bo'lsa? Qabrni shu yaqin o'tradan, o'zi umr bo'yi ishlab kelgan temir yo'l bo'yidagi biror do'nglikdan qazish kerak. Marhum o'tgan-ketgan poyezdlarning taraqa-turugini eshitib yotadi... Sobitjon hatto shu xususda aytiladigan qadimiy maqolni ham eslab qo'ydi: o'ladiigan odamning o'lgani yaxshi, ketadigan odamning kelgani yaxshi. Munchalik cho'zib, bosh qotirib o'tirishning kimga keragi bor? O'lgan odamga qayerga ko'milishining nima ahamiyati bor? Bunday mahalda ish qancha tez bitirilsa, shuncha yaxshi!

Sobitjon shu gaplardan keyin o'zini oqlab ham qo'yardi: idorada juda shoshilinch, zarur ishlar qolib ketyapti, vaqt bo'lsa tig'iz, o'zlaringga ma'lum, boshliqlarimiz qabristonning uzoz-yaqinligini surishtirib o'tirishmaydi, ishga falon kuni, falon soatda kelasan, boshqasini bilmayman, deydi. Boshliq nima degandayam boshliq har holda, shaharning sharoiti bo'lak...

Edigey, qariganimda ham ahmoq ekanman, deb o'zini koyiy boshladi ichida. Mana shu laqma bilan sal avval quchoqlashib, ho'ngrab yig'lab yuborganidan nomus qilib, afsuslandi. Kazangapning o'g'li bo'lsa ham ablah ekan. Edigey o'midan turti. Devor tagiga o'rindiq qilib yog'och shpal qo'yilgan bo'lib, o'rindiqda besh kishi maslahatga yig'ilishgan edi. Edigey ko'pchilikni oldida bir nima deb yubormaslik uchun o'zini arang tiyib turardi. Shunday gayg'uli bir kunda odamlar ichida haqorat gap

aylsa, yaxshi bo'lmaydi. Kazangapning xotirasi hurmatini qildi. Shuning uchun u yotig'i bilan tushuntirdi:

– Atrofta yer ko'p, albatta, istaganingcha topiladi. Faqat odamlar nimagadir yaqinlarini duch kelgan yerga ko'mib keishavermaydi. Har holda, bejiz bo'lmasa kerak. Axir, o'likka yer qahatmi? U jimib qoldi, «Bo'ron!» ahli ham uning gaplarini jimgina tinglashdi. – O'zlaring hal qilinglar, o'ylab ko'ringlar, men u yozda nima bo'layotganini bilib kelayin-chi.

Edigey avzoyi buzilib rangi-quti o'chgancha, nariga odimlab ketdi, gumohdan uzog'roq bo'layin, deb o'yladi, shekilli. Qoshlari chimirilib, qansharidagi ajini bo'rtib chiqdi. Tabiatan qo'rroq qiziqqonroq edi u, shuning uchun ham uni «Bo'ron» deb atashadi-da. Mana, hozir ham odamlar bo'lmaganida Sobitjonning hayosiz ko'zlariga tikilib turib, aytadiganini aytib olardi-ya. Umr bo'yi esidan chiqmaydigan qilardi. Ammo xotinlarga o'xshab, pachakilashib o'tirishni xohlamadi. Mana, xotinlar g'azablanib, shivir-shivir qilishyapti: otasini ko'mishga emas, meh-monga kelganga o'xshaydi. Ikki qo'lini burniga tiqib kelaveribdi. Bir quti choy kimni o'ldiribdi, boshqasini qo'yavering. Xotini-chi, shaharlik kelimish, odamga o'xshab izzat-hurmati bilan kelib, ko'p qatori urf-odat yuzasidan aytib-eshitib yig'lasa, biron yeri kamayib qolarmidi? Na uyat, na vijdon bor ularda. Choh ko'zi tirikligida, bir juft sog'in tuyasi, o'n-o'n beshta qo'y-qo'zisi borligida yaxshi edi. O'shanda kelin hech kimni holi-joniga qo'ymay, jamiki narsani pullab, yoniga urdi. Cholni uylariga olib kelganday ham bo'lishdi, o'zlari bir yo'la mashina olib, hamma yoqlarini mebelga to'ldirishdi. Keyin esa choh ularga kerak bo'lmay qoldi. Hozir qorasini ham ko'rsatmaydi. Xotin-xalaj shularni aytib, to'polon qilishmoqchi edi, Edigey bunga yo'l qo'ymadi. Bunaqa qila ko'rmanlar bunday kunda ortiqcha so'z bo'lishi mumkin emas, bu bizning ishimiz ham emas, u yog'ini o'zlari o'ylab ko'rishsin, dedi.

Edigey qo'ra tomonga yurdi. U yerda onda-sonda dar-g'azab bo'lib bo'kirayotgan Qoronor Bo'ron bog'log'liq turar, uni o'tlab yurgan joyidan olib kelishgan edi. Agar ikki marta suv so'rg'ich nasos oldidagi quduqqa sug'orishga olib kelinganini

hisobga olmaganda, Qoronor bir haftadan beri kecha-yu kunduz o'z erkiga qo'yib qo'yilgan edi. Erkin yurib o'rganib qolgan bu yaramas endi qo'lga ko'nikolmay, yirik tishli jag'larini katta ochib, vaqt-vaqti bilan bo'kirib, norozilik bildirib qo'yardi. Lekin ko'nikishga majbur. Ko'nikmasdan iloji qancha.

Edigey Sobitjon bilan bo'lgan subhaddan so'ng ta'bi xira tortib, Qoronor oldiga bordi. Shunday bo'lishini u oldindan sezgan edi. Sobitjon otasining o'limiga kelganini minnat qilayotgan bo'lsa, jini qo'zimay nima ham qilsin. Unga otaning o'limi ortiqcha yukday, bu-yukdan tezroq qutulishga harakat qilardi. Edigey ortiqcha gapirishni lozim ko'rmasdi, baribir, hamma og'irlik o'zining gardaniga tushardi. Har holda, qo'ni-qo'shni ham o'zlarini chetga olishmadi. Ko'pchilikning sadag'asi ket-sang arziydi. Temir yo'lida zarur ishi bo'lmagan kishilarning hammasi shu yerda, ertangi dafn marosimiga va ma'raka oshiga tayyorgarlik ko'rish uchun yordamga tutinibdi. Xotin-xalaj uy-ma-uy yurib idish-tovoq yig'ishdi, samovarlarni tozalashdi, xamir qorib, non yopa boshlashdi. Erkaklar suv tashib keltirishdi, ishdan chiqqan eski shpallarni arralab, o'tin tayyorlashdi. Dasht-da o'tin-cho'p xuddi suvday aziz.

Bu ishlarga faqat Sobitjonga xalal berardi. Viloyatda kim qaysi vazifada ishlaydi, kimni ishdan olib, kimning amalini oshirishgani to'g'risida gap sotib, odamlarni ishdan chalg'itardi. Qaynatasining o'limiga kelin bola kelmaganidan u zararcha ham xijolat tortmasdi. Ajabo, deya yoqasini ushlardi Edigey, emishki, kelin allaqanday konferensiyada¹ qatnasharmish, ana shu yig'in-ga qandaydir chet ellik mehmonlar tashrif buyurarmish. Cholning nevaralarini olib kelish to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Ular o'zlashitirish va davomat uchun kurashar ekanlar, institutga kirmoqchi bo'lgan odamning shahodatnomasi² toza bo'lishi ke-

¹ Konferensiya (*lotincha*: *conferentia* – bir joyga; yig'ilish) – biron masalani muhokama qilish, hal etish uchun hukumat, partiya, ijtimoiy, ilmiy va shu kabi tashkilotlar vakillarining muayyan masalaning muhokamasi va yechimiga bog'liqlangan majlisi, yig'ilishi.

² Shahodatnoma (shahodat + noma) – 1) biron o'quv maskini (odatda, maktabni) namomlaganlik haqidagi rasmiy hujjat (bu yerda shu ma'noda); 2) biron fakti, bo'lib o'tgan voqea yoki holatni tasdiqlaydigan rasmiy hujjat, guvohnoma.

rak ekan. «Odamlarga nima bo'lgan o'zi! — deya xunob bo'ldi Edigey. — Ularga o'limdan boshqa hamma narsa muhim! — Bu fikr Edigeyning ich-etini timardi. — Modomiki, ularga o'lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?»

Edigey zahirini Qoratorga sochdi:

— Namuncha o'kirasan, ajdarho? Osmonga qarab bo'kirganing-bo'kirgan, ovozinmi Olloh eshitadi deb o'ylaysanmi? — Edigey nihoyatda jahli chiqqan paytlardagina tuyasini «ajdarho», deb so'kar edi. O'tgan-qaytgan yo'lovchilar Qorator Bo'ronning naqadar katta og'zi va yirik tishlarini ko'rib, shunday atagan edilar. — Ko'pam baqiravermagin, ajdarho, tishlaringni qoqib olaman!

Tuyani jabduqlash kerak edi. Edigey shunga ovora bo'lib, o'zini yengil his qildi va tuyasiga zavq bilan qarab qo'ydi. Tuyasi qumag'ur, o'ziyam bahaybat va kelishimli edi. Garchi Edigey bo'ychan bo'lsa ham, tuyasining boshiga qo'li yetmasdi. U tuyaning bo'yiga osilib olganicha ovoq solib qanchi dastasi bilan qadoq bosib ketgan tizzalariga sekin urdi-da, oxiri uni cho'ktirdi. Tuya bo'kirib qarshilik ko'rsatsa ham, bartbir, egasining amriga bo'ysundi. Oyoqlarini yig'ib, yerga cho'kkach, Edigey unga jabduq ura boshladi.

Tuyani rosmana jabduqlash ham imorat qurish singari o'ziga xos san'at. Jabduq har safar butunlay yangidan uriladi. Hadisini olmagan kishi buning uddasidan chiqolmaydi.

Yana, uning ustiga, ancha-nuncha kuch ham sarflashga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Qoratorga o'xshash haybatli tuyalarni aytimsizmi.

«Qorator» deb uni bejiz aytmaydi. Jinalak yungdor kallasi qop-qora, bo'yin ostidan tizzasigacha o'sib osilib tushgan qalin va dag'al yollari — bu nortuyaning asosiy bezagi hisoblanadi — minora singari yuqoriga ko'tarilib turgan egiluvchan qo'sh o'rkachlarning cho'qqisi qop-qora, va nihoyat kalgagina dumchasining uchi ham qop-qora. Qolgan hamma qismi: ustki labi, to'shi, yon tomonlari, ovoqlari, qorni, aksincha, oqimtir tusta,

och kashtan rangda edi. Shuning uchun ham Qorator Bo'ron ma'lum va mashhur edi. U endi o'tiz yoshlarga yaqinlab, qaddiqomati kelishgan, ayni kuchga to'lib yetilgan payti edi.

Tuyalar uzog' yashaydi. Ehtimol, shuning uchundir fagat besh yoshida bolalaydi, keyin yil sayin tug'masdan ikki yilda bir tug'adi, homiladorlik muddati ham boshqa hayvonlarga nisbatan uzog'roq — o'n ikki oyga cho'ziladi. Eng muhimi, bo'talog'ini dastlabki bir-bir yarim yilgacha shamollatib qo'ymaslik kerak. U yog'iga kundun kunga o'saveradi, na yozning issig'i, na qishning sovug'i, na dashing qurg'og'chiligi unga pisand emas...

Edigey bu ishda usiasi tarang edi. U Qorator Bo'ronni doimo sidqidildan parvarish qiladi. Tuyaning sog'lom va baquvat ekani uning cho'yanday qo'sh o'rkachi dikkayib turganidan bilinadi. Edigey urushdan qaytib kelib, «Bo'ronli»ga o'rmashtib olgan dastlabki yillarda do'sti Kazangap unga suday oppoqina, o'rak bolasiday mayin yungli emizikli bo'talog'ni sov'ga qilgan edi. Edigeyning o'zi ham u vaqtlarda hali yosh, qirchillama yigit edi! Sochi oqarib, qariguniga qadar shu yerlarda yashab qolishi uning yetti uxlab tushiga ham kirmagan. U yoshligida tushgan suratlarga qarab ko'ziga ishonmaydi. Hozir tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketgan: soch-soqoli moshguruch, hatto qoshlarigacha oq oralagan. Afti-angori o'zgargan bo'lsa ham, shuncha yoshga kirib, qaddi-bastini unchalik yo'qotmagan edi. Qarilik ham qanday kelganini bilmay qoldi: avval mo'ylov, so'ng soqol qo'ydi. Endi esa soqol-mo'ylovsiz yurishni tasavvur ham qilolmaydi, go'yo yalang'och yurganday sezadi o'zini. O'shandan beri butun bir davr o'tib ketdi, desa bo'ladi.

Mana, hozir ham cho'ktirilgan tuyasiga jabduq ura turib, uzun bo'yini uzra jinalak yung, qop-qora kallasini burib, jini qo'ziganicha sher kabi bor ovozda bo'kirayotgan Qoratorni goh tovush solib jilovini tortib, goh qo'l sirpab o'z izmiga bo'y-sundirar ekan, ish orasida Edigeyning o'tmishi esiga tushib, boshidan kechgan vogalar birin-ketin ko'z o'ngida gavdalanaverdi. Shunda borgan sari jahldan tushib, ko'ngli taskin topa boshladi...

Edigey tuyani hafsala bilan, erimmasdan uzoq jابدۇladi. Jابدۇq urishdan avval u bu safar to'y-ma'arakalardagina yopiladigan popukli, rangdor bezakli g'ilamni eslatuvchi qadimiy yopiqni yopdi. Ukkubola ko'z qorachig'iday chityot qilib saqlab qo'ygan bu noyob yopiqni Qoronor ustiga oxirgi marta qachon yopganini esloimadi. Vaqti kelib, shunday kunga nasib qilgan ekan...

Qoronor Bo'ronga jابدۇq urib bo'lgach, Edigey o'rmi-dan turg'azdi va jussasini ko'rib mamnun bo'ldi. Hatto o'z ishidan g'ururlanib ham qo'ydi. Ustiga rango-rang gajimli yopiq tashlangan, o'rkachlari o'rtasiga qoyilmagom qilib egar urilgan Qoronor salobati va mahobati ko'rinar. Ha, yoshlar ko'rib havas qilishsin, ayniqsa Sobitjon ko'rib qo'ysin: munosib yashab o'tigan odamning o'limi ham hech kimga malol kelmaydi, tashvishi tushmaydi, aksincha, qayg'uli voqea bo'lsa-da, juda katta voqea ekanini, shu boisdan ham so'nggi manziliga izzat-hurmat bilan uzatilyotganini bilib qo'yishsin. Ba'zi xalqlarda dafn marosimida musiqqa chalishadi, bayroq ko'tarib borishadi, ba'zi xalqlarda osmonga o'q uzishadi, boshqa xalqlarda esa gulchambarlar qo'yib, marhumni gulga burkashadi...

Edigey Bo'ron bo'lsa, ertaga tongdayoq popukli yopiq tashlangan Qoronor Kazangapni so'nggi abadiy manziliga — Ona Bayit mozoriga olib boradi... Poyonsiz, hayhotday Sario'zak dashtini kesib o'tishar ekan, u yo'l bo'yi faqat Kazangapni o'yilab borardi. Xesh-ajdodlar qabristonida do'stini tuproqqa uzatayotganida ham xayoli faqat marhumda bo'ladi. Ha, shart shundoq bo'lgan. Yo'lning uzoqligi yoki yaqinligidan qat'i nazar, hech kim, hatto marhumning o'z o'g'li ham uning so'nggi xohish-irodasini bajarishdan bo'yin tovlay olmaydi...

Xuddi shunday bo'ladi, buni hamma bilib qo'ysin. Qoronor ham xuddi shu maqsadda jابدۇqlanib, shay qilib qo'yilgan.

Hamma ko'rib qo'ysin! Edigey shu niyaida Qoronor ni uylar atrofidagi mol qo'ralari oldidan birma-bir yetaklab o'tib, Kazangapning paxsa devorli kulbasi oldiga bog'lab qo'ydi. Hamma ko'rib qo'ysin. Edigey Bo'ron o'z so'zining ustidan chiqmasdan qo'ymaydi. Ammo buni isbotlab o'tirishning hojati

yo'q edi. Edigey jابدۇq ishlari bilan ovora bo'lib turgan vaqtda Edilboy Daroz, payt topib, Sobitjonni bir chekkaga chaqirib oldi:

— Qani, bu yoqqa soyaga kel, gaplashib olaylik.

Gap uzoqqa cho'zilmadi. Edilboy ortiqcha tushuntirib o'tirmay, gapning po'stkallasini aytdi-qo'ydi:

— Xudoga ming qatla shukr qilgin, yaxshiyamki olamda otangni Edigey Bo'ron degan do'sti bor ekan. Rasm-rusmini o'miga qo'yib, dafn etishga sen xalal berma. Shoshilayotgan bo'lsang, ushlab turganimiz yo'q. Men seining o'ringga bir hovuch tuproq tashlab qo'ya qolaman!

— Mening otam, nima qilsam o'zim... — deb Sobitjon chaynala boshlagan edi. Edilboy gapini sharta kesdi:

— Ota-ku seniki, biroq sening o'zing o'zingniki bo'lmay qolibsan.

— Ja, unchalik emas, — Sobitjon biroz yon berganday bo'ldi. — Bo'pti, shunday kunda janjal chiqarmaylik. Ona Bayit bo'lsa bo'la qolsin, menga nima, faqat uzoqlik qilarmikin, deb o'ylagan edim...

Gapga nuqta qo'yildi. Edigey Qoronor ni hammaga ko'z-ko'z qilib keltirib qo'yib bo'ronliklarga qarata: «Qo'ysanglar-chi, erkak kishining gapini qilyalik, bunday odamni Ona Bayit mozoriga qo'yamiz», deganida hech kim e'tiroz bildirmadi, hamma jimgina rozi bo'ldi...

Kech ham kirdi. Shu kuni odamlar oqshomni ham, tunni ham qo'ni-qo'shni o'ldi yuzasidan marhumning hovlisida o'tkazishdi. Ob-havo ham ko'ngildagidek bo'ldi. Kunduzgi harorattan so'ng kech kirishi bilan birdan kuz oldi salqini tushdi. Sario'zak dashtida shamollar timib, buyuk dashtlik g'ira-shira sukunat og'ushiga cho'kdi.

Ertangi ma'raka uchun so'yilgan qo'yni qorong'i tush-ganda sarangom-sarishta qilib bo'lishdi. Hozircha dud chiqarayotgan samovatlarning tevaragida choy ichishib, u yoq bu yoq-dan gaplashib o'tirishdi... Dafn marosimiga deyarli hamma narsa tayyorlanib bo'lingan, endi Ona Bayit mozoriga yo'l olish uchun tong otishini kutishayotgan edi. Kazangap tabarruk yoshda o'lga-

nidan hovlida ortiqcha kuydi-pishdilar ham o'rinsizday, oqshom tinch, osuda kechardi.

«Bo'ronli» bekati esa hamishagiday poyezdlar kelib-ketishar, ular mashriq va mag'rib tomondan kelishib, yana mashriq va mag'rib tomonga ketishardi...

Ona Bayit qabristoniga borish arafasidagi oqshom, bir ko'ngilsiz voqeani hisobga olmaganida, yaxshi o'tayotgan edi. Bu orada yo'lovchi yuk poyezdida Kazangapning qizi Oyzoda eri bilan kelib qoldi. U kelgani hamon uvvos tortib yig'lab yubordi. Boshqa xotin-xalajlar ham atrofini o'rab olib, qiy-chuv ko'tara boshlashdi. Ayniqsa, Ukkubolaning ko'ngli yumshab, Oyzoda bilan qo'shilib ho'ngrab yig'lardi. U Kazangapning yetim qolgan qiziga jon-dildan achinardi.

Edigey yig'i-sig'i bilan o'lgan odamni titilrib bo'lar-midi, taqdirga tan berish kerak, deb Oyzodani yupatishga urinar, u esa, barbar, yig'idan tinmasdi.

O'zi ko'pincha shunaga bo'ladi – otasining o'limi boya-qishning to'lib turgan yuragini bo'shatib olish uchun bir bahona bo'ldi. Sochlari to'zg'ib, qovoqlari shishib kegan Oyzoda marhum otasiga tavallo qilib, o'zining baxtiqaroligini, endi dunyoda uni hech kim bir og'iz shirin so'z bilan yupatib, peshanasini silamasligini, yoshligidan yortug'lik ko'rmaganini, eri ichkilikka berilib, bolalar qarovsiz qolib, uzzukun bekatta sang'ib yurt-shini, bezori bo'lib ketganini, kim biladi, ehtimol, ertaga yo'lo'sar bo'lib, poyezdagilarni ham talab yurishi mumkinligini, kattasi hozirdanoq icha boshlaganini, militsiya kelib surishtirayotganini, hademay, ishi prokuraturaga tushadi, deb ogohlantirganini... Aytib yig'lardi. Bir o'zi olti bolani qanday eplaydi? Otasi zormanda-ku, dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi, deb yig'lardi.

Kuyov rostdan ham parvoyi palak edi. Qaynatasini dafn etishga kelgan bo'lsa-da, ruhi tushib, xijolat tortib, hammadan yuz o'girganday, badbo'y, ipiritsi papirosini chekib ma'yus o'tirardi. Xotinining dod-voylariga ko'nikib ketgan edi u, xotin kishi-da, yig'lab-siqtab oxiri tinchib qoladi... Biroq shu payt tomdan tarasha tushganday xotinining akasi Sobifjon o'rta-

sug'ilib, singlisini uyaltirmoqchi bo'ldi: kim shunaga qiladi, bu qayoddan chiqqan qiliq? Otasini ko'ngani kelgani yo o'zini sharmanda qilgani kelgani? Qozoq qizi tabarruk otasi o'lganida shunaga qiy-chuv qiladimi? Qozoq ayollarining qo'shdaqday buyuk yig'isi yuz yillar davomida avloddan avlodga o'tib, tillarda doston bo'lib kelgan-ku! U vaqlarda ayollar yig'lashganida o'liklar tirilmasa ham, tiriklarning ko'z yoshi daryo bo'lib oqgan-ku! U zamonlarda ayollar yig'lashganida marhumning fazilatlarini aytib, izzatini baho keltirib ko'ikka ko'tarishgan, marsiyamas, madhiya ayitishgan. Singlisi esa yetimcha yeti kulcha bo'lib, o'lsam o'lib bo'ldim, deb uyni boshiga ko'taradi-ya!

Oyzoda xuddi shuni kutib turganday, avvalgidan beshbatar qichqirib yig'lay boshladi. Sendaga oqil-u donoga ko'zimiz uchib turgani yo'q! Sen avval xotiningga aql o'rgat. Mana shu chiroyli gaplarini xotiningga uqdir! Nimaga endi xotinchang kelmaydi, kelib, marsiya bilan madhiya qanaga bo'lishini bizga o'rgatsa bo'lardi. Otamizning o'limiga kelib, hurmatini joyiga qo'ysa, biror yeri kamayib qolarmidi? Nega deganda, u firibgar, sen ham firibgarsan, xotiningga poy-patak bo'p yurgan paskashsan, ikkoving otamni sog'in sigirday sog'ib ichdinglar, mening erim piyonista bo'lsayam, mana, shu yerda o'tiribdi, sening aqli-hushli degan xotining qaysi go'rda qoldi?! Shundan sho'ng Sobifjon «Xotiningni tiyib ol!», deb kuyovga baqira boshladi. U bo'lsa, birdan xezlab kelib, Sobifjonni yiqitib olib, bo'g'a boshladi...

«Bo'ronli» ahli orsizligi haddidan oshgan qarindoshlarni tinchitguncha, ko'p ovora bo'lishdi. Hammaning yuzi shuvut bo'ldi. Edigeyga, ayniqsa, og'ir botdi bu mashmasha. Edigey ularning kim ekanini yaxshi bilisa ham, bunchalikka borb yetadi, deb o'ylamagan edi. Shuning uchun ham rostatkamiga jig'ibiyroni chiqib: agar bir-birovlarini hurmat qilmasalar, aqalli marhumning arvochini hurmat qilinglar yoki, kim bo'lish-larindan qat'i nazar, bu yerdan quvib haydayman, keyin gina-kuduratlarini o'zlarindan qolsin, deb qattiq ogohlantirdi.

Dafn marosimini oldidan mana shunaga ko'ngilsiz voqea yuz berdi. Edigeyning dili zimiston bo'ldi. Yana qovoqlari soli-

nib, ikki qoshining o'tasidagi ajinlari bo'rib chivdi. Jonini qaqshatgan boyagi savollar boshini qotira boshadi: bu bolalar kimga o'xshadi ekan-a? Nima sababdan shunaga bo'lib ketishdiyin? Kazangap ikkalasi bu bolalarni issiqni issiq, sovuqni sovuq demay, Qumbeldagi internatga olib borib yurishganda, o'qib odam bo'lishsin, Sario'zakdagi kimsasiz bekatlarda qolib ketishmasin, ota-onamiz o'qimadi, deb keyin noilib yurishmasin deyishganda, bunday bo'lib chiqishini xayollariga ham keltirishmagan ekan. Endi bilsa, hammasi teskari bo'lib chiqdi... Ko'r-ganda odam jirkamaydigan mo'min-qobil kishilar bo'lib yetishishlari uchun ularga nima yetishmaydi?..

Shu on yana Edilboy Daroz aql ishlatib, Edigeyning yukini yengillashtirdi. U Edigeyning shu lahzadagi holatini yaxshi anglab turgan edi. Ota-onalar o'lganida, dafn marosimini farzandlar boshqaradi – ilgari shunday bo'lib kelgan. Uyat-siz, vijdon-siz, tuban bo'lsa ham ularni hech qayoqqa haydab yuborolmaysan. Xullas, hammaning dilini xufton qilgan aka-singillar-niing janjalini ko'ngildan chiqarmoq uchun Edilboy hamma er-kaklarni uyiga taklif etdi. Nima, hovlida yulduz sanab o'tiraveramizmi, yuringlar, biznikida choy ichib o'tiramiz, dedi u.

Edige'y Edil boy Darozning uyida boshqa bir olamga kirib qolganday bo'ldi. U ilgari hali ham qo'shimchilik yuzasidan bu xonadonga kirib turar, har gal Edilboy oilasining ahilligini ko'rib, ko'ngli ravshan tortib chiqar edi. Bugun esa bu yerda u yana uzogroq o'tirishni xohlardi, chunki shunday qilganda, go'yo yo'qotgan kuch-quvvatini qayta tiklab oladiganday edi.

Edilboy Daroz yo'l ishtehisi edi. Topish-tutishi, ro'zg'ori ham boshqalardan ziyod emas. Hamma qatori ularning oilasi ham qurama uyniing yarmini – ikki xona-yu bir oshxonani egal-lashgan. Ammo bu xonadondagilarning turish-turmushi o'zga-cha, ozoda, sarajom-sarishta, yop-yorug'. Choy degani boshqa-larnikida ham bor, lekin o'sha choy Edilboyning piyolasida asaldan ham toli tuyulardi. Edilboyning xotini chiroyli, uy tutishi ham havas qilgudek, bolalari esli-odobli. Bular Sario'zak-da uzog turishga sabr-toqatlari yetadi, so'ng boshqa tuzukroq

joyga ko'chib ketishar. Mabodo ketishsa, bu yer huvullab qoladi-da, deb o'ylardi Edige'y o'zicha...

Edige'y kirza etigini dahlizga yechdi va to'rga chiqib taxta devorga suyangan ko'yi chordana qurib o'tirdi. Charcha-ganini, och qolganini shundagina sezdi. Mehmonlar dumaloq xontaxta atrofida tizilishib, u yuq bu yuqdan bamaylixotir gaplashib o'tirishdi.

Hqiqiy suhbat endi qiziy boshladi. Edige'y o'tgan kechasi ko'rgan voqeasi kosmik kema parvozinini unutib yuborgan edi, hozir bu kishilardan uni-buni eshitib, o'ylanib qoldi. Yo'q, Edige'yga eshitganlari yangilik emas edi. Shunchaki, bo'lgan ishlardan manavi odamlar yaxshi xabardor-u, o'zi esa xabarsiz ekanidan hayratga tushdi. Lekin buning uchun Edige'y o'zini kuyib o'tirmadi, chunki hammani qiziqdirayotgan mana shu kosmik parvozlarning hammasi undan juda yiroq, sechrti va begona ishlar edi. Shunga ko'ra, garchi Edige'y bunaga ishlarga ancha qiziqqan bo'lsa-da, aslida ularning barchasi noma'lum va allaqanday qudratli kuchning ta'siri natijasida sodir bo'layotgani tufayli shunchaki xabardor bo'lib qo'yishni lozim ko'rdi. Har holda, fazo sari yo'l olgan kema manzarasi uning butun vujudini hayajonga solib, o'ziga matun etib olgan edi. Edilboy Darozning uyida xuddi shu xususda so'z borardi.

Dastlab ular shubhat – tuyu sutidan qilingan qimiz ichib o'tirishdi. Usti ko'piklanib, ko'pilib turgan muzdakkina shubhat odamni xiyol sarxush qilardi. Kelib-kelib turadigan yo'l tuzatuv-chilar shubhatni rosa ichishadi, unga Sario'zak pivosi, deb nom ham qo'yib olishgan. Issiq ovqatga uyda aroq ham topilardi. Boshqa paytlarda Edige'y Bo'ronga aroq uzatganlarida ulfatchilik uchun qo'lni qaytarmasdi. Ammo bugun esa aroqni og'ziga olmadi. Shu bilan boshqalarga ham ortiqcha ichmanglar, ertaga kun og'ir keladi, yo'l uzog, deya ishora qilganday bo'ldi. Ayniqsa, aroqni shubhatga qo'shib bosib ichib o'tirgan Sobifon uni xavotirlantirayotgan edi. Ikkala yaxshi otlar bir aravaga yondosh qo'shilgani singari, shubhat bilan aroq ham aralashitirib ichilsa, bir-biriga yaxshigina dalda bo'ladi – kishining kayfiya-tini cho'g' qiladi. Lekin bugun kayfichog'likning o'rni emas edi.

Biroq kap-katta odamlarga qanday qilib ichma deb bo'ladi? Me'yorni o'zlari bilishlari kerak. Har holda. Oyzodaning eri hozircha aroqqa qo'l uzatmay, shubhatning o'zidan ichib o'tirgani Edigeyning ko'nglini xotirjam qildi. aroqxo'r kishi ozgina ichsa bas, kayfi-taraq bo'ladi-qoladi, u bu safar qanoat hosil qilib aralashirmay o'tirgan edi. Haytovur, gaynatasining dafn marosi-mida mast bo'lib cho'zilib qolishdan uyaldi, shekili. Ammo sabr-toqati qanchaga yetishini Egamning o'zi biladi.

Shu asnoda u-bu narsalar to'g'risida gurunqlashib o'g'irishdi. Edilboy ekskavatorning cho'michiday katta ochilib, yumilib turgan uzun qo'llari bilan mehmonlarga shubat uzatardi. U xontaxtaning narigi tomonida o'tirgan Edigeyga yana quyib uzatar ekan, nogoh bir narsa esiga tushib qoldi.

– Edike, kecha tunda, siz bilan navbatchilikni almash-ganimizdan so'ng, sal o'tib osmon yoritib ketgudek bo'ldi, turgan joyimda chayqalib ketdim. Mundoq qarasam, kos-modromdan raketa uchirilgan ekan! Kattaligini ko'rdingizmi? O'ovlangan quyruq'i aravaning toqal shotisiday keladi-ya!

– He-e, ko'rganda-chi! Og'zim ochilib qoldi! Yo qudratingdan! Olov selida osmonga ko'tarilypati, ko'tarilypati, keti ko'rilmaydi. Qo'rqib ketdim. Bu yerda shuncha yil yashab, hali bumagasini ko'rmagan edim.

– Ha, mening ham o'z ko'zim bilan birinchi marta ko'rishim, – deya iqrar bo'ldi Edilboy.

Sobitjon Edilboyning uzun bo'yiga ishora qilib, hazillashmoqchi bo'ldi:

– Agar senga o'xshaganlar endi ko'rishi bo'lsa, bizga yo'l bo'lsin.

Edilboy Daroz bu gapga miyig'ida kulib qo'ya qoldi.

– Gap bundamas, – deb qo'l siltadi u. – Ko'rarga ko'rdim-u, ammo ko'zinga ishongim kelmaydi, guvullagan olov ustuni osmon qa'riga kirib ketdi. Yana kimdir osmonga qarab yo'l oldiyov, deb o'yladim o'zimcha. Yo'ling bexatar bo'lsin,

¹ *Toga (arabcha: bir dona, bir to'p, bir o'tram) – juft holda butunlik tashkil etuvchi narsalarning ikki qismidan biri, bir tomoni, bo'lagi.*

dedim-u, shu zahoti tranzistorimning¹ qulog'ini buradim. Men uni hamisha o'zim bilan birga olib yuradim. Hozir radiodan e'lon qilib qolsa kerak, deb o'yladim-da. Odatda, bir yo'la kos-modromning o'zidayda olib eshittirishar edi. Radioboshlovchi ham xursandligidan xuddi mitingda so'zlayotganday tantanali gapirardi. Eshitsang, eiting jimirlab ketadi! O'z ko'zim bilan ko'rib, uzatib qolgan bu fazogir kim bo'ldi ekan, deb shuna-gayam bilgim keldiki, asi qo'yavering, Edike. Lekin bilolma-dim.

– Nimaga? – deb so'radi Sobitjon hayratlanib, qoshlarini jiddiy va ma'noli chimmar ekan. U shirakayf bo'lib, bo'g'riqib, qizarib ketgan edi.

– Bilolmadim. Hech nimani xabar qilishmadi. «Mayak»² to'liqini uzog' tuib turdim, aqalli bir og'iz so'z ham deyish-madi...

– Bo'lmagan gap! Bu yerda boshqa sir bor! – deya shubhalanib, hayosizlarcha tikildi Sobitjon va bir qultum shubat qo'shilgan aroqni tez ichib yubordi. – Kosmosga qilingan har bir parvoz olamshumul voqea... Tushundingmi? Bu parvozlar biz-ning fanimiz va siyosatimizning tantana qilayotganidan darak beradi.

– Bilmadim. Ataylab, «So'nggi axborot»larga quloq tutdim, gazetalarning shartlarini ham tingladim, hech qanday xabar e'lon qilmadi.

– Hm! – bosh chayqadi Sobitjon. – Men o'z idoramda, ishxonamda bo'lganimda, ularning tagiga yetgan bo'lardim. Yaxshi bo'lmadi! Balki, bu yerda boshqa gap bordir?

– Nima gap bor-u, nima gap yo'qligini kim bilisin. Lekin azbaroyi uni bila olmaganim juda alam qilypati, – Edilboy Daroz ko'nglidagi gapni aytdi. – Raketaning ichidagi odam xuddi mening fazogirimday bo'lib qoldi. Chunki ko'z olimda uchdi-

¹ *Tranzistor (inglizcha: transistor – o'tkazmoq, ko'chirmoq + (re)istor – qarshilik) – elektr signallarni (to'liqlarni) kuchaytiruvchi yarimo'tkazgichli elektron asbobo, element. Bu yerda tranzistorli radio ma'nosida kelgan.*

² «Mayak» – Sobig'ititfoqda 1964-yilda tashkil etilgan radiostansiya va shu radiostansiya nomi bilan ishlab chiqarilgan radioptiyomnik.

da. Ehtimol, yig'itlarimizdan birortasi uchgandir? Unda boshimiz osmonga yetardi. O'sha odam bilan uchrashib qolsak, qanday yaxshi bo'lardi...

Sobi'jonning xayoliga birdan nimadir kelib, shoshqaloqlarcha so'zini bo'ldi:

— Ha-a, bilishimcha, odamsiz kema uchirishgan bo'lsa kerak, tajriba uchun.

— Bu qanagasi bo'ldi? — hayron bo'lib qaradi Edilboy.

— Shunaga tajriba sinovi bo'ladi. Sinovga, tushundir-mi? Odamsiz raketa boshqa kema bilan tutashishga yo'rtib chiqishga yo'l oldi, deylik. Hali nima bo'ladi, nima qo'yadi, hozircha oqibati noma'lum. Agar o'yashganiday bo'lib chiqsa, radiodan ayitishadi, gazetalarida yozishadi, aks holda indamay qo'ya qolishadi. Shunchaki, ilmiy tajribaligicha qolaveradi.

Edilboy ranjiganday chakkasini qashib qo'ydi:

— Men bo'lsam tirik odam uchgandir, deb o'yalabman.

Sobi'jonning tushuntirishlaridan hafsalasi pir bo'lgan odamlar jimib qolishdi. Endi gapga nuqta qo'yilay, deb turganda Edigey o'ziyam sezmagun holda, uni boshqa tomonga burib yubordi.

— Demak, mening tushunishimcha, osmonga odamsiz raketa uchirilgan, to'g'rimi, yig'itlar? Undoq bo'lsa, raketani kim boshqaradi?

— Kim boshqaradi deysanmi? — Edigeyning nodonligidan ajablangan Sobi'jon qo'llarini bir-biriga urib qo'yganicha, u tomon masxaraomuz yuzlandi. — U yerda, Edike, hamma narsa radio orqali boshqariladi. Yerdan, boshqaruv markazidan buyruq berib turiladi. Hamma ish radio orqali boshqariladi. Tushundirgimi?

Mabodo raketa fazogir bilan birga uchirilganda ham qaysi tomonga yo'l olishi, baribir, radio orqali boshqarib turiladi. Fazogir esa o'zicha biron ishini bajarmog'chi bo'lsa markazdan ruxsat so'rashi kerak. Qimmatli ko'katoyim, osmonga uchish, bu senga Qoratorga minib olib Sario'zak dasthini kezish degani emas, albatta. Bu murakkab, nihoyatda murakkab ish...

— Shunaga degin, — dedi Edigey g'o'ldirab.

Edigey Bo'ron radio orqali boshqarish nima ekanini

bilmas edi. Uning tasavvuricha, radio — uzoq masofadan e'f'r orqali uzatiladigan so'zlar, tovushlar yig'indisi. Ammo radio orqali jonsiz temirni qanday boshqarishadi? Uning ichida odam bo'lsa boshqa gap, unday qil, bunday qil, deb buyruq berib turishi mumkin. Edigey bularning hammasini birma-bir so'rab bilib olmog'chi bo'ldi-yu, yana nima hojati bor, deganday niyatidan qaytib, indamay qo'ya qoldi. Sobi'jon o'zining bilganlarini ortiq darajada takabburona ohangda gapirishi Edigeyning ensasini qotirdi. U, avzoyidan, mana ko'rdilaringmi, o'zlaring hech narsani bilmaysizlar-u, yana mening gaplarimni behudaga yo'ymog'chi bo'lasizlar, pilyonista kuyov bo'g'mog'chi bo'lib tashlanganda ham hech biringiz yonimni olmadingiz-ku, men esa haqiqatdan ham bunaga ishlarni hammangizdan ko'ra yaxshi bilaman deya-yotganday iddao bilan so'zlandi. «Xudo xayringni bersin, — o'ylardi Edigey. — Shuni deb umr bo'yi o'qitganmizda seni, bizga o'xshagan omilar orasida kimdir biron bilimdon bo'lishi kerak-ku, axir!» Shu mahal yana Edigey Bo'ronning xayolidan: «Senga o'xshaganlar kattaroq amaldor bo'lib qolsami, qo'l ostidagi odamlarni o'ziga o'xshash soxta bilimdon bo'lishga majbur etadi, boshqalarga esa kun ham bermaydi. Hozir yugurdak bo'lib yurganida shunchalik hammamni og'zimga qaratsam deydi. Agallii Sario'zakliklarni lol qoldirsam, deydi...» degan o'y o'tdi.

Sobi'jon esa rostdan ham bo'ronliklarni tang qoldirib, bilimdonligi bilan birato'la ezib-yanchib, singlisi va poechyasi oldidagi sharmandalarcha mojarodan so'ng yana o'z narxini ko'tarib olmog'chi bo'lardi. U gapni aylantirib, hammanning diqqatini chalg'itishga intilardi. Shu tariqa ko'z ko'rib quloq eshitmagan turli g'aroyib voqealardan, ilm-fan muvaffaqiyatlaridan gapira boshladi; ora-sira aroqdan simirib, ustidan shubhat ho'plab o'tirdi. Natijada battar kuyfi oshib, qizarishib, aql bovar qilmaydigan shunagangi g'aroyibotlarni gapirib tashladiki, bechora bo'ronliklar bu gaplarning qay biriga ishonishni bilmay qoldilar.

— Mana, o'zlaring bir o'yab ko'ringlar-a, — derdi Sobi'jon ko'zoynagidan qizarib-bo'zarib, hammamni sechrlab qo'ya-

yotganday nazar tashlab. – Biz insoniyat tarixidagi eng baxtli odamlarniz. Tushunapsizlarni? Mana, sen, Edike, ichimizda eng yoshi ulug'imizsan. Ilgari qanday yashardig-u, hozir qanday yashayapmiz – sen, Edike, buni yaxshi bilasan. Nima uchun gapiryapman? Ilgari odamlar xudolarga ishonishardi. Qadimgi Yumonistonda o'sha xudo deganlari go'yo Olimp tog'ida yashagan emish. Biroq ularning qanaga xudoligini bilasammi? Merovlar edi ular. Qo'llaridan nima keldi? Bir-birlari bilan o'zaro chiqisha olmadilar. Nizokashlik bilan mashhur bo'lishgan, xolos. Odamlarning turmush tarzini o'zgartira olishmadi; bu haqda o'ylab ham ko'rishmagan. Aslida bunday xudolar bo'lmagan. Bularning barchasi afsona. Cho'pchak. Bizning xudolarimiz esa yonginamizda – mana bu yerda, kosmodromda, Sario'zak dashtida yashaydilar. Bu bilan biz butun dunyo oldida faxrlanamiz. Birtamiz-ularni ko'rmaymiz, birtamiz bilmaymiz, shunday bo'lishi ham kerak. Ular to'g'ri kelgan Mirqinboy-Shirqinboyilar bilan: «Hot-ahvollar galay?», – deb so'rashib o'tirishmaydi. Ammo chinakam xudolar – ana shular! Mana, sen, Edike, kosmik kemalar qanday qilib radio orqali boshqarilarkan, deb hayron bo'lasan. Bu ishlar hali holva, allaqachon bosib o'tilgan ishlar! Bunday apparatlar, mashinalar maxsus dastur bo'yicha ishlaydi. Hali shunday vaqt keladiki, radio orqali avionatlarni boshqarganday odamlarni ham boshqarish mumkin bo'ladi. Tushundingni, yetti yoshdan yotmish yoshgacha bo'lgan odamlar radio orqali boshqariladi. Hozirning o'zida bunga ilmiy dalillar bor. Fanimiz bunga ham erishgan, oliy maqsadlar yo'lida.

– To'xta, to'xta, darrov oliy maqsadlardan kelasan, – gapni bo'ldi Edilboy Daroz. – Sen menga mana'vi narsani tushuntirib ber. Demak, o'sha vaqtda har birimiz yonimizga tranzistorga o'xshagan ixchamgina radiopriyomniklarni osib yurishimiz kerak bo'ladini, buyruqni eshitish uchun? Lekin, bu narsa hozirning o'zidayoq hamma joyda bor-ku!

– Seni qara-yu! Men boshqa narsani gapiryapman, Sen aylagan narsa oddiy bir o'yinchoq-ku! Hech kim yonida hech narsa olib yurmaydi. Xohlasang, yalang'och yurasan. Faqat ko'zga ko'rinnas radioto'liqlar, ya'ni biotoklar doim senga, sening

onungga ta'sir o'tkazib turadi. Undan qayoqqa ham qochib qutulding?

– Shunaga degin?

– Qanaga deb o'ylovding bo'lmasa? Odam nima ish qilsa, markazdan berilgan topshiriqqa muvofiq qiladi. U o'ziga go'yo o'z ixtiyori, erki bilan yashayotganga o'xshab ko'rinadi, aslida esa yuqoridan beriladigan buyruq bo'yicha yashaydi. Hammasi qat'iy tartib asosida bajariladi. Qo'shiq ayitish kerak bo'lsa, signal keladi: qo'shiq aytasen. O'yinga tushish kerak bo'lsa, signal keladi: o'yinga tushasan. Ishlash kerak bo'lsa, ishlaysan. Ishlaganda ham shunday ishlaysan!

O'g'ritik, bezorilik, jinoyat, degan narsalar bo'lmaydi, hammasi unutilib ketadi, faqat eski kitoblardagina yozilib qoladi. Nega desang, odamning jamiki xulq-atvori – har bir xatti-harakati, fikr-mulohazasi, istak-xohishi o'lgangan, oldindan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Mana, masalan, dunyoda hozir demografik portlash bor, ya'ni yer yuzida odamlar soni ko'payib bormoqda. Ularni bog'ishning o'zi bo'ladini? Buning uchun nima qilish kerak? Tug'ilishni kamaytirish kerak. Xotining bilan ham, xohlagan paytingda emas, balki signal bilan ruxsat berilgan vaqtda yotasen, jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan shunday qilasan.

– Oliy manfaatlar deysammi? – so'radi Edilboy Daroz kinoyaomuz ohangda.

– Xuddi shunday. Davlat manfaatlari har narsadan ustun turadi.

– Men ana shu oliy manfaatlardan tashqari, haligi, xotinim bilan yotgim kelib qolsa-chi?

– Edilboy, azizim, qo'lingdan kelmaydi. Bu narsa xayolingga ham kelmaydi. Eng chiroyli, sohbiyamol ayolni qo'yningga solib qo'ysa ham, qiyoy bog'maysan. Nega desang, senga manfiy biotoklarni ulab qo'yishgan bo'ladi. Demak, bu yog'ini ham sarishta qilib qo'yishadi. Xotirang jam bo'lsin. Yoki harbiy ishini olib ko'raylik. Bu yerdayam hamma ish signal orqali bajariladi. Odam o'tga kirishi kerakmi – o'tga kiradi, parashyudan

tashlashi kerakmi – darhol tashlaydi, atomi¹ mina² bilan o'zini tank ostiga tashlab portlashi kerakmi – shu lahzada portlaydi. Nimaga bunday deb so'ramaysizlarni? Odamni bo'it qiladigan biotok beriladi – vassalom, qo'rquv nimaligini bilmay qolasan... Mana shunaga!


– Laqillatish ham evi bilan-dal Ustasi farang. Shuncha yil senga nimani o'qitishdi o'zi? – Edilboy hayratdan yoqa ushladi.

O'tirganlar jilmayib qo'yishar, tomoq qirib bosh chay-qashar, yigitcha aravani quruq olib qochyapiti, deb o'ylashar, ammo uning so'zini bo'lmay, mayli davom etaversin, bekor o'tirgandan ko'ra eshitaylik, maroq bilan so'zlayapiti, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan gaplar ekan deyishardi. Yigiti aroqni shubatga qo'shib, oz-ozdan ichaverib, xiyalagina kayfi oshib qoldi. Unga bir nima deb bo'lmasa, mayli, og'ziga kelganini vaysayversin, deb o'z holiga qo'yib qo'yishdi. Bu gaplarni qayerdan kimdandir eshitgan, qay biri rost-u, qay biri yolg'on, nima bo'libdi, shun-gayam bosh qotirib o'tiramizmi, deb o'ylashdi. Ammo Edigey daf'atan seskanib, rostkamiga qo'rqib keldi: bu laqma bekorga qarq'aday qag'llamayapiti, deb xavotir ola boshladi. U bu gaplarni hoynahoy biror bir yerdan o'qib, uqib olgan bo'lishi kerak, quyma quloq, axir u qayerda biror xunuk gap chiqsa, darrov ilg'ab oladigan odati bor. Chindan ham shunaga kishilar hayotda bor bo'lsa nima bo'ladi, buning ustiga o'zlar katta olim bo'lishsa-yu, chindan ham hammani o'zlariga bandi qilib olish niyatida yurishsa-ya...

Sobitjon esa haliyam aravani quruq olib qochayotgan edi. Yaxshiyamki, hali uning gaplarini eshitib o'tirishgandi. Ter-ga botgan ko'zoynagi ostidagi ko'z qorachiqdari qorong'idagi mushuk ko'zlari singari chagchayib ketgan bo'lsa ham goh aroq-dan, goh shubatdan totib ko'rdi. Endi u qo'llarini yozganicha

¹ Atom (*yunoncha*: atomos – bo'linmas) – kimyoviy elementning barcha xususiyatlarini o'zida saqlagan eng kichik massali va o'ljahamli zarrasi; 2) yadro zaryadi o'rnatilgan aviasiya bombasi (*bu yerda shu ma'noda*).

² Mina (*fransuzcha*: mine) – yet, suv ostiga qo'yiladigan portlovchi snaryad.



okeandagi allaganday Bermud uchburchagi¹ haqida hikoya qila boshladi. Uning ayitishicha, okeanning o'sha qismida shunday bir joy bor ekan, u yerdan kema suzib o'tsa ham, tepasidan samolyot uchib o'tsa ham, siri ravishda o'z komiga tortib ketar ekan.


– Viloyatimizdan bir odam chet el sayohatiga boraman, deb rosa urindi, oxiri muddaosiga erishdi ham. Okeanning ustidan Paragvaygami, Urugvaygami, ishqilib, o'sha tomonlarga uchib ketdi, ketdi-yu, qaytib kelmadi. Samolyot Bermud uchburchagining qoq ustidan o'tayotganda g'oyib bo'libdi. Shu ketgan bo'yicha yo'q! Mana, chet elga borishning oqibati. Shuni deb, og'aynilar kimlarga yalini, ruxsat so'rab, kimlaridir chetga surib yurgandan ko'ra, Bermud uchburchagisiz ham kunimiz o'tadi. O'z uyim – o'lan to'shagin, deganlariday shukr qilib, o'z yeringda sog'-salomat yashayver. Kelinglar, tani sog'lig'imiz uchun ichaylik!

«Yana boshlandimi! – deb ichida so'kindi Edigey. – Tag'in eski ashulasini boshlaydi. Uf-f, boshga bitgan balo bo'ldi-ku bu. Ichishga bir kirishdimi, tormozi ishlamay qoladi!» Xuddi shunday bo'lib chiqdi.

– Kelinglar, tani sog'lig'imiz uchun ichamiz, – deya takrorladi Sobitjon xira tortgan qo'nimsiz ko'zlari bilan atrofdagilarga nigoh tashlarkan; biroq shunda ham baholi qudrat o'zini jiddiy qiyofada ko'rsatishga intilardi. – Bizning sog'lig'imiz esa yurtimizning eng katta boyligi. Demak, bizning sog'lig'imiz davlat ahamiyatiga ega. Ana shunaga! Biz hazilakam odamlarmasmiz, biz davlat odamlarimiz! Yana shuni ayrib qo'yayki...

Edigey Bo'ron Sobitjonning qadah so'zlari tugashini kutib o'tirmay shartta o'rmdan turdi-da, tashqariga chiqib ketdi. Qorong'i ayvonda bo'sh yotgan chelakimi yoki oyoq ostidagi allaganday boshqa narsanini tarqatgancha, ochiq havoda

¹ Bermud uchburchagi (yana bir nomi Shayton oroli) – Atlantika okeanida joylashgan. Bu joyga kelgan suv kemalari yoki ustidan o'tgan havo kemalari ko'pincha falokat yo'liqgan yoki izziz yo'qolgan. Bu joy Bermud orollari, Puerto-Riko va Florida orollig'ida joylashganligi uchun Bermud uchburchagi deb atashgan.



muzdakkina turgan kirza etigini kiydi va jahli chiqib, diti siyoh bo'lib uyi tomon yo'l oldi.

«Eh, sho'rtlik Kazangap! — dedi Edigey ichida nola chekib, alamidan mo'ylovini tishlagancha. — Bu qanaqasi axir, o'lim bo'lib o'limga o'xshamasa, aza bo'lib azaga o'xshamasa! Bazmi jamshidda o'tirganday aroqdan bosh ko'tarmaydi, parvoyi-palaki! O'zicha allaqayerdan gap topib olibdi — sog'lig'imiz davlatniki emish. Har safar shu gapni qaytargani-qaytargan. Ishqilib, ertaga mahummi eson-omon joyiga qo'yib, ma'rakasini o'tkazib olaylik, bolaning bu yerdan izi quriydi, shu bilan qutulamiz, bu yerda uning hech kimga keragi yo'q, unga ham hech kimning keragi yo'q?»

Har holda, Edilboy Darozning uyida uzoq o'tirib qolishdi. Vaqt yarin kecha bo'lib qolgan edi. Edigey Sario'zakning salqin havosidan to'yib-to'yib nafas oldi. Ertaga havo odardagiday ochiq kelib, durustgina issiq bo'ladiganga o'xshaydi. Bu yerda ob-havo hamisha shunaga bo'lib turadi. Kunduzi jazirama issiq, kechasi esa sovuq etni junjiktiradi. Shuning uchun ham butun atrof qovjirab yotibdi: o'simlik bunday ob-havoga moslasholmaydi. Kunduz kunlari namlik istab ko'kka bo'y cho'zadi, kechalari esa ularni sovuq urib ketadi. Bunday sharoitga bardosh berganlarigina qoladi. Ko'pincha har xil turdagi tikanaklar, katta maydonlarni egallagan shuvqzorlar-u yana jar-ariqlarning yomasida to'p-to'p bo'lib turli xil o't-o'lanlar o'sadi. Ular pichanga yaraydi. Edigey Bo'ronning ko'lna qadrdoni geolog' Yelizarov g'alati bir manzarani hikoya qilib bergan edi. Uning aytishicha, ma'lumotlarga ko'ra, bir zamonlar bu yerlarda sero't yaylovlar yastangan, ob-havo ham boshqacha bo'lgan, yomg'ir ham hozirgidan ko'ra uch baravar ko'p yoqgan. Tabiiyki, o'shanda turmush ham boshqacha bo'lgan. Sario'zak yaylovlarida qanchadan qancha yilqilar, qo'y uyurlari-yu qanchadan qancha qoramol podalari o'tlab yurgan. Bunga juda ko'p zamonlar bo'lgan, cha-

¹ *Geolog* (geo. + yamoncha: logos — tushuncha, ta'limot) — Yer qobig'i va Yerning tuzilishi, tarkibi hamda rivojlanish tarixi, foydali qazilmalarni qidirish usullari haqidagi fanlar mutaxassisi.

masi, o'sha jungiang degan yovuz kelgindilar bu yerlarga bostirib kelmasdan avval shunday bo'lgan ekan. Endi esa ulardan nom-nishon ham qolmagan, ular haqida faqat rivoyatlarigina qolgan, xolos. Aks holda, Sario'zakka shuncha odam sig'may ketgan bo'lardi. Yelizarov bejiz aytmagan Sario'zak dashti — tarixning unutilgan kitobi deb... U Ona Bayit qabristonining tarixi ham tasodifiy emasligini aytgan edi. Ba'zi mahmadona olimlar faqat qog'ozga yozilgan narsani tarix deb hisoblashadi. Axir, qadim zamonlarda qanchadan qancha voqealar yozib qoldirilmagan bo'lsa, unda nima qilish mumkin?..

Bekatchadan o'tayotgan poyezdlarning shovqiniga quloq solar ekan, Edigey shu tobdan nima uchundir Orol dengizidagi po'rtanalarini eslab ketdi. U urushdan oldin o'sha yerda tug'ilib o'sgan edi. Kazangap ham Orolbo'yi qozoqlaridan edi. Ikkinchisining temir yo'l bo'yida birga ishlab, inoqlashib ketganining boisi ham shundan. Sario'zak cho'lida do'stlar tez-tez Orolni qo'msib, gaplashib turishardi. Kazangapning o'limidan sal avval, bahor kezlari, ikkalasi Orolga borib kelishdi, keyin bilsa, chol dengiz bilan xayrlashgani borgan ekan. Borishmagani ma'qul ekan, borarga borishdi-yu, xafa bo'lib qaytib kelishdi. Dengiz suvi tortilib, tobora kamayib ketibdi. Dengiz yoqalab, sog' tuproqli taqir yo'l bo'ylab o'n chaqirimcha yo'l yurishganidan so'ng arang suvga yaqinlab borishdi. O'shanda Kazangap: «Orol dunyo turguncha turar edi, endi mana shu dengiz ham quriyapti, odam umrini gapirmasa ham bo'ladi», degan edi. O'shanda u yana bunday degan edi: «Edigey, sen meni Ona Bayitga dafn etasan. Dengizni esa so'nggi bor ko'rib, xayrxo'shlashib turishim!»

Edigey Bo'ron shularni eslab, tirqirab chiqqan ko'z yoshlarini yengida ardi-da, ovozi xirillab chiqmasin uchun ustiga yo'talib oldi, so'ng Kazangapning kulbasi sari yo'l oldi. U yerda Oyzoda, Ulkubola, boshqa bir qancha xotin-xalaj aza tutib o'tirishardi. «Bo'ronli» ayollaridan goh unisi, goh bunisi ish orasida ko'ngil so'rab kirishar, bir dam birga bo'lishib, u-bu ishlarga qarashib yuborishardi.

Qo'ta oldidan o'tayotib, Edigey to'nkaga bog'langan, egar-jabduq urilib, gajimli yopiq tashlab, yasatilib shay qilib qo'yilgan Qorator Bo'ron oldida bir zum to'xtab qoldi. Oy yorug'ida tuyu juda mahobatli, filday vazmin va qudratli ko'rinar. Edigey o'zini tutib turolmay, kafti bilan tuyening biqiniga shapatlab urib qo'ydi:

— Chakki emassan-ku, azamat!

Ostonaga yetay deb qolganida Edigey nima uchundir kechagi tun vogalarini eslaganini o'zi ham bilmay qoldi. Temir yo'lga yaqin kelib qolgan cho'l tulkisini tosh bilan urmogchi bo'lganini, so'ng nimanidir o'ylab, uni urishga jur'at etmagani, uyiga qaytayotib olisdagi kosmodromdan parvoz qilgan olovli kemaning zim-ziyo osmon qatriga kirib ketganini esladi...

III

Shu payt Tinch okeanning shimoliy kengliklarida tong o'tib, soat sakkiz bo'lgan edi. Had-hududsiz buyuk sokinlik og'ushidagi jimirlab yotgan suv yuziga tushib charaqlagan quyosh nurlari ko'zni qamashitradi. Atrofda faqat suv bilan osmon-nigina ko'rish mumkin edi, xolos. Biroq xuddi shu joyda, «Konvensiya» aviabardorining bortida kosmosni o'zlashtirish tarixida birinchi marta «Partet» Sovet-Amerika samoviy bekatida yuz bergan, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqea bilan bog'liq olamshumul mojaro kuchaygan edi.

Sayyoralararo «Demiurg» Qo'shma dasturi bo'yicha Qo'shmarboshning ilmiy-strategik shtabi bo'lgan «Konvensiya» aviabardori shu voqea tufayli tashqi olam bilan har qanaga aloqani uzdi, lekin Tinch okeanidagi Aleut orollarining janubiy qismidagi o'z o'zini o'zgartirmadi, aksincha, xuddi shu atrofda, havo masofasi bo'yicha Vladivostok bilan San-Fransisko shaharlari-ning qoq o'rtasidagi masofada yanada mustahkamroq joylashib oldi.

Ilmiy-tadqiqot kemasining o'zida ham ba'zi bir o'zgarishlar yuz berdi. «Demiurg» dasturining Amerika va Sovet Bosh

rahbariyati ko'rsatmasi bilan kosmik aloqa blokining operatorlari «Partet»da yuz bergan favqulodda hodisa haqidagi axborotni qabul qilgan sovet va amerikalik navbatchi operatorlari axborot chetga tarqab ketmasligining oldini olish uchun vaqtincha ajratib qo'lishdi... «Konvensiya» aviabardori harbiy ahamiyatga ega bo'lmagani singari, bortida ham hech qanday qurol-aslaha yo'q edi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus qaroriga muvofiq, xalqaro daxlsizlik huquqiga ega. Shunga qaramay, kemade har qanday xavf-xatarga qarshi favqulodda holat joriy etildi. U dunyodagi birdan bir harbiy bo'lmagan aviakema edi.

Ikkala tomonning mas'ul komissiyalari kunduzi soat o'n bir, besh daqiqaga ichida «Konvensiya»ga yetib kelishlari kutilmoqda edi. Bu komissiyalar o'z mamlakatlari, shuningdek, butun dunyoning xavfsizligi manfaatlarini ko'zda tutgan oshig'ich qaror qabul qilish va tegishli chora-tadbirlar ko'rish huquqiga ega edilar.

Shunday qilib, «Konvensiya» aviabardori shu mahal Vladivostok bilan San-Fransiskoning qoq o'rtasida, aniqrog'i, ochiq okeandagi Aleut orollarining janubiy qismida turgan bo'lib, bu joyning tanlanishi bejiz emas edi. Bu safar «Demiurg» dasturi ijodkorlarining uzog'ini ko'rib, ziyraklik bilan ish tutganliklari yaqqol namoyon bo'ldi. Chunki birga ishlab chiqilgan sayyoralararo tadqiqotlar rejasini birgalikda amalga oshirishga mo'ljallangan kemaning xuddi mana shu yerda joylashgani bu noyob ilmiy-texnikaviy xalqaro hamkorlikning to'la teng huquqlilikka asoslanganini bildirardi.

«Konvensiya» aviabardori butun jihozlari, asbob-uskunalar, energiya ta'minoti ikkala tomonga birday tegishli bo'lib, u ana shu ikkala paychi davlatlarning bir umumiy kemasi hisoblanar edi. Kema bir vaqtning o'zida to'g'ridan to'g'ri Nevada va Sario'zak kosmodromlari bilan radio – telefon – televizion aloqa o'rnatilgan edi. Har ikkala tomonga tegishli to'rttadan, jami sakkizta reaktiv¹ samolyot Qo'shmarboshning boshqa qit'alar

¹ Reaktiv (fransuzcha: reactif < re... + latinch: activus harakatdagi) – 1) kimyoviy analizda aniqlagich (reaktiv) bo'lib xizmat qiladigan; 2) bu, gaz va boshqa yonilg'ilar

bilan aloqalarida yuk tashish va ko'chirish maqsadlariga xizmat qilardi. «Konvensiya»da ikkita pariet-kapitan: pariet-kapitanlarning yordamchilari, shturmanlar¹, mexaniklar, elektriklar, matroslar², styuardessalar³ va boshqa xodimlar ham teng miqdorda edilar...

«Konvensiya»dagi Qo'shmarbosh ilmiy-texnikaviy xodimlarning ishlari ham xuddi shu tartibda tuzilgan. Dasturining Bosh rahbaridan tortib, to 1-2 va 2-1 Bosh fazogirlari, har ikkala tomonning barcha boshqa mutaxassis ilmiy xodimlariga xuddi shunga muvofiq teng huquq asosida ish olib borar edilar. Shuning uchun ham Yer sharidan har qachongidan ko'ra uzoqroq masofadagi «Tramplin» orbitasida turgan samoviy bekat «Pariet» deb atalar va u Yerdagi munosabatlarning oqibatini aks ettirib turar edi.

Bularning barchasi, albatta, ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy, diplomatik, ma'muriy muassasalarning oldindan har tomonlama katta tayyorgarlik ishlari olib borganliklari natijasida amalga oshirildi. «Demiurg» dasturining barcha umumiy va xususiy masalalari bo'yicha maslahatlashib, bir qarorga kelguncha uzoq yillar davomida son-sanogsiz uchrashuvlar, kengashlar olib borishga to'g'ri keldi.

«Demiurg» dasturi o'z oldiga zamonaning eng katta kosmologik muammosi, ya'ni «Noma'lum» sayyorasining beqiyos ichki energiya ta'minoti bo'lgan mineral boyliklardan foydalanishdek g'oyat muhim muammoni hal etishni vazifa qilib qo'ygan edi. «Noma'lum» sayyorasining yuzasida bo'sh yotgan foydali qazilmaning yuz tommasi tegishli qayta ishlovdan so'ng shuncha ichki energiya hosil qilardiki, bu energiya butun Yevro-

pani bir yilgacha elektr va issiqlik quvvati bilan ta'minlash imkonini berar edi...

Olisdan tap-taqir ko'ringan «Noma'lum» yulduzi qa'rida na Oyda, na Zuhrada va na fanga ma'lum bo'lgan biror boshqa sayyorida uchramaydigan suvning mavjudligi «Noma'lum»ni o'zlashtirish loyihasining taqdirini hal qildi-qo'ydi. Suvning shak-shubhasiz mavjudligi parmalash namunalaridan ham ma'lum bo'lib qoldi. Olimlarning hisob-kitoblari ko'ra, «Noma'lum» sayyorasi yuzasida bir necha kilometr qalinlikdagi suv qatlami tuproqdagi muzday sovuq tosh jinslari tufayli bir me'yorda saqlanib turardi.

Xuddi shu suv zaxiralarining g'oyat katta hajmda mavjud ekanligi sababli «Demiurg» dasturi real kuchga ega edi. Bunda suv ichimlik manbaigina bo'lib qolmay, balki undan sintez¹ yo'li bilan olinadigan moddalar o'zga sayyoralar sharoitida inson organizmining normal hayot kechirishi, avvalo, nafas olinadigan havo hosil qilish uchun zarur xomashyo bo'la olar edi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraganda ham suv «Noma'lum»dagi qazilma boyliklarni transkosmik sandiqlarda tashib ketish texnologiyasi jarayonida muhim ahamiyatga ega edi.

«Noma'lum» energiyasini fazoda samoviy bekat olib, Yerga ulangan orbitalar orqali yerga uzatish o'ng'aymi yo uni bevosita yerning o'zidan olish kerakmi, degan masala muhokama qilinayotgandi. Hozircha bu ishlarga yetarli vaqt bor edi.

Parnalovchilar va gidrologlarning² guruhlarini «Noma'lum»ga uzoq muddatga yuborish uchun katta ekspeditsiyaga³

oqimining tepki kuch natijasida yoki shunday kuch bilan harakat qilishi (bu yerda shu ma'noda).

¹ Shturman (gollandcha) – ruhi boshqaruvchi odam, kishi; 1) kema va samolyotlarni eng muvofiq yo'l tanlab, boshqarib boruvchi mutaxassis; 2) (ko'chma) mashina mexanizmlarni boshqaruvchi shaxs.

² Matros (gollandcha): matros < matien-noot – karavondosh o'rtiq (kemada)) – harbiy dengiz flotida oddiy askar; fagaro dengiz flotida kema komandansining a'zosi.

³ Styuardessa (inglizcha: stewardess) – samolyot yoki kemalarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi shaxs.

pani bir yilgacha elektr va issiqlik quvvati bilan ta'minlash imkonini berar edi...

Olisdan tap-taqir ko'ringan «Noma'lum» yulduzi qa'rida na Oyda, na Zuhrada va na fanga ma'lum bo'lgan biror boshqa sayyorida uchramaydigan suvning mavjudligi «Noma'lum»ni o'zlashtirish loyihasining taqdirini hal qildi-qo'ydi. Suvning shak-shubhasiz mavjudligi parmalash namunalaridan ham ma'lum bo'lib qoldi. Olimlarning hisob-kitoblari ko'ra, «Noma'lum» sayyorasi yuzasida bir necha kilometr qalinlikdagi suv qatlami tuproqdagi muzday sovuq tosh jinslari tufayli bir me'yorda saqlanib turardi.

Xuddi shu suv zaxiralarining g'oyat katta hajmda mavjud ekanligi sababli «Demiurg» dasturi real kuchga ega edi. Bunda suv ichimlik manbaigina bo'lib qolmay, balki undan sintez¹ yo'li bilan olinadigan moddalar o'zga sayyoralar sharoitida inson organizmining normal hayot kechirishi, avvalo, nafas olinadigan havo hosil qilish uchun zarur xomashyo bo'la olar edi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaraganda ham suv «Noma'lum»dagi qazilma boyliklarni transkosmik sandiqlarda tashib ketish texnologiyasi jarayonida muhim ahamiyatga ega edi.

«Noma'lum» energiyasini fazoda samoviy bekat olib, Yerga ulangan orbitalar orqali yerga uzatish o'ng'aymi yo uni bevosita yerning o'zidan olish kerakmi, degan masala muhokama qilinayotgandi. Hozircha bu ishlarga yetarli vaqt bor edi.

Parnalovchilar va gidrologlarning² guruhlarini «Noma'lum»ga uzoq muddatga yuborish uchun katta ekspeditsiyaga³

¹ Sintez (yunoncha: yntesis – birlash, qo'shilish; birlashtirish, qo'shish) – 1) predmet va hodisalarni bir butun holda, ularni tashkil etuvchi qismlarning birligi va o'zaro bog'lanishida o'rganadigan ilmiy-tadqiqot usuli; 2) bir xil kimyoviy birliklardan boshqa birliklarni yoki sodda elementlardan murakkab birliklarni hosil qilish; shunday birliklarning hosil bo'lishi (bu yerda shu ma'noda).

² Gidrolog (gidro. + yunoncha: logos – ta'limot) – Yer yuzidagi suvlarni, ularning bug'lanishini, qayta suvga aylanishini, singishini va boshqa xususiyatlarini o'rganadigan fan mutaxassisi.

³ Ekspeditsiya (lotincha: expeditio – tartibga solish; safar, sayohat < expedire – yubormoq, jo'natmoq) – 1) ma'lum guruh kishilarning biror maqsad bilan uyushtirilgan safari (bu yerda shu ma'noda); 2) muassasaning xalq-o'g'ozlarni yuborish, targ'atish

tayyorgarlik ko'rilayotgan edi. Bu muxassislar «Noma'lum» ga ridan chiqarib olinadigan suvning quvurlar orqali doimiy va avtomatik ravishda oqib turishini ta'minlash uchun suv quvurlari tizimlarini jihozlashlari kerak. Shunday qilib, Alpiniqlar¹ tili bilan aytganda, «Paritet» samoviy bekatni «Noma'lum»ga boradigan yo'ldagi asosiy baza lageri hisoblanardi. «Noma'lum» bilan «Paritet»ning oralig'ida yuk ortib-tushirib yurgan transport «qaylqlar»ni qabul qilish uchun «Paritet» huzurida maxsus inshootlar qurib bitkazilgan edi. Vaqti kelib, so'nggi bloklar qurilishi tugallangach, «Paritet»da bir vaqtning o'zida yuzdan ortiq kishi joylashib g'oyatda qulay sharoitda yashashi mumkin bo'lardi. Shu bilan birga Yerdagi televizion ko'rsatuvlarni ham muntazam ravishda ko'rish imkonini tug'itadi.

Mana shu ulkan tadbirlar natijasida «Noma'lum»dan suv olish va tahlil qilish imkoniyatiga erishilsa, inson o'z sayyorasidan tashqari olamda ishlab chiqarish faoliyatini ilk bor boshlagan bo'lardi...

Mana shunday kun yaqinlashmoqda, hamma orzu-niyatlar shunga qaratilgan edi...

Sario'zak va Nevada kosmodromlarida «Noma'lum» sayyorasida bo'ladigan, gidrotexnika ishlariga tayyorgarlik nihozasiga yetib borardi. «Tramplin» orbitasida uchib yurgan «Paritet» koinotni zabt etuvchi fazogirlarning dastlabki ishchi guruhini qabul qilib olgandan so'ng «Noma'lum» sayyorasiga jo'natib qo'yishga tayyor turgan edi.

Xullasi kalom, hozirgi insoniyat o'zining g'ayrizaminiy taraqqiyotini boshlashdek voqea oldida turardi...

Xuddi shu paytda, gidrologlarning birinchi guruhi «Noma'lum»ga jo'natiladigan kun arafasida «Tramplin» orbitasidagi «Paritet» kemasida uzoq muddatli fazoviy vaxtada² turgan ikkita paritet-fazogir izsiz yo'qolib qolishdi.

bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

¹ Alpiniqlar (Alp tog'i nomidan) – sportchi. Turli murakkab to'siqlardan o'tib tog' cho'qqilariga ko'tarilish bilan shug'ullanadigan sportchi.

² Vaxta (uzunlik) – qo'riqchilik, qorovullik xizmati. 1) kemasida postbonlik, navbatchilik (bu yerda shu ma'noda); 2) biror ish-mehnat, jaryon holati, posti.

Ikkala fazogir kutilmaganda belgilangan muddatda ham, boshqa vaqtlarda ham birorta signalgacha javob bermay qo'yishdi. Bekatning turgan joyini doimiy ko'rsatib turadigan apparatlardan tashqari uning harakatini yo'naltirib turadigan kanal va boshqa radiotelevizion aloqa tizimlarining barchasi mutlaqo ishlamay qo'ygani edi – hammadan yomoni shu bo'ldi.

Vaqf o'tib borardi. «Paritet» Yerdan berilayotgan signal-larning birontasiga ham javob bermasdi. «Konvensiya» aviabardoridagilar sarosimaga tusha boshlashdi. Turli xayollarga bor-dilar, turli taxminlar qildilar. Paritet-fazogirlarga nima bo'ldi ekan? Ular nega jimib qolishdi? Kasal bo'lib qolishdimikin? Yoqmaydigan biror ovqatni yeb, zaharlanib qolishdimikin? Umuman ular tirikmikan?

Nihoyat, so'nggi vositani ishga solishdi – bekatda umumiy yong'in xabari tarmog'ini ishga tushirish to'g'risida signal berishdi. Ammo bu dahshatli xabarga ham hech qanday javob kelmadi.

«Demirg» dasturi jiddiy xavf ostida qoldi. Shundan so'ng «Konvensiya»dagi Qo'shmarbosh qanaga voqea yuz berganini aniqlash uchun oxirgi chorani ko'rishga majbur bo'ldi. Nevada va Sario'zak kosmodromlaridan «Paritet» bilan tutash-tirish uchun fazogirlar boshqargan ikkita kosmik kema bir vaqtda uchirildi.

Nihoyatda mushkul bo'lgan sinxron¹ tutashtirish ishi amalga oshirilgach, «Paritet» bekatiga yetib borgan nazoratchi-fazogirlarning u yoqdan yuborgan dastlabki xabari hammani hayratda qoldirdi: nazoratchilar bekatdagi barcha hujralarni, laboratoriyalarni, barcha qavatlari-pastqam joylarni – hamma-hammasini ipidan-ignasigacha tekshirib chiqishgandan so'ng paritet-fazogirlarni topolmaganliklarini xabar qilishdi. Bekatda ularning tirigiyam, o'ligiyam yo'q edi...

¹ Sinxron (yunoncha: synchro – bir vaqtda, davrli < syn – birga + chronos – vaqt, davr) – 1) bir-biriga mos ravishda, ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo'lgan yoki bo'ladigan (bu yerda shu ma'noda); 2) ayni bir davr tilini davr, vaqt omili va hissoniy o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan holda tavsiflashga oid, aloqador.

Bu voqea sira aql bovar qilmadi. Samoviy bekarda uch oydan ortiq vaqt mobaynida birga bo'lib, zimmalariga yuklatilgan barcha vazifalarni yaxshi ado etib kelayotgan ikki odamning dom-daraksiz ketishi yetti uxlab tushingga ham kirmaydi. Bug'ga aylanib ketmagandir, axir. Bekatni tashlab ketishmagandir!

«Paritet»ni tekshirish seansi «Konvensiya» aviabardorida to'ppa-to'g'ri radiotelevizion aloqa orqali ikkala Oliy Bosh hamrahbar va paritet-fazogirlarning bevosita ishtirokida o'tayotgan edi. Qo'shmarboshdagi ko'pgina ekranlardan nazoratchi fazogirlarning o'zaro gaplashib, samoviy bekatdagi hamma blok va xonalardan vaznsizlik holatida suzib o'tayotganlari yaxshi ko'rinish turardi. Ular bekani qadam-baqadam tekshirib, kuza-tishlari to'g'risida doimo «Konvensiya»ga axborot berib turishar edi. Ularning suhbat maginit lentasiga yozib olindi.

«Paritet». Sizlar ham ko'ryapsizlarni? Bekarda hech kim yo'q. Hech kim ko'rimayapti.

«Konvensiya». Bekarda biror narsaning sindirilgani yoki buzilgani sezilmaydimi?

«Paritet». Yo'q. Hamma narsa o'z o'rnida, saranjom-sarisha.

«Konvensiya». Hech qayerda qon izi ko'zga tashlamadimi?

«Paritet». Yo'q, mutlaqo.

«Konvensiya». Paritet-fazogirlarning shaxsiy buyumlari qayerda va qay ahvolda yotibdi?

«Paritet». Chamasi, hamma narsa o'z joyida.

«Konvensiya». Baribir, aytin.

«Paritet». Ular bu yerda yaqiniginada bo'lganga o'xshaydi. Kitoblar, soatlar, plastinkaga¹ ayadigan radio va boshqa ulbullar ham o'z joyida.

¹ **Plastinka** (ruscha: пластинка – qat'iq moddaning yuqqa parchasi) – 1) metall, shisha kabi qat'iq narsaning yuqqa yulpoq parchasi; taxtasi; 2) patetol, radiolarga qo'yib eshitish uchun ovoz yozilgan, odatda plastmassadan yasalgan doira shaklida yuqqa disk (bu yerda shu ma'noda); 3) fototrasn olishda foydalaniladigan, sezuvchi modda bilan qoplangan oyna.

«Konvensiya». Xo'p. Devordami yo qog'ozda birotta yozuv yo'qmi?

«Paritet». Yozuv-pozuv ko'zga tashlamadi. Iya, shosh-mang-chi! Ochiq turgan vaxta jurnalida qandaydir yozuv borgan o'xshaydi. Jurnal vaznsizlik natijasida muallaq suzib yummasligi uchun qisqich bilan qistirilib, eshikdan shunday kiraverishga, sahifalar ochiq holda ro'para qilib qo'yilibdi...

«Konvensiya». O'qinglar-chi, nimalar yozilgan ekan!

«Paritet». Hozir urinib ko'ramiz. Yonma-yon ikki ustunda ingliz va rus tillarida yozuv bor...

«Konvensiya». Nimaga qarab turibsizlar, tezroq o'qisalar-ing-chi!

«Paritet». Sarlavhasini «Yerliklarga maktub», deb atashibdi, gavs ichida «Tushuntirish xati» degan yozuv.

«Konvensiya». To'xtang. O'qimay turing. Aloqa seansi to'xtatildi. Bizni kutinglar. Birozdan so'ng sizlarni qaytadan aloqa bog'lashga chaqiramiz. Tayyor turinglar.

«Paritet» Okey!

Shu yerda samoviy bekat bilan Qo'shmarbosh o'rtasidagi suhbat uzib qo'yildi. «Demiurg» dasturining Oliy Bosh hamrahbarlari o'zaro kengashib olganlaridan so'ng, ikkita paritet-operatoridan tashqari boshqa hamma xodimlarning kosmik aloqa blokini tark etishini iltimos qildi. Shundan keyingina ikki yoqlama kosmik aloqa seansi qayta tiklandi. Paritet-fazogirlar «Tramplin» orbitasida qoldirib ketgan maktublarning mazmuni quyidagicha edi:

«Hurmati kashdoshlar! Biz «Paritet» samoviy bekatinii favqulodda holatda tark etayotgan ekanmiz, hali qachon qaytib kelamiz, ehtimol, yana noma'lum muddatga uzoq yurishimizga to'g'ri kelar – bularning hammasi ishimizning oqibatidan kelib chiquvchi bir qancha omillarga bog'liqligi tufayli qilmishimizning sabablarini tushuntirib berishni o'zimizning muhim burchimiz, deb hisoblaymiz.

Bu qilmishimiz favqulodda bo'lib qolmay, intizomni buzish deb baholanishini endi yaxshi tushunib turibmiz. Biroq samoviy bekarda biz yo'lgan favqulodda voqea butun insoniyat

madaniyati tarixida qiyos qilib bo'lmaydigan hodisa ekanini nazarga olib, ahvolimizga tushunasizlar, degan umiddamiz...

Bundan bir qancha vaqt ilgari fazoning har burchidan, shuningdek, ayniqsa yerning o'z ionosferasidan¹ tinimsiz shovqin va to'siqlardan o'tib kelayotgan son-sanogisiz radioimpulslar² qatorida qisqa chastotali³ chiziqli bilan ajralib turuvchi, bir maqsadga yo'naltirilgan radiosignalni sezib qoldik. Bu radiosignal muntazam ravishda har kuni bir vaqtning o'zida va bir xil oralikda davom etib turar edi. Dastavval biz bu radiosignalga unchalik e'tibor bermadik. Lekin bu — ular koinotning aniq bir nuqtasidan muntazam ravishda hadeb bir mo'ljalga, sezishmicha, bizning samoviy bekatinizni qat'iyo'g'iga olib yuborilayotganga o'xshadi. Endilikda buni aniq bilamiz: sun'iy yo'naltirilgan bu radioto'lqinlar bizning uchinchi vaxtaga chiqishimizdan ancha ilgari ham kelib turgan. Chunki «Paritet» olis kosmosdagi «Trampin» orbitasiga chiqqaniga bir yarim yildan oshdi-ku. Koinoldan kelib turgan bu radiosignallarga nima sababdan birinchi bo'lib biz e'tibor berganimizni tushuntirib bermoymiz. Bu har holda mulqo tasodifiy bo'lsa kerak. Qanday bo'lmasin, bu hodisaning yuz berishi tabiatini kuzatib, qayd etib o'rgana boshladik va asta-sekin bu oddiy tabiat hodisasi bo'lmay, balki sun'iy mabdan tarqalayotgan to'lqinlar ekaniga tobora ishonchimiz orta boshladi.

Ammo biz bu fikrga birdaniga kela qolganimiz yo'q. Orada qanchadan qancha shubhalarga bordik. Taxminimizcha, koinotning ko'z ilg'amas cheksiz uzozliklaridan kelayotgan, faraz qilishimizcha, birgina sun'iy radiosignalga asoslanib, g'ayritaminiy tarqagiyot mavjud, degan fikrni ayta olishimiz mushkul edi. Fanning avvalgi hamma urinishlari, hatto eng kichik vazifani hal etish — aqalli qo'shni sayyoralarda eng

¹ Ionosfera (ion + yunoncha: sphaira — shar) — atmosferaning ion yoki erkin elektronlarga boy bo'lgan yuqori qatlami.

² Radioimpulslar — qisqa vaqt ichidagi yuqori chastotali gammonik tebranishlar ketma-ketligi.


³ Chastota (ruscha: частота < част — birin-kecin tez almashinuvchi, muayyan vaqt oralig'ida tez takrorlanuvchi (harakat, holat yoki voqea-hodisa) — 1) ma'lum vaqt ichida takrorlangan harakat yoki tebranishlar soni.



ibtidoiy hayot asarini topishga qaratilgan izlanishlari ham zo'ye ketgan bo'lar edi-da. Yerdan tashqari biron joyda aql-idrok mavjudligini izlash avval ehtimoldan uzoz deb qaralgan bo'lsa, keyinroq g'irri puch, xayoliy, utopik¹ mashg'ulot deb hisoblana boshladi. Chunki kosmik olamni tadqiq etish sohasidagi har bir yangi qadam natijasida aqlli mavjudotlarni topishning hatto nazariy jihatdan ham imkoniyatlari tobora kamaya boshladi. Bu imkoniyatlar amalda puchga chiqti desa bo'ladi. Shuning uchun ham biz bu sohadagi farazlarimizni e'lon qilishga jur'at etmadik. Biz Yerning butun Koinolda tiriklik mavjud bo'lgan noyob, beg'iyos, yakka-yu yagona biologik mo'jizot ekani haqidagi umumbashariy fikrga shak keltirishga ham jur'at etmadik. Bu sohadagi shubhalarimizni o'rtog'lashishga biz o'zimizni burchlimiz, deb ayta olmadik. Chunki samoviy bekadagi ishlarmiz dasturiga bu xildagi kuzatuvlar kirmas edi. Bulardan tashqari, ochig'ini aytganda, bir kuni parvoz vaqtida daryo bo'yidagi o'tloqda yoyilib o'tlab yurgan sigirlar ko'z oldiga kelgan va shundan boshlab massxa'romuz «sigir-fazog'ir» degan laqab olgan birodarimizga o'xshab qolishni ham istamas edik.

Yerdan tashqari yana Koinotning muayyan bir qismida ongli hayot mavjudligidan guvohlik beruvchi tag'in bir oxirgi dalilini ko'rgan bo'lsak ham, birzoq biz endi kechikkan edik. Hayot mavjud bo'lgan yangi olamning tug'ilishi haqidagi tasavvurlarimiz tubdan o'zgarib o'stin-ustin bo'lib keldi, nogahon olamni butunlay boshqacha tushunchalar asosida idrok eta boshladik. Aqliy energiyaning yana bir qudratli o'cho'g'i, yana bir hayot maskanining kashf etilishi bizni shunday yo'l tutishga majbur etdi. Yerni asrashning yangicha tushunchasi bizni shunga da'vat etdiki, ma'lum vaqtgacha biz zamin aholisini o'z kashfiyotimizdan voqif etishdan tiyilib turish lozim, degan xulosaga keldik.

¹ Utopiya (yunoncha: utopos < mavjud bo'lmagan joy yoki eutopos go'zal, ajoyib manilakat) — ideal ijtimoiy tuzum tasviri (T. Morening ayni shunday janniyat tasvirlangan «Utopiya» asari nomidan); 2) ilmiy fantastika janri; ijtimoiy qayta qurishlarning no'rcal xayoliy rejalari tasvirlangan barcha asarlarining belgisi. Utopik (utopiya so'zidan olingan) — ilmiy asosga ega bo'lmagan, amalda oshmaydigan, real emas, xayoliy, g'ayritaminiy.



Endi ishing mohiyatiga o'taylik. Bu qanday sodir bo'ldi? Bir kuni biz shunchadki sinab ko'rish uchun Koinotning o'sha nuqtasiga, doimo va muntazam ravishda sirli radioimpuls-lar kelib turgan o'sha nuqtaga o'sha chasrota spektrida¹ javob radiosignal yuborishga qaror qildik. Mo'jiza yuz berdi! Signalimiz shu zahotiyoq qabul qilindi! Uni darhol qabul etishdi-yu, tushunishdi! Bizning qabul qiluvchi mintaqamizda ularning yana bir yordamchi signali paydo bo'ldi, oradan sal o'tib yonida yana boshqa radiosignallar eshitila boshladi – bu tabrik signallari edi. Galaktikanizdan² tashqarida, olamning cheksiz olis qismida ongli mavjudotlar yashayotgani va ular o'zlariga o'xshash tirik jonlar bilan aloqa qilib turishdek yuksak layoqatga ega ekanlik-lari haqidagi quvonchli xabarni kuylagan sinxron radiosignallar bir necha soat davomida tantanali ravishda eshittilib turdi. Bu voqea koinotdagi hayot haqidagi tasavvurimizni tubdan o'zgar-tirib yubordi: zamon va makon, masofalarining tuzilishiga doir bilimlarimizni ostin-ustin qildi... Nahot, dunyoda, biz o'zimiz yolg'iz emasmiz, cheksiz olamning aql bovar qilmaydigan keng-liliklarida biz tanho emasmiz, Yerdagi inson tajribasi Koinotdagi ruh kashfiyotida yagona emas...

G'ayrizaminij³ taraqqiyotini kashf qilganimizning chinli-gini tekshirib ko'rish uchun azaldan mayjud bo'lib, hozir ham hayot davom etib kelayotgan Yer sharimiz og'irligining formula-sini radiosignal orqali yubordik. O'z navbatida, javob tariqa-sida, shunga o'xshash ular sayyorasining og'irlik formulasini qabul qildik. Bundan shunday xulosaga keldikki, ongli mavjudot-lar yashaydigan mazkur sayyoraning hajmi biznikidan ancha katta bo'lib, tegishli tortish kuchiga ega ekan.

¹ **Spektr** (lotincha: spectrum – tasavvur, ko'zga ko'rinadigan, ko'rib bo'ladigan narsa, tasvir) – murakkab nurning shisha prizma va shu kabrlarni sindiruvchi muhit orqali o'tganida hosil bo'ladigan rang-borang chiziqlar majmuri.

² **Galaktika** (G – katta) (yunoncha: galaktikos – sutli, sutsimon) – Quyoshni va Quyosh sistemasi-dagi boshqa sayyoralarni ham o'z ichiga olgan, o'zaro umumiy tortishish kuchi bilan bog'langan 200 milliarddan ortiq yulduzlarning ulkan gravitatsion sistemasi.



Biz shu tariqa fizika qonunlariga ko'ra ilk bor o'zaro fikr almasha boshladik va ilk bor g'ayrizaminidagi ongli mavjudotlar bilan aloqaga kirishdik.

Biz bilan bo'lgan o'zaro aloqalarni chuqurlashtirish va yaqinlashtirishda o'zga sayyoralar ham faollik ko'rsatishdi. Ularning sa'y-harakatlari tufayli aloqalarimiz tobora yangi mazmun kasb eta boshladi. Ko'p o'lmay, ularida nur tezligida ucha oladigan apparatlari borligi ma'lum bo'ldi. Bu ma'lumolarning barchasini, avvalo, o'zaro matematik va kimyoviy formulalar almashish orqali bilib oldik. Keyinchalik esa ular gapira olishga ham qodir ekanliklarini anglatishdi. Ayon bo'ldiki, biz – yerliklar Yerning tortish kuchini bartaraf etib, koinotga chiqib, u yerda barqaror yashay boshlaganimizdan beri ular Galaktikadan keluvchi hamma tovushlarni aniq eshittiruvchi audioastronomiya apparatlari yordamida bizning tilimizni o'rganishayotgan ekan. Ular koinot va Yer o'rtasidagi radioaloqa signallarini muntazam ravishda tutib olib, qiyoslash va tahlil etish tufayli bizning so'z hamda iboralarimiz ma'nosini bilib olishibdi. Ular biz bilan ingliz, rus tillarida suhbatlashishga uringanlarida bunga ishonch hosil qildik. Bu yana bir aql bovar qilmaydigan, kishini lol qoldiradigan kashfiyot edi...

Eng muhim gaplarga o'tamiz. Biz g'ayrizaminij³ taraqqi-yotga ega bo'lgan ana shu sayyorani borib ko'rishga jazm eidik. Ularning sayyorasini signal-ishoralariga asoslanib, taxminan To'qayto'sh deb atadik. Bizni to'qayto'shliklarning o'zlarini taklif etishdi, bu filer ularidan chiqdi. So'ng puxta o'ylab ko'rgach, borishga qaror qildik. Ularning nur tezligida uchadigan apparatlari bizning samoviy bekatimizga yigirma olti-yigirma yetti soatlarda yetib kelishi mumkinligini tashvutlirishdi. Xohla-gan paytimizda yana samoviy bekatimizga xudai shu muddat oralig'ida olib kelib qo'yishga va'da berishdi. Samoviy bekat bilan ularning apparatini qanday tutashirishimiz mumkinligini so'raganimizda, buning unchalik qiyin masala emasligini aytish-di, ya'ni to'qayto'shliklarning uchuvchi kemasi har qanday shakldagi va har qanday qurilmadagi narsaga geometrik yo'l bilan tutasha olish imkoniyatiga ega ekan. Chamasi, qandaydir



elektromagnit orqali tutashish xususiyatiga bog'liq narsa bo'lsa kerak bu. Ularning uchlar apparati bekatimizning ochiq koinotga chiqadigan eshigi oldiga kelib yondashsa, biz bekatimizdan to'qayto'shliklarning kemasiiga o'tishimiz mumkin bo'ladi, degan fikrga keldik. To'qayto'shga qilgan sayohatimiz dorilamon tugasa, yana xuddi shu usul bilan ortga qaytamiz, deb mo'ljallamoqdamiz...

Shunday qilib, biz «Paritet» bekat borida o'z maktubimizni qoldiryapmiz. Ehtimol, bu izohnomalardir, ochiq xatdir, murojaatnomadir – qanday deb qabul qilsalaringsiz, ixtiyor o'zlaringsizda. Gap bunda emas, albatta. Biz qanday ishga jur'at qilganimizni, buning qanchalar mas'uliyati ekanini juda yaxshi tushunamiz. Insoniyatga xizmat qilishdek bunday noyob imkoniyat bizga nasib etganini, bundan ham kattaroq baxt yo'qligini anglab turibmiz...

Biroq, shunday bo'lsa-da, burch tuyg'usi, o'zaro bog'liqlik tuyg'usi, majburiyat tuyg'usi, nihoyat, intizom degan masalalar vijdonimizni rosa qiyinadi. Nihoyat, har birimiz azaliy an'andar, qonunlar, ijtimoiy qoidalar asosida tarbiyalanganmiz. Biz «Paritet»ni tark etar ekanimiz, na Qo'shmarbosh rahbarlarini, na yerliklardan biron kishini xabardor qilib qo'yimadik, maqsad va vazifamizni hech kim bilan, hech qanday yo'l bilan kelishib olmadik. Buning sababi – Yerdagi ijtimoiy hayot qoidalarini mensimaganligimizdan emas, albatta. Bu narsa bizni ko'p o'y-xayollarga toldirdi. Tasavvur qilib ko'ring-a: hatto xokkey o'yinidagi qo'lga kiritilgan ortiqcha gollar ham har kimning o'z davlati tizimining g'alabasi va ustunligi deb qabul qilingani kabi o'z yechimini oshkora e'lon qiladigan bo'lsak, unda xalqlar orasidagi o'sha kuchlar harakatiga kelib, turli kayfiyatlar, ziddiyatlar, ehtimollar alanga olishini, hamma yoq ostin-ustin bo'lib ketishi mumkinligini nazarda tutib, xabar qilmasdan jo'nab ketishga majbur bo'lganimizni sizlar tushunasizlar, deb o'ylaymiz. Hayot, qaysi birini aytaylik, biz Yerimizdagi hayotni, turish-turmushni o'la darajada yaxshi bilamiz! G'avrizaminiy taraqqiyot bilan aloqa bog'lanadigan bo'lsa,

yerliklar orasida jahon urushi boshlanishiga yana bir bahona topilmasmikin? Bunday bo'lmaydi deb, kim kafillik bera oladi?

Yerdagi siyosiy kurashdan chetda turish qiyin yoki bu deyarli mumkin emas. Lekin biz uzog' muddat, ko'p kunlar va haftalar davomida o'ls kosmosda yurganimizda – bu yoddan Yer shari avtomobil g'ildiragidek arang ko'rinar ekan – yerdagi alg'ov-dalg'ovlarni o'ylab izitirob chekalk, izza bo'ldik hatto. Sababi hozirgi energetik inqiroz jamiyatni shunday bir tang holatga solgan, bu ayrim mamlakatlarning atom bombasini dastak qilishga intilishiga olib kelishi mumkin, bu esa nari borganida, yirik texnikaviy muammodir, xolos. Bashari bu mamlakalar o'zaro bir-birlari bilan kelishganlari taqdirda, ya'ni, yaxshisi, buning o'rniiga...

Shusiz ham turli xavf-xatarlar ichida qolgan yerliklarni yana tashvishga solmaslik uchun o'z zimmanizga mislsiz og'ir mas'uliyat yukladik – jazodagi ongli mayudotlar bilan butun insoniyat nomidan so'zlashishga, e'tiqadimiz va vijdonimiz amriga qarab ish tutishga jur'at eldik. Biz o'z ixtiyorimiz bilan zimmanizga olgan bu vazifani munosib ravishda uddalaymiz, degan uniddamiz.

Oxirgi aydar so'zimiz shuki, bizning mulohazalarimiz, shubhalarimiz, iktilanishlarimizning asosiy sabablariidan yana biri – «Demiurg» dasturiga insoniyatning yer-u osmon tarixidagi eng buyuk tashabbuslardan birining bajartilishiga zararcha ziyon-zahmat yetkazmaslik tashvishi edi. Bu dastur mashagatlar chekib kelgan o'zaro ishonchsizlik vaziyatida hamda o'zaro hamkorlik sohasidagi yaqinlashish va uzoqlashishlarimiz natijasida yuzaga kelgan edi. Lekin, baribir, aql-idrok tantana qildi, binobarin, o'z kuch-qobiliyatimizga yarasha umumiy ishimizga sidqildidan xizmat qildik. Lekin vogedlarni bir-biriga nisbat berib hamda tilga olingan xavf-xatarlarga ko'ra, «Demiurg» dasturini xavf ostida qoldirishni istamagan holda To'qayto'sh sayyorasiga tashrif buyurganimiz natijalaridan insoniyatni xabardor etish maqsadida «Paritet»ni vaqtincha tark etmoqdamiz. Mabodo biz manguga g'oyib bo'lib kelsak yoki rahbarlarimiz bizning «Paritet»da vaxtani davom ettirishimizni lozim

ko'rishmasa, o'rminizga boshqa odamlarni qo'yish qiyin ish emas. Bizdan yaxshiroq ishlaydigan yigilar hamma vaqt topiladi.

Biz noma'lum yo'l sari ketdik. Bilimga tashnalik, o'zga odamlardagi o'zimizga o'xshash aqlli mavjudotlarni kashf etish istagi, aql-zakovatlarimizni yangi sayyora aql-zakovati bilan qo'shish istagi bizni mana shu yo'l sari da'vat etmoqda. Biroq g'avizaminij tarqagiyoning tajribasi yerliklarga yaxshilik keltiradimi, yomonlik keltiradimi – buni hali hech kimga ma'lum emas. Biz ko'rgan-bilganlarimizga xolisona baho berishga harakat qilamiz.

Mabodo bu kashfiyotimiz Yer kurrasi uchun qandaydir tahdid solishini va vayronagarchilik keltirishini sezib qolsak, shu zahotiyoq Yerga zararcha jalokat yetkazmaslik chorasini ko'rishga qasamyod qilamiz.

Yana bir karra so'ngi so'zimizni aytmoqchimiz. Biz Yerni illyuminatorlarimizdan¹ ko'rib turamiz. U go'yo zulmat dengizi ichra nur sochib turgan gavharday ko'rimgoqda. Yer beqiyos darajada ajoyib-g'aroyib, serua rangda g'oyatda go'zal, olishdan qaraganda, norasida bolaning boshiday nozik va zaif ko'rinadi. Biz bu yodan qarab turakamiz, olamda yashayotgan hamma odam bizning aka-ukalarimiz va opa-singillarimizdek tuyilib, go'yo ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmagandaymiz. Aslida esa, ma'lumki, Yer yuzidagi odamlar bir-birlari bilan biz o'ylaganchalik ahil yashay olmayotganlariga ichimiz achiydi.

Biz Yer kurrasi bilan xayrlashyapmiz. Bir necha soatdan keyin «Tramplin» orbitasini tark etamiz, shundan so'ng Yer ko'zimizdan g'oyib bo'lib ko'rilmay qoladi. O'zga sayyoraliklar – to'qayto'shliklar yo'lga chiqishgan. Ular orbitamizga yaqinlashmoqda. Ko'p o'lmay yetib kelishadi. Juda oz vaqt qoldi. Kutaypmiz.

¹ Illyuminator (lotincha: illuminator – yorituvchi, yoritqich) – kemalar, samolyotlar va kosmik kemalarning suv o'tkazmaydigan doira yoki to'rtburchak shaklli darchasi.

Yana bir gap. Biz o'z oilalarimizga ham xat yozib qoldiryapmiz. Bu ishga aloqador kishilarning hammasidan o'tinib so'raymizki, xalalarimiz egalariiga yetib borsa...

Darvoqe, bizning o'rminizga kelib, «Paritet»da ishlaydiganlar uchun izohnoma. Biz o'zga sayyoralar bilan aloqa bog'lab, fikr almashib turishda foydalanadigan kanalni va radioto'lqinlar chastotasini navbatchilik jurnatiga yozib ko'rsatib ketdik. Zarur bo'lib qolgan vaqtda, sizlar bilan shu kanal orqali aloqa o'rnatib, axborotlarimizni yetkazib turamiz. To'qayto'shliklar bilan olib borilgan radioalogramalar shuni ko'rsatdiki, aloqaning eng qulay va yagona usuli – samoviy bekatining boriidagi aloqa tizimi bo'lib chiqdi, chunki Koinoldan bevosita Yerga yuborilgan radioxabarlar Yer atrofini qurshab olgan ionlashitirilgan¹ kuchli atmosfer² qalanidan iborat to'siqqa uchrab, uni teshib o'ta olmaydi.

Shu bilan tamom. Xayr. Biz ketdik. Maktubimizning aynan bir xilidagi matni ikki tilda – ingliz va rus tillarida bitildi.

1-2 Paritet-fazogir,
2-1 Paritet-fazogir,
«Paritet» samoviy bekatni borti.
«Uchinchi navbatchilik vaqti 94-kun».

Amiq belgilangan vaqtda, Uzoq Sharq vaqti bilan soat o'n birta Amerika va Sovet Ittifoqi tomonidan maxsus vakolat olgan komissiyalar tushgan ikki reaktiv samolyot birin-ketin «Konvensiya» aviabardorining palubasiga³ qo'ndirildi.

Komissiya a'zolari bayonnomada ko'rsatilganidek, qat'iy surarda kutib olindi. Ularga tushlik ovqat uchun yarim soat muddat berilgani darhol xabar qilindi. Ovgatlanib bo'tishlari


¹ Ion (yunoncha: ion – boruvchi) – atom yoki atomlar gunatli bir yoki bir necha elektron qabul qilganda yoki yo'qolganda hosil bo'ladigan zaryadlangan zararcha. Ionlashmoq – ionlarga aylannmoq, ion hosil qilmoq.

² Atmosfera (yunoncha: atmos – nafas; bug'; havo + sphaira – shar) – 1) Yerni va boshqa ba'zi planetalarni o'rab turgan gazsimon qobiq (bu yerda shu ma'noda); 2) bosim o'tichov bitilgi.

³ Paluba (rueha) – kemalarning gorizontal holda taxta qoplangan yuzasi, sahni.

bilan komissiyalarning a'zolari «Paritet» samoviy bekatidagi favqulodda ahvolni muhokama qilish uchun kayut-kompaniyada² o'tkaziladigan yopiq kengashga yig'ilishlari kerak edi.

Biroq kengash ishi endi boshlanishi bilan to'satdan uzilib qoldi. «Paritetdagi nazoratchi – fazogirlar «Konvensiya»dagi Qo'shimatboshga qo'shni Galaktikadagi To'qayto'sh sayyorasidan 1-2 va 2-1 partet-fazogirlardan olingan ilk axborotni uzatib qolishdi.



Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay gatnab turadi...

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dashtlik – Sario'zak, o'racho'l yastanib yotadi.

Har qanday masofa Grinovich meridianidan o'tchangan singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'tchanaadi...

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay gatnab turadi...

Nayman qozoqlarining ajdodlari dafn etilgan qabrison Ona Bayitgacha ozmuncha yo'l deysizmi, Sario'zak dashti bo'y-lab to'g'ri kesib chiqilgan taqdirida ham nari-berisi bo'lib o'ttiz chaqirim keladi.

Edigey Bo'ron shu kuni barvaqt uyg'ondi. Tun bo'yi devyari mijja qoqmay chiqdi, faqat tongga yaqin biroz ko'zi

¹ *Kayuta* (gollandcha: kajuit) – kema da ekipaj a'zolari yoki passajirlar uchun belgilangan turar-joy, bo'lma, xona.

² *Kompaniya* (fransuzcha: compagnie < latinch: compages – birlashtirish; birlashma; aloqa) – 1) vaqtinchi birlashtirish yoki boshqa biror maqsad bilan uyushgan shaxslar guruh; ulfa, ulfanchilik; 2) savdo, samot yoki transport sohasida iqtisodiy faoliyat olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, ishbiarmonlar birlashmasi.

ilindi, xolos. Qolgan vaqt ichida esa marhumni so'nggi yo'lga kuzatish ishlari bilan band bo'ldi. Odatda, marhumni dafn kuni uydin chiqarish arafasida – janoza o'qish oldidan yuvishadi. Bu safar esa kechikib qolmasdan ertalab vaqtliroq yo'lga chiqish uchun iltitilgan suv olib kelib bergani aytmasa, qolgan ishlarning hammasini Edigey yolg'iz o'zi bajaradi. Edilboy yuragi dov bermay, o'likdan o'zini biroz chetga olib turdi. Seskanshi tabiiy edi, albatta. Biroq Edigey so'z orasida paygamanday dedi:

– Sen, Edilboy, yaqinroq kelib e'tibor qil, ko'zing pishsin. Tug'ilish bor, o'lish bor deganlaridek hammaning boshida bor bu narsa.

– To'g'riku-ya, – dedi jur'atsizlik bilan Edilboy.

– Men ham shuni aytmog'chi edim-da. Aytaylik, ertangi kun men o'lgudek bo'lsam, yuvib-tarab, kafanga solib ko'madigan odam topilmas ekan-da, biror o'raga tiqib ketaverar ekansizlar-da?

– Nega unday bo'lar ekan, – xijolat tordil Edilboy o'lik oldida chiroq tutib turar ekan, biroz o'zini ko'niktirib olganday bo'lib. – Sizsiz bu yerlar huvullab qoladi. Sog'-omon bo'ling, xudo umringizni bersin. O'ra esa shoshmay turar.

Jasadni dafnga tayyorlaganlaricha bir yarim soatga vaqt ketdi. Har holda, Edigey o'z ishidan ko'ngli to'q edi. Marhumni qoidasiga ko'ra yuvdi, qoidasiga ko'ra qo'l-oyoqlarini to'g'ri-lab bog'lab, boshini qiblagga qaratib yotqizib qo'ydi. Oq supdan keragicha ishlatib kafan tikdi va qoidasi bilan marhumni kafan-ladi. Ish orasida Edilboyga kafan qanday tikilishini ko'rsatdi. So'ng o'zini ham tartibga soldi, soqolini tozalab olib mo'ylabini tekis-ladi. Uning mo'ylovi ham qoshlari singari qalin va g'ayir edi. Ammo oq oralab, moshguruch tusga kirib, siyraklashtir bora-yotgan edi. Edigey askarlik medallari-yu ordenlarini va mehnat zarbdori nishonlarini yargiraytib tozalashniyam unutmadi – ularni kamzulning yog'asiga taqib, erta bilan kiyib chiqishga tayyorlab qo'ydi.

Shu tariqa tong otdi. Bu ishlarning hammasini bamay-lixoitr uddalay olganiga Edigey Bo'ronning o'zi ham ajablendi.

Ilgari biror odam Edigey mana shunaga aza kunlariniyam ishini

qoyillatadi desa hech kim ishommasdi. Demak, bu ish pesha-nasiga yozilgan ekan, Kazangapni dafn etish unga nasib etibdi. Taqdir degani shu ekan-da.

Qismatni qarang. Bir vaqtlar ikkalasi Qumbel bekatida birinchi marta uchrashib qolishganida oxiri shunday bo'ladi, deb hech kimning xayoliga ham kelmagan edi. Edigey qirq to'rtinchi yilning oxirida kontuziyaga uchrab, frontdan qaytib keldi. Yaza-ki qaraganda to'rt muchasi sog', oyog-qo'li butun, boshi o'z o'rnida. Ammo shu bosh go'yo o'zini emasday, tinimsiz shamol esayotganday. Qulog'i guvullashdan tinmaydi. Bir necha qadam bossa boshi aylanib, ko'zi tinib, gandraklab ketadiganday his qiladi o'zini. Goh issiq, goh sovuq terga botadi. Tili ham gohida kalimaga kelmay biror so'zni aytish mushkul bo'lib qoladi. Nemis snaryadining² portlash to'liqini uni aqldan ozish darajasiga keltirib, karaxt qilib qo'ygan edi. Tirik desa tirikka, o'lik desa o'likka o'xshamaydi. O'shanda Edigeyning ko'ngli butunlay cho'kib ketgan edi. Ko'rinishdan navqiron va soppa-sog'ga o'xshardi. Biroq Orolga, uyiga qaytib kelgach nimaga yaraydi? Xudo yorlaqab, baxtiga yaxshi shifokor uchrab qoldi. O'sha shifokor dori-darmon qilib uni davolagan ham yo'q, u yoq bu yog'ini qarab ko'rdi, so'zini tinglab tekshirdi, xolos. O'sha kunlar hozirgiday esida – oq xalat, oq qalpoq kiygan, ko'zlari chag'agan, burni katta, norg'uldan kelgan mallarang rus choli edi. U xursand bo'lib kulganicha Edigeyning yekkasiga urib qo'ygan edi.

– Bilasammi, og'ayni, – degan o'shanda u, – hademay urush tugaydi. Aks holda seni birlasda tuzatib, safga qaytaridin, yana biroz jang qilaring. Mayli endi, sensiz ham g'alaba yaqin qoldi. Faqat sen ko'nglingga olma, biror yilda, balki, undan ham ilgaritroq sog'ayib olday bo'lib ketasan, shu gapni men

¹ Kontuziya (*lotincha*: *contusion* – shikast, lat yeyish, maydalanish) – to'sqandan yetgan zarbdan (masalan, snaryad yoki bomba portlashidan) organizmning jarohatlanmay lat yeyishi, karaxt bo'lishi.

² Snaryad (*ruscha*: снаряд – asboby, qurol, to'p o'qi, yorituvchi bomba) – 1) artileriya qurollaridan otiladigan o'q-dori turi; 2) ba'zi texnik qurilmalar nomi; 3) gimnastika asboblarning umumiy nomi.

aytgapman senga, keyin eslab yurasan. Hozir esa tayyor-garligingni ko'rib, yuringga daytaver. Ko'ngling to'q bo'lsin, sendaga odamlar yuz yil yashaydi...

Keyin bilsa, o'sha mallavoy shifokor to'g'ri aytilgan ekan. Ammo biror yil degani aytilmagina oson, xolos. Gospitaldan¹ chiqdi-yu, egnida g'ijimlangan shine², yelkasida tugun, har ehtimolga qarshi qo'ltiqayovq bilan shaharga kirdi, xuddi qalin o'rmon ichida yurganday edi: boshi g'uvullar, oyog'i qaltirar, ko'zi tinib ketardi. Vokzalda har kim o'z yumushi bilan ovora, son-sanog'siz odamlar kimning kuchi yetsa, poyezdga chiqib keyapti, kuchi yetmagani chetga surilib qolyapti. Bir amallab poyezdga chiqib oldi, manziliga yetdi. Bir oycha sargardonlikdan so'ng poyezd kechasi Orol bekatiga kelib to'xtadi. «Besh yuz yettinchi, sho'x poyezd» deyshardi o'sha «mashhur» poyezdni. Bunday poyezdda yurish hech qachon hech kimning boshiga tushmasin...

Biroq o'sha kezlarda shunisini yetkazganiga ham ming qatla shukr qilgan. Qorong'ilikda poyezddan tushgach, xuddi tog'dan tushganday garangsib, bir zum turib qoldi. Atrofda jon asari ko'rinmaydi, o'lda-jo'lda bekat chiroqlari arang millitraydi. G'ir-g'ir shamol esib turibdi. Edigeyni mana shu shamol kutib oldi. Qadrdon Orol shamoli! Yuziga Orol nafasi urildi. O'sha kunlari dengiz yonginasida, temir yulning biqinida chayqalib turardi. Hozir esa durbindan qaraganda ham suvni ko'rib bo'lmaydi...

Cho'ldan sezilar-sezilmay shuvov hidi dimoqqa urildi. Orolning nari yog'ida kengliklardan endi uyg'onayotgan bahor nafasi ufuradi. Nihoyat, qadrdon yurtiga yetib keldi!

Edigey bekatni, uning yaqinidagi dengiz sohiliga joylashgan shaharchaning qing'ir-qiyshiq tor ko'chalarni yaxshi bilardi. Eitgi loyga botib qolardi. U tanishlarinikiga yo'l oldi. Bugun shu tanishlaridan birinikida tunab qolib, ertasi o'zlariga

¹ Gospital (*lotincha*: *hospitatis* – mehmondo'st) – odamlar harbiy yotib davolanadigan kasalxona.

² Shine (*ruscha*: *шинель* – erkaklarning tonggi kiyimi, kosyuni) – maxsus matodan tikiladigan, maxsus bichimdagil palto.

ning baliqchilar ovuli Jonkeldiga yetib bormoqchi edi. Biroq ungacha xiyaligina yurishga to'g'ri kelardi. Tor ko'cha orqali shaharcha chekidagi dengiz bo'yiga chiqib qolgani o'ziyam sezmay qoldi. Shunda o'zini tiyib turolmay dengiz sari burilib, suvning qumli qirg'oqqa urilib, shaloplayotgan joyiga kelib to'xtadi. Qorong'i tunda dengiz yuzasi bilinar-bilimas jimirab shu'la taratib turardi, bir-biriga mingashib ketgan jimjimador o'ikachi to'liqlilar shovullab kelardi-da, yana shu yerining o'zida g'oyib bo'lardi. Tong oldidagi oy yuksaklikdagi sur bulutlar orasidan oqish dog' singari g'aribona boqardi.

Nihoyat, diydor ko'rishish nasib etgan ekan.

— Omonisan, Orolim! — deya o'zicha pichirlab qo'ydi Edigey. So'ng narigi yoqdagi toshga o'tirib olib, tamaki tutardi. Doktorlar kontuziya bo'lding, chekmaganing ma'qul deysingan bo'lsa-da, hozir o'zini tiyolmadi. Keyinchalik esa bu yomon odatni tashladi. Lekin o'shanda hayajonlanib ketdi, u vaqtda tamaki tutunini o'ylardi, bu yog'iga tirkichlik qilishni o'ylab ketdi. Dengizda ishlavdigan odamning qo'li chayir, beli baqurvat va eng muhimi, boshi butun bo'lishi kerak. Aks holda qalqib turadigan barjada boshing aylanib gangib qolishing hech gap emas. Frontga qadar u baliqchilik korxonasida ishlardi, endi esa hech kim emas. Nogiron bo'lib nogiron emas, ish desang, ishga yaramaydi. Hammadan ham yomoni shunda ediki, endi bu bosh bilan baliqchilikda ishlab bo'lmaydi.

Edigey endi o'rmiidan turishga chog'lanayotgan edi, qirg'oqda allaqayodandir oq bir it paydo bo'lib qoldi. U sohil bo'ylab chopib yurardi. Goho to'xtab qolib nimanidir sezganday nimxush qumli hidlab ko'ardi. Edigey imi chaqirib oldi. U ham begonasiramay yaqiniga kelib, dumini likillatib turaverdi. Edigey uning paxmoq bo'yidan siladi.

— Qayerdansen sen? Qayoqdan yo'rrib kelyapsan? Oling nima, Arslonmi? Yo'lbarsmi? Bo'rribosarmi? Ha, endi bilisan, qirg'oqdan baliq izlab yurgan ko'rinasan. Durust, durust! Biroq dengiz deganing hamma vaqt ham oyog'ing tagiga chala o'lik baliqni chiqarib tashlayvermaydi. Iloj qanchal! Yugurish kerak. Oqsoyak bo'lib ketgani ham shundan ekan-da. Men esa

og'ayni, uyimga qaytayotgan odamman. Kenigsberg yaqinidan qaytib kelyapman. Shul shaharga yetay deb qolganimda snaryad portlab qolsa bo'ladini, arang tirik qoldim. Mana endi bu yog'i nima bo'ladi, deb o'y-xayol surib o'tiribman. Nega menga bunday qarayapsan? Senga berguday hech narsam yo'q. Faqat orden-u medallar... Urush degani shu ekan og'ayni, hamma yoqda qahatchilik. Bo'lmasa, sendan bir nimani ayarmidim?.. To'xtab tur-chi, manavi yerda novvot bor, o'g'ilchamga olib boryapman. Hozir u chopqillab ketgan bo'lishi kerak...

Edigey erimasdan yarmi bo'shab qolgan xaltachasini ochdi, unda gazetaga o'ralgan bir hovuch novvot, yo'lda kelayotib xotiniga deb olgan durracha, chayqovchilardan olgan bir juft sovun bor edi. Xaltada, yana bir juft askar ich kiyimi, kamar, pilotka¹, qo'shimcha gimnastyorka², shim bor edi — uning butun bisoti — shu.

It Edigeyning kafidagi novvotni yalab olib, qisirlatib chaynab yubordi-da, dumini likillatgancha chaqagan ko'zlarini ixlos va umidvorlik bilan tikib turaverdi.

— Endi xayr, og'ayni!

Edigey o'rmiidan turlib, qirg'oq yoqalab yurdi, bekardagi odamlarni bezovta qilgisi kelmadi. Tong o'tishiga ham oz qolgan edi. Shuning uchun ham o'z ovuli Jonkeldiga yetib olishga oshiqdi.

Shu kuni Edigey dengiz yoqalab yurib Jonkeldisiga arang tushga yaqin yetib bordi. Kontuziya bo'lmasdan ilgari u bu yo'lmi ikki soat deganda bosib o'tardi. Borishi bilan mudhish xabarni eshitdi: farzandi — dilbandi allaqachon olamdan o'tgan ekan. Edigey xizmatga chaqirilganda, bola endigina olti oyga to'lgan edi. Nasib etmagan ekan, o'n bir oyligida nobud bo'libdi. Chaqaloqqa qizamiq chiqib, isitmaning zo'rligidan kuyib-yonib, adoyi tamom bo'libdi. Unga xat yozishni lozim ko'rishmabdi. Qayerga yozishadi, yozishga hojat ham bormidi? Busiz ham

¹ Pilotka (ruscha) — harbiy xizmatchilar (dastlab uchuvchilarning yozlik bosh kiyimi).

² Gimnastyorka (ruscha) — tik yoki qaytarma yoqali, ustidan kamar bog'lanadigan ust ko'ylak (rasmiy harbiy kiyim).

urush kulfatlari yetib ortayotgan edi. Eson-omon qaytib kelsa, o'zi bilar, kuyib-yonib, yig'lab-siq'lab ko'nikib ham ketar, deb qarindosh-urug'lar Ukkubolani ko'ndirishga harakat qildilar. Hali yoshsizlar, urush tugasin, xudo xohlasa, hali qancha farzand ko'rasizlar. Chinorning shoxi sinsa ham, o'zi sinmasin. Yana bir xil mulohazalar ham bor ediki, bularni odamlar dilida o'ylashar, lekin tiliga chiqarishmasdi: ming qilsayam urush-urushda, ajali yetib, o'qqa uchrasa, yorug' dunyodan ko'z yumishi osonroq bo'ladi – har qalay, uyda farzandim qoldi, mendan keyin chirog'im o'chmaydi, degan umid bilan ketadi...

Ukkubola ayb o'zida deb, ich-etini yerd. Qaytib kelgan erini quchoqlagancha ho'ng-ho'ng yig'lardi. U axir, mana shu kuni taqdirga tan berganday ham umid, ham cheksiz azob-izitirob, tugannas dard-alam bilan kutdi. Eri oldida duv-duv ko'z yoshi to'kib, bilarmon kampirlarning gapiga qulog solmay, dog'da qolganini gapirib berdi. Kampirlar bolaga qizilcha chiqqan, bu yomon narsa, chaqalogni tuya jumidan qavilgan ko'rpaga issiq-qina o'rab, qop-qorong'i uyda saqlash lozim, aytganday, hadeb muzdek suv berib turaverish kerak, u yog'iga xudo rahm qilib, isimaga bardosh berolsa, tuzalib ketadi, deb ogohlantirishgan edi. Men – ishi o'ngidan kelmagan baxti qaro ovulagi kampirlarning gapiga qulog solmabman. Qo'shimlarning aravasini so'rab, betob go'dakni bekindagi shifokor xotinga olib bordim. Taraqa-turuq aravada Orolga yetguncha bolaginamning joni yo'lda uzildi. Shifokor xotin kampirlarning gapiga qulog solishing darkor edi, deb qattiq koyib berdi...

Edigey ostonaga qadam bosishi bilan eshitgan xabari shu bo'ldi. Shu zahotiyog g'am-anduhdan kuyib kul bo'ldi, tosh bo'lib qotdi-qoldi. Hali qo'lga olib, tuzukroq erkalatishga ham ulgurmag'an murg'ak bola – to'ng'ich farzandining diydoriga zor bo'lib, bu daraja sog'imib kelishi bilanog bunday og'ir judolikka uchrashini ilgari o'ylab o'yida, uxlab tushida ko'rmagan edi. Edigey hali tishi chiqmagan, ko'zlarini mo'tiraitib ishonch ila boqib, kulimsirab turadigan ma'sum go'dagini eslab, jon-u jahoni o'tanib ketar edi.

Shu kundan boshlab o'z ovui ko'ziga sovuq ko'rma boshladi. Bir vaqtlar qirg'odagi tepalikda ellikta xonadon yashar edi. Xonadon egalari Orol'dagi baliqchilik artelida¹ ishlashib, tirikchilik qilishardi. Endi esa jarlik yog'asida o'n chog'li paxsa uy qolgan, xolos. Ertak zoti qolmagan, hammasini urush olib ketgan. Qolgan qari-yu yoshlar ham barmog bilan sanarli. Ko'pi ochlikdan jon saqlab qolish uchun chorva bilan shug'ullanuvchi atrofdagi xo'jalik ovullariga jo'nab ketishgan. Baliqchilik arteli tugab, dengizga chiqadigan odam ham qolmadi.

Ukkubola dasturug'laridan bo'lib, u ham tug'ishganlari yoniga ketib qolishi mumkin edi. Qarindoshlari kelib yolg'iz qoldirishni istamay olib ketishmoqchi bo'lishdi. Qahatchilik yillari yonimizda bo'lg'in, Edigey frontdan qaytib kelgandan so'ng hech kim seni ushlab turmaydi, Jonkeldi ovuliga yana tezda qaytib kelasan, deyishdi. Biroq Ukkubola ko'nmadi: «Erimni kutaman. O'g'ilginamdan ayridim. Otasi omon qaytsa, hech bo'lmaganda xotiniga duch kelsin. Bu yerda yolg'iz emasman, yosh-u qarilar bor, ularga ko'maklashib turaman, ko'p qatori bir amallab kun o'tkazarmiz», dedi.

Ukkubola to'g'ri qilgan ekan. Lekin Edigey birinchi kunlariyog endi bundan bu yog'iga dengiz bo'yida bekoro'ja bo'lib tirikchilik o'tkazib bo'lmaydi, dedi. Uning gapiyam to'g'ri edi. Edigeyni ko'rgani kelgan Ukkubolaning qarindoshlari yana birga olib ketaylik, deb qistashdi. Dastida qo'y-qo'ziga qarashib yurasan, keyinchalik sog'ayib ketganingdan so'ng mol boqarsan, deyishdi. Edigey minnatdorchilik bildirdi-yu, ammo rozi bo'lmadi. Ularga og'irligi tushishini istamadi. Xotining qarindoshlarinikida bir-ikki kun mehmon bo'lish boshqa gap. Ammo qo'lingdan tuzukroq ish kelmasa, kinga ham kerak bo'larding.

Ukkubola ikkalasi ish izlab temir yo'l bo'yiga borishga qaror qilishdi. Edigeyga qorovulmi, kuzatuvchimi yoki ko'tarmani ochib-yopib turuvchimi, ishqilib, biror yengilroq ish topilib

¹ Artel (fransuzcha: artel < *lutovoncha*: artiere – hunarmand) – farg'orlarning, kasb-hunar egalarning birgalashib, jamoa bo'lib ishlash uchun tuzilgan uyushmasi shakllaridan biri.

qolar, deb o'ylashdi. Urush nogironining ham ko'ngliga qarash kerak-ku.

Bahorda ovuldan ko'chib ketishdi. Hali ikkalasi ham yosh-yalang, so'qqa boshlaridan bo'lak oyoqlariga tushov bo'ladigan narsa ham yo'q. Dastlabki paytlari duch kelgan bekatlarda go'nib-tunab yurishdi. Biroq hadeganda ko'ngildegidek ish topa olmadilar. Uy-joy masalasi undan ham qiyin bo'ldi. Temir yo'lga duch kelgan ishlarni bajarib, bedananing uyi yo'q, qayga borsa, bitibidiq, deganlaridek, to'g'ri kelgan joyda istiqomat qilishdi. Ukkubola shunda jomiga ora kirdi. Uning tani-joni sog', o'zi ham hali navqiron bo'lib, har qanaga ishlarni tortinib o'tirmay bajarib ketaverardi. Sirtidan sog'lom kishilarday ko'ringan Edigey yuk o'tish va tushirish ishlariga tutnasa-da, asosiy ishini Ukkubola bajardi.

Shu yo'sinda bahorning o'rtalarida bir necha yo'llarni tutashitiruvchi katta bekat – Qumbelga kelib, ko'mir tushirayotganlarning ustidan chiqishdi. Ko'mir o'tilgan vagonlar zaxira yo'l bilan to'g'ri depo' xo'jaligi orqasidagi hovliga kiritilardi. Bu yerda vagonlarni tezroq bo'shatish uchun ko'miri avval yerga tushirishar, keyin esa g'altak aravachalarda uy singari baland uyumlarga olib chiqib to'kishardi. Shu zaylda bir yillik ko'mir zaxirasi g'amlanardi. Haddan tashqari og'ir, chang-to'zonli, iflos ish edi bu. Biroq har qancha og'ir bo'lsa-da, tirikchilik qilish kerak. Edigey katta kurak bilan aravachaga ko'mir tashlab turar, Ukkubola esa uni taxta yo'l orqali tepalikka olib chiqib ag'darardi-da, yana pastga qaytib tushardi. Edigey yana qaytadan aravachani to'latardi. Ukkubola aravaga qo'shilgan qirchang'i olday ayol kishi ko'tarishi lozim bo'lmagan og'ir yukni silasi qurib yana tepalikka olib chiqar va to'ka solib orqaga qaytib tushardi. Buning ustiga, kun qizdirgandan qizdirar, burqsigan ko'mir to'zoni Edigeyning ko'zini tinitib, ko'nglini aynitib yuborardi. Kun sayin holdan toyib borayotganini o'zi sezib turardi. Shundog'ina, ko'mir uyumiga cho'zilsa-yu, qayta turmasdan cho'-

zilib yotaversa. Hammasidan ham uni deb ayolining qop-qora chang-to'zon ichida nafasi qisilib ishlayotganini ko'rib, ich-ichidan achinar va o'zini qo'yarga joy topolmas edi. Xotinining ust-boshiga qarab bo'lmadi: qop-qora qurumga burkangan, faqat ikki ko'zi-yu tishlarigina yil tirib ko'rinar, xolos. O'zi esa qurum aralash yerdan shalabbo bo'lib ketgan edi. Burungiday kuch-quvvati bo'lganda Ukkubolani shu ahvolga solib qo'yarmidi? Ayol kishining qiynalganini ko'rganda bir o'ziyoq o'nlab vagonlarni bu qurib ketgur ko'mirga to'ldirib, uyib tashlagan bo'lardi-ku.

Ular huvullab yotgan baliqchilar ovuli Jonkeldini tashlab, yarador askarga loyiq biror yengilroq ish topilar, degan umidda yo'lga chiqqanlarida, unga o'xshagan yarador askarlar hamma joyda to'lib-toshib yotganini hisobga olishmagan ekan. Urushdan qaytganlarning hammasi ham qaytadan yangicha hayotga moslashayotgan kezar edi. Yaxshiyam, Edigey oyoq-qo'li omon qaytgan. Qo'lsiz, oyoqsiz, qo'ltiqayoqda, yasama oyoqlarda temir yo'l bo'yab sandiraqlab yurgan nogiron kishilar son-sanogsiz edi. Odamlar bilan to'lib-toshib, sasib-bijib ketgan bekat binosining burchagiga joylashib olishib, mudrashganча tong otishini kutib o'tirishgan uzun tunlari Ukkubola ich-ichidan xudoga tavba-tazarru qilib: o'zing kechir, odamzot boshiga qirg'in kelirgan dahshatli urushdan erinni butunlay mayib-majruh qilmay, eson-omon qaytarganing uchun o'zingga ming qalashukr, deb rozilik bildirib yotardi. Negaki u bekatlardagi mudhish manzarani ko'rib yurak-bag'ri qaqshab ketardi. Kiyilaverib to'zib ketgan shinel va turli-tuman yirtiq-yamoc kiyimdagi mayib-majruh, qo'lsiz, oyoqsiz kishilar, birovlarning ostida qo'shg'ildirakli aravacha, birovlari qo'ltiqayoqda, ba'zilar ikki ko'zidan ajralib, qo'lidan yetaklab olishgan, boshqalari esa uysiz-joysiz, tinchligini yo'qotib, poyezddan poyezdga, bekatdan bekatga o'tib, oshxona-yu bufetlarning eshigini qo'pollik bilan ochib kirib, mast-alast, baqirib-chaqirib, o'kirib yig'lashardi... Bularning har birini oldinda nimalar kutadi, qaytarish mumkin bo'lmagan narsalarning o'rmini nima bilan qoplamoc kerak? Ukkubola shunday balo-gazolar erini chetlab o'tib,

¹ Depo (fransuzcha: depo – ombor) – transport vositalari (parovoz, tramvay, tralleybus vagonlari) turlangan va joyi ta'minlanadigan maxsus bino, korxona.

kontuziya bo'lsa ham to'rt muchasi sog'-omon qaytib kelganiga shukrona qilib, buntun azob-uqubatlarga bardosh berib mehnat qilishga tayyor edi. Shuning uchun ham u holdan toyib, majoli qurib, toqati toq bo'lgan kunlarda ham bo'sh kelmasdan, noli-masdan, sir boy bermasdan ishlashda davom etdi.

Ammo buni ko'rgan Edigey ich-ichidan zili ketayotgan edi. Turmushni o'nglab olish uchun qandaydir qat'iy bir qarorga kelish kerak. Umr bo'yi darbadarlikda yurib bo'lmaydi-ku, axir. Tavakkal qilib shaharga ketvorsakmikin, balki, u yoqda omadimiz kelib qolar, degan fikr tez-tez xayolidan o'ta boshladi. Ishqilib, sog'ayib ketisa, la'nai kontuziya balosidan qutulsa bo'lgani. Unda o'zini o'nglab olib yana kurasha olishi, or-nomusi va insoniylik qadr-qimmatini himoya qila olishi mumkin... Shaharda ham taqdir ularni har ko'ygga solishi yoki, ehtimol, vaqti kelib ko'nikib, ko'p qatori shaharlik bo'lib ketishlari ham mumkin, kim biladi? Biroq nasib qilmagan ekan, taqdir degani shu ekan-da...

Ular Qumbel bekatida vagonlardan ko'mir tushirib, jon olib, jon berib yurgan kunlarning birida depo hovlisida tuyana mingan qandaydir bir qozoq paydo bo'ldi – chamasi, dashdan ish bilan kelgan ko'rinadi. Kelgan kishi tuyasini yaqinroqdagi yerga tushovlab qo'ydi-da, bo'sh qopini qo'tlig'iga qisib, tashvishli qiyofada u yoq bu yoqqa alanglagancha odimlab ketdi.

– Hoy, uka, – murojaat qildi u Edigey yonidan o'tayotib, umringdan baraka top, shu tuyaga ko'z-quloq bo'lib tursang, bolalar sho'xlik qilib tegishmasin tag'in. Tushovini sekin yechib yuborishdan ham toyishmaydi tentaklar. Men tezda qaytib kelaman.

– Boraver, boraver, qarab turaman, – dedi katta kuragida aravachaga ko'mir ortayotgan Edigey jiqqa ho'l bo'lib ketgan latta bilan terini artar ekan.

Yuzidan reza-reza ter quyilardi. Edigey bu odam tayinla-masa ham, aravachaga ko'mir yuklab, kun bo'yi shu yerda ish bilan andarmon bo'lib yurardi. Bekatning bebosh bolalari tuyaga teginmasin deb ish orasida qarab turish unga malol kelarmidi. U birda bolalarning o'ynashib tuyaning g'ashiga tekkalarini, bo-

yaqish tuyaga ham jabli chiqib bo'kirib, og'zidan ko'pik sachratib, ularning orqasidan quvlab berganini ko'rgan edi. Bolalar esa xuddi shuni kutib turganday zavqlanib, ibtidoiy ovchilar singari dahshatli hayqirishib, jonivorni har tomondan o'rab olishgancha tosh va tayoqlar bilan urar edilar. Egasi kelgancha bechora tuyaga bo'lganicha bo'lardi...

Hozir ham, aksiga olganday, allaqayoqdan bir to'da juldurvoqi bolalar koptok tepib, kelib qolishdi. Ular bor kuchlari bilan koptokni tushovlangan tuyaga qarab tepishardi. Tuyaga qo-char, bolalar esa koptok bilan tuyaning biqiniga gupullatib urishar, kim kuchliroq va chaqonroq urishga bahslashar edi. Kim tuyaning biqiniga tegizsa, gol urganday quvonib, qiy-qirardi...

– Hoy, zumrashalar, qani, yo'qolinglar bu yerdan, tuyaga tegishmanglar! – deya Edigey belkuragi bilan po'pisa qilib qo'ydi. – Yoki hozir ta'ziralarini berib qo'yaman!

Bolalar o'zlarini chetga olishdi. Ehtimol, tuyaning egasidir yoki ko'mir yuklovchining badbasharasidan cho'chiganligi uchundir, yana buning ustiga ichib olgan bo'lsa, kunimizni ko'rsatib qo'ymasin, deb koptoklarini tepgancha nariyi yoqqa yugurib ketishdi. Bolalar Edigeyning belkuragini ko'tarib shunchaki xo'jako'rsinga o'dag'aylaganini hisobga olmaganda aslida uning madorsizligidan va bolalarni quvishga ham holi kelmasligidan bexabar edilar, agar bilishganlaridami tuyaga bechorani istagancha qiy nab, jonidan to'ydirishlari mumkin edi. Aravachaga ortilayotgan ko'mirning har bir kuragi zil-zambil tuyulib, katta kuch sarflashni talab etardi. Kamquvvatlik, xastalik, biror ishga yarogsizlik odamni bunchalik xor qilishini, bunchalar kuchsiz va noshud qilishini ilgari hech qachon xayoliga keltirmagan edi. Boshni aylantib, hadeb ter quyilardi. Edigeyning har labzida madori qurib, ko'zlari tinib borardi, ko'mirning chang-to'zonidan yuragi qisilib, arang nafas olar, bir zum dam olib tomog qoqmoqchi bo'lsa, o'pkasi-yu burniga to'lgan ko'mir erini chetroqqa chiqib biroz dam olsin, deb qo'lidan kuragini olib aravachani o'zi to'ldirar va uni uyum tepasiga olib chiqib bo'sha-

tib tushar edi. Ammo Edigey xotinining o'lar-titirlariga qaramay, jonini jaborga berib ishlayotganini ko'rib, toqat qilib o'tirilmadi va yana o'midan turib gandraklangancha ishga tutindi.

Tuyasini qoldirib ketgan boyagi odam oradan ko'p o'tmay, qopini ko'tarib qaytib keldi. U yukini joylashtirgandan so'ng yo'lga tushish oldidan ikki og'iz gaplashib olish uchun Edigeyning yoniga keldi. Ikkalasi ham darhol so'zga kirishib ketishdi. «Bo'ronli» bekatida Kazangap degani shu kishi edi...

Ular bir yurtdan bo'lib chiqishdi. Kazangap ham otabobolari Orolbo'yi qozoqlaridan ekanini so'zlab berdi. Shuning uchun ham bir-birlari bilan tezda til topishishdi.

Bu uchrashuv Edigey bilan Ukkubolaning butun kelgusi taqdirini hal qilishini hali hech kim xayoliga ham keltirmagan edi. Kazangap ularni «Bo'ronli» bekatiga borib ishlash va o'sha yerda yashashni maslahat qilgan edi, xolos. Birinchi ko'rib tanishishdayoq ba'zilarining samimiy odamlar ekanligi anglashilib turadi. Sirtidan qaraganda, Kazangapning boshqalardan farqlanadigan ortiq joyi yo'q, aksincha oddiy kishi edi; bu oddiylik zaminida esa og'ir hayot tajribasi — donolik mujassamlashgan. Ko'rinishidan, kiyilaverib rangi o'chib, o'ziga moslashib ketgan engil-boshdagi oddiy bir qozoq edi. Doimo tuyada yurganidan teri shim kiyib olgan. U qay mahal nimani kiyishni ham yaxshi biladi — safarga chiqqanda kiyiladigan, hali unchalik ohori to'kilmagan temiryo'lehlilar furajkasi uning katta boshiga juda yarashib turardi. O'yog'ida esa qayta-qayta yamoq solinib, e'tibor bilan qayta-qayta ko'klab tikilgan xitrom etigi. Uning haqiqiy dasht odami ekanini jazirama issiq va doimiy shamoldan qorayib, qotib ketgan yuzlari-yu sertomir, chandir qo'llaridan sezib olish mumkin. Og'ir mehnatdan barvaqtroq bukhayib qolgan yelkalari mahobatli osilib turadi, shuning uchun ham bo'lsa kerak, o'zi o'rta bo'yli bo'lsa-da, bo'yni g'ozning bo'yni singari cho'zilib ketganday tuyuladi. Hammasidan ham ko'zlari o'zgacha: kulimsirab turuvchi bu qop-qora ko'zlar, odamning dilidagini sezib turganday e'tibor bilan boqadi.

Kazangap o'sha kezlari qirq yoshlar atrofiga borib qolgan edi. Tozalab qaychilangan qora murti, burul tortib qolgan

cho'qqi sog'oli bu odamning yoshini ancha ulug' qilib ko'rsatardi. Uning o'ta mulohazali odamligini ko'rgan Ukkubola so'zlarini tinglab, darhol ma'qul ko'rib qoldi. Darhaqiqat, oqilona fikr yuritgan edi u. Modomiki, kontuziya degan balo bilan jarohatlangan ekanan, yana buning ustiga ortiqcha jabr chekishning nima hojati bor.

—Ko'rib turibman, Edigey, bu sen bajaradigan ish emas. Munaga yumushlarga hali yaramaysan. O'yog'ingni arang sudrab bosayapsan-ku yana... Hozircha yengiltroq ishda ishlab, toza havoda yurit, xohlaganingcha qaymog'i olimmagan sut ichishing kerak. Mana, aytaylik, bizning bekatimizda yo'l ishlari odam topolmay jonimiz halak. Yangi boshlig'imiz bo'lsa har gal: o'zing shu yerlik bo'lsang, ishlaydigan munosib odamlarni topmaysanmi, deb quloq-miyamni yeydi. Qani, u aytgan odamlar? Hammasi urushda. Urushdan qaytganlarga esa istagan yerdan ish topiladi. To'g'ri, bizda ham yashash oson emas. Turgan joyimiz chatoq, kimsasiz, suvsiz, qup-quruq huvullab yotgan dashtlikdangina iborat. Haftasiga bir martagina sistemada suv keltiriladi, xolos. Kelmay qolgan paytlari ham bo'ladi. Bunday paytlarda, cho'lining olis qismidagi quduqdan meshda suv tashishga to'g'ri keladi. Erta chiqsang, arang kechga qaytib kelasan. Turli tomonlarda sarson-sargardonlikda yurgandan ko'ra, yomon bo'lsa ham Sario'zakda o'z kulbandga turganingga nima yetsin, — deb gapida davom etdi Kazangap: — Boshpanang bo'ladi, tayinli ishing bo'ladi. Nima ish qilish zarur bo'lsa, hammasiga o'zimiz yordamlashamiz, ro'zg'oringni ham butlab olarsan. Bu, albatta, harakatingga bog'liq. Ikkalalaring ham hali yoshsizlar, dunyo topishga qurbilaring yetadi. Tani-joning sog'ayib ketisa, u yog'ini hayotining o'zi ko'rsatar, zerikib qoladigan bo'lsalaring, ko'ngil tortgan tomonga boraverishlaring mumkin.

Kazangap mana shunaga maslahatni berdi. Edigey o'y-lab ko'rdi-yu, oxiri rozi bo'ldi. Shu kunioq ular Kazangap bilan birga Sario'zak qaydasan, deb «Bo'ronli» bekatni sari ravona bo'lishdi. Hatto o'sha kezlarda ham xuddi yo'lga g'amlab qo'y-ganday ikkalasining ham o'zlariga yarasha yig'ib qo'ygan dunyosi bor edi. Ana-mana deguncha, kiyim-kechaklarini yi-

g'ishtirib, yo'lga tushdilar. O'shanda ularga baribir edi, o'z baxtarini sinab ko'rmoqchi bo'lishdi. Keyinchalik bilishsa, «Bo'ronli»ga taqdir taqozosi bilan borib qolishgan ekan.

Qumbeldan to «Bo'ronli» bekatni sari Sario'zak dashtligini kesib o'tgan o'sha yo'lni Edigey bir umrga eslab qoldi. Avvaliga ular temir yo'l yog'alab yurishdi. So'ngra asta-sekin past-balandliklar bo'ylab chetlab ketishdi. Kazangapning maslahatiga ko'ra, o'n chaqirimcha yo'lni qiyalab, ko'ndalangiga kesib chiqdilar, chunki temiryo'l bir zamonlar sho'r tang ko'l bo'lib, keyinroq suvi qurib qolgan ana shu katta maydonni aylanib o'tarkan. Ko'l qaridan hanuzga qadar sho'r sayhonlik botqoqlanib turarkan. Har yili bahor kelishi bilan sho'r sayhonlik qor-yomg'irning suvi bilan yana uyg'onib, botqoqlashib, odam o'tolmaydigan bo'lib qolar, yozda esa yana sho'r xok tuz qatlami bilan qoplanib, toshday qotib qolar edi. Yil sayin shu takrorlanardi. Kazangap bir vaqtlar bu yerda kattagina ko'l bo'lganini Sario'zak dashtini kezib chiqqan geolog Yelizarov tilidan hikoya qilib berardi. Keyinchalik Edigey Bo'ron ham u bilan qalin do'slashib ketdi. Aqli kishi edi u.

O'sha kezlarda Edigey hali «Bo'ron» degan laqab olmagani edi. Orollik oddiy qozoq urushdan yaranlab qaytdi, ayoli bilan birga ish, boshpana izlab yurib tasodifan temiryo'l ishchisi Kazangap ismli bir yo'lovchiga duch keldi va uning maslahati bilan allaqanday «Bo'ronli» bekatiga kelib qoldi, vassalom.

Ammo bu yerda umr bo'yi qolib ketishini hali u bilmadi. Bahor paytlari qisqa muddat yashil tushga kirib, so'ng quyosh nurida qovjirab, sarg'ayib qoladigan bepoyon Sario'zak dashtligi Edigeyni gangitib, hang-u mang qilib qo'ydi. Orol ko'li atroflarida ham qanchalab cho'l-u biyobonlar bor, birgina Ustyurt yassi tog'ining o'zini aytmayisizmi! Biroq Sario'zak dashtligi singari cheksiz kenglikni umrida birinchi bor ko'rishi edi. Sahroning ulug'vorligini o'zining ruhiy holati bilan taqqoslab tenglashtira olishga layoqati kishigina kimsasiz huvullab yotgan Sario'zak cho'lida bardosh bera olishi mumkinligini Edigey keyin tushundi. Ha, Sario'zak haqiqatan ham bepoyon, ammo inson xayoli undan ham keng.

Yelizarov dono odam, boshqalarning xayoliga kelsa-da, tiliga ko'chmagan fikrlarni juda ustalik bilan, soddada tilda tushuntirib qo'yar edi.

Oldilarida tuva yetaklab shaxdam qadam tashlab bora-yotgan Kazangap bo'lmaganida, kim bilsin, kimsasiz dashtda Edigey bilan Ukkubolaning holi ne kecharadi. Edigey har xil yuklarning ustiga o'tirib olgancha tuyada borardi. Aslida uni emas, tuyaga Ukkubolani o'tirg'izish kerak edi. Biroq Kazangap, ayniqsa Ukkubola, Edigeyni tuyaga chiqishga majbur etishgan edi: «Biz sog'-salomat odamlarmiz, sen hali quvvatga kirishning kerak, tortishib o'tirma, vaqt ketmasin, hali qancha yo'l bosishimiz darkor», deyishdi. Yo'l olis, tuyaga bo'lsa yosh — hali og'ir yukni ko'tara olmasdi, shunga ko'ra bitasi tuyaga minib ikkalasi pivoda yurishiga to'g'ri keldi. O'shanda Edigeyning hozirgi Qoranoi bo'lganda, boshqa gap edi, bironi uchalasi minib olib yo'r'tirib yurishsa, uch yarim-to'rt soat deganda manzilga yetib borgan bo'lishardi. O'sha kuni esa «Bo'ronli»ga yarim kechada yetib borishdi.

Atrofdagi notanish joylarni kuzatib, yo'l bo'yi suhbatlashib borganliklari sababli vaqtning qanday o'tganini sezmay qolishdi. Kazangap yo'l-yo'lakay bu yerdagi turmush-tirikchilik, o'zining Sario'zak tomonlarga qachon, qanday qilib kelib qolgani-yu temir yo'lida ishlab qolgani to'g'risida gapirib berdi. Yosh ham hali u aytgan darajada emas edi, mundaq qarasa, urushning oxirgi yili atigi o'tiz oligacha qadam qo'yibdi. Uning ovuli Beshog'och, Jonkelididan qirg'oq bo'ylab yurisha, o'tiz chaqirimcha ekan. Kazangapning u yerdan chiqib ketganiga ko'p yillar o'tgan bo'lsa-da, qaytib bormabdi. Buning sababi bor ekan. Quloqlarni sinf sifatida tugatish vaqtida otasini ham qulog qilib haydashgan, aslida esa otasi qulog emas ekan. Tekshirib ko'rganlarida, unga o'xshash qanchalab o'trahol chorvadorlarga nisbatan yangilish yo'l tutilganligi, to'g'rirog'i, xato ish qilganini ma'lum bo'lib qolibdi. Shundan so'ng otasini ozod qilishganda surgundan qaytib kelayotib uyiga ham yetib kelmasdan yo'lida qazo qilib qolgan. Ota qulog qilingan o'sha kezlarda butun oila: aka-uka, opa-singillar ko'zdan uzoq bo'lish uchun har tomonga

targab ketishibdi. Shu-shu ular dom-daraksiz ketishibdi. O'sha vaqtda alohida faollik ko'rsatgan qiziqqon kishilar hali yosh yigit Kazangapni yig'ilishlardan birida, el oldida: otam yot unsur sifatida to'g'ri jazolandi, bunday otadan voz kechaman, otam singari bunday sinfiy dushmanlarga yer yuzida o'rin bo'lmastigi kerak, qayerda bo'lmasin, ular o'linga mahkum etilmog'i darkor qabilida so'zlaysan, deb majbur etishibdi.

Bunday sharmandalikdan qutulish uchun Kazangap uzog o'lkalarga bosh olib ketadi. Olti yil Samargand yaqinidagi Mirza-cho'lda – Betpoqdalada ishladi. Asrlar bo'yi inson qo'li yetmagan qo'riq yerlarni o'zlashtirib, paxta dalalariga aylantirish o'sha yillari boshlangan edi. Odam yetishmaydi. Cho'liquvarlar baraklarda yashab, ariq-zovur qazishardi. Kazangap dastlab zovur qazidi, so'ng traktor haydadi, brigadirlik qildi, zarbdor mehnati uchun faxriy yorliq oldi. O'sha yerda uylandi. Ish haqi durust deb o'sha yillari Mirzacho'liga turli tomonlardan odamlar oqib kelishardi. Betpoqdalada ishlash uchun Xiva yaqinidan Bo'key degan qorqalpog' qiz ham akasining oilasiga qo'shilib kelibdi. Peshanaga yozilgani bo'ladi, deganlaridek ular shu yerda topishib, oila qurishdi. So'ng Kazangapning eli yurtiga – Orol-bo'yiga qaytishga qaror qilishdi. Biroq keyinchalik o'ylab qarasa, yanglishgan ekan. Poyezddan poyezdga o'tib uzog yo'l yurib «Maksim»da¹ yetib borishdi, oxiri Qumbelga borib yana bir boshqa poyezdga chiqmoqchi bo'lib turganlarida tasodifan orollik hamqishloqlarini uchratib qoldi. Ulardan surishtirib bilisa, hozircha Beshog'ochga qaytib borishga hojat yo'q, chunki u yerda ham do'ppi o'miga bosh oladigan haligi odamlar o'z boshimchalik qilishayotgan ekan. Shunday bo'lgach, ovulimga borib nima ham qildim, deb o'yladi Kazangap. Nimadandir qo'rqqanidan emas, yo'q, u endi qo'rqmaydi: kerak bo'lib qolsa, qo'lida xizmatini dalillovchi O'zbekistonning faxriy yorliq²i bor. El oldida sharmanda-yu sharmisor qilib kaltaklagan kimsalarni yana qayta ko'rishni istamadi, xolos. Hozircha bularning aytganini aytilgan, degani-degan edi. «O'sha voqeadan keyin go'yo

hech narsa sodir bo'lmaganday ular bilan bamaylixotir uchra-shib, salom-alik qilib yura olarmidi u!

Kazangap «o'sha voqea»ni eslashni xush ko'rmas, nima uchun o'zidan boshqa hamma u ko'rguliklarni allaqachon unutilib yuborganini ham tushunolmasdi. Sario'zakka kelib o'troqlashib qolganlaridan so'ng oradan uzog yillar o'tib, bu voqeani yana ikki marta eslashga majbur bo'ldi. Birinchisida o'g'li uni qattiq ranjigan bo'lsa, ikkinchisida Edige'y qat'is hazil qilib qo'yg'an edi.

Sobiqon kelgan kunlardan birida choy ustida gurning-lashib qolishdi, shahar yangiliklaridan tinglashdi. Sobiqon gap orasida jamoa xo'jaligiga aylantirish yillari Sinszyanga ketib qolgan qozoqlar bilan qirg'izlar endi yana qaytib kelishayotganini kuib gapirib berdi. Xitoy ularni kommunalarga¹ kiritib, ko'rguligini ko'rsatayotgan emish. Odamlarga uyda ovqatlanish taqiblanib, faqat umumiy qozondan kuniga uch mahal ovqat berisharkan. Katta-yu kichik qo'lida kosasi bilan navbat kuib turisharkan. Xitoylar shunaga ham ta'zirini berishibdi, oxiri oyog'i kuygan tovuqday uy-joyini tashlab qochib qolishibdi. Kelib oyog'imizga bosh urishyapti, nima bo'lsa ham qaytishga ruxsat bersalaring, deb yalimb-yolborishyapti, sho'rliklar...

– Buning nimasi yaxshi? – deb qosh-qovog'ini uyib oldi Kazangap.

G'azabdan lablari dir-dir titrardi. Uning kamdan kam paytlarda jahli chiqardi, o'g'liga ham kamdan kam paytlardagina qattiq gapirardi. Deyarli uni koymasdi desa ham bo'ladi. U o'g'lini ortiq darajada sevardi, o'qitib savodini chiqarish uchun undan hech narsani ayamasdi, katta odam bo'ladi deb umid qilib yurardi.

¹ Odam tashitayotgan eshelonlar o'sha vaqtda «Maksim» deb atalardi.

¹ Kommuna (*fransuzcha*: commune – jamoa; <*latince*la communis – umumiy, ommaviy) – 1) mulk va mehnatni umumlashtirish, o'z-o'zini boshqarish huquqlariga ega bo'lish asosida birlashgan kishilar jamoasi; 2) hozirgi bir qator xorijiy mamlakatlarda quyima'umiy-hududiy birlik.

– Nega sen ularning ustidan kulypsan? – davom etdi u boshiga qon quyilganidan tobora jiddiylashgan holda. – Bu – odamlarning boshiga tushgan musibat-ku, axir.

– Nima deyin bo'lmasa? Bu yog'i qiziq bo'ldi-ku! – e'tiroz bildirdi Sobitjon. – Qanday bo'lgan bo'lsa, shuni gapir-yapman.

O'asi lom-mim demadi, oldidagi cho'y quyilgan piyolani surib qo'ydi. Uning sukut saqlab o'tirishidan uy ichiga og'ir jimlik cho'kdi.

– Umuman, kimdan xafa bo'lamiz? – Sobitjon ajablanib yetkasini qisdi. – Tushunolmayapman. Qaytarib aytaman: kimdan xafa bo'lamiz? Davrdanmi? Uni o'zgartirolmaymiz. Hukumatdanmi? Haqimiz yo'q.

– Bilasanmi, Sobitjon, men o'z ishimga o'zim javob beraman. Boshqalarning ishiga aralashmayman. Lekin bunga, o'g'lim, o'zingni aqling yetadi deb o'ylagandim, baribir, shuni unutmanginki, faqat birgina xudodan xafa bo'lishga haqqimiz yo'q, ajalini yuborsa, kunimiz bitgani shu deymiz, O'lo'oh Taolodan tashqari, kim bo'lishidan qat'i nazar, so'roq oldida javob berishi kerak! – Kazangap shartta o'rmdan turdi-da, hech qayoqqa qaramay, jahl bilan tashqariga chiqib ketdi.

Boshqa bir safar Qumbeldan ketishga qaror qilganlaridan so'ng, oradan uzoq yillar o'tib, «Bo'ronli»ga kelib joylashib olgach, bolali-chaqali bo'lib, ularni undirib-o'stirib, ko'nikma hosil qilgach, bahor kunlaridan birida, kechga yaqin, qo'y-qo'zilarni qo'raga haydab olib kirishayotganda Edigey ularning tuyog'i ko'payib qolganini ko'rib, o'rog'iga hazil qilib qo'ydi:

– Ikkalamiz ham boyib ketdik, Kazake, bizni endi boshqardan quloq qilishsayam bo'ladi!


Kazangap unga yalt etib tikilib qaradi, hatto mo'ylovi ham tikkeyib ketdi:

– O'ylamay so'zlagan og'rimay o'lar, deydilar. Tilingdan tutilib o'tirmagin tag'in!

– Nima, hazilni ham tushunmaysamiz?

– Hazilning tagi zil bo'lib chiqmasin.

– Qo'ysang-chi, Kazake. O'tigan ishlar o'tdi-ketdi...



– Hamma gap shunda-da. Boyligingni olib qo'yishsa, o'lmaysan: bir amallab kun ko'rib ketaverasan. Ammo ko'ngil shishasi sinsa, uni hech narsa bilan butlab bo'lmaydi...

Biroq Qumbeldan Sario'zak cho'li orqali «Bo'ronli»ga yo'l olganlarida hali bu gaplarga juda uzoq edi: «Bo'ronli» bekatinga kelib bu yerda turib qolishdimi-yo'qmi yoki yana darbadarlikda olam kezishadimi: hali bu yog'i noma'lum edi. Yo'lda ular shunchaki, u yoq bu yoqdan gaplashib borishdi. Edigey gap orasida Kazangapdan tani sog'lig'ing ko'tarmadimi yoki boshqa birov sababi bormi deb, uning frontga bormay qolganini qiziqib so'rab qoldi.

– Yo'q, xudoga shukr, sog'-salomatman, – deb javob qildi Kazangap. – Hech qanaqa kasalim yo'q. Urushga borganimda ham boshqalardan qolishmay jang qilardim. Gap boshqa yoqda...

Betpoqdaladan kelayotgan Kazangap Beshog'och ovuliga borishdan voz kechgandan so'ng yana Mirzacho'iga qaytib borish galay bo'larkin, yo'l olis, borib nima ham qilishadi, undan ko'ra turgan joyimizdan jilmaganimiz ma'qul edi, deb qayerga borishlarini bilmay Qumbel bekatida turib qolishdi. Yo' Orolga borishamkin? Shunda ularga katta bekat boshlig'ining ko'zi tushib qoldi. Rahmdil kishi ekan, samimiy kutib olib, qayoqdan kelib qayoqqa ketayotganini va nima ish bilan mashg'ul bo'lmog'chi ekanini surishtirgach, Kazangap bilan Bo'key ikkalasini yulk vagoniga mindirib «Bo'ronli» bekatiga jo'natdi. «U yerda odam yetishmay turibdi, ayni sizlarga o'xshagan odamlar kerak», dedi-da, bekat boshlig'iga ikki enli xat yozib berdi. U yangilishmagan ekan. Mirzacho'li odamlar bilan to'lib-toshgan, ish ham qizigandan qizigan edi. Uni kimsasiz, suvsiz Sario'zak dashti bilan taqqoslashning o'ziyoq kishi ko'nglini behud qilib yuboradi. Biroq shunga qaramay, cho'l ganchalik dahshatli bo'lmasin, asta-sekin ko'nikib, moslashib ketishdi. Yaxshimi, yomonmi, har galay, o'z holiicha yashay boshlashdi. Ikkalasi garchi hisobda «demir yo'l ishchisi» sanalishsa ham to'g'ri kelgan ishini bajarar edilar. Shu tariqa ikkala yosh – Kazangap bilan xotini Bo'key Sario'zak dashtidagi huvullagan «Bo'ronli» bekatida ro'zg'or

qurib tirikchilik qila boshladilar. To'g'ri, ular o'sha yillari bir-ikki bor yetarli pul jang'arib, katta bekatga yoki shaharga yaqinroq biror joyga ko'chib ketishga ham chog'lanib yurishdi. Lekin bu orada urush boshlanib qoldi. Shu-shu «Bo'roni»da tinim bo'lmadi: askar to'la eshelonlar¹ mag'ribga, evakuatsiya² qilingan to'la eshelonlar mashriqqa, oziq-ovqat otilgan eshelonlar mag'ribga, yaradorlar tushgan eshelonlar mashriqqa qarab tinimsiz qatnay boshladi. Hayotning izdan chiqqani hatto mana shu «Bo'roni»dek huvullagan kichik bir tupka bekatdagi ahvoldan ham sezilib turardi...

Organa-ketin qatorlashib ketgan parovozlar³ semafor⁴ ochilishini talab-qilib tinmay bo'kirar, qarshida navbat kutib turganlari ham ulardan qolishmasdi... Og'ir yuklarni ko'tarolmay shpallar mayishib, egilib-bukilib ketar, to'lib-toshgan vagonlarning og'irligidan temir izlar ham barvaqt ishdan chiqardi. Temir yo'lining bir joyini ta'mir qilib ulgurmasdan, ikkinchi bir joyi ta'mirlalab bo'lib qolardi...

Eshelon ketidan eshelon uzilmay, odam to'la vagonlar front sari haftalab, oylab, keyinchalik esa yillab tinimsiz o'taverdi. Bunchalik son-sanogsiz odam zotining qayerdan paydo bo'lganini ko'rib aqling uchadi. Shularning hammasi mag'ribga

¹ Eshelon (fransuzcha: *echelon* yoki *echelle* – zina, zina-poya; shkala) – 1) maxsus yuk, texnika, artilleriya, tank va qo'shinlar o'tilgan poyezd yoki avtokolonna (bu yerda shu ma'noda); 2) ketma-ket saf torgan, birin-ketin jangga solinadigan qo'shinlarning navbatdagi guruh; 3) bir xil yuk o'tilgan, bir maqsad bilan jo'natilgan poyezd yoki avtomobillar qatori.

² Evakuatsiya (lotincha: *evacuare* – bo'sharmoq, xoli qilmoq) – 1) odamlar, tashkilot, korxonalarni, haddiy va boshqa qadriyatlarini urush, tabiiy ofat kabi xavfdan saqlash maqsadida bir joydan boshqa joyga ko'chirish; 2) jangovar harakalar bo'layotgan joylardan yaradorlar, asirlarni, ta'mirga muhoj va ortiqcha asbob-uskuna va harbiy texnikani front ortiga jo'natish.

³ Parovoz (ruscha: *tramp* – bug' + *voz*(ovoz) – elmoq) – temir yo'l poyezdlarini tortish uchun belgilangan, bug' dvigateli bilan harakatga keladigan mashina, bug' dvigatelli lokomotiv.

⁴ Semaför (yunoncha: *sema* – belgi, signal + *phoros* – tushuvchi) – temir yo'lda stansiyaga yaqin joyga ushbu tarzda o'rnatiladigan, o'z qanollarining turli xil holati yoki yashil, sariq, qizil rangli (o'chib-yonib turalagan) chiroqlari vositasida yo'lining ochiqligi yoki berkligi haqida mashinasiga signal berib turadigan stantsionar qurilma.

tomon – ikki olam bir-biri bilan olishib yotgan mag'ribga hayot-mamot jangi sari yo'l olishgan ekan...

Birmuncha muddatdan so'ng Kazangapning ham gali keldi. Urushga chaqirishdi. Chaqiruv qog'ozini Qumbeldan berib yuborishbdi, to'planish joyi o'sha yer ekan. Bekat boshlig'i bundan xabar topib, og'ir iztirobga tushdi: kichik bir bekatlarda son-sanogsiz poyezdlar o'tib-qaytib turgan bo'lsa, bu ikki toga yo'l rezina emas-ku, shuncha bardosh bersa, buning ustiga qo'lidan ish keladigan yolg'iz ishchini ham frontga olib ketib qolishsa, holimiz xarob bo'lar ekan-da, deb boshini ushlagancha zorlana boshladi. Ammo shunday paytda uning dodini kim ham eshitardi, deysiz... Semaför oldida poyezdlar tinmay baqirishadi... Zudlik bilan yana bir qo'shimcha yo'l qurish kerak desang, ustingdan kulishadi. Yov degani Moskva ostonasiga kelib qolgan bo'lsa, bu gaplar kimning ham qulog'iga kiradi deysiz...

Urushning erta kelgan tuman aralash, izg'irini ilk qishi eshik qoqmoqda. Kunlar qisqarib, ana-mana deguncha kech kirib, sovuq tushadigan kezar. Kazangap armiyaga jo'nashdan bir kun avval tunda qor yog'ib chiqdi. Avvaliga maydalab yoq-qan bo'lsa, keyinchalik rosmama gupullab urib berdi. Sario'zakning buyuk sukunati uzta, cheksiz yastanib ketgan kengliklari-yu qir-adirlari uzta beg'ubor, musafiro samoviy oqlik choyshabi to'shaldi. Shungacha qor uchqunlarini mayin yelpib, yengil charx urib o'ynayotgan Sario'zak shamoli birdan qo'zg'alib qoldi. Bu hali shamollarning shunchaki boshlanishi – nabirasi edi. Shamollarning otasi turib qolsa bormi, kuchli qor bo'ronini ko'tarib, uvullagancha girdoblanib butun borliqni o'z hukmiga oladi. Unda odamning chakka tomiri singari sag'ayib bo'zarib yotgan buyuk Sario'zak sahrasining u chekkasidan bu chekkasiga kesib o'tgan qiltomir – temir yo'lining holi ne kechadi? Chakka tomir urib turgani yanglig' poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon o'tib turgan bo'lsa...

O'sha kecha tong mahalida Kazangap frontga jo'nadi. Hech qanday kuzatuvchilarsiz yolg'iz o'zi jo'nadi. Uydan chiqqanlarida bola ko'tarib olgan Bo'key qordan boshim aylanib ketdi, deb to'xtab qoldi. Kazangap yo'rgaklangan bolani uning

qo'ldan oldi. Bu vaqtga kelib, Oyzoda tug'ilgan edi. Ehtimol, ikkalasining o'sha tong qor betida qoldirgan oyog izlari so'ngi izlar bo'lib chiqar? Taqdirni ko'ringki, Kazangapni ayoli bilan bola kuzatib qo'yish o'rninga, aksincha, Kazangap ularni yo'l ko'rsatkichlarini burib-boshqarib turadigan ish joyi – yo'l uychasigacha olib bordi-da, o'zi Qumbelga borayotgan yuk poyezdiga tushmoqchi bo'ldi. Endi Bo'key eri o'rinda yo'l boshqaruvchi bo'lib qolayotgan edi. Er-xotin shu yerda xayr-xo'shlashdilar. Kecha kechasiyoq ular bir-biriga aytadigan gaplarini aytib, yig'isig'i qilib bo'lishgan edi... Yo'lga shay parovoz bug' taratib, og'ir nafas oldi, mashinist esa uni shoshiltirdi. Kazangap endi chiqib ham olgan edi, parovoz uzog chiqqirib, joyidan qo'zg'aldi va asta-sekin tezligini oshira boshladi. G'ildiraklar yo'lning tutashgan joylariga kelib urilib taraga-turug ovoz chiqaradi. Parovoz ko'rsatkichlarning yo'nalishi orqali yo'l ochib turgan Bo'keyning yonginasidan o'tib ketdi. U boshini ro'mol bilan tang'ib, belini mahkam bog'lab olgan, oyog'ida erining etigi, bir qo'lida bayroqcha, bir qo'lida bag'riga bosganча bolasini ko'tarib turibdi. Ular so'ngi bor bir-birlariga qo'l silkishib qolishdi... Ko'z oldidan xotinining siymosi, dardi boqishi, qo'lini ko'tarib qolishi-yu semafor chirog'i birin-keini o'ta boshladi.

Bu orada poyezd go'yo tushda ko'rganday sassiz-sadosiz ko'z oldingga yopirilib kelib, yana sassiz-sadosiz orqada yastanib qolib ketayotgan Sario'zakning sutday qor bosgan dalalaridan o'tib qulog'ni kar qilgudek darajada guldirab yelday uchib borardi. Parovozga kelib urilayotgan shamol o'txonadan chiqib kishi ko'nglini behuzur qiluvchi ko'mir hidini yangi yoqgan dasht qorining beg'ubor hidi bilan aralashtirib yuzga uradi... Kazangap Sario'zak kengliklarining mana shu gishki havosidan to'yib-to'yib nafas olar ekan, bu ulkan cho'lining qon tomiri, shu kundan e'tiboran uning o'z qon tomiri bilan uzviy tutashib ketganini qalbdan chugur his eidi...

Qumbelda armiyaga chaqirtilganlarni frontga jo'natishayotgan edi. Hammamni safga tizib, yo'qlama qilgach, vagonlarga bo'lishdi. Shu payt kutilmagan vogea yuz berdi. Kazangap o'z

kolonnasi¹ bilan birga endi vagonga chiqmoqchi bo'layotganda harbiy komissariat² xodimlaridan allaganday kishi unga yetib oldi.

– Asanboyev Kazangap! Oralaringizda Asanboyev bormi? Bo'lsa, qatordan chiqsin! Qani, organdan yur-chi!

Kazangap buyruqni bajardi.

– Men – Asanboyevman!

– Hujjatlarini ber!.. To'g'ri. Xuddi o'zi. Endi men bilan yur.

Shu asnoda ular yana bekağa, to'planish punktiga kelishdi. Haliqi xodim unga:

– Quloq sol, Asanboyev, sen hoziroq uyingga qayt. Tushundingmi?³dedi.

– Tushundim, – deb javob qildi Kazangap hech narsa tushumagan bo'lsa ham.

– Unday bo'lsa, jo'na, bu yerda o'rallasima. Sen ozod-san.

Kazangap kuzatuvchilar va jo'nab ketayotganlarning g'ala-g'ovuri ichida nima qilishini bilmay, gangib qoldi. Avvalo, ishning bunchalik o'zgarib ketganidan quvongan bo'lsa ham keyinchalik birdan hushiga kelib yuragiga g'ulg'ula solgan allaganday shubhadan muzdek terga botdi. E-ha, gap bu yoqda ekan-dal! Shundan so'ng, u olomon Orasidan yorib o'tib yig'in boshlig'i eshigi oldiga bordi.

– Hoy, qayogqqa sug'ilyapsan? – deb bag'irishdi navbat kutib o'tirgan boshqa odamlar.

¹ Kolonna (*fransuzcha*: colonne: – ustun; qozuq) – 1) imoratning tomi, pestloqi, ichki qismlari va shu kabi larni ko'tarib turishga xizmat qiladigan, asosi aylanma yoki to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladigan tayanich, ustun; 2) harbiy xizmatchilar yoki harbiy bo'limlarning birin-keini tizilgan safi; ketma-ket tizilib boruvchi odamlar, mashinalar va shu kabi larni g'arhi, safi (*bu yerda shu ma'noda*).

² Komissar (*fransuzcha*: commissaire < latincha: commissarius – vakil qilingan; vakolat berilgan) – harbiy, ijtimoiy-siyosiy yoki ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan rahbar, boshliq. Komissariylik, komissariat – komissar tomonidan boshqariluvchi davlatga qarashli va mahalliy-ma'muriy muassasalarning nomi. Harbiy komissariylik – Harbiy xizmat o'tashi lozim bo'lgan kishilarni hisobga olish, harbiy xizmatga chaqirish va shu kabi ishlarini bajaradigan mahalliy harbiy boshqaruv organi.

– Shoshilinch ishim bor! Eshelon ketib qolyapti. Shoshilinch ishim bor! – deya u boshliq oldiga kirdi.

Chekilaverib tutun to'lgan xona, telefonlar va har xil qog'ozlar orasida odamlar qurshovidagi sochlari oqara boshlagan bo'g'i ovozidagi kishi Kazangap yaqinlashishi bilan bujmaygan yuzini stoldan ko'tardi:

– Senga nima kerak? Qanday ish bilan kelding?

– Men noroziman.

– Nimadan norozisan?

– Otam oqlangan! U quloq emas! Ishonmasangiz, hamma qog'ozlaringizni tekshirib ko'ring! O'trahol chorvador bo'lgani uchun oqlangan.

– Shoshma, shoshma! Senga nima kerak o'zi?

– Shu sababdan meni armiyaga olmayotgan bo'lsalaring, unda noto'g'ri qilasizlar.

– Nima deb aljirayapsan? «Quloq-suloq», «o'trahol» – qayodagi unutilib ketgan gaplarni aytasan, hozir bu bilan kimning ishi bor? Qayodan kelib qolding? Kimsan o'zing?

– «Bo'ronli» bekatidan, Asanboyevman.

Boshliq ro'yxatlardan uning nomini qiditib topdi.

– Boyadan beri shunday demaysanmi, «O'trahol», «kambag'al», «quloq», deb judayam boshimni og'ritib yubor-ding-kul! Senga bron' bor! Yanglish chaqirilgan ekan-san. O'toq Stalinning buyrug'i bor-ku, temiryo'chilarga tegimasin, o'z joylarida qolishsin, degan. Bor, bu yerda o'ralsama. O'z joying-ga borib ishingni qil, uqdingmi?..

«Bo'ronli»ga yetay deb qolishganda kun boidi. Endi ular yana temir yo'lga yaqinlashishdi, u yoqdan bu yoqqa o'tayotgan poyezdlarning tarqa-turuqi eshitilib, vagonlar ham g'ira-shira ko'rina boshladi. Ular olisdan qaraganda, dastlik qo'ynida o'yinchoqqa o'xshab ko'rinar. O'rta sekin botayotgan quyosh tevarak-atrofidagi soyliklar-u qir-adirlarga so'ngi nurlarini tarta-tib, ayni chog'da soya solardi. Shu lahzada bilinar-bilimas qosh qorayib, hali qish rutubatidan qutulmagan yerning bahoriy nafasi

¹ Bron (*ruschka*) – harbiy xizmat yoki urushga qo'llash uchun beriladigan temiryo'z.

bilan to'yingan izg'irin havo asta-sekin moviy pardaga burkalib borardi.

– Ana, «Bo'ronli» deganimiz shu bo'ladi, – dedi Kazan-gap qo'li bilan tuyada o'tirgan Edigeyga va uning yonida hallos-lab kelayotgan Ukkubola o'g'irilib qararkan. – Bu yog'i oz qoldi. Hozir yetib boramiz, xudo xohlasa, miritqib hordiq chiga-rasizlar.

Oldinda – temir yo'lning biroz burilib o'tadigan joyida, yavdoq dalada bir necha uycha ko'rindi, zaxira yo'lida esa poyezd senaforming ochilishini kutib turardi. Atrofga qarasang, qilt et-gan narsa ko'rinnaydi, hamma yoq sassiz-sadosiz, hadsiz-hududsiz cho'li biyobon...

Edigeyning yuragi orqaga tortib ketdi. Dengiz bo'yida yashab, Orol dastlariga ko'nikib ketgan Edigey bu manzarani ko'rib hang-u-mang bo'lib qoldi. Qachon qarama, moviy tushga kiritib, mavlanib turadigan rohatbaxsh qadrdon dengiz bo'yidan odamni yutib yuborgudek kimsasiz cho'lga kelib qolsa-ya! Bu yerlarda jon saqlab bo'ladimi?!

Ukkubola eriga yaqin kelib, uning salmoqlangan oyog'i-ga qo'lini qo'yganicha biroz yonida yurib boidi. Edigey ayolining «Mayli, eng muhimi, sog'ayib ketsang bo'lgani. U yog'i bir gap bo'lar...» demogchi ekanini tushundi.

Shu zayida ular Sario'zak dastiga, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, uzog' yillar, ya'ni bir umrga yashaydigan manzil-gohlari bo'lmish joyga yaqinlashardilar.

Ko'p o'tmay, quyosh ham boidi. «Bo'ronli»ga esa ular tun kirib Sario'zak osmonida yulduzlar charaqlagan payda kirib kelishdi.

Bir necha kun Kazangapnikida turishdi. So'ng alohida yashay boshlashdi. Ularga yo'l ishchilariga qurilgan barakdan bir xona ajratildi. Shunday qilib, yangi joyda hayot kechiraverishdi.

Kimsasiz, huvullagan Sario'zak cho'lida, ayniqsa yangi turmushning og'ir va mashqatli kunlarida ikki narsa Edigey-ni joniga ora kirdi: biri toza havo, ikkinchisi tuya suti. Havo-niing softligini aytmaysizmi, bunaqasi yetti iqlimda ham bo'lmasa

kerak. Qimizni bo'lsa, Kazangap to'g'riladi, ikkita ona tuyasidan bittasini ularga in'om qildi.

– Biz xotin bilan maslahatlashib, shunday fikrga keldik, – dedi u. – O'zimizga yetarli sutimiz bor. Sizlar sog'ish uchun bizning Oqboshimizni olinglar. U sog'inga kirgan, hali yosh, bolalaganiga ikkinchi yil ketayapti. O'zlaring boqib, o'zlaring foydalaninglar. Faqat bolasini och qoldirmanglar. Bu tuyani endi sizlarniki, xotinim bilan shu fikrga keldik. Bu senga, Edigey, urchitib ko'paytirish uchun moya. Yaxshi qarasang, poda bo'ladi. Bu yerdan ketishni xohlab qolsanglar, aqcha bo'ladi.

Oqboshning bo'talog'i Qorabosh, kichkinagina, jajji-gina, o'rkachachalari gora – tug'ilganiga bir yarim hafta bo'ldi, xolos. Jonivorning ko'zlari biram chiroyli, namchil tortgan bu yirik, tiniq ko'zlar bolalarniki singari yoqimli va umidvor boqadi. Gohida u onasining yonida sho'xlik qilib, shataloq otib o'ynaydi, yana bir qizig'i shundaki, u kichkina qo'rachada yolg'iz qolsa, xuddi odamga o'xshab bo'zlab onasini chaqiradi, Mana shu bo'taloqni vaqti kelib, butun Sario'zakda nom taratishini, mashhur Qorator bo'lib yetishishini o'sha vaqtda kim o'ylabdi, deysiz. Edigey Bo'toroning hayotidagi ko'pgina voqealar shu Qorator bilan bog'liq ekani kimning xayoliga kelibdi, deysiz. O'sha kezlari unga ko'z-quloq, soat sayin xabardor bo'lib turish kerak edi. Edigey unga juda o'rganib qoldi. Sal bo'sh qoldi deguncha, yonida bo'ladi. Ilgarilari, Orolidagida ham bunaqa ishlarga ko'nikib qolgan edi, bilganlari endi bu yerda ham asqatdi. Qishga borib jajji bo'taloq ancha bo'y tortib qoldi. Shunda sovuq tushishi bilan unga issiqqina yopqich tikib berishdi, yopqichning qorin ostidan qadab qo'yadigan tugmalari ham bor edi. Yopqich yopilib, tugmalari qadab qo'yilgandan so'ng bo'taloq g'oyatda kulgili bo'lib qolardi – faqat boshi, bo'yini, oyog'lari hamda ikki o'rkachigina ko'zga tashlanardi, xolos. U butun qishni mana shu engilda erta-yu kech cho'lda ochiq havoda yurib o'tkazdi.

O'sha yilning kuzida Edigey asta-sekin quvvatga kirib, xiyala o'nglanib olayotganini sezdi. Bosh aylanish balosidan qutulganini o'zi ham sezmay qoldi. Salgina ishga ter bosib,

qulog'ining guvullashi asta-sekin barham topa boshladi. Qish o'rtaga kelib temir yo'lini qalin qor bosib qolgan kunlari Edigey hamma qatori yo'l tozalashga chiqadigan ham bo'lib qoldi. Yosh emasmi, yana buning ustiga tabiatan pishiq, tirishqoqligi tufayli bora-bora qadimgi holiga keldi, hatto yaqin-yaqinlarga cha oyog'ini arang sudrab bosib yurganini unutib yubordi. Malla-sogol doktorning aytgani nihoyat to'g'ri chiqdi.

Kayfi chog' bo'lib turgan paytlari Edigey bo'taloqni bo'ynidan quchoqlab, erkalarib bunday deb hazillashardi:

– Ikkalamiz emikdosh» og'a-inimiz. Oqboshning sutini emtib, sen qanaqa katta bo'p ketding, men bo'lsam kontuziya balosidan qutuldim, chog'i. Xudoyo xudovando, bir umrga qutulganim rost bo'lsin. Farqimiz shundaki, sen onangni emding, men bo'lsam, onangni sutini sog'ib, shubat ichdim...

Oradan uzoq yillar o'tib, Qorator Bo'tor Sario'zak dashtida shu qadar mashhur bo'lib ketdiki, hatto uning suratini olish uchun qandaydir odamlar maxsus kelishadigan bo'lishdi. Bu – urush suronlari unutilib, bolalar o'sib-unib maktabda o'qib yurgan, «Bo'torli» bekatida o'z quduqlarini qazib, suv tashish azobidan qutulgan kezlarda, Edigey tunuka tom qurib, necha yillar sarson-sargardonlikdan keyin nihoyat azob-uqubatlardan qutulib, o'z qadr-qimmatini topib, turmushini o'nglab, odatdagiday hayot kechira boshlagan paytlarda bo'lgan edi. O'shanda aytilgan bir gapni Edigey keyinchalik uzoq vaqt yodidan chiqarmay yurdi.

Kelganlar o'zlarini fotomuxbirlarniz deb tanishtirishdi. «Bo'torli» tarixida kamdan kam uchraydigan hodisa bu, hatto ularning birinchi marta kelishi desa bo'lardi. Hazilkash, so'zamol fotomuxbirlar uch kishi edi, «Qorator Bo'torli va uning egasi, ya'ni sizning suratigizni barcha gazeta va jurnallarda bosib chiqaramiz, biz shuning uchun keldik», deb og'izlariga siggancha va'da berishdi. Atrofda kishilarning ortiqcha harakatlari-yu shovqin-suronlari Qoratorga unchalik yoqmad, u jini qo'zib, tishlarini g'ijirlatib, bosh chulg'ab hech kimni yaqin keltirmaslikka harakat qilardi. Muxbirlar Edigeydan tuyangizni tinchlantirsangiz, u yozga burib tursangiz, endi bu yozga burib

tursangiz, deb har laha joni holiga qo'yishmasdi. Edigey esa, o'z navbatida, birga tushganimiz ma'qul, deb hadeb bola-chaqar-yu xotin-xalajlarni va Kazangapning o'zini ham chaqirib jonsarak bo'layotgan edi. Fotomuxbrilar ham bunga e'tiroz bildirishmay har xil apparatlar orqali shiq-shiq etkizib turli tomondan suratga olishardi. Hammadan ham qizig'i Qoramonga bolalarning hammasini mingizish bo'ldi: ikki bola bo'yiniga, beshta bola beliga, Edigeyning o'zi esa o'rtaga o'tirib oldi. Shunda pahlavon tuya o'rtidan qo'zg'alib turarkan, atrofda «Ana tuya-yu, mana tuya!», degan kulgi va qiyqiriq ovozlari yangradi. Bunga iqtir bo'lgan suratchilar endi Qoramonga o'zini alohida suratga olish muhim ekanini aytdi. Edigey bo'lsa, marhamat, istaganlaringizcha olaveringlar, deb xayrixohlik bildirdi. Shunda fotomuxbrilar Qorano Bo'ronni hali u yog'idan, hali bu yog'idan, dam yagindan, dam olisdan turib xohlaganlaricha suratga olaboshlashdi, so'ng Edigey bilan Kazangap yordamida tuyaning bo'yini, ko'krak kengligini, oyoqlarining yo'g'onligi-yu tanasining uzunligini o'lchab, hamma-hammasini zavqlanib yozib olishdi.

– Ajoyib bakterian ekan! Genlarning¹ qoyilmaqom ish berganini ko'ring! Bakterianning klassik namunasi! Ko'krakning kengligini qarang, ajoyib eksterer² – deb maqtashardi.

Tuyasi haqidagi bunday maqtovlarni eshitish Edigeyga, albatta, xush yoqardi. Ammo, u ko'p so'zlarni tushunmasdi, jumladan «bakterian» so'zining ma'nosini so'rab olishga to'g'ri keldi. Aytishlaricha, ilmda ikki o'rtaqli tuyalarning qadimiy zotlarini shunday atasharkan.

- Demak, bakterian degani shu ekan-da?
- Nihoyatda tozasi. Olmos deyaering.
- Bu o'lchovlarning sizlarga nima keragi bor?
- Ilmiy ma'lumot sifatida juda zarur.

¹ Gen (*yunoncha*: genos – paydo bo'lish, kelib chiqish) – insiyanning organizm belgi va xususiyatlarini nasidan naslga o'tkazish vazifasini bajaruvchi elementlar birligi va moddiy asosi; insiy belgi.

² Eksterer – biror hayvonning tashqi ko'rinishi.

Gazeta-jurnallarda chiqaramiz, deb lof urishganlarida

mehmonlar ko'proq bo'ronliklar oldida o'z obro'-e'tiborlarini oshirmoqchi bo'lgan ekanlar. Oradan yarim yil o'tgach, Edigey qalin jo'natma oldi, unda tuyachilik bo'yicha zootexnika fakultetlariga mo'ljallab chiqarilgan darslik bo'lib, muqovasida bakterianing klassik namunasi – Qorano Bo'ron o'zini ko'z-ko'z qilib, savlat to'kib turardi. Kitobga qo'shib bir dasia fotosuratlar ham yuborishibdi, ichida ranglari ham bor. Hatto shu fotosuratlar qarab turib ham o'sha kezlar ajoyib, baxtiyor zamonlar ekanligini bilib olish mumkin edi. Urushdan so'nggi dastlabki yillarning musibatlari ortda qolgan, bolalar hali bolalik yoshidan chiqmagan, katta yoshdagilar esa sog'-salomat kuchga to'lgan payt, qariik ham hali olti qirning ortida edi.

O'sha kuni Edigey mehmonlar sharafiga qo'zi so'ydi, barcha bo'ronliklarni chaqirib katta ziyofat berdi. Shubat, aroq, deysizmi, boshqa noz-ne'matlar deysizmi – hammasi to'kin-sochin bo'ldi. O'shanda bekatga ORSning¹ ko'chma vagon-magazini keldandi. Ko'chma magazindan istalgan narsa toplardi. Faqat pul bo'lsa bo'lgani: qisqichbqalar, qora va qizil uvlidirqlar, turli nav baliqlar, konyaklar, kolbasa-yu, shirniklar – hamma-hammasi muhayyo edi. Biroq seroblikka serob edi-yu, odamlar ularni unchalik xarid qilishmasdi, ortiqcha dunyoning nima keragi bor, deyisharmidi? O'sha ko'chma magazin bu yerlarga allaqachonlar kelmay qo'ygan...

O'shanda rosa ajoyib o'tirish bo'lgandi, hatto Qorano Bo'ron uchun ham ichishgan. Suhbat orasida ma'lum bo'lishicha, mehmonlar Qorano to'g'risidagi gaplarni Yelizarovdan eshitishgan ekan. Sario'zak cho'lida Edigey Bo'ron degan do'stim yashaydi, uning Qorano Bo'ron, degan tuyasi bor, dunyoda bunaqa kelishgan tuya bo'lmasa kerak, deb Yelizarov aytgan ekan! Eh, Yelizarov, Yelizarov! Oltin odam, Sario'zak-cho'lining bilimdoni edi u. Yelizarov «Bo'roni»ga keldi degun-

¹ ORS (*russcha*: отряд рабочего снабжения) – Sobiq Ittifoqdagi davlat chikama savdo tashkiloti.

cha, Kazangap uchulasi to'planishib, tong o'guncha suhbat qurishardi...

O'sha o'tirishda mehmonlarga goh Kazangap, goh Edigey navbatma-navbat, birining so'zini ikkinchisi davom ettirib va to'ldira borib, bu yerdagi tuyalar zotining mashhur ajdodi – Oqmoya bilan uning Ona Bayit qabristoniga daft etilgan nomdor egasi Nayman ona haqidagi Sario'zak rivoyatlarini hikoya qilib berishdi. Ha, Qoronor Bo'roning asli tagi-zoti qayerdan ekanini endi bilayotgandirsiz! Bo'ronliklar mana shu ko'hna vogeani gazetada bosib chiqarishsa kerak, deb umid qilishgan edi. Mehmonlar vogeani qiziqish bilan tinglashdi, ammo buni mahalliy aholi o'rtasida tarqalgan va avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan bir afsona, deb umchalik e'tibor berishmadi. Yelizarov esa Oqmoya afsonasi o'tigan zamonalarda chindan ham bo'lib o'tgan tarixiy voqelikni to'la aks ettirishi mumkin, degan fikrda edi. U mana shunaga gaplarni qunt bilan tinglar, o'zi ham o'tmishga doir cho'l rivoyatlarining ancha-munchasini bilardi...

Mehmonlarni kechga yaqin kuzatib qo'yishdi. Edigey shu kuni juda xursand, kayfi chog' yurdi. Shu sababdan ham u o'ylamay gapirib qo'ydi. Har holda, mehmonlar bilan birga edi. Aytilgan so'z – otilgan o'q emasmi?!

– Rosini aytib qo'ya qol, Kazake, – dedi u Kazangapga. – Qoronomni bo'taloqligida menga tortiq qilganingga rosa iching achiyotgan bo'lsa kerak-a?

Kazangap unga qarab, miyig'ida kulib qo'ydi. Atfidan, bu gapni kutmagan edi. Biroz sukut saqlab dedi:

– Hammamiz ham insomniz-ku. Agar bilsang, otabobodan qolgan bir udum bor: mol egasi xudoydan, deysing. Buyurganniki bo'ladi. Qoronor senga buyurgan ekan. Boshqa biron kimsaning qo'lga tushgandami, holi ne kechishini kim bilsin, ehtimol, jarlikdan qulab yoki allaqanday kasallikka chalinib harom o'lib qolarmidi. Har qalay, u senga nasib etgan ekan. Ilgari ham qo'linda yaxshi tuyalarim bor edi. Ular ham mana shu Qoronorning onasi Oqboshdan tarqagan. Senga taqdim etilgani o'shalardan biri... Xudo yorlaqab, yuz yil xizmatini ado etsin. Biroq haligi gapingni ikkinchi marotaba tilga olma...

– Xo'p, ayb menda, Kazake, kechirasan, – dedi Edigey bemavrid aytgan so'zidan xijolat chekib.

Yana suhbatga qaytar ekan, Kazangap o'z mulohazalarini davom ettirdi. Rivoyatlarga qaraganda, zotdor moda Oqmoya yetitila bo'taloq tug'gan bo'lib, ularning to'rtasi ung'ochi, uchitasi nor tuyalar ekan. O'shandan buyon barcha moda tuyalarining boshi oq tusda, nortuyalarniki esa aksinchu qora tusda, tanasining qolgan qismlari esa qo'ng'ir tusda tug'illar ekan. Demak, Qoronorning bu xilda tug'ilishi ham bejiz emas. Oqbosh onadan qorabosh bo'ta tug'ildimi, buni Oqmoyaning urug'i deyaver. Oqmoyadan tug'ilganining atomati shu. Undan beri ikki yuz yilmi, uch yuz yilmi, besh yuz yilmi, balki, undan ham ko'p vaqt o'tgandir, kim bilsin, biroq Sario'zak cho'lida Oqmoyaning nasli davom etib kelayotir. Shu tariqa ora-sira Qoronor Bo'ronga o'xshash sirtlon tuyu tug'ilib qolishi ham shu sababli ekan. Bu ham esa Edigeyning omadi. Qoronorning tug'ilishi uning yigirtlik baxtiga nasib etgan ekan...

Vaqt kelib, Qoronorning norligi tutib, to'polon qila boshladi, odamni yaqiniga yo'latmay qo'ydi, bir necha kunlab dom-daraksiz allaqayoqlarga yo'qolib ketadigan bo'lib qoldi. Shunda Edigey uni na axta qilish, na kishanda saqlash yo'lini topmay, Kazangapdan maslahat so'raganida, u ochig'ini aytdi: qo'ydi:

– Bu yog'i o'zingga havola. Tinchingni o'ylasang, axta qil. Nom chiqaraman desang – tegma. Ammo unda biron hodisa yuz bergudek bo'lsa, butun og'irlikni o'z bo'yiningga olishga to'g'ri keladi. Chidasang, ikki-uch yil beboshlik qiladi-da, so'ng o'z oringdan ergashib yuradigan bo'ladi.

Shu maslahatga ko'nib, Edigey Qoronor Bo'ronga tegmadi. Axta qilishga qo'li bormadi. Uni bo'g'raligicha qoldirdi. Ammo keyinchalik bundan ming pushaymonlar yeb, bag'ri qonga to'lib yurgan kezlar ham bo'ldi...

Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dastlik – Sario'zak, o'racho'l yastanib yotadi.

Har qanday masofa Grinovich meridianidan o'lchangani singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'lchanadi.

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Erta tongda hamma narsa taxt bo'ldi. Qalin namatda zich o'rab, sirtidan jundan to'qilgan tasma bilan tang'ib qo'yilgan, boshi o'ralgan Kazangapning jasadini oldindan ichiga qipiq, payraba va toza xashak qatlami to'shab traktorning tirkalma aravachasiga yotqizdilar. Ortig'cha ushlab qolmasdan vaqtliroq yo'lga tushishlari, qabristondan uzog'i bilan kechqurun soat besh-oltilarga qaytib kelishlari zarur edi. Dafn etiladigan joygacha borish o'ttiz kilometr, kelish ham shuncha, o'rada ko'mish marosimi ham bor, xullas, ma'raka kechqurun soat oltilarga to'g'ri kelardi. Shu tariqa ular ma'rakalarga ulgurish uchun yo'lga ravona bo'ldilar. Hamma narsa tayyor edi. Edigey Bo'ron kechadan beri ustiga yopqi to'shab, egar jabduqlab yasantirib qo'yilgan Qoronomi tizginidan yetaklagan odamlarni shoshitardi. Odamlar hamon imillashardi. Tun bo'yi mijja qoqmay chiqqan bo'lsa-da, Edigey bardam va sergak ko'rinar, ammo ozib ketgan edi. Moshgurnuch mo'ylov, qoshi ham moshgurnuch, soqol-murti tozalab qirilgan Edigey orasta kiyingan edi: oyog'ida xrom¹ etik, chiybaxmaldan tikilgan, cho'ntaklari bo'ppaygan galife² shim, oq ko'ylagi ustidan qora kamzul, boshida esa tantanalarda kiyiladigan temiryo'chilarning furakasi. Ko'ksida

¹ Xrom (yunoncha: rang, bo'yov) – Mendeleyev davriy sistemasi VI guruhga mansub kimyoviy element; zangorikunush tusli, qiyin eriydigan qattiq metall (ko'pgina qotishmalarining zaruriy komponenti).

Xrom – xrom tuzlari bilan ishlov berib tayyorlangan yumshoq, yuzasi to'ssimon naqshli, yaltiroq yuzqa teci (bu yerda shu ma'noda).

² Galife (fransuzcha: Galifet – o'liq askarlar uchun maxsus shim joriy qilgan fransuz generali G. Galife nomidan) – etik bilan kiyiladigan, tizzadan yuqori yon tomonlari juda keng shim.

hamma jangovar orden va medallari, hatto «Beshyillik zarbdori» nishoni yargirab turardi. Bularning bari unga yarashtirib tushgan bo'lib, basavlat ko'rsatar edi. Edigey Bo'ron Kazangapni dafn etish marosimida bundan boshqacha qiyofada bo'lishi mumkin emas.

Kattadan kichik barcha bo'ronliklar bularni kuzatishga chiqdilar. Ular traktor atrofida to'planishib, jo'nash paytini kutib turar edilar. Ayollar uvvos solib tinmay yig'ilashardi. «Bo'ronli» Edigey kutilmaganda o'rta chiqib yig'ilganlarga qarata dedi:

– Mana, biz hozir Sario'zakning qadimdan muqaddas hisoblanib kelingan ko'hna Ona Bayit mozori sari yo'l olamiz. Rahmatli Kazangap ota shunga munosib odam edi. O'sha yerga dafn etishni marhumning o'zi vasiyat qilgan, – Edigey yana nimanidir aytmoqchi bo'lib sukut saqlab qoldi va davom etdi: – demak, uning peshanasiga yozilgan tuz-nasibasi tamom bo'ldi. Bu inson bizing bekachimizda rosa qirg to'rt yil ishladi. Butun umrini shu yerda o'tkazdi desa bo'ladi. U dastlab bu yerda ishlay boshlagan kezlarda hatto suv chiqaradigan nasoslar ham yo'q edi. Suv haftada bir marta sistemalarda keltirib turilgan. U zamonlarda hozirgidek qor tozalaydigan mashinalar va shuning singari boshqa mashinalar yo'q edi. Hatto biz dafnga olib bora-yotgan mana bunaqangi traktorlar ham u paytlarda bo'lmagan. Biroq, shunga qaramay, poyezdlar o'shanda ham hozirgidek qatnab yotardi. Ularning yo'llari yozin-qishin hamma vaqt tayyor edi. Kazangap ota «Bo'ronli»da o'z xizmatini halol o'tadi. Hammalaring bilarsiz edilar: u yaxshi odam edi. Endi yo'lga tushaylik. Hammaning borishiga ulov yetmaydi, bunga hojat ham yo'q. Temir yo'lni qarovsiz qoldirib ketishga haqqimiz yo'q. Biz u yoqqa olti kishi boramiz, nimaki lozim bo'lsa, hammasini o'rninga qo'yamiz. Sizlar esa bizni kutinglar, tayyor-garlik ko'ringlar, qaytib kelganimizdan so'ng hammalaring ma'rakaga to'planinglar, men buni marhumning farzandlari, mana ular o'g'li bilan qizi, shular nomidan aydayotirman...

Edigeyning xayoliga keldimi yoki yo'qmi, har qalay, bu aytilgan so'zlar o'z-o'zicha bir motam marosimini eslatuvchi mitingga o'xshab ketdi. Shu bilan ular jo'nab ketishdi. Bo'ron-

hliklar tirkalma arava orgasidan biroq gangir-gungur gaplashib, qishloq chekkasigacha kuzatib borishdi-da, so'ng to'p-to'plari bilan ortda qolib ketishdi. Yana ancha vaqtgacha uvvos yig'i eshitilib turdi. Bu yig'i ortda qolgan Oyzoda bilan Ukkubolaning nidosi edi...

Ortdagi o'kirik yig'i ovozlari jimib qoldi, ular oltov-lashib tobora temir yo'ldan uzoglashib, Sario'zak sari ichkarilab borar ekanlar, Edigey yengil nafas oldi. Endi ular o'z-o'zlari bilan bo'lib qolishdi. Edigey ham nima qilish zarurligini bilardi.

Quyosh Sario'zak kengliklarini saxiylik bilan kishi ruhini xushnud etuvchi sarg'ish nurga burkab, yer kurrasidan ko'tarila boshladi. Hali dasht salqin edi. Ular yo'lda hozirgacha hech qanday mashagat chekmadilar, dashtda odatdagidek yuksak parvoz qilib yurgan faqat ikki kalxat-u, yana goh-gohida oyoq ostidan pirlab uchib chiqqan to'rg'aylarning muallaq qolganicha qanothalarini qoqib vijritlab sayrashlarigina hukmron edi. «Hademay, bular ham uchib ketishadi. Birinchi qor tushishi bilan oq to'planishadi-da, uchib ketishadi», – deya o'yladi Edigey uchqunlanayotgan qor pardasida uchib borayotgan qushlarni bir lahza xayoliga keltirib, Negadir yana temir yo'l sari chopib borayotgan tundagi o'sha tulki esiga tushdi. Hatto u ohisligina atrofga nazar tashladi. Izidan kelmayotganmikan? Yana o'sha tunda Sario'zak dashti uzra kosmosga parvoz qilgan olovli raketani o'ylab ketdi. U g'alati xayollaridan hayratga tushar, har holda bunaga xayollardan o'zini olib qochishga intilar edi. Yo'l yiroq bo'lishidan qat'i nazar, hozir shularni o'ylab o'tirishning o'rni emas edi...

Edigey Bo'ron o'z Qoratorida vigor bilan o'tirganicha Ona Bayit qabristoni tomon oldinda yo'l boshlab borardi. Ostidagi Qorator esa bir maromda katta-katta qadam tashlab, tobora ilgariardi. Uning o'ziga xos odimlab borishi tushungan odamga, ayniqsa, ko'tkam tuyulardi. Tuvaning kamondek mag'rur egilgan bo'y-nigiga yaratshgan boshi to'liqlinlar orasida deyarli qimirlamay bir taxlitda erkin suzib borayotganiga o'xshar, uzun-uzun paydov oyoqlari esa havoni kesib, hormay-tolmay tinimsiz ravishda yer yuzini odimlab o'tchab borar edi. Edigey tuva o't-

kachlari orasiga mustahkam va qulay o'tirib, olgan, u mamnun edi, negaki Qorator egasining niqdashini kutmay, uning hukmiga darhol iyoat etgan holda yengil yurit borardi. Edigeyning ko'ksidagi ordenlari va medallari sekingina jaranglab, quyosh nurida shu'la taratib turardi. Lekin Edigey o'z xayollari bilan band edi.

Ullarning izidan tirkalma aravachali «Belorus» eskavatori borardi. Kabinada, yosh traktorchi Qalibekning yonida Sobijon o'tiribdi. Kecha u, har holda, yaxshigina ichib olgani uchun radio orgali boshqariluvchi kishilar haqidagi turli cho'p-chak va boshqa bema'ni safsatalari bilan bo'ronliklarni band etgan bo'lsa, endi ruhi tushgan holda sukut saqlab boryapti. Uning boshi u yoqdan bu yoqqa chayqalib qo'yadi.

Ishqilib, ko'zoynagi sinib qolmasaydi, deb xavotirlanardi Edigey. Tirkalma aravada Kazangapning jasadi yonida g'am-g'ussaga botgan holda Oyzodaning eri o'tirardi. U quyosh nuridan ko'zlarini qisib, ora-sira atrofga nazar tashlab qo'yadi. Abgor bo'lgan bu piyonista shu gal o'zining odamiyligini ko'rsatdi, bir tomchi ham og'ziga olmadi. Hamma isda boshqosh bo'lib, barchaga yordam berishga intildi. Ayniqsa, marhumning jasadini olib borishda astoydil jonbozlik ko'rsatib, yelkadoshlik qilmogda. Edigey tuyasiga mingashitib olay deb taklif qilgan edi, unamadi. «Yo'q, – dedi u, – qaynatamning yonida o'tira qolay, so'nggi manzilgacha yonida bo'lay». Uning bu ishi Edigeyga ham, bo'ronliklarning barchasiga ham ma'qul tushdi. Ular yo'lga chiqqanlarida aravada o'tirib, marhumning namatga o'ralgan jasadini ushlab olganicha, hammadan ko'ra ko'proq va hammadan ko'ra qattiqroq yig'ildi. «Kim bilisin, shu kundun boshlab o'zini qo'lga olib, ichkilikni tashlab yuborsami, Oyzoda va bolalarining baxti ochilar edi», – deb umidanardi hatto Edigey.

Kimzasiz dashtdagi bu kichik va g'alati karvoni popukli yopqi to'shab bezatilgan tuva ustidagi kishi boshlab ketaypti, orgada «Belorus» eskavatori. Kabinada Edilboy bilan Jumag'ali o'tiribdi. Ekskavatori ni habash singari qop-qora, pakana bo'yli Jumag'ali haydab kelyapti. U, odatda, har xil yo'l ishlarini shu

mashinasida bajarib yurardi. Jumag'ali «Bo'ronli»ga kelganiga hali uncha ko'p vaqt bo'lmagan, bu yerda yana qancha vaqt turib qolishi ma'lum emas. Edilboy ikkalasi butun yo'l bo'y'i allaqanday narsalar haqida qizg'in so'zlashib ketishdi.

Bekat boshlig'i O'spanning yaxshiligini ham unutmastik kerak. Marosim uchun bekat ixtiyoridagi barcha mashinalarni ajratgan ham o'sha. To'g'ri ish tutdi bekatning yosh boshlig'i — shuncha yo'l piyoda bosib o'tilsa, yana buning ustiga qabr ketmon-kurak bilan qo'lida kavlanadigan bo'lsa, kechga qaytib kelishlari dargumon edi. Negaki, qabrni chuqur qazish, qaziganda ham yana musulmon odatiga ko'ra yonidan devori tagidan lahjad qazish zarur, demak texnikasiz ish bitmaydi.

Bu fikr dastavval Edigey Bo'ronni birmuncha o'ylantirib qo'ydi. Qabrni qo'l bilan emas, ekskavatorda qazishni u xayoliga ham keltirilmadi. Shuning uchun u O'spanning qarshisida qovog'ini solib, ishonchsizlik bilan o'tirdi. Biroq O'span yo'lini qilib, cho'lni xotiramlantirdi:

— Edike, men sizga ishing qulay tomonini aytayotirman, hech narsadan xijolat tortmang, avval-boshda qo'lida qaziyisizlar. Ha, boshda belkurakda qazigach, so'ng ekskavatorga navbat berasiz. O'zingizga ma'lum — Sario'zakning yerlari banisoli toshdek qotib ketgan. Ekskavatorda keragicha qaziyverish kerak, qolganini yana qo'l bilan oxiriga yetkazasizlar. Shunday qilinsa, ham vaqtdan yutasizlar, ham barcha rasm-u rusumiga rioya qilgan bo'lasizlar...

Oradan ma'lum vaqt o'tib, Sario'zak cho'lga kirib borgan sari Edigey O'spanning maslahatlari tamomila to'g'ri va unga amal qilish zarur ekaniga iqror bo'laverdi. Va hatto, bu tadbir xayoliga kelmaganligidan ajablandi ham. Ha, xudo xohlasa, Ona Bayitga yetib olganlaridan so'ng shunday qilishadi. Marhumning boshini Ka'baga — qibлага mangu qaratib qo'yish uchun qabristondan avval qulay joyni tanlab olishadi, so'ng tirkalma aravada olib kelishayotgan belkuraklarda qazishadi, biroz chuqur kavlashgandan keyin qabrni tubigacha kavlash uchun ekskavatori ishga solishadi, jasad qo'yiladigan lahadni

esa qo'l bilan bitirishadi. O'shanda qabr tez va ko'ngildagidek hozir bo'ladi.

Sario'zak bo'ylab ayni shu niyat bilan yo'l olishgan edi. Ular dam o'r-u qirlardan turnagator cho'zilib borishar, dam keng soyliklar ichida ko'zdan g'oyib bo'lishar, goh yana keng sayhonlikka chiqib ko'zga ravshan tashlanib qolishardi — oldinda Edigey Bo'ron tuyada, ortida traktor tirkalma aravasi bilan, uning ketida esa kuragi va yerkavlagich cho'michini ikki tomonida osiltirib, qo'l-oyoqlari tarvaqaylagan allaqanday qo'ng'izsimon «Belorus» ekskavatori borardi.

Edigey ko'rinnay orqada qolib ketgan bekatga so'ngi bor o'g'irilib qararkan, birdan jiddiy qiyofada yo'rtib kelayotgan malla it Yo'lbarsni ko'rib hayratta qoldi. Qachon ergasha qoldiykin. Ana xolos! «Bo'ronli»dan yo'lga chiqqanlarida ko'zga chalingan edi, shekilli, bunaga qiliq chiqarishini bilganida, uni bog'lab qo'ygan bo'lardi. Qanday ayyor-al! Edigey Qoraroni bilan qayoqqadir jo'na'digan bo'lsa, darhol sezib qolib, payt poylaydi-da, ergashganicha hamroh bo'ladi-qoladi. Bu safar ham yer ostidan chiqqanday paydo bo'ldi-qoldi u. Hechqisi yo'q, deb qo'ydi Edigey. Uni haydab yuborishga kechikkan edi. Qolaversa, itni deb vaqtini o'tkazmaslik kerak. Mayli, chopib yuraversin... Xuddi egasining fikrini payqab yetganday, Yo'lbars traktorni quvib o'tib, Qoraronning old tomonida yo'rta boshladi. Edigey unga qanchi dastasi bilan po'pisa qildi. It esa hatto qulog'ini ham qimir etkizmadi. Po'pisa qilarnish, endi kechikding deganday it yo'rishda davom etdi. Shunaga marosimlarga qatnashsa nimasi yomon? Keng o'mrovi, bo'yinlari baquvvat, serjun, quloqlari kesilgan, aqlli, boqishlari muloyim malla it — Yo'lbars o'zicha ko'rkam, savlatli edi.

Ona Bayit sari borishar ekan, Edigey shu asnoda yo'l-yo'lakay turli xayollarga g'arq bo'ldi. Ufq uzra bosh ko'tara boshlagan quyosh hayot og'imini o'lchab, bo'lib o'tgan janniki turmush achchiq-chuchuklarini eslatdi unga. Edigey Kazangap bilan o'tkazgan yoshlik yillarini eslab keldi: o'sha kezlari har ikkalasining ham kuchga to'lgan qirchillama paytlari edi. Ular-ning ikkalasi bekatning doimiy ishchisi, asosiy kuchi bo'lsa,

boshqalar «Bo'ronli»da uncha ko'p turmay, qanday kelgan bo'lishsa, shunday ketib qolishar edi. Kazangap ikkalasining nafas rostlashi uchun vaqt yetishmasdi, chunki xohlaysanmi yo'qmi, zarurat tug'ilib qolsa, surishtirib o'tirmasdan har qanday ishini bajarishga to'g'ri kelardi. Endi bular haqida oshkora gapir-sang, yoshlar kuladi, o'z umrlarini zo'ye ketkizgan sho'rtlik qari-yalar, deb mazax ham qilishadi. Darvoqe, nima maqsadda shunday ishlar edik? Demak, qandaydir ko'zlangan maqsad bor edi.

Qor bosib qolgan kunlarning birida yo'lni tozalash uchun ikki kecha-kunduz tinmay ishlashdi. Kechasi joyni yoritib turish uchun parovoz chirog'idan foydalanishdi. Qor shamol aralash hamon bo'ralab yog'ardi. Bir yog'ini tozalaguningcha ikkinchi tomonini qor bosib qolardi. Sovuq ham gapmi, yuz, qo'llar qabarib ketadi. Parovozga chiqib besh daqiqa ishinib olasan, so'ng yana Sario'zakning ana shu o'lansa ishiga tutinasan. Hatto ularni yoritib turgan parovoz g'ildiraklarini ham qor bosib qolgan. Yangi kelgan ishchilarning uchtasi bir kechadayoq bezor bo'lib, o'zlarini chetga olishdi. «Shyam tirikchilik bo'ladi-yu, axir biz mahbuslar emasmiz-ku. Qamoxonadayam to'yib uxlash uchun vaqt beriladi», – deb Sario'zakdagi og'ir hayotini to'zitiib bo'ralab so'kdilar. Yo'l tozalaniib, poyezd yurganda esa bir kun avvalgidek darg'azab bo'lib, hushak chaltishib, yaramas so'zlar bilan so'kingancha jo'nab qolishdi:

– Ey, ahmoqlar, muz tishlaguncha, mana buni tishlang-lar!

Gap vaqtincha ishga kelgan bu o'spirinlarning so'kib ketganligida emas, boshqa narsada edi. Edigey o'sha qor tozalashdagi og'ir mehnat kunlari Kazangap bilan mushtlashib qolgan. Ha, shunday ham bo'lgan. Tun bo'yi ishlayverib madordan ketishgan edi. Qor bo'ralab yog'ar, izz'irin shamol xuddi o'chakishgan iddek avjiga minar edi. Undan hech qayovga qochib qutulib bo'lmasdi. Parovoz issiq bug'ini taratardi, biroq undan fagat tuman hosil bo'lardi. Chiroqlar esa qorong'ilikni arang yoritardi. Haliqi uch kishi ketib qolgach, Kazangap bilan ikkalasiga tuyaga changal sudratib, temir yo'l yoqasidagi qorni tozalashdi. Yo'l chekkasidagi qor tuyaning o'magidan kelardi.

Jonivorlar tortolmas, bu qiyomat qoyimdan ular ham bezillashar edi. Kazangap ikki tuyaning tizginidan tortsa, orqadan Edigey qanchilab haydardi. Shu alpozda yarim tungacha ter to'kishdi. Oxiri tuyalar qorga cho'kib, yotib olishdi. O'ldirsang ham, turadigan holi yo'q. Nima qilish kerak? Havo tunguncha ishini to'xtatib turishga to'g'ri keldi. Ular parovozning yonida shamoldan berkinishib turishdi.

– Yetar endi, Kazake, parovozga chiqib o'tira turaylik, havo tinsa, bir gap bo'lar, – dedi Edigey muzlab qolgan qo'lqoplarini bir-biriga urib.

– Havoning bo'lgani shu. Bundan yaxshisini kuma. Baribir, bizning vazifamiz yo'lni tozalash. Qani, kurakni ol, bekor turishga haqqimiz yo'q.

– Hoy, biz nima – odam emasmizmi?

– Yo'q, odammasmiz, iniga berkinib olgan bo'ri yoki boshqa har xil hayvonlarmiz.

– Ha, ablah! – g'azabladi Edigey. – Seningcha, odam o'lsa ham, mayli ekan-da. Hali o'zing ham o'lib ketasan bu yerda! deb uning chakkasiga qo'yib yubordi.

Ikkalasi olisha ketishdi va bir-birlarining labini urib yorishdi. Yaxshiyamki, parovozning o't yoquvchisi sakrab tushib, vaqtida ajratib qo'ydi.

Mana shunaga odam edi Kazangap. Endi bunaga odamlarni topib bo'psan. Bu kunlarda Kazangaplar yo'q. Mana, oxirgisini dafn etgani olib boryapmiz. Marhumni yer qari'ga uzatib, uning qabri lepasida vidolashuv so'zini aytish qoldi, xolos, shu bilan tamom-vassalom.

Edigey Bo'ron shularni o'ylar ekan, xotirasidan biroz ko'tarilgan Qur'on oyatlarini ichida qaytarar, qat'iy so'zlar tartibini hamda Haq taologa qaratilgan fikr izchilligini yodga tushirmoqchi bo'lar edi. Qur'on so'zi – Xudo so'zi. Ko'zga ko'rinmaydigan qodiri yakto'g'ina inson ibtidosi va iniltiosi o'rtasidagi, hayot va o'lim o'rtasidagi murosasizlikni kelishtira olishi mumkin. Qur'on asli shu maqsadda yaratilgan bo'lsa kerak! Odam o'lish uchun tug'iladimi, nega endi sen olamni shunday yaratgansan, deb Oллоh Taolodan so'ray olmay-san-ku! Har qan-

cha baqirgani bilan ovozning egasiga borib yetmaydi-ku. Dunyo dunyo bo'libdiki, kishilar shu tarzda kelishmasdan murosa qilib keladi. Qur'on ham, undagi aylan takrorlanuvchi so'zlar ham odam behudaga zorlanmasin, o'ziga tasalli bersin, deb azal-azaldan o'qib kelinadi. Ammo ming yillar mobaynida oltin yombi singari sayqal topib kelayotgan bu guyma so'zlar — marhumning jasadi ustida tiriklar tomonidan aytilishi shart bo'lgan eng so'nggi so'zlar. Udum — shu

Traktordagi yosh hamrohlarga qararkan, Edige'y Bo'ron astoydil afsuslandi: biromtasi ham Qur'on o'qishni bilmaydi-y'a. Bir-birovini qanday qilib dafn etisharkin? Mayjudotning ibtidoisi va intihosini o'zida jam eta oladigan qaysi so'zlar bilan inson umriga xotima yasasharkin? «Alvido, o'troq, seni hamisha yodda tutamiz», deb yoki yana qandaydir oldi-qochdi so'zlarni aytib ketaverisharmikin?

Edigey bu joylarni yaxshi bilardi. Qolaversa, Qoraroni ustidan levarak-atrof unga kaftadigdek aniq ko'rinib turardi. Traktorga qulay bo'lsin uchun o'ydim-chuqur yo'llarni chetda qoldirib, Ona Bayiga iloji boricha to'ppa-to'g'ri Sario'zak dasthidan yo'l solishga intilardi.

Biyoq oldinda ularni g'aroyib vogearlar kutardi; aql bovar qilmas bu vogearlar eshtigan quloqqa ganchalik g'alati tuyulmasin, Sario'zak kosmodromida sodir bo'layotgan ishlar bilan qandaydir uzviy aloqador edi...

Garchi atrof-muhitda biron hodisaning yuz berishi uchun hech qanday asos ko'rimayotgan bo'lsa ham, baribir, aviabardorligar aviaqanoillar va ichki xavfsizlik guruhlari favqulodda holatda turardilar. Favqulodda hodisaning sababi esa kosmos chegarasidan tashqarida edi.

Dunyoda hech kim insoniyat tarixidagi mislsiz kashfiyot – To'qayto'sh sayyorasida g'ayrizaminiy taraqqiyotning borligini bilmasdi. Hatto sodir bo'lgan vogadan g'oyat maxfiy ravishda ogohlantirilgan tomonlarning hukumatlari ham keyin nima bo'lganidan xabarsiz edilar. Bu hukumatlar shu ish bilan maxsus shug'ullanuvchi komissiyalarning o'zaro kelishib olishlarini kutayotgan edilar. Aviabardorning hamma qismlarida qat'iy tartib o'rnatilgan, hech kim, jumladan, aviaganot ham o'z o'rini tark etmasligi kerak edi. Hech kim biron sabab bilan kemani tark etishi, shuningdek, biron bir boshqa kema «Konvensiya»ga ellik chaqirim radiusda yaqin kelishi mumkin emas. Bu atrofdan uchadigan samolyotlar ham aviabardor turgan joyga yaqin kelmaslik uchun o'z yo'nalishini o'zgartirib, kamida uch yuz chaqirim olisdan o'tishi zarur edi.

Shunday qilib, tomonlarning umumiy kengashi uzilib qoldi, fanga noma'lum bo'lgan To'qayto'sh sayyorasidagi 1-2 va 2-1 partiet-fazogirlar yuborgan ma'lumotlarni har bir komissiya «Demiyura» dasturiga binoan, o'zlarining rahbarlari bilan birga muhokama qilishdi.

Ularning so'zlari aql bovar qilmaydigan cheksiz samoviy olislikdan yetib kelgan edi:

«Diqqat! Diqqat!

Transgalaktikadan gapiramiz!

Bizga mutlaqo begona bo'lgan narsalarni tushuntirish amrimahol. Biroq ko'p jihatlari mustahkam hamdir.

Bular ham odansimon – o'zimizga o'xshagan odamlar ekan! Yashasin butun olam rivojlanishi! Rivojlanish bu yerda ham universal prinsipdagi gominidning¹ nusxasini barkamol qilib yaratib qo'yibdi!

Bular o'ziga sayyoralar gominidlarining ajoyib tiplari! Badani bug'doy rangida, sochlari moviy, ko'zlari ko'kish-yashil, kipriklari momiqdek oq...

¹ **Gominidlar** (lotincha: homo – odam so'zidan) – primatlar turkumiga mansub oila. Hozirgi insoniyat (neantropolar)dan boshlab, o'lgan ajdodlarning hamma vakillari (arxantropolar va pulcoantropolar) kitadi. Gominidlar olisiga, odamda, avstralopithecimonlarni ham kiritishadi.

Biz ularni orbital bekatimizga yaqin kelganlarida ko'r-dik. Kemaning quyruq'idan bizlarni o'zlarining kemalariga taklif etib, kulib qarab turishardi.

Shunday qilib, biz bir dunyodan ikkinchisiga sakrab o'tdik.

Parrakli uchbar apparat kemamizdan ajraldi; yorug'lik tezligiga barobar sur'atda (kema ichida bu devari sezilmadi) biz vaqtlar oqimini ortda qoldirib, cheksiz falak sari yo'l oldik. Dastavval e'tiborimizni tortgan hamda bizni kutilmagan qulaylik bilan siylagan jihat – vaznsizlik holatining yo'qligi edi. Bunga qanday qilib erishilganligini hali biz anglab yetmagamiz. Ular ruscha va inglizcha so'zlarni aralashitirib «Velkom bizning Yulduz!», deyishdi. Agar astoydil urinsak, mushohada orqali ham fikr-mulohazalarimizni o'rtoqlashishimiz mumkin ekan. Moviy sochli bu kishilar nevhadan kelgan bo'lib, bo'yarlari qariyb ikki metrcha keladi. Jani besh kishi edi ular – to'rt nafar erkak, bitta ayol. Ayol kishi novchaligi bilan emas, balki qaddi-basti-yu badanining oqishligi bilan ajralib turadi. Moviy sochli to'qayto'shliklarning barchasi bizning shimoliy arablarga o'xshab qoramag'iz ekan. Dastlabki daqiqalardan oq bizda ularga nisbatan ishonch tuyg'ulari uyg'ondi.

Ulardan uchasi apparat uchuvchilari, bir erkak bilan bir ayol esa yerdagi tillarning bilimdoni ekan. Avvalo, koinot radio to'lqinlarini tutish yo'li bilan ingliz va rus so'zlarini ilk bor o'rganib, bir qolipga lug'at tuzgan ham shular ekan. Biz bilan uchtrashgan paytda ikki yarim mingdan ortiq so'z va atamaning ma'nosini o'zlashtirib olgan ekanlar. Bizning mulog'otimiz ham ana shu lug'at yordamida boshlandi. Albatta, ularning o'zlari bizga mutlaqo notanish tilda gapirishar edilar, ammo talaffuzlari ispanchani eslatadi.

«Partiet»dan parvoz qilganimizdan o'n bir soat o'tib, biz Quyosh tizimining chegarasidan chiqib ketdik.

Bizning o'z yulduz tizimimizdan boshqa tizimga o'tishimiz biron-bir narsada ayarlari sezilmadi. Koinot materiyasi¹ hamma

¹ **Materiya** (lotincha: materia – modda; ilk asos; mohiyat) – kishi ongidan tushurilgan va

joyda bir xilda. Ammo koinotga teran kirib borganimiz sari oldimizni asta-sekin qizg'ish shafaq qoplay bordi. Ehtimol, biz kelganda bu yulduzlar tizimi shunday holatda bo'lgandir. Haliqi qizg'ish yog'du borgan sari yopirilib, butun olamni qoplay borardi. Bu orada yo'l-yo'lakay bir necha sayyoraning yonidan o'tib bordik. Ularning bir tomoni yorug' bo'lsa, ikkinchi tomoni qorong'i edi. Ko'z o'ngimizdagi koinot bo'shlig'idan ko'pchilik quyosh va oyga o'tib turardi.

Biz go'yo tun qorong'iliigidan yorug'likka chiqib borayotgan edik. Nogoh osmon qat'ida bizga shu vaqtgacha nomalum bo'lgan ulkan, qudratli Quyoshdan taralayotgan o'tkir va cheksiz nurlikka uchib kirdik.

— Bu bizning Galaktika! Ana u, nur taratib turgan bizning Egamiz! Hademay To'qayto'sh ko'rinish beradi! — dedi tilchi ayol.

Darhaqiqat, cheksiz kosmik kenglikdan biz yangi Quyoshni ko'rdik, buni ular Ega deyisharkan. Kuchli nur taratishi va ulkanligiga qaraganda, ularning Egasi bizning Quyoshga qaraganda ancha ustunlik qiladi. Xuddi ana shu xususiyatlari bilan — To'qayto'sh sayyorasining suksasi yigirma sakkiz soatni tashkil etadi — bu olam bizning olamga nisbatan o'ziga xos bir qancha geobiologik tafovutlarga ega ekanini ham aytib o'tmo'g'imiz kerak.

Bularning barchasi haqida, balki, keyingi safar yoki «Parted»ga qaytib borganimizda xabar qilamiz, hozircha ba'zi muhim ma'lumotlar xususidagina yo'l-yo'lakay axborot beramiz. To'qayto'sh sayyorasi balandlikdan xuddi bizning Yerga o'xshash bulutlar qatlami bilan qoplangan. Biroq besh-olti ming metr quyi tushib borilgach (to'qayto'shliklar o'z sayyoralarini bizga ko'rsatish maqsadida ataylab yana bir aylanib o'tishgan edi), misli ko'rimagan go'zallikning guvohi bo'ldik: tog'toshlari, qir-adirlari-yu vodiylari yoppasiga zumrad yashillikka burkangan, ularning oralig'ida daryolar, dengizlar-u ko'llar yastangan. Sayyoraning ba'zi qismlari, ayniqsa, chekka qutb

umga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan obyektiv borliq.

tomonlari huvullab yotgan bepoyon dashtlik bilan qoplangan — unda hamisha chang-to'zonli izz'irin shamollar hukmronlik qiladi. Ammo bizda hammadan ko'proq taassurot qoldirgani ularning shaharlari va qishloqlari bo'ldi. To'qayto'shliklar joylashgan landshaftdagi bu orolsimon inshootlar aholi nihoyatda zich yashashidan dalolat berar edi. Bu sayyoradagi moviy sochli kishilarning shahar qurish mahorati oldida hatto Manxattan ham ip esholmasdi.

To'qayto'shliklarning o'zlarida esa, bizning nazarimizda, olamdagi aqlli mavjudotlarning g'aroyib turiga kiradi. Ayollarining homiadortlik muddati To'qayto'shning o'n bir oyiga cho'zilar ekan. Garchi ular uzozq umr ko'rsalar ham jamiyatining eng muhim muammolaridan biri, hayotning mazmuni umri uzaytirishdan iborat, deb hisoblaydilar. To'qayto'shliklar o'rtaacha hisobda bir yuz o'ttiz-bir yuz ellik yil, ayrimlari hatto ikki yuz yilgacha yashar ekanlar. Aholi jami o'n milliarddan ziyodni tashkil etadi.

Biz hozir moviy sochli kishilarning tirikchilik tarzi va yuksak taraqqiyotga erishganliklari haqidagi ma'lumotlarni izehil bayon qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Shuning uchun ham bizni g'oyatda hayratga solgan narsalar to'g'risidagina qisqacha xabar qilmogdamiz.

Bular quyosh, aniqrog'i, Ega energiyasini issiqlik va elektr energiyasiga aylantirish yo'llarini bilisharkan. Bu harakatlarning foydalilik darajasi bizning gidrotexnik ishlarimizga nisbatan ancha yuqori turadi. Yana shunisi g'oyatda muhimki, ular kunduzi va tunda har xil havo haroratini o'zlarida hosil qila olar ekanlar.

To'qayto'shliklar iqlimni boshqarishni ham o'rganib olishgan. Sayyoralarini bizga ko'rsatish uchun qayta aylanib o'tayotganlarida uchuvchi apparatdan qandaydir nur yuborib, bir zunda joylarda to'planib qolgan bulutlar-u tumanlarni tarqatib

¹ *Landschaft* (nemischa: Landschaft — o'tla, mamlakat; manzara, ko'rinish) — ko'rinish, relief, iqlim, o'simliklar va hayvonot dunyosi, gidrologik rejimi va boshqalarning bir xilligi bilan ajratib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud, joy.

yuborishdi. Yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, bular havo og'irligi harakatiga hamda okean, dengizlardagi suv oqimiga ham ta'sir eta olar ekanlar. Shu bilan birga sayyora ustidagi havo namligi va haroratni o'zgartirish jarayonini ham boshqara olisharkan. Bugina emas, gravitatsiyaning boshqarishini ham o'rganib olishibdi, bu esa yulduzlararo uchishda qo'l kelarkan.

Shunday bo'lsa-da, ularning oldida hal qilinishi zarur bo'lgan juda katta muammolar borki, hali, bilishimizcha, Yerdada bunday muammolarga duch kelganimiz yo'q. Ular qurg'oqchilikdan aziyat chekishmaydi, chunki iqlimni o'z izmlariga olishgan. Aholisi Yerdagi aholiga nisbatan ikki yarim barobar-dan ziyod bo'lishiga qaramay, oziq-ovqat ishlab chiqarish masalasida hozirgacha taqchilik degan narsani bilishmaydi. Biroq sayyoraning talay qismi asta-sekin yaroqsiz bo'lib borib, bunday joylarda tirik jonning hammasi yoppasiga qirilib ketayotgan ekan. Ichdan qurish hodisasi deyarli ekan bu. Sayyorani aylanib o'tayotganimizda To'qayto'shning janubi sharqiy tomonida chang-to'zonli bo'ron hukmron ekanining guvohi bo'lgan edik. Bizdagi vulqon harakati jarayonlarini eslatuvchi bu holat, balki, To'qayto'sh bag'ridagi qandaydir dahshatli reaksiya natijasidir. Lekin qandaydir sekin o'tilib chiqayotgan nur shaklida sodir bo'lib, sayyoraning ustki qatlami yemirladi, avvalgi holatini yo'qotadi va undagi tuproq hosil qiluvchi moddalarning hammasi kuyib ketadi. To'qayto'shning Sahroi Kabirdek keladigan o'sha cho'l qismini moviy sochilarning yerlarini yil sayin bir chekkadan yemirib borayotgan ekan. To'qayto'shliklar uchun eng katta falokat ham shu. Bular sayyora qat'ida yuz berayotgan bunday jarayonni aniqlashga ham o'jizlik qilisharkan. Ichdan kuyib yemirilishdek bu dahshatli hodisaga qarshi kurashga ne-ne kuch tashlangan, juda katta ilmiy va moddiy vositalar ajratilgan. Ularning yulduzlar tizimida Oy yo'q, ammo bizning Oyni bil-

¹ Gravitatsiya (lotincha: gravitas – og'irlik) – butun olam tortishish kuchi, barcha turdagi fizik moddalar (oddiy moddalar, har qanday fizik maydonlar) o'rtasidagi universal o'zaro ta'sir bo'lib, ushbu o'zaro ta'sir katta-kichikligi, jismlarning tez yoki sekin harakatlanishiga qarab butun olam tortishish qonuni yoki umumiy nisbiylik nazariyasi bilan izohlanadi.

sharkan, hatto u yerga kelib ketishgan. Bizning Oyni ham, ehtimol, o'zlarining sayyorasiga yopirilib kelayotgan ofatga o'xshash bir narsa quritgandir, deb faraz qilishmogda. Buni eshitib, birmuncha o'ylanib qoldik. Oydan Yerimiz unchalik uzoq emas-ku. Haligiday balo-qazo yopirilsa, uni daf qila oladigan biron chora topa olarmikamiz? Unda ichki va tashqi siyosatlarimizning oqibati qanday bo'larkin? Yerdagi doimiy kelishmovchiliklar tufayli o'z aqliy taraqqiyotida ko'p narsalarni yo'qotganliklarini o'ylab qolishmasmikin?

Ayni vaqtda, To'qayto'shning ilmiy doiralari umumsayyoraga oid munozaralar olib borilmogda. Ichki kuyishning sirlarini aniqlash va yuz berishi mumkin bo'lgan bu falokatning oldini olish yo'llarini izlab topish uchun kuch-g'ayrat sarflash kerakmi-yo'qmi yoki vaqtning borida Falakdan o'z hayotiy ehtiyojlariga muvofiq keladigan boshqa bir yangi sayyorani qidirib topishsinmi, vaqti kelib yangi maskanga To'qayto'shdagi taraqqiyotni qayta tiklash maqsadida aholini ommaviy ravishda ko'chirib kelishsami – munozaraning asosiy muammolari shular. Qayogga va qaysi bir yangi sayyoraga ko'z tikishlari hozircha ma'lum emas. Har holda o'z sayyoralarida hali million-million yillar bema'lol yashayverishlari ham mumkin. Biroq hayratga soladigan joyi shundaki, ular olis kelajak haqida o'ylashib, g'ayrat va shijoatga to'lib-toshganda go'yo bu muammo hal etilishi bevosita hozirgi yashayotgan xalqlarga taalluqliday «Bizdan keyin dunyoni suv bosmaydimi?» degan qabihgina fikr nahotki hech kimning xayoliga kelmaydi? Ummumsayyora yalpi mahsulotining anchagina qismi o'sha ichki kuyishning oldini olish uchun sarflanayotganini anglab yetganimizdan so'ng yuqoridagi fikr xayolimizga kelganidan o'zimiz xijolatga tushib qoldik. Ular hozir necha minglab chaqirimga cho'zilib ketgan va sekin-asta yopirilib kelayotgan balo-qazoning yo'lliga juda teran parnalash usuli bilan to'siqalar paydo qiliyapilar, tubsiz chuqurliklarga uzoq vaqt neytrallashtiruvchi moddalarni yuborib turishga harakat qilmoqdalar. Aytishlaricha, bunday moddalar sayyoraning ichki yadroviy reaksiyasiga keraklicha ta'sir ko'rsata olar ekan.

Albatta, ularda ijtimoiy turmushga oid azaldan boshni qotirib, o'ylantirib kelayotgan ma'naviy, axloqiy hamda aqliy ruhdaagi muammolar bor va bo'lishi tabiiy. Ma'lumki, qanchalik farovon hayotga erishgan bo'lmasin, baribir, o'n milliarddan ziyod aholining hayot kechirishi o'z-o'zidan bo'lmaydi-ku, axir. Ammo shuni hayratlanarliki, ular davlat, qurol-yarog' va urush nima ekanini bilishmas ekan. Qadim o'tmishda urush ham, davlat ham, pul ham va ularga bog'liq ijtimoiy munosabatlarning boshqa turlari ham, ehtimol, bo'lgandir, buni aytishga o'zilik qilamiz, biroq hozirgi paytda zo'rlik vositasi bo'lmish davlatni va kurash vositasi sifatida urushni tasavvur qila olmaydilar. Agar to'g'ri kelib qolib, Yerdagi tinimsiz urushlar mohiyati haqida gapirib bersak, bu ularga qandaydir ma'nosiz narsa yoki masalalarni vahshiylarcha hal qilish bo'lib tuyulmasmikin?

Bularning butun hayoti biz yerliklarning mushohada andozamizga uncha tushunarli bo'lmagan boshqa asoslarga qurilgan.

Ular kurashning bir yo'li sifatida urushni sayyoradagi butun jamoa ongi va tushunchasidan qat'iy chiqarib tashlash darajasiga erishgan ekanlar; taraqqiyotning bu formasi, ehtimol, olamda mavjud barcha sayyoralaridagi taraqqiyotga nisbatan eng ilg'ori deb faraz qilishga imkon beradi. Balki, ular ilm-fan taraqqiyotini shu darajaga yetkazgandirlarki, oqibatda zamon va makonda insonparvarlikni vujudga keltirish, shu tariqa olam taraqqiyotini yangi, yuksak va cheksiz bosqichlarda ham davom ettiraverish ongli mavjudotlarning asosiy maqsadi bo'lib qolgan.

Biz muqoyasa qilinishi mumkin bo'lmagan narsalarni muqoyasa qilmogchimiz. Kezi kelib biz yerliklar ham shunday yuksak taraqqiyotga erisharmiz, hozirgi kunda ham faxrlansa arziydigan ishlarmiz bor. Har nechuk, ko'ngilni noxush qiladigan narsalar ham yo'q emas: mabodo tarixni urushlar tarixidan iborat deb. Yer yuzidagi insoniyat fojiaiy yangilishish bilan yashamayaptimikin? Hal-haligacha shu yo'ldan borayotganimiz avval boshdan o'tg'ri, ishqibolsiz bo'lib chiqsa-chi? Mabodo shunday bo'lsa, biz unda qayoqqa qarab keyapmiz va bu

qanday oqibatlarga olib keladi? Mabodo shunday bo'lsa, insoniyat buni tan olish uchun o'zida jur'at topishga va yalpi urush xavfidan o'zini olib qochishga ulgurarmikin? Taqdir taqozosi bilan Yerdan tashqaridagi ijtimoiy hayotni ilk bor ko'rib, guvohi bo'lib, murakkab his-tuyg'ularni boshdan kechirmoqdamiz. Yerliklarning kelajak istiqboli haqida o'ylab vahimaga tushaymiz va yana ezgulikka umid bog'laymiz. Umidimizga asos bo'larli narsa – Yerdan tashqaridagi biz ko'rgan ijtimoiy hayotdiki, unda har qanday ziddiyat urushsiz hal etiladi; mana shu jamiyat bizga o'mak bo'larli emasmi?!

Koinotning qaysi bir chekkasida, o'zlaridan cheksiz uzorlikda Yer mavjud ekanini to'g'ayto'shliklar bilishadi. Ular yerliklar bilan shunchaki, tabiiy ravishda bilimga chanoq bo'lganliklaridan emas, balki, o'zlar maqbul ko'rganliklaridan, dastavval aql-idrok mo'jizasining tantanasi, taraqqiyot tajribalarini almashish, Koinot aql-idrokini ifodalovchi kishilar tafakkuri, ruhini taraqqiy ettirishda yangi davr ochish uchun aloqa bog'lashga intilmogdalar.

To'g'ayto'shliklar bizga nisbatan ko'proq narsalarni olindan ko'rishar ekan. Har qanday energiyaning muqarrar ravishda tanazzulga yuz tutishini, har qanday sayyoraning vaqti kelib halokatga uchrashini nazarda tutib, butun olam aql-idrokining bu ikki tarmog'ini birlashtirib umumiy kuch sarflasak, tabiat umrini cheksiz uzaytirish yo'llarini tezroq toparmidik, deb o'ylashyapti. Shuning uchun ham ular yerliklar bilan o'zaro aloqa bog'lashdan manfaatdor. «Oxir zamon» muammosi haqida bundan milliard yillar ilgari bosh qotirib kelishgan, endilikda esa Koinotda jamiki mavjudotlar yashay oladigan yangi baza tashkil etishning kosmik loyihasini ishlab chiqishmoqda...

Ular hozirning o'zidayoq uchar apparatlarida yorug'lik tezligida bizning Yerimizga uchib tushishlari mumkin. Ammo yerliklarning roziligi va taklifsiz buni istashmaydi. Chagirlimagan mehmon singari o'zlaricha bostirib kelishni ep ko'rishmaydi. Shu bilan birga ular tanishmoq uchun ko'pdan beri sabab qidirayotganliklarini ham anglatdilar. Kosmik kemalarimiz orbita bo'ylab uzor vaqt uchib yurgan o'sha kezlardan boshlab,

ular uchrashish payti kelganini va o'zlari tashabbus ko'rsatishlari lozim ekanini bilishgan, puxta tayyorgarlik ko'rib, qulay paytni kutib yurishgan ekan. Bu fursat oraliq muhida – samoviy bekatda turganimiz uchun bizning chekimizga tushgan edi...

Ularning sayyorasida paydo bo'lishimiz, tabiiyki, kutilmagan hodisa bo'ldi. Shu munosabat bilan efrida butun sayyora bo'ylab katta bayram tantanalaridagina ishlatiladigan maxsus bahaybat telealoqa tizimi ishga tushirildi. Atrofimizdagi yoritilgan havo qatlamida ming-minglab chaqirim olislikdagi kishilarning chehrasini va turli xil buyumlarni xuddi qarshimizda turganday aniq ko'rib turardik, ayni chog'da, yuzma-yuz turib, tabassum bilan, qo'l siqishib so'zlashib, qah-qah urib kulishib, o'zaro apog-chapog bo'lib ketish imkoniyati ham bor edi. Bu, albatta, o'z-o'zidan hamijahatlik asosida sodir bo'ldi. Qanday ko'rkam to'gayto'shliklar, shu bilan birga bir-birlariga qanchalik o'xshamaydilar, hatto sochlari ham to'q moviydan tortib, och moviy tusgacha bor; chollarning sochlari esa xuddi bizning chollarnikiga o'xshab ogarar ekan. Antropologik¹ tuzilishlari xilmaxil, chunki ular ham turli etnik guruhlardan tashkil topishgan ekan.

Bularning hammasi haqida, yana hayratga soladigan boshqa ko'pgina antiqa narsalar haqida «Paritet»ga yoki yerga qaytib tushganimizda gapirib beramiz. Hozir esa eng muhimlari xususida so'z ketadi. To'gayto'shliklar lozim ko'rgan vaqtimizda bizning sayyoramizga kelish niyatlari borligini bildirib, bu haqda «Paritet» aloqa tizimi orqali xabar qilishimizni so'rashmoqda. Bungacha ular dastlabki uchrashuv joyi bo'lib xizmat qiladigan va kelgusida o'zaro qatnov bazasi bo'lib qoladigan oraliqdagi yulduzlaro bekat barpo qilish dasturini kelishib olishimizni taklif qilishyapti. Biroq bizni shunga aloqador bo'lgan boshqa masala tashvishlantiryapti.

¹ Antropologiya (antropo ... va ... logiya) – odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqiining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq-atfovot, o'zgaruvchanlik haqidagi fan.

Bu xildagi falaklararo uchrashuvlarga biz yetliklar tayyormizmi, ongli mavjudot sifatida bunday uchrashuvlar uchun pishib yetilganimizmi? Bir-birimizdan ajralib, o'rta ziddiyatlar mavjud bo'lib turgan bir paytda, kafilekni o'z zimmamizga olib, umuminsoniyat nomidan, butun Yer kurraasi nomidan gapira olamizmi?

Raqobating, soxta ilg'orlik yo'lida kurashning yangi o'chog'ini alangalatib yubormaslik uchun mazkur masalani hal etishni faqat Birlashgan Millatlar Tashkilotiga topshirishlaringizni sizlardan o'tinib iltimos qilamiz. Shu bilan birga, biz veto¹ huquqini suiste'mol qilmaslikni so'raymiz. Ehtimol, bu safar istisno tartiqasida bu huquqning bekor qilinishini iltimos qilamiz. Qo'shni Galaktikada turib bunday narsalar haqida o'ylash bizlar uchun juda og'ir va alamlı, biroq biz yetliklarniz, binobarin, sayyoramizda istiqomat qilayotgan kishilarning tabiatlarini har holda yaxshi bilamiz.

Va nihoyat, o'zimiz haqimizda va yana xatti-harakatlarniz xususida to'xtab o'taylik. Samoviy bekatdan g'oyib bo'lishimiz sizlarni hayratga solib, shoshilinch surada qanday choralar ko'rishga olib kelganini tushunasizlar. Sizlarni shunchalik tashvishga solib qo'yganimizdan g'oyat afsuslanmoqdamiz. Biroq bu jahon tajribasida shunday noyob hodisa ediki, biz hayotimizdagi bunday ulug'vor ishdan bosh torta olmadik va bosh tortishga haqimiz ham yo'q edi. Qat'iy belgilangan qonun-qoidaga odatlangan bo'lsak ham, o'sha maqsadni deb qoida buzishimizga to'g'ri keldi.

Mayli, bu bizning vijdonimizga havola, mayli, tegishli jazoinimizni olaylik. Ammo buni hozircha qo'ya turinglar. O'qib olinglar biz koinotdan xabar yubordiki! Biz hozirga qadar noma'lum bo'lgan falakdan xabar yuboryapmiz, hozirga qadar noma'lum bo'lgan yulduzlar turkumi – Ega yoritgichidan belgi berypamiz. Moviy sochli to'gayto'shliklar hozirgi zamon taraqqi-

¹ Veto (lotincha, veto – ruxsat bermayman, man qilaman) – rivojlangan davlatlarda birona organ, tashkilot qonuni yoki qarorining kuchga kirishini to'xtatish yoki kuchga kiritishga yo'l qo'yimaslik huquqi.

qiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan ekan, ular bilan uchrashish butun hayotimizga, butun insoniyat taqdiriga juda katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo biz, tabiiyki, Yer manfaatlariga amal qilgan holda bunga jur'at qila olarmikamiz?..

Bu sayyoraliklar bizga hech qanday xavf tug'dirmaydi. Har qalay, bizlar shunday xulosaga keldik. Ammo ularning tajribalarini o'zlashtirib olsak, atrofmizni o'rab olgan moddiy dunyodan energiya ishlab chiqarish usulidan tortib, to qurolsiz, zo'rliksiz, urushsiz yashay olishimizgacha bizning turmush tarzimizda keskin o'zgarish yasagan bo'larдик. Gaplarimiz g'ayritabiiy tuyulsa ham, ammo biz hajm jihatidan Yerga teng keladigan geobiologik joyni egallab turgan To'qayto'sh sayyorasida aqlli mavjudotlar misilsiz dorilamon hayot kechirish darajasiga erishilganiga tantanali ravishda guvohlik beramiz; darhaqiqat, ular shunday mo'jizaviy taraqqiyot darajasiga erishishgan. Koinot miqyosida yuksak darajada fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan bu kishilar kelajakda o'zlarining hamkasblari – yetliklar bilan oqilona ish yuritib, ikkala tomonning chitiyoji-yu, xohish-istagiga mos keladigan adolatli aloqa o'rnatishga tayyorlar.

G'ayrizaminiiy taraqqiyotni kashf etganimizdan qanchalik zavqlanib, hayajonga berilmaylik, baribir, tezroq qaytish va galaktikadan tashqarida Ega yoritigich tizimidagi sayyoralaridan birini ko'rib, shohidi bo'lganimizni yurtdoshlarimizga batafsil so'zlab berish ishtiyqidamiz.

Yigirma sakkiz soatdan so'ng, boshqacha aytganda, aloganing shu scansidan to'ppa-to'g'ri bir sutka o'lgandan so'ng yana orqaga – o'zimizning «Pariet»ga qaytish niyatidamiz. «Pariet»ga yetib kelgach, Qo'shmarboshning buyrug'iga to'la bo'ysunamiz.

Ko'rishguncha, xayr. «Pariet»ga yetib borishimiz mud-datini Quyosh tizimiga yo'l olishimiz oldidan xabar qilamiz.

Shuning bilan To'qayto'sh sayyorasidan bergan birinchi axborotimizni tugallaymiz. Tez orada ko'rishguncha, xayr! Otilalarimizga xavotir olinmasligini aytib qo'yishlaringizni so'raymiz...

«Konvensiya» aviabardori bortidan alohida vakolatga ega bo'lgan komissiyalar «Pariet» bekatida yuz bergan favvullodda hodisani alohida-alohida majlislarida muhokama qilib bo'lgach, to'la tarkibda yuqori doiralar bilan maslahatlashish uchun uchib ketishdi. Aviabardorning palubasidan bir samolyot San-Fransiskoga, birozdan so'ng ikkinchi samolyot qarama-qarshi tomonga, Vladivostokka qarab yo'l oldi.

«Konvensiya» aviabardori hamon o'sha yerda, doimiy manzilida – Tinch okeanda, Aleut orollarining janubiy qismida turardi... Aviabardorda qattiq tartib o'rnatilgan. Har bir kishi o'z ishi boshida, har bir kishi sergak. Hamma sukut saqlardi...

Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi.

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dashtlik – Sario'zak, o'racho'l yastanib yotadi...

Ona Bayit yo'lining uchdan bir qismi bosib o'tildi. Quyosh boshida Yer kurraasi uzra shirob bilan ko'tarilgan bo'lsa ham, endi Sario'zak tepasiga kelib, bir nuqtada muallaq turib qolgan-day tuyulardi. Demak, kun kunligini qilib, havo rosmama qiziy boshladi. Edigey Bo'ron ba'zan soatiga, ba'zan quyoshga, ba'zan esa qarshisida cho'zilib ketgan dashtlikka qarab qo'yar ekan, hamma narsa ko'ngiliday borayotganidan qanoat hosil qildi. Edigey hamon avvalgiday katta-katta qadam tashlab, lapanglab borayotgan tuyasi ustida, orqasida tirkalma arava, aravaning ortida – qo'ng'izsimon «Belorus» ekskavatori, ularning yonida esa malla it – Yo'lbars...

«Ajabo, inson miyasi bir daqiqaga ham o'ylamasdan turlamaydi. U shunday tuzilganki, xohlaysanmi, xohlamaysanmi – o'ylaganing o'ylagan, bir fikrdan ikkinchisi tug'llaveradi. Shu hol, aftidan, o'la-o'lguningcha davom etsa kerak!» Yo'l bo'yi tinmay o'ylab ketayotgan Edigey ajib yangilik kashf etganday o'zicha kulib qo'ydi. Dengiz to'liqlari singari o'y ketidan o'y tug'llaveradi. Bolalik kezlari shamol esib turgan payt Orol

dengizi qirg'oqlariga o'tirib olib, olislardan jimirib qaynab, jo'shib kelayotgan oq yoli o'rkach-o'rkach to'liqlar qirg'oqqa kelib urilishini soatlab kuzatar edi. Dengiz sathi, bir vaqtning o'zida mavjlanib-bosilib, yana mavjlanib qaytadan so'nib turardi. Shunda bola oq chorloqqa aylanib, to'liqli dengiz uzra, jilvalanib turgan suv tomchilari uzra parvoz qilib, yuqoridan buyuk suvning qudratli harakatini kuzatishni orzu qilardi.

Sario'zak dastining kishi ruhini ma'yuslantiruvchi kuz oldidagi tund manzarasi, tuyaning bir maromda zalvarli qadam tashlab borishi Edigey Bo'roni allalab, turli xayollarga g'arq qilardi, manzil uzoqligi, hech nimaning xalaqit bermayotgani tufayli o'zi ham xayollarga erk berib borardi. Qorator har galidek bu safar ham yo'l yurgan sari g'ayratga minib borardi, yolidan va bo'ynidan taralayotgan ter hidi dimog'ni yorguday edi. «Ha, jonivor, — deya mamnun kulimsirab qo'ydi Edigey o'zicha, — terlab ketding-al! Choting ko'piklanib ketibdi! Eh, hayvon zoti, uyatni bilmaysan! Yomonsan, yomon!»

Edigey Bo'ron o'tgan kunlarni eslay ketdi. Kazangapning sog'salomat, kuchga to'lgan paytlari yuz bergan voqealarni xotirladi, shunday xayollar og'ushida qay bir zamonlar paydo bo'lgan dard yana beixtiyor qo'zg'aldi. Tavba qilib, kalima o'g'irsa ham bo'lmadi. Yuragidagi o'sha dardni unutish uchun pichirlagancha qayta-qayta kalima kelirsa ham foydasi bo'lmadi. Qosh-qovog'i solinib, noiloj qolgan Edigey Bo'ron g'ayrat bilan ildam borayotgan tuyasining goh u yoniga, goh bu yoniga hech qanday sababsiz qanchi ura boshladi va kepkasining soyabonini ko'ziga bostirib olib, orqadan kelayotgan traktor-ga ham o'g'irilib qaramay ilgari ketdi. Mayli, ergashib kelaverishin, adashib ketishmas. Hatto xotiniga ham aymagan, allaqachonlar bo'lib o'tgan voqea bilan bu g'oyat yoshlarning necha pullik ishi bor, dedi o'zicha, buni faqat Kazangapgina har qachongidek to'g'ri va haqoniy tushungan edi. Shunday bo'lmaganida Edigey allaqachon «Bo'ronli» bekatidan ketardi.

O'sha ellik birinchi yilning oxiri, qish faslida bekaga bir oila ko'chib keldi. Er, xotin va ikki bola. Ikkalasi ham o'g'il: kattasi — Dovul besh yoshda, kichigi — Ernak uch yoshda.

Abutolib Qutiboyevning o'zi Edigey bilan tengdosh. U urushgacha yoshgina yigit bo'lib, ovul maktabida bir yil muallimlik qilgan, so'ng qirg' birinchi yilning yoziga kelib uni birinchilar qatori frontga jo'natishgan. Urush tugagach, Zarifa ikkisi turmush qurishadi. Shu yerga ko'chib kelganlariga qadar Zarifa ham boshlang'ich sinf muallimasi bo'lib ishlagan ekan. Shunday qilib, taqdir taqozosi bilan Sario'zakka, «Bo'ronli» bekatiga kelib qolishdi.

Bu huvullab yotgan kimsasiz cho'lga ishqilari tushib emas, balki sho'rlariga sho'rva to'kilib kelib qolganlari darhol ayon bo'ldi. Abutolib bilan Zarifa boshqa joyda ham bemaol ishlab ketishlari mumkin edi. Biroq, tuz-nasiba deganday, sharoit taqozosi bilan bu yerga kelib qolgan edilar. Boshda bo'ronliklar ular bu yerda uzoq vaqt chidab turisholmaydi, bugun bo'ronliklar eraga boshlari oqqan yoqqa ravona bo'ladilar, deb o'ylashgan edi. Bular-ku bulardir, mana man degan qanchadan qancha azamat kelib-kekmadi deysiz bu yerga. Edigey bilan Kazangap ham shunday fikrda edilar. Ammo-lekin odamlar Abutolibning oilasi bilan tezda apog-chapog bo'lib ketishdi. Insofli, andishali, madaniyatli kishi ekan. Xokisorgina oila. Er-xotin hamma qatori meh-nat qilishdi, bellari bukiilib shpal tashishdi, qor tozalab sovuqda qotishdi. Xullas, temir yo'l xizmatchisi qilishi lozim bo'lgan hamma ishni bajarishdi. Shuni aytish kerakki, hammaga ma'qul murosali, ahli, totuv oila ekaniga qaramay, Abutolibning nemis-lar qo'lida bo'lgani tufayli bu oila baxtsiz edi. Bu kezlarga kelib, urush yillaridagi ur-yiqitlar birmuncha tingandek edi. Endi asirda bo'lib qaytganlarga xuddi urush yillarida bo'lgani singari xoin, xalq dushmani deb qaramas edilar. Bo'ronliklar bunga ko'p ham e'tibor berishmasdi. Asir tushgan bo'lsa tushgandir, urush g'alaba bilan tugadi, bu dahshatli qiyomat qoyimda odamlar boshidan nimalar kechmadi, deysiz. Ba'zilar hanuzgacha qo'nim topmay, darbadar holda jahon kezib, urushning sovuq sharpasi esa odamlar ortidan hamon soyadek ergashib yuribdi... Shuning uchun ham bo'ronliklar yangi kelgan qo'shini bezova qilmaslik uchun unchalik so'rab-surishtiraverishmadi, busiz ham dard-

alamni yetib ortar, dilini og'ritib nima ham qilamiz, deb o'ylashdi o'zlaricha.

Vaqti kelib, odamlar Abutolib bilan asta-sekin inoqlashib ketishganini o'zlari ham bilmay qolishdi. Aqlli odam edi u. Edigeyga ma'qul bo'lgan joyi – turmushi achchiq kechgan bo'lsa ham, sir boy bermay yuradi. Qismatidan hadeb noliyvermas, odamlar orasida o'zini munosib tutar edi. U dunyo tashvishlari bilan hisoblashmasligi mumkin emas edi. Qismati shu ekani tushundi, shekili. Qalig'i Zarifa ham, ehtimol, shunday xayolda yurgan bo'lsa kerak. Ikkalasi jabr-u jafolarga bardosh bergan holda turmush ma'nosini bir-birlariga mehribonlik qilishda, ardoqlashda, totuvlikda va g'amxo'rlikda ko'rtilar. Ular ana shu birgina tuyg'u bilan yashab, shu tuyg'u tufayli bir-birlarini va farzandlarini hayot quyunlaridan himoya qilib, jon saqlab kelgan edilar, Edigey buni keyinchalik tushunib yetdi. Ayniqsa, Abutolib bir kun ham oilasidan ajralgan holda yashay olmasdi. Farzandlarining o'zi uning uchun bir olam. Ishdan sal qo'li bo'shadimi, darhol ular bilan mashg'ul bo'ladi: xat-savod o'rgatadi, turli ertak, topishmoqlar aytib beradi, o'zicha allagan-day o'yinlarni o'ylab topadi. Avvallari xotini bilan ishga ketgan paytlari bolalarini barakda yolg'iz qoldirib ketishardi. Ukkubola bunga xotirjam qarab turolmadi. Bolalarni o'z uyiga olib kelib yurdi. Abutoliblarnikiga qaraganda ularning uyi issiqroq bo'lib, o'sha kezlari turmushlari ham ancha yaxshilanib qolgan edi. Bu ham oilalarini yaqinlashtirishga olib keldi. Shu yillarga kelib Edigeyning ikkala qizi katta bo'lib qolishgan, ular Abutolibning bolalari bilan deyarli tengqur edilar.

Bir kuni ishdan qaytayotib, bolalarni olib ketishga kirgan Abutolib:

– Edigey, bolalarimga qo'shib sening qizlaringni ham o'qitsam-chi, – deb taklif qilib qoldi. – Axir, hozirgacha bular bilan shunchaki bekorchilikdan ish olib borayotganim yo'q. Birovlariga o'rganib qolishdi, birga o'ynashyapti. Kunduzi sizlarnikida, kechqurunlari biznikida bo'lishsin. Buni nima uchun aytyapman? El-u xalqdan uzoqda yashayapmiz, zerikarli, albatta. Shuning uchun ham ularning ko'zini ochish kerak. Yoshlik

chog'laridanog bilim olishsin: zamon talabi – shu. Hozirgi mushtdek bolalar ilgari azamat yigitlarning bilganicha bilishlari kerak. Bo'lmasa, rostakam savodli bo'lolmay qolishadi...

Abutolibning bu harakatida katta ma'no borligini Edigey ancha o'lgach, haligi ko'ngilsiz voqeadan so'ng tushundi. «Bo'ronli» sharotida Abutolib uchun bolalarga o'z imkonicha bilim berishdan boshqa iloj yo'q ekani Edigey endi fahmlab yetdi. U, oldindan sezganday, bolalariga iloji boricha ko'proq bilim berishga shoshilib, shu yo'l bilan farzandlari ongida chuqur iz qoldirib, yana ular qalbida yashab qolishga oshiqqan ekan. Kechqurunlari Abutolib ishdan qaytgandan so'ng, Zarifa bilan birgalikda o'z bolalari va Edigeyning bolalari uchun maktab-bog'chani tashkil etdi. Bolalar harf tanib, hijjalab o'qib o'rganishardi. Kim o'zarga musobaqalashib, rasn chizishib, o'ynab-kulishar, ota-onalari o'qib bergan kitoblarni qunt bilan tinglashar, hatto hammalari birgalikda har xil ashulalarni o'rganardilar. Mashg'ulotlar shunchalik maroqli o'tar ediki, Edigey ham ularnikiga kirib kuzatadigan bo'ldi. Ukkubola ham qandaydir ishini bahona qilib tez-tez kirib turardi, haqiqatda esa qizlarning qilayotgan ishlarini ko'zdan kechirardi. Edigey Bo'ronning ko'ngli tovlanib ketdi. Savodli kishining sadag'asi ketay, o'qituvchiga nima yetsin! Katta yoshdagi kishining bolaga bolalarcha muomalada bo'lib, ish yuritayotganini kuzatib turishning o'ziyoq qanchalik zavqli. Edigey bunday mashg'ulotlarga xalal bermaslik uchun bir chekkada o'tirib, jimgina tomosha qilardi. Uyg'a kirib kelishi bilan bosh kiyimini olib:

– Assalomu alaykum! Ko'ryapsizlarni, bolalar bog'chasiga beshinchi o'quvchi kirib kelyapti, – derdi.

Uning kirib turishiga bolalar ham ko'nikib qolishgan edi. Qizlarning quvonchini aytmayisizmi. Otasining ko'zi oldida sidqididan tirishardi. Edigey bilan Ukkubola oqshomlari bolalar sovuqqa qotmasin, bemaol yursin, deb ularning pechkasiga dam-badam o'ti yoqib turishar edi.

O'sha yili «Bo'ronli»ga mana shunday oila kelib, panoh topib turib qoldi. Shunisi qiziqki, bunaga odamlarning omadi kelavermaydi ko'pincha.

Abutolib Qutitboyevning musibati shunda ediki, u nemislar qo'liga asirlikda bo'libgina qolmay, omadi kelgani-danni yoki kelmaganidanni, bir guruh asirga tushgan kishilar bilan birga Janubiy Bavariyadagi konslagerdan qochib chiqib, qirg'uchinchi yili Yugoslaviya¹ partizanlar² safiga kelib qo'shil-gan edi. Urush tamom bo'lgunga qadar Abutolib Yugoslaviya ozodlik armiyasida jang qilib yurdi. O'sha yerda yaralanib, o'sha yerda davolandi. Yugoslaviyaning jangovar ordenlari bilan mu-kofotlandi. U haqda partizan gazetalari yozishib, suratlarini bosib chiqarishdi. Qirg' beshinchi yilda vatanga qaytib kelga-nidan so'ng, elakdan o'tkazuvchi taftish komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilganda shu narsalar jomiga ora kirdi. Konslagerdan qochib chiqqanlar o'n ikki kishidan iborat bo'lib, ulardan to'rt-tasigina omon qolgan edi. Bu to'rt kishining ishi o'ngidan kel-gani yana shunda ediki, taftish komissiyasi Yugoslaviya ozodlik armiyasi bo'linmalari o'mashgan joyga maxsus borib, Yugosla-viya komandirlaridan sobiq sovet asirlarining jangovar va ma'na-viy sifatlari, ularning fashistlariga qarshi partizanlar harakatida qatnashganliklari to'g'risida yozma ma'lumotlar olishdi.

Xullas, oradan ikki oy o'tib, ko'p martalab tekshirish, so'roq qilish, yuzma-yuz qilish, intizor bo'lib kutish, umid va umidsizliklardan so'ng Abutolib Qutitboyev o'z haq-huquqini saqlagan holda qadrdon Qozog'istoniga qaytib keldi. Lekin unga harbiy xizmatdan bo'shab kelayotganlarga berilishi kerak bo'lgan imtiyozlar berilmadi, Bunga u ranjmad. Urushga qadar geografiya muallimi bo'lgan Abutolib Qutitboyev yana o'z kasbini davom ettirdi. Tuman markazidagi maktablardan birida

¹ Yugoslaviya – Janubiy Yevropadagi davlat (2003-yilgacha mavjud bo'lgan). Serblar, xorvatlar, slovenlar qirolligi negizida 1929-yil tashkil topgan. Serbiya, Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya, Chernogoriya uning tarkibida bo'lgan. 1991-yil YuSFR parchalanib ketdi. Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina, Makedoniya federatsiya tarkibidan chiqib ketdi va mustaqil davlatlarga aylandi. 1992-yil Serbiya bilan Chernogoriya Yugoslaviya Ittifoq Respublikasini tuzdilar. 2003-yil 4-fevraldan bu davlat Serbiya va Chernogoriya deb atala boshladi.

² Partizan (fransuzcha: *partisan*; italyanча: *partigiano* – tarafdor, ixlosmand) – Dushmanga bosib olgan joylarda ozodlik uchun qur'oli kurash olib boruvchi ko'ngilli xalq armiyasining a'zosi.

ishlaydigan boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yoshgina muallima Zarifa bilan uchrashdi. Har ikkala tomonni qoniqtiruvchi bunday baxt kamdan kam bo'lsa-da, uchrab turadi. Busiz turmush bo'ladimi!

Bu orada urushdan keyingi dastlabki zafarli yillar o'tdi. Zafar va shodlik tantanalari ketidan yana ko'k yuzida «sovuq urush»ning ilk izg'irirlari boshlandi. Bora-bora izg'irin zapitga ola boshladi. Olanning turli qismlarida urushdan keyin sal bo'shagan asablar yana taranglasha boshladi...

Geografiya darslaridan birida asab zormanda tag'in bir karta pand berdi. Ertami-kechmi, bu yerdami yoki boshqa bir joydami, qanday bo'lmasin, bunday hol sodir bo'lishi muqarrar edi. Abutolibningmi yoki unga o'xshagan boshqa birovningmi chekiga tushishi mumkin edi.

Sakkizinchi sinf o'quvchilariga dunyoning Yevropa qismi haqida dars o'tayotib, Abutolib Qutitboyev o'z sarguzasht-larini ham eslab o'tdi. Kunlardan birida nemislar konslagerdagi asirlarni Janubiy Bavariyadagi Alp tog'lariga tosh qazish ishlari-ga olib chiqadi, o'shanda bir guruh asirlar soqchilarni qur'ol-sizlantirib qochishadi va Yugoslaviya partizanlariga kelib qo'shilishadi. Abutolib, o'zining hikoya qilishicha, urush yillari yarim Yevropani aylanib chiqdi, Andriatika dengizi va O'rta Yer dengizi qirg'oqlarida ham bo'ldi, u joylarning tabiati va mahalliy aholining yashash tarzi bilan yaxshi tanishdi. Bularning hamma-sini darslikda yozish imkoniyati yo'q, albatta. Ko'rib shohidi bo'lgan bu narsalarni hikoya qilish orqali o'qituvchi darsni boyitishni nazarda tutgan edi.

Muallim qo'lidagi ko'rsatkich tayog'chasida doskada osig'liq turgan geografiya kartasining Yevropa qismidagi ko'k-yashil va jigarrang joylarini ko'rsadi; tepaliklarni, tekisliklarni, daryolarni ko'rsatib kelib, hali-haligacha tushiga kirib chiqadigan joylarga ham tegib o'tardi. U yerlarda kecha-yu kunduz, necha yoz-u necha qish tinimsiz jang bo'lib turgan. Shunday janglarning birida Abutolib dushmaning qo'qisidan yog'dirgan o'qiga uchib, o't-o'lanlarni va toshlarni qonga bo'yab, qiyalik tomon sekin ag'anab kelgan. Ehtimol, ko'rsatkichning uchi

uning qoni to'kilgan o'sha ko'z ilg'amas kichik nuqtaga ham tegib o'tgandır. O'sha qip-qizil qon go'yo butun o'quv xartasiga to'kilib ketayotganday... hatto bu qimmi qon xarita bo'ylab oqib ham ketdi, shunda boshi aylanib, ko'zi tinib, butun borliq ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Abutolib o'tgan yozda Bavariyadagi tosh qazish joyidan birga qochib kelgan polyak do'stini jon talvasida: «Kazimir! Kazimir!», – deb qichqirgancha yordamga chaqirar, o'rtog'i bo'lsa eshitmas edi, chunki bu Abutolibning jon holatidagi talvasasi bo'lib, haqiqatda esa u og'iz ham ochmagan edi.

Dunyoning Yevropa qismi xususida o'quvchilarga hiko-ya qilarg ekan, Abutolib Quttbayev boshidan kechgan shuncha voqealardan faqat oddiy maktab geografiyasiga taalluqlarini-gina jiddiy qiyofada gapirayotganidan o'zi ham ajablandi.

Oldingi qatordagi partadan shartta qo'l ko'targan bir bola uning so'zini bo'lib qo'ydi:

– Og'ay, demak siz asitlikda bo'lgan ekansiz-da?

Bezraygan sovuq ko'zlar unga qadalgan edi. O'spirin bola boshini xiyol orgaga tashlab, qimir etmay qaqgavib turardi. Kemshtik bolaning pastki tishlari yuqoridagilarini g'ayritabiyy berkitib turishi negadir Abutolibning ko'z o'ngida bir umr saqlanib qoldi.

– Ha, nima edi?

– Unda nega o'zingizni otmadingiz?

– Nega endi o'zinni o'zim o'ldirishim kerak ekan?

Busiz ham yarador edim-ku!

– Dushman qo'liga asir tushmaslik haqida buyruq bor-ku!

– Kimning buyrug'i?

– Yuqorining.

– Buni sen qayerdan bilasan?

– Men hammu narsani bilaman. Biznikiga Olmaotadan, hatto Moskvadan odamlar kelib turishadi. Demak, siz yuqorining buyrug'ini bajarmagan ekansiz-da?

– Sening otang urushda bo'lganmi?

– Yo'q, u harbiy xizmatga chaqirilganlar bilan mashg'ul bo'lgan.

– Unday bo'lsa, sen bilan biz bir-birimizni tushunishimiz qiyin ekan. Gapim bita – o'sha paytda mening bundan boshqa ilojim qolmagan edi.

– Baribir, buyruqni bajarishingiz kerak edi.

– Nega buncha yopishib qolding? – deb boshqa bir o'quvchi o'rtidan turdi. – Senga nima? Bizning og'ay Yugos-laviya partizanlari bilan birga jang qilgan.

– Baribir, buyruqni bajarishi kerak edi! – deb turib oldi haligi bola.

Shundan so'ng bolalar sinfni boshlariga ko'tarishdi: «Bajarish kerak edi!», «Bajarib bo'lmadi!», «Bajarib bo'lardi!», «Bajarib bo'lmadi!», «To'g'ri!», «Noto'g'ri!» O'quvchi stolni tarts etkizib urdi:

– Bas qilinglar! Hozir geografiya darsi bo'lyapti. Mening qanday jang qilganimni va nimalar bo'lganini tegishli joyda, tegishi odamlar bilishadi. Endi esa mashg'ulotni davom ettiraylik!

Shu asnoda ko'rsatkichni tutib turgan o'quvchi yana chap qanotdan yog'dirilgan dushman avtomati o'qiga uchib, ko'k-yashil, jiggarrang Yevropa xartasini qip-qizil qoniga bo'yab, qiyalik tomon yana sekin ag'anab ketdi, xaritadan ilg'ab olish qiyin bo'lgan bu nuqtani sinfdagilardan hech biri yana ko'rolmadi...

Bir necha kundan so'ng uni tuman maorif bo'limiga chaqirishdi. U yerda gapni cho'zib o'tirmasdan Quttbayevga urushda asirga tushgan kishining o'sib kelayotgan yosh avlodga dars berishga ma'naviy huquqi yo'qligini aytib, o'z ixtiyoriga ko'ra ishdan bo'shab ketishini taklif qilishdi.

Abutolib Quttbayev Zarifa bilan to'ng'ich o'g'li Dovul-ni olib, viloyat markazidagi boshqa bir tumanga ko'chib ketdi. Ovul maktabiga ishga joylashishdi. Uy topib, biron epga keltir-gan bo'lishdi, qobiliyatli yosh o'quvchi Zarifa o'quv ishlari bo'yicha mudir etib tayinlandi. Ammo shu payt bu yerda qirg sakizinch yildagi Yugoslaviya bilan bog'liq bo'lgan voqea

qo'zg'alib qoldi. Endi Abutolib Qutiboyevga urushda asir tushgan kishigina emas, balki Yugoslaviyada uzoq vaqt turib kelgan shubhali odam sifatida ham qaraydigan bo'lishdi. U Yugoslaviya partizanlari bilan birga jang qilganini isbot qilib bergan bo'lsa ham, e'tiborga olishmadi. Hammalari tushunib, hatto achinganday bo'lishdi-yu, ammo biron-tasi javobgarlikni o'z bo'yimga olib, unga yordam berishga botina olmadi. Yana tuman maorif bo'limiga chaqirishdi va o'z ixtiyoriga ko'ra, ishdan bo'shatishni so'rab, ariza berish hangomasi bilan tugadi... Shu yo'sinda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib-qo'nib yurib, Abutolib Qutiboyevning oilasi ellik birinchi yilning oxirida, qahraton qishning o'talarida Sario'zak dashtidagi «Bo'ronli» bekatiqga kelib qoldi...

Ellik ikkinchi yil yozi odatdagidan ko'ra issiq keldi. Qaqragan yer tarts-tars yoritib, harorat shu qadar zaptiga oldiki, Sario'zakning echkemarlari ham jonini qo'yarga joy topmay, o'zini quyoshdan qayogqadir olib qochish uchun odamlardan cho'chimasdan, halqumini liqillatgancha og'zini katta ochib, ostonalargacha chopib kelishardi. Kalxatlar salqin joy izlab, yuksak-yuksaklarda sayr etib yurishardi — oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmadi ularni. Faqat ahyon-ahyondagina kuchli ovoz chiqarishib, bir-birovlarini yo'qlab qo'yishardi va yana shu ko'yi jimirlab turgan qaynoq sarob ichida uzoq vaqt jimib qolishardi.

Biroq ish ishlighicha qoladi. Poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon va mag'ribdan mashriqqa tomon o'taveradi, o'taveradi. «Bo'ronli» bekatiqga necha-necha poyezd kelib ketmadi, deysiz. Mamlakatning asosiy qon tomiri bo'lgan transport qatnoviga hech qanaqa issiq xalal berolmaydi.

Hammasi o'z maromida davom etardi. Yo'lda qo'lgopda ishlashga to'g'ri kelardi, qo'lgopsiz toshni, xususan, temirtersakni ushlab bo'lmadi. Quyosh tepadan olov purkardi. Suv, odatdagidek, sistemalarda keltirilardi, bekaga yetkazib keltirilguncha deyarli qaynab ketardi. Egningdagi kiyming ikki kun deganda kuyib tamom bo'ladi. Bunaga issiqdan ko'ra Sario'zakning qahraton qishida yashash yengilroq tuyulardi. Shuning

uchun ham Edigey Bo'ron o'sha kunlari Abutolibning ko'nglini ko'tarishga harakat qildi.

— Bizda bunaga issiq har yiliyam bo'lavermaydi. Bu safar yil shunaga keldi o'zi, — dedi u xuddi buning uchun o'zi gunohkorday. — Yana o'n besh-yigirma kunlardan so'ng harorat qaytib qolar. Padariga la'nat, hammamni qiyinab yubordi bu issiq. Bu yerding havosiga ishonib bo'lmaydi, yozning oxirida havo birdan o'zgarib, necha bor turlanib turgan paytlar ham bo'lgan. Shunda butun kuz bo'yi, deyarli qishgacha ob-havo yaxshi kelib, mollar etga kiradi. Meni aytdi dersan, bu yil ham o'shanaga keladi, sabr qilsang ko'rasan, shunday bo'ladigan alomatlar bor.

— Demak, ob-havoning kafilligini olasan, shundaymi? — deya Abutolib Edigeyning fikrini ma'qullaganday, jilmayib qo'ydi.

— Ha, kafillik bersam ham bo'lavermadi.

— Shunisiga ham rahmat! Men esa hozir hammomda o'tirgandayman. Qiynalganim uchun nolinmayman. Zarifa ikkalamiz chidaymiz. Bundan og'irlariga ham chidaymiz. Faqat bolalarga qiyin bo'ldi... Qarashga yuzim chidamaydi...

«Bo'ronli»ning bolalari nafasni bo'g'uvchi jazirama issiqda holdan toyib, o'zlarini qo'yarga joy topmay, ozib-to'zib ketgan edilar. Yaqin atrofta bolalar suv va havoday zarur bo'lgan na bir dikkaygan dov-daraxt, na jilg'adan asar bor. Bahorda Sario'zak atroftidagi soyliklar, manzilgohlar qisqa muddatga bo'lsa-da, yam-yashil tusga kirganda bolakaylar yavrab qolishardi. To'p tepib, bekimmachog o'ynashib, dala-tuzda qiyqirishib chopishib, yumronqozlarni quvlashardi. Ularning uzoq-uzoqlarga taralib ketgan quvnoq ovozlari eshitish kishiga huzur baxsh etardi.

Bu yilgi issiq hammamni tashvishga solib, tinib-tinchimas bolalarni ham lanj qilib qo'ydi. Ular issiqdan qochib o'zlarini devorlar panasiga olib, o'tgan-ketgan poyezdlarni kuzatishardi. Bu tomonga qancha va u tomonga qancha poyezd o'tganini, ularda qancha yo'lovchi vagonlari-yu qancha yuk vagonlari borligini sanashardi — bolalarning topgan ernaklari shu edi. Yo'lovchi poyezdlari bekaga o'ta turib, sur'atni kamaytirganda,

bolalarga xuddi to'xtayotganday bo'lib tuyulardi va shunda qo'li-lari bilan quyosh nurini to'sganicha nafaslari tiqilib, hansirashib, ularning orqasidan chopqillashardi. Ehtimol, bolalar soddadihlilik bilan bu jaziramadan bosh olib ketishni orzu qilishar. «Bo'ronli» bolalarining qayvoqlargadir ketayotgan vagonlar ortidan kattalar singari g'amgin qarab qolishi juda og'ir edi. Deraza eshiklari lang ochib yuborilgan vagonlardagi yo'lovchilar ham dimiqib ketgan, sassiq havodan, g'uj-g'uj pashshalardan xunob bo'lib borishardi, ammo ikki sutkalaridan so'ng salqin daryolar va yashil o'rmonlarga yetib borish ishonchi hukmron edi ularda.

O'sha yoz «Bo'ronli»da bolalarga rahmi kelib achinmagan birotta ota-ona qolmagan bo'lsa kerak. Biroq bolalari uchun Abutolib chekkan azobni Zarifadan bo'lak Edigeygina bilardi, xolos. Zarifa ikkisinin oralaridagi dastlabki subbat ham shu haqda bo'lgan edi. Shu muloqotda ikkalasining taqdiridagi yana ba'zi bir narsalar ochilib qoldi.

O'sha kuni ular temir yo'l izlaridagi shag'allarni yangilab yurishgan edi. Shpallar va temir izlarning ostidagi ochilib qolgan joylarga shag'al tiqib joylashtirishar, shu yo'l bilan tebranish natijasida siljib ketishi mumkin bo'lgan temir yo'l ko'tarmalarini mustahkamlar edilar. Bu ishlar ora-sirada, poyezdlar o'tkazib yuborilgandan so'ng bajariilar edi. Tushga yaqin Abutolib bo'shab qolgan bidonni ko'tarib, o'zi aytganday, bur-chakdagi sistemadan suv olib kelishga, bir yo'la bolalardan xabar olib kelishga ketdi.

Quyosh olov purkayotganiga qaramay, u tez yuritib borardi, bolalar sari shoshilardi, avzoyi ham bejorog' edi. Kir bosib, o'ngib ketgan maykasi suyaklari chiqib qolgan yelkasida osilib turardi, boshida oftobdan kuyib ketgan poxol shlyapa, ozib ketgan egnida shalviragan keng ishton, oyog'ida kiyilaverib yiritilib ketgan bog'ichsiz ish botinkasi. U shpallar ustidan o'zi bilan o'zi bo'lib, hech narsaga e'tibor bermasdan shaloplab yuritib borardi. Orqasidan poyezd kelayotganiga ham qaramay, parvoyi palak ketaverdi.

— Hoy Abutolib, yo'ldan chiq! Nima, kar bo'lib qolgan-misan? — deb qichqirdi Edigey.

Abutolib eshitmadi. Parovoz ovoz bergandagina pastga tushdi, biroq shunda ham yonginasidan g'izillab o'tib borayotgan tarkibga o'g'irilib qaramadi, mashinistning mustoh o'qalib ketayotganini ham ko'rmasdi.

Urushda yuritib, asirlikda bo'lib, sochiga oq tushmaganidi. To'g'ri, unda yosh edi, o'n to'qqizga chiqqanda armiyaga chaqirildi, kichik leytenant bo'lib jangga kirdi. Shu yerga kelib sochiga oq oraladi. Sario'zak oqartirdi sochini. Oralaganda ham quyug, qalin sochlarining dam u yeriga, dam bu yeriga kutilmaganda tez oraladi. Xususan, chakka sochlaridagi oqlar kundun kunga ko'paya bordi. Yaxshi zamonlar bo'lganda, u, albatta, xushro'y va basavlat yigit bo'lardi — keng manglayli, qirg'iy burun, kekirdagi chiqqan, lablari qimtingan, ko'zlari suzik, bo'yib basti ham kelishgan. Zarifa qat'iq hazil qilardi: «Omadning kel-madi, Abu, sen sahnada Otello rolini o'ynashning kerak edi». Abutolib kulimsirab: «Unda men seni eng pastkash inson sifatida bo'g'ib o'ldirgan bo'lardim, buni senga nima keragi bor!» — derdi.

Abutolibning orgadan yetib kelayotgan poyezdni payqamagan Edigeyni qat'iq tashvishga soldi.

— Sen unga aytib qo'ysang bo'lardi, nima qilgani bu, — dedi Edigey o'pkalaganday. — Poyezdning yo'ldan yurish man etilgan, urib ketisa, mashinist javob bermaydi. Gap bunda ham emas. Bunaqa qaltis ishing nima keragi bor o'zi?

Zarifa qorayib, bo'g'riqib ketgan yuzlaridagi temi-yenglari bilan artib, og'ir xo'rsindi.

— Undan qat'iq xavotirdaman.

— Nima uchun?

— Qo'rqaman, Edike. Sizdan yashiradigan sir yo'q. Men deb, bolalarni deb vijdon azobida qiynalib yuritibdi. Unga tur-mushga chiqqanida tug'ishganlarining roziligini olmagan edim. Katta akam fig'oni chiqib: «Bir umr afsus-nadomat chekib o'tasan, nodon. Sen erga chiqmayapsan, baxtsizlikka yuz tuyap-san, bolalarining ham, ularning bolalari ham tug'ilmasidan oq baxtsizlikka mahkum etilganlar. Sevgiliningi aqil bo'lganda, uylanib yumasdan, o'zini o'zi osib o'ldirgan bo'lardi. Unga eng

yaxshi yo'l — shu!», deb baqirib berdi. Biz esa o'zimizcha ish tutdik. Modomiki, urush tamom bo'lgan ekan, o'lgan-qolgan bilan kimning ishi bor, deb umidvor bo'ldik. Biz hammaning ko'zidan uzogda, qarindosh-urug'larimizdan chetroqda yuridik. Nihoyat, keyin bilishimcha, akamning o'zi ariza yozishgacha borb yelibdi, unda meni ogohlantirgani, bizning turmush qurishimizga qarshilik ko'rsatganini ayitibdi. Yana arizasida: — singlim va chet elda uzog vaqt yurib kelgan o'sha Abuto'lib Qutiboyev degan kimsa bilan hech qanday aloqam yo'q, — deb yozibdi. Shundan so'ng yana darbadarlik boshlandi. Qayerga bormaylik, ishimiz o'ngidan kelmaydi, mana endi zamonning zayli tufayli shu yerga kelib qoldik, boshqa boradigan joyimizning tayini yo'q.

Zarifa o'chakishganday shag'alni kurab, shpal ostiga joylashtirar ekan, jimb qoldi. Oldinda yana bir taktibning kelayotgani ko'zga tashlandi. Ular belkurak va zambillarni olib, yo'ldan chetga chiqib turishdi.

Boshiga og'ir kun tushgan odamlarga nima bilandir yordam bergisi keldi Edigeyning. Biroq bu musibatning manbai Sario'zakdan tashqarida edi, shuning uchun uning qo'ldan hech narsa kelmadi.

— Biz bu yerda yashayotganimizga ancha vaqt bo'ldi. Sizlar ham bir amallab ko'nikib ketasizlar hali. Yashash ham kerak-kul — deya ta'kidladi u Zarifaning yuziga tik qarab. «Eh, bechoragina, Sario'zak cho'lida yashashga hamma ham bardosh bera olmaydi. Qishda kelganda oqish yuzli edi, endi bo'lsa yuziga qarab bo'lmaydi, — deya o'yladi o'zicha Zarifaning ko'zlaridagi go'zalik so'nib borayotganini ko'rib, ich-ichidan achigancha. — Sochlari qanaqa edi, hozir rangiyam bilimaydi, kipriklarini aytmaysizmi, ular ham quyoshdan kuyib ketibdi. Lablari ham chatnab ketgan, boyaqishning joni azobda qoldi. Bunday hayotga odatlanmagsan, shunday bo'lsa-da, bo'sh kelmayapsan, chekinmayapsan. Ikki ta bolang bo'la turib qayoqqa ham chekinarding. Barakalla, otangga rahmat!..»

Shu orada kuyib-olovlanib turgan havoni to'lgintirgancha, avtomatdan yog'dirilgan o'qdek taraga-turuq qilib

yana bir tarkib o'tib ketdi. Ular ishini davom ettirish uchun qurol-yarog'larini ko'tarishib, yo'l yoqasiga chiqishdi.

— Zarifa, gulog sol, — dedi Edigey uning ruhini ko'tararkan haqiqatga ochiq qarashga da'vat etib. — To'g'ri, bolalarga bu yerda ancha og'ir. Ularning ahvolini ko'rib, yuragim achib ketadi. Ammo ob-havo qachongacha shunaga bo'lad, deysan. Qaytib qolar. Qolaversa, Sario'zakda sizlar yolg'iz emassizlarku, atrofda odamlar bor, hech bo'lmaganda, mana, biz bormiz. Xo'sh, peshanaga shu nasib qilgan bo'lsa, hadeb o'kinavermogdan nima nat?

— Men ham xuddi shuni gapiryapman-da, Edike. Jarohatini tirnatdigan biror so'z aytmaslikka harakat qilaman. Qiyomatib yurganini yaxshi tushunaman-ku.

— To'g'ri qilasiz. Senga aytmoqchi bo'lgan nasihatim ham shu edi, Zarifa. Fursat kutayotganidim. Hammasini o'zing bilib turibsan-ku. Kezi kelib aytdim-da, meni kechir.

— Turmush ba'zan joningga tegib ketadi, deng. O'zingma ham, unga ham rahmim kelib ketadi, bolalarni o'ylab, yana xunobim oshadi: hech bir gunohi bo'lmasa ham bizni bu yoqlarga boshlab kelganidan o'zini aybdor sezib, ichidan zil ketib yuradi. Hayotni esa o'zicha o'zgartira olmaydi. Nimasini aytasiz, bizning yurtlarda hayot butunlay o'zgacha, iqlim o'zgacha edi: Olatov tog'lari, daryolar... Hech bo'lmasa, bolalarni yozda o'sha yoqqa yuborib tursak ekan. Lekin kimning oldiga yuboramiz? Ota-onalarimiz allaqachon olandan o'tishgan. Og'a-ini, qarindosh-urug'lar borku-ya... Ularni ham ayblab bo'lmaydi, o'zlarining tashvishi yetib ortadi. Ular avvallari ham bizdan o'zlarini olib qochib yurishardi, hozir esa ko'targa ko'zlari yo'q. Shunday ekan, bolalarimizni sig'dirisharmidi? Bir-birimizga oshkora aytnasak ham, umr bo'yi shu yerda qolib ketamizmi, deb cho'chiyapmiz, izitrob chekaymiz. Hammadan ko'ra unga og'ir bo'ldi... Oldinda bizni nimalar kutayotganini birgina Egamning o'zi biladi...

Ikkalasi ham xayol daryosiga g'arg bo'lishdi. So'ng bu gaplarga qaytmasan, poyezdlarni o'tkazib yuborib ishg'a tutinishdi. Boshqa nima ham qilardi? Bu bir bedavo dard bo'lsa.

Ularining musibatlariga ko'maklashib, ko'ngillariga yana nima bilan taskin bersa ekan? «Dunyo kezib, musofirchilikka yuz tutish darajasida emasmiz-ku, — deb o'yladi Edigei, — Ikkalasi ishlaydi, tirikchilik ham bir amallab o'tar, axir. Ularni hech kim bu yerga majburan yuborib, qamab qo'ygani yo'q. Ertaga ham, indinga ham shu ahvol davom etadiganiga o'xshaydi».

Bu oilaning taqdiri shaxsan unga bog'liqday, achiq tashvishlanayotganidan Edigei o'zi ham ajablanardi. Ular senga kim bo'libdi, aslida bu ishlarining senga qanaqa daxli bor o'zi, deb aytadigan odam yo'q. Kim bo'lsan o'zing, bironing ishiga aralashishni senga kim qo'yibdi? Ish desa jonini jabborga beradigan senga o'xshagan dastliklar kammi? Nechun sen bu ishlarga jig'ibiyron bo'lib g'azablanasan, adolat nima-yu, adolatsizlik nima, degan masalalar bilan boshingni achitasan, vijdoning qiyinalib bezovta bo'lasan? Nechun? Bu ishlarni hal etayotgan kishilar sen — Edigei Bo'tonga qaraganda ming chandon ortiq bil ishsa kerak. Sario'zak cho'lida yashayotgan Edigeiga nisbatan bu masalalar u yerdagilarga yanada ravshanroqdir? Bu ishlarga sen — Edigei, nechun tashvish chekasan? Ammo, baribir, u tomoshabin bo'lib turolmasdi. Hammasidan ko'ra, Zarifaga ich-ichidan achinardi. Uning Abutolibga nisbatan bo'lgan cheksiz sadoqatiga va har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib, sabr-toqat bilan mardonavor kurashib kelayotganiga Edigei qoyil qolib, tan berardi. Zarifa qanoti bilan o'z oshyonini bo'rondan himoya qilayotgan qushga o'xshardi. Boshqa ayol yig'lab-siqtab, o'z ota-onasining oldiga borib, kechirim so'rab, tiz cho'kkan bo'lardi. U esa urush ketirgan jabr-u-jafolarni eri bilan birga tortyapti. Edigeini hammadan ko'proq bezovta qilib, tashvishga solib qo'ygan narsa ham Abutolib bilan uning bolalarini bu favqulodda mushkul ahvoldan himoya qila olmaganligi edi... Taqdir shumlik qilib bu oilaning «Bo'ronli»ga ko'chib kelganiga Edigei ko'p afsus-nadomatlar chekib yurdi. Bunday qayg'u-hasratning unga nima keragi bor edi? Bundan xabar topmaganda, bilimbanda, avvalgiday bernalol hayot kechirib yurgan bo'lar-midi...

VI

Kunning ikkinchi yarmiga borib Tinch okeandagi Aleut orollarining janubiy qismida to'liqlar qo'zg'ala boshladi. Amerika qit'asi etagidan boshlangan janubi sharqdan esayotgan shamol asta-sekin kuchga kirib, bora-bora bir yo'nalishga tushib, avjiga chiqardi. Cheksiz kengliklardagi mahobatli suv ham harakatga kelib chayqalib, shovullagancha turmagator to'liqlarni tobora o'rkaclantira boshladi. Bunisi po'rta bo'lmasa ham, har holda, suvning uzok muddatga to'liqlanib turishidan darak berardi.

Ochiq okeandagi bunday to'liqlar «Konvensiya» aviabardori kemasi ga xavf tug'dira olmasdi. Boshqa vaqtda-ku kema o'z holatini o'zgartirmagan ham bo'lardi, biroq maxsus vakolatli komissiyalar yuqori doiralar bilan bo'lgan kengashlardan so'ng shoshilinch sur'atda yana qaytib kelishayotgani-yu, hademay palubaga kelib qo'nishlari kutilayotgani sababi aviabardor kema yonboshdan kelib urilayotgan to'liqlarga chap berib, tushug'ini shamolning yo'nalishiga qarshi to'g'rtilgan-cha turib oldi. Hamma ish ko'ngidagiday bo'ldi. Avval San-Fransisko, so'ng Vladivostok havo laynerlari¹ palubaga kelib qo'nishdi.

Komissiyalar to'la tarkib bilan qaytib kelishdi, hamma sukutda, qiyofalari tashvishi. O'n besh daqiqadan so'ng ular yopiq kengash olib borish uchun yig'ilishdi. Fazoviy komissiya ish boshlagandan so'ng oradan besh daqiga o'tgach, Ega Galaktiksida² 1-2 va 2-1 paritet-fazogirlarga ularni «Paritet» samoviy bekatining boriga shoshilinch sur'atda ma'lum qilish uchun shifrlangan radiogramma³ yuborildi: «Paritet» samoviy bekatidagi 1-2 va 2-1 nazoratchi-fazogirlarga. Quyosh tizimidan

¹ Layner (inglizcha: linur — linu — chiziq, yo'l) — 1) muayyan bir yo'ldan qatnab yoki yo'llovchi tashiydigan katta tezyunar kema; 2) uzog' masofaga ma'lum yo'nalishda katta tezlikda uchuvchi ko'p o'rinni yo'llovchi samolyot (bu yerda shu ma'noda).

² Radiogramma (radio. + yunoncha: grammma — yozuv) — radio orqali olingan yoki berilgan xabar.

tashqaridagi 1-2 va 2-1 pariet fazogirlar hech qanday faoliyat ko'rsatmasin, deb ogohlantirilsin. Qo'shmarbosh maxsus ko'r-satma bermaguncha o'rinaridan jilishmasin».

Shundan so'ng maxsus vakolatli komissiyalar fazoviy tenglikni bartaraf etish yuzasidan o'zlarining nuqta nazarlarini va takliflarini bayon etishga kirishdilar...

«Konvensiya» aviabardori Tinch okeanning tinimsiz tobora avjiga minayotgan to'liqlari aro to'shini shamolga qarshi to'g'rilab turar edi. Shu lahzada uning bortida butun sayyora-mizning taqdir-qismati hal etilayotganini hech kim bilmasdi...

Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhoiday dashtlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi.

Har qanday masofa Grinвич meridianidan o'lgangan singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'lganadi.

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Ona Bayit qabristoniga yetishga yana ikki soatcha vaqt bor edi. Sario'zak sari yo'l olgan dafn marosimi karvoni hamon bir maromda borar, tuyasiga minib olgan Edigey Bo'ron oldinda, Qoranor ham avvalgiday hormay-toimay katta-katta qadam tashlardi.

Orta – tirkalma aravali traktor. Aravada marhum Kazzangap, uning yonida kuyovi – qizi Oyzodaning eri yolg'iz o'zi g'iq etmay, sabr-toqat saqlab o'tirar, ularning ortidan esa «Belorus» ekskavatori kelar edi. Yonda esa to'shdor malla it Yo'l-bars goh oldga yo'r'tib o'tib, goh orqada qolib, gohida allaganday muhim narsani ko'rganday bir zum to'xtab qolib, o'z ishini ko'zini bilganday, hamon avvalgiday bamaylixotir ergashib ketardi.

Quyosh nayzaga kelib, borliqni qizdira boshladi. Buyuk Sario'zak dashtining bepoyon qir-adirlaridan o'tib borganingiz sari yana ufqgacha tutashib ketgan yangidan yangi kimsasiz, cheksiz kengliklar ko'z o'ngingizda gavdalanardi. Sario'zak

dashtining boshi-kei ko'rinnaydi. Bir zamonlar bu yerlarda

jungang degan badkirdor kelgindilar yashaganlar. Ular Sario'zak yerlarining qariyb hammasini bosib olib, uzoq yillar mobaynida o'z qo'llarida saqlab turganlar. Bu yerlarda yashagan boshqa ko'chmanchi xalqlar yaylovlar va quduqlar uchun o'zaro talashib, ikki o'rta muntazam ravishda urush davom etib kelgan. Goh unisining; goh bunisining qo'li baland kelib, yengganlar ham, yengilganlar ham shu atrofda yashab qolavergan, biroq g'olib kelganlarining yerlari orib, mag'lublarning yerlari esa kamayib boravergan. Yelizarovning aytishicha, Sario'zak manzilgoh, qurib tirkchilik qilish uchun har qancha jang-u-jadalgaga arzigulik joy edi. Negaki o'sha zamonlarda bu yerlarda bahorda ham, kuzda ham yog'in-sochin mo'l-ko'l bo'lardi. O't-o'lanlar har qancha mol-hol-u qo'y-qo'zilariga yetib ortardi. O'sha kezlari bu yerlarga turi tomonlardan-savdogarlar qatnagan, savdo-sotiq ishlarining avji baland bo'lgan. Biroq keyinchalik bu yerlarning iqlimi keskin o'zgarib ketadi. Deyarli yog'in-sochin bo'lmay, quduqlarning suvi qurib, yaylovlardagi o't-o'lanlar quvraq, qayta chiqmay qo'yadi. Ana shunda Sario'zakdagi xalqlar va qabilalar har tomonga bulutday tarqab ketishadi, haydar kokilli junganglar esa butunlay yo'q bo'lishadi. Ular Edil daryosi – u vaqtlarda Volga daryosi shunday atalardi – bo'ylariga borib, o'sha tomonlarda nom-nishonsiz g'oyib bo'lishgan. Ularning qayodan kelib, qayoqqa ketganini ham hech kim bilmagan. Mish-mishlarga qaraganda, junganglar qarg'ishga uchrabdi – qishda muzlab qolgan Edil daryosidan to'p-to'p bo'lib o'tayotganlarida birdan muz yoritib, hammasi mol-hollari bilan birgalikda muz ostiga cho'kib ketishibdi...

Sario'zakning tub qozoqlarigina o'sha zamonlarda ham o'z yerlarini tashlab ketishmadi, ular yangidan quduqlar qazib, suv chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin Sario'zak dashtining eng gullab-yashnagan davri urushdan keyingi yillarga to'g'ri ketadi. Suv tashuvchi mashinalar paydo bo'ldi. Bitta suv tashuvchi mashina – agar uning haydovchisi bu joylarni yaxshi bilsa – olis yaylovlardagi uch-to'rta turar ovulni bir yo'la suv bilan ta'minlay oladi. Sario'zakdagi yaylovlarning ijarachilari – shu

atrofdagi viloyatlarning turli xo'jaliklari – endi Sario'zak cho'li-da boqiladigan chorva mollarning doimiy qishlovi uchun bazalar tashkil etish haqida o'ylab qolishdi va bunday binolar qurish uchun qancha mablag' sarflanishini xomcho't qilib ko'rishdi. Yaxshiyamki, ular oshiqishmagan ekan. Birov bilib, birov bilmay, sekin-asta Ona Bayit mozori atrofida Pochta quti degan nomsiz shahar paydo bo'ldi. Shuning uchun ham uni: Pochta qutiga ketibdi, Pochta qutida bo'libdi, Pochta qutidan sotib oldim, Pochta qutida ko'rib qaydim va hokazo, deb aytadigan bo'lishdi... Pochta quti kundan kunga o'sib, kengayib, obod shaharga aylandi, unga chet kishilarning kirishi esa man etib qo'yildi. Asfaltlangan yo'lning bir uchi kosmodromga olib boradi, ikkinchi uchi temir yo'l bekati bilan tutashadi. Sario'zaking yangi, industrial¹ qurilishi mana shu kezlardan boshlandi. Bu tomonlarda o'timishdan faqat tuyaning qo'sh o'rkachini eslatuvchi Egizlepa do'ngligiga joylashgan Ona Bayit qabristonigina qolgan edi, xolos. Egizlepa Sario'zak tumanidagi eng mo'tabar qadamo edi. Qadim zamonlarda mahummi Ona Bayit mozoriga dafn etish uchun shunaga olis joylardan kelishardiki, ba'zan odamlar qoq cho'lda tunab qolishardi.

Lekin shuncha tashvish tortib kelganlariga qaramay, Ona Bayitga ko'milgan marhumning avlodlari ajdodlarimizni e'zozlab juda aziz, muqaddas joyga qo'ydim, deb faxrlanib yurishardi. Bu yerga elda izzat-hurmat topgan, uzoq umr kechirib, ko'pni ko'rgan, so'zi, ishi bilan shuhrat qozongan eng mo'tabar odamlar qo'yishardi. Yelizarov bularning hammasini bilardi va shuning uchun ham Ona Bayitni Sario'zaking yuragi, deb atardi.

Mana bugun o'sha joyga «Bo'ronli» bekatdan chiqqan, tuya – traktor aralash, it hamrohligida g'aroyib dafn karvoni yaqinlashmoqda edi.

Ona Bayit qabristonining o'z tarixi bor. Rivoyatga ko'ra, o'tigan zamonlarda Sario'zakni bosib olgan junjanglar asirga

¹ **Industriya** (lotincha: industria – mehnatsevarlik, tirishqoqlik) – san'at, xalq xo'jaligining jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga his qiliuvchi ta'sir ko'rsatadigan muhim tarmog'i. **Industrial** – og'ir va yengil sanoatga oid; industriyaga va uning taraqqiyotiga bog'liq bo'lgan.

tushgan jangchilarga nisbatan behad shafqatsizlik qilar ekanlar.

Ular kezi kelib bunday tutqunlarni qo'shni o'lkalarga qul qilib sotib yuborisharkan. Bu esa tutqunning omadi kelgani hisoblanarkan. Chunki sotib yuborilgan qul ertami – kechmi, bir kun o'z vataniqa qochib kelishi mumkin ekan-da. Jungianglarning qo'l ostida tutqun bo'lib qolganlarning esa sho'ri quritkan. Ular mahkumning boshiga teri qalpoq tortish yo'li bilan dahshati bir tarzda qiyinab, uning xotirasini yo'qotar ekanlar. Odatda, bunday jazoga jangda asir tushgan yosh yigitlar girifor bo'lishardi. Avvaliga jungianglar tutqunning sochini dastlab o'ngidan, so'ngra teskarisidan taqir qirib tashlashadi. Sartaroshlik marosimi tugagach, jungianglarning chapdast qasoblari kattakon bir tuyani so'yib, terisini shila boshlaydilar. Ular birinchi navbatda, eng qalin va eng og'ir bo'lgan bo'yin terisini ajratib bo'laklarga bo'lishar, hovuri chiqib turgan yopishqoq terini shu zahotiyoq hozirda suzuvcilar kiyadigan qalpoqcha singari, tutqunning yangi qirilgan taqir boshiga kiygizib qo'yishardi. Mana shu – teri qoplash deyiladi. Bunday qiyinogga duchor etilgan qul yo dahshati azoblarga bardosh berolmay o'tib ketar, yo xotirasidan umrbod mahrum etilib, o'timishini eslay olmaydigan qulga – manqurtga aylanib qolar edi. Bitta tuyaning bo'yin terisi besh-oltita qalpoqqa yetadi. Qalpoq qoplangandan so'ng, halokatga mahkum etilgan har bir qul – qiyinalganda boshini yerga tegiza olmasin uchun – bo'yniga yog'och bo'yinturug bog'lashardi. Shu alpozda ularning yurakni ezuvchi, quloqni qomatga keltiruvchi behuda dod-faryodlari eshitilib qolmasin, deb odamlardan yiroqqa, suvsiz, yemishsiz, kimsasiz yaydoq dalaga, oyoq-qo'l-lari bog'liq holda jazirama o'trob tig'iga eltib tashlar edilar. Bu qiyinoglar bir necha kun davom etardi. Kerakli joylarga soqchilar qalin qo'yilib, asirlarning qabildoshlari ularni qutqarishga keilib qolishsa, o'tkazmaslik uchun chora-tadbir ko'rib qo'yilgan edi. Biroq qutqazishga urinishlar juda kam bo'lardi, chunki ochiq dalada qit etgan sharpa darhol sezilib qolardi. Buning ustiga, jungianglar falonchini manqurt qilishibdi, degan xabar tarqalgan taqdirda, tutqunning eng yaqin birodarlari ham uni qutqazishga

yoki pul evaziga qaytarib olishga urinmayoq qo'yardilar, negaki, bu o'sha odamning quruq jasadinigina qaytarish degan so'z edi.

Faqat birgina nayman volidasi – rivoyslarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo'lib ketgan ayoligina o'z o'g'lining bu taxlit achchiq qismati bilan murosqa qila olmadi. Sario'zak afsonasi shu haqda. Ona Bayit¹ – Onaizor makoni qabristonining nomi ham shundan kelib chiqqan.

Dalaga tashlangan asirlarning ko'pi Sario'zak quyoshi tig'ida dahshatli qiyonoqlarga bardosh berolmay halok bo'lgan. Besh-oltita mangurtdan bitta yoki ikkitasigina tirik qolgan. Boshqalari ochlikdan emas, hatto tashnalikdan ham emas, kallaga qoplangan terining quyosh issig'ida qovjirab, qoq miyani chidab bo'lmay darajada siqishi natijasida jon taslim qilar edilar. Olov purkab turgan quyosh ostida teri qalpoq shafqatsiz ravishda torayib, qulning qirilgan boshini temir chambarak singari jingritib qilib qisardi. Oradan bir kun o'tishi bilan jabdiy dalarning taqir boshida soch nish ura boshlaydi. Osiyoliklarga xos tikanday tik dag'al sochlar ba'zida xom terini teshib chiqardi, ko'p hollar-da esa chiqishga yo'l topolmay yana qaytadan qayrilib, bosh terisiga qarab o'sardi va avvalgidan ham battar azob berardi. So'nggi sinov davomida tutqunlar es-hushlarini butkul yo'qotar edilar. Oradan besh kun o'tgachgina junglanglar kelib tutqunlardan qay biri tirik qolganini ko'zdan kechiradi. Agalli bitta tutqun tirik qolgan bo'lsa ham, maqsadga erishilgan hisoblanardi. Bunday qulni qiyonoqdan bo'shatib, suv berib, asta-sekin kuchga kiritib, oyoqqa turg'izishardi. Biroq u endi, baribir, odam sanog'idan chiqardi, zo'rliab es-hushidan judo etilgan qul – mangurtga aylanardi, xuddi shuning uchun ham bunday qullar o'nta sog'lom tutqundan ko'ra qimmatroq turardi. Hatto shunday qonun-qoida ham bor ediki, o'zaro to'qnashuvlarda o'ldirilgan bitta mangurt uchun boshqa erkin tutqunga nisbatan uch barobar ortiq haq undirib olinardi.

¹ Ona Bayit nomidagi ikkinchi so'z «bayit» ma'nosini bildiradi, ya'ni farzand dog'ida izitib chikayotgan onaning alamlari farvodi, mumjotini anglatadi. (Tarjimon izohi).

Mangurt o'zining kim ekanini, qaysi urug'-aymoqdan ekanini, ismini, bolalik kezarini, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo'lib, o'zining odamligini ham unutilib yuboradi. O'zining insoniy qadr-qimmatini idrok etolmagan mangurt xo'jalik ishlari nuqtai nazaridan bir qancha afzalliklarga ega edi. U notavon va zabonsiz bir maxluq bo'lgani uchun ham mulqoq itoatkor va beozor. Qochaman-qo'yaman degan xayol uning tushiga ham kirmaydi. Quldor uchun eng dahshatli narsa – qullarning isyoni. Har bir qul siymosida isyonkorlik ruhi yashiringan. Yolg'iz mangurtgina bundan mustasno, isyon ko'tarish, bo'yin tovlash unga butunlay yot. Bunday tushunchalar unga begona. Unga soqchi qo'yishga, ayniqsa, buzug' niyatli kishi sifatida undan gumonsirashga hojat yo'q. Mangurt xuddi it kabi faqat o'z egasini taniydi. Boshqalar bilan ishi yo'q. Uning fikri-zikri qorin to'yg'azishda, shundan boshqa tashvishi yo'q. Ammo o'ziga topshirilgan ishni o'ylamay-netmay, o'lar-tirilariga qaramay, muqarrar bejo keltiradi. Mangurtlar odatda eng past, eng og'ir ishlarni bajarishga majbur etilar yoki ularga eng zerikarli, eng mashqqaqli, ovsarlarcha sabr-toqat talab etiladigan mashg'ulotlar topshirilardi. Kimsasiz Sario'zak yaylovlaridagi tuyalar podasidan bir qadam ham nariga jilmadan, yakka-yu yolg'iz yashashga mahkum etilgan mangurtgina bunday azob-uqubatlarga chiday olishi mumkin edi! Birgina mangurtning o'zi bunday olis joylarda bir qancha tuyachilarning o'rnini bosa olardi. Bor-yo'g'i niyati – qorni to'ysa. Shunda u qishin-yozin demay, yolg'izlik azobiga ham, boshqa har qanday mahrumliklarga ham parvo qilmay, tinimsiz ishlayverardi. Xo'jayinning amri mangurt uchun ham farz, ham qarz. Uning o'ziga esa xo'rag-u-dashi biyobonda muzlab qotib qolmaslik uchun kifoya qiladigan ust-bosh bo'lsa bas. Bo'lak hech narsani talab qilmaydi.

Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o'lganda yana o'zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan bir noyob fazilati – xotirasi, aqlidiroki bo'lsa-yu, uni tag-tomiri bilan yulib olsalar, axir, bu qanday yovuzlik, qanday bedodlik? Undan ko'ra tutqunning

qalbini poralab, istagancha ziyon-zahmat yetkazib, o'linga mah-kum etishlari yoki bir yo'la boshidan judo etishlari yuz chandon yaxshi emasmi? O'zlarining mudhish tarixida xiyonakor sifatida shuhrat qozongan ko'chmanchi jungjanglar eng muqaddas narsa – insonning muqaddas insoniylik mohiyatiga ham chang soldilar. Ular qullarni jonli xotiradan mahrum etish yo'lini o'ylab topdilar, bu bilan bani odam zotiga aql bovar qiladigan va bovar qilmaydigan yovuzliklar orasida eng qabih jinoyatga qo'l urdilar.

Balki, shu boisdandir, manqurtga aylantirilgan, o'g'lining g'am-g'ussasi olovda qovrilgan Nayman ona shunday zikr qildi: «Bo'talog'im, seni xotirangdan judo etayotganlarida, boshingga ko'rinnas teriqalpog o'matib es-hushingdan ajratayotganlarida, yong'oq chaqadigan qisqichdek boshingga kiydirilgan tuyateri asta-sekin qurib-qovjirab bosh chanog'ingni jingritib qilib siqayotganida, dahshatli qo'rquvdan ko'zlarining kosasidan iringib chiqqanida, Sario'zak dastining dudsiz otasini ostida o'lim talvasasi bilan olishib, labingni ho'llashga ham yet-u ko'kdan bir tomchi suv topolmay tashnalk azobida qovrilayotganingda, hatto borliqqa hayot baxsh etuvchi xurshidi olam senga so'qir, balo-qazo bo'lib, dunyodagi jamiki yulduzlar qaro zulmat bo'lib ko'ringandir?»

Tulporim, jon azobidagi yurakni o'trovchi oh-u faryodning sahiro uzra falakka ko'tarilganda, ilonday to'lg'anib, baqirib-chaqirib kun-u tun Tangriga iltijo qilganingda, najotsiz ko'kdan madad kutganingda, azob-uqubat ichra nafasing bo'g'ilganida, og'iz-burningga suv kelib, a'zoyi badaningdan ter chiqib, o'sha badbo'y hidga bulg'anib yotganingda, mo't-malaxday pashshalar to'dasiga yem bo'lib es-hushingni yo'qotayotganingda bu dunyoda barchamizni yaratib qo'yib, so'ngira unutilib qo'ygan tangriga jon-jahding bilan la'nai o'qidangmi?

Tulporim, qiynoqlardan mayib-majruh bo'lgan aql-idrokingga mangu tun choysnabi yopilayotganda, xotirang rishtalari zo'rlik bilan yulib-sitib olinib, o'tgan untring bilan seni bog'lab turuvchi halqalardan, jon talvasasida o'zingni har yon urib ona nigohini, yoz kunlari qirg'og'ida sen o'ynab yurgan tog'jilg'asining shovullashini unutayotganingda, shuuringni parcha-

lab, xotirangdan o'z nomingni, otangning nomini o'chirib tashlayotganlarida, atrofigidagi sen bilan unit-o'sgan odamlarning chehralari so'nayotganida va senga uyaltib-iymanib tabassum qilayotgan mahbubaning jamoli qorong'ilashayotganida, xotirasizlik jariga qular ekanan, o'z vujudida homila paydo etishga jur'at etib va shu mudhish kun uchun seni yorug' dunyoga tavallud topitrgan onaizoringga la'natlar yog'dirgandirsan?..»

Bu voqea Osiyoning ko'chmanchi janubiy sarhadrilaridan siqib chiqarilgan jungjanglar shimol sari yopirilib kelib, Sario'zak dastlarini uzoq vaqtgacha egallab, bosib olgan yerlarini kengaytirish va aholini qullikka solish maqsadida tub xalqlar bilan tinimsiz urush olib borgan zamonlarda yuz bergan edi. Dastlabki paytlarda ular tinch aholi ustiga to'saldan bostirib kelganlari tufayli Sario'zak atrofida yashovchi ko'p sonli kishilarni, shu jumladan, ayollarni va bolalarni asir tushiradilar. Qo'lga tushgan tutqunlarning esa hammasini qullikka mahkum etadilar. Biroq kelgindilarning bosqinchilik harakatiga qarshi kurash tobora kuchaya boradi. Ayovsiz to'qnashuvlar boshlanadi. Jungjanglarning Sario'zakdan ketadigan siyog'i sezilmadi, bil'aks, ular chorva uchun keng-mo'l yaylovlari bo'lgan bu manzilga tish-tirmoqlari bilan yopishib oldilar. Mahalliy qabilalar esa o'z yerlarini yo'qotishni istamas, ertami-kechmi bosqinchilarni bu yerdan haydab chiqarishga o'zlarini haqli va burchli hisoblashardi. Alqissa, bunday katta-kichik janglarda goh u tomonning, goh bu tomonning qo'li ustun kelib turdi. Ammo bunday urushlar orasida osoyishta damlar ham bo'lardi.

Osoyishta damlarning birida naymanliklarning yurtiga karvonda mol ortib kelib qolgan savdogarlar choy ichib, gurgung-lashib o'tirarkan, o'zlari ko'rib shohidi bo'lgan bir voqeani gapirib berishadi. Aytilisharicha, Sario'zak dastining jungjanglar tomonidagi quduqlar yonidan bamaylixotir o'tib borayotganlarida yo'lda kattakon tuyalar podasini o'tatib yurgan bir navqiron cho'ponga ko'zlari tushib qoladi. Savdogarlar u bilan gaplashmoqchi bo'lib og'iz ochganlarida cho'ponning manqurt ekanini payqab qoladilar. Sirtidan qaraganda, cho'pon sog'lom yig'iga o'xshar, boshidan nimalar kechgani hech kimning

xayoliya kelmas edi. Balki, u ham qachonlardir boshqalar singari esli-hushli, so'zamol bo'lgandir. O'n gulidan bir guli ochilmagan, mo'ylabi endigina sabza ura boshlagan, kelbati kelishgan, ammo ikki og'iz gaplashmoqchi bo'lsang, xuddi kecha tug'ilganga o'xshaydi, boyaqish na o'zining, na ota-onasining ismini biladi: jungianglar uni qanday ko'ygga solishganini, urug'-aymoqlari kimligini ham unutib yuborgan. Biron narsa so'rasang lom-nim demaydi, faqat «ha» yoki «yo'q» degan javobni beradi, doim boshiga bostirib kiyilgan telpagidan qo'lini tushirmaydi. Gunoh ekanini bilishsa-da, jismoniy mayib-majruhlarini ham odamlar mazax qilishadi. Shunday manqurtlar ham bo'lar emish-ki, ularning boshiga kiydirilgan tuya terisi ba'zan bosh terisi bilan birga qo'shilib o'sar emish va hokazo, hokazolar xususida so'z yuritib kuilishadi. Bunday manqurtlarni, kel, boshingni bug'-lab yunshatamiz, deb qo'rqitishsa, go'yo bundan ortiq jazo yo'q-dek, ko'zlari qimidan chiqib ketar ekan. Asov ot singari depsinib, birovning qo'lini boshiga yaqinlashtirmas ekan. Bu xil manqurtlar kun-u tun, hatto uxlaganda ham telpagini yechimas ekan... Ammo-lekin, subhani davom ettirishardi mehmonlar, manqurt g'it ahmoq bo'lsa ham, ishiga puxta ekan, toki biz uning tuyalaridan uzib ketmaganimizcha ko'z-quloq bo'lib turdi. Karvonchilardan biri o'sha manqurtni mazax qilmogchi bo'lib so'rabdi:

— Borar yerimiz olis. Sendan kimga, qaysi suluvga, qaysi yurtlarga salom aytaylik? Aytaver, yashimay. Eshiyapsanmi? Balki, nomingdan ro'mol tortiq qilaylikmi?

Manqurt yo'lovchiga tikilganicha uzog vaqt indamay turdi-da, so'ngi:

— Men har kuni oyga tikilaman, oy esa menga tikiladi. Ammo biz bir-birimizning ovozmizni eshitmaymiz... U yodga kimdir o'tiribdi... — dedi g'o'ldirab.

Gurung payti o'tovda savdogarlarga choy quyib o'tirgan bir ayol ham bor edi. Bu Nayman ona edi. Sario'zak afsonasida u shunday nom bilan qoldi.

Nayman ona yo'lovchi mehmonlarga sir boy bermadi. Bu xabarni eshitib, nogoh dahshatga tushganini, rangi-ro'yi o'z-

garib ketganini hech kim sezmedi. U savdogarlardan yosh manqurt to'g'risida yana nimalaridir so'rab-surishtirgisi kelar, ammo xuddi mana shu narsa — yana ham ko'proq narsani bilishdan vahimaga tushardi. Nayman ona tilini tiydi. Yaratlangan qushning chinqirig'i singari qalb tug'yomini ichiga yutdi... Bu orada subbat mavzusi o'zgarib, turmushda nimalar bo'lmaydi, deganlariday bechora manqurt haqidagi hozirgina gaplashib o'tirishgan voqeani butunlay unutishdi. Nayman ona bo'lsa, butun vujudini qamrab olgan qo'rquvdan o'zini tinchitishga, qo'llarining titrog'ini bosishga harakat qilardi. U endi ko'pdan beri oqara boshlagan sochlariiga tashlab yuradigan qora ro'molini manglayi uzra yuziga tushirib olgan edi.

Savdogarlarning karvoni ko'p o'tmay o'z yo'liga ravona bo'ldi. O'sha kecha tong otgunga qadar turti o'y-xayollar og'ushiga cho'mgan. Nayman ona Sario'zak dashtidagi o'sha manqurt — cho'ponni topib, uning o'g'limi, yo'qmi ekaniga ishonch hosil qilmaguncha ko'ngli tinchimasligini angladi. Ona ko'nglini allaqachonlardan beri jang maydonida qolgan o'g'lining bedarak ketgani g'ash qilib kelar edi, endi o'sha sezgi, o'sha gumon qayta qo'zg'alib, uni dahshatga sola boshladi... Bunday qiynoqlar-u azob-uqubatlardan bir umr g'am chekib, gumon-sirab, xavotirlanib yurgandan ko'ra, albatta, o'g'lini bir emas, ikki bor ko'mgani yaxshi emasmi?

Uning o'g'li Sario'zak tomonlarda jungianglar bilan bo'lgan jangda shahid bo'lgan edi. Eri undan bir yil muqaddam halok bo'lgan — Nayman elida ma'lum va mashhur kishi edi u. Keyin o'g'il otasining o'chini olish uchun birinchilardan bo'lib jangga otlanadi. Bu elat odatida halok bo'lganlarni jang maydonida qoldirib ketish nomus sanaladi, qarindosh-urug'lari jangchining jasadini olib kelishlari lozim. Biroq buning iloji bo'lmadi. O'sha katta jangda qattashganlardan ko'pgina kishi dushman bilan ro'baro' kelib jangga kirishganida Nayman onaning o'g'li ot yolini quechoqlaganicha yiqilganini, jang suronidan cho'chigan ot uni olib qochganini ko'rishgan ekan. Shunda yigit egardan qulaydi-yu, bir oyog'i uzangidan chiqmay o'zi o'ning yonida osilib qoliadi, bundan battar hurkib ketgan ot jon-jahdi bilan

uning jonsiz tanasini cho'l ichkarisiga sudrab ketadi. Vodarg', ot g'anin tomon surib ketadi. Olatasir qiyomat qo'pganiga, har bir jangchi kurash maydonida bo'lishi lozimligiga qaramay, qochib borayotgan otni va marhumning jasadini zudlik bilan qo'lga kiritish uchun qabildoshlaridan ikki kishi otlarini yo'r-tirib ketishadi. Ammo shu payt jungianglarning soy ichida pistirmada turgan bir nechta haydar kokilli suvoriari qiyqirishgancha, yo'lni kesib chiqishadi. Naymanlardan biri shu zahotiyoq kamon o'qiga uchib halok bo'ladi, ikkinchisi esa og'ir yaralanib ortga qaytadi, safdoshlari yoniga arang yetib kelib shu yerda qulaydi. Shu voqea sabab bo'lib, urushning hal etuvchi eng qulay payti jungianglarning yon tomondan zarba berishga shaylanib turgan guruhlari pistirmada yashirilib yotganini vaqtida sezib qolishadi. Naymanlar qayta saf tuzib, yana jangga kirish uchun shoshilinch ravishda chekinishadi. Albatta, bunday qizg'in jang ichida Nayman onaning o'g'li — yosh jangchining nima bo'lganini surishtirib o'tirishga kim ham fursat topibdi, deysiz. O'tida chopib kelib, o'z safiga arang qo'shilgan haligi yarador nayman yig'ining keyinchalik onaga aytib berishicha, o'g'lini sudrab ketayotgan otni quvlab borayotganlarida, ot noma'lum tomonga burilib ketib, darhol ko'zdan g'oyib bo'lgan...

Jangchining jasadini izlab naymanlar nechta kunlab dala yo'llarini kezib chiqdilar. Biroq na marhumning jasadini, na olib qochgan otni, na tushirib qoldirgan qurol-yarog'ini, na boshqa biron belgi-alomatni topa oldilar. Uning halok bo'lgani hech kimda shubha qoldirmagan edi. Boringki, yarador bo'lgan tagdirda ham oradan o'tgan kunlar orasida cho'lida suvsizlikdan yoki qon ketishidan halok bo'lishi muqarrar. Yosh birodarlarining kimsasiz Sario'zak cho'lida dafn etilmay qolib ketgani alaminan hasrat-nadomat chekdilar. Bu hammaga isnod edi. Nayman ona o'tovida ovoz chiqarib yig'lashgan xotin-xalajlar erlari va og'aminlari shaniga ta'na toshlarini yog'dirdilar:

— Uning ko'zlarini quzg'unlar cho'qidi, shoqollar go'shtini burdalarib keldi, endi sizlar qaysi yuz bilan el orasida bosh ko'tarib yurasizlar!..

O'sha kundan boshlab Nayman ona uchun yer-u ko'k huvullab qoldi. To'g'ri, urush qurbonsiz bo'lmaydi, buni ona ham yaxshi tushunadi, biroq o'g'lining jasadi ko'milmasdan jang maydonida qolib ketgani unga sira ham tinchlik bermasdi. Aechchiq qayg'u, poyoni yo'q o'y-xayollar ona qalbini poralar edi. Cheksiz dard-anduhini yengillashirish uchun kimga aytib, kimga zorlansin, g'am-anduhini yengillashirish uchun Parvardigordan bo'lak kimga ham iltijo qilsin...

O'g'lining o'limini o'z ko'zi bilan ko'rib ishonch hosil qilmaguncha, bunday mudhish xayollardan qutulib, joni joy topmas edi onaning. O'shanda taqdirga tan berishdan bo'lak chora qolmagan bo'lardi. O'g'lining oti ham dom-daraksiz ketgani ko'nglini battar xijil qilardi. Ot halok bo'lmagan, balki hurkib qochgan. U uyurdagi otlar singari ertami-kechmi, bir kuni uzangiga osilib qolgan chavandoz jasadini sudrab qarddon joyiga qaytishi kerak edi. Shunda qanchalik dahshatli bo'lmasin, ona o'g'lining jasadi ustida dod-faryod, o'pkasi to'lguncha yig'lab, ko'nglini biroq bo'shatib olgan bo'lardi. U o'z qismatidan, baxti-qaroligidan noilib, yuzlarini timoqlari bilan yumdalarib tangrini la'natlar edi. O'g'lining daragi chiqqanida-ku, erta-yu kech ich-etini yeb, gumonsirab, ko'nglida sovuq shubhani ko'tarib yurmag-an bo'lardi. Xudodan uzoq umr bergin, deb iltijo qilib o'tirmasdan, orzu-umidlaridan bir yo'la mahrum bo'lgan holda o'limga tayyor turib bergan bo'lardi. Biroq o'g'lining jasadi topilmadi, oti qaytib kelmadi. Har qanday yo'qotish bora-bora esdan chiqarilgani singari bu voqea ham, vaqt o'tishi bilan urug'-aymoqlari xotirasidan ko'tarila boshladi... Faqat u — yolg'iz onaizorgina besar-u omon, betoqat kutardi. O'y-xayollar girdobida onaning fikri chuvalgani-chuvalgan. Otni qanday jin urdi, egar-jabduqlari, qurol-yarog'lari qayerda qoldiykin? Aqalli shular topilganda ham o'g'lining ahvoli ne kechganini taxminlab anglab olardi. Axir, jungianglar Sario'zak dashtining biron yerida holdan toy-gan otni ushlab olgan bo'lishlari mumkin. Yaxshigina egar-jabduqli, yana buning ustiga o'z oyog'i bilan kelgan tulpor naqd o'lja-ku. Unday bo'lsa, uzangida oyog'i ilinib kelgan o'g'lining jasadini g'aninlar nima qilishdi — yerga ko'mishdini yo cho'l

darrandalari'ga yemish bo'ldimi u? Agar hali o'lmagan, falakning gardsini bilan tirik qolgan bo'lsa-chi? Chala o'lik yig'itni ular urib halok qilishgan yoinki yaydoq dalaga quruq jasadini tashlab ketishgan bo'lishsa-chi? Yo... Agar...

Gumon-shubhalarining cheki yo'q edi. Sayyoh savdogarlar choy ichishib o'tirishganda, Sario'zakda uchragan yosh manqurt haqida gap ochib Nayman onaning o'rtangan yuragini battar o'rtab, yarasiga tuz sepishganini o'zlari ham payqashmagan edi. Ona qandaydir falokatni sezib, yuragi orqasiga tortib ketdi. O'sha manqurt mening o'g'lim bo'lib chiqsa-ya, degan hadik borgan sari kuchayib, uning aql-u hushini, butun vujudini tobora chuqurroq, tobora kuchliroq chirmab ola boshladi. O'sha manqurtini izlab topib, o'z ko'zi bilan ko'rib, uning o'z pushtikamaridan bo'lgan o'g'li emasligiga ishonch hosil qilmaguncha ko'ngli tinchimasligiga ko'zi yetgan edi.

Naymanlar yozlik manzili qurgan tog' etagidagi adirlarda jilg'alar jildirab oqadi. Nayman ona suvning jildirab oqishiga tuni bilan quloq tutdi. Onaning isyonkor ruhiga va munofotiga unchalik hamohang bo'lmagan suv nimalarni shivirlayotgan ekan? Qalb taskinga muhtoj. Hayotdoy gung-soqov Sario'zak cho'li sari ravona bo'lish oldidan shoshqin suvning musiqasini to'yib-to'yib tinglashga orzumand edi. Kimsasiz cho'lga yakka-yolg'iz borish xavf-xatari ekanini ona bilardi, ammo shunga qaramay o'ylagan niyatini biror kimsaga aytishni, ko'ngli yoritishni istamadi. Barbir, dardingga dardmand bir kimsani topolmay-san ham. Hatto eng yaqin kishilari ham uning bu niyatini ma'qullamagan bo'lardi. Allaqachonlar o'lib ketgan o'g'lini izlab chiqishga na hojat? Mabodo allaqanday tasodif tufayli o'g'li o'lmay, manqurtga aylantirilgan taqdirda ham, uni qidirib, poralangan yurakni qayta poralashga na hojat? Chunki manqurt avvalgi odamning shunchaki tashqi qiyofasi, zohiriy ko'rinishidan iborat, xolos...

O'sha tuni yo'lga tushish oldidan Nayman ona o'tovdan bir necha bor tashqariga chiqdi, uzoq vaqt tun qatriga tikilib, atrofga nazar tashlab, quloq osib, o'y-xayollarini bir yerga jamlab olishga harakat qildi. Yarim kecha. Musaffo osmon, tepaga

kelgan oy qir-adirlarni bir tekisda oppoq sutga chayib olganday nur taratib turibdi. Qir-adirlarning yon bag'irlariga sochilib ketgan oq o'tovlar shovqin solib oqayotgan sho'x jilg'alar bo'yiga tunash uchun kelib qo'ngan qushlar galasini eslatadi. Ovulning etagiga joylashgan qo'y qo'ralari va undan narida — jilg'alar bo'yida o'tlab yurgan ot uyurlari tomondan iltarning hurishi, odamlarning gangur-gungur ovozlari eshitilib turardi. Hamadandan ham ovulning berrigi tomonidagi qiz-juvonlarning bir-biriga jo'r bo'lib kuylashidan Nayman onaning yuragi jiz etib ketdi. O'zi ham bir vaqlar tumlari mana shu qizlar singari o'lan aytardi... Yanglishmasa, kelin bo'lib tushganidan beri ular har yil yoz mol-joni bilan shu yerga ko'chib kelishardi. Butun umri shu yerlarda o'tgan. O'lada odam soni ko'pligida ular birdaniga to'rtta o'tov tikishardi — biri oshxona, biri mehmonxona, ikkitasi yotoqxona bo'lardi. Keyin esa jungianglar istilosidan so'ng huvullagan uyda yolg'iz o'zi qoldi...

Mana endi esa u ham bu yolg'iz o'tovdan badar ketmoqda... Kecha oqshomdayoq safar jابدuqlarini but qildi. Yegulik va ichgulgini g'amladi. Ayniqsa, suvni mo'ltroq oldi. Sario'zaking cho'lida quduq topilmay qolguday bo'lsa deganday, har ehtimolga qarshi, ikki meshni to'ldirdi... Kecha oqshomdayoq sovliq tuya Oqmoyani shay qilib qoziqqa bog'lab qo'ygan edi. Umidi-islonchi ham, birdan bir hamrohi ham o'sha. Oqmoyaning kuch-quvvatiga-yu yo'rg'asiga ishommaganda Sario'zakdek soqov cho'lga yo'l olishga jur'at eta olarmidi? Oqmoya ikki bor bolalagandan so'ng o'sha yili qisir qolib, obdan dam olgan. Uning ayini ayji kuchga to'lib, minishga qo'l kelib turgan kezlari edi. O'zg'in, chayir oyoqlari uzundan kelgan, tovonlari yumshoq-qina, qarilig-u og'ir yuktan hali toliqmagan, qo'sh o'rtkachi, kamondek egilib kelgan baquvvat bo'yini-yu boshi kelishimili, kapalakning qo'sh qanotiday dirillab, yengil yelib, yo'l-yo'lakay havoni sipqarib borayotgan Oqmoya bebaho tuya bo'lib, uning bir o'ziga butun bir uyurni alishtirsa arzir edi. Bunday yo'rg'a tuya ayini ayji kuchga to'lganida, undan nasl olib qolish maqsadida hamyonini ayamagan kishilar cheidan izlab kelishardi. Nayman ona qo'lidagi so'nggi xazina, bor bisotidan qolgan

yagona yodgorlik edi bu tuya. Qolgan boyliklarining kuni ko'kka sovurildi. Topgan-tayangani qarzga to'ladi, urushda halok bo'lgan farzandlarining qirqi-yu yillik ma'raka oshlariga sarfladi... Mana, hozir g'am-g'ussaga to'lib, o'zini qo'yarga joy topolmay, tong otishi bilan izlab yo'lga chiqmoqchi bo'lib turgan o'g'lining ham so'ngi ma'rakasini o'tkazdi, o'tkazgandayam yaqin-atrofdagi Nayman urug'larining barchasini chaqingan holda, kattagina qilib o'tkazdi.

Nayman ona erta tongda o'tovdan chiqdi. Chiqdi-yu, ostonahatlaganicha eshikka suyanib, uyquga cho'mgan ovulga nigoh tashlab o'ylanib turib qoldi. Hozir u mana shu qadrdon ovulni tashlab yo'l tortadi. Hali ham avvalgi qaddi-qomatini, go'zalligini yo'qotmagan Nayman ona olis safarga jo'natilgan kishilar singari belini mahkam bog'lab olgan edi. Oyog'ida poshnali etik, egnida chalvor, ko'ylagi ustidan yengsiz kamzul kiyib, ustiga chakmon yopib, boshini oq ro'mol bilan mahkam tang'ib olgan. Modomiki, o'g'lini tirik ko'rish nasib qilmikan, degan umidda yo'lga chiqqan ekanman, motam libosi kiyishga na hojat, mabodo umidim ro'yobga chiqmasa, keyin ham o'la-o'lguncha qora ro'mol o'rab yurishga ulguraman-ku, deb o'yladi ona. Hayot urinishlari ona qalbiga o'z muhrini bosib ulgurgan edi. Subhi ko'zib shu lahzalarda qayg'u-alam chekaverib hasratda dog' bo'lgan onaning oq oralgan sochlari-yu yuzlaridagi chuqur ajinlarini yashirib turgandi. Ona ko'zlariga yosh olib, og'ir xo'rsindi. Boshida bunday savdolar borligini o'ylagannidi, bilgannidi? Biroq u darhol o'zini qo'lga oldi. «Ashhadi anlo iloha ollohu»¹ deb pichirlagancha kalima qaytardi. So'ng tuyasi tomon shaxdam odimlab borib, uni cho'ktirdi. Oqmoya jahli chiqqanidan emas, balki shunchaki, odatga ko'ra sekin baqirib qo'ydi-da, bemaol ko'kragini yetga berib cho'kdi. Nayman ona xurujlarini ikkala o'rta o'rtalig'iga orta solib, o'zi ham darhol tuyaning ustiga chiqib o'tirib oldi va qani, bo'la qol, deganday uni niqtab qo'ydi. Tuya u yon bu yon qo'zg'alib tura boshlaganda Nayman ona go'yo qanot bog'lab zamindan uchib

ketganday bo'ldi. Uzoq safarga yo'l olayotganlarini Oqmoya endi tushundi...

Nayman onaning ovuldan chiqib ketayotganini uzatishga chiqib, uyqusi ochilmay esnab turgan qaynashidan boshqa hech kim sezmad. Ona unga kecha oqshomdayoq turqunlari – qizlik kezaridagi qarindosh-urug'larinikiga mehmonga ketayotganini, agar u yerdan ziyoratga borayotganlar bilan uchrashib yo'li tushib qolsa, birga-birga qipchoqlar manziliga, hazrati Yassaviy maqbarasini ziyorat qilib kelishga bormoqchi ekanini aytgan edi...

Nayman ona odamlar so'rab-surishtirib boshni qotirmasin deb barvaqtroq yo'lga chiqqanining sababi ham shunda edi. Ovuldan uzoqlashib borarkan, Nayman ona Sario'zak dashti tomon burildi, uni oldinda g'ira-shira ko'zga tashlangan tund, cheksiz cho'l kengliklari kutardi...

Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Temiryo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayotiday dastlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi.

Har qanday masofa Grinovich meridianidan o'tchangan singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'tchanadi.

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

«Konvensiya» aviabardoridan «Paritet» samoviy bekatidagi nazoratchi-fazogirlarga yana bitta shifrlangan radiogramma uzatildi. Bu radiogrammada ayni o'sha qat'iy tahdid ohangida Quyosh Galaktikasidan tashqarida parvoz qilayotgan 1-2 va 2-1 partiel-fazogirlar bilan ularning samoviy bekatga qaytish vaqti va imkoniyatini muhokama qilish maqsadida radioaloqa qilmaslik, shundan so'ng Qo'shmarbosh ko'rsatmalarini kutish maslahat berildi.

Ummun sekin to'liqlanib, aviabardor sezilarli darajada chayqalib turardi. Kichik-kichik, ammo shiddatli to'liqlar ulkan kemaning quyruq'iga kelib urilib o'ynardi. Quyosh e.s.a to'liqlar harakatidan tinimsiz mavjlanib, sutday ko'piklanib turgan

¹ Ashhadi anlo iloha ollohu – Ollohdan o'zga iloh yo'q.

okean yuzasiga hamon nur sochar, bir maromda g'ir-g'ir shamol esib turar edi.

«Konvensiya» aviabardori, aviaganolar va davlat manfaatlari xavfsizligi guruhlari ishga shay, hushyor turishardi...

Oqmo'ya necha kundan beri buyuk Sario'zak dashtining qir-adirlari-yu soyliklari bo'ylab pishqirganicha, bir maromda yo'r'tib borardi. Nayman ona hamon uni qaynoq qunlar ustidan qichab, qamchilab haydashda davom etardi. Ular yo'lda duch kelib qolgan birorta quduq boshida kechalargina to'xtashardi. Tong otishi bilan yana oyoqqa turib qat-qat yastanib ketgan Sario'zak adirlarini kezib, katta tuyalar to'dasini izlashardi. Haligi savdogarlarning ayirishlariga qaraganda, ular tuyachi manqurtini Sario'zak cho'lining xuddi mana shu qismida – olis-olis-larga cho'zilib ketgan Malaqumdic hop jarligi etagida – ko'rish-gan. Nayman ona xuddi mana shu manqurtini izlayotgan edi. Mana ikki kundirki, ona jungianglarga yo'liqib qolishdan qo'r-tiqib, atrofga olazarak bo'lib qarab, Malaqumdic hop jarligining u yoq bu yoqini aylanib yurar, ammo u qayoqqa ko'z yugurtmasin, qayerni izlamasin, faqat cheksiz dashti-biyobonlarga, aldoqchi saroblarga duch kelardi, xolos. Bir safar shunday sarobga duch kelib aldandi, olisdan machitlari-yu gal'a devorlari bilan muallaq holda elas-elas ko'ringan shaharga ko'zi tushib u tomon yo'l oldi va ilon izi so'qmoqlardan o'tib, yo'l bossa ham mo'l bosdi. O'g'lim, balki, o'sha shaharda, qullar bozorida uchrab qolar-mikan, deb umid qilgan edi, boyaqish. Qaniydi, shunday bo'lsa, o'g'limi Oqmo'yaga mingashtirib olardi-da, Nayman yaylovi qaydasan, deb darhol jo'nab qolardi, qani shunda ularga yetib olishsin-chi... Cho'li azimda yolg'iz yuraverib holdan toygan ona ko'ziga sarob ko'ringan edi.

Aslida Sario'zak cho'llaridan odam zotini izlab topish amrimahol, bu yerlarda odam qum zarrasiday gap. Ammo katta maydonda kattakon uyur o'tlab yurgan bo'lsa, uni ko'rmasdan bo'larmidi, albatta. Avvalo, bitta-ikkita tuyening qorasi chalinisa, so'ng qolganlari ko'zga tashlanadi. Uyur topildimi, tuyachisi ham topildi, degan so'z. Nayman onaning ko'zlagan umidi shu edi.

Biroq hali hech narsadan darak yo'q. Vaqt o'tigan sari

Nayman ona xavotirlana boshladi, uyurni boshqa tomonlarga haydab ketishmagannikin yoki jungianglar bu tuyalarni ko'tarasiga sotish uchun Xiva yoki Buxoro bozorlariga haydab ketishmagannikin? Agar ular shunchalik olis yerga ketishgan bo'lsa, haligi tuyachi yana qaytib kelarmikin yoki tuyalar bilan qo'sha sotilib nom-nishonsiz ketarmikin?.. O'g'limni tirik ko'rsam, manqurt bo'lsa ham, aqldan ozib hech nimani eslay olmaydigan metrov bo'lib qolgan bo'lsa ham mayli, o'sha cho'pon o'g'lim, ishqilib, joni omon bo'lsa, bas... Shunga ham ming qatla shukr – sog'inch-u gumonlardan joni bo'g'ziga kelgan onaning ovuldan chiqish oldidagi birgina umidi shu edi. Biroq ona Sario'zak sari ichkarilab, haligi karvon tortgan savdogarlar biz tuyachi manqurtini shu yerda ko'rdik, degan mo'ljalga yaqinlashib borar ekan, o'g'limning o'miga ovsar va majruh bir kimsaga duch kelib qolsam holim ne kechadi, deb dili xufon bo'laverdi. Shunda u yana xudodan yolvorib so'radiki, agar unday bo'lsa, o'sha manqurtning o'g'lim bo'p chiqmasdan boshqa bir baxtiqaro gumroh bo'p chiqqani ma'qul, o'shanda men ham: «O'g'lim endi yo'q, u o'lgan ekan», deb taqdirga tan bergan bo'lardim. Hozir esa onaning niyati o'sha manqurtini bir ko'rish, farzandi emasligiga ishonch hosil qilgandan so'ng yana ortga qaytish edi, shunda shubha-gumonlardan ezilib, azob chekib yurmaydi, taqdir yana nimani ravo ko'rgan bo'lsa, shukrona aytib yashayaveradi... Sog'inchdan tutdek to'kilgan yurak bunga ham bardosh bera olmadi, dashti biyobonni kezib yurib, nima bo'lsa ham, biron kimsani emas, balki o'z dilbandini topish ishtiyoqi ona qalbini chulg'ab olgan edi...

Mana shunday ming xil o'y-xayollar va shubhalar og'ushida borarkan, ona yassi qum tepaliklaridan oshayotib nogahon ko'p sonli tuyalar uyurini ko'rib qoldi: qo'ng'ir tusga kirib, semirib ketgan yuzlab tuyalar mayda butalar-u yantoqlarning uchlari kemirib, keng maydonda bemalol o'tlab yurishardi. Nayman ona Oqmo'yasiga qamchi bosib, chopitirib keldi. Uyurni izlab topganidan quvonchi ichiga sig'may nafasi bo'g'ziga tiqildi. Ammo shu zahotiyoq manqurt qilib qo'yilgan

o'g'lini ko'rishni eslab, qo'rqqanidan a'zoyi badani muzlab ketdi. So'ng yuragi yana quvonchga to'ldi va shu bilan ne ahvolga tushganini o'zi ham anglamay qoldi.

Mana, tuyalar o'tlab yuribdi, ammo tuyachi qayerda ekan? Har holda shu atrofdan yurgandir. Shu payt yaylovning narigi chekkasida odamning qorasi ko'rindi. Olisdan uning kimligini tanib bo'lmadi. Tuyachi uzun tayog'iga suyangan holda ortidagi yuk ortilgan tuyasining tizginini ushlab, qosh ustiga bostirib kiyyan telpagi ostidan onaning yaqinlashib kelayotganini bamaylixotir kuzatib turdi.

Nayman ona tuyachiga yaqin kelib uni tanidi-yu, tuyasidan qanday tushganini bilmay qoldi. Yiqilib tushdimi, surtilib tushdimi – shu tobda onaga buning ahamiyati yo'q edi!

– O'g'ilginam, qarog'im! Seni izlamagan joyim qolmadi! – deya o'g'li tomon talpindi. – Men sening onangman!

Birdan ona ahvolini tushundi. Tushundi-yu, depsinib qichqirgancha yig'lab yubordi. Alam va dahshardan lablari dirillab, shuncha urinsa ham o'zini qo'lga ololmasdi. Yiqilib tushmaslik uchun loqayd o'g'lining yelkasiga yopishib olib, qachonlardan beri xavf solib turgan, endi esa uni bosib tushgan tog'day g'am yuki ostida ezilib faryod chekar, ko'z yoshlari selday oqardi. Ona bo'zlab yig'lar ekan, ko'z yoshlari orasidan, ho'l bo'lib chakkalariga yopishib qolgan burul soch tolalari orasidan, yuzlarini chang bilan bulagan qaltiroq barmoqlari orasidan farzandining tanish qiyofasiga bogar, uning o'ziga nigoh tashlashini orziqib kutar va meni tanib qolar, deb umid qililar edi. Axir, tug'gan onasini tanib olish qiyin emas-kul!

Biroq onaning kelgani unga go'yo har doim yonida yurganday, zarracha ta'sir qilmadi. U hatto onadan kimsan, nega yig'layapsan, deb so'ramadi ham. Ma'lum lahzalardan so'ng tuyachi onaning qo'lini yelkasidan surib tashlab, ustida yuk bor tuyasini yetaklagancha odimlab ketdi: u sho'xlik qilib bir-birlari bilan o'yashayotgan bo'taloqlar uyurdan uzozlashib ajralib ketmasin, deb tuyalar to'dasining narigi chekkasi tomon yo'l olgan edi.

Nayman ona bukehayib o'tirib qoldi, xo'rsinib-xo'rsinib yig'lad va shu o'tirishda yuzini changallagancha bosh ko'tarmay uzoz qolib ketdi. So'ng bor kuchini to'plab, o'zini xotirjam ko'rsatishga urinib, o'g'li tomon yura boshladi. Mangurt o'g'il hech nimani ko'rmaganday-bilmaganday, pinagini buzmasdan, bostirib kiyyib olgan telpagi ostidan ma'nosiz va loqaydlik bilan qarab turardi. Cho'l shamolida qorayib, dag'allashib ketgan yuzida xiyol jilmayish paydo bo'ldi. Ammo ko'zlari dunyoni tark etgan kishining ko'zlariday loqayd boqardi.

– O'tir, gaplashamiz, – dedi og'ir xo'rsinib Nayman ona.

Ular yerga cho'ktilar.

– Meni taniyapsanmi? – so'radi ona.

Mangurt yo'q deganday bosh chayqadi.

– Oting nima?

– Mangurt, – dedi u.

– Seni hozir shunday deb atashadi. Avvalgi oting esingdami? Asli ismingni eslab ko'r-chi.

Mangurt jim qoldi. U haqiqiy ismini eslashga harakat qilayotgani, qiyalaganidan qanshəri ustida munchogdek ter tomchilari paydo bo'lib, ko'z o'ngini tuman qoplaganini ona ko'rib turdi. Ammo qarshisida qandaydir to'siq paydo bo'ldi-yu, uni yengib o'tishga qurbi yetmadi...

– Otangning otini bilasanmi? O'zing kimsan? Eling yurting qayerda? Qayerda tug'ilganingni bilarsan, axir?

Yo'q, mangurt hech nimani tushunmasdi, hech narsani eslay olmasdi.

– Hali, shunchalik ahvolga solishdimi seni! – deya pichirladi ona.

U najotsizlikdan lablari tirab, g'am-g'ussa-yu qahr-g'azabdan o'zini tuta olmay yana qaytadan o'ksinib-o'ksinib yig'lad, tinchlanishga behuda urinar edi, xolos. Onaning oh-ufig'oniga mangurt pinagini ham buzmasdi.

– Yerdan mahrum etish mumkin, mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto insonni yashashdan mahrum etish ham mumkin, – derdi ona o'z-o'zicha gapirib, – biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o'ylab topdi ekan, bunga kimning qo'li

bordi ekan?! Yo Rabbii, agar olamda bor bo'lsang, bandalaringga bu yovuzlikni qanday ravo ko'rding? Yer yuzida usiz ham yovuzlik kammi?

Ona manqurt o'g'liga qarab turib, Quyosh, Xudo va o'zi to'g'risida to'qigan mashhur marsiyasini aytdi. Sario'zak voqealari haqida gap ochilib qolganda, bilgan kishilar, hanuzga qadar Nayman onaning o'sha so'zlarini bir-birlariga rivoyat qilib aytib yurishadi...

Shunda ona mashhur marsiyani boshladi, bilgan kishilar bu so'zlarni hozirga qadar eslab yurishadi:

Tulubin kelib iskan,

Bo'tasi o'lgan bo'z moyaman...¹

Ona qalbidan otilib chiqqan dod-faryod ohangi kimsasiz, had-hududsiz Sario'zak cho'lini larzaga solganday yangrab turti...

Biroq bu nola-faryod manqurtning to'pig'iga ham chiqmadi.

Shunda Nayman ona so'rab-surishtirishlar bilan emas, balki aqlini kovlash, qitqlash bilan es-hushini o'ziga keltirmoqchi bo'ldi.

— Sening oting Jo'lomon. Eshidingmi? Sen Jo'lomon-san, otangning oti — Do'nanboy. Otangni eslay olmaysammi? Axir, u seni bolalik chog'ingdan kamon olishga o'rgatgan. Men sening onangman. Sen esa mening o'g'limsan. Sen nayman urug'idansan, tushundingmi? Sen naymansan...

Onasining hamma gaplarini o'g'il avvalgiday mulajo loqaydlik bilan eshirdi. Ona go'yo devorga gapirayotganday edi. Onaning so'zlari karning qulog'iga azon aytganday gap edi.

Nayman ona manqurt o'g'ildan so'radi:

— Bu yerga kelganingga qadar nimalar bo'ldi?

— Hech narsa bo'lgani yo'q, — dedi o'g'il.

— Keehasimidi yo kunduzimidi?

¹ Tuyaning bolasi o'lganida sut bermay qo'ymasin, deb bo'talog'ining terisiga somon tiqib, omastiga ko'rsatiladi. Shunda hayvonning bolasiga mehnri tovlanib, yetilimga sut to'ladi. (Tarjimon izohi).

— Hech narsa, — dedi u.

— Kim bilan gaplashing keladi?

— Oy bilan. Biroq bir-birimizning gapimizni eshitmaymiz. U yerda kimdir o'tiribdi.

— Yana nimani istaging keladi?

— Xo'jayimning boshidagi singari kokil qo'yishni.

— Qani, beri kel-chi, boshingni bir ko'rib qo'yay, ular nima qilib qo'yishganini, — deb ona unga tomon talpindi.

Manqurt shartta tisarilib, o'zini olib qochdi, boshidagi telpagini changallagan bo'yicha qaytib onaga boqmadi. Bosh haqida hech qachon so'z ochish mumkin emasligini ona endi tushundi.

Shu payt olisdan tuya mungan kishining qorasi ko'rindi. U shu yoqqa tomon kelayotgan edi.

— Bu kelayotgan kim? — so'radi ona.

— U menga ovqat olib kelyapti, — dedi o'g'il.

Nayman ona tashvishga tushdi. Bevaqt paydo bo'lib qolgan bu jungiangning ko'ziga chalimaslik uchun tezroq g'oyib bo'lishi kerak edi. U tuyasini cho'k'tirib, darhol minib oldi.

— Sen unga hech narsa aytmagin. Men tezda qaytib kelaman, — dedi Nayman ona.

O'g'il lom-mim demadi. Uning parvoyi palak edi. O'tlab yurgan tuyalar orasidan qochib borayotgan Nayman ona xato ish qilib qo'yganini tushundi. Biroq vaqt o'tgan edi. Oq tuyaga minib borayotgan onani jungiang ko'rib qolishi mumkin edi. Oqmo'yasini yetaklab, o'tlab yurgan tuyalar orasidan berkinib yayov jo'nagan ma'gul edi.

Yaylovdan xiyla olislab ketgach, Nayman ona chetlarida emman-shuvoqlar o'sib yotgan chuqur jartikka kirib bordi-da, Oqmo'yani cho'k'tirib kuzata boshladi. Gumoni to'g'ri chiqdi, payqab qolgan ekan. Ko'p o'tmay, tuyasini yo'rttirib kelayotgan haligi jungiangning qorasi ko'rindi. U naysa va o'q-yoy bilan qurallangan edi. Jungiang, haligi oq tuya minib olgan odam qayoqqa g'oyib bo'ldi, deganday atrofga alanglab qarar edi hayratlanib. U qaysi tomonga qarab yurishini bilmay, gangib qolgan edi. Goh u yoqqa, goh bu yoqqa tuya chopitirib o'tdi. Nihoyat,

jarlikka juda yaqinlab keldi. Yaxshiyanki, Oqmoyniing tumshug'ini ro'mol bilan bog'lab qo'yish esiga kelgan ekan. Aks holda, u bo'kirib yoki pishqirib yuborishi ham mumkin edi. Nayman ona jarlik yogasidagi erman orasiga yashirib olgan joyidan jungiangni endi aniq ko'ra boshladi. U baroq tuyu ustida atrofga olazarak bo'lib qarardi, ko'pchib ketgan yuzlari jiddiy tusda, boshidagi qora galpog'ining ikkala uchi tepaga qayrilib ketgan, go'yo qayiqni eslatardi. Boshining orqa tomonida esa bir o'ram qop-qora haydar kokili yaltirab, osilib turardi. Jungiang o'zangida tik turib, nayzasini o'qtagancha ko'zlarini chaqchaytirib atrofga nazar tashlardi. Bu odam Sario'zakni bosib olib, qanchalab aholini qul qilib haydab ketgan, onaning oilasiga ham cheksiz kulfatlar keltirgan g'anamlardan biri emasmi? Mana shu quturgan yirtqich yovga qarshi yolg'iz ona – qurol-yarog'siz ayol nima ham qila olardi? Insomni xotirasidan mahrum etishdek shafqatsizlig-u vahshiylikka ularni qaysi turmush, qaysi voqea-bodisalar majbur etdi ekan, deb o'ylardi ojiz qolgan ona o'zicha...

Jungiang u yuq bu yuqqa zir yugurib hech nimani uchratmagandan so'ng tezda ortga, tuyalar to'dasi tomon qaytdi.

Kech qirib qolgan edi. Quyosh botgan bo'lsa ham osmonni olovlantirib turgan shu'lasi allamahalgacha dala yuzini yoritib turdi. So'ng birdan qosh qorayib, borliqni tun zulmati qopladi.

Nayman ona bu tunni tanho o'zi bechora manqurt o'g'li yaqinida – dashida tunab o'tkazdi. O'g'lining yoniga borishga cho'chidi, haligi xavfsirab qolgan jungiang kechasi uyur oldida qolishi ham mumkin.

O'g'lini qullikda tashlab ketmay, bir amallab birga olib ketishga qaror qildi ona. O'g'li manqurt bo'lsa ham, mayli, hech nimani tushunib, anglab yetmasa ham mayli, kimsasiz cho'lda, jungianglarning tuyasini boqib xor bo'lib yurganidan ko'ra o'z uyida, o'z odamlari orasida yashagani yaxshi emasmi? Ona qalbi shuni istardi. Boshqalar taqdirga tan berib ketishi mumkin bo'lgan holga ona sira ham ko'na olmasdi. U o'z qoni va jonini, ko'z qorachig'ini qullikda qoldirib ketishni sira-sira istamasdi. Balki,

bolasi o'z yerida hushiga kelib, bolalik kezarini eslab, barcha ko'rgan-kechirganlarini qayta tiklab olar, deya umid qilardi.

Ertasiga etralab Nayman ona Oqmoyni minib yana yo'lga tushdi. Uyr bu yerdan xiyala uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanna yo'llardan ehtiyotkorona o'tib, uzoq yo'l bosdi. Tuyalarni ko'rgandan keyin ham jungianglardan birontasi ko'rinish qolmasin, deb uzoq vaqt kuzatib turdi. Hech kimning yo'qlig'iga ko'zi yetgach, o'g'lining otini aytib chaqirdi.

– Jo'lomon! Jo'lomon! Omonmisan?

O'g'li buriilib qaragan edi, ona quvonchidan baqirib yubordi, ammo shu zahotiyoq, o'g'li shunchaki, ovoz chiqqan tomonga qaraganini payqab qoldi.

Nayman ona o'g'lining xotirasini tiklashga yana urinib ko'rdi.

– Oting nima, eslab ko'r-chi! – deb yaliniib-yolborib inontirishga harakat qilardi u. – Otingning oti Do'nanboy, bil-maysammi uni? Sening isming manqurt emas, Jo'lomon. Naymanlarning yayloviga ko'chib borayotganimizda yo'lida tug'ilgansan. Shuning uchun otingni Jo'lomon qo'yganmiz. Sen tug'ilganningda biz o'sha yerda qolib uch kecha-kunduz to'y-tomoshga qilganmiz.

Bu gaplar manqurt o'g'liga zarracha ta'sir etmayotganini bilisa ham, baribir, ona uning so'ngan xotirasida nimadir yilt etib ko'rinish qolar, degan umidda behuda urinardi. Ammo u devorga gapirayotganday edi. Shunga qaramay, o'tgan-keganlardan gapirib, hadeb o'zini takrorlayverdi:

– Oting nima, eslab ko'r! Otingning oti Do'nanboy!

So'ng ona o'zi bilan olib kelgan taomlaridan yedirib-ichirib bo'lgandan so'ng, alla aytga boshladi.

Alla manqurtga ma'qul kelganday bo'ldi, shekilli, quloq solib tinglab o'tirdi. Qorayib, unigib ketgan yuziga qandaydir iliqlik yugurganday bo'ldi. Shunda ona o'g'lini bu yerdan – jungianglarning izmidan o'z tug'ilib o'sgan qadrdon yeriga birga olib ketishga ko'ndirishga kirishdi. Manqurt esa tuyalarni qoldirib, qayoqadir bosh olib ketishni miyasiga sig'dira olmadi:

yo'q, xo'jayinim tuyalardan bir qadam ham jilmaysan deb buyurgan, shuning uchun uyurni tashlab biron yoqqa ketmayman...

Chiqmagan jondan umid deganlarday, Nayman ona barbod etilgan xotira eshigini ochib kirishga qayta-qayta harakat qilardi:

– Eslab ko'r-ehi, kimning o'g'lisani? Oting nima? O'angning oti Do'nanboy!

O'g'lini hushiga keltirish uchun behuda urinayotgan ona oradan qancha vaqt o'tganini ham payqamay qoldi, shu mahall uyor chekkasidan yana o'sha jungiang tuyasi minib kelayotganini ko'rib, esi chiqib ketdi. Bu safar jungiang juda yaqin kelib qolgandi, yurishi ham juda ildam. Nayman ona tezda Oqmoyaga minasolib, qochib qoldi. Biroq yaylovning narigi tomonidan yana bir jungiang tuyasi yo'rtirib onaning yo'lini kesib chiqdi, shunda Nayman ona tuyasida ularning o'rtasiga qarab soldi. Bedov tuyasi olg'a tomon yelday uchib ketdi, ortdan ta'qib o'shiga olgan jungianglar baqirishib-qiyqirishib, nayzalarini siltab, dag'dag'a qilganicha uni quvlab borishardi. Biroq Oqmoyaga yetmoq qayog'da? Ularining harsillab charchab qolgan tuyalari orqada qolib ketdi. Oqmoya bo'lsa tobora qizishib, nafasini roslab, Nayman onani o'limdan qutqarganicha, Sario'zak cho'llari bo'y-lab qushday uchib borardi.

G'azablangan jungianglar qaytib kelgandan so'ng man-qurti rosa do'pposlashganini ona bilmasdi. Ammo do'pposlashgani bilan manqurt nimani ham bilardi. U hadab bir gapni takorarlardi:

– U sening onang bo'laman, deb aytayapiti.

– Hech qanaqa onang emas u! Senda ona yo'q! Bu yoqqa nima uchun kelganini bilasanmi? Bilasanmi? Telpagingni sidirib olib, boshingni qaynoq suvga solgani kelgan! – deb battar qo'rqita boshlashdi jungianglar sho'rlik manqurti.

Bu so'zlarni eshitib, manqurtning qorantir yuzlari bo'z-day oqarib-ko'karib ketdi, qo'llari bilan telpagini changallab, bo'yini yelkalari orasiga qisib, xuddi yirtiqchiday ola-kula atrofga qaray boshladi.

– Sen qo'rmagim! Mana buni ushla! – deb jungiangning kattasi manqurtga o'q-yoy tutqazdi.

– Qani, mo'ljalga ol-chil! – kichik jungiang qalpog'ini osmonga oldi. O'q qalpog'ini teshib o'tdi. – O'h-ho, – ajablantdi qalpog' egasi. – Qo'lda xotira saqlanib qolibdi!

Uyasidan cho'chitib uchirib yuborilgan qush kabi Nayman ona Sario'zak cho'llarida oyog'i kuygan tovuqday yelib-yugurardi. Endi nima qilarni, nimaga umid bog'lashni bilmasdi. Jungianglar endi nima qilisharkin? O'tovdagi tuyalarni, manqurt o'g'lini ona yetib bora olmaydigan boshqa yerlarga, o'zlarining katta o'rdalariga yaqin joyga haydab ketisharmikin yoki uni qo'lga tushirish uchun payt poylab yotisharmikin? Ming xil xayollarga g'arq bo'lgan ona boshi qotib, pastqam yo'llardan o'tib borib, yaylovni sinchkovlik bilan kuzatarkan, haligi ikkita jungiang uyurni tashlab ketib borayotganini ko'rdi-da, quvonib ketdi. Ular o'ng-u-so'lga qaramasdan yonna-yon ketib borishardi. Nayman ona uzorq vaqt ko'z uzmay tirdi, qachonki ularning qorasi ko'rinnay qolgach, o'g'li tomon yo'l solib, qanday bo'lmasin, uni o'zi bilan birga olib ketmoqchi bo'ldi. U kim bo'lsa ham mayli, taqdir boshiga shunday qora kunlarni solib, dushmanlar shunchalik tabqir etgan ekan – bu uning aybi emas. Mayli, ovsar bo'lsa ham o'g'lini qullikda, asorada qoldirib ketmaydi. Bosqinchilar tutqun etilgan farzandlarimizni mayb-majruh qilganlarini, xo'r-lab, aqldan ozdirib, notavon bir ahvolga solib qo'yganlarini naymanlar ko'rib qo'ysin-da, g'azabdan, ornomsudan qo'lga qurol-yarog' o'lsin. Gap bosib olingan yerda emas. Yer hammaga yetib ortadi. Ammo-lekin, jungianglarning yovuzligini sira ham kechirib bo'lmaydi, ularning xiyonatkorligi yetti yot qo'shni bo'lib ham yashash mumkin emasligini ko'r-saib turibdi...

Ona o'g'li tomon borar ekan, shu kechasiyoq bu yerdan ketish zarurligini unga qanday qilib tushuntirsam ekan, deb yo'l-yo'lakay o'ylar edi.

Qosh qoraya boshladi. Qanchalab o'tgan va o'tishi lozim bo'lgan son-sanog'siz tunlar singari lojuvard-qizg'ish shu'laga chulg'angan tag'in bir tun soylıklar-u vodiylar uzra buyuk Sa-

rio'zak sahrosini bosib kela boshladi. Oqmo'ya katta uyur tomon bekasini yeldirib borardi. Botayotgan quyosh shu lalari qo'sh o'rkach o'rtasida o'tirib olgan ona qiyofasini baralla ko'rsatardi. U jiddiy tusda, yuzlarining qoni qoqchgan holda, hushyor tortib, xavotirlanib o'tirardi. Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g'am-g'ussali ko'zlariga esa Sario'zak xuftoni singari g'am-tashvish cho'kkan edi... Mana, u uyurga ham yetib borib, o'tlab yurgan tuyalar orasidan o'tib kuzata boshladi, biroq o'g'li ko'rinnasdi. Tuyasi esa tizginini chuvalantirib sudraganicha bermalol o'tlab yurardi... Nima bo'ldi ekan unga?

— Jo'lomon! Qulunim Jo'lomon, qanisan? — deb chaqira boshladi Nayman ona.

Qilt etgan jon ko'rinnadi, hech qanday ovoz eshutilmadi.

— Jo'lomon! Qayerdasan? Bu men, onang bo'laman! Qayerdasan?

Ona tashvish ichida atrofga olazarak boqar ekan, manqurt o'g'li tuyasining soyasiga berkinib, tizzalab o'tirganicha kammoni tarang tortib mo'ljalga olayotganini payqamay qoldi. Faqat u quyosh nuri qo'zini qamashtirayotgani sababli qulay vaziyatni kutayotgan edi.

— Jo'lomon! Bolaginam! — deb chaqirdi ona o'g'lini, biron hodisa yuz bermadimikan deb tashvishlanib. So'ng egarda o'tirganicha o'g'irilib qaragan edi, o'zini mo'ljalga olib turgan o'g'liga ko'zi tushib qoldi. Shu zahotiyoq Oqmo'yaning burib chap bermog'chi bo'lgan ham ediki, vizillab kelgan o'q uning chap qo'ltig'ining ostiga sanchildi. Ona: «O'lma!» deyishga ulgurdi, xolos.

Bu o'lim zarbasi edi. Nayman ona ikki bukildi va Oqmo'yaning bo'yiga yopishganicha shiliq etib tushdi. Lekin undan oldinroq boshidan oq ro'mol uchib ketib, havoda qushga aylanib chiqiray boshladi: «Kimning farzandisan, eslab ko'r! O'ting nima? O'tangning oti Do'nanboy! Do'nanboy! Do'nanboy!..»

O'shandan beri Sario'zak dashti tepasida har kuni kechasi Do'nanboy degan qush uchib yuradi, deyishadi. O'sha qush yo'lovchiga duch kelib qolsa: «Kimning farzandisan, eslab ko'r! Eslab ko'r! O'ting nima? O'tangning oti Do'nanboy, Do'nanboy,

Do'nanboy!..» deb sado chiqarar ekan.

Shundan beri Nayman ona dafn etilgan o'sha joy Sario'zak muzofotida Ona Bayit qabristoni — Onaizor makoni deb ataladi...

Oqmo'ya tuyasidan ko'p nasllar qoldi. Urg'ochilari o'ziga tortib, oqbo'sh tug'ilib, nayman eliga ma'lum va mashhur, norlari esa aksincha — hozirgi Qoronor Bo'ron singari qoradan kelgan, juda baquvvat bo'ladi.

Rahmatli Kazangap Qoronor Bo'ron oddiy tuyalardan emas, balki Nayman ona o'lgandan so'ng Sario'zak dashtida qolgan mashhur Oqmo'yaning naslidan tarqagan, deb har doim gapirib yurardi va buni doimo isbotlab berardi. Mana, endi uning jasadini Ona Bayit qabristoniga olib borishyapti.

Egidey Kazangapga juda ishonardi. Nega ishonmasin...

Qoronor Bo'ron Oqmo'yaning zotidan deyishga arziqlik. Qanchalab yaxshi-yomon kunlarni o'tkazishdi boshlaridan, hamisha jonlariga ora kirib keldi jonivor Qoronor... Biroq bir yomon tomoni — kuyikkan paytida yovuzlashadi. Har gal qish chillasi kirishi bilan Qoronor ham chilla ayozi kabi gutura boshlaydi. Ikki qish ketma-ket shunday bo'ldi. Shunday kezlarda u bir lahza tinchlik bermay joningdan bezor qilib yuboradi... Bir kuni Qoronor Edigeyni sharmanda qilishiga sal qoldi. Mabodo Qoronor, faraz qilaylik, hayvon bo'lmasdan boshqa bir esli-hushi mavjudot bo'lganda edimi, Edigey Bo'ron uning bu qitig'ini sira ham kechirmagan bo'lardi... Biroq qochirish muddati kelib moyatalab bo'lib qolgan hayvon bilan o'chakishishdan nima foyda? Gap bunda ham emas. Axir, odam degan hayvondan ham xafa bo'ladimi? Gapning kelishimida aytiladi-qo'yildi-da, bu shunchaki taqdir taqozosi, Qoronor Bo'ronda nima ayb? Bu voqeani Kazangap yaxshi bilardi, agar u aralashmaganida kim bilardi — yana boshiga ne kunlar tushishini.

1952-yil yozining oxirlari-yu, kuzining boshlarini Edigey Bo'ron yaxshi eslaydi. Edigeyning bashorati mo'jiza yangilig' yuzaga chiqdi. O'sha yili jazirama issiqdan jon saqlash ilinjida hatto Sario'zak kaltakesaklari ko'lanka izlab, xonadonlarning bo'sag'asigacha kelishgan edi. Biroq avgustning o'rtalariga kelib havo birdan o'zgardi, quyoshning dami qaytib, asta-sekin salqin tushdi – har holda kechalari tinchroq uxlash mumkin bo'lib qoldi. Bunday orombaxsh damlar Sario'zakda har yili bo'lmasa-da, ora-sira bo'lib turadi. Qishi hamisha bir xilda, qattiq keladi, yozi esa mo'tadil. Bunday hodisa, bir paytlar Yelizarov gapirib berganday, havo oqimining yuqori qatlamlaridagi katta siljishlar natijasi samo oqimlarining yo'nalishi o'zgarishi sababli sodir bo'ladi. Yelizarov odarda bunaqa narsalar xususida maroq ila so'zlardi. Uning aytishicha, osmon-u falakda tarann-tarann tarmoqlari, sohillari-yu oqimlariga ega bo'lgan ko'z ilg'amas ulkan daryolar uzluksiz harakatlanib, yer sharini go'yo yuvib turar ekan. Shamollar bilan qurtshab olingan yer shari o'z doirasi bo'ylab harakat qilarkan, mana shuning o'zi vaqt oqimi hisoblanarkan...

Yelizarovning gaplarini tinglash kishiga bir olam huzur bag'ishlardir. Bunday bag'ri keng kishilar kamdan kam uchraydi: Edigey Bo'ron uni behad hurmat qilgan, Yelizarov ham uni yuksak qadrlardi. Demak, shunday qilib, Sario'zak dashtlariga goh-goh orombaxsh etuvchi samoviy oqim avji saratonda nima uchundir pasayib, Himolay tog'lariga kelib uriladi. Himolay degani qayerda, uning qanchalik olistiligini Tangrining o'zi biladi, xolos. Ammo, baribir, u yer shari miqyosida unchalik olis emas. Havo oqimini Himolayga kelib uriladi-da, yana to'liqlanib ortiga qaytadi; ammo Hindiston bilan Pokistongacha yetib borolmaydi, u yerdagi issiqlik o'zgarimasdan, avvalgisicha qolaveradi. O'rtga qaytgan havo oqimi Sario'zakning tepasiga kelganda yoyiladi, chunki Sario'zak dashtligi dengiz singari ochiq bo'lib, daryo oqimini to'sa olmaydi... Shu tariqa o'sha oqim Himolaydan salqin shabada keltiradi...

O'sha yil yozining oxiri va kuzining boshlarida ajoyib kunlar, baribir, turib berdi. Sario'zakda yomg'ir yog'ishi juda tanqis hol. Har bir yoqgan yomg'irni uzoq yillar eslab yurishadi. Ayniqsa, o'sha kezlarda yoqgan yomg'irni Edigey Bo'ron umr bo'yi yodidan chiqarmaydi. Avvaliga sekin-asta qoplab kelgan bulut, kutilmaganda abadiy bo'm-bo'sh, misday qizib turgan Sario'zak osmonining qo'riga burkab olishning o'zi kishini tang qoldiradi. Bug'ga aylangan dimiqiruvchi havo nafasni qisa boshlaydi. Edigey o'sha kuni vagonlarni tirkovchi bo'lib ishlardi.

Bekating boshi berk yo'lida shag'al va yangi keltirilgan qarg'ay shpallaridan bo'shatilgan uchta platforma turardi. Yuklarni kechagi kunyoq tushirib olishgan. Odatdagiday, oldin biron ishni zudlik bilan bajarish talab qilinadi, keyinchalik esa unchalik zarur emasligi ma'lum bo'ladi. Yukdan bo'shagan platformalar yana bir kun bekor turdi. Yuklarni tushirishga esa hamma yopirilib kirishgan edi: Kazangap, Abutolib, Zarifa, Ukkubola. Bo'key – temir yo'ldagilarning barchasi bu dolzarb ishga safarbar etilgan edi. U vaqtlar barcha yumushlar qo'lida bajarilardi. Eh-he, o'sha kunlar quyosh tepadan olov puktardi. Xuddi o'cha-kishganday yuklarning yana shunday jaziramada kelganini aytmasizmi. Bajarish kerak deb aytildimi, demak, bajarish kerak. Ular jonlarini jabboriga berib ishlashdi. Ukkubola ko'ngli behuzur bo'lib, qayt qila boshladi. U qatronlangan shpallarning issiq hidini ko'tara olmagach, uyga jo'natishdi. So'ng uyda qolib, issiqdan qiyinalib kelgan bolalarning rahmini yeb, boshqa ayollarga ham javob berib yuborishdi. Faqat erkaklarga qolib, holdan to'yib bo'lsa-da, ishni oxirigacha yetkazishdi.

Ertasi – yomg'ir yoqgan kuni, bo'sh vagonlar yo'l-lakay Qumbelga kelayotgan parovoz bilan qaytdi. Nari-beri haydab, parovozning quyruq'ini to vagonlarga taqab tirkaguncha

¹ Platforma (*fransuzcha*: plate-forme – tekis, yassi shakli; maydoncha) – temir yo'l stansiyalarida passajilarning poyezdga chiqish yoki tushish, yuk tushirish yoki o'tirish uchun temir yo'lga nisbatan balandroq qilib ishlangan uzun sahni, maydoncha; 2) idish-gopisiz yulkar, konteynerlar tashiladigan, yon devorlari uchta baland bo'lmagan, usti ochiq yuk vagoni (*bu yerda shu ma'noda*); 3) biror siyosiy partiya, ijtimoiy tashkilot yoki arbobning dunyoyurishi, maslaji, tugun yo'l, ish, harakat dasturi; 4) uchta katta bo'lmagan stansiya.

askarlarning hammomdagi singari nafasni dimiqiruvchi havodan Edigeyning joni halqumiga keldi. Bundan ko'ra quyosh jazirasida ishlash ma'qul edi. Yana, aksiga olganday, mashinistning bir landovuri to'g'ri kelib qoldi – achchiq ichakday vaqtni cho'zgani-cho'zgan. Oxiri, vagon ostidan uch bukilib, u yoddan bu yodga o'tib yurgan Edigey jahl ustida mashinistni chunon bo'ralab so'kdi. Ammo mashinist ham javob qaytardi. Unga ham parovoz o'txonasi oldida turib ishlash oson emas-da. Ikkalasi issiqdan es-hushini yo'qotayozgan edi. Xayriyat, yuk tashuvchi tarkib jo'nab ketdi.

Shu mahal birdaniga jala quyib berdi. Quyganda ham shunaga quydiki, go'yo osmonning tubi teshilganday edi. Qanchadan beri yog'magan yomg'ir bir yo'la xumordan chiqmoqchidek edi. Yer larzaga keldi. Bir zunda hamma yuq ko'loblar-u putakchalarga to'lib ketdi. Yomg'ir tobora quturib, dahshatli ravishda yog'ardi. Agar o'sha gap rost bo'lsa, Himolayning mangu muzliklaridan kelayotgan salqin namlik Sario'zakning issiq dashtlariga yomg'ir bo'lib quyilayotgan edi. Himolay deganlari ham bor bo'lsin! Qudratingdan o'rgilay! Edigey uyi tomon yugurib qoldi. Nega ekanini o'zi ham bilmasdi. Shunchaki taomlilga. Yomg'irda qolgan kishi odatda uyiga yoki biron panaroq joyga chopadi-ku. Bo'lmasa bunaqa yomg'irdan qochib qutulishga na hojat? U buni keyin tushundi, Qutiboyevlarning barchasi – uylari oldiga chiqqan Abutolib, Zarifa, ikkala o'g'li Doyul va Ernaklarning yomg'irda bir-birlari bilan qo'l ushlashib, sakrashib, o'zinga tushayotganlarini ko'rib to'xtab qoldi. Bu manzara Edigeyni hayratlantirdi. Edigey ularning yomg'ir yog'ishidan quvonib, sevinib o'ynayotganlaridan emas, boshqa narsadan hayratlangan edi, ya'ni yomg'ir yog'ish oldidan ishdan qaytayotgan Abutolib bilan Zarifaning temir izlaridan nardan-beri hatlab o'tishib, uy tomon shoshilayotganlarini ko'rgan edi. Aslida ular yomg'ir yog'ishini butun oilasi, bola-chaqasi bilan birgalikda kutib olmoqchi bo'lishgan ekan. Bu esa Edigeyning xayoliga ham kelmagan edi.

Ular bo'lsa xuddi Orol dengiziga tasodifan uchib kelib qolgan g'ozlar singari jala selida cho'milishib, o'zinga tushishar,

g'ala-g'ovur ko'tarishardi. Yomg'ir tabiat in'om etgan qutbaraka, katta bir bayram edi.

Sario'zakda yurib, yomg'irni qo'msab, toqatlari toq bo'lgan edi-da. Ularning «Bo'ronli» bekatidagi yilt etgan bunday baxti daqiqalarni shunchalik shod-xurramlik bilan qarshilayotganlarini ko'rib turgan Edigeyning ham qalbi quvondi, ham o'ksidi, ham kulgisi qistadi, ham achindi.

– Edigey! Qani biz bilan! – deb baqirdi Abutolib savalab yog'ayotgan yomg'ir aralash yuzuvchilarday qo'l siltab.

O'z navbatida bolalar quvonganidan u tomon yugurib qolishdi.

– Edigey amaki!

Endigina uch yoshga qadam qo'ygan, Edigey juda yaxshi ko'radigan Ernak qo'llarini keng yozib, og'zini katta ochib yomg'irdan enikkancha Edigey sari chopib kelardi. Cheksiz quvonchdan ko'zlari chagnab, g'ayrati ichiga sig'masdi. Edigey bolakayni darhol qo'lligidan ko'tarib oldi-da, aylanitra boshladi. Biroq bolaning quvonchiga sherik bo'lgan Edigey so'ng nima qilarni bilmay g'angib qoldi. Edigey ularning oilaviy bayramlariga qo'shilayin, degan xayolda emasdi. Biroq shu mahal burchakdan qiy-chuv ko'tarishib qizlari – Saula bilan Sharofalar Qutiboyevlarning shovqin-suronini eshitib yugurib chiqishdi. Qizlar baxtiyorligidan: «Ota, yuring, choparniz!» – deya qo'llidan ushlab tortqilashardi. Ularning qisrovi otani noqulay ahvoldan qutqazganday bo'ldi. Endi hammasi birgalashib, tinimsiz jala ostida rosa o'yin tushishdi.

Edigey bolakayni, to's-to'polon ichida yiqilib, og'ziga suv kirmasin, deb xavfsiragancha qo'llidan tushirmasdi. Abutolib bo'lsa uning kenja qizi Sharofatni yelkasiga mingazib olgan edi. Shu taxlit bolalarning ko'nglini ko'tarib, dilxushlik qilib ancha chopib yurishdi. Ernak Edigeyning qo'llida talpinar, ovozi boricha qichqirar, og'iz-burunlariga suv kirganda darhol Edigeyni quchgancha yuzlarini yashirar – bu esa juda ko'ngilli edi. Ernakning amakisi bilan bunchalik inoqlashib ketganidan mamnun bo'lgan Abutolib bilan, Zarifa ularga minnadorchilik bilan zavqlanib qarab qo'yishardi. Buni paytagan Edigey ich-ichidan

ruhlanib ketdi. Qutiboyevlar boshlagan bu olatasir shodiyonadan uning qizlarining ham ko'ngli chog' edi. Shu g'ala-g'ovur ichida bexosdan Edigey Zarifa naqadar lafofli ekanini payqab qoldi. Yomg'ir Zarifaning qop-qora sochlarini yuzlari, bo'yini, yelkalari uzra yozib tarar, boshidan to oyog'igacha sizib tushayotgan suv ko'yagini badaniga yopishtirib, miqti gavdasini, kifti, qo'llarini bo'rttirib, sonlari-yu yalang oyog'larining boldirlarigacha ajratib ko'rsatar edi. Ko'zlari esa baxtiyorlikdan nur sochib chaqnab, kumush tishlari tobora yargirar edi.

Sario'zakda yomg'ir jala bo'lib quyiladi, qori esa astasekin erib, yerga singib ketadi. Yomg'ir qanaqa yog'ishidan qat'i nazar, kaftidagi simob singari to'xtamasdan, shiddat bilan shovqin-suron solib keladi-da, xuddi suv sepganday bir zumda jarliklar sari ogadi-ketadi. Jala boshlangandan so'ng oradan sal o'tmay ariqlar to'lib to'liqlanib, ko'piklangancha tobora shiddat bilan oga boshlaydi. Shunda bo'ronliliklar ariq bo'ylab chopishib, sakrashib, jom va toslarini suvga tashlashib, qiyqirib o'ynashardi.

Yomg'ir hamon avjida. Ular suzishga berilib ketib, tosgayliqlar ortidan quvlab boraverib bekating boshlanishiga, temir yo'l ko'tarmasining shundoqgina yonboshiga kelib qolishgan edi. Shu mahal «Bo'ronli»dan yo'lovchi poyezdi o'tib borayotgan edi. Poyezdning lang ochib qo'yilgan eshik va dera-zalaridan to yarim beligacha chiqarib olgan yo'lovchilar bu bechora sahroyi afandilardan ko'zlarini uzmay kulib borishardi.

Ular allanimalar deb qiyqirishar: «Ey, cho'kib ket-manglar!», – deganday ichak uzilgudek qah-qah urib kulishar, hushtak chalishar edi. «Bo'ronli»liklarning bu xatti-harakatlari ularga juda g'alati bo'lib tuyulgan bo'lsa kerak. Yo'lovchilar bir-ikki kundan keyin, uy-uyilariga yetib olgach, subatdoshlarini kuldirish uchun, balki, ko'rgan-kechirganlarini hikoya qilib berishar. Sal vaqt o'tmay, poyezd jalada yuvilgancha o'tdi ketdi.

Zarifa yig'layotgandek bo'lib tuyulmaganda edi, Edigey bularni o'ylab ham ovora bo'lmadi. Chelaklab quyayotgan yomg'ir kishining yuz-ko'zidan oqib turganda, u yig'lab turibdimi, yo'qmi – bilishi qiyin. Har nechuk Zarifa yig'layotgan

edi. U o'zini cheksiz quvonchdan qah-qah urib, qiyqirib kulayotgandek ko'rsatmoqchi bo'lardi, aslida yig'layotgan edi. Abutolib xavotirlanib xotinining qo'lini oldi:

– Senga nima bo'ldi? Mazang qochdimi? Yur, uyga boramiz.

– Yo'g'-e, shunchaki hiqichog' tutyapti, – javob qildi Zarifa.

Ular bexos yog'ib qolgan yomg'ir saxovatidan bahramand bo'lib qolishga oshiqib, qaytadan bolalarni o'ynatishga kirishdi. Biroq Edigeyning yuragi orgasiga tortib ketdi. Bu yerdan, bu odamlardan yitroqda boshqacha turmush tarzi mavjud ekanini, u yerda yomg'ir yog'ishi oddiy bir hodisa bo'lib, odamlari toza va tiniq suvda cho'milishlarini, bolalar uchun esa o'zgacha shart-sharoit, o'zgacha o'yin-kulgi, o'zgacha g'amxo'rlik muhayyo etilganini anglab, bularga qanchalik og'irligini tasavvurdan o'tkazdi... Biroq bolalarning ko'ngli ko'tarisin, o'yin-kulgi qilayotgan Abutolib bilan Zarifa xijolatga qolmasin, deb ular qanchalik shodlansa, Edigey ham shunchalik shodlanar edi...

Bolalar ham, kattalar ham rosa yayrab, mirqib o'ynashardi, yomg'ir esa hamon timmasdi. Nihoyat, hammalari uy-uyilariga yugurtishdi. Shunda Edigey bolalari bilan birga yonna-yon chopib ketayotgan Qutiboyevlarning ortidan xayrixohlik bilan qarab turdi. Hamma shalabbo bo'ldi. Bir kungina bo'lsa-da, Sario'zakka baxt kulib boqgan edi!

Kenja qizalog'ini ko'tarib, kattasini yetaklab olgancha, ostonada Edigey paydo bo'lganda ularning turqini ko'rgan Ukkubola hang-u mang bo'lib, darhol kaftlarini bir-biriga urib qo'ydi.

– Voy-bo'y, sizlarga nima bo'ldi? Kimlarga o'xshab ketdilaring?

– Qo'rqma, onasi, – deya Edigey uni tinchlantirmoqchi bo'ldi-yu, o'zi kulib yubordi. – Nor tuya mast bo'lsa, bo'taloqlari bilan o'ynashar, deyishadi.

– Ko'rib turtiman, – deya ta'na qildi Ukkubola kulimsirab. – Qani, suvga tushgan tovuqqa o'xshab turmasdan tezroq yechina qolinglar.

Yomg'ir tindi, biroq u hali olisdan eshitiilib turgan mo-maqaldir oq ovozi-ga qaraganda, Sario'zakning chekka qismlariga tun bo'yi yog'ib chiqqanga o'xshardi. Uyg'onib ketgan Edigey ko'zlarini yirib-yirib bo'lsa-da, dashingning turi burchaklarida yarg-yurg etib chaqnayotgan yashin nurlarining derazalaridagi aksini ko'rib qolardi.

O'sha tun Edigey Bo'ron tush ko'rib chiqdi. Tushida u yana frontda, o'q yomg'iri ostida yotgan emish. Biroq negadir snaryadlar unsiz kelib tushar, unsiz portlab, ko'kka ko'tarilgan quyuni tuproq qalqigancha osmonda muallaq turib qolar va yana qalqigancha vazminlik bilan sekin-asta yeriga qaytib tushar edi. Shunday portlashlardan birida o'zi ham osmon-u falakka uchib ketdi va muallaq holda sekin-asta qulay boshladi, qulaganda ham jon talvasasida cheksiz bo'shliq sari qulab borardi... So'ng u shiddatli hujum sari yugurib ketdi, hujumga o'tgan kulrang shinelli askarlar juda ko'pchilik edi, biroq ularning yuz-ko'z-larini ko'rib bo'lmadi. Go'yo yolg'iz shinellargina qo'llarida avtomatlari bilan chopib borayotganday. Bir mahal shinellar «aura» deb qiyqirib qolishgan ham ediki, Edigeyning ro'parasida yomg'irga botib kulib turgan Zarifa paydo bo'ldi. Tang qoldiradigan bir hol. Chit ko'ylagi badaniga jiqqa yopishgan, yozig'lik sochlari-yu yuzlaridan yomg'ir quyilar, o'zi bo'lsa tinim bilmay kular edi. Edigeyga esa kechikish bo'lmaydi, chunki u hujum qilmayotibdi. Shunda: «Nega munchalik kulyapsan, Zarifa? Bu yaxshilikka emas», – dedi Edigey. «Kulayotganim yo'q, yig'la-yapman», – dedi Zarifa va savalayotgan yomg'ir ostida yana kulaverdi...

Ko'rgan tushini ertasi kuni u Abuto'lib bilan Zarifaga aytib bermog'chi bo'ldi. Ammo tushining tahlili unchalik o'ziga ma'qul bo'lmagani uchun fikridan qaytdi. Ularni behudaga xafa qilgisi kelmadi.

Bu katta yog'indan so'ng Sario'zak dastida issiq qayta boshladi. Kazangapning ta'biri bilan aytganda, endi yozning haqi bitgan edi. Xuddi shu paytdan Sario'zak kuzining rohatbaxsh damlari boshlandi. «Bo'ronli»ning bolalari ham toliqtiruvchi jazirmadan qutulib, qo'ng'iroqday ovozlari yana chiqib qoldi.

Shu mahal Qumbel bekaidan bizga Qizil O'rdaning qovun-tarvuzlari keltirildi, ulushlarini olib ketasizlarni yoki berib yuboraylikmi, deb xabar qilishdi. Bu Edigeyga yaxshi bahona bo'ldi. U o'zimiz borib tanlab olamiz, bo'lmasa, qayog'dagi yaroqsiz xom-xatalarni yuborishlari mumkin, deb bekat boshlig'ini ko'ndirdi. Ma'qul, Qutitboyevlarni ham birga olinglar, yaxshisidan tanlanglar, – dedi boshliq. Edigeyga xuddi shu kerak edi. U Abuto'lib va Zarifa ikkovini bolalari bilan bir kunga bo'lsa ham «Bo'ronli»dan olib chiqib, shamollatib kelishni niyat qilgan edi. Qolaversa, o'zlari ham biroz aylanib kelishadi-ku. Shu tariqa, ikki oila bola-chaqalari bilan birga erta azonda Qumbelga borayotgan yo'llovchi poyezdga tushib jo'nab qolishdi. Hammalari kiyinishgan, yasashgan edi. Bolalarning suyuqani aytmaysizmi? Ertaklarda tasvirlangan g'aroyib bir o'lkaga borayotganday xursandchilikdan uchib-qo'nib, yo'l-yo'lakay savollarni yog'dirishardi: u yerda daraxtlar o'sadimi? O'sadi. U yer-ning ham o'l-o'lanlari yam-yashilmi? Yam-yashil. Hatto gullar ham bormi? Uylari kattami, ko'chalaridan mashinalar g'izillab o'tib turadimi? Qovun-tarvuz istaganingcha ko'pmi? Muzqay-mog bormi? Dengiz-chi?..

Shamol yuk vagoniga kelib urlardi. Vagon eshigining shundog'ina tagida Abuto'lib bilan Edigey bo'sh yashiklar ustida o'tirgan bo'lishlariga qaramay, bolalar yiqilib tushmasin uchun har ehtimolga qarshi eshik taxta bilan to'sib, mixlab qo'yilgan edi. Qiya ochiq eshikdan yojimli havo kirib turardi. Ikki erkak u yod bu yoddan subbatlashib borishar, ora-sira bolalarning savollariga ham javob berishardi. Edigey Bo'ron birga borayotganlaridan, havoning kulib turganidan, bolalarning sevinib quv-nishganidan behad mamnun edi. Hammasidan ham Abuto'lib bilan Zarifaning quvnoq chehralarini ko'rib, o'zini qushdek yengil his etdi. Ular g'am-tashvishdan, ruhiy tushkunlikdan biroz bo'lsa-da, ozod bo'lib erkin nafas olishyapti-ku. Balki, Abuto'lib-ga Sario'zakda qo'lingdan kelguncha, bardoshing yetguncha yashayver, deb ruhsat etishar. Eh, xudoyim, qani endi shunday bo'lsa edi. Zarifa bilan Ukkubolaning turmush ikit-chikirlari haqida dildan subbatlashib o'tirishganini ko'rishning o'zi

maroqli. Ular shu damda o'zgacha baxiyor edilar. Shunday ham bo'lishi kerak. Inson uchun eng keraqi shu... Edigei Qutiboyevlarning boshqa yo'rig'i bo'lmagani uchun ham «Bo'ronli»ning hayotiga bir amallab ko'nikib, o'troqlashib qolishlarini va boshdan o'tigan barcha ko'ngilsizliklarni esdan chiqarib yuborishlarini jon-dildan istardi. Ular asabga teguvchi huda-behuda gaplarni qo'zg'amay, bir-birovlari bilan nima demogchi ekanliklarini darhol anglab olishar edi. Abutolib u bilan yonna-yon, yelkama-yelka o'tirib borayotgani, unga umid-ishonch bilan qarashi ham Edigeyni mamnun qilgan edi. Edigei Abutolibning aqlli-hushli, kamsuqumligi uchun, hammadan ham ko'ra uyga – oilaga mehr qo'ygani, uni deb yashab, barcha qiyinchiliklarga bardosh berib kelgani va undan madad olayotgani uchun ham qadrlardi.

Abutolibning so'zlarini e'tibor berib tinglab, Edigei insonning o'zgalarga qilgan eng katta yaxshiligi o'z oilasida munosib farzandlarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat ekan, degan xulosaga keldi. Tarbiyalaganda ham kimningdir yordami bilan emas, balki shaxsan o'zi kun sayin, soat sayin butun qalbini baxsh etib, iloji boricha ular bilan birga bo'lish qanchalik muqaddas ish ekanini tushunib yetdi.

E-he, bu Sobitjon degani qayerlarda o'qimadi, deysiz: internat ham, institut ham, turli malaka oshirish kurslari ham qolmadi. Bechora Kazangap butun topgan-tutganini unga sarfladi. Ishqilib, shaharda tarbiya topsin, boshqalardan yomon yashamasin, dedi. Oxir-oqibat nima bo'lib chiqdi? Bilimi-ku boshqalardan qolishmaydi, biroq hech kimga naf tegmaydigan yaroqsiz odam bo'lib chiqdi. O'shanda ular qovun-tarvuz olib kelish uchun Qumbelga borayotganlarida Edigeyning o'ylagan o'yi shu bo'ldi: hamonki boshqa bir yaxshiroq yo'li topilmay turgan ekan, unda Abutolib Qutiboyevning «Bo'ronli»ga yaxshiroq o'rnatib olishiga nima yetisin. Xo'jaligini tiklab oladi, mol-hol qiladi, so'ng dashtda farzandlarini qo'ldan kelguncha tarbiyalab voyaga yetkazadi. To'g'ri, unga aql-idrok o'rgatmogchi emas, ammo Abutolibning ham, so'zining avzoyiga qaraganda, shu fikrda ekanini fahmladi. Kartoshkani qanday g'amlab olish kerakligini,

xotini bilan bolalariga qayerdan kigiz etik izlashi zarurligini yo'lakay so'rab bordi. O'zim ham qishni etikchan o'tkazaman, deydi. U yana Qumbelda kutubxona bormi, bekatchaga olib ketish uchun kitob beradimi, deb ham so'radi.

O'sha kuni kechgurun ular ORSdan o'zlariga ajratilgan qovun-tarvuzlarni olib, yana yo'lovchi poyezdda uyga qaytib kelishdi. Bolalar charchaganiga qaramay, ko'ngillari chog' edi. Qumbelni ham ko'rishdi, o'yinchoqlar xarid qilishdi, muzqaymoq veyishdi, xullas, yayrab kelishdi. Aytganday, bekat sataroshxonasida biroq ko'ngilsiz voqea sodir bo'ldi. Bolalarning sochini oldirib ketaylik, deb kirishgan edi, Ermakning navbati kelganda hamma yoqni boshiga ko'tarib, shunaga yig'lab berdiki, qani endi biron kimsa uni ko'ndira olsa. Hammamni charchatdi. U qo'rqar, yulqinib, qichqirib, otasini chaqirardi. Abutolib shu mahal yonlaridagi do'konga chiqib ketgan edi. Zarifa nima qilarni bilmay, xijolat tortib qizarib-bo'zarib ketdi. Sochlari juda ham chiroyli, jingalak bo'lgani uchun ham tug'ilganidan buyon o'z erkiga qo'yib qo'ydik, oldirishga ko'zimiz qiyimadi, deb o'zini oqlaganday bo'ldi, bechora. Haqiqatan ham, Ermakning sochlari oyisinkiga o'xshab g'oyatda ko'rkam, qalin va qo'n-g'iroqli, o'zi ham Zarifaga tortgan edi. Boshi yuvilib, jingalak sochlari tarab qo'yilgandan so'ng chiroyiga qarab to'ymasdi kishi. Nihoyat, hiyla ishlatishgacha borishdi. Ukkubola Saulaning sochini qirg'atmogchi bo'ldi: mana ko'ryapsanmi, qiz bola bo'lsayam qo'rqmay o'tiribdi, dedi. Ermak sal tinchlanganday bo'ldi. Biroq satarosh qo'lga mashinkasini olishi bilanog yana qiy-chuv ko'tarib sapchiy boshladi. Shu tobda eshikdan birdan Abutolib kirib qoldi. Ermak otasining quchoq'iga otildi. Otasi uni ko'tarib olib, bag'riga bosdi. Bolani ortiqcha qiyinash foydasiz ekanini tushundi.

– Kechirasiz, – dedi u sataroshga. – Boshqa safar kelar-miz. Belni makkam bog'lab olmasak bo'lmaydiganiga o'xshaydi, o'shanda... Hozircha yura tursin, shoshilmasa ham bo'ladi, yana yo'limiz tushib qolar...

«Konvensiya» aviabardori bortidagi alohida vakolatga ega bo'lgan komissiyalarning favqulodda kengashi davomida

ikkala tomonning roziligi bilan «Partiet» samoviy bekatiga yana bir kodlangan radiogramma jo'natildi. «Partiet» u radiogrammani g'ayrizaminiy taraqqiyotga erishgan sayyoradagi 1-2 va 2-1 partiet-fazogirlarga yetkazishi mo'ljallangan edi. Radiogrammada Qo'shmarboshning maxsus ko'rsatmasisiz biron bir harakat qilish mumkin emasligi aytili.

Kengash avvalgidek yopiq holda olib borilardi. «Kovensiya» aviabardori odadagidek o'z o'rnida, Tinch okeanidagi Aleut orollarining janubiy qismida – San Fransisko bilan Vladivostokning qoq o'rtasida turardi.

Olam olam bo'lganidan beri Galaktikalararo buyuk voqea sodir bo'lganini – Ega yoritqich tizimida g'ayrizaminiy taraqqiyotga erishgan sayyora kashf etilganini va undan ongli mavjudotlar yerliklar bilan aloqa o'rnatishni taklif etganliklarini hali hech kim bilmasdi.

Favqulodda kengash g'atnashchilari kutilmaganda bu muhim muammo yuzasidan, nimanidir yoqlab, qarshi chiqib, bahslashib yotgan edilar. Har bir komissiya a'zosiining stoli ustida yordamchi materiallar bilan birga 1-2 va 2-1 partiet-fazogirlar tomonidan yuborilgan ma'lumotlarning to'la matnari turardi. Hujjatlardagi har bir filr, har bir so'z o'rganib chiqildi. To'g'ay-to'sh sayyorasidagi ongli hayot qurilishiga doir keltirilgan har bir detal fakt sifatida, eng avvalo, yerdagi taraqqiyot erishgan tajribaga asoslangan holda, shuningdek sayyoraning yetakchi mam-lakatlarning manfaatlariga mos kelishi yoki kelmasligi nuqtai nazaridan yondashilgan holda qarab chiqildi. Bunday muammo-larga hozirga qadar hech kim duch kelmagan edi. Yana buning ustiga masalani zudlik bilan hal etish talab etilardi...

Tinch okeani avvalgidek sekin to'liqlanib turardi...

Qutitboyevlar oilasi Sario'zak yozining dahshatli jazira-masiga bardosh berganidan so'ng, ya'ni ko'ch-ko'ronini ko'ta-rib, umidsizlik bilan «Bo'ronli»dan boshni oqqan yoqqa ketib qolmaganidan keyin bo'ronliklar, endi ular shu yerda qolib hozircha yashab turishadi, deb ishonch hosil qilishdi. Abutolib Qutitboyev birmuncha dadillanib, «Bo'ronli»ning og'ir yumush-lariga biroz ko'nikib qolgan edi. Ha, albatta, bekatchaning

turmush sharoitini o'z ko'zi bilan ko'rди, o'rgandi. Har qanday boshqa odam singari «Bo'ronli» dunyoning qarg'ishiga uchragan joy ekan, deyishga u haqli edi. Ichiladigan suv bir yoqqa tursin, hatto boshqa ehtiyojlarga ishlatiladigan suv ham allaqayerlardan poyezdda sistemalab keltirilsa, bunga nima ham deyish mumkin. Kimda-kim haqiqiy toza suv ichgisi kelib qolsa, albatta, tuyani jabdqlab, meshlarni g'amlab, tupkaning tagidagi quduqqa borib kelishi kerak. Shunday ishga Edigey bilan Kazangapdan boshqa kim ham jur'at eta olardi, deysiz.

Darvoqe, bu ahvol ellik ikkinchi yildan to oltmishinchi yillargacha, qo'yinki, bekatga elektr-shamol yordamida suv tortgich o'rnatilgunga qadar davom etdi. Biroq u kezlarda bunga hali hech kim umid ham qilmagan edi. Bularning hammasidan qat'i nazar, Abutolib hech qachon «Bo'ronli» bekatini ham, Sario'zak dastini ham la'natlab so'kkan emas.

Yomoni yomonligicha, yaxshini yaxshiligicha qabul qilib yuravergan. Axir, bu yer hech kim va hech narsa oldida gunohkor emas-ku. Yashaydimi, yo'qmi – buni insonning o'zi hal etishi kerak...

Shunaga yerlarda ham odamlar, qanday bo'lmasin, yax-shitroq yashashning harakatida edi. Qutitboyevlar boshqa yerlar-ga borish niyatidan voz kechib, «Bo'ronli»da qolib yashashga qat'iy qaror qilganlaridan so'ng, tashvishlari yana ko'paydi: mustahkam o'rnatib olish uchun uy-joy deganday yumushlarga vaqt yetishmasdi. Kundalik navbatchilik ishlarini ado etishi ke-rak, shundan keyin ham tashvishlari yetib ortardi. Pechkani qayta qurish, eshiklarga mato qoqish, deraza romlarini sozlash kabi qishga tayyorgarlik ishlari bilan olishib, Abutolibning shahiti ancha qaytib qoldi. Qolaversa, uning bunaga ishlarga aytarli uquvi yo'q edi. Shuning uchun ham Edigey uni yolg'iz qoldir-masdan asbob-uskuna va materiallar bilan yordam berib turdi.

Bostirmasi yonidan yerto'la qaziy boshlaganlarida Kazangap ham qarab turmadi. Uchalasi birgalashib kichikroq yerto'la qa-zishib, ustini shpallar bilan yopib, so'ng poxol to'shab, uning ustiga esa lo'mboz yolgizib, shuvab qo'yishdi. Nihoyat, birov-ning moli kelib qulab tushmasin uchun tomchasini ham juda

mustahkam qilib qurishdi. Uchalasi qaysi ish bilan band bo'lganmasin, Abutolibning o'g'illari ularning atrofida girdikapalak edi. Ba'zan ishga xalal berish ham, aslida kishiga allaganay quvnoqlik va o'zgacha huzur-halovat baxsh etar ekan. Edige'y bilan Kazangap Abutolibning uy-ro'zg'or ishlariga yordamlashish yuzasidan maslahatlashib, bu haqda ma'lum qarorga kelishganday bo'lishdi. Kelasi bahorga chiqib unga sog'in tuya ajratishni lozim ko'rishdi. Muhimi – u sog'ishni o'rganib olsa bo'lgani. Axir, bu sigir emas, uni turib sog'ish kerak. Oritdan dalama-dala yurish kerak, va eng asosiysi, yeliniga ko'z-quloq bo'lib turish kerak: vaqtida emizib, vaqtida ajratib turmasa bo'lmaydi. Har qalay, tashvishi oz emas. Yo'lini bilish kerak...

Hammadan ham Edige'y Bo'ronni quvontirgan narsa Abutolibning xo'jalik ishlariga kirishib ketgani yoki Zarifa bilan birga ikkala oila farzandlarini har kuni o'qish-yozishga, rasm chizishga o'rgatishlariga emas, balki «Bo'ronli»ni tark etmasdan, uning og'ir sharoitiga bardosh berish, o'zining ham bilimini oshirayotgani bo'ldi. Axir, Abutolib Qutiboyev o'qimishli kishi edi-da. Kitob o'qish, nimalarnidir yozish-chizish unga suv bilan havoddek zarur edi. Shunday do'sti bo'lgandan Edige'y ich-ichidan faxrlanardi. Shu sababli ham yuragi unga talpinib turardi. Bu tomonlarga serqatnov bo'lib turgan Sario'zak geologi Yelizarov bilan uning do'stlashib qolishi ham bejiz emasdi. Ummun, Edige'y ko'pni ko'rgan, ko'pni bilgan odamlarni, olimlarni hurmat qilardi. Abutolib ham ko'p narsalarni bilardi, lekin u huda-behuda gapirishni o'ziga ep ko'rmasdi. Ammo bir kuni ularning jiddiy suhbatlashib olishiga payt ham bo'ldi.

Kechqurun yo'l ishlardan qaytib kelishardi. O'sha kuni yettinchi kilometrda yo'l yoqasiga qor to'suvchi g'ov o'rnatishdi, chunki qish fasli u yerda hamisha bo'ron ko'tarilib, yo'lni qor bosib qolardi. Kuz endi boshlanayotganiga qaramay, qishning g'amini hozirdanoq ko'rib qo'ymasa bo'lmaydi. Shunday qilib, ikkalasi sekin kelishayotgan edi. Nim qorong'u oqshomda bamaylixotir suhbatlashib o'zgacha gashli edi: Shunday oydin oqshomlarda sokinlik og'ushiga cho'mgan Sario'zak kengliklari go'yo qayiqda suzib borayotib Orol dengizining tubini kuzatgan-

day quyosh shafag'ida elas-elas ko'zga tashlanardi.

– Abu deymen, kechalari qachon o'tmay, doimo deraza oldida o'tirganingni ko'rman. Allanimalarni yozasammi yoki o'qib o'tirasammi, yoningda chiroy o'chmaydi? – dedi Edige'y.

– Shunchaki, odatdagi ishlar-da, – mamnunlik bilan javob berdi Abutolib belkuragini u yelkasidan bu yelkasiga olarkan. – Yozuv stolim yo'q. Zumrashalar uyquga ketishi bilan oq Zarifa nimandir o'qishga tutinadi, men bo'lsam unutilib ketmasin, deb xotiranda qolgan ba'zi bir narsalarni – urushni, eng muhimi Yugoslaviyada o'tgan kunlarimni yozib o'tiraman. Yil sayin ular tobora uzozlashib ketyapti. – U biroz jimib qoldi-da, yana davom etdi: – Bolalarim uchun nima qilsam ekan, deb o'ylab o'yimga yetmayman. Yedirish-ichirish, tarbiya qilish – bular o'z yo'lliga. Qo'lindan kelguncha harakat qilaman. Boshindan shunchalik og'ir kunlarni o'tkazdimki, xudo ko'rsatmasin, boshqa birov buni yuz yildayam ko'rib ulgurmasa kerak. Hozir ham yashab turibman. Demak, behudaga hayot kechirmabman, ehtimol taqdir menga qolganda shafqat qilgandir, balki, u bolalarimga dilingdagini aytib qol, deyayotgandir. Modomiki, ularni dunyoga keltirgan ekanman, farzandlarim oldida hisob berishim kerak, deb o'ylayman. Hamma uchun umumiy haqiqat bor, albatta. Ammo, shu bilan birga, har bir kishi o'z tushunchasiga ega. U esa insonning o'zi bilan birga ketadi. Hayot bilan o'lim o'rtasidagi qonli kurash girdobidan o'tayotganingda u seni yuz martalab o'z komiga tortib ketishi mumkin. Agar sen undan tirik chiqsang, yaxshilik bilan yomonlikning va haqiqat bilan nohaqlikning mohiyatini chuqurroq anglab olasan...

– Shoshmay tur, bir narsaga tushunmayapman. – Edige'y ajablantib uning so'zini bo'ldi. – Haq gapni aytayotganga o'xshaysan, biroq bolalaring hali mishig'ini eplay olmaydi, hatto sartaroshning mashinkasidan cho'chiydi, ular nimani ham tushunardi, deysan?

– Shuning uchun ham yozayotirman-da. Ularga saqlab qo'ymoqchiman. Kim biliadi yana qancha yashashimni. Ovsarga o'xshab, sal bo'lmasa haligi poyezdning ostiga tushib qolayozganimni uch kundan beri o'ylab, o'zimni-o'zim so'kaman. Agar

Kazangap yo'ldan turtib chiqarmaganda... So'ng shunayam to'zitib so'kdiki, asti qo'yavering, bolalaring xudoga ming qatla shukr qilishsin, deydi.

— To'g'ri aytibdi. Men senga allaqachon aytganman, Zarifaga ham, — Edigey qizishib ketdi va fursatdan foydalanib xavotir olib yurganini yana bir bor aytib qo'ymoqchi bo'ldi. — Yo'lining o'rtasida senga nima bor, parovoz izdan chiqib senga yo'l bersh kerakmi? Xavfsizlik qoidalari bor, axir. Savodli kishi bo'lsang, tokaygacha aytib turish kerak. Endi temiryo'lchisan, nisholda bozorida yurganing yo'q. Ajal bilan o'ynashma.

— Agar shunaga hodisa yuz berganda, o'zim aybdor bo'lardim, — dedi Abutolib ma'yuslik bilan bosh irtg'ab. — Har qalay, sen avval so'zlarimni tinglagin, keyin gapirasan.

— Shunchaki o'rni kelib qoldi-da, sen gapiraver.

— Qadim zamonlarda odamlar bolalarga meros qoldirishgan. Yaxshiliklarni, yomonliklarni, har holda, har kim qurtiga yarasha meros qoldirgan. Bu haqda o'sha zamonlarda qanchalab kitoblar yozilib, ertaklar aytilib, teatrlarda qanchalab pesalar o'ynalgan.

Ularda merosni qanday bo'lish va merosxo'rlar taqdiri xususida hikoya qilinadi. Nega deysanmi? Sababi, o'sha merosning ko'pchilik qismi nohaq yo'llar bilan yuzaga kelar edi, boshqalarning peshana teri evaziga, aldoqchilik yo'li bilan to'planar edi. Shu sababi ham bu meros boshlanishidanog yovuzlik, gunohkorlik va adolatsizliklar bilan to'lib-toshgan bo'lardi. Biz esa xudoga shukr, bundan holimiz. Men o'zingga shu bilan tasalli beraman. Mening qoldiradigan merosim hech kimga ziyon-zahmat keltirmaydi. Bu yozganlarim mening ruhimga xolos, ularda urushda ko'rgan-bilganlarim jamlangan. Bolalarimga qoldiradigan boshqa boyligim yo'q. Sario'zak dashtida yurib shunday fikrga keldim. Taqdir meni shu yoqlarga surgab kelibdi, endi men bolalarimga ko'nglimdagilarimni yozib qoldirmoqchiman, qachonlardir kezi kelib, ular ham buni tushunishar. Men erisha olmagan, uddasidan chiqqa olmagan narsalarga ehtimol erishishar... Bizga nisbatan ular og'irroq turmush kechirishadi. Shunday ekan, yoshligidan aqli to'lishib borgan yaxshi...

Ularning har ikkalasi ham o'z o'y-xayollari bilan band bo'lib, birmuncha vaqt sukut saqlab borishdi. Bunday so'zlarni eshitib Edigey hayratda qoldi. Dunyoga kelgan odam hayotining ma'nosini bunday tushunsa ham bo'lar ekan-da, deb taajjublandi. Garchi shunday bo'lsa-da, u o'zini taajjublantirgan narsani aniqlab olmoqchi bo'ldi:

— El-u xalq, bu yoqda radio har kuni bolalarimiz kelgusida yaxshi hayot kechirishadi, deb tursa, sen esa bizga nisbatan og'irroq bo'ladi deysan. Atom urushi bo'ladi, shuni o'ylab aytapsanmi?

— Yo'q, ungagina emas. Ehtimol, urush bo'lmas. Bo'lganda ham hali-beri bo'lmaydi. Gap rizq-ro'zda emas. Shunchaki zamon charxi tezlashib bormoqda. Bolalar bularning barchasini o'z harakatlari, aql-idroklari bilan tushunib olishlari kerak, qolaversa, bizlar uchun ham qisman javob berishlariga to'g'ri kelar. Aql yuritishning esa o'zi bo'lmaydi. Shuning uchun ham bizga nisbatan ularga qiyinroq bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Aql yuritish hamma vaqt ham oson emasligini Edigey oydinlashtirib o'tirmadi. Keyinchalik u bo'lib o'tgan subhatni eslar ekan, bu gapning mazmunini so'rab-surishtirib bilib olmagani uchun juda-juda afsuslandi...

— Bularni nima uchun aytayapti dersan, — Abutolib Edigeyning shubhalarini sezganday, so'zida davom etdi: — Yosh bolalarning nazarida, kattalar hamisha aqli, e'tiborli bo'lib ko'rinnadi. Ulg'aygandan so'ng ko'rishadiki, muallimlari, boshqacha aytganda, bizlar ular o'ylaganchalik ko'pni ko'rgan, aqli odamlar emasligimiz ma'lum bo'ladi. Haliqi mulohazakor kishilar ustidan endi kulib qo'ysa ham bo'ladi, hatto bu kekxa murabbiylar yoshlarning ko'ziga ba'zida ayanchli ko'rinnadilar. Zamon charxpalagi borgan sari tezroq aylanayotir. Shuning uchun ham o'zimiz haqimizda so'ngi so'zni bolalarga qoldirmay o'zimiz aytib ketishimiz kerak. Ota-bobalarimiz bunday so'zlarni rivojatlarda aytib ketishgan. O'zlarining naqadar ulug' kishilar ekanliklarini avlodlar bilishsin, deyishgan. Endi biz ularni ruhi bo'yicha baholaymiz. O'sib kelayotgan bolalarimni deb qo'limdan kelguncha ishlayotganimning boisi ham shunda. Mening

riyoyatlarim – urushda boshdan kechirganlarim. Farzandlarimga atab partizanlik daftarimni bitayotirman. Ko'rgan-bilganlarimni, boshimdan kechirganlarimni qanday bo'lsa shunday yozib qoldiraman. Bolalar ulg'ayganda asqatib qolar. Bundan tashqari, yana ba'zi bir o'ylab qo'yganlarim bor. Bolalarimiz Sario'zakda o'sadiganga o'xshaydi. Voyaga yetganlarida quppa-quruq dastda o'sgan ekamiz, deb o'ylashmasin yana. Qadimgi qo'shiqlarimizni yozib oldim, keyin ularni topib olish qiyin bo'lib qoladi. Qo'shiq mening tushunchamda – o'tmish xabarчасi. Sening Ukkubolang ularning ko'pini biladi-ku. Yodimga kelib qolsa, yana yangilarini aytib beraman, deb va da berdi.

– Bo'lmasan-chi? Orolning qizi emasmi! – dedi Edigey darhol g'ururlanib ketib. – Orol qozoqlari dengiz bo'yida yashaydi. Qirg'og bo'ylab kuylashga nima yetsin. Dengiz hammasini tushunadi. Nimani ayتما, dildan chiqarib aysang, dengizga xush kelaveradi.

– Buni to'g'ri ayding. Haq gap. Yozib olganlarimni yaqinda qayta o'qib chiqdim. Zarifa ikkalamiz yig'lab yuborishimizga sal qoldi. Qadimda naqadar, go'zal qilib kuylashgan! Har bir qo'shiq o'zi bir tarix. O'sha odamlarni shundoqgina ko'rib turgandaysan. Ular bilan sirlashsang, o'shalardek seva olsang, kuya olsang... Ko'rdingmi, ularning qoldirib ketgan yodgorligini. Men Kazangapning Bo'keyini ham ko'ndirishga harakat qildim, qoraqalpog'cha qo'shiqlarimizni yodimga keltir, alohida daftarga yozib olaman dedim. Demak, qoraqalpog' daftari ham bo'ladi bizda...

Ular shu yo'sinda temir yo'l bo'ylab sekin yurib borishardi. Ularning subhati farog'atli damga to'g'ri kelgan edi. O'sha kuz oldi kunlardan birining so'lim oqshomi, butun borliq qorong'ilik og'ushiga cho'mib borayotgandek edi. Sario'zak o'rmonlari ham, daryolari ham, dalalari ham ko'zdan g'oyib bo'lib borayotganday, biroq botib borayotgan quyosh yer sahni-dan nur va soylarning harakati tufayli dasht bag'rini to'ldirib turganday taassurot qoldirardi. Butun kenglikni chulg'ab olgan begaror, ko'kimitir osmon o'ziga maftun etib, fikrga qanoat bog'lardi, uzoq yashashga, ko'p o'ylashga da'vat etardi...

– Ha, aytganday, Edigey, – dedi Abutolib so'rab olmoqchi bo'lgan narsasi yodiga tushib, – ko'pdan beri so'ramoqchi bo'lib yurardim Do'nanboy degan qush xususida. Sen bu haqda nima deysan, shunaga qush bo'lsa kerak-a tabiada, nomini ham shunday atasalar kerak. Uchraganmisan bunaga qushni?

– Afsona-ku bu.

– To'g'ri, buni o'zim ham bilaman. Ammo afsona ham ko'pincha turmushdan olingan haqiqat bo'lib chiqadi. Masalan, zarg'aldog degan qush bor, bizning Yetisuvda tog'dagi bog'lar-da kun bo'yi «Biyov-biyov», men kimga kuyov», deb sayragan-sayragan. Bu yerda shunchaki so'z o'yini, ya'ni ohang bilan so'zlarning o'zaro moslashuvi bor, xolos. Biroq qushning nima uchun shunaga sayrashni haqida ertak ham to'qilgan. Do'nanboy xususidagi ertakda ham shunaga o'xshashlik yo'qmikin, deb o'ylayman. Balki, dastda shunday bir qush bordir. Do'nanboy degan so'zga moslab sayraydigan. Ehtimol, shuning uchun afsona to'qilgandir?

– Yo'q, bilmayman. Bu haqda o'ylab ko'lmagan ekanman, – deya shubhalandi Edigey, – Bu yerlardan necha bor o'tib qaytganiman, ammo bunaga qush borligini uchratmaganman. Umuman, bo'lmasa kerak.

– Ehtimol, – dedi Abutolib o'ylangirab.

Edigey bezovtalana boshladi.

– Modomiki, bunday qush bo'lmagan ekan, unda bularning bari bekorchi gap bo'lib chiqadimi?

– Yo'q, nega? Ona Bayit qabristoni bormi, demak, bu yerda nimadir bo'lib o'tgan. Har qalay, men negadir haligai qush bor bo'lsa kerak, deb o'ylab yuraman. Uni kimdir, qachonlardir uchradi, albatta. Bolalarga shunday deb yozib qo'yaman.

– Bolalarga bo'lsa, mayli, – dedi Edigey qat'iyatsizlik bilan, – unda to'g'ri qilasan...

Nayman ona haqidagi Sario'zak afsonasini o'z vaqtida faqat ikki kishigina yozib olganini xotirlaydi Edigey Bo'ron. Dastavval, ellik ikkinchi yilning oxirlarida bolalarim ulg'ayganda o'qishar, deb Abutolib Qutiboyev yozib olgan edi. U qo'lyozmalar yo'qolib ketdi. Shundan keyin tortgan azoblarini

aytmaysizmi. Qassob moy qayg'usida, echki jon qayg'usida, deganday uni eslashga fursat bo'libdimi! Keyinchalik, oradan allagancha vaqt o'tib, ellik yettinch yillarda Afanasiy Ivanovich Yelizarov bu afsonani yozib oldi. Endi Yelizarovning o'zi yo'q. Uning qo'lyozmalari, kim bilsin, balki, Olmatadagi uyida, qo'g'ozlari orasida qolib ketgandir... Ikkalasi ham asosan Kazan-gapning og'zidan yozib olgan. O'sha subbatda Edigey qatnash-gan, u aytib-eslatib turgan.

«Yillarining uchishini... Tava, bu gaplarning hammasi qavsi zamonlarda bo'lgan edi!» o'yarladi Edigey. Bo'ron yopqitashlangan Qoraning ikki o'rkachi o'rtasida tebranib borar-kan. Endi esa u Kazangapning o'zini Ona Bayit qabristoniga olib borayapti. Vaqti kelib, hammasi o'z o'rni qaror topadi. Afso-nani qalbida ardodqlab saqlab, el orasiga yoyib, avlodlarga yetkaz-gan aytuvchining o'zi endi qabristonda so'ngi oromini topishi kerak.

«Endi yolg'iz o'zimiz — men-u Ona Bayit qoldik. Ha, ko'p o'tmay, men ham o'sha yerga boraman — joyi rostonimga. Bu yog'i shunga qarab borayotir!» deya g'amgin qiyofada o'yga cho'mgancha, Edigey tuya ustida dafn karvonini boshqarib bo-rardi. Oritda tirkalma aravali traktor, orqasida g'ildirakli «Belorus» ekskavatori. Dafn karvoniga o'zicha qo'shilib olgan malla it Yo'lbars goh oldinda, goh to'daning orida, goh yon tomonda yo'rrib borar, goh bir zum ko'zdan g'oyib bo'lar edi... U o'z ishinig ko'zini bilganday, dumini dikkaytirib, tevarak-atrofga jiddiy ko'z tashlab qo'yardi.

Quyosh nayzaga keldi. Qoq peshin. Ona Bayit qabristo-niga oz qolgan edi.

VIII

Har qalay, ellik ikkinchi yilning oxirlari, aniqroq qilib aytganda, kuz fasli, sal kechikib bo'lsa-da qor-bo'ronlarsiz tush-gan qish fasli ham o'sha kezlardagi «Bo'ronli» bekating bir siqim aholisi uchun ma'gul keldi. Edigey keyinchalik o'sha kunlarni uzok eslab yurdi.

«Bo'ronli»liklarning oqsoqoli Kazangap xushmuomalali kishi bo'lib, bironlarning ishiga bo'lar-bo'lmasga aralashmasdi. Uning ayni kuchga to'lgan paytlari edi. O'g'li Sobitjon Qumbel-dagi internatda o'qirdi. Qutitboyevlar oilasi esa endigina Sa-rio'zak sharoitiga ko'nikib, o'troqlashib qolishgan kezar. Qish-ga borib barakni isitib, kartoshka g'amlab olishdi, Zarifa bilan bolalarga kigiz etik xarid qilishdi, Qumbeldan bir qop un kelti-rishdi. Umi Edigey baquvvat Qororida ortib keldi. Abutolib vaqtida ishlab, bo'sh vaqlarini odatdagiday, bolalar yonida o'tkazar, tumlari esa deraza tokehasidagi moychiroq yorug'ida nimanidir yozgani-yozgan edi.

Bekada yana ikki-uch oila bo'lib, atfidan vaqtincha turishardi. O'sha kezlardagi boshliqlari Abilov ham yomon odam emasdi. Bo'ronliklardan bironlasi kasalga ehalimadi hisob. Bolalar o'sib-unib, ishlar o'z maromida davom etaverdi. Temir yo'llarni ihotalash, ta'mirlash singari qish oldi ishlari o'z mudda-tida bajarilayotgan edi.

Qizartib pishgan shirmoyi non singari qo'ng'ir tusga kirgan Sario'zak kuzining farog'ati damlari! Qish ham kirib keldi, ana-mana deguncha, atrofini oppoq parquga burkab, u ham o'zgacha go'zallik kasb etgandi. Sutga cho'mgan ana shu sokin buyuk dashtlikni tarang tortilgan qora ip singari kesib o'tgan temir yo'ldan odatdagidek poyezdlar paydar-pay qatnab yotadi. Temir yo'lining yonboshida mo'jazgina qishloqcha — «Bo'ronli» bekating jamoasi joylashgan. Bir nechta xonadon va ularga yondosh qurilgan mayda imoratlar... O'tgan-kegan qatnovchilar vagonlardan ko'z qirini tashlab o'tishar, ba'zi birlari esa uyqu aralash ko'zlarini yirib-yirib qaragancha yolg'iz yashayotgan bekatga aholisiga achinganday boqishardi...

Biroq o'kinchilarning bunday lahzalik achinishlari o'rinni emas edi. Bo'ronliklar yoz jazirasini hisobga olmaganda – u ortda qolgan edi – yilni yaxshi o'tkazayotgan edilar. Umuman olganda, urushdan keyin hamma yerdada ham hayot asta-sekin izga tushib borardi. Yangi yilda oziq-ovqat, sanoat mollarning narxi yana tushsa kerak, deb umid qilishar, do'konlarda mol-mulk oshib-toshib yotmasa ham, haytovur, turmush yildan yilga yaxshilanib borayotgan edi...

Odarda, bo'ronliklar Yangi yilga unchalik e'tibor qilishmas, tungi soat o'n ikki bo'lishini orziqib kutib o'tirishmasdi ham. Bekarda har qanday sharoitda ham ish to'xtamasdi. Yangi yil qachon, qayerda kirib kelganidan qat'i nazar, poyezdlar yelib o'taverardi. Qish kelishi hamonox xo'jalikda ishlar yana oshib-toshib ketardi: pechkalarni isitish, yaylovdagini, qo'ragini mol-hollarga ko'z-quloq bo'lib turish... Odam uzzukun ishlab charchaganidanni, kechga borib, sal vaqtiroq yotib dam olgisi keladi.

Shu yo'sinda birin-kekin yillar o'taveradi...

Lekin, ellik uchinchi yil arafasida bo'ronliklar haqiqiy bayram qildilar. Bayramni Qutiboyevlar oilasi boshlab berdi. Yangi yil tayyorgarligiga Edigey kechroq kelib qo'shildi. Hamma narsa Qutiboyevlar oilasi bolalarga atab archa yasatmoqchi bo'lishganidan boshlandi. Archani qayerdan topishdi? Sario'zakda dinovavr¹ tuxumi topilsa topiladiki, archa topilmaydi. Yellzarov geologiya² so'qmoqlarida kezib yurgan chog'larda bundan million yillar ilgari yashagan dinovavr tuxumini Sario'zakdan topib olgan-ku, axiri! Kattaligi tarvuzday keladigan bu tuxumlar toshga aylanib ketgandi, ularni Olmatodagi muzey-

¹ **Dinovavr** (Dinosauria) – qitilib ketgan kaltakesaklarning katta oilasiga mansub sudralib yuruvchilar. Mezozoy erasiga yashagan. Tamasining uzunligi 20 santimetrdan 30 metrgacha, og'irligi 60 tonnagacha bo'lgan. Antarktidadan tashqari hamma qit'alarda, jumladan O'rta Osiyo va Qozog'istonda bo'rt daryolari qalamlaridan ma'lum. Ular orasida yirtqichlari ham, o'txo'rlari ham, to'toyoqlilari ham, orqaoyoqlari bilan yuguruvchilari ham, qalqonlilari ham, shoxlilari ham bo'lgan.

² **Geologiya** (geo. + yunoncha: logos – tushuncha, ta'limot) – Yer qobig'i va Yerning tuzilishi, tarkibi hamda rivojlanish tarixi, foydali qazilmalarni qidirish usullari haqidagi fanlar majmumi.

ga olib ketishganlari haqida gazetalarda ham yozishgan edi.

Abutolib Qutiboyevga qish chillasida Qumbelga borishga, katta bekat mahalliy qo'mitasiga uchrab, «Bo'ronlik»dek katta bekat uchun u yerga kelgan beshta archadan bittasini undirib olishga to'g'ri keldi. Hamma gap shundan boshlandi. Dala shamolida qirov bosgan yuk poyezdi birinchi yo'lda to'xtadi, Edigey shu payt ombor yonida bekat boshlig'idan yangi qo'l-qoplamni olayotgan edi. To'rt g'ildirakli uzundan uzun yuk vagonlarining hamma eshiklari tamg'alanib tashlangandi. Oxirgi vagonning ochiq maydonchasidan muzdek etiklari ichida tashadek qotib qolgan oyoqlarini arang sudrab Abutolib tushdi. Poyezdni kuzatib borayotgan qalin po'stinli, mo'ynali qalpog'ini tomog'igacha bostirib kiyib olgan konduktor maydonchada o'raltashgancha Abutolibga qo'pol bir narsani uzatdi. Archaku, dedi Edigey darhol fahmlab, ammo deysishga dedi-yu, o'zi hayratda qoldi.

– Ey, Edigey! Edigey Bo'ron! Bu yoqqa kel, qani manavi odamga yordamlashib yubor-chi! – deya baqirdi konduktor norg'ul gavdasi bilan vagon zinasidan pastga tusharkan.

Edigey darhol yetib keldi-yu, Abutolibni ko'rib qo'rqib ketdi, u qoshlarigacha oppoq qorga botgan, shunchaki sovgotganidan lablarini qimirlatishga ham holi kelmasdi, qo'lini ham qimirlata olmasdi. Yenginasida esa archa turardi. Ana shu ignabargli archani deb, Abutolibning narigi dunyoga ravona bo'lishiga sal qolibdi!

– Odamlaringiz shu ahvolda ham yo'lga chiqadimi? – dedi konduktor bo'g'iq ovoza norozi bo'lganday. – Orqangdan urib turgan shamol joningni sug'urib olguday. Po'stinimni yechib beray desam, o'zim sovgotib qolgudayman.

Abutolib og'zini arang ochib, uzr so'radi:

– Kechirasiz, shunaga ish bo'lib qoldi. Yetib keldim-ku, endi isinib olaman.

– Man ana unga aytaman! – hamon bo'g'ilib bo'ldirardi konduktor Edigeyga yuzlanib. – Meni ko'r, ustimda pocha-po'stin, ichimda nimcha, oyog'imda kigiz etik, boshimda shapka. Shunda ham poyezdni manzilga yetkazib olgunimcha o'lib bo'la-

man. Diydirab yurib bo'ladimi bu sovuqda!

Edigey o'zini noqulay sezdi:

– Bundan keyin hisobga olamiz, Trofimi! Rahmat. Endi jo'naver, oq yo'l senga.

U archani qo'liga oldi. Odam bo'yi keladigan archa muzdek edi. Archadan qishki o'rmonning hidi kelib turardi. Edigeyning yuragi shuv etib ketdi. Urushda ko'rgan o'rmonlarni esladi. U yoqda archazorlarni ko'z bilan ilg'ab bo'lmadi. Ularni tanklar qulatiib, snaryadlar tubi bilan qo'porib ketishaverardi. O'shanda archa hidi bunchalik qimmatga tushishini kim xayoliga keltiribdi, deysiz.

– Keldiki! – dedi Edigey Abutoliiga nazar tashlab, archani yelkasiga olarkan.

Abutoliibning yuzlari gezarib, ko'z yoshlari yonoqlari uztra muzlab qolgan bo'lsa-da, ammo oppoq qoshlari ostidagi ko'zlari shodlikdan tantanavor chagnab turar edi. Edigeyni birdan vahima bosdi: bolalari otaning bu mehrini qadrlasharmikin? Axir, hayotda ko'pincha teskarisi bo'lishi mumkin. Minnatdorchilik o'rniqa loqaydlik, goho esa nafatlanishadi ham. «Bundaylardan o'zing asra. Busiz ham g'am-tashvishlari yetarli», – o'yladi Edigey.

Archani, dastavval katta o'g'li Dovul ko'rdi. U shod-xurramlik bilan qichqirib, o'zini barakka urdi. Ichkaridan Zarifa bilan Ernak ichki kiyimda yugurib chiqishdi.

– Archa, archa! Qara, qanaqa archa! – tinmay sakrab qichqirardi Dovul.

Zarifaning quvonchi ham ularnikidan qolishmasdi:

– Har holda, topib kelibsan! Qanday yaxshi!

Ernak archani endi ko'rayotgan edi. U Edigey yelkasidagi archadan sira ko'z uzmasdi.

– Apa, archa shuni? Yaxshi-a? U endi biznikida yashaydimi?

– Zarifa, – dedi Edigey, – ruslar aytgandek shu «yolka-polka»ni deb, eringni muzlab qolishiga sal qopit. Tezroq uyga olib kirib iltish kerak. Avvalo, etgini yechinglar.

Etik muzlab, tarashaday qotib qolgandi. Hammalari bir-

galashib etikni uning oyog'idan yechib olishga kirishdilar,

og'riqdan Abutoliibning yuzlari burishib keldi, u tishini-tishiga qo'yib ingrab yubordi. Ayniqsa, bolalar jon-jahdlari bilan harakat qilishardi. Ular mol terisidan tikilgan zil-zambil etikni qo'ichalarida goh u yoqqa, goh bu yoqqa tortishar edi, biroq toshdek qotib qolgan etik qani endi chiqqa qolsa.

– Bolalarim, nari turinglar, qani men o'zim, – deya opasi quvlasa ham pashshalashardi.

Ammo Edigey past ovoza dedi:

– Mayli, o'z holiga qo'yaver.

Bolalarning mehribonligi, kuyib-pishib qayg'urishlari Abutoliib uchun katta mukofof ekanligini u qalbdan sezib turardi. Demak, bolalarining odam qatoriga kirib qolgani, nimanidir o'zlaricha tushuna boshlaganlari ana shunda emasmi?! Ayniqsa, kenjasining harakatlari odamning kulgisini qistab, qalbini quvonchga to'ldirardi. Ernak negadir otasini «atika» der edi. Odamzot tilida paydo bo'lgan eng birinchi so'zni bola o'zicha o'zgartirib olgandan so'ng hech kim uni qayta to'g'rilab o'tirmadi.

– Atika! Atika! – deb dadasi atrofida girdikapalak bo'lar-di bola behuda urinishlardan qip-qizarib ketib. Uning jingalak sochlari to'zg'ib ketgandi. Ko'zlari eng zarur bir ishni do'ndirib qo'yish ishtiyogida chagnar, o'zi esa shunchalik jiddiy ediki, ko'rgan odamning beixtiyor kulib yuborgisi ketar edi.

Bolalar o'z niyatlariga tezroq erishishni istab qolishgandi. Edigey darhol chorasini topdi: etiklar bu orada etiy boshladi, endi ularni Abutoliibning joniga ozor bermasdan sug'urib olish mumkin.

– Qani bolalar, organga kelib o'tiringlar-chi. Poyezdga o'xshab bir-birimizni tortamiz. Dovul, sen meni ushla, Ernak sen esa Dovulni.

Abutoliib Edigeyning maqsadini tushundi, shekilli, bosh itg'ab ma'qullab qo'ydi. Muzlab issiqda etiy boshlagan ko'z yoshlari aralash jilmaydi.

Edigey Abutoliibning ro'parasida o'tirar, ortidan esa bolalar zanjirday bog'lanishgan edi. Ular tayyorlanib bo'lish-

gach, Edigey etikni sug'urib olishga tutindi.

— Qani bolalar, ha denglar, baravariga toringlari! Bo'lmasa eplolmayman. Volg'iz o'zining kuchim yetmaydi. Ha, denglar Dovul, Ernaki! Yana qattiqroq!

Bolalar orqadan kuchanib, zo'r berib tortishdi. Zarifa: «Hay barakalla!», deb qarab turdi. Edigey ataylab o'zini zo'r berayotganday qilib ko'rsatardi bolalarga. Nihoyat, etikning biri sug'urib olinganda, bolalar g'olibona qichqirib yuborishdi. Zarifa jun mato bilan erining tovonini ugallash payiga tushib qoldi, ammo Edigey uni to'xtatdi.

— Qani bolalar, qani opasi! Bu nima degan gap? Ikkinchi etikni kim tortadi? Yoki otalarining bir oyog'ini sarpoychang, ikkinchisini esa muzlagan etikda qoldiraveramizmi?

Hammasi birdan xaxolab yuborishdi. Polda ag'anashib, uzoq vaqt qotib-qotib kulishdi. Ayniqsa, Abutolib bilan bolalar rosayam kulishdi.

Kim bilsin, Edigey Bo'ron o'sha dahshatli jumboqni tagiga yetish uchun o'sha kezlarda ko'p bosh qotirgandir, kim bilsin, ehtimol, xuddi o'sha vaqlar qayerdadir, «Bo'ronli» bekatidan juda olis joylarda Abutolib Qutiboyevning nomi qaytadan qog'oz yuziga tushib, bu qog'ozni olgan kishilar unga asoslanib, na Qutiboyevlar xonadonida, na bekatda hech kimning xayoliga ham kelmagan masalani hal qilayotgandirlar?!

Bu mustibat kutilmaganda sodir bo'ldi. Bunaga ishlarda Edigey tajribali va ayyorroq bo'lganda ham, har qalay, fahmiga uncha yetmasha-da, ehtimol, ko'ngli biroz tashvish tortgan bo'larmidi...

Nimadan ham tashvish tortsin? Odatdagidek, yil oxirida bekatga uchaska revizori¹ kelardi. Grafik bo'yicha bekatma-bekat aylanib chiqardi. Bir-ikki kun bo'lardi-da, maoshlar qanday tarqatilyapti, materiallar qanday sarflanyapti, xullas, shunga o'xshash narsalarni tekshirib, bekat boshlig'i va yana birtorta

¹ Revizor — muayyan bir muassasa yoki mansabdor shaxs faoliyatini tekshirish, taftish qilishga vakolati bo'lgan shaxs. 2) temir yo'l sohalarida muzoratchi xodim (bu yerda shu ma'noda).

ishchi bilan uch kishilashib reviziya¹ hisobotiga qo'l qo'yardi-da, so'ng yana qaytib ketardi. Bekatda nima ish ham bo'lardi? Ba'zan Edigey ham taftish aktlariga qo'l qo'ygan. Bu gal revizor «Bo'ronli» bekatida uch kun turib qoldi.

Bekating asosiy binosidagi navbachi xonada tunadi — bu yerda telefon hamda boshliqning kabinet deb atalmish kichkina xona bor edi. Bekat boshlig'i Abilov yugurib-yelib unga choynakda choy tashirdi. Bir gal Edigey revizor turgan xonaga mo'raladi. Bir odam qog'ozlarga ko'milib o'tirib, papiros burqishtardi. Edigey avvalgi tanish revizorlardamikin, deb o'yladi. Biroq bunisi notanish edi. Allaqanday yuzlari qip-qizil, tishlari tushgan, sochlariga oq oralagan ko'zoynakli bir kishi edi. Uning ko'zlari allaqanday makkorona kulimsirab turardi.

Qosh qorayganda to'stadan uchrashib qolishdi. Edigey navbatchilikdan qaytib kelayotgan edi. Qarasa, navbatchilar xonasi oldida chiroq yorug'ida revizor nari-beri yurib turgan ekan. Barra yoqasini ko'tarib olgan, boshida ham barra telpak, ko'zoynakda, etigi bilan qum ustida g'arch-g'urch bosib, xayolchan chekib yurardi.

— Assalomu alaykum. Chekkani chiqdingizmi? Ishlab charchagandirsiz? — dedi Edigey xayixohlik bilan.

— Ha, albatta, — deb javob berdi u iljayib. — Oson ish yo'q...

— To'g'ri aytasiz, — dedi Edigey odob yuzasidan.

— Ertaga erta bilan jo'nab ketaman, — dedi revizor. — O'n yettinchii poyezd to'xtab o'tadi. O'shanga tushib ketaman, — dedi-da, yana kulimsiradi. U past ovoza hatto qiyinalib gapirar edi. Qisq ko'zlari bilan esa nimanidir izlayotganday tikilib qarar edi. — Edigey Jonkeldi deganlari siz bo'lasizmi? — surishtirib qoldi revizor.

— Ha, men bo'laman.

— Men ham shunday deb o'ylagandim. — Revizor siyrak

¹ Reviziya (lotincha: revisio — qayta ko'rish) — 1) muayyan korxona, tashkilot, muassasa yoki mansabdor shaxsning ma'lum bir davrdagi ish-faoliyatiga doir hisobotlarni tekshirish, taftish qilish; taftish. 2) biror ta'limot yoki nazariyani o'zgartirish, uning asoslarini buzish niyatida qaytadan ko'rib chiqish.

tishlari orasidan bamaylxoir tutun burgistardi. – Urushda bo'lgansiz. Qirq to'rtinchi yildan beri bekada ishlaysiz, shundaymi? Yo'lovchilar sizni Bo'ron deb atashadimi?

– To'g'ri, to'g'ri, – soddadillik bilan javob berdi Edigey. Unga o'zi haqida bunchalik ko'p narsa bilgani qanchalik ko'ngili bo'lsa, ayni paytda, revizorning bunchalik ma'lumotlarni bilib, esida saqlab qolgani uni tang qoldirdi.

– Xo'irani yaxshi, – dedi revizor Edigeyning nima haqda o'ylayotganini payqaganday iljayib. So'ng u: – Men ham Qutiboyevlaringizga o'xshab yozib turaman, – deya papiros tutunini shu la taratib turgan deraza tomonga pufladi. Deraza oldida Abutolibning daftarga engashgancha nimalardir yozayotgani ko'rinib turar edi. – Uch kundani beri kuzataman – hadet yozgani-yozgan. O'zim ham yozib turganim uchun, buni tushunaman. Ammo men faqat she'r mashq qilaman. Deponing ko'p tirajli gazetasida tez-tez chiqib turadi. Bizda adabiyot to'garagi bor – o'zim boshqaraman. Viloyat gazetasida ham chiqib turaman. Bir safar sakkizinchi martida, bu yil esa birinchi may sonida chiqdim.

Ular jimib qolishdi. Edigey xayr-xo'shlashib ketmoqchi bo'lib turgan ham ediki, revizor yana gap boshlab qoldi:

– U Yugoslaviya haqida yozadimi?

– Ochig'ini aytсан, bu haqda hech narsa bilmayman, – dedi Edigey. – Aftidan, o'sha yoqlarda ko'p yil partizanlik qilib yurgan ko'rinadi. Asosan, o'zining bolalari uchun yozadi u.

– Xabarim bor. Abilovdan surishtirib, bilib oldim. Asirda ham bo'lgan ekan. Qaysi bir yillarda o'qituvchilik ham qilgan. Endi yozuvchilikda omadini sinab ko'rmoqchi emish, – deya chiyillab kulib qo'ydi. – Ammo, bu o'ylaganchalik oson ish emas. Men ham kattaroq asarlar ustida o'ylab yuraman. Front, front orqasi, mehnat haqida. E-e, bizga o'xshagan kishilarning bosh qashishga qo'li tegmaydi. Umrimiz xizmat safarida o'tadi... – U ham faqat turlari yozadi, kunduz yumushdan bo'shamaydi.

Ular yana jimib qolishdi. Edigey ketishga hozirlanayotganda, yana gapga tutib qoldi.

– Yozgani-yozgan! Boshini ham ko'tarmaydi-yal! – deb yana iljaydi revizor Abutolibning derazasidan tushib turgan sharpasi tomonga ishora qilib.

– Bekor o'tirgandan ko'ra ernak-da, – dedi Egidey. – Bilimdon odam bo'lsa. Atrof jimjit, hech kim xalal bermaydi. Shunday bo'lgandan so'ng yozadi-da, yozmay nima qiladi.

– Iyi, rost aytdingiz. Atrof jimjit. Hech kim xalal bermaydi. – Revizor ko'zlarini qisib, o'zicha nimanidir mulohaza qildi-da, to'ng'illadi. – Atrof jimjit. Hech kim xalal bermaydi... Bilgan noma'qulchiligini qil. O'zingga o'zing xo'jayinsan... Ha, bu ham bir g'oya...

Shu bilan ikkalasi xayrlashishdi. Edigey revizor bilan oralarda bo'lib o'tgan tasodifiy subbat tafsilotini erta-indin Abutolibga aytib beraman, deb chog'lanib yurdi-yu, ammo payti kelmadi, keyin esa butunlay xayolidan ko'tarilib ketdi.

Qishning tashvishlari ham o'ziga yarasha bo'ladi. Hammadan ham Qoronorri aytaysizmi? U ayni kuchga to'lib, boshga bitgan balo bo'ldi. Bichilmagan Qoronor ikki yil muqaddam kuchga to'lib, yetilgan edi. Ammo u ikki yil oldin bunchalik qaynoq hirs bilan quturib kelmagandi, har holda, baqirib-chaqirib, cho'chitib yo'lga solsa bo'lardi. Yana buning ustiga bo'ronliklar uyuridagi Kazangapning bo'g'radi Qoranorga kun bermas edi. Uni tepib, tishlab modalarga yaqin yo'lamasdi. Biroq cho'l poyonsiz. Bir yoqdan haydasa, ikkinchi yoqdan kirib kelaveradi. Shu bo'yi qari tuya uni kun bo'yi quvaverib, oxiri, o'zi holdan toyib qolar edi. Shunda qoni jo'shib ketgan yosh Qoronor bir amallab o'z maqsadiga erishardi.

Ammo qish chillasi tushib, tabiatning azaliy qonuniyati bo'yicha tuyalarning qoni ko'piradigan yangi mavsum boshlanganda, bo'ronliklar uyuriga Qoronor bosh bo'lib oldi. U qudratli kuchga ega bo'lib, hech kimga bo'ysunmay qo'ydi. Kazangapning qari tuyasini kimsasiz cho'lga bemaol haydab borib, jaitlikka qamab tishlab, g'ajib, chalayon qilib tashlaydi. Ularni ajratadigan kimsa yo'q. Tabiatning bu shafqatsiz qonuni muttasil davom etadi, axir, endi kezi kelib Qoronor ham nasl qoldirishi kerak-da.

Biroq ana shuni deb Kazangap bilan Edigey birinchi bor aytishib qolishdi. Jar tubida deysinib yotgan bo'g'rasini ko'rib, Kazangap chidab turolmadi. Yayo'vdan xafa bo'lib keldi-da, Edigeyga zahrini sochdi:

— Bu nima qilganing-a, Edigey? Mayli, ularni-ku, hayvon deylik, ammo sen bilan biz odammi-z-ku, axir! Qoraning qirg'in keltirdi-ku! Sen bo'lsang, uni bemaol dashtga qo'yib yuborapsan!

— Uni men qo'yib yuborayotganim yo'q, Kazake. O'zi bo'shalib ketibdi. Uni qanday qilib bog'la deysan? Zanjirlab qo'yaymi? U zanjirni ham uzib ketadi. O'zingdan qolar gap yo'q. «Kuch otasini ham tanimaydi», deganlari shu ekan-da. Qoraning ham fursati keldi.

— Sen bunga quvonayapsan-a. Shoshmay tur, hali bundan battari bo'ladi. Sen uni ayab, burniga teshib cho'p solishga ko'n-mayapsan. Hali zor-zor yig'lab orqasidan zir yugurib qolasan. Bunday yirtqich bitta uyur bilan qanoat hosil qilmaydi. U hali butun Sario'zak bo'ylab sang'ib ketadi. O'shanda hech kimga tutqich bermaydi. Ana aytdi dersan...

Edigey hurmat yuzasidan Kazangap bilan san-u munga bormay qo'ya qoldi. Qolaversa, uning gapida jon bor edi. U murosaga kelib ming'illab qo'ydi:

— Nima qilay, emizikligida uni o'zing hadya qilgan bo'lsang, endi mazammnat qilyapsan. Ma'qul, o'ylab ko'ray-chi, bir yo'li topilar.

Ammo Qorandek kelishgan bo'g'raning burnini teshib cho'p o'tkazib, bedavo qilib qo'yishga uning hecham qo'li bormadi. Haqiqatan ham, keyinchalik Edigey Kazangapning so'z-larini tez-tez eslab turadigan bo'ldi. G'azablanib ketgan chog'la-rida tuyasining burnini teshib, cho'p o'tkazmogchi bo'lib qolar-di-yu, lekin, baribir, yana qo'li bormasdi. Bir vaqlar axta qildir-mogchi ham bo'ldi. Ammo botina olmadi, bunga yuragi dov bermadi. Yillar esa o'taverdi. Har gal qish chillasi kelgan sayin qoni qaynab quturgan Qorandek tashvishi oshib-toshib ketardi...

Aslida bu ishlarning hammasi o'sha qishdan boshlandi.

Kechagidek esida turibdi. Qorandek qamab qo'yib biron aqlini kiritish uchun qo'ra hoziray deguncha yangi yil ham kiritib keldi. Qutiboyevlar ayni archa bayramiga tayyorgarlik ko'ra boshla-gan kezlar edi. «Bo'ronli»ning barcha bolalari uchun bu katta voga bo'ldi. Ukkubola qizchalari bilan to'g'ridan to'g'ri Qutiboyevlar barangiga¹ ko'chib keldi, desa ham bo'ladi. Kun bo'yi archani bezatish bilan band bo'lishdi. Edigey ishga keta-yotganda ham, ishdan qaytib kelayotganda ham Qutiboyevlar archani qanday yasatayotganliklarini bir bor ko'rib o'tmasa, ko'ngli joyiga tushmasdi. Archa qo'lda yasalgan har xil o'yinchoqlar, tasmalar bilan bezatilib, yana ham ochilib, chiroyli bo'lib ketgan edi. Bularning bari Zarifa bilan Ukkubolaning xizmati — ular bolakaylarni deb bor hunarlarini ishga solishgan edi. Albatta, gap faqat archadagina emasdi,

ular Yangi yildan hamma uchun yangi o'zgarishlarni, ezgu ishlarni umidvor bo'lib kutmoqda edilar.

Abutolib bu ishlar bilan tinchib qolmadi, u bolalarni hovliga boshlab chiqib, kattakon qorbobo yasay boshladi. Bu, avval Edigeyga ermakday tuyuldi, keyin esa buni o'ylab top-ganlaridan hayratga tushdi. Naq odam bo'yi keladigan ulkan Qorbobo — qorbobo emas, balki qordan yasalgan allaqanday bir yalmog'iz paydo bo'ldi: qoshlari ko'mirdan yasalgan, ko'zlari qop-qora, burni qizil, og'zini ochib kulib turardi. Kazangap titig'i chiqib ketgan tumog'ini qiyshaytirib kiyib bekatning ro'para-sidan o'tgan poyezdlarni kutib olardi. Bir qo'lida temiryo'lchi-larning «Yo'l ochiq» degan yashil bayroqchasi, ikkinchi qo'lida: «Yangi 1953-yilingiz qulug' bo'lsin!» degan tabrik so'zlari yozilgan fanerli taxtachani ushlab turardi u. Judayam g'aroyib bo'lgan edi o'shanda! Bu Qorbobo birinchi yandardan keyin ham uzoz vaqt turdi...

O'tib borayotgan yilning o'tiz birinchi dekabr kuni «Bo'ronli»ning bolalari namozhomgacha archa atrofida va hovlida o'yin tushishdi. Navbatchiligini tugatib kelgan kattalar

¹ Barak (italiyancha: baracca — loy chayla < bagro — loy) — yog'ochdan qurilgan vaqinchalik uy, yashash joyi.

ham shu yerda bo'lishdi. Abutolib Edigeyga erta tongda bolalarning burnilarini tortishib to'shagiga suqilib kirib kelishganini, o'zini esa qattiq uyquga solib yotganini gapirib berdi.

– Turing, atike, turing! – deya Ermak meni tortqilay boshladi. – Hademay Qorbobo keladi. Kutib olishga chiqamiz.

– Yaxshi, – dedim. – Hozir turib yuvinamiz-da, kiyimib boramiz. Qorbobo kelishga va'da bergan.

– Qaysi poyezdda keladi? – deya so'raydi kattasi.

– Xohlagani bilan, – dedim. – Qorboboga qaysi poyezd bo'lsa ham to'xtayveradi, bizning bekatda ham to'xtaydi.

– Unda tezroq turishimiz kerak!

Shunday qilib, tantanavor, jiddiy ravishda to'plandik.

– Apamlar-chi? – so'radi Dovul. – Apamlar ham Qorboboni ko'rishni xohlaydilar-a?

– Albatta-da. Apalariningni ham chaqiringlar.

Hammamiz yig'ilishib uydin chiqdik. Bolalar navbat-chilar xonasi tomon chopqillab ketishdi. Biz ularning ketidan borardik. Bolalar atrofta zir yugurishar, ammo Qorbobodan darak yo'q edi.

– Atike, Qorbobo qani?

Ermakning ko'zlari javdirab, yig'lansiraganday bo'lib turardi.

– Hozir, shoshmay tur-chi, – dedim unga. – Navbat-chidan so'rab bilaylik-chi.

Navbatchilar xonasiga kirdim. U yerga kecha Qorbobo nomidan xat yozib sovg'a tayyorlab, xaltachada yashirib qo'ygan edim. Tashqariga chiqishim bilan bolalar:

– Nima bo'ldi, atike? – deb so'ray boshlashdi.

– Ha, mana, – deyman, – Qorbobo sizlarga xat qoldirib ketibdi. Mana u: «Aziz bolalarim, Dovul bilan Ermak! Men sizlarning mashhur «Bo'ronli» bekatlariga ertalab soat beshda kelдим. Sizlar hali uxlab yotgan edilaring. Tun juda sovuq edi. Mening o'zim ham qordan yasalganman, soqolim ham qor toalaridan. Poyezd bo'lsa ikki daqiqagina to'xtadi, xolos. Ushbu xatni yozib ulgurdim-da, sizlarga olib kelgan sovg'alarni bilan birga qoldirib ketdim. Xaltachada bekatning hamma bolalariga

mandan bitiradan olma, ikkitadan yong'oq bor. Xafa bo'lmanglar.

hali qiladigan ishlarni ko'p! Boshqa bolalarga ham borishim kerak. Ular ham meni kutib o'tirishibdi. Kelasi Yangi yilda, albatta, sizlar bilan uchrashadigan bo'lib kelishga harakat qilaman. Hozircha xayr. Qorbobolaringiz, Ayoziyot». Iya, to'xtanglar-chi, bu yerda yana allaqanday yozuvlar ham bor-ku. Poyezd yurish oldida shoshilib yozgan bo'lsa kerak – o'qib bo'lmaydi. Ha, mana bunday debdi: «Dovul, kuchukchangni urma. Bir kuni sen uni kalishning bilan urganingda, rosiyam g'ingshiganini eshitib qoldim. Biroq keyin boshqa ko'rmadim. Ehimol, unga yaxshi qarayotgan bo'lsang kerak. Shu bilan so'zim tamom. Yana bir bor Ayoziyotangiz». To'xta, to'xta, bu yerda yana allaqanday yozuvlar bor. Ha, ha, tushundim: «Qorboboni judayam qoyilmaqom qilib yasabsizlar. Men u bilan qo'l olib ko'rishdim».

Bolalarning quvonchi ichiga sig'masdi, albatta. Qorboboning xatiga darhol ishonch hosil qilishdi. Hech qanaga xaltachilik bo'lmadi. Ammo, Qorboboning sovg'a-salomlar solingan xaltasini kim ko'tarib borishligi xususida tortishib qolishdi. Onasi esa ularni murosaga keltirib qo'ydi:

– Dovul katta bo'lganligi uchun avval o'n qadam yerga ko'tarib boradi; so'ng Ermak o'n qadam joygacha ko'tarib boradi, har qalay, kichkinaasan...

– Ularning o'rnida bo'lganida men ham chippa-chin ishongan bo'lar edim, – deya chin dilidan yayrab kuldi Edigey.

Kunduzi esa bolalar orasida hammadan ham Edigey og'izdan tushmadi. U bolalarga uchish uchun chana hozirlab berdi. Kazangapning qachonlardan beri yotgan bir chanasini bo'lar edi. Chanaga Kazangapning xomutda tinch va osoyishta yuradigan qari tuyasini qo'shishdi. Qoranorni bunaga yerga yo'laitib bo'laridim. Qo'shishdi-da, ustiga to'dalashib chiqib olishdi. Rosa shovqin ko'tarishdi. Edigey esa tuyakash bo'ldi. Hammalari uning yonida o'tirish uchun o'rin talashib yopishishar, «Tezroq, tezroq haydang!» deya unga iltijo qilishardi. Abutolib bilan Zarifa chananing yonida goh yurib, goh chopib borishardi. Ammo nishablikka kelganda chananing bir chetiga o'tirib olishardi. Bekandan ikki chaqirimcha olishlab ketishdi. So'ng

tepalikdan nishablik sari sirpanib tushishdi. Qari tuya charachab qolib, dam olishga to'g'ri keldi.

Kun ajoyib keldi. Sario'zakning oppoq qor bosgan cheksiz kengliklari uzta sukunat cho'kkan. Qir-adirlar-u past-balandliklar bilan yastanib ketgan bepoyon dashtlik qor ostida sirli yashiringan. Sario'zak osmonida jilosiz nur yog'ilib, ilqik taraladi. Elas-elas may'in shabada quloqqa chalinadi. Old tomondan temir yo'l bo'ylab qizil-sarg'ish tUSDagi uzun tarkibni ikkita qop-qora parovoz ikkita mo'risidan tutun purkab tortib boradi. Mo'rilardan ko'tarilayotgan qop-qora tutun halqa shaklida qalqib asta-sekin havoda tarqab ketadi. Semaforga yaqinlashganda oldingi parovoz bor ovozda uzoq gudok berdi. U bekatga kirayotganidan xabardor qilib, gudokni yana ikki bor takrorladi. Bu o'tkinchi poyezd bo'lganligi uchun ham xuddi boshqa joy quriganday naq temir yo'l biqinida, nobop joylashgan besh-oltita kulba hamda semaforlar oldidan tezligini pasayitmay bekat bo'ylab guldiragancha o'tib ketdi. Yana hamma yoq muzlagandek jimjit bo'lib qoldi. Qimir eigan jon yo'q. Faqat «Bo'ron!»ning tomlari tepasidan chiqayotgan ko'kimir tutun to'lg'anib ko'kka bo'y cho'zadi. Hamma yoq sokin. Hatto shu asnoda chanada uchaverib qizib ketgan bolalar ham jimib qolishgan edi. Zarifa eriga ohistagina pichirladi:

– Qanday yaxshi va qanday dahshat!

– To'g'ri aytasan! – dedi Abutolib ham ohistagina.

Edigey ularga boshini burmasdan, ko'z qirini tashlab turdi. Er-xotin bir-birlariga juda o'xshab ketishardi. Zarifaning pichirlab bo'lsa-da, aniq-aniq aytgan so'zlari, garchi Edigeyga tegishli bo'lmasa ham, uning ko'nglini rangitdi. Tutun chiqib turgan ana shu o'n chog'li uylarga Zarifa qanchalik sog'inch va dahshat ila termulib turganini Edigey nogoh anglab qoldi. Biroq Edigey ularga hech qanday yordam berolmasdi, negaki, temir yo'lning biqiniga joylashgan mana shu uylar ularning hammasi uchun birdan bir boshpana edi.

Edigey chanaga qo'shilgan tuyani qanchi urib haydadi.

Chana orqaga burildi-da, bekat tomon yo'l oldi...

Yangi yil kechasi arafasida jami bo'ronliklar Edigeyni-

202

kiga yig'ilishdi. Bir necha kun ilgari Edigey bilan Ukkubola shu qarorga kelib qo'yishgan edi:

– Hamonki yangi ko'chib kelgan Qutiboyevlar bolalarimizga Yangi yil archasini yasatishdimi, xudo bizga shuni lozim ko'rgan, – dedi Ukkubola. – Keling, biz ham qo'ldan kelgancha xizmat qilaylik.

Edigey bundan faqat xursand bo'ldi. To'g'ri, hamma ham o'tirishga qatnasha olmadi. Ba'zi birlari navbatchilikda bo'lsa, boshqalari kechqurun navbatchilikda turishlari lozim. Poyezd qatnab turibdi. Unga oddiy ish kunini, bayramni, barbir, hisoblashib o'tirmaydi. Kazangap biroq o'tirdi-da, keyin kechani boshlanishidayoq chiqib ketdi. U kechqurun soat to'qqizda temir yo'l ko'rsatkichlarini boshqarishga ketdi. Edigey esa grafik bo'yicha birinchi yanvar kuni etalab soat oltida liniyada bo'lishi lozim. Xizmat taqozosi shunaga. Lekin, barbir, chiroyli o'tirish bo'ldi. Hammalarining ko'ngillari chog' edi. Kuniga o'n martalab ko'rishib-so'rashib yurishgan bo'lsalar-da, o'tirishga xuddi uzoqdan kelgan mehmonlardek yasani b kelishgan edilar. Ukkubola har xil taomlar bilan dasturxonni qoyilmaqom qilib bezalgandi. aroq, shampan ichimliklari ham bor edi. Ko'ngli tusagan odam Kazangapning tinib-tinchimas xotini Bo'keyning qisir qolgan tuya sutidan tayyorlagan shubbatdan tatib ko'rdi.

Birinchi qadahlarni ko'tarib yuborib, gazakbosti qilishgach, ashula boshlaganda, o'ziyam bayrammisan bayram bo'lib ketdi. Oxiri shunday daqiqalar keldiki, uy egalari mehmonnavozligi biroq yengillashib, mayda-chuyda narsalarga alaxsimay, el bilan bir bo'lishib, mehmonlar esa tortimadan yozilib-yayralib ko'ngilxushlik qila boshlashdi. Bunday paytlarda doimo ko'rib yurgan, besh barmog'ingday bilgan odamlardan yangi-yangi fazilatlari topasan, kashf qilasan, aslida bayramning yaxshi bir xosiyati ham odamlarni bir-biriga qo'shib yangidan yaratishida emasmi?! To'g'ri, nomatub tomonga o'zgaritib yuborgan vaqtlar ham bo'ladi. Ammo bu yerda, bo'ronliklar orasida bunday bo'lishi sirayam mumkin emas. Sario'zakda yashab turganda odamovi yoki janjalkash, deb nom chiqarsang, nima degan gap

203

bu... Edigeyning birozi kayfi oshib qoldi. Biroq unga bu yarashib turadi. Ukkubola eriga:

— Erta bilan soat oltida ishga borishingni unutm, — deb sekingina eslatib qo'ydi.

— Xo'p, Uku, tushunari, — dedi u.

U Ukkubolaning bo'ynidan quchoqlab olgan xirgoyi qilib o'tirdi, to'g'ri, unchalik o'rninga qo'yib aytmasa-da, uy ichini sidqidildan yangratib o'tirdi. Aql ravshanligi bilan ko'ngil ko'tarinkiligi birlashib, Edigey qalbini yavratib yuborgan edi. U kuyarkan, mehmonlarga mehri tovlanib tabassum bilan zimdan qarab qo'yar, boshqalarning ham o'zi singari, shod-u xurram o'tirgandan ko'ngli to'q bo'lardi. Qora mo't, qoraqosh Edigey Bo'ron qo'y ko'zlarini chaqnab, sadafdek tishlari porlab g'oyat ochilib ketgan edi. Umi hozir har qanday uchqur xayollar qarigan chog'ida qanday bo'lishini tasavvur qilishdan ojiz qoldiradi. O'tirganlarning hammasi uning nazar-e'tiborida edi. Xushfe'l Bo'keyni yelkasiga qoqib, bo'ronliklarning momosi deb, siltat-salomati uchun, uning siymosida Amudaryo solihida yashayotgan qoraqalpog' xalqi uchun qadab ko'tarishni taklif etdi va Kazangap ishi borligi tufayli davradan barvaqt chiqib ketganligi sababli Bo'keyga ko'ngli cho'kmasin deb mulozamat qilib o'tirdi.

— Shundog'am jonimdan to'ydirib yuborgan! — tajiang holda javob qaytardi Bo'key.

Edigey Ukkubolasini to'liq, asl nomi bilan erkalaib «Ukkuning bolasi» deb atardi. Bu o'tirishda Edigey har bir odam uchun samimiy iliq so'zlar topardi, bu kichik o'tirishdagi odamlarning hamma-hammasini, Sario'zakdagi kichkina temir yo'l xodimi bo'lib ishlaydigan bekat boshlig'i Abilovni ham, uning yaqin vaqt ichida Qumbeldagi tug'uruxonaga olib borib qo'y-mog'chi bo'lib yurgan rangpar xotini Sakenni ham o'zi uchun og'a-ini, aka-uka, opa-singildek yaqin tutib o'tirdi. Haqiqatan ham, barilari birga tug'ishganday bo'lib qolganlariga, boshqacha bo'lishi ham mumkin emasligiga Edigeyning imoni komil edi. Ashula aytib turib ko'zlarini bir lahza yumdimi, bas, ko'z oldida Sario'zakning qor bilan qoplangan hududsiz kengliklari-yu uyida

ahil bir oiladek jamlashgan shu bir guruh odamlar kelaverardi.

Ammo hamma ham Abutolib bilan Zarifaqa qarab ich-ichidan quvonardi, havasi kelardi. Bu ikkalasi shunga munosib edi. Zarifa do'mbira ni sayratib chertar, kuydan kuyga o'tib kuyardi. Uning ovozi toza, qo'ng'iroqdek, Abutolib bo'lsa bo'g'iyo ovoza cho'zib kuyardi. Ular tatarcha yo'sinda lapar aytishdi. Ikkalasi — biri qo'yib biri kuylashar, boshqalar esa ularga jo'r bo'lishardi. Qadimiy hamda zamonaviy qo'shiqlardan qanchalik ko'p aytishsa-da, baribir, charchashmasdi, qaytanga battar avjga chiqishardi. Bundan mehmonlarning ko'ngli choq edi. Edigey Abutolib bilan Zarifaning ro'parasida o'tirib olib, ulardan ko'zini uzmasdi. Agar achchiq taqdir ularni ne-ne kuyarlarga solmasa, hamisha mana shunday yashagan bo'lar edilar. Yozning dahshatli jaziramasini Zarifani xuddi yong'inda qolgan daraxtdan qovjiraytib yuborgandi, qo'ng'ir sochlari o'ngib, lablari quruqshab yoritilib ketgan edi. Ammo u hozir tanib bo'lmaz darajada o'zgaragan, qop-qora ko'zlaridan nur yog'ilib, osiyocha sip-siliq yuzlari tinq tortib, hozir o'ta darajada go'zallashib ketgan edi. Uning qalbini, ruhini qoshlari shundog'ina aytib turardi: u goh o'ynab, goh chimirilib, goh uchib qadimiy qo'shiqlar bilan parvoz qilib, birga kuyayotgandek edi. Abutolib har bir so'zning ma'nosini chuqur his qilib, chayqalgan ko'yi jo'r bo'lar edi:

... Yo'rg'uchanning belidan ayil tzi ketmaydi,
O'tigan sevgi onlari xotirandan o'chmaydi...

Zarifa barmoqlari bilan chertayotgan do'mbira torlari Yangi yil kechasi bu kichik davrada goh hazin, goh shodon sas taratardi, Edigeyning tasavvurida go'yo Zarifaning o'zi ham kuyga singib ketgandek edi. Bu kuyarlarga mahiyo bo'lib o'tirgan Edigey xayolidan qayima oq yoqali ko'kintir nimchada Zarifa do'mbirasini sayratib, goh qor bosgan keng dalada qushday yengil chopib borardi; goh tun zulmati tarqalib, tuman ichida g'oyib bo'lib ketardi, faqat do'mbira ni tarqalib, tuman ichida qilgan ovozi eshitiladi, biroq «Bo'ronli» bekatdagi odamlarga uning qiyin bo'ladi, degan xayolda ortiga qaytib, nogahon

dasturxonning boshida o'tirgan bo'yicha paydo bo'ladi...

Keyin Abutolib partizanlikda yurganda qo'llarini birlarining yelkalariga qo'yib olib, oyoqlari bilan yer tepib, qanday o'yinga tushganliklarini ko'rsatib berdi. Zarifa ularga jo'r bo'ldi, Abutolib esa serbcha sho'x bir ashulani boshlagan edi, hammalari qo'llarini birlarining yelkalariga qo'yib, «oplya, oplya...» deya qichqirgancha, davra olib, o'yinga tushib ketdilar.

Keyin yana ashula aytishdi, ichishdi, Yangi yil bilan birlarini tabriklashdi, kimdir chiqib ketdi, kimdir kitib keldi... Bekat boshlig'i bilan uning homiador xotini o'yin boshlangunga qadar chiqib ketishgandi. Shu tariqa Yangi yil kechasi shodon o'tdi...

Zarifa havo olgani tashqariga chiqqan edi, ketidan esa Abutolib ham qo'zg'aldi. Hammalari terlab turganliklari uchun Ukkubola ularni, qiyintirmasdan sovuqqa chiqarmasdi. Zarifa bilan Abutolib ancha vaqtgacha qaytib kelishmadi. Edige'y ketidan borishga qaror qildi – ularsiz bayramning fayzi ketgandi. Ukkubola uni chaqirib to'xtatdi:

– Edige'y, shu ahvolda qayoqqa, kiyinib ol, shamollab qolasan!

– Men hozir, – deya Edige'y ostonadan hatlab, yarim tunda muzdek toza havoga chiqdi va: – Abutolib! Zarifa! – deya chaqirdi chor-atrofga nazar tashlarkan.

Hech kim javob qaytarmadi. Uy orqasidan gangurgungur tovush eshitildi. Edige'y uyga qaytib kiritishini ham yoki yaqin borib ergashtirib kelishini ham bilmay joyida turib qoldi. Ular orasida gap qochgandi, shekilli.

– Ko'rib qolmagin deb bu yoqqa chiqqan edim, – piq-piq yig'lardi Zarifa. – Kechir, behad qiyinalib ketdim. Kechir, meni jonim...

– Tushunaman, – Abutolib unga tasalli berardi. – Hammasini tushunaman. Biroq shunday yaralib qolgan bo'lsam, menda nima gunoh. Agar birgina menga tegishi bo'lganda mayli edi-ya. E, xudoyim-ey, bir odamni deb dunyo kamayib qolar-midi. Bunchalik yopishib olmasalar. – Ikkalasi jimit qolishdi, so'ng Abutolib yana qo'shimcha qildi:

– Bolalarimiz bunaga tashvishlardan holi bo'lishadi. Butun umid shulardan...

Edige'y gap nima haqda borayotganini tushunmay, yelkalarini sovuqdan uchib, tovush chiqarmay sekingina iziga qaytdi. U uyga kitib borganda bayram nihoyasiga yetib, hamma narsa xira tortib qolgandek edi. Yangi yil o'z yo'liga, biroq har bir narsaning ham me'yori bo'lishi kerak-da.

1953-yil 5-yanvar kuni ertalab soat o'nda «Bo'ronli» bekatinga yo'lovchi poyezdi kelib to'xtadi. Yo'llarning hammasi ochiq bo'lganligi uchun har safargidek to'xtamay o'tib ketaverishi mumkin edi. Biroq bunisi to'xtadi. To'xtaganda ham hammasi bo'lib bir yarim daqiga to'xtadi. Aftidan, shu vaqtning o'zi kifoya edi. Qora xrom etik kiygan bir xil fasondagi uch kishi bir vagondan tushishdi-da, to'g'ri navbatchilar turadigan xonaga qarab yurishdi. Ular yon-berlariga qaramay ishonch bilan jimgina borishardi. Faqat qorbobo ro'parasida bir daqiqagina to'xtab qolishdi. Taxtachadagi tabrik so'zlarini jimgina o'qigach, qorbobo boshiga qo'ndirilgan Kazangapning eski tumog'iga qarab qo'yishdi, keyin navbatchilar xonasiga o'tishdi.

Ko'p o'tmay, eshik sharta ochilib, bekat boshlig'i Abilov otilib chiqdi. Qorbobo bilan to'qnashib ketishiga sal qoldi. U so'kimib oldi-da shoshilinch ravishda nariga yugurib ketdi. Bunaga odati yo'q edi-ku? Oradan o'n daqiqalar o'tgandan so'ng Abutolib Qutitboyevni ish joyidan topib, hansiragancha yonida birga olib keldi. Rangi ogarib ketgan Abutolib tumog'ini qo'liga ushlab olgan edi. Ikkalasi navbatchilar xonasiga kitib ketishdi. Ammo u yerdan boyagi kelgan xrom etikli ikki kishi kuzatuvda darhol chiqib, hammalari Qutitboyevlar yashaydigan barakka tomon yo'l olishdi. U yerdan ham tezda qaytib chiqishdi. Ular Abutolibdan bir gadam ham nari jilishmasdi, qo'llarida esa uning uyidan olib chiqishgan allaqanday qog'ozlar.

Keyin hamma yoq jimjit bo'ldi-qoldi. Navbatchilar xonasiga hech kim kirmasdi ham, chiqmasdi ham.

Edige'y bu voqeani Ukkuboladan eshitdi. Ukkubola Abilovning topshirig'iga binoan, ta'mirlash ishlari ketayotgan to'rtinchi chaqirimgacha deyarli yugurib bordi. Edige'yini bir

cheta chag'irib:

– Abutolibni so'roq qilishyapti, – dedi.

– Kim so'roq qilayapti?

– Bilmadim. Qayerdandir kelishibdi. Abilov, agar surishtirib qolishgudek bo'lishsa, Yangi yilda Abutolib, Zarifalar bilan birga bo'lishganini aytmasin, dedi.

– Nima bo'пти?

– Qaydam. Senga shuni aytib qo'yishimni so'radi. Keyin o'zing ham soat ikkilarda bo'lishing kerak ekan. Aftidan, Abutolib to'g'risida sendan ham u-bu narsalarni so'rab-surishtirishsa kerak.

– Nimani so'rab-surishtiradi?

– Men qayvoqdan bilay? Cho'chib ketgan Abilov kelib menga shularni aytdi. Men esa senga aytayman.

Busiz ham Edigey soat ikkida uyiga ovqatlangani borardi. Yo'lda borayotib ham, uyda o'tirib ham nima bo'layotganiga aqli yetmasdi, javob topolmasdi. Nahotki o'tmishda asir tushgani uchun bo'lsa? Allagachon tekshirib bo'lishgan edi-ku. Yana nima gap? Qo'rquvdan yuragi bezovtalana boshladi. Ugradan ikki qoshig'ina ichdi-da, nariga surib qo'ydi. Soatiga qaradi. Ikkiga besh daqiqa qolibdi. Ikkiga kel, deyishibdimi, demak, ikkiga boradi. Uydan chiqdi. Navbatchilar xonasi oldida Abilov nari borib, beri kelib turardi. U ruhi tushgan, hayajonlangan holda edi.

– Nima gap?

– Falokat, falokat yuz berdi, Edike, – deya qo'rqa-pisa eshik tomon qarab qo'yardi Abilov lablari titraganicha. – Qutiboyevni qamab qo'yishdi.

– Nima uchun?

– Qandaydir taqiqlangan yozuvlarni topib olishdi uyidan. Kechalari bilan nimalarnidir yozib chiqardi. Buni hamma bilardi-ku! Mana oxir-oqibati.

– Yoza bolalari uchun yozar edi-da.

– Kimga atab yozganini bilmayman. Umuman, hech narsa bilmayman. Bor, seni kutishyapti.

Bekat boshlig'ining kabinetini deb atalmish chog'roq xonada qariyb Edigey bilan tengdosh, balki, undan ham yoshroq

chigar. O'ttizlar chamasidagi sochini kirpiptikan qilib oldirgan xumkalla bir kishi nimanidir o'qib o'tirardi. O'qib fikr yuritaverganidanni keng katakli go'shtdor burni terlab ketgan edi. U qovog'idan qor yog'ib ro'molchasi bilan burnini ardi. Keyin butun subbat davomida ham terlab turgan burnini artib turdi. U stol ustidagi «Kazbek» quvisidan bir dona uzun papirosni olib, ezig'ilab-ezig'ilab chekdi va eshik bo'sag'asida turgan Edigeyga lochin ko'zi singari sarg'ish chag'ir ko'zlari bilan tikilib qaradida, qisqa qilib:

– O'tiri! – dedi.

Edigey stol ro'parasidagi kursiga o'tirdi.

– Hech qanday shubha bo'lmasin uchun, – deya chag'ir ko'z rasmiy kitchining¹ ko'krak cho'ntagidan qandaydir jigarrang mugovoli biletni olib ochib ko'rsatdi-da, so'ng darhol yoniga solib «Tansiqboyev»ni yoki «Tisiboyev»ni dedi g'o'ldirab, Edigey shu bo'yidan uning familiyasini aniq eslab qololmadi.

– Tushunarlarmi, – dedi chag'irko'z.

– Tushunarli, – dedi Edigey noiloljildan.

– Unday bo'lsa, ishga kirishaylik. Seni Qutiboyevning

eng yaqin do'sti deyishyapti. To'g'rimi?

– Shunday bo'lsa ajab emas.

– «Shunday bo'lsa ajab emas» degin, – takrorladi chag'irko'z papiros tutunini cho'zib tortar ekan, eshikan so'zini mulohaza qilib ko'rayotganday. – Shunday bo'lsa ajab emas. Ma'qul ham deylik. Tushunarli.

U shu gapni aytar ekan, oldindan lazzatlanib quvonchga to'lganday va bu quvonch uning shishadek tiniq ko'zlariday aks etib turganday nogoh iljayganicha so'z qoldi:

– Shunday qilib, jon do'stim, yozib o'tiribmiz degin-chi?

– Nimani yozib o'tirar ekanmiz? – dedi Edigey toqatsizlanib.

– Shuni bilmogchiman-da.

– Gap nima haqda ekanligini tushunolmayapman.

– Nahotki? Bir o'ylab ko'r-chi!

¹ Kitel (*nemischka*) – harbiylarning bir yoqlama tugmalanadigan, tilk yoqali rasmiy kiyimi.

– Aytayapman-ku, gap nimadilgini tushunolmayapman.

– Qutitboyev nimalar haqida yozib yuradi?

– Bilmayman.

– Nega bilmaysan? Hamma bilganda sen bilmasang.

– U nimalarnidir yozib yurishini bilaman. Ammo nimalarni yozadi, men qayogdan bilay? Nima ishim bor? Yozgisi kelisa, yozaversin. Kimning ishi bor?

– Kimning ishi bor deganing nimasi? – chag'irko'z hayratlangancha o'q kabi teshib yuborguday tikilib qaradi. – Demak, kimki nimani xohlasa, o'shani yozaversin, demogchisan-da? Buni senga o'sha o'rgatdimi?

– U menga hech narsani o'rgatgani yo'q.

Chag'irko'z uning gapiga e'tibor ham bermadi. U juda tutaqib ketdi:

– Dushmannning tashviqoti degani shu bo'lsa kerak! Har kim har narsani yozaversa, nima bo'ladi, o'ylab ko'rdingmi? Bu haqda hech o'ylab ko'rganmisan? Har bir kimsa xayoliga kelgan narsalarini yozaversal! Senga shu kerakmi? Bunday yot g'oyalarni qayerdan olgansan? Yo'q, og'ayni, bunga biz yo'l qo'ymaymiz. Bunaqasi ketmaydi!

Edigey bu dag'dag'adan ruhi tushib, sarang bo'lib churq etmay o'tirdi. Biroq atrofda odadagidek hayot davom etayotganligidan hayratlandi. Hamma narsa o'z joyida, o'z maromida edi. Derazadan lip-lip o'tib borayotgan Toshkent poyezdini ko'rib, bir lahza xayolga cho'mdi: vagonlarda o'z tirikchiligi bilan borayotgan kishilar, birlari cho'y, boshqalari aroq ichib gangurgungur qilib borishardi. Xuddi shu mahal bu «Bo'ronli» bekatida Edigey boshiga balo-gazodek yopirilib tushgan mana bu chag'irko'zning qarshisida o'tirgani bilan ketib borayotganlarning hech qancha ishi yo'q edi, ular Edigeyni xayoliga ham keltirishmasdi.

Edigey shu lahzadayoq navbatchilar xonasidan otilib chiqsam-da, uzab ketayotgan poyezdni quvib yetib, dunyoning narigi burchagiga bo'lsa ham bosh olib ketsam, ishqilib, shu yerda o'tirmasam, deb o'yladi-yu, yuragi sanchib og'riy boshladi.

– Xo'sh, masalaning mohiyatiga tushunib yetdingmi?

– Tushunib turibman, – dedi Edigey. – Faqat bir narsani so'ramogchiman. Uning yozganlari bolalariga atalgan eskirtma-ku. Frontda, tutqunda, partizanlikda boshidan kechganlarini yozib qoldirsam, degan edi. Buning nimasi yomon?

– Bolalar uchunmi? – deya yana qichqirdi chag'irko'z. – Bu gapingga kim ishonadi! Go'daklar uchun kim xotira yozadi? Junbog'ingni qo'ysang-chil! Mana, ko'rdingmi, tajribali dushman qanday harakat qiladi. Chor atrofi kimsasiz, hech kim kuzatmaydigan ovloq joyga kirib oladi-da, xotiralarini yozib o'tiraveradi!

– Yozgisi kelisa, nima qilsin, – e'tiroz bildirdi Edigey. – Ehtimol, o'zining shaxsiy so'zlarini aytgisi kelgandir, bolalarim ulg'ayganda o'qir, degan niyatta qandaydir fikrlarni bayon etmoqchidir.

– Yana qanaqa shaxsiy so'z? Bu deganing nimasi? – chag'irko'z ta'na qilganday boshini sarak-sarak qilib, o'pkasini to'ldirib nafas oldi. – Yana qanaqa shaxsiy fikri, shaxsiy so'zi bo'lishi mumkin? Shaxsiy dunyoqarashi demogchimsan? Alohib-da, shaxsiy fikrni yoki?.. Hech qanday shaxsiy so'zi bo'lishi mumkin emas. Qog'ozga tushdimi, demak shaxsiy bo'lmay qoladi. Aytilgan gap – otilgan o'q. Hamma xayoliga kelganini aytaversimmi? Unda el quturib ketmaydimi? Mana uning yozgan «Partizanlik daftarlari». «Yugoslaviyadagi kunlar va tunlar» deb tagiga sarlavhacha ham qo'yibdi yana. Mana ular! U kleyonka bilan muqovalangan uchta qalin daftarni stol ustiga tashladi. – Bema'nilik-ku bu! Sen bo'lsang do'stingni himoya qilishga harakat qilyapsan. Biz esa uni fosh qildik!

– Nimasini fosh qildingiz?

Chag'irko'z o'tirgan joyida bir qo'zg'alib qo'ydi-da, yana boyagiday, oldindan lazzatlanib quvonchga to'lganday badxohlik bilan kiprik qoqmay, iljaygancha so'z qotdi:

– Nimasini fosh qilganimizni bizga qo'yib berasan. – U har bir so'zni qiroat bilan talaffuz etib uning zarbasidan rohatlanardi. – Bu bizning ishimiz. Har kimga axborot beravemayman!

– Undog bo'lsa, nima ham derdik? – dedi dovdirab qolgan Edigey.

– Uning g'alamislik ruhida yozilgan esdaliklari oqibatsiz qolmaydi, albatta, – ta'kidladi chag'irko'z va nimanidir yozishga tutindi gapira turib. – Men seni aqlli, o'zimizning odam deb o'ylovdim. Ilg'or ishchi, sobiq jangchi, dushmani fosh qilishda yordam berar, degan umidda edim.

Edigey hurpayib olgan edi, u shubhaga o'rin qoldirmaydigan qilib vazminlik bilan sharta dedi:

– Men hech narsaga qo'l qo'ymayman, men buni sizga hoziroq aytib qo'yayin.

Chag'irko'z yeb qo'ygudek tikildi:

– Sening imzongni bizga keragi yo'q. Qo'l qo'ymasam, ish bitmaydi deb o'ylayapsanmi? Chuchvarani xom sanabsan, Uni javobgarlikka tortish uchun sening qo'lingsiz ham bizda materiallar yetarli.

Edigey ruhi tushib, ichidan zil ketayotganini sezib, jim bo'lib qoldi. Ayni paytda, bo'lib turgan voqega nisbatan ichki qahr-g'azab va norozilik tuyg'ulari Orol dengizi to'liqlaridek ich-ichidan bosib kelardi. Shu damda bu chag'irko'zni quturgan it kabi bo'g'ib o'ldirgisi keldi. Bunaqa ish qo'lidan kelarini ham bilib o'tirdi. Mana shu qo'llari bilan bo'g'ib o'ldirmaganmidei urushda o'sha chayir, bo'yni yo'g'on dushmani. Boshqa iloji ham yo'q edi. Dushmaning mudofaa chizig'ini yorit kirisha-yotganda ikkalasi to'satdan xandaqda ro'baro' kelib qolishdi. Yon tomondan xandaqlarga granatalarni uloqtirib, yo'laklarga avtomatlardan o'q yog'dirgancha yo'lni dushmandan tozalab olg'a tomon jang qilib borisharkan, to'satdan to'qnashib qoldi. U, aftidan, pulemyotchi¹ bo'lsa kerak, okop² oldida turib so'ngi o'qlarni ham o'itib bo'lganga o'xshaydi. Uni asir olsam, yaxshi bo'lardi, degan fikr xayolidan o'tdi. Ammo dushman Edigeyning boshi uzra xanjar ko'tarishga ulgurdi. Edigey uning yuziga kaskasi³ bilan kalla qo'ygan edi – shunda ikkalasi ham birdek

¹ Pulemyot (ruscha: пуля – o'q va metal – o'tmug) – o'qni tez otadigan avtomatik qurol.
² Okop (ruscha: окоп – kovlangan joy) – joni kuchlar va jangovar texnikani dushman o'tidan panna qiladigan harbiy inshoot.

³ Kaska (fransuzcha: casque – bosh suyagi; dubulg'a) – harbiy xizmatchi, o'q o'chiruvchi, quruvchi va shu kabilarning metallan yoki plastmassadan ishlangan, turli

ag'anab tushdi. Tomog'idan mahkam bo'g'ib olishdan boshqa chora qolmadi. Dushman esa tipirchilab xirillar, barmoqlari bilan qo'lidan tushib ketgan xanjarini paypaslardi. Har lahzada orqasiga xanjar urilishini kutgan Edigey, battar o'chakishib, qorayibko'karib ketgan va tirjagancha og'zi ochilib borayotgan dushmani jon-jahdi bilan kekirdagidan ushlab, g'ayritabiiy, vahshiyona bir kuch bilan bo'kirtirib sigardi. Dami ichiga tushib, siydik isi aniq ketgandan keyingina tomog'iga botib ketgan changakdek barmoqlarini bo'shadi. Shu zahotiyoq ko'ngli aynib, qayt qilib yubordi, qusug'iga belanib ko'z oldi qorong'ilashib ingragancha nari keldi. Bu haqda Edigey o'sha vaqtda ham, undan keyin ham hech kimga hech narsa aytmadi. Bu dahshatli voqea goho tushlariga kirib, ertasiiga ham jonini qo'yarga joy topolmay, hayotdan ham voz kechgisi kelib ketar edi... Edigey hozir o'sha voqeani eslatkan, jirkanib, ijirg'anib ketdi. Biroq Edigey chag'irko'zning ayvor va mutlahamligi bilan ustun kelayotganligini sezib turdi. Bu izzat-nafisiga tegardi. Edigey chag'irko'z hali yozib o'tirarkan, uning dalillaridan nuqson topishga intildi. Chag'irko'z aytgan gaplardan biri o'ta mantiqsizligi bilan Edigeyni hayratga soldi: biror kimsani o'tmishni «dushmanlik ruhida xotirladi», deb ayblash mumkinmi? Odanning xotirasi dushmanlik yoki nodushmanlik ruhida bo'lishi mumkinmi, axir? Xotira – bu qachonlardir o'tmishda bo'lib o'tgan voqealar, hozir esa ular mavjud emas. Demak, inson haqiqatda nimaki sodir bo'lgan bo'lsa, o'shani eslaydi.

– Bir nimaga aqlim yetmay turibdi, – dedi Edigey haya-jonlanganidan tomog'i qaqrayotganini sezib. Ammo u bu so'zlarni xotirjamlik bilan aytishga majbur qildi. – Sen aytyapsanki...

– U ataylab «sen»sirab gapirdi. Bu bilan: «Bilib qo'y, senga xushomad qilmayman, sendan qo'rqadigan joyim ham yo'q, meni, baribir, Sario'zakdan nariga haydab yuborolmayman» demogchi bo'ldi. – Sen aytyapsanki, – takrorladi u, – dushmanlik ruhidagi xotiralar deb. Buni qanday tushunsa bo'ladimi? Xotira dushmanlik yoki nodushmanlik ruhida ham bo'lishi mumkinmi?

Menimcha, odam allaqachon o'tib ketgan voqealarni qayerda, qachon, qanday sodir bo'lganligini xotirlaydi. Yoki bundan chiqdi: yaxshi narsalarni eslash kerak-u, yomon, noxush narsalarni esa unutish kerak demoghimisan? Bunaqasi hech qachon bo'lmagan bo'lsa kerak. Yoki biron tush ko'rsang, uni eslash mumkin emasmi? Agar u tush yomon tush bo'lsa-chi, birovlariga yodmaydigan qo'rqinchli tush bo'lsa-chi?..

— Obbo sen-ey! — deya ajablendi chag'irko'z. — Bahslashging kelib qoldimi? Bu yerning faylasufi bo'lib chiqmasang eding. Bo'pti: qani bo'lmasa. — U chog'lanib, hozirlik ko'rayotganday, bir laha to'xtab qoldi-da, yana so'zga kirishdi: — Tarixiy voqealar singari hayotda har xil hodisalar yuz berishi mumkin. Nimalar bo'lmaydi deysan. Ammo kechinishni og'zaki, ayniqsa, yozma ravishda tasvirlaganda zamon talabiga yarasha, hozirgi kunimiz talablariga yarasha tasvirlash muhim. Bizning manfaatinizga xizmat qilmaydiganlarini esa eslatmasa ham bo'ladi. Bunga amal qilmasang, dushmanlik yo'lga kirganing shu bo'ladi.

— Men bunga qo'shilmayman, — dedi Edigey. — Bunday bo'lishi mumkin emas.

— Sen qo'shilasanni-qo'shilmaysanni bunga hech kimning muhtojlik joyi yo'q. Gapdan gap chiqib aytdim-da. Sen so'zading, men senga yaxshilikcha tushuntirayapman. Aks holda sen bilan adi-badi aytib o'tirishim shart emas. Yaxshisi, quruq gapdan ishga o'taylik. Xo'sh, menga ayt-chi, Qutitboyev bilan ko'ngilxushlik qilib gapirishib o'tirgan paytlarinda yoki ichki-lik ustida, deylik, qandaydir inglizcha ismlarni senga aytmadimi?

— Bu kimga kerak ekan? — Edigey ochiqko'ngillik bilan taajjublandi.

— «Bu kimga kerak ekan?» Mana, eshi kimga kerakligini. Chag'irko'z Abutolibning «Partizan daftarlari»dan birini ochib, qizil qalam bilan osti chizilgan joyini o'qidi: «27-sentabr kuni biz turgan joyga bir polkovnik hamda ikki mayordan iborat ingliz vakillari keldi. Biz ularning oldidan saf tortib o'tdik. Ular biz bilan salomlashdi. Keyin komandirlar chodirida hamma birga o'vqalandi. U yerga yugoslaviyalik partizanlar bilan birga jang qilib yurgan chet ellik partizanlardan besh-olti kishi kelib,

bizni ham taklif qilishdi. Meni polkovnik bilan tanishtirganlarida u astoydil qo'linni qisib, bu yerga qanday tushib qolganini tarjimon orqali so'rab-suriştirtdi. Men qisqacha gapirib berdim. Menga vino quyishdi, ular bilan birga men ham ichdim. Keyin uzog' suhbatlashib o'tirdik. Inglizlarning ochiqko'ngil, sodda odamlar ekanligi menga yoqib qoldi. Polkovnik: «Yevropada fashizmga qarshi qo'lini-qo'lga berib kurashganimiz ukan baxdir, — dedi, yana uning ta'biri bilan aytganda. Xudoning qudrati bizga madad beribdi. Buziz fashizmga qarshi kurashish juda og'ir bo'lgandi, ehimolki, bu kurash birlashmagan xalqlar uchun fojiali qismat bilan tugardi», — dedi va hokazolar.

Chag'irko'z o'qib bo'lgandan so'ng daftarni bir chekka-ga surib qo'ydi. «Kazbek»dan yana bir dona olib jimgina chekib o'tirdi-da, tutun burqsitgancha so'zida davom etdi: — Demak, Qutitboyev ingliz polkovnikiga Yevropada partizan bo'lishni yoki boshqacha yo'llar bilanni qanchalik urinmangiz, baribir, Stalinning dahosi bo'lmaganda g'alabaga erishib bo'lmassdi, deb e'tiroz bildirmagan. Demak u o'rtog' Stalinni xayoliga ham keltirmagan! Endi tushungandirsan?

— Ehimol, u bu haqda gapirgan bo'lsa ham yozayotganda unutib qoldirgan bo'lishi mumkin, — Edigey Abutolibni himoya qilishga urinib ko'rdi.

— Qayerda shunday deb yozilgan? Isbotlab berolmaysan! Bundan tashqari, biz Qutitboyevning bu yozuvlarini qirq beshinchi yilda u yugoslav partizanlari qo'shilmassidan qaytib kelib, nazorat tafitishidan o'tish oldida bergan so'roqlari bilan solishtirib ko'rdik. Unda ingliz missiyasi¹ haqida hech narsa eslatilmaydi. Demak, bir balosi bor. Uning ingliz razvedkasi bilan aloqasi yo'q, deb kim guvohlik bera oladi!

Yana Edigeyning ko'ngli vayron bo'lib ketdi. Chag'irko'z gapni qayogga burayotganini tushunolmay qoldi:

— Qutitboyev senga biron narsa demadimi? Ingliz ismla-

¹ Missiya (lotincha: mission — jo'natish; topshiriq) — 1) yuksak burch, mas'uliyatli vazifa; 2) muayyan topshiriq bilan boshqa muamla-katga yuborilgan vakillar (bu yerda shu ma'noda); 3) bir davlatning boshqa davlatdagi (eichtsondan fargli ravishda) yoki xalqaro tashkilotlardagi vakili boshchiligidagi doimiy diplomatik vakolatxona.

rini atamadimi? Hali ingliz missiyasidagilarning kimligini bilish biz uchun juda ham muhim.

– Ularning ismlari qanaqa bo'ladi?

– Misol uchun Jon, Klark, Smit, Jek, deylik...

– Bunaqa nomlarni umrimda eshitmaganman.

Chag'irko'zning qovog'idan qor yog'ib, o'ylab qoldi.

Edigey bilan suhbat uni qanoatlantirmadi. Keyin ayyorlik bilan so'radi:

– Qutitboyev bu yerda qandaydir maktab ochib, bolalarni o'qitar emishmi?

– Qanaqa maktab bo'lsini! – Edigey beixiyor kulib yubordi. – Uning ikkita o'g'li, mening ikkita qizim bor. Maktab degani, shu bo'ladi. Kattalari besh yoshda, kichiklari uch yoshda. Boyaqshilar uchun yayrab o'ymaydigan joyning tayini yo'q, atrof huvullagan cho'l. Bolalar uyga o'rgangan, uyda tarbiyalashadi. Er-xotin ikkalasi ham sobiq o'qituvchilar emasmi, kitob o'qib berishadi, surat chizdirishadi, hisob o'rgatishadi.

– Qanaqa ashulalar aytishadi?

– Har xil. Bolalarning ashulalari. Yodimda yo'q.

– Bolalarga nimalarni o'rgatib, nimalarni yozdirishadi?

– Harflarni. Qandaydir odatiy so'zlarni.

– Masalan, qanaqa so'zlarni?

– Qanaqa so'zlari! Bunisi esimda yo'q.

– Esingda bo'lmasa, manal! – chag'irko'z qog'ozlar orasidan daftar varag'ini izlab topdi-da, – mana dastlabki so'zlar, – dedi. Varagda bola qo'li bilan yozilgan «bizning uy» degan so'z bor edi. – Ko'ryapsammi, bolaning yozgan birinchi so'zini. Nima uchun «bizning g'alaba» deb yozdirmagan? Hozir bolalarning birinchi navbada aytadigan qaysi so'z bo'lishi kerak, qani ayt-chi? «Bizning g'alaba» degan so'z bo'lishi kerak. Shunday emasmi? Nima uchundir bu so'zlar Qutitboyevning xayoliga ham kelmagan. G'alaba bilan Stalin egizak so'zlardir!

Edigey gangib qoldi. U hali es-hushini tanimagan shu bolalarni deb butun borlig'ini berib, qancha vaqt sarflab kelayotgan Abutolib bilan Zarifaga ichi achib ketganidan, o'zini esa bularning hammasi oldida tahqirlanayotganday his etib, keskin

dedi:

– Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, birinchi navbada: «Bizning Lenin» deb yozish kerak. Shunday yozish bizning burchimiz. Har holda, Lenin birinchi o'rinda turmaydimi?

Chag'irko'z kutilmaganda bu gapdan dami ichiga tushib ketdi. Keyin xiyala vaqtgacha og'zidan tutun burqsitib o'tirdi. Nihoyat, o'midan turdi. Biroz yurgisi kelib qoldi, shekilli. Ammo qayoqqa ham yursin bu tor uychada.

– Biz Stalin deganda Leninni anglaymiz! – U so'zlarni dona-dona qilib chertib-chertib gapirardi. So'ng chopib kelgan odamday yengilgina nafas olib, murosaga keldi: – Bo'pti, oramizda bunaqa gap bo'lmadi, deb hisoblaymiz.

U o'miga o'tirdi-da yana avvalgidek narsiz yuzidagi lochimnikidek tiniq, sarg'imtir ko'zlari bilan amirona qadaliib qaradi.

– Qutitboyev bolalarni internatda o'qitishga qarshi chiqqan, degan ma'lumotlar bor bizda. U bu xususda gapirganda sen ham bor ekansan. Xo'sh, bu haqda nima deysan?

– Bunaqa ma'lumotlar qayerdan olingan? Kim berdi bunday ma'lumotlarni? – Edigey tang qoldi va shu zahotyoq xayolidan bir hadik o'tdi: buning hammasiga bekat boshlig'i Abilov aybdor! Bularning hammasini o'sha yetkazgan. Chunki bu gapning ustida Abilov ham bor edi.

Edigeyning savoli chag'irko'zning g'azabini yana qo'z-g'atib yubordi:

– Mana qara, senga aytdim-ku, ma'lumotni qayerdan olish bilan sening ishing bo'lmasin deb! Bu bizning ishimiz. Biz hech kimning oldida hisob bermaymiz. Buni yodingda tut. Sen menga u nima deganini aytib ber.

– Nima degan edi? Eslab ko'rish kerak. Xo'sh... Bekatimizning eng keksa ishchisi qo'shimiz Kazangapning o'g'li Qumbeldagi internatda o'qiydi. O'spin bola emasmi, biroz beboshroq chiqdi. Go'ho odamlarni ham aldayotganga o'xshaydi. Sentabr oldidan bolani yana o'qishga yuborish kerak bo'lib qoldi. Otasi uni tuyada olib bordi. Onasi, Kazangapning xotini Bo'key esa yig'lab-siqtab zorlana boshladi – bolam internatga

bordi-yu, o'zgardi-qoldi, butun o'y-xayoli, qalbi bilan uyga bog'langan boyagi bola emas, avvalgiday ota-onaning xummati qolmadi deydi. Chalasavod ayol-da. To'g'ri, bolani o'qitish kerak, lekin u ota-onasidan yiroqda...

— Mayli, mayli, — deya Edigeyning so'zini bo'ldi chag'irko'z. — O'shanda Qutiboyev nima dedi?

— U ham oramizda edi. Ona-da, yuragi yomonlikni darrov sezadi, deb aytdi. Otilada bir ishkal bo'lmasa, hech kim bolasini internatga bermaydi. Internat bolani oiladan, ota-onadan ajratib qo'yadi, uzog'lashiradi. Bu, umuman, juda mushkul masala. Hamma uchun: uning uchun ham, boshqalar uchun ham birdek qiyin masala, dedi. Boshqa chorasi bo'lmagandan keyin, na iloj! Men uning ahvoli tushunaman. Menyam bolalarim bor, katta bo'lishyapti. Internatni o'ylasang nima bo'ladi, deb hozirdan joning achishadi. Albatta, yomon...

— Bunisi keyin, — deya Edigeyning so'zini kesdi chag'irko'z. — Demak, u sovet internat yomon deb ayitibdi-da?

— U «sovet» deb aytmadi. Internat, dedi xolos. Bolalarimiz o'qiydigan internat Qumbelda. «Xomon», — deb men aytdim, u emas.

— Buning ahamiyati yo'q. Qumbel ham Sovet Ittifoqining bir bo'lagi.

— Nega ahamiyati bo'lmagan? — chag'irko'z uni chalg'itib yotganligini sezib, Edigeyning jahli chiqib ketdi. — U gapirmagan gapni nega unga tiqishtirasan? Men ham shunday fikrdaman. Bekarda emas, boshqa joyda yashaganimda bolalarimni sirayam internatga bermasdim. Mana, mening o'ylagan o'yim. Demak, men...

— O'ylayver, o'ylayver! — deb g'uldirandi chag'irko'z, biroz sukut saqlab, so'ng yana so'zida davom etdi: — Demak, u jamoa tarbiyasiga qarshi. To'g'rimi?

— Hech ham qarshi emas-da! — Edigey o'zini tutib turtolmadi. — Nega tuhmat qilasan? Shunagayam bedodlik bo'ladimi?

— Bo'ldi, bo'ldi, bas qil, — deb qo'l siltadi chag'irko'z tushuntirib o'tirishni ham o'ziga ep ko'rmay. — Sen undan ko'ra mana bu — «Do'nanboy qushi» degan daftar haqida gapirib ber-

chi, unda nima yozilgan? Qutiboyevning ayishicha, buni Kazingapning so'zlaridan, ancha-munchasini esa sendan yozib olgan emish. Shundaymi?

— Xuddi shunday, — deya jonlandi Edigey. — Qadimda Sario'zakda bir voqea sodir bo'lib, keyinchalik el og'zida afsonaga aylantib ketgan emish. Sal narida naymanlarning qabristoni bor, bir vaqtlar u naymanlarniki ekan, hozir hammaga qarashli — Ona Bayit deb ataladi. O'sha yerga manqurt o'g'li tomonidan o'ldirilgan Nayman ona dafn etilgan ekan...

— Bo'ldi, bo'ldi, daftarni o'qib chiqib bu qushning qanoti ostida qanday sir-asror borigini o'zimiz bilib olamiz, — dedi chag'irko'z daftarni varaqlagan Edigeyga boyagidek eshittirib o'qib, o'z munosabatini bildirganday: — Do'nanboy qushi emish! Hm, o'ylab topganlarini qara. Odanning ismiga qo'yilgan qush emish. Yana bir yangi yozuvchi chiqibdi-da. Yangi Muxtor Avezov¹ paydo bo'lganga o'xshaydi. Feodal o'rtnish yozuvchisi. Do'nanboy qushi ham... Bizni tushunmaydi deb o'ylasa kerak... Xilvatxonada yashirilib olib, yozib yotibdi. Bolalariga emish, hm... Mana bu-chi, bu nima? Bu ham, seningcha, bolalariga atalganmi? — chag'irko'z kleyonka mugovali yana bir daftarni Edigeyning yuziga tutdi.

— Bu nima? — dedi Edigey tushunmasdan.

— Nima emish? Nimaligini sen bilishing kerak. Mana ko'r, nima deb nomlanganini: «Raymali og'aning inisi Abdilxonga ayligani».

— To'g'ri, bu ham afsona, — deb gap boshladi Edigey. — Bu bo'lib o'tgan voqea. Eski odamlar buning tarixini yaxshi bilishadi...

— Ovora bo'lma, men ham bilaman! — chag'irko'z Edigeyning gapini bo'ldi. — Qulog'imga chalinganday bo'luvdi. Ajjib qolgan qari chol o'n to'qqiz yashar qizni sevib qoladi. Buning nimasi yaxshi? Bu Qutiboyev deganing dushmangina

¹ Muxtor Umarxonovich Avezov (1897-1961) — qozoq yozuvchisi, olim. «Xenglik — Kebeke» internediyasi, «Kundoshlar» pesasi, «Asov tulporlar haqida», «Qozoq qalnakushlariga o'cinu xato» maqolalari, «Abay», «Abay yo'lib epopeyasi kabi asarlar muallifi. Shuningdek, «Er Tarzi», «Alpomish», «Manasa» dostonlarini haddiq etgan.

emas, ma'naviy buzuk kishi ham ekan-ku! Bu iflosliklarni ipidan-ignasigaicha yozib olganiga qara-ya.

Edigey qizarib ketdi. Uyalganidan emas, uning qalbi g'azabdan jo'shib ketgan edi, chunki Abutolibga nisbatan bundan ortiq adolatsizlik bo'lishi mumkin emas edi.

Edigey arang o'zini bosib dedi:

— Sen shuni bilib qo'yki, qanaqa lavozimda ekanligingni bilmayman, ammo bu masalada Abutolibga til tekiza ko'rma. Qaniydi, endi hamma ham shunday er bo'lsa! Qanaqa odamligini shu yerdagi istagan kishidan so'ra, aytib beradi. Bu yerdagilarni barmog' bilan sanasa bo'ladi, bir-birimizni besh qo'lday yaxshi bilamiz.

— Bo'ldi, bo'ldi, o'pkangni bos, — dedi chag'irko'z. — Boshlaringni aylantirib qo'yibdi u. Dushman hamma vaqt o'zini turti maqomga solib yuradi. Biz esa uni fosh etamiz. Bo'pti, ozodsan, boraversang bo'ladi.

Edigey o'midan turti. Telpagini kiya turtib, tutilib qoldi:

— Uning taqdiri nima bo'ladi? Endi nima qilish kerak?

Shunaga yozuvlar uchun ham odamni qamash mumkinmi, axir?

Chag'irko'z o'midan turtib ketdi:

— Ey, senga yana qaytarib aytaman: bu sening ishing emas! Dushmani nega ta'qib etamiz, qanaqa muomala qilamiz, qanday jazolaymiz — buni o'zimiz bilamiz. Buning uchun sen bosh qo'irmay qo'ya qol. O'z yo'lingni bil. Bor!

Shu kuni kechasi yotar oldida yo'lovchi poyezdi «Bo'ronli» bekatida yana to'xtadi. Faqat bu gal teskari tomonga borardi. U ko'p turmadi. Uch daqiqalar chamasi. Birinchi yo'lining sahnida qorong'ida Abutolibni olib ketayotgan haligi xrom etikli uch kishi poyezdning kelishini kutishardi. Ulardan biriz naritog'da, beso'nagay gavdalari bilan Abutolibni to'sib turgan o'sha kishilar ortida bo'ronliklar — Zarifa bilan bolalari, Edigey, Ukkubola va bekat boshlig'i Abilov turishardi.

Abilov bo'lar-bo'lmasga bo'zchining moksidedek u yoqdan bu yoqqa yurib turardi, chunki poyezd jadvalda ko'rsatilganiga qaraganda yarim soat kechikayotgan edi. Ammo, uning bu ishga daxli yo'q-ku! Jimgina turavermaydimi?! Abutolibning

uyidan topilgan o'sha mash'um rivoyatlar xususida so'roqdan o'tgan Kazangap esa bu mahal navbatchilikda edi. U Abutolibni Sario'zakdan olislariga olib ketadigan poyezdga o'z qo'li bilan yo'l ochishi kerak edi. Bo'key Edigeyning uyida uning qizaloqlariga qarab qolgan edi.

Etik kiygan o'sha uch kishi shamoldan yoqalarini ko'tarib, Abutolibni bu yoqda turganlardan gavdalari bilan to'sib olganday jiddiy bir qiyofada sukut saqlab turishardi. Abutolib bilan vidolashishga chiqqan bo'ronliklar ham churq etishmasdi. Shamol qor to'zonini uchirib bilinar-bilimas hushtak chalib turardi. Chamasi, qor bo'roni boshlanishidan darak berardi. Qop-qorong'i Sario'zak osmoni rutubati havo bilan to'yinib, yanada quyuglashib borayotgandek. Oy bo'lsa sarq'ish bir dog'singari ma'yus tortib arang shu'lalanib turardi. Ayoq quloqchakkani chimdilaiddi.

Zarifa eriga berib yubormog'chi bo'lib olib kelgan kiyim-kechakni, oziq-ovqat solingan tugunchagini ushlagancha, ich-ichidan yig'lab turardi. Ukkubolaning og'zidan buralib chiqayotgan qalin bug' uning entikib-entikib yig'layotganini ko'rsatardi. U po'stagining bari bilan Dovulni o'rab-chirmab olgandi. Dovul nimanidir sezgandek indamasdan xolasi Ukkubolaga yopishib olgancha bezovtalanardi. Hammadan ham Ern akka qiyin bo'ldi. Edigey uni shamoldan pana qilib, qo'lga ko'tarib olgandi. Bu narsalardan hali uning xabari yo'q edi.

— Atika, atikal — deya chag'irardi u otasini. — Bu yoqqa keling, biz ham siz bilan birga boramiz!

Abutolib har gal bolasining vijir-vijirini eshitganda butun vujudi qaqshab unga yalt etib qarab olardi-da, beixtiyor, nimalardir demog'chi bo'lardi-yu, lekin unga qayrilib qarashga ruxsat berishmasdi. Oxiri o'sha uch kishidan biri o'zini tutib turolmadi:

— Bu yerda turmanglar! Eshityapsizlarni? Nari ketinglar! Keyin kelasizlar, — deya o'shurgandan keyingina orqaga chekinishga to'g'ri keldi.

Bu orada uzog'dan parovozning chirog'i ko'rindi. Hammalari o'rnlardan qo'zg'alib qolishdi. Zarifa o'zini tuta olmay

ikki kishi Abutolibni vagon zinolari tomon tortqilashdi.

Edigey bilan Abutolib so'ngida qattiq quchoqlashib, tikandek dag'al, naml yuzlarini bosishib, birining galbidagini ikkinchisi butun borig'i, aql-idroki bilan sezib turganday, bir zum jim turib qolishdi.

— Bolalarga dengiz haqida so'zlar ber! — deya shivirladi Abutolib. Uning oxirgi aytilgan so'zi shu bo'ldi. Edigey buni darhol tushundi. Ota bolalariga Orol dengizi haqidagi rivoyatlarni so'zlab ber, demogchi edi.

— Bo'ldi endi, yetar, bo'ldi deyapman senga! — Yigitlar ikkalasini ikki tomon tortqilashdi. Ular orqadan yelkalarini bilan surgancha Abutolibni vagonga kirgizishdi. Mana shundagina bolalar vidolashuvning dahshatli mohiyatini fahmlab olishdi. Ular baravariga chingirib yig'lab yuborishdi:

— Atkal! Atkal! Atkal! Atkal!

Shunda Edigey, cho'chib ketganday, qo'lida Ermak bilan vagon tomon otildi. Chiroq ko'targan ayol keng yelkalarida yopirilgancho yotib o'tirib olib:

— Qayoqqa, qayoqqa? Xudo ko'tarsin seni! — deya jon-jahdi bilan edigeyning ko'krigidan itara boshladi.

Biroq bolalar chingirib yig'laganda joni achib ketgan Edigey Abutolib bilan birga qamalib ketishga ham rozi bo'lib, yo'lida borayotganda chag'irko'zni o'z qo'llarida bo'g'ib o'tirishga tayyor ekanligini hech kim xayoliga keltirmadi.

— Bu yerda turmanglar! Nariga ketinglar, nariga! — deb chiroq ko'targan xotin shovqin solardi. Og'zidan tamaki hidi bilan pivoz hidi aralashib chiqqan bug' Edigeyning yuziga urildi.

Tugun qo'lida qolganini Zarifa birdan esladi.

— Manavini berib qo'yning, yo'l o'ziga! — deb u tugunini vagon ichiga irg'itdi.

Pochta vagonining eshiklari yopildi. Hamma yoq jinitib qoldi. Parovoz signal berib, o'tmidan qo'zg'aldi. G'ildiraklar g'ijirlab aylanib, sekin-asta yurib ketdi.

Bo'ronliklar zich yopilgan vagon bilan yonma-yon yurib, poyezd jo'navotgan tomonga talpinib borishardi. Avvalo, Ukkubolaning esiga keldi. U Zarifani quchoqlab, bag'riga bos-

gancha qo'yamay turdi:

— Doyul, ketib qolma! Shu yerda tur! Opangni qo'lidan ushlab ol! — derdi u baland ovozda yonginalardan tobora tezligini oshirib o'tib borayotgan g'ildiraklarning taqa-tuq ovozi bosishga urinib.

Edigey Ermakni ko'tarib olganicha poyezd bilan baravar yugurib ketaverdi, nihoyat vagon quyrug'ini qizartirib o'tib ketganidan so'ngina arang to'xtadi. Poyezd tinib borayotgan ovozlarni o'zi bilan birga olib olislab ketdi, miltiragan chiroqlar ham so'nib qoldi. Parovozning so'ngi bor cho'zib gudok bergani eshitildi.

Edigey orqasiga burildi. U yig'layotgan bolani ancha vaqtgacha ovula olmadi...

Uyiga kelgandan so'ng pechka yonida boshi gangib o'tirarkan, tun yarmiga borib Abilovni esladi. O'tmidan turib, kiyina boshladi. Ukkubola darhol tushundi:

— Qayoqqa? — deb erining yengidan ushlab oldi. — Yaxshisi, unga tega ko'rma! Xo'tini ko'z yoray deb turgan bo'lsa. Qolaversa, unga tegishga haqqing yo'q, isbotlashga qo'llingda daliling ham yo'q!

— Sen tashvish tortma, — dedi Edigey bamaylixotir. — Men unga tegmayman, biroq bu yerdan ketishi ma'qul ekanligini bilishi kerak. Ishonching komil bo'lsin, qo'l ko'tarmayman! — deya yengini tortib olib, uydan chiqib ketdi.

Abilovlar derazasidan hali yotug' tushib turardi. Demak, hali uxlamabdi.

Edigey yo'l-g'izoyog' yo'lidan g'arch-g'urch qor bosib keldi-da, muzlab qolgan eshikni qattiq taqillatdi. Eshikni Abilov ochdi.

— Ha, Edike, kir, kir, — dedi-da qo'rqib ketganidan rangi o'chib orqaga tislandi.

Edigey sovuqdan bug' taratib, indamay ichkariga kirdi-da, o'zi bilan eshikni yopib oldi.

— Sen bu sho'rliklarni nega yetim qoldirding? — dedi u o'zini vazmin tutishga harakat qilib.

Abilov tiz cho'kib, Edigeyning po'stini etagiga yopishdi.

– Xudo ursin, men emasman Edike! Agar yolg'on gapirgan bo'lsam, xotinim tug'olmay o'lsin! – U birdan tilga kirib, qo'rquvdan qotib qolgan homilador xotiniga o'g'irilib qaradi. – Xudo ursin, men emas, Edike! Nahotki men shunday qilsam! Bu o'sha revizorning ishi! Esingdami, Qutiboyev nima yozadi, nega yozadi, deb hadeb so'rab-surishtiraverardi. Ha, bu o'sha revizor! Nahotki men shu ishni qilsam! Xotinim tug'olmay o'lsin, mayli! Hali poyezdni kutib turganda o'zinni qo'yarga joy topolmay qoldim. Yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketsam! O'sha revizor joni-holinga qo'ymay hadeb savolga tutaverdi, tutaverdi, maqsadini men qayerdan bilayin... Agar bilganimda edi...

– Mayli, qani o'rningdan tur, – deb so'zini bo'ldi Edigey. Odam qatori gaplashaylik. Mana, xotinim guvoh. Ishqilib, omon-eson qutulib olsin. Gap hozir boshqa yozda. Sen hatto suvdan toza, sudan oq bo'lgan taqdirda ham... Qayerda yashasang, senga barbir emasmi. Biz bo'lsak, ehtimol, o'la-o'lgunimizcha shu yerda qolib ketarniz. Bir o'ylab ko'r. Balki, vaqi kelib boshqa ishga o'tib olganing ma'guldur. Maslahatim shu. Gap tamom-vassalom! Bu to'g'rida boshqa gap ochmaymiz. Senga shuni aytgani kelgan edim, xolos...

Edigey eshikni shartta yopib, tashqariga chiqdi.

IX

Tinch okeanda, Aleutning janub tomonida allaqachon kech kira boshlagan edi. Okean hali ham sekin to'liqinlanib, suv yuzasi hamon ko'z ilg'agancha jimirlab-ko'piklanib, to'liqinlar ortidan to'liqinlar quvlashib, ufqdan ufqgacha yoyilgan butun suv olami harakatlanib turardi. «Konvensiya» aviabardori to'liqinda chayqalmog'da. U avvalgi o'rinda, San-Fransisko bilan Vladivos-tok orasidagi havo yo'lining qoq o'rtasida edi. Xalqaro ilmiy dasturni bajarayotgan kemaning barcha ishchi-xizmatchilari harakatga shaylanib turishardi.

Ega yorug'lik tizimida g'ayrizaminiy tarqiqiyot borligi aniqlangani natijasida vujudga kelgan favqulodda holatni tadqiq

etish uchun aviabardor bortidagi maxsus vakolatga ega komissiyaning shoshilinch yig'ilishi nihoyasiga yetayotgan payt. O'zbo-shimechalik bilan o'zga sayyoralaridan kelgan jonzorlarga qo'shib ketib qolgan 2-1 handa 1-2 pariet-fazogirtlar hanuzgacha To'gayto'sh sayyorasida turishgan edi. Ular Qo'shmarbosh tomonidan, «Pariet» samoviy bekatining radioaloqasi orqali ularning ko'rsatmasisiz hech qanday xatti-harakat qilmaslik to'g'risida uch marotaba ogohlantirildi.

Qo'shmarboshning bunchalik qat'iy talabi haqiqatda kishilarning sarosimaga tushib qolganidagina emas, balki hamkorlikning to'la-to'kis barbod bo'lishidan, ayniqsa, ochiqdan ochiq qarama-qarshilikka olib boruvchi g'oyatda murakkab va tobora keskinlashib borayotgan vaziyatdan, tomonlar orasidagi ixtilofning shiddatli tus olayotganidan darak berardi. Yaqindagina buyuk davlatlarning ilmiy-texnikaviy qudratini mutanosiblashirish maqsadida ikki tomonni bir-biriga bog'lab turgan «Demiurg» dasturi o'z-o'zidan ikkinchi rejaga tushib qoldi – g'ayrizaminiy tarqiqiyotning kashf etilishi munosabati bilan kutilmaganda paydo bo'lgan supernuammlar qarshisida ilgari-gi ahamiyatini yo'qotib qo'ydi. Komissiya a'zolari shuni yaxshi tushunar edilarki, misli ko'rilmagan va hech nima bilan qiyos etib bo'lmaydigan bu kashfiyot hozirgi jahon uyushmasi asoslarini, avlod-ajdodlarning ongida asrlar davomida targ'ib etilib, shakllanib kelgan tushunchalarni, ya'ni yashash go'dalarining butun majmuni mutlaqo yangicha imtihondan o'tkazishni taqozo qilardi. Yer yuzining umumiy xavfsizligi haqidagi mulohazalar qarshisida bunday g'alus islg'a kim jur'at eta olardi, deysiz?!

Tarixiy inqiroz paytlarida ro'y berganidek, bu safar ham Yerdagi ikki ijtimoiy-siyosiy tizimning asosiy ziddiyatlari bor kuchi bilan oshkor bo'ldi.

Bu masala muhokamasi qizg'in munozaraga aylanib ketdi. Nuqtai nazarlarning turlichaligi, masalaga bo'lgan munosabatning har xilligi sababli bahs tobora munosasiz tus ola boshladi. Bahs-torishuvlar kuchayib to'qnashuvlarga, o'zaro do'q-po'pisalarga, agar tomonlar o'zlarini tiya olmasalar, albatta, jahon urushiga aylanib ketadigan ixtiloflarga yaqinlashmog'da

edi. Tomonlar voqealarning bu yo'sinda jiddiy tus olishi hamma uchun xatarli ekanini nazarda tutib, o'zlarini tiyishga harakat qilishardi, biroq har ikki tomonni o'zini tiya bilishga undaydigan yana bir muhim omil, bu — Yerdan tashqari taraqqiyot to'g'risidagi xabarning butun odamzod orasida tarqalishini xohlamaslik, aniqroq aytganda, Yer yuzidagi ong-sezginining stixiyali ravishda portlab ketishi xavfi edi. Bu taqdirda, ishning ne oqibatlarga olib kelishiga hech kim kafil bo'la olmas edi...

Oxiri aql-idrok ustunlik qildi. Tomonlar noilojlikdan bu safar ham qat'iy baravarlik negizida murosayi-madoraga kelishdi. Shu munosabat bilan «Paritet» samoviy bekatiga Qo'shmarboshning quyidagi mazmunda kodlashgan radiogrammasi jo'natildi:

«1-2 hamda 2-1 nazoratchi-fazogirlarga. Sizlarga «Paritet» bori tizimlari orqali Quyosh Galaktikasidan tashqarida — «Ega» deb atalmish yorug'lik tizimidagi To'qayto'sh sayyorasida yurgan 1-2 hamda 2-1 paritet-fazogirlar bilan to'xovsiz ravishda radio aloqasi bog'lash vazifasi yuklanadi. Ularni zudlik bilan xabardor etmoq kerakki, 1-2 hamda 2-1 paritet-fazogirlar kashf etgan g'ayrizaminiy taraqqiyot to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqqan ikkala tomon komissiyalarining xulosasiga asoslanib, Qo'shmarbosh quyidagi qat'iy qarorga keldi:

a) sobiq 1-2 va 2-1 paritet-fazogirlarni Yer taraqqiyotiga nomatlub shaxslar sifatida «Paritet» samoviy bekatiga, shu bilan birga Yerga qaytib kelishlariga yo'l qo'yilmasin;

b) yerliklarning bugungi tarixiy tajribasi, hayotiy manfaatlari hamda hozirgi taraqqiyot xususiyatlari To'qayto'sh sayyorasida istiqomat qiluvchi jonzorlarga mulqo to'g'ri kelmasligi tufayli ular bilan har qanday aloqa bog'lashdan voz kechganimiz ma'lum etilsin;

v) sobiq 1-2 va 2-1 paritet-fazogirlari, shuningdek, ular

¹ Stixiya (yunoncha: stoicheion — unsur, element; itido, asos) — 1) kuchli tabiiy ofat (yong'in, toshqin, dovyul, zilzila va shu kabilar); 2) ko'r-ko'rona, bebosh hurkat; uyushmaganlik; uyushtirib va idora qilib bo'lmaydigan jittimoiy kuch. Stixiyali — 1) kishilarning hodisadan, xohishidan tashqari tabiiy kuchlar ta'siri ostida yuzaga keladigan; 2) uyushmagan, to'g'ri tashkil etilmagan, idora qilib bo'lmaydigan.

bilan munosabatda bo'lgan o'zga sayyoralar ogohlantirishim, o'zga sayyoraliklar «Tramplin» orbitasidan «Paritet» samoviy bekatiga kelgan chog'laridagidek yana yerliklar bilan aloqa bog'lashga, ayniqsa, Yer atrofi muhitiga kirishga harakat qilmasinlar,

g) o'zga sayyoralarning uchar apparatlari bostirib kelish ehtimolidan Yer atrofidagi kosmik fazoni asrab qolish maqsadida «Chambarak» deb atalmish favqulodda transkosmik tezlikda operatsiya boshlanganini Qo'shmarbosh e'lon qiladi. Koinotda Yer kurtasiga yaqinlashib kelayotgan har qanday narsani yadrolazer nuri bilan yo'q qilib tashlashga mo'ljallangan harbiy raketa-robotlar belgilangan orbitalarni qo'riqlab uchib yurishlari dasturlashtirilsin;

d) o'zga sayyoralik mavjudotlar bilan o'zbo'shimchalarcha aloqaga kirishgan sobiq paritet-fazogirlarga yerliklarning xavfsizligi hamda barqaror geosiyosat holatini saqlab qolish maqsadida ular bilan aloqa bog'lash mumkin emasligi ma'lum qilinsin. So'ng sodir bo'lgan hodisani nihoyatda qat'iy sir saqlash va yangidan aloqa bog'lashga yo'l qo'yimaslik uchun barcha chora-tadbirlar ko'ritilsin. Shu maqsadda «Paritet» bekatining orbitasi to'xovsiz ravishda o'zgartirilib, bekatning radioaloqa kanallari yangidan kodlashtirilsin;

e) Yer kurtasi atrofini qurshab olgan «Chambarak» zonasiga yaqinlashish xavfi ekani haqida o'zga sayyoraliklar qayta ogohlantirilsin.

Qo'shmarbosh. «Konvensiya» aviabardori borti.

Qo'shmarbosh ana shunday xavfsizlik choralarini ko'rish bilan birga, noma'lum sayyorani o'zlashtirish uchun qurilgan «Demiurg» dasturini belgilanmagan vaqtga qadar to'xtatib qo'yishga majbur bo'ldi. «Paritet» samoviy bekatini boshqa aylanish parametrlarga o'tkazish, undan kundalik kosmik kuza-tishlar uchun foydalanish lozim. Ilmiy-tadqiqot uchun birlashgan «Konvensiya» aviabardorini saqlab turishni neytral Finlyandi-yaga topshirishga qaror qilindi. «Chambarak» tizimi olis kosmosga uchirilgach, barcha paritet xizmat sohalari, ilmiy va ma'muriy xodimlar, jamiki yordamchi xizmat idoralardan Qo'shmarbosh faoliyatining to'xtash sabablarini o'la-o'lguncha hech

kinga oshkor etmayman, degan mazmunda tilxat olingandan so'ng ularni tarqatib yuborish lozim topildi.

Keng jamoatchilikka noma'lum sayyorada juda katta tadqiqotlar o'tkazish zarurati tug'ilgani munosabati bilan «Demiurg» dasturi bo'yicha belgilangan ishlar ma'lum vaqtga cha to'xtatildi, deb e'lon qilish nazarda tutildi.

Hamma narsa pishiq-puxta o'ylab ko'rilgan, «Chambarak» shoshilinch ravishda Yer kurtasi aylanasiغا chiqarilishi bilanog ana shu tadbirlarning hammasi amalga oshirilishi lozim edi.

Bundan oldin, komissiyalar kengashi tugatilishi bilanog barcha hujjatlar, shifrovkalar, sobiq partiet-fazogirlar yuborgan ma'lumotlar, bayonnomalar-u plyonkalar hamda bu gayg'uli voqeaga biror-bir aloqasi bo'lgan jamki qog'ozlar yo'q qilib tashlandi.

Tinch okeanda, Aleutning janubrog'ida kech kirardi. Ob-havo avvalgiday mo'tadil. Biroq, har holda, okean to'liqlari asta-sekin kuchaya boshladi. Chor atrofdan to'liqlarning shov-shuvi eshitilardi.

Aviabdordagi aviaganot xizmatchilari maxsus vakolatga ega bo'lgan komissiya a'zolarining kengashi tugab samolyotga chiqishlarini sabrsizlarcha kutardi. Nihoyat, ular bir-birlari bilan xayr-xo'shlashib bir qismi shu samolyotga, qolganlari esa boshqa samolyotga chiqishdi.

Aviabdordoring sal-pal chayqalib turishiga qaramay, uchish xiyala yaxshi o'tdi. Laynerlarning biri San-Fransiskoga, ikkinchisi qarama-qarshi tomon – Vladivostokka qarab yo'l oldi.

Shamol yalab-yuldayotgan Yer o'zining azaliy o'qi atro-fida aylanardi. U had-hududsiz koinotda qum zarrasi yanglig' ko'rinar. O'lamda bunday qum zarralarining adog'i bormi?... Faqat ana shu zarrada, ya'ni Yer sayyorasidagina odam zoti yashab kelmoqda ekan. Yashaganda ham qo'lidan kelgancha, aql-zakovati yetgancha yashab kelmoqda. Gohida esa boshqa sayyoralarda ham bizga o'xshash jonzorlar bormikan, deb bilish-ga urinib ko'rishdi. Bahs-munozara, farazlarga ishonib, Oyga ham qo'nishdi, avtomat apparatlarni boshqa samoviy jismlarga

uchirishdi, biroq Quyosh tizimi atrofi-da ularga o'xshagan hech kim va hech narsa, umuman hayot yo'qligiga ishonch hosil qilib, qattiq afsuslanishdi ham. So'ng ular buni unutib yuborishdi. U haqda o'ylash u yodda tursin, turmushlarini, o'zaro munosa-batlarini o'nglay olmay qoldilar. Yashash uchun rizq-ro'z topish qiyin bo'lib qoldi-da... Ko'pchilik osmon bilan shug'ullanish bizning ishimiz emas, degan xulosaga keldi. Yer esa hamon o'z o'qi atrofi-da aylanaverardi.

O'sha yanvar oyi qish qattiq kelib, quyosh g'ira-shira nur sochardi. Bu sovuq Sario'zakka qayodan keldi ekan! Poyezdlar izg'irin ayoqdan oqarib, to'ng'ib qolgan buksalar bilan o'tishar-di. Ajib bir manzara: qorayib ketgan neft quyuvchi qator-qator sistemalar izg'irin shamoldan, qirovdan butunlay oqarib ketgan-cha bekatga kelib to'xtashar edi. Ularni siljitish ham oson emas. Bir-biriga ulangan parovozlar go'yo ikki yelka bilan tortganday sistemalarni kuchanib tortishar, to'ng'ib qolgan g'ildiraklarni relslardan uzib olgudek bo'lishardi. Vagonlarni qo'zg'atishga zo'r berayotgan parovozlarning o'shqirishi temirlarning taraqturug sadolariga qo'shilib, ayozli havoda uzoq-uzoqlargacha eshitilardi. Tumlari bo'ronliliklarning bolalari gumbur-gumbur-dan cho'chib uyg'onar edilar. Bu ham kamlik qilgandek, yo'llar-ni qor uyumlari berkitib tashlagan. O'lganning ustiga tepgani shu-da! O'chakishganday shamol qutura boshladi. Sario'zakda shamol uchun keng maydon mavjud, uning qaysi tomondan boshlanishini bilib bo'lmaydi. Bo'ronliliklar nazdida, shamol qorni ataylab temir yo'lga surib kelayotgandek tuyulardi. U go'yo har qanday kichik teshikni qidirib topardi-da, uni qor bilan to'ldirib, temir yo'lini ko'mib yubormogchi bo'lardi.

Edigey, Kazangap, yana uch nafar ishchi ertadan kech-gacha yo'l tozalash bilan ovora. Bekatning goh u tomonida, goh bu tomonida yo'l tozalashadi, Tuya chana-lari ishga yarab qoldi: qor uyumlarining ustki qatlamini chana bilan surib, yo'ldan chiqarib tashlar, qolganini qo'l bilan kurashardi. Edigey Qora-norni ayamasdi, yak tortishda Qoratorga teng bir tuyani chanaga qo'shib qichagancha qamchilab ishlatardi. U qor to'dalarini ko'ndalang qo'yilgan taxta yordamida chiqarib tashlar, orqasi-

dagi taxtaning ustiga chiqib, chaniani og'irligi bilan bosib turardi. Bundan o'zga moslama u mahallari yo'q edi Maxsus qor tozalash mashinasi – qor uyumlarini ikki tomonga surib, yo'l ochadigan lokomotivlar chiqqani haqida mish-mish gap tarqalgan edi, xolos. Tez orada ana shunday mashinalardan yuboramiz, deb va'da berishdi, ammo bu va'dalar quruq gapligicha qolaverdi.


Yozda ikki oy chamasi havo miyani suyultirib yuborguday qizidi, endi ayoz havodan nafas olishga kishi yuragi betlamaydi, o'pkani yoritib yuborguday bo'ladi. Baribir, poyezdlar bu yo'lidan o'tib turishardi, demak, ishini to'xtatib qo'yish mumkin emas. Edigeyning sog'oli rosa o'sib ketdi. O'sha qish birinchi marta sog'oliga oq oralaganini ko'rdi. Uyqusizlikdan ko'zlari qizarib, qovoqlari shishib ketdi, yuzini ko'zguda ko'rish qo'rqinchili, cho'yanga aylanib ketgan edi. Po'stini egnidan sira tushmaydi. Uning sirtidan brezent chopon kiyib olgan. O'yog'ida kigiz etik.

Biroq Edigey qanday ish bilan mashg'ul bo'lmasin, qiyinchiliklarga duch kelmasin, Abutolib Qutiboyevning boshiga tushgan mushkulot xayolidan nari ketmasdi. Yuragiga qattiq botgan ekan. Qanday qilib bu hodisa yuz berdi, nima bilan tugallanadi, deb Kazangap ikkovi hadeb bosh qotirishardi. Kazangap ko'pincha xomush yurar, qovog'ini solib, uzoq xayolga cho'mardi. Bir marta u:

– Hamisha shunday bo'lib kelgan. Tekshirib ko'rishganlaricha... Ilgari zamonlarda: «Xon Xudo emas. U yonidagilarning nima bilan band bo'lib yurganini hamisha ham bilavermaydi, yonidagilar esa bozorda soliq yig'ib yurganlarning nimalar bilan shug'ullanayotganini bilishmaydi», deb bejiz aytishmagan. Hamisha shunday bo'lgan, – dedi.

– Shu ham gap bo'ldi-yu, aqlingga barakalla! – Edigey norozi bo'lganday uni mazax qildi. – Shuning uchun ham xonlarning adabini berib qo'yishdi-da. Axir, gap bunda emas-ku!

– Nimada bo'lmasa? – so'radi Kazangap haqli ravishda.
– Nimada, nimada! – Edigey jahli chiqib po'ng'illadi, biroq javob qaytarmadi. Bu savol miyasiga o'mashib qoldi-yu, javob topolmay yuraverdi.



Falokat kelsa ustma-ust kelar ekan. Abutolibning to'n-

g'ich o'g'li Dovul qattiq shamollab, isimasi oshib yotib qoldi. U alahisardi, yo'taldan qiyinalardi, tomog'i og'ir edi. Murrak bezlari shamollagani uchun Zarifa uni har xil dori-darmonlar bilan davolamoqchi bo'lardi. Ammo afsuski, bolalar yonida doimo bo'lolmasdi: strelkachi – yo'l ochuvchi bo'lib ishlar: goh kechasi, goh kunduzi navbatchilik qilishga to'g'ri kelardi. Bolalar tashvishini Ukkubola o'z zimmasiga oldi. Abutolib oilasi sharoitini ko'rib o'zining ikki qizi bilan birga to'rt bolani boqardi. Edigey ham qo'lidan kelgancha yordam berdi. Erta tongda bostirmadan ular baragiga ko'mir olib kelar, vaqti bo'lganida, pechkaga o't yoqib ketardi. Axir, toshko'mirni tutatish uchun ham mahorat kerak. Bolalarga kechgacha issiq bo'lsin deb, bir yarim chelak ko'mirni pechkaga solib qo'yadi. Boshi berk yo'lida turgan sistemadan ham o'zi suv olib keladi, tutantirib qilish uchun o'tin yoradi, xullas, qo'lidan kelganini qiladi. Bular-ku, uncha og'ir emas. Biroq Abutolib bolalarining mo'ltiragan ko'zlariga qararkan, savollariga javob bera olmay yurak-bag'ri ezilardi. Kattasi to'shakda kasal yotibdi, u o'zini bosib olgan, kangap, lekin kenjasi Ernak onasiga tortgan. Harakatchan, mehnibon, nihoyatda sezgir, ham ko'ngilchan. U bilan birga bo'lish oson emas. Edigey ertalab ko'mir keltirib, pechkaga o't yoqgan paytlarda bolalarni uyg'otib yubormaslikka harakat qilardi, ahyon-ahyonda bolalarga bildirmay chiqib ketardi, xolos. Ernak sal narsaga uyg'onardi. Ko'zini ochishi bilanog uning birinchi savoli shu edi:

– Edigey amaki, atikam bugun keladimi?

Bolakay yalang'och, oyoqyalang holda ko'zlarida so'n-mas umid bilan u tomon yuguradi, Edigey «ha» desa – bas, go'yo otasi ertasiyog'och, albatta, qaytib kelib, yana ular bilan uyda birga bo'ladiganday. Edigey bu o'zgi in bolani quehoq ochib bag'riga bosib oladi-da, yana qayta to'shagiga yotqizadi va katta kishi bilan gaplashganday gaplashadi:

– Bugun otangning kelish-kelmasligini ayto olmayman, Ernak. Biroq u qaysi poyezdda kelarini bekatdan xabar qilishlari kerak. Yo'lovchi poyezdlarning bizda to'xtamasligini o'zing



yaxshi bilasan. Eng katta dispetcher buyrug'i bilangina to'xtaydi. Taxminimcha, erta-indin xabar qilishadi. Ana o'shanda ikkovimiz, agar ungacha Dovul ham tuzalib qolsa, uchalamiz otangni kutib olgani chiqamiz.

– Atika, mana, biz sizni kutib olgani chiqdik, deymiz-a? – deydi kattalardек bola.

– Albatta, xuddi shunday deymiz! – deya uning so'zini ma'qullaydi Edigey.

Ziyrak bolani aldab ketishning o'zi bo'lmaydi.

– Edigey amaki, keling, u safargidek poyezdga tushmaylik-da, haligi eng katta dispetcherga borib, atikam kelayotgan poyezdni to'xtatib berishini so'raylik.

– Axir, u mahal yoz, kun issiq edi. Hozir yuk tashuvchi poyezdda qanday boramiz? Ayoq, izing'irin. Ana quyapsamni, deraza oynalari muzlagan, yetolmasdan qotib qolaniz. Yo'q, u yoqqa borish juda xavfli.

Bola ko'ngli cho'kib, indamay qoladi.

– Sen hozircha yotib tur, men Dovulga qarayin, – deya Edigey bahona topadi-da, kasalning to'shagi oldiga kelib, kaftlarini bolaning issiq chakkasiga bosadi.

Dovul zo'rg'a ko'zini ochib, istmadan qaqragan lablari bilan arang jilmayadi. Isitmasi hali ham pasaymagan, shekilli.

– Ustingni ochma. Terlabsan. Tushundingni, Do.vul? Beshbattar shamollab qolasan. Ernak, Dovul yozilgisi kelsa jomni olib ber, xo'pmi? O'midan turmasin. Hadenay, oying ham navbatchilikdan kelib qoladi. Ukkubola yanganglar esa halizamon kelib ovqat beradi sizlarga. Dovul sog'aygandan so'ng biznikiga chopib kelasizlar-da, Saula, Sharofatlar bilan o'ynaysizlar. Men ishga borayin, yo'qsa, poyezdlar to'xtab qolishadi, qara, qor yog'yapti, – derdi Edigey ketish oldidan.

– Edigey amaki, – derdi shunda tinim bilmas Ernak bo'sag'aga yetib qolgan Edigeyga. – Atikamning poyezdi kelib to'xtagan kuni agar ko'p qor yog'sa, men ham borib qor kurayman. Kichkinagina kurakcham bor.

Edigey har safar bolalar oldidan yuragi o'ttanib chiqib ketardi. Alandan, o'jizlikdan, achinganidan izitrob chekardi.

Butun olam ko'ziga qorong'i ko'rinar, oxiri alamini shamoldan, qor uyumlaridan, tinim bermay ishlayotgan tuyalardan olmoqchi bo'lardi. Butun Sario'zakda ko'tarilgan bo'ronni go'yo bir o'zi to'xtata oladigandek, jon-jahdi bilan ishlardi.

Kunlar tomchilardек bir zaylda orqama-кетин o'tib bordi. Mana, yanvar ham o'tib, sovuqning zahri birez pasaydi. Abutoib Qutiboyevdan esa hech qanday xabar yo'q. Edigey bilan Kazangap turli o'y-xayollarga borib, boshlari qotardi. Boshqalar uchun emas, o'zi uchun bir nima yozganning aybi nimada, u yerda hech qanday ortiqcha narsa yozilmagan-ku, axir. Shuning uchun yaqin kunlar ichida bo'shatib yuborishlari kerak, deb o'yilashardi. Ikkalasining ham umidi so'nmagan edi. Ular ko'ngli cho'kmasin, ruhi tushmasin, deb Zarifaga ham o'giti berishga harakat qilardilar. Zarifaning o'zi ham azbaroyi bolalarni deb, tosh-metindek bardoshi bo'lishi zarurligini tushunardi! U chindan ham tosh-metinga aylandi: o'z dardi bilan bo'lib indamay yurar, og'iz ochib birov bilan gapirishmas, faqat ko'zlarigina xavotirlanayotganday jovdirab turardi. Bu sabr-toqatning qanchaga yetishini kim bilirdi?

Edigey Bo'ron bu mahal qo'tli ishdan bo'shab yaylovda-gi o'tlab yurgan tuyu podalaridan, avvalo, Qororning qanday yurganidan xabar olib kelmogchi bo'ldi. Qoranol podadagi tuyalarning birontasini mayib qilib qo'ymadimkin? Hovuridan tushmaganimkin?

U chang'ida ovuldan chiqdi. Yo'l uncha uzoq emas edi. Tez borib, tez qaytdi. Hammasi joyida. Mollar Tulki Quyruq soyliklarida o'tlab yuritdi, qor deyarli yo'q. Shamol qorlarni uchirib, yon bag'irlardagi o'tlarni ochib ketgan. Xavotirlanmasa ham bo'ladi, deb Kazangapga aytib qo'yimoqchi bo'ldi. Biroq, Edigey avval chang'ini uyga tashlab chiqay, deb yo'ldan qayrildi. Katta qizi Saula uydан cho'chib chiqqan ko'yi otasiga nazar tashlab:

– Ota, oyim yig'ilayapti! – dedi-yu, yana ichkariga kirib ketdi.

Edigey chang'ini iring'itib xavotirlanganicha shoshib uyga kirdi.

Ulkubolaning ho'ngrab yig'layotganini ko'rib, nafasi ichiga tushib ketdi.

— Nima gap? Nima bo'ldi o'zi?

— Bu la'nati dunyoda hamma narsa qurib ketgini! — deya entikib-entikib yig'lardi Ulkubola. Axir u juda ham bardoshi, aqlli-irodali ayol edi-ku.

— Hammasiga sen aybdorsan! Sen!

— Nega? Nima uchun? — dedi Edigey hayralanib.

— Bechora bolalarning boshini aylantirib, yolg'on-yashiq gaplarni ayitsan. Eh, yana bir yo'lovchi poyezd kelib to'xtasa bo'ladimi? Qarasa, ro'paradan boshqasi kelayotgan ekan. Uni o'tkazib yuborish uchun to'xtab turibdi. Ikkovining shu bekatta uchrashganlarini aytmaysammi? Poyezdning to'xtaganini ko'rib qolgan Abutolibning ikki bolasi birday qichqirgancha yugurib: «Ota, otajon! Otajonim keldi!» deb poyezdga yopishsa bo'ladimi. Men bolalarning ortidan yugurdim. Ikkalasi vagondan va-gonga irg'ib: «Ota! Otajon! Otajon qani?» deya chiqqirib yurish-di. Poyezdning tagida qoladi, deb jonim chiqayozdi. Biror eshik ochilmasdi. Ular esa otalarini chaqirishib, yugurib-yelib bori-shardi, qichqirishardi, vagondan vagonga irg'ib chiqishardi. Poyezdning uzunligini-ey! Men yetib kelib kichigini ushlab oldim, kattasining qo'lidan tortguncha poyezd yura boshladi. Ikkalasi ham qo'limdan yulqinib chiqib, «Otajonimiz ketdi, poyezddan tusholmay ketdi!» deb shunday o'kirib dodlashdiki! Bitam yig'lashdi, bitam yig'lashdiki, yuragim zardobga to'ldi, jinni bo'lib qolmasam, deb o'yladim. Ermak yomon ahvolda. Borib bolani yupati! Bor! Yo'lovchi poyezd kelib to'xtaganda, otang keladi, deb aytgan sensan. Poyezd ketib, otasi kelmay qolganini ko'rsang edi! Koshti, ko'rsang edi! Nega endi hayot shunday qurilgan, nega endi ota bolaga, bola otaga shunchalik yurak-bag'ri bilan birlashib yaratilgan ekan-a? Jonni shunchalar qiyinash nima zarur ekan-a!

Edigey bolalar oldiga qat'i e'tilgan kishi singari yo'l oldi. Xudoyim, bu ma'sum qalbarni beixitiyor aldaganim uchun o'larimdan oldin kechir, deb Tangriga iltijo etib borardi. Axir, ularga yomonlikni ravo ko'rmagan edi. Endi nima deydi, qanday

javob qaytaradi?

U kirib kelishi bilan yig'idan ko'zlari tanib bo'lmas darajada shishib ketgan Ermak bilan Dovul qaytadan o'kirib yig'lay boshlashdi. «Poyezd kelib to'xtadi-yu, otajon tusha ol-may ketib qoldi, Edigey amaki, siz poyezdni to'xtating», deb bo'zlab, bir-biriga g'al bermay chug'urlashib unga bo'lgan voqeani tushuntirmoqchi bo'lishdi.

— Sog'indim, otajonimni! Sog'indim, sog'indim! — deya Ermak chinqirar, umid, ishonch bilan, butun vujudi bilan yalini-b-yolvorardi Edigeyning bo'yidan quchoqlagancha.

— Men hozir hammasini bilib kelaman. Jim bo'linglar, bas endi, yig'lamanglar. — Edigey yig'idan o'zini tiyolmay, bolalarni ishonitirishga, yupantirishga intilardi, ularning nazarida, ishongan, tayangan kishisi bo'lgani uchun ham o'zini yo'qotib qo'ymaslikka qiyofasini o'zgartirimaslikka harakat qilardi. Lekin bunisi o'ta qiyin bo'ldi. «Mana, biz hozir boramiz, uchovlon boramiz! — derdi-yu, «Qayoqqa boramiz? Qayoqqa? Kimga boramiz? Nima qilmoq kerak? Qanday iloji bor?» kabi savollar miyasini chulg'ab oldi. Mana, hozir tashqariga chiqamiz, so'ng o'ylashib, gaplashib olamiz. — Edigey nimalarnidir va'da berardi, nimalarnidir aytib g'uldirardi.

Zarifa karavotda yuzini yostiqa burkab olgancha cho'zilib yotardi. Edigey uning yoniga bordi.

— Zarifa, Zarifa! — dedi Edigey yelkasiga qo'l tekizib.

Biroq u hatto boshini ham ko'tarmadi.

— Biz tashqariga chiqib, biroq sayr qilmogchimiz, so'ng biznikiga kiramiz, — dedi u Zarifaga. — Men bolalarni olib ketayman.

Bolalarni yupatish, qolaversa, o'y-fikrlarini jamlab olish uchun o'ylab topgan birdan bir yo'li shu bo'ldi. Ermakni opich-lab, Dovulni esa qo'ldan ushlab oldi. Keyin temir yo'l bo'ylab gangib ketaverishdi. Edigey Bo'tron o'zgalar qayg'usini hali hech qachon burchalik chekmagan edi. Uni opichlagan Ermak hanuz hiqillab yig'lardi, g'am-g'ussaga to'lib nafas olardi. Ana shu uvogqina, sog'inchdan qalbi dard-alamga to'lib-toshgan mur-g'ak bola uning yelkalaridan ushlab ketayotirki, Edigeyning

o'kirgisi kelardi.

Shu zaylda uchovlon temir yo'l bo'ylab, bepoyon Sario'zak sahnosi sari ketaverishdi. Faqat poyezdlar goh u tomon, goh bu tomon guldirlab o'tishardi. Kelishardi, ketishardi...

Edigey ilojisizlikdan yana bir marta bolalarga yolg'on gapirishga majbur bo'ldi. Sizlar yanglishibsizlar, dedi. Hali, tasodifan bu bekatga to'xtab qolgan poyezd boshqa tomonga ketmoqda, otangiz bo'lsa teskari tomondan keladi. Aftidan, u yaqin orada kelmaydi. Ma'lum bo'lishicha, uni katta bir kemada qandaydir dengizga matros qilib yuborishgan ekan, haliyi kema uzoq safardan qaytib kelgan zahoti otangiz uyda hozir bo'ladi. Hozircha sabr qilish kerak. Edigey bu yolg'on so'zni bolalarga haqiqat to'yobga chiqquncha sabr-toqat qilib turish uchun madad bo'ladi, degan niyatda aytgan edi. U Abutolib Qutiboyevning qaytib kelishiga shubhalanmasdi. Vaqt o'tib, haqiqat qaror topgach unga javob berishlari kerak. Bolalarini shunchalar sevgan ota bir daqiqaga ham chidab tura olmaydi... Shuning uchun ham Edigey yolg'on gapirdi. Abutolibni yaxshi bilgan Edigey uy, bola-chaqasidan ajrab yurishning unga naqadar og'irligini o'zgalardan ko'ra yaxshiroq tasavvur etardi. O'z erki bilan ketmagan bo'lsa ham, yaqinda qaytarkan, degan umidda otladan vaqtincha yiroqlashib ketgan boshqa birov balkim, bunchalik qattiq qayg'urib, azob chekmagan bo'lardi. Ammo Abutolib uchun bu ayrtliq eng og'ir jazoga teng ekanini Edigey juda yaxshi bilardi. Shuning uchun ham sud ishini tekshirib, taqdirini hal etgunlaricha chidab tura olarmikin deb, Abutolibdan xavotirlanar edi...

Zarifa bu orada erini so'rab, u bilan uchrashish mumkinmi yoki yo'qligini xabar qilishlarini iltimos qilib, tegishli idoralarga allaqachon bir nechta xat yozib yubordi. Hozircha hech qanday javob kelgani yo'q. Kazangap bilan Edigey ham bosh qotirishardi. Ammo ular buning uchun «Bo'ronli» bekatida bevosita pochta aloqasi yo'qligini sabab qilib ko'rsatishga moyil edilar. Maktub yozgan kishi uni biron kimsa orqali yuborishi yoki o'zi Qumbel bekatiga olib borib tashlamog'i lozim edi. Qolgan xat-xabarlar ham, avvalo, Qumbel bekatiga keladi, so'ngra haligiday vosita orqali yuboriladi... Aloqaning bunday

yo'li, ma'lumki, hamma vaqt ham ishonchli bo'lavermaydi.

Bir safar shunday ham bo'ldi...

Fevral oyining so'nggi kunlarida Kazangap internatdagi Sobitjondan xabar olib kelish uchun Qumbelga bordi. Tuyasini minib ketdi. Qish sovuq'ida o'tkinchi yuk poyezdlariga tushib borish oson emas. Vagonlarga kirolmaysan, man etilgan, tamburda ketsang manzilga yetguncha izg'irin shamolga chidab bo'lmaydi. Issiqgina kiyinib, tuyada jo'nasang, shunda ham qichab haydaganda, bir kunda borib kelish mumkin, ishlaring ham bitadi.

Kazangap o'sha kuni kechgacha qaytib keldi. Tuyasidan tushayotganda negadir xafaligini, qosh-qovog'idan qor yog'illayoganini ko'rib, balki, o'g'li internatda biron ishkal qilib qo'ydimikin yoki tuya ustida yuraverib charchagandir, deb o'yladi Edigey.

– Xo'sh, qanday borib kelding? – deb gap qotdi u.

– Bir navi, – deya istar-istamas javob berdi Kazangap, yuklarini tushirayotib. Keyin o'g'irilib qaradi-yu, biroz o'ylanib turib: – Hozir uyimga bo'lasanmi? – deb so'radi.

– Uyda bo'laman.

– Ish bor, hozir kiraman.

– Kira qol.

Kazangap ko'p o'tmay Bo'keyini ergashtirib kirib keldi. O'zi oldinda, xotini ortida. Har ikkalasi ham nimadandir tashvish tortgan ko'rinar. Kazangap aftidan charchagan edi: uzun bo'yini yanada cho'zilib, yelkalari cho'kib, salanglab, mo'ylovlari hurpayib turardi. Semirib kelgan Bo'key hansirar, xuddi yuragi talpinayotganday entikib nafas olardi.

– Nechuk hurpayib turibsizlar, urishib qolgan emasmissizlar? – deya kulib qo'ydi Ukkubola. – Yarashgani keldinglarmi? Qani, o'tiringlar.

– Urishib qolgan bo'lsak, mayli edi-ya, – deya yig'lam-sirab javob berdi Bo'key, hamon og'ir nafas olar ekan.

Kazangap atrofga ko'z yugurtirib:

– Qizlaring qayda? – deb so'radi.

– Zarifanikida, bolalari bilan o'ynab yurishibdi, – deb

javob berdi Edigey. – Ularning nima keragi bor senga?

– Xunuk xabar olib keldim, – dedi Kazangap Edigey bilan Ukkubolaga yuzlanib. – Hozircha bolalar bilishmasin. Og'ir musibat. Abutolibimiz o'libdi.

– Nima deyapsan? – Edigey o'rtidan iring'ib turdi. Ukkubola esa bir chinqirdi-da, og'zini kafi bilan to'sdi, rangi devordek oqarib ketdi.

– O'libdi! O'libdi! Shorlik bolalar, tirik yetimlar! – deya Bo'key xirillab yig'lay boshladi.

– Qanday o'lar ekan? – Edigey hali ham eshitganiga ishonmay, qo'rquvdan Kazangapga yaqinlasha boshladi.

– Katta bekatga shunaga qog'oz kelibdi.

Ularning hammasi yerga boqqancha sukut saqlab qolishdi.

– Qanday baxtsizlik! Qanday baxtsizlik! – Ukkubola boshini ushlagancha har tomonga tebranib ingray boshladi.

– Qani u qog'oz! – so'radi nihoyat Edigey.

– Qog'oz o'z joyida, bekatda, – deya so'zlay boshladi Kazangap.

– Internatga borib bolani ko'rdim-da, so'ng Bo'keyning sovun ola keling degani esimga tushib, vokzaldagi, o'sha kutish zalidagi do'koncha tomon qayrildim. Endigina eshikni ochmoqchi edimki, bekat boshlig'i Chernov bilan ro'baro' kelib qoldik. Ko'pdan beri tanishmiz. Ko'rishib bo'lgach, u menga: «Yo'liq-qaning yaxshi bo'ldi, yur, xonamga kiraylik, xat bor, bekatgacha ola ketasan», dedi. Kabinetini ochdi, ikkalamiz kiridik. Stolidan muhrlangan konvert chiqardi. «Abutolib Qutiboyev sizlarning bekatchangizda islaganmi?», – deb so'radi u. «Ha, islagan. Nima bo'пти?» «Mana bu xat kelganiga uch kun bo'ldi. «Bo'ronli»ga eiltib beradigan biron kimsa topilmaydi. Ma, ayoliga olib borib ber. Uning so'roqlariga javob kelibdi. Eri o'ldi, deb yozishibdi bu yerda». So'ng u menga yana qandaydir so'z aytdi, tushumadim. Infarktdan o'lgan, dedi. Infarktdan degani nima

degani deb so'radim. Yuragi yoritib o'lgan, deb tushuntirdi.

Qara-ya, yuragi yoritilgan emish! O'tirgan joyimda hang-mang bo'lib qolman. Avvaliga ishonmadim. Qog'ozni qo'limga olib qaradim, Unda bunday deb yozilgan ekan: «Qumbel bekatining boshlig'iga. «Bo'ronli» bekatchasida yashovchi falonchi fuqaroga bildirib qo'yish uchun so'rog'iga rasmiy javob...» So'ngira so'roqda yotgan Abutolib Qutiboyev ana shu tarzda, kasali xuruj qilib o'ldi, deb aytilgan. Xuddi shunday yozilgan. O'qib bo'lgach, Chernovga mo'ltirab qarab o'tiraveribman. «Gaplar ana shunaga, – deya Chernov ikki qo'lini yozdi. – Ola ket, xotiniga berasan». Yo'q, dedim men, bizning odatga ko'ra bunday qilishmaydi. Shum xabar targatishni istamayman. Bolalari hali yosh, ularni tiriklayin o'ldiraman-ku! Yo'q, dedim! Biz bo'ronliklar avvaliga o'zaro kengashib olib, keyin bir qarorga kelamiz. Yoki birovimiz atayin kelib, bu qog'ozni olib ketamiz, g'ayg'uli xabar yetkazishning o'z yo'l-yo'rig'i bo'ladi. Axir, chumchuq emas-ku, odam o'lgan. Ehtimol, xotini Zarifa Qutiboyevaning o'zi kelib, qo'lingizdan o'zi olar. O'shanda qanday sodir bo'lganini o'zingiz aytib tushuntirib berasiz. Chernov esa: «Bu sening ishing, – dedi. – Bilganingcha qil. Biroq men nimani aytib tushuntirardim. Hech qanday tafsilotni bilmayman. Bu qog'ozni tegishi kishiga topshirib qo'yishim kerak. Vassalom». Unday bo'lsa, kechirasiz, dedim Chernovga, biroq qog'oz hozircha sizda tura tursin, men borib, og'zaki aytib beraman-da, so'ng o'sha joyda o'zaro maslahatlashib olamiz. «Mayli, nima qilishni o'zing bilarsan», dedi Chernov. Shundan so'ng u yerdan chiqdim. Butun yo'l bo'yi tuyani chopitirib keldim. Endi nima qilamiz? «Unga bu shum xabarni aytishga kim jur'at etar ekan?» deb o'ylayverib yuragim ezildi.

Kazangapning nafasi ichiga tushib ketdi. Edigey esa ustiga tog' qulagandek ikki bukhayib qoldi.

– Endi nima bo'ladi? – dedi nihoyat Kazangap.

Lekin unga hech kim javob qaytarmadi.

¹ Infarkti (lotincha: infarctus – liq to'la, tiqilgan) – qon bilan ta'minlovchi tomirlar tortishganda yoki bekiilib (to'silib) qolganda, qon ta'minlovining to'satdan buzilishi

natijasida muayyan a'zonning jonsizlangan (o'lgan) qismini (asosan, yurak mushaklari – miokard hamda o'pka, jigar infarktlari uchraydi).

— Shunday bo'larini bilgan edim, — deb kuyinganidan bosh chayqadi Edigey. — Bolalaridan ajraganiga chiday olmadi. Shunisidan ko'proq qo'rqardim. Judolikka chiday olmagan. Qo'rmsash bu — dahshatli narsa.

Bolalar esa otani sog'inib, shunchalar qo'rmsashib yurishibdi, ularga nazar tashlashga yurak dov bermaydi. Abuto'lib o'rinda boshqa kishi bo'lganda-ku, nima uchunligini bilmasak ham, sudlanib qamoqqa hukm etildi derdik, bir yilmi yoki ikki yilmi o'tirib, oxiri chiqib ketardi. Axir, u nemislarga asir tushgan, konslagerlarda inson ko'rmagan ko'rguliklarni boshidan kechirgan, partizanlikning ham azob-uqubatlarini ko'rgan, shuncha yillar o'zga yurtlarda urushib, irodasi sinmagan edi, chunki u mahallalar yolg'izbosh, xotin, bola-chaqasi yo'q edi... Endi bo'lsa, uni eng aziz narsa — bolalaridan yurak-bag'rini, etini tiriklay shilib olishgandek, yulib olishdi. Ana shunga u chiday olmadi. Oxir-oqibat nimaga olib keldi...

— Ha-a, men ham shuni aytmoqchiman-da, — dedi Kazan-gap, — Odam judolikdan o'ladi, degan so'zlarga ishonmasdim. U yoshlikka-ku yosh edi, aqlli, bilimdon edi, tekshirib bo'lgach, bo'shatib yuborishlarigacha chidab tursa bo'lardi-ku... Axir, biror gunohi yo'q edi-ku! Bularning hammasiga, albatta, aqli yetib turgan bo'lsa-da, atidan, yuragi bardosh berolmagan ekan-da. Ustiga-ustak, sho'riga sho'rva to'kilib bolalarini o'lgudek yaxshi ko'rar edi. Uzoq vaqt o'tirishib, vaziyatni mulohaza etib ko'rishdi, Zarifaga qanday qilib yotig'i bilan tushuntirish, uni bu mudhish xabariga ruhan tayyorlash yo'lini qidirishdi, nari o'ylashdi, beri o'ylashdi, lekin borib-borib hamma gap ana shu achchiq haqiqat bilan tugallandi, o'ila otadan ajraldi, bolalar yetim qolishdi, Zarifa beva qoldi, o'nglammas, o'rni to'lmash fojia yuz berdi. Oxirida, Ukkuboladan har nechuk oqilona gap chiqdi:

— Zarifa bekatga borib, qog'o'zni o'zi o'lsin. Bu mudhish damlarni bu yerda, bolalari oldida emas, dastavval, o'sha yerda boshidan kechirsin. O'sha yerda, bekatda yig'lab, es-hushini yig'ib olar. Keyin yo'lida qaytib kelayotib nima qilish zarurligini o'ylab ko'rish uchun ham vaqti bo'ladi. Bolalarning hozircha bu gapdan xabardor bo'lishlari kerakmi, yo'qmi, balkim, ular biron

ulg'ayib, ko'nikma hosil qilganlaricha kutib turishar, buni ham o'ylab o'lsin. Ularga qo'qqisidan aytib bo'ladimi bu voqeani...

— To'g'ri aytasan, — deya ma'qulladi Edigey. — U ona. Abuto'libning o'lganini bolalariga aytadimi, yo'qmi, buni uning o'zi hal etsin. Mening esa u ishga yuragim betlamaydi. — Keyin Edigey aytadigan gapini aytilish uchun tili bormadi, rahmi kelganligidan nimadir tomog'iga tiqilganday bo'ldi-da, yo'talib oldi.

Bir qarorga kelishgach, Ukkubola:

— Kazake, — deya maslahat soldi Kazangapga, — Zarifaga o'zingiz gapiring, bekat boshlig'ida unga kelgan qandaydir bir xat bor ekan, deb aying. Balki, so'rovlaringizga javob xatidir, deng. O'zi kelsin, deb aytishdi, deng. Yana bir gap, Zarifani bu ahvolda yolg'iz yuborib bo'lmaydi. Uning bu yerda qarindosh-urug'lari ham yo'q, yaqin kishilari ham. G'am-alam paytlari yolg'iz qolishdan yomoni yo'q. Edigey, sen birgalashib bor, bu damlarda uning yonida bo'l. Bunday baxtsiz kunlarda biror xunuk hodisa yuz bermasin yana. Bekatda ishim bor deb, qo'shilib ketaver. Bolalari biznikida bo'lib turishadi.

— Bo'pti, — dedi Edigey xotining fikrlariga rozi bo'lib. — Zarifani bekatdagi kasalxonaga olib boraman, deb ertaga Abilovga aytaman. O'kinchi poyezdni bir zumga o'zi to'xtasin.

Ana shunday qarorga kelishdi. Biroq Qumbelga faqat ikki kundan keyin arang chiqishdi, bekatga boshlig'ining iltimosi bilan to'xtab o'tgan poyezdga tushib ketishdi. O'sha kuni 5-mart edi. Edigey Bo'roning yodida ana shu kun bir umr saqlanib qoldi.

Umumiy vagonga tushib borishardi. Vagon ichi turli odamlarga liq to'la: bola-chaqalari bilan, yo'l uchun, albatta, olinadigan yuklari bilan safarga chiqqan kishilar, aroq-sharobning anqigan hidi, vagondan vagonga tinmay nari-beri o'tayotganlar, miyalari suyilib ketguncha qarta o'ynayotganlar, tirik-chilikning og'irligi-yu erkaklarning aroqxo'rliigi, er-xotinlarning ajrashlari-yu allakimlarning nikoh to'ylari, dafn marosimlari to'g'risida bir-birovlariga past ovozdada ko'ngil bo'shatayotgan ayollar... Yo'lovchilarning manzili olis. Yo'lida ketayotgan bo'lsalar ham har xil kundalik yumushlar davom etardi... Zarifa

va Edigey Bo'ron ham o'z kulfatlari, g'am-alamlari bilan qisqa muddatga bo'lsa-da, ularga qo'shilishdi.

Albatta, Zarifa qattiq iztirobda edi. Bekat boshlig'idagi xarda qanday javob berilgan haqida o'ylayotir, shekilli, yo'l bo'yi chehrasi ochilmay, hayajonlanib, o'y-xayollar og'ushida indamay kelardi. Edigey ham ko'pincha sukut saqlab o'tirardi.

Inson qalbida bir noxushlik kechayotganini bir qarashda payqab oladigan sezgir, mehribon kishilar dunyoda oz emas. Zarifa o'midan turib, tambur derazasi yonida o'z o'y-xayollari bilan bo'lish uchun chiqqanda Edigeyning ro'parasida o'tirgan rus kampir boshini ko'tarib, yoshlik chog'lari tiniq-ko'kimtir bo'lgan bo'lsa kerak, hozir esa qariltikdan tusi o'chib borayotgan mehribon ko'zlari bilan tikilib:

— Ha, o'g'lim, ayoling kasalmandmi? — deb so'radi.

Edigey bu gapdan cho'chib tushdi:

— Ayolim emas, buvijon, singlim bo'ladi. Kasalxonaga olib borayapman.

— Shunday degin... Qarasam, boyaqish qiynalib boryapti. Ahvoli og'irga o'xshaydi. Ko'zlari bimas-tugannas qayg'u. Ich-ichidan qo'rqaypti, shekilli. Kasalxonada biror-bir dahshatli dardni qidirib topishmasalar, deb qo'rqayotgan bo'lsa kerak. Eh, tirikchilik qursin! Tug'ilmasang, yorug'likni ko'rmasan; tug'il-sang, yana bir dardi bedavo. Dunyo shunday qurilgan ekan-da. Tangri yorlaqasin, hali yosh, tuzalib ketadi, — derdi kampir unga choy tutar ekan. Kampir bekatga yaqinlashgan sayin Zarifaning qalbini tobora kuchliroq qamrab olayotgan iztirob va qayg'uni qandaydir bir yo'sinda payqab, chuqur his etib borayotgan edi.

«Bo'ronli»dan Qumbelgacha bir yarim soatlik yo'l. Yo'lovchilar uchun qanday joylardan o'tayotganlarining ahami-yati yo'q. Faqat bundan so'ng qaysi bekat keladi, deb so'rashadi. Sario'zakning kimsasizlik hukm surgan bepoyon bo'shliqlari esa hanuz qor ostida. Biroq qish etagini yig'ib, bahor yaqinlash-ganining ilk alomatlari allaqachon ko'zga tashlandi. Tog' bag'ir-larining kungay tomonlarida qorlar erib, yer qoraygan, jarlik chekalari qordan ochilib qolgan, qir-adirlar olachipor bo'la boshlagan. Mart oyi kelishi bilan qor erib cho'ka boshlagan edi.

Ammo havoning pastki qatlamida suzib yurgan kulrang bulutlar hali ham quyosh yuzini berkitib turardi. Qish hali qishligini qilishi mumkin, yomg'ir aralash qalin qor yog'ishi yo kuchli izz'irin ko'tarilish ehtimoli bor edi...

Edigey goh-goh derazaga qarab qo'yarkan, ro'parasidagi rahmdil kampir bilan onda-sonda gaplashib, o'z joyidan jilmay o'tiraverdi. Ammo Zarifaning yoniga yaqinlashmasdi. Vagon derazasi oldida yolg'iz turib, o'z holatini mulohaza qilib ko'rsin, deb o'yladi Edigey. Ehimol, ichki kechimmalari unga biror yo'l-deb o'rtiq ko'rsatar. Balkim, o'tgan yili kuz boshida hammalari birgalashib, ikki xonadon bola-chaqalari bilan yuk tashiydigan vagonga tushib, tarvuz, qovun olib kelish uchun Qumbelga bor-ganlari, o'shanda nihoyatda shod-xurram bo'lganlari, ayniqsa bolalar uchun bu sayohatning unutilmas bayramga aylangani yodiga tushar. Shularning hammasi yaqindagina bo'lib

o'tganday tuyulardi. O'shanda Edigey bilan Abutolib qiya ochilgan eshik oldida yuzlarini shamolga tutib, u yoq bu yoqdan subbatlashib borishar, bolalar atroflarida gir aylanishib, tashqarida go'yo suzib o'tayotgan qir-adirlarni qiziqib tomosha qilishardi. Zarifa bilan Ukkubola esa qandaydir yurak sirlarini aytib o'tirishardi. So'ng do'kondan do'konga o'tib, bekat bog'i-da sayr etishgan, kino ko'rishgan, sartaroshxonaga kirishgan. Bolalar muzqaymoq ye'yishgan edi. Hammasidan ham Ernak-nining qo'rqanidan sartarosh mashinasini boshiga yaqinlashtir-magani kulg'ili bo'lgan. Hammalari bir bo'lib ham uni soch oldirishga ko'ndirilmagan edilar. O'shanda Abutolib sartarosh-xona bo'sag'asida paydo bo'lishi bilan o'g'lining ota quchog'iga otligani, ota ham uni yerdan ko'tarib, sartaroshdan himoya etgan-dek bag'riga bosgani, kuch-g'ayratimizni yig'ib, kelasi safar kelamiz, hozircha tura tursin, degani hali-hali Edigeyning ko'z o'ngida. Ernakning qop-qora jingalak sochi tug'ilganidan beri o'sayotgan edi, endi esa u yetim bo'lib qoldi.

Edigey Bo'ron nima uchun Abutolib Qutitboyev ishi hal bo'lguncha kutolmay o'tgani sababini yana qayta-qayta o'ylab, buning ma'nosini tushunib yetmoqchi bo'lardi. U yana o'sha xulosaga kelardi: bolalarini haddan tashqari sog'inganidan yura-

gi bardosh berolmagan. Abutolib bolalarisiz yashashni hatto havosiz nafas olishdek tasavvur etadigan kishi edi. Havosiz hayot esa bir zunda to'xtab qoladi. Judolikning qanchalik og'irligini hamma ham Abutolibchalik sezavermaydi. Bolalar otasidan ajrab, qandaydir bir bekatlarda, kimsasiz, suvsiz Sario zakda taqdirning qahriga uchrab qoldi, degan mungli o'y-xayollargina o'ldirdi uni...

Edigey bekat yonidagi xiyobonda o'rindiqda o'tirgan ko'yi Zarifani kutib olayotganida ham hamon shu haqda o'ylardi. Ular Zarifa bekat boshlig'i oldiga kirib, qog'ozlarni olib chiqqach, shu yerda uchrashishga ahdlashgan edilar.

Kun yarimlab qolgan, biroq hali ham havoning avzoyi buzuq edi. Qor uchqunlarini, yomg'ir tomchilarini, har qalay, nimadir, ora-sira kishi yuziga urilardi. Dastlik bo'ylab allaqachon eriy boshlagan qor hididan to'yingan shamol esib turardi. Edigey sovg'otib, parishonxo'r o'tirardi. U odarda mavridi kelsa bekatda har yoqqa o'tayotgan odamlar orasida tiqilishib yurishni yaxshi ko'rardi. O'zi-ku uzoq yerga bormaydi, biror narsadan tashvishlanmaydi, lekin kelgan-ketgan poyezdlarni ko'radi, va-gondan sakrab tushib perronda shoshilib, yugurib-yeilib ketayotgan yo'lovchilarni tomosha qiladi. Turmush kinoga o'xshab ketardi: poyezd kelsa el yig'ilib, kino boshlanadi, poyezd ketsa odamlar ham tarqalishadi, perron bo'm-bo'sh bo'lib qoladi.

Hozir esa bunaqa narsalarning mavridi emasdi. O'tgan-ketganlarning befarq qiyofasini, ularning qandaydir beparvo, charchoq holda ekanliklarini ko'rib hayron qolardi... Buning ustiga shamollab, tomog'i og'rib qolgan kishidek xirillab, bekat maydoniga radiodan taralayotgan musiqaga ham o'zining bir zayida uvlagan sadosi bilan kishini g'am-g'ussaga solardi. Shu ham musiqaga bo'ldi-yul! Negadir radioobshovchilarning salobati, ulug'vor ovozlari ham jimit qoldi. Go'yo boshqasi qurigandek shu musiqani qo'ygan-qo'ygan!

Zarifaning vokzal binosiga kirib ketganiga yigirma daqiqacha, ehtimol, undan ham ko'proq vaqt o'tdi. Edigey bezovtalana boshladi. O'tgan safar Abutolib bolalari bilan kelishganlarida shu o'rindiqda o'tirib muzqaymoq ye'yishgan edi. Edigey

Zarifa bilan qat'iy kelishgan bo'lsa ham, ko'ngli tinchimay ortidan bormoqchi bo'ldi.

Shu payt u Zarifani vokzal eshigi yonida ko'rib, birdan cho'chib ketdi. Zarifa kirib-chiqib turgan odamlar to'dasi orasida hamma narsadan xoli, yolg'izlanganday ko'zga tashlandi. Rang-ro'yi murdanikiday oqarib ketgan, xuddi atrofta hech narsa yo'q-dek, dastlikda yolg'iz o'zi yurib borayotganday edi. Ko'zlari ojizlarniki singari yumilgan, boshini tik tutib, g'am-g'ussasini ichiga yutib, lablarini qattiq gimtib olganicha kelardi. Yaqinlashganda Edigey o'tridan turdi: u sekin yaqinlashib kelayotganday tuyuldi, qarshisida hech narsani ilg'amay, ko'z oldi shu qadar qorong'lashib, sekin-asta tund holda kelishi dahshatli edi. Muhrilangan qalin konvertni ushlab yaqin kelguncha, aftidan, butun bir abadiyat kechdi, chidab bo'lmay intizorlikning o'tadagi tubsiz, zulmatli masofasini bosib o'tguncha bir olam zamon o'tdi, yaqinlashib keldi-yu, arang shivirlab so'radi:

— Sen bilarmiding?

Edigey ohista boshini egdi.

Zarifa holsizlanib o'rindiqqa o'tirdi-da, qo'llari bilan yuzini berkitib, go'yo boshi tanasidan qulab tushib, tars yoritib ketguday qattiq siqqancha, butun vujudi bilan dard-alam va judollikdan zor-zor yig'ilay boshladi. Yig'ilganda ham jon azobidalarzaga kelib, o'ziga erk berib yig'lar, cheksiz gayg'uga berilganidan cho'kitib borardi. Yonida o'tirgan Edigey esa Abutolibni olib ketayotganlaridagi singari bu mushtipar ayolni jabrsitanlardan qutqarib qolish uchun Abutolib o'rniga, hech qanday ikkilanmasdan, o'zi ketishga, har qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirishga tayyor edi. Ayni zamonda, es-hushini olib qo'rgan bu birinchi zarbadan zor-zor yig'ilab o'ziga kelmaguncha uni hech nima bilan ko'nglini ko'tarib ham, yupatib ham bo'lmashigini tushunib turardi.

Shu yo'sinda ular bekat oldidagi xiyobon o'rindig'ida o'tirishardi. Zarifa titrab-qaqshagancha xo'rsinib yig'lardi. U bir mahal qo'llidagi g'ijimlangan konvertni xosiyatsiz maktab bilan birga iring'itib yubordi. Modomiki, Abutolibning o'zi tirik emas ekan, qog'ozning endi kimga keragi bor? Biroq Edigey konvertini

oldi-da, cho'ntagiga solib qo'ydi. So'ng ro'molchasini chiqarib yig'layotgan Zarifaning g'ujanak bo'lib qolgan barmoqlarini arang ochgan holda unga tutqazdi va ko'z yoshlarini artishga undadi. Lekin bu ham yordam bermadi.

Radiodan ataylab eshittirayotgandek, bekat uzra yurakni hadsiz ezadigan motam marshi taralardi. Mart oyi osmonidagi kulrang, namxush bulutlar tepadan bosib turgandek tuyular, izg'irin shamol esa kishini behuzur qilardi. O'tgan-ketganlar Zarifa bilan Edigeyga qarab-qarab qo'yishardi-da, ichlarida urishishgan bo'lsalar kerak, eri xotinini qattiq koyigan ko'rinadi, deb o'ylashardi. Ammo ma'lum bo'lishicha, hamma ham shunday deb o'ylamagan ekan.

— Yig'lash... yaxshilab yig'lang, — deya kimdir yaqindan hamdardlik izhor etgan bo'ldi. — Mehribon olajonimizdan ayrilib qoldik! Endi nima bo'ladi?

Edigey boshini ko'tarib, oldidan o'tib borayotgan eski shinelda, qo'ltiqayoq bilan ketayotgan ayolni ko'rdi. Uning bir oyog'i sonidan yo'q edi. Edigey uni tanidi. Frontovik, hozir bekating bilet kassasida ishlaydi. U izirob chekib yig'laganidan ko'zlari shishib ketgan, yig'i orasida o'zicha gapirib borardi: «Yig'langiz, yig'langiz. Endi nima bo'ladi-a?» Yig'laganicha qo'ltiqayoq'iga suyanib nari ketar ekan, ikki yelkasini g'ayritabiiy ravishda ko'tarib borardi, qo'ltiqayoq'ini taqillab harlaganida bir oyog'i kiyilaverib eskirib ketgan askar etigi ham ortidan yetib borardi...

Bu ayol aytgan so'zlarning ma'nosini Edigey vokzal darvozasi yonida birdan to'plangan odamlarni ko'rganda tushundi. Odamlar boshlarini yuqori ko'targancha bir necha kishi narvonga chiqib, Stalinning motam tasmasi o'talgan kattakon portretini terak bo'yi balandlikka osayotganliklariga qarab turishardi.

¹ *March (fransuzcha: marche — o'lg'a qarab yurish, harakatlantirish) — safta baravar qadam tashlab yurish; 2) qo'shining piyoda yoki transport vositalarida tashkiliy ravishda yurish qilish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi; 3) harbiy yurishlarda, paradlarda ishtrik etuvchilarni rahbaritish, ularning hissiyotiga ta'sir etish maqsadida yozilgan musiqaga asari (bu yerda shu ma'noda).*

Radiodan nima uchun bunchalik mungli kuy taralayotganining sababini ham endi tushundi. Boshqa bir vaqt bo'lganda edi, u ham o'rnidan turib, odamlarga qo'shilib, olam charxini hech kim uningsiz tasavvur etolmaydigan bu ulug'insonning nechuk, qachon vafot etganligini so'rab, bilib olgan bo'lardi. Biroq hozir o'z qayg'usidan ortmasdi. U og'iz ochmay o'tiraverdi: Zarifa ham o'zi bilan o'zi bo'lib, biron narsaga alaxsimasdi...

Dunyoda ne-ne voqealar sodir bo'layotganligiga qaramay, o'z odati bo'yicha, harakatda bo'lgan poyezdlar kelib-ketishardi. Yarim soatdan so'ng olisga yo'l oladigan o'n yettinchiragqanli poyezd hamma yo'lovchi poyezdlari singari «Bo'ronli»ga o'xshagan bekatchalarda to'xtamay o'tardi. U o'z hisob-kitobi bo'yicha harakat qilardi. Ammo bu safar o'n yettinchiragqanli poyezd «Bo'ronli» bekatchasida to'xtaydi, deb hech kimning xayoliga ham kelmagan edi. Edigey o'zicha qat'iy ravishda va bamaylixotir uni to'xtatishga qaror qildi! U Zarifaga dedi:

— Qaytishimizga ham oz qoldi, Zarifa. Bolalarga otasining nima bo'lganini hozir aytasammi yoki kutib turasammi, hoziroq yaxshilab o'ylab olishing kerak. Seni yurpatmoqchi, aql o'rgatmoqchi emasman. Endi ularning otasi ham, onasi ham o'zingan. Biroq, sen bu haqda yo'ldayoq fikr yuritib olishing kerak. Agar bolalarga hozircha aytmay turaylik desang, unda eshushingni yig'ib ol. Ularning oldida ko'z yoshi qilish aslo mumkin emas. Ana shunga kuching yetadimi, chiday olasammi? Biz ularning oldida o'zimizni qanday tutishimizni bilib oling'imiz darkor. Tushundingmi? Hamma gap ana shunda.

— Ma'qul, hammaisini tushunib turtibman, — dedi Zarifa yig'i aralash. — Uyga yetguncha o'ylab o'yimga yetayin, o'shanda nima qilarimizni aytaman. Men hozir... o'zinga kelib olay... Hozir...

Qaytishda poyezdda yana haligi manzara: odamlar tiriband, hamma yoq papiros tutuni... Poyezd avvalgidek bepoyon Sario'zak bo'shliqlarining u chekkasidan bu chekkasiga qatnab turardi.

Zarifa bilan Edigey kupe¹ vagonga tushgan ekanlar. Yo'lovchilar bu yerda biroz kamroq edi. O'tgan-ketganlarning yo'lini to'smaslik hamda o'z ishlari yuzasidan suhbatlashib ketish uchun ikkalasi yo'lakning eng chekkasidagi deraza ostiga joylashib olishdi. Edigey yig'ilma o'rindiqqa o'tirib oldi. Zarifa, o'tir desa ham unamay, yonida tik turgancha deraзадan tashqariga qarab kelardi.

— Shunday turganim yaxshi, — dedi u.

Hali ham onda-sonda hiqillab yig'lar, bor kuchi bilan o'zini qo'lga olib, boshiga tushgan kulfatga bardosh berishga, fikr-xayollarini yig'ib olishga tirishardi. Derazaqa qarab turgancha o'zining yangi — bevalik turmushini endi qanday izga solishni o'ylardi. Ilgarilari bularning hammasi dahshatli tush kabi bir kummas bir kun o'tar ketar, bu anglashilmovchilik yechimini topilmasdan shu holicha qolib ketishi mumkin emas-ku, axir, Abutolib ertami, kechmi, yarq etib kelib qolar, xonadon ahli yana birga yashab, har qancha qiyin bo'lsa ham turmushlarini qaytadan o'nglab, bolalarni tabiiyalab o'stirishar, boshqa hamma qiyinchiliklar asta-sekin, bartaraf etilar, degan umid bor edi. Endi esa umid qolmadi. Xullas, uning o'ylab oladigan narsalari oz emas edi...

Bu oila taqdiriga befarq qaray olmagan Edigey Bo'ron ham shu haqda bosh qotirardi. Axir, ahvol shunday bo'lib qoldi. Modomiki, endi bundan buyon ularning tayanchi bo'lib qolar ekan, o'zini har qachongidan ko'ra vazmin, xotirjam tutib, shu bilan Zarifaga qandaydir ishonch bag'ishlash lozim, deb hisoblardi. Edigey uni shoshirmasdi. Shunday qilgani ham to'g'ri bo'ldi. Yig'lab bo'lgach, Zarifaning o'zi so'z boshladi:

— Otalarining endi yo'q ekanini hozircha ularga aytmay turishga to'g'ri keladi, — dedi u ko'z yoshlarini yutib, o'zini yig'idan to'xtatishga urinar ekan. — Ammo hozir aytolmayman. Ayniqsa, Ermak... Ota-bola bir-biriga shunchalar ham mehrgo'yadimi... Dahshat-ku bu! Umidlarini puchga chiqarib bo'la-

dimi? Endi tiriklarning holi ne kechadi? Axir, ular faqat shu umid bilan, sog'inch bilan yashab kelishar edi... Kun sanab, soatlar-udaqdalarni sanab orziqib kutib yurishardi... Keyinchalik bu yerdan ketib, boshqa biror joyda yashamasak bo'lmaz... Biroz vaqt o'tsin. Ermakdan qo'rqaman. Biroz bo'lsa ham o'sib-ulg'aysa... O'shanda aytarmen, ungacha o'zlari ham kam-kam payqab qolishar. Hozir bo'lmaydi, aytishga tilim bormaydi... Undan ko'ra azob-uqubatni o'zim tortib turganim ma'qul... O'zining ham, uning ham og'a-inisi-yu tug'ishganlarimizga xat yozaman. Endi ular bizdan nega qo'rqishsin? Birortalari kelib, bizni ko'chirib ketishga yordam berar. U yog'i bir gap bo'lar... Modomiki, Abutolib ko'z yumgan ekan, endi bolalarini bir amallab o'stirsam...

Zarifa shunday mulohaza yuritardi. Edigey Bo'ron esa churq etmay quloq solardi, har bir so'zining mag'zini chaqib, uqib oldi, aytilgan gaplar uning xayolini chulg'ab olgan tuyg'ular quyunining faqat ozgina qismi, eng uski qatlamigina ekanini anglab yetdi. Bunday payrlarda ichingdagingning hammasini aytib tugata olmasan... Shuning uchun ham Edigey, iloji boricha mavzu doirasini kengaytirmaslikka urinib dedi:

— Agar bolalarini ko'rmagan-bilmagan bo'lganimda, so'zlaringga shubhalangan bo'lardim. Biroq sening o'rningda bo'lganimda men ham botinib og'iz ocholmasdim. Biroz kutib tursish kerak. Qarindosh-urug'laring xabarlashguncha, iktilanmasdan bizga murojaat qilaver. Ko'ngling to'q bo'lsin. Qanday yashab kelgan bo'lsak, shunday yashayveramiz. Ilgarigidek ishlayver, bolalaring bizning bolalar bilan birga bo'lishadi. O'zing bilasan-ku, Ukkubola ularni o'zinkidek sevadi. Keyin bir gap bo'lar...

O'sha suhbatda Zarifa og'ir xo'rsinib yana bunday dedi: — Turmush o'zi shunday qurilgan ekan-da... Naqadar qo'rqinchili, naqadar og'lona, shu bilan birga o'zaro uzviy bog'liq: boshi, oxiri va davomi bor... Agar bolalar bo'lmaganida edi, rostini aytсам, Edigey, men uchun endi yashashning qizig'i qolmasdi. Jonimdan kechib qo'ya qolardim. Yashab nima qilardim? Biroq ularni tabiiyalash mening burchim, ular meni ushlab

¹ Kupe (frantsuzcha: coupe < couper — qirqmoq, bo'limoq) — vagoning bir necha passajir uchun ajratilgan alohida bo'limasi.

turishbdi. Najotkorim shular... Achechiq va og'ir bo'lsa ham hayot davom etadi... Hozir qo'rqanining sababi bolalar otadan judo bo'lganini bilib qolishlari emas. To'g'ri, bir kuni bilib olishadilar-ku, albatta. Bundan buyon hayotimiz ne kecharkan, deb o'ylayapman hozir. Otalarining taqdiridan qalbdlari bir umrga jarohatlanib qoladi-da. O'qishga kirishadimi, ishga joylashishadimi, el-yurt ko'ziga tushishadimi, qachon bo'lasin, bu familiyada yurishning o'zi ularga to'g'anog bo'ladi... Shu haqda o'ylaganimda, nazarimda, taqdir bizning yo'llimizga qandaydir qudratli to'siq qo'ygandek tuyuladi. Abutolib ikkovimiz bu haqda gapirishdan o'zimni tiyar edik. Men uni ayasam, u ham meni ayardi. Uning ko'zi tirikligida bolalarining tengqurlaridan kam bo'lmay, o'sishlariga shubhalanmas edim. Bizni ana shu umid har qanday g'am-anduhlardan, baxtsizliklardan saqlab keldi... Endi esa boshim qotib qoldi. Men uning o'rmini bosolmayman... Chunki Abutolibning o'zigina Abutolib edi – u hammasining uddasidan chiqq olardi! O'zini tuti muqomga solib, bolalarining qalbiga singib ketgandek yashardi. Shuning uchun ham u sog'inchdan, farzandlaridan judo etilganidan o'lib ketdi...

Edigey uning so'zlarini diqqat bilan tinglardi. Zarifa o'zining eng yaqin kishisidek bilib, yurakdagi gaplarini aytib berayotganidan ta'sirlangan Edigey qandaydir bir yaxshilik bilan javob qaytargisi, uni himoya etgisi, yordam bergisi keldi; ammo o'zining noilojligini tushunib, alammidan yurak-bag'ri ezildi.

Ular «Bo'ronli» bekatiqga yaqinlashib qolishgan edi. Ko'p yillardan beri yozin-qishin ishlab yurgan tanish joylardan o'tib borishardi...

– Tayyorlangin, – dedi u Zarifaq. – Kelib qoldik. Demak, hozircha bu haqda bolalarga og'iz ochmaymiz, degan qarorga keldik. Bo'pti, o'ylaganimizcha bo'lsin. Sen sir boy berib qo'ymagin yana. O'zingni sal tartibga solgin. Tamburga bor, eshik yonida tur. Poyezd to'xtashi bilanog o'zingni bamaylixotir tutib, vagondan tushgach, meni kuta tur. Birga ketamiz.

– Sen nima qilmoqchisan?

– Hech nima. Bu yog'ini menga qo'yib ber. Osmom uzi-

lib tushsa ham sening poyezddan tushishga haqqing bor-ku.

O'n yettinchil raqamli yo'lovchi poyezdi, odardagidek, semafor qarashisida yurish sur'atini biroz sekinlatgan bo'lsa ham, bekatchada to'xtamay o'tib borayotgan edi. Shu payt, «Bo'ronli»ga kiraverishda poyezd keskin tormozlandi-yu, vishlilab, buksalari dahshatli vijirlaganicha taqqa to'xtadi. Hamma cho'chib tushdi. Poyezdning boshidan oyog'igacha qiy-chuv, hushrak ovozlari ko'tarildi.

– Nima gap o'zi?

– Stop-kranni¹ bosibdimi?!

– Kim?

– Qayerda?

– Kupe vagondal!

Shu orada Edigey eshikni ochdi-yu, Zarifa poyezddan tushdi. O'zi esa provodnik² bilan konduktor kelguncha tamburda kutib turdi.

– To'xtal! Stop-kranni kim bosdi?

– Men, – dedi Edigey.

– Kimsan o'zing? Bunday qilishga nima haqqing bor?

– Kerak edi.

– Kerak edi, deganing nimasi? Sudga tushging keldimi?

– Shunaga. Sudingami, boshqangami, akiga istaganingcha yozib olaver. Mana hujjatlarim. Sobiq frontchi, temir-yo'l ishchisi Edigey Jonkelin «Bo'ronli» bekatchasiga yetgan-da, o'rtoq Stalinning vafoti munosabati bilan motam alomati sifatida stop-kranni bosib, poyezdni to'xtatdi, deb yozib olinglar.

– Nechuk? Nahotki Stalin o'lgan bo'lsa?!

– Ha, radio orqali e'lon qilishdi. Eshitish kerak edi.

– Unday bo'lsa, boshqa gap, – deya anavi ikkalasi gangib qolishdi-da, Edigeyga yo'l berishdi. – Unday bo'lsa, boraver.

Bir necha daqiqadan so'ng o'n yettinchil poyezd yana yo'lida davom etdi...

¹ Stop-krann (inglizcha: stop + kran) – vagonlarga o'rnatilgan va poyezdni darhol to'xtatish zurruti tug'ilganda bosiladigan tormozlash ritchigi.

² Provodnik (ruscha: проводник – okuzatmoq, jo'natmoq) – vagonni kuzatib boruvchi va yo'lovchil(passejir)larga xizmat ko'rsatuvchi temir yo'l xodimi.

Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi.

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayotday dastlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi.

O'sha kezlari bu o'lkada – Sario'zak kosmodromidan nom-nishon ham yo'q edi. Ehtimol, u kosmik parvozlarining ijodkorlari xayolidagina mavjud edi, xolos.

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Ellik uchinchi yilning yozi bilan kuzi Edigey Bo'ron hayotida eng og'ir, eng mashaqqatli damlar bo'ldi. O'sha yilgacha ham, undan so'ng ham Sario'zak temir yo'lini qor uyumlari bosgan paytlarda yoki Sario'zakda bir tomchi suv topolmay, oftobda kuygan chog'larida, frontda Kenigsberggacha jang qilib borib, ming bor halok bo'lishi yo yarador bo'lishi ming bor shikastlangan bo'lishi mumkin bo'lgan kezlarda ham, o'sha kunlardagidek azob-uqubat chekkan emas edi...

Qanday qilib yer ko'chishini, uni dunyoda to'xtatib qoladigan hech qanday kuch yo'qligidan tog' yon bag'rilarining o'rtidan siljib, qulab ketishlarini, hatto butun boshli tog'larning yashirin yotgan ko'ksi yoritib, bir yonga o'pirilib tushishini Afanasiy Ivanovich Yelizarov bir vaqtlar Edigey Bo'ronga gapirib bergan edi. O'shanda oyog'i ostida qanday falokat yashirinib yotganini sezgan odamlar vahimaga tushishadi. Yer ko'chishining eng xavfli tomoni shundaki, bu hodisa sekin-asta, kun sayin, sezilmasdan yetila boradi, chunki yer ostidan sizib chiquvchi zax suvlar yer qatlamlarini bora-bora yuvib ketadi, o'shanda yer o'zgina silkinsa, momaqalibroq yoki qatiq sel yog'sa, bas, tubi bo'shagan tog' pastga qarab asta-sekin, uzluksiz ravishda joyidan siljiy boshlaydi. Qor ko'chishi-ku birdaniga yuz berib, tezda tugaydi. Ammo yer ko'chishi dahshatli bo'ladi, uni to'xtata oladigan kuch esa dunyoda yo'ql...

Shunga o'xshash hodisa odamda ham ro'y beradi: o'zi yakka-yu yolg'iz qolganda ichidagi bartaraf etib bo'lmay qarama-qarshiliklar natijasida ruhi tushib, umidsizlanib, o'zini har

tomonga uradi. Dunyoda hech kim yordam bera olmaydigan bo'lgandan so'ng bironvaga sir ochishning ham keragi bo'lmay qoladi. Buni o'sha kishining o'ziga tushunadi va shundan qo'rqadi. Bu qo'rquv esa yer ko'chishi singari to'xtovsiz bosib kelaveradi...

Edigey yer ko'chishi paytida bo'ladigandek qo'rquv hissimi qalbida birinchi marta sezdi, bu hodisaning ma'nosini Zarifa bilan qilgan safaridan so'ng oradan ikki oy o'tgach, yana o'z ishlari bilan Qumbelga borganda aniq angladi. Edigey pochtaga kirib, xat bormi yoki yo'qligini aniqlab, agar xat-xabar bo'lmasa, unga Zarifa bergan uch manzilga uchta telegramma yuborishga va'da bergan edi. O'sha kungacha Zarifa qarindosh-urug'lariga yozgan birota xatiga javob kelmadi. Endi haligi telegrammalarni yoza turib Zarifa faqat bir narsani – xatlarni olishdimi, yo'qmi, shuni bilmoqchi edi, xolos. Xatlarga javob yozish shart emas degan. Aftidan, Abutoibning aka-ukalari, opa-singillari uning oilasi bilan hatto xat orqali ham aloqa bog'lashni istamay qo'yishgan ko'rinadi.


Edigey Bo'ron Qoratoriga minib, kechgacha qaytib kelishga ulgurish maqsadida etralab yo'lga chiqdi. Yuksiz, bo'm-bo'sh borganda edi, tanish haydovchilarning qaysi biri bo'lmasin, uni bemaol mashinasida olib ketardi. Qumbelgacha yarim soatlik yo'l. Biroq Edigey Abutoibning bolalaridan qoqhib, poyezdga tushishdan o'zini tiyardi. Har ikkalasi, kattasi-yu kichigi otasining qaytishini kutib, kun sayin temir yo'l bo'ylab yurishadi. O'ynashsa – o'yimida, so'zlashsa – so'zlarida, aytgan topishmoqlari-yu chizgan suratlarida, ishqilib, ularning bolalarga xos turish-turmushlarida otlarini jon-dildan kutish sezilardi. Bolalar uchun, shubhasiz, eng obro'li kishi Edigey amakining o'zi hisoblanadi, ularning ishonchi – Edigey amaki hamma narsani biladi va undan o'zga hech kim yordam berolmaydi.

Uingsiz bolalarning bu bekatda beshbattar qayg'uiga berilib, yetimsirab qolishlarini Edigeyning o'zi yaxshi biladi, shuning uchun ham ishdan bo'shashi bilanq bolalar yoniga o'tib, ularni behuda kutishlardan chalg'itishga nima bilandir andamon qilishga urinardi. Edigey Abutoibning dengiz hiko-

yalarini bolalarga ko'proq so'zlab ber, degan vasiyatini eslab bolalik chog'larida, o'spirinlik vaqlarida baliq ovlaganining yangi-yangi tatsilotlarini xayoliga keltiradi-da, Orol dengizi to'g'risida rost-u yolg'on aralash hikoyalar aytib beradi. Bu hikoyalarni bolalarning ong, sezgisiga moslab aytardi-yu, har safar ularning fahm-farosatiga, sezgiritigiga qoyil qolardi; otasi-ning tarbiyasi ularga singib ketganini payqab juda xursand bo'lardi. Edigey bo'lgan-bo'lmagan hodisalarni ko'proq kichigiga, Ermakka moslab aytardi. Biroq, kenja Ermak kattalardan qolishmasdi. Edigeyning ikki qizi bilan birga uning hikoyalari eshitadiganlar to'rt nafar bo'lsa-da, Ermak ular orasida Edigey ko'ngliga eng yaqini edi, lekin buni boshqalariga sezdirmasdi. Ermak uning aytgan hikoyalari hammadan qiziqib tinglar, ma'nosini boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushuntirib berardi. Nima haqda so'z yuritilmasin, qaysi bir hikoya qayerdan boshlanib, qanday rivojlanmasin, u hammasini otasi bilan bog'lardi. Otasi uning uchun hamma ishda, hamma joyda hozir-u nozir edi. Misol uchun, deylik, mana bu haqda so'z boryapti:

— Orol dengizining yoqasida qamish bosgan ko'llar ko'p. Qamishlar orasida esa qo'llarida qurol bilan berkinib yurgan ovehilar bor. Bahor chog'i Orolga o'rdaklar uchib kelishadi. Ular qishni iliq dengizlarda o'tkazishgan, Orolga muzlar erishi bilan oq kechani kecha, kunduzni kunduz demay orziqib uchib kelishadi, chunki bu yerlarni juda sog'inib qolishgan. Yolg'iz uchmay, to'p-to'p bo'lib uchishadi, suvda suzib, o'mbalog oshib cho'milgisi keladi. Dengiz yaqinlashgan sayin pastlab uchadilar. Shu payt qamish ichidan yalt-yult o't aralash tutun burqsib chiqadi, tars-turs otligan mitiq ovozlari eshitiladi. O'q yegan o'rdaklar chinqirgan ko'yi suvga qulashadi. Boshqalari esa cho'chib dengiz o'rtasiga uchib ketishadi. Dengiz o'rtasida ular qanday yashashlarini, qayerga yashirinishlarini bilmay, to'liqlar ustida chinqirib, uchib yurishadi. Axir, o'rdaklar qirg'oqqa yaqin yashab o'tganib qolishgan. Endi qirg'oqqa yaqinlashgani qo'rqishadi.

— Edigey amaki, o'rdaklardan biri darhol kelgan tomoniga uchib ketadi-a?



— Nega qaytib uchib ketadi?
— Nega bo'lardi, axir u yerda mening otam matros-ku! U kattakon kemada suzib yuradi. O'zingiz gapirib bergan edingiz-ku, Edigey amaki.

— Ha, to'g'ri, to'g'ri, xuddi shunday, — deya eslay boshladi noqulay ahvolda qolgan Edigey. — Xo'sh, keyin nima bo'ladi?


— Keyin o'rdak otamning yoniga uchib boradi-da, ovehilar qamishzorga kirib olib, bizga o'q uzishyapti, deb aytadi. Yashaydigan joyimiz yo'q, deb aytadi.

— Rost, rost, bu gaping to'g'ri.

— Otam o'sha o'rdakka, yaqin orada o'zim ham boraman deb aytadi, bekarda Dovul, Ermak degan ikki bola bor, yana Edigey amaki bor deb aytadi. Men borganda hammamiz yig'ilishib, Orol dengiziga boramiz, qamishzorga berkingan hamma ovehilarni quvib chiqaramiz. Keyin sizlarga hech kim o'q uzmaydigan bo'ladi. Orol dengiziga uchib kelib yashayverasizlar, deymiz... O'rdaklar suvda cho'mlishaveradi, boshi bilan o'mbalog oshib yuzishaveradi...

Edigey Bo'ron hikoyalari tugagach, toshchalar bilan fol ochishga tutinadi. Endi u doimo cho'ntagida har biri katta no'xatday keladigan qirg bitta toshcha olib yuradi. Folbinlik — bu qadimgi usulning o'ziga xos murakkab so'z, atamalari bor. Edigey bu toshchalarni bir joyga to'plarkan: ochiq aytib, haq gapir, deya o'zicha ularni sehtlaganday shivirlab gapirar, Abutoilib qayda ekan, yo'li ochiqmikin, yopiqmikin, shuni ayt, peshanasi yorug'mikin yo yo'qmi, ko'ngli g'ashmi yoki xursandmi, bunisini ham ayt, deb fol ochardi. Bolalar Edigeyning toshchalarni to'pidan ajratib, so'ng har birining o'z o'mini topib qo'yayotganini ko'z uzmay, diqqat bilan, indamay kuzatib turadilar. Bir gal Edigey uylari muyulishida sekin shivirlashib gapirishayotgan bolalarning ovozi eshitib qoldi. Sekingina qarasa, Abutoibning bolalari ekan. Ermakning o'zi toshchalar bilan fol ochardi. Toshchalarni bilganicha joylashtirib har birini peshanasiga hamda labiga tegizib, tasdiqlab qo'yardi:

— Men seni sevaman. Sen juda aqlli, yaxshi tohsan.



Yanglishmay, qoqimmay, Edigey amakining toshchalariday, rosti gapni, ochig'ini ayta-ver. – Keyin u Edigey amakisi gaplarini aynan takrorlab, toshlarni qanday joylashtirishning ahamiyatini tushuntira boshladi. – Mana ko'ryapsanni, Dovul, umumiy manzara yomon emas, juda ham yaxshi. Mana bu yo'l, yo'lni biroz tuman bosgan. Qandaydir bir tumanlik ko'zga tashlanadi. Lekin buning hechqisi yo'q. Edigey amakining aytishicha, bu yo'l azobi. Yo'l busiz bo'lmaydi. Otam doimo yo'lga hozirlik ko'radi. U otga minayin desa, ayili biroz bo'shab qolibdi. Mana, ko'ryapsanni, ayil tortilmagan. Yana ham mahkamroq tortsa bo'ladi. Demak, otamni yana nimadir ushlab turibdi, Dovul. Kutishga to'g'ri keladi. Endi o'ng qovurg'asini va chap qovurg'asini qaraylik. Qovurg'alar bus-butun. Bunisi yaxshi, albatta. Peshanasi nimani ko'rsatar ekan?.. Negadir qovog'i soliq. U biz haqimizda juda tashvishlana yapi, Dovul. Ammo yuragi, mana bu toshlarni ko'ryapsanni, yuragi hasrat, sog'inch bilan to'lib-toshgan. U uyni juda sog'ingan. Yo'li qachon ochilar ekan?.. Yaqin orada. Biroq otining keyingi oyog'ida taqasi bo'shab qolibdi. Yangidan taqalamasa, bo'lmaydi. Demak, yana kutishga to'g'ri keladi. Xurjunini qaraylik-chi, nima bor ekan?.. Eh-le, xurjunida bozordan sotib olingan narsalar! Mana endi uning yulduzi to'g'ri kelarmikin?.. Mana bu yulduzni ko'ryapsanni, bu ot bog'laydigan oltin qoziq. Oltin izi o'shandan boshlanibdi. Bu izlar hali aniq ko'zga tashlanmaydi. Demak, otam hademay oltin qoziqqa bog'lanib turgan otini yechib mingancha yo'lga chiqar ekan-da...

Edigey Bo'ron bularning hammasidan ta'sirlanib, ham xafa bo'lib, ham hayratlanib o'zini bildirmasdan nari o'tib ketdi. O'sha kundan boshlab tosh bilan fol ochishdan voz kechdi...

Ammo bolalarning yo'rig'i boshqa. Ularni, har qalay, ovutish, umidlantirish, boringki, gunoh bo'lsa ham, ma'lum muddatga aldab turish mumkin. Biroq Edigey Bo'ronning yuragini bir g'am-g'ussa ezardi. O'sha vaziyatda, voqealar shu tarzda to'y berayotgan kechlarida, bu g'am-g'ussaning paydo bo'lishi, qachondir yer ko'chishi singari o'rindan qo'zg'alishi turgan gap edi, uni esa to'xtatish qo'ldan kelmasdi...

U Zarifa uchun juda-juda gavg'urardi. Har kungi tirikchilikdan boshqa ikkovi orasida gap bo'lmasa-da, boshqa gap-so'z uchun Zarifa hech qanday bahona ko'rsatmasa-da, Edigey doimo u haqda o'ylardi.

Edigey uni shunchaki ayab, rahmi kelganidan, boshiga tushgan kulftalarning hammasini ko'rib, bilib yurgan har qanday kishi singari unga faqat achinib yurganidan emas – unday bo'lganda bu haqda gapirib o'tirishning ham hojati yo'q edi – Edigey Zarifani suyganidan o'ylardi, o'ylamay turolmasiligidan o'ylardi, hayotiga doir hamma masalalarda menga ishonib, tayansa, derdi ichida. Zarifa Edigeyning eng sadog'atli kishisi ekanini, uni g'oyatda sevishini bilgan bo'lsa, Edigey o'zini baxtli inson, deb hisoblardi.

U Zarifaga nisbatan hech qanday ayricha munosabatim yo'q, oramizda hech qanaga gap bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas, deb o'zini-o'zi behuda qiynar edi!..

Qumbelga yetguncha shu mulohazalarga ko'milib, adoyi-tamom bo'layozdi. Miyasiga har turti xayollar kelardi. Tez orada keladigan bayram yoki bedavo dardga chalinganini oldindan sezgandek ajib bir hissiyot og'ushida edi. Shunday ahvolda kelarkan, o'zini yana Orol dengizida suzib yurgandek his etardi. Dengizda yurgan kishi, suv yuzasi qanchalik tinch bo'lmasin, hatto biror xavf-xatardan nishon bo'lmasa ham o'zini boshqacha his qilardi. Tevarak-atrof qanchalar keng bo'lsa ham, qiliadigan ishing bo'lsa-da, to'liqindan to'liqin oshib, goho qanchalar sevinib-quvonsang ham, quyosh botishi va tong otishining suv sathidagi aksi qanchalar go'zal o'lmasin, baribir, sohilga qaytish kerak, u yog'ig'ani, bu yog'ig'ani, ishqilib, biror sohilga qaytish kerak. Bir umr suzib yurolmaysan. Sohilda esa butunlay o'zgacha hayot kutadi. Inson dengizda vaqtincha, quruqlikda esa doimo yashaydi. Agar sohilga chiqib olish xavfli bo'lsa, biror orolni topib, o'sha yerni turar joying, qoqqan qozig'ing deb bilishing kerak. U hatto o'shanday orolni tasavvur etdi: shunday orol topilsa, Zarifani bolalari bilan olib ketib, o'sha yerda yashayverardi. Bolalarni dengizga o'rgatardi, o'zi ham taqdiri-dan nolimay, faqat quvonib, uning oxirigacha shu orolda

hayot kechirardi. Zarifa doimo yonida bo'lsa, Zarifaga eng kerakti, eng aziz, eng sevimli kishi bo'la olishini bilsa kifoya...

Biroq, o'ziga kelib bunday orzu-xayollarga berilib ketganidan uyayib ketdi. Yuzlab chaqirimlarga cho'zilib ketgan yavdoqlikda biror jon zoti yo'qligiga qaramay, yuzlari qizarib ketganini sezdi. Yosh bolalardak orolni qo'msab, xayollarga berilib ketishini qarang-al! Xo'sh, nechuk, nega endi? Bir umr bola-chaqaga, ishga, temir yo'lga, boringki, Sario'zakka butun qo'l-o'yo'g'i, vujudi, jon-u dili bilan o'zi ham sezmaganda bog'lanib qolgan Edigey nechuk ana shunday orzu-xayollarga boradi?... Zarifa ming qiyinalgani bilan Edigey unga kerak bo'lar-mikan, nima uchun u o'zini er bilib, nega endi Zarifa meni yoqtiradi, deb o'ylaydi? Bolalar haqida-ku shubhalanmasdi; ularni jondan sevardi, bolalar ham doimo unga intilib turishardi. Xo'sh, nega endi Zarifa u istagandek bo'lishini xohlasin ekan? Turmush uni allagachonlar qozig'iga chambarchas bog'lab, umring tugaguncha shu yerda bo'lasan deb, hukmini chiqarib qo'ygan bo'lsa-yu, Edigeyning bunday orzu-xayollarga borish uchun haqi bormikin?..

Qorano'r Bo'ron ko'p martalab o'tib-qaytib, tanish bo'lib qolgan so'qmoq yo'llar bo'ylab yurarkan, yo'lining olis-yaqinligini sezib, egasining qamchilashini kutmay yelib-yo'rilib, Sario'zakning cheksiz masofalarini ortda qoldirib, bahorgi qiradirlar-u soyliklar bo'ylab, bir zamonlar qurib qolgan sho'r ko'lining yonidan shaxdam odimlab borardi, ba'zida og'ir entikib, bo'kirib nolish qilgandek bo'lardi. Edigey esa uning ustida o'z o'y-xayollari bilan band bo'lib, azob chekardi. Qalbini bu qarama-qarshi hissiyot shu qadar qamrab olgan ediki, o'zini qo'yarga joy topmay, yuragi Sario'zakning o'ljahammagan keng bo'shliqlariga sig'may, orom-u qarorini yo'qotib borardi. U ich-ichidan kuyinar edi.

Qumbelga ana shunday kayfiyatda yetib keldi. Zarifa o'z qarindosh-urug'laridan zoriqib kutgan javoblarni olgan bo'lsinda, ishqilib. Biroq ular beva qolgan Zarifaning bola-chaqasi bilan o'z yurtlariga ko'chirib ketishlari mumkinligini o'ylab, yuragi o'pirilib ketganday bo'lardi. Pochtadagi xat-xabar olish

derazachasidan Zarifa Qutiboyeva nomiga hech qanday xat kelmaganini ayitishdi. U o'zi ham kutmagan holda xursand bo'ldi. «Kelmagan yaxshi bo'libdi», degan vijdoniga nomunosib, g'ayrinusoniylar fikr miyasidan yilt etib o'tdi. Keyin Zarifaning topshirig'ini vijdonan bajo keltirdi: uchala manzilga uchta telegramma yubordi. Shu bilan kechga yaqin qaytib keldi...

Bu orada bahor o'tib, yoz boshlandi. Sario'zakning rangi o'chib, g'iyohlari kuyib ketdi. Go'yo tushdagidek o'to'lanlardan nom-nishon qolmadi. Sariq cho'l yana sarg'ayib qolaverdi. Havo qizdirardi. Saraton chillasi yaqinlashardi. Qutiboyevlarning qarindosh-urug'laridan esa hali ham darak yo'q. Ular na xatga javob berishdi, na telegrammalarga. Poyezdlar esa «Bo'ronli»dan paydar-pay o'tib qaytishar, hayot ham o'z navbatini bilan suvdek oqib o'tardi...

* * *

Zarifa endi javob xati kutmasdi. U qarindosh-urug'larining yordamiga umid bog'lash, ularga yordam so'rab xat yuborish foydasiz ekanini tushundi. Ana shunga ishongan Zarifa qayga bosh olib ketishini, ne qilarni bilmay umidsizlangandan nafasi ichiga tushib ketdi. Bolalarga otasining o'lganini qanday aytadi, gapni nimadan boshlaydi, izdan chiqqan turmushni qanday qilib o'nglab oladi? Bu savollarga hozirgacha javob topolmasdi. Edigey bular haqida, ehtimol, Zarifadan ham ko'proq qayg'urardi. «Bo'ronli»dagilarning barchasi ular uchun kuyinishardi, ammo bu oilaning fojiasi shaxsan Edigey uchun ne kulfatlar keltirganini faqat uning o'ziga biladi. Edigey endi o'zini bu oiladan ajrata olmas edi. U endi kun-u tun ana shu bolalarning, Zarifaning taqdiri bilan yashardi. Bularning hoi bundan buyon ne kechadi, deb ich-ichidan kuyinar edi. Ammo, bularning ustiga-ustak, Zarifa tomon ohanraboddek tortib turgan kuchni qanday bosib-tiyish to'g'risida ham hamma o'ylardi, o'tranib, iztirob chekib o'ylardi. Bu savollarga hech qanday javob topolmasdi. Hayotida bunday muammolarga duch kelishini hech qachon xayoliga ham keltirmagan edi...

Edigey ko'p martalab Zarifağa sir-asrorini ochmoqchi bo'ldi, uni qanchalar sevishini, boshiga tushgan barcha qiyinchiliklarni o'z zimmasiga olajagini, chunki ularsiz yashay olmasligini ochiqchasiga aytmoqchi bo'ldi. Biroq buni qanday qilib aytish mumkin? Qay tarzda? Ayol uning maqsadini to'g'ri tushnarmikan? Yolg'iz boshiga shunchalar kulfat tushgan bir paytda Edigey o'z his-tuyg'ularini unga izhor etmoqchi bo'lsa, bu uning ko'ngliga sig'armikan? Pastkashlik emasmi bu? Doim shu haqda o'ylasa, boshi qotar edi; odamlarning ko'z o'ngida qanday bo'lishi kerak bo'lsa, u o'zini sirtidan shunday tutib yurish uchun jon-jahdi bilan harakat qilar edi.

Har qalay, bir bora... ishora qilib ko'rdi. Temir yo'lni ko'zdan kechirib qaytayotganda chelak ko'tarib suv olish uchun sistema tomon ketayotgan Zarifani uzoqdan ko'rib qoldi. Nimadir uni o'sha tomonga tortdi. U, beixiyor, Zarifa tomon burildi. Chelak ko'tarishga yordam berishni bahona qilish uchun ham qulay payt emas edi. Deyarli kun oralab, ba'zan har kuni yo'l-larda birga ishlashardi, keragicha gaplashib olishlari mumkin edi. Lekin Edigey xuddi shu zahotiyoq sekin-asia uning yoniga borib, ichiga sig'dirolmay yurgan tuyg'ularini izhor etish istagining bartaraf qilib bo'lmaz darajada ekanini sezdi. Tushummasa ham, rad etsa ham, mayli, shunisi yaxshi, deb o'ylardi u, qiziqonlik qilsam yuragimdagi olov so'nib, jonim tinchiydi... Zarifa uni ko'rmadi, yaqinlashib ketayotganini payqamadi. Sistema jo'rma-gini ochib, teskari o'g'irilib turdi. Bitta chelagi allaqachon suvga to'lib, chetroqqa olib qo'yilgan, ikkinchisi ham to'lib undan suv toshib turardi. Jo'mrak to'la ochilgan edi. Suv jo'shib, to'kilib, chelak atrofida ko'lmachalar hosil bo'lgan. Zarifa esa sistema-ga suvangan holda boshini egib, hech narsani sezmay turardi. U bulturgi katta jalani kutib olgan chit ko'ylakda edi. Edigey uning o'ram-o'ram sochlarga qarar ekan, onasiga tortgan Ermaning jingalak sochlari yodiga tushdi. Zarifaning ozg'in yuzlari, nozik-lashgan bo'yini, cho'kib qolgan yelkalari hamda shalviragan qo'llariga ko'z tashladi. Shildirab quyilayotgan suv Yetisuvdagi tog' suvlari-yu shildirab oqayotgan jilg'alarni eslatib, hushidan ketkizdimi yoki shu lahzada uni aqchig' o'y-xayollar qursab

oldimikan? Kim bilsin! Edigey uni shunchalar o'ziga yaqin

tutgandan, silab-siypab erkalgisi, g'am-qayg'usiga sabab bo'layotgan hamma narsadan ehtiyot qilgisi, asragisi kelgandan chidab turolmay joni qiyalib ketgan edi. Lekin bunday qilish mumkin emas. U faqat indamaygina borib jo'mrakni burab, suvni to'xtardi. Zarifa uni ko'rib hayratlanmadi. Edigey go'yo yonida emas, balki, uzoq-uzoqlarda turgandek, unga o'y-xayol aralash loqayd nazar tashladi.

— Nima gap? Senga nima bo'ldi, — deb so'radi u hamdardlik bilan. Zarifa hech nima demadi, faqat lablarining bir chekkasi kulimsirab qo'yganday bo'ldi-yu, qoshlarini chimirib hechqisi yo'q, shunchaki, degan ma'noda qaradi.

— Ahvoling yomonmi? — deb yana so'radi Edigey.

— Ha, — dedi Zarifa og'ir xo'rsinib.

Edigey nima deyotini bilmay sarosimalik bilan yelkasini qisib qo'ydi.

— Buncha joningni qinyaysan? — dedi Edigey uni koyib, vaholanki, aytmoqchi bo'lgan gapi boshqa edi. — Tokaygacha shu ahvolda yurasan? Axir, bu bilan ishini o'nglay olmayсан-ku. Senga qarab turib biz ham (men ham, demogchi edi) qiyalamiz, bolalarga ham og'ir. Tushunsang-chi, bunday qilmagin-da! Bitor chorasini topish lozim, — dedi u, dilidagi dardini ifodalaydigan so'zlarni qidirib. — O'zing o'ylab ko'r-chi. Xatingga javob berishmasa, berishmasin, Xudoga sol ularni. Bir kunimizni ko'ramiz. Sen bilan biz (men, demogchi edi) begona emasmiz. Sen faqat ruhingni tushirmagin. Ishla, o'zingni mahkam tut. Bolalar esa oldimizda (oldimda, demogchi edi) yo'sib ulg'aya berishadi. Hamma narsa asta-sekin o'rimga tushib ketadi hali. Bitor yoqqa ketishning na hojati bor? Bu yerda o'zimizning odamlar. O'zing bilasan, men bolalarini ko'rmay bir kun ham turolmayman. — Edigey gapirishdan to'xtadi, chunki bundan ortiq ko'nglini ochib so'zlashga botina olmadi.

— Hammasini tushunaman, Edike, — dedi Zarifa. — Rahmat. Bilaman, xor-zor bo'lib qolmaymiz. Ammo, baribir, bu yerdan ketmasak bo'lmaydi. Bu yerda nima bo'lganini bolalar unutishi kerak. O'shandan keyingina haqiqatni ularga aytishim

mumkin. O'zingga ma'lumki, bir umr sir saqlab yurish mumkin emas. Shuni o'ylab o'yimga yetolmayapman.

– Gaplaring to'g'ri, – deya noliq uning fikriga qo'shildi Edigey. – Lekin shoshilmay tur. Yana o'ylab ko'r. Shu go'daklar bilan qayerga borasan, qanday kunlarga duch kelasan? Sizlardan ajrab qolishimi o'ylasam, meni vahima bosadi...

Haqiqatan ham, Edigey Zarifani va bolalarni o'ylagan sari g'oyada qayg'urmoqda edi. Shuning uchun ham ertangi kuni o'ylashga yuragi dov bermasdi, biroq shu ahvolda yura-verish mumkin emasligini ham tushunardi. Oradan bir necha kunlar o'tgach, yana bir bor subhatlashish payti keldi-yu, Edigey ichidagi butun sir-asrorini bir yo'la ochib tashladi-da, keyin ichini yeb pushaymon qilib yurdi.

...Qumbelga borishganda Ernak sartaroshdan qo'riqib, sochini oldirmagan kundun buyon ko'p oylar o'tib ketdi. Bola shu bo'yi o'sib ketgan jingalak qora sochini oldirmay yurardi, sochi o'ziga yarashib turgani bilan bu chumchuquvurak erkatoyning sochini olish mahali allagachonlar kelgan edi. Edigey kezi kelganda bolaning mayin tepa sochlariga yuzini ishqalab o'pard. Biroq uning yelkasigacha o'sib tushgan sochlari o'ynaganda xalal berardi. Bolaning nazarida, soch oldirish odadan tashqari, g'ayritabiiy, tushunib bo'lmay bir holdek tuyulardi. Shuning uchun ham hech kimning gapiga kimay yurdi-yu, Kazangap uni ko'ndirdi. Sochi uzun bolalarni ulogcha yomon ko'radi, g'ashi kelib, suzadi deb biroz cho'chitib ham qo'ydi.

Kazangap chinakamiga kuch ishlatishga majbur bo'ldi; bolani ikki tizzasi orasiga qisib, mashinka bilan sochini ola boshladi. Ernak esa bekatni boshiga ko'tarib yig'lab berdi. Sartaroshlik tugagach, ko'ngilchan Bo'key bolani ovutish uchun, qani, o'zingga qara-chi, qanday chiroyli bola bo'lib qolding degandek qo'lliga ko'zgu tutqazgan edi, bola o'zini tanimay besh-battar dod-faryod ko'tardi. Zarifa uni ana shunday dodlayotgan holda yetaklab ketayotgan payt yo'lida Edigeyga duch kelib qoldi.

Sochi taqir olinib, aft-angori mutlaqo o'zgarib, ingichka bo'yni ochilib, ikkala qulog'i dikayib qolgan, qovoqlari shishib

ketgan Ernak yig'laganicha onasining qo'lidan yulqinib Edigey tomon tashlandi.

– Edigey amaki, buni qarang, boshimni nima qilib qo'yishdi!

Edigey Bo'ronga birov og'ir ahvolga tushib qolasan deb avvalroq aytganda, hargiz ishonmagan bo'lardi. U yugurib kelgan Ernakni yerdan ko'tarib, bag'riga mahkam bosib oldi-da, uning himoyasizligini, arz-u dodini, ishonchini butun vujud bilan o'zinkiday, go'yo o'z boshiga tushgandek sezib, bolani o'pa boshladi:

– Tinchlan jigirim! Yig'lama! Seni hech kimga xafa qildirib qo'ymayman, senga ota bo'laman! Seni otadek sevaman, faqat yig'lamasang, bas! – Shu payt o'zini yo'qotib, qotib qolgan Zarifaga ko'zi tushdi-yu, o'zining qandaydir nozik chegaradan chiqib ketganini tushundi va nima qilarni bilmay shoshilib qoldi, bolani ko'targan bo'yicha hadeb bir gapni g'uldirab takrorlaganicha teskari qarab ketdi:

– Yig'lama!

Kazangapni, men unga hozir ko'rsataman! Hozirning o'zidayoq ko'rsatib qo'yaman, hap Kazangap shoshmay tursinchi, bir boplab qo'yay! Mana hozir, hozir unga ko'rsataman!...

Shundan so'ng Edigey bir necha kun o'zini Zarifadan chetga olib yurdi. Nazarida, Zarifa ham unga yo'lliqishdan iymanib yurardi. Uningiz ham g'am-g'ussaga ko'milib yurgan boyaqsh ayolni uyaltirib qo'ygani uchun Edigey Bo'ron qattiq pushaymon qildi. Zarifa nima ahvolda-yu, bu bo'lsa dard-u alamini yanada oshirib o'tiribdi!.. Zarifaning ko'zlari Edigeyning yodida uzoq yillar, ehtimol, umrining oxirgi damlarigacha saqlanib qolishi mumkin.

Edigey Bo'ron o'sha voqeadan so'ng bir necha muddat xomush bo'lib yurdi. Qalbida tug'yon urayotgan his-tuyg'ularni pinhon saqladi. Ernagi bolalar bo'ldi. Ishdan qo'li bo'shagan paytlari bolalar bilan birga bo'lib, dengiz qissalarining ko'pini takrorlab, ko'pini qaytadan esga tushirib, aytib berardi. Bolalarga yoqgan mavzu ham shu edi. Oq cho'rtloqlar-u baliqlar, boshqa tomonlardan uchib kelgan qushlar, Orol ko'llarida saqlanib

qolgan, biroq boshqa joylarda yo'qolib ketgan jonivorlar to'g'risida hikoya qilib berardi. Edige'y Orol dengizida o'zi boshidan kechirgan bir voqeani hadeb eslayverardi. Lekin u bu voqeani boshqa hech kimga aytmasligini afzal ko'radi. Qolaversa, uni bolalarga tegishli joyi ham yo'q edi. Bundan faqat Ukkubola ikkalasiga xabarador bo'lib, ular ham hech qachon bu haqda o'zaro og'iz ochmasdilar. Bu sir ularning bevaqt qazo qilgan to'ng'ich o'g'illari bilan aloqador edi. Agar hayot bo'lganida «Bo'ronli» bolalarining barchasidan kattarog'i, hatto Kazangapning Sobitjonidan ham ikki yosh katta bo'lardi. Biroq umri qisqa ekan. Ota-ona bolani ko'p yashaydi, umri uzoq bo'ladi, hatto tasavvur etib bo'lmay darajada cheksiz umr ko'radi, degan niyatda tug'ilishini kutadilar, aks holda odamlar azob chekib bola ko'risharmidi?

O'sha baliqchilik qilib yurgan yoshlik chog'lari, umush boshlamasdan oldin Ukkubola bilan ikkalasi ajoyib bir voqeani boshidan kechirishgan. Chamasi, bunday voqea kishi hayotida bir martagina ro'y berib, boshqa hech qachon takrorlanmaydi.

Edige'y uylangandan so'ng dengizda uzoq vaqt qololmay, uyiga shoshiladigan bo'lib qoldi: Ukkubolani sevardi. Ukkubola ham uni orziqib kutishini bilardi. Edige'y uchun undan ortiq, undan aziz ayol yo'q edi. U o'zini Ukkubola uchungina yaratilganday, faqat u haqda doim o'ylash uchun Dengiz kuchini, quyosh kuchini o'ziga singdirib olib, so'ngra uni kutib turgan xotiniga berish uchungina yaratilganday sezardi. Chunki ana shu ikki tomonlama fidoyilikdan asl baxt yuzaga keladi, qolgan narsalarning hammasi shu baxtni to'ldiradi, xolos. Quyosh bilan dengiz baxsh etgan kuch esa o'zaro bahra olishlari uchun ularga ko'maklashadi. Bir kuni Ukkubola o'zida qandaydir o'zgarish yuz berganini – bo'yida bo'lganini sezdi, yaqin orada ona bo'lib, bola ko'rajagini bildi, ko'nglida iliq umid uyg'ondi. Ularning o'sha kezlardagi hayoti ko'm-ko'k osmon yanglig' musaffo edi.

Kuz oyoqlab, qish oldidan Ukkubolaning yuziga bilinar-bilimmas dog' tusha boshladi. Qorni do'ppayib, bilini b qoldi. U bir safar: «Oltin makre baliq'i qanaga bo'larkin, u haqda eshitganman-u, o'zini hech ko'rmaganman» deb so'rab qoldi. «Kam-

yob baliqlardan biri, – dedi Edige'y, – dengiz tubida yashaydi, jussasi xiyilagina katta, lekin uning xosiyati go'zalligida: olachpor-ko'kintir, suzgichlaridan tortib kemirchak tarog'igaacha, xullas, boshidan to dumining uchigaacha oltin singari tovlanib turadi. Shuning uchun ham uni oltin makre deb ayitishadi».

Boshqa bir gal Ukkubola oltin makre tushiga kirganini gapirdi. Go'yo baliq uning atrofiga suzib yurarkan-u, baliqni ushlab olmoqchi bo'larmish. Baliqni tutib olib, yana suvga qo'yib yuborishni juda-juda xohlabdi. U baliqni ushlab, oltin tangachalarini bir siypalasa bo'ldi ekan. Shu qadar tutgisi kelibdiki, tushida uni quvlab yurganmish. Baliq esa tutqich bermasmish... Ukkubola uyg'onib ketib, haqiqatan ham murodi maqsadiga yetolmay qolgandek afsuslanib, anchagacha hayajonini bosolmay yotdi. Ukkubola o'zini koyigancha kulib qo'ydi, biroq o'ngida ham oltin makre baliq'ini tutib olish istagi uni qamrab oldi.

Edige'y buni o'zicha tushundi. Dengizda to'rni suvdan tortib olayotib o'y-xayoli oltin makreda bo'lardi. Keyin ma'lum bo'lishicha, tushni to'g'ri ta'bir etgan ekan. Uningcha, har qanday qilib ham bo'lsa, oltin makreni tutib olishi kerak, chunki Ukkubola boshqorog'i bo'lib, ko'ngli o'shani tusagan edi. Xotin kishi turli narsaga boshqorog'i bo'ladi-da: birov qandaydir achchiq-chuchuk, sho'r, hatto juda ham achchiq yo taxir narsani, boshqa birovlar esa qandaydir yovvoyi hayvon, qushning qovurilgan go'shtini xohlashadi. Edige'y xotini boshqorog'i bo'lgan narsadan ajablanmadi: erining kasbi baliqchilik bo'lgach, baliqqa boshqorog'i bo'ladi-da. O'sha katta baliqni ko'zi bilan ko'rib, qo'lida ushlab, oltin tangachalarini siypalashni unga taqdirning o'zi buyurgan. Xotin kishi boshqorog'i bo'lgan narsa topilmasa, bola tug'ilmasdanog kasalga chalmadi, degan gaplarni Edige'y eshitgan edi.

Ukkubola shu qadar g'ayrioddiy narsaga boshqorog'i bo'ldiki, uning o'zi ham buni botinib aytoalmasdi. Edige'y ham bunday nodir baliqni tuta olish yo tuta olmasligini bilimgandan so'ng, gapni cho'zib o'tirmadi. Avvaliga oltin makreni tutib, keyin, sen boshqorog'i bo'lgan narsa shuni yoki boshqa narsani deb so'rashga qaror qildi o'zicha.

Baliq ovi mavsumi iyuldan noyabr oyigacha davom etardi. Bu mahal – Ukkubola boshqorong'i bo'lgan paytlari Orol dengizida ov mavsumi tugay deb qolgan edi; qishning izgi'irin nafasi sezilardi. Artel qishlovga tayyorlanardi. Bir yarim ming kilometrlik masofaga cho'zilgan Orol dengizini qalin muz qoplab olar, o'shanda muzning har yeridan katta-katta qilib tesharlilar, so'ng bir teshikdan ikkinchisigacha og'ir to'r tashlab, sahlolarning tolmaz dasyori tuyalar yordamida tortib chiqarishardi. To'r bilan muz ustiga tortib chiqarilgan baliqlar izgi'irinli havoda qimir etishga ham ulgur olmay, bir zunda toshdek qotib qolardi... Artelda ishlab, yozin-qishin qanchalab baliq tutgan bo'lishlariga qaramay, Edigey hali biror mara ham oltin makrening to'rga tushib qolganini ko'rmagan edi. Bu baliq ahyonga qarmogga ilinib qolardi, bu esa ovchilar uchun kutilmagan katta bayram bo'lardi, falonchining omadi kelib, oltin makre tutib oldi, deya gapirib yurishardi.

Edigey o'sha kuni xotiniga, suv muzlab qolmasdanog uyga baliq tutib kelayin, degancha erta tongda dengiz tomon yo'l oldi. Ukkubola esa.

– Uyda baliqdan ko'p narsa, yo'q. Ayoqli kunda chiqib nima qilasan, – deya uni yo'ldan qaytarmogchi bo'ladi.

Edigey gapidan qaytmadi.

– Uydagi narsa, uyda-ku, – dedi u. – Sog'in xola og'ir kasallanib, yotib qolibdi, degan eding-ku o'zing. Laqqa yoki oqgayroq baliq'ining qaynoq sho'rvasini ichsa shifo topar. Undan yaxshi dori bormi? Qarib qolganida u boyaqishga kim baliq tutib berardi deysan.

Edigey shu bahona bilan ertalab barvaqt oltin makre tutgani ketdi. Hamma kerakli ov asboblari oldindan puxta tayyorlab qo'ygan edi. Ularning barchasini qayiqning tushug'i tomon joylashtirdi. O'zi ham issiqroq kiyimib ustidan plashchini kiyib oldi-da, suzib ketdi.

Kuz tugab, qish boshlanay deb turgan payt. Havo tez-tez o'zgarib turardi. Edigey to'liqlarni qiyalab kesib o'tib, qayiqni dengizning o'tasi tomon yo'naltirdi. Uning mo'ljalicha, oltin makre o'sha yerda bo'lishi kerak edi. Albatta, hamma narsa

omadga bog'liq, chunki ovchilik kasbida dengizda qarmogga baliq ilintirishdan ko'ra noaniq narsa bo'lmaydi. Qirg'oqda-ku, mergan bilan o'ljasi bir muhida bo'ladi, mergan pisib, poylab yotadi yo quvlab o'ljasiqa yaqinlashadi. Ammo baliqchi suv tubiga tushib, mergandek harakat qilolmaydi. Baliq bormi, yo'qmi qarmogga ilinadimi, ilinmaydimi, xullas, hech nimaning tayinini bilmay kutib o'tiraveradi.

Dengizga odardagiday baliq tutish, oziq izlash uchun emas, balki ikkiqat xotinining boshqorong'i bo'lgani uchungina ovga chiqqan Edigey omad kelishini juda-juda istardi.

Shu ko'yi qayiqni yelday uchirib ketdi. Eshkak eshganda navqiron Edigeyning baquvvat va chayritilgi sezilib turardi. U taram-taram bo'lib to'liqlanib turgan oqimlarni kesib o'tib, tinim bilmay, bir maromda qayiqni dengiz o'tasiga haydab borardi. Bunday to'liqlinni Orol baliqchilari egri to'liqin deb atashadi. Egri to'liqlinlar qatig shamoldan darak beradi. Ammo bunday to'liqlinning o'zi xavfli emas, qo'rqmay suzaversa bo'ladi.

Yerdan uzoqlashgan sari sohilning o'pirlib tushgan jarlik tomoni hamda suv to'liqlinlari yuvib, toshloq bo'lib qolgan yer ko'z ilg'amas darajada tobora kichrayib borardi-da, oxiri arang ko'rinish, so'ng sekun-asta g'oyib bo'lib ketadigan chiziqqa aylanardi. Tepada bulutlar muallaq turishar, pasda esa salqin shamol suv yuzini yalab esardi.

Taxminan ikki soat suzgandan so'ng, Edigey qayiqni to'xtatdi, eshkaklarini bo'shatib oldi: langar tashladi-da, ov asboblari hozirlay boshladi. Uning ikkita chiyriq g'altagi, qarmog ipini kerak paytda to'xtatadigan moslamasi bor edi. Birini qayiqning quyrug tomoniga tashlab, salmog toshni yuz metrcha chuqurtlikka tushirdi-da, suv tubigacha yana yigirma metrcha qolganda ipni bog'lab qo'ydi, ikkinchisini ham qayiqning tushug tomonidan xuddi shu yo'sinda suvga tashladi. So'ngra qayiqni bir muvozanatda saqlab turish va qarmogning iplari biritiriga o'talashib qolmasligi uchun eshkaklarni suvga botirib ushlab turdi.

Shu holda kutib o'tiraverdi. Uning mo'ljalicha, haligi noyob baliq xuddi shu joylarda bo'lishi mumkin edi. Mo'ljali-

ning to'g'riligiga dalil-isboti yo'q bo'lsa-da, ko'ngli guvohlik berib turardi. Bunday baliq bo'lishi kerak, albatta, paydo bo'lishi kerak, deb ishonardi.

Uningiz uyiga qanday qaytadi! Bu baliq shunchaki ko'ngil xushligi uchun emas, balki hayotida eng muhim ish uchun zarur.

Biroz vaqt o'tgach, baliqlar borligidan darak berishdi. Biroq ular Edigey kutgan baliq emas. Avvaliga oqqayroq baliq'i qarmogga tushdi. Iplari tortayotgandayoq, uning oltin makre emasligini bilgan edi. Axir, birinchi urinishdanoq oltin makre ilinib qolmasdi-ku. Unda turmush juda oddiylashib, qizig'i qolmagan bo'lar edi. Edigey oltin makre uchun mehnat qilishga, kutishga tayyor. Undan so'ng Orolning eng yaxshi baliqlaridan biri – laqqa qarmogga ilindi. Uni ham tortib olib, bir urib gangiradi-yu, qayiq tubiga tashladi. Har holda, bu baliqlar betob yotgan Sog'in xolaga shov'a pishirish uchun yetib ortadi. Yana bir baliq tushdi, uni tran deysihadi – Orolning lesihi. Buni qaysi shayton yo'ldan ozdirib haydab kelgan bu yoqqa? Odaida, tran suv yuziga yaqin yuradi. Mayli, gunohi o'zi bilan. Shundan keyin anchagacha hech narsa ilinmay, juda zorqitirib yubordi... «Yo'q, men oxirigacha kutaman, – dedi o'zicha Edigey. – Aytmagan bo'lsam ham, xotinim oltin makre uchun ketayotganini bilardi. Bola ona qornida qiyinalmasligi uchun bu baliqni tutishim kerak. Onasi oltin makreni qo'lga olib, ushlab ko'rsin; axir mening bolam shuni istayapti. Ona ham shunga tashna, men otasi bo'la turib ularning xohishini bajo keltirmasam, otaligim qoladimi!»

Egri to'liqin o'z odatini qilib, qayiqni nari-beri aylandiraverdi. Edigey qinirlamay o'tirganidan sovgola boshladi. Ikki ko'zi bilan chiyriq g'altaklardan suv ostiga tushib turgan iplar qachon tortilarkin deb kuzatib turardi. Qayiqning tushug tomonida ham, quyuq tomonida ham biror alomat yo'q. Ammo Edigeyning sabr-tog'ati hozircha yetarli edi. Oltin makre kelishini u bilardi, bunga ishonardi. Egri to'liqlar kuchayganidan kucha-yib borardi. Dengiz biroz sabr qilib tursa bo'lardi. Namuncha to'liqlanadi? Dovulning hozircha shashti yo'qdek ko'rinadi. Ehtimol, kechga borib yoki bo'lmasa tun o'tirasida odardagi

olabosh to'liqlar o'kirib, sharqirab ko'tarilishar. O'shanda dah-shatli tushga kirgan Orol dengizi boshdan oyog oppog ko'pikka burkanib qaynab yotadi, bu vaqt hech kimning dengiz ichiga suzib kirishiga yuragi belamay qoladi. Hozircha vaqt bor, kutib o'tirsa bo'ladi...

Sovqotganidan hurpayib ketgan Edigey tevarak-atrofga nazar tashlagancha dengiz tubidagi notayin baliqni kutardi.

«Nega muncha kutirasan, qiziq ekanсан, mendan qo'rqma, – dedi u ichida. – Qo'rqmagin demadimmi, seni qayta suvga qo'yib yuboraman-ku axir. Bunaqasi bo'lmaydi, demogchimsan? O'zing ko'rarsan, shunagasi ham bo'ladi. Seni pishirib yeyish uchun tutayotganim yo'q. Uyda har xil taom, turli xil baliqlar to'lib yotibdi. Ana shu qayiq tubida ham uchta baliq bor. Ovqat uchun seni shunchalik kutaridim, oltin makre! Tushunasami, birinchi farzandimiz tug'iladi. Kuni kecha sen xotinimning tushiga kiribsan, o'shandan beri u orom-u qarorni yo'qotgan, buni menga ataylab aytmasa-da, bilib yuribman. Nega shunday ekanini senga tushuntirolmayman, lekin xotinim seni qo'lga olib ko'rmog'i lozim, senga so'z berib aytamanki, shundan keyin darhol dengizga qo'yib yuboraman. Sen nodir baliqсан, hamma gap ana shunda. Boshing oltin, quytug'ing oltin, organgdagi kemirchak taroqlaring-u suzgich qanoqlaring ham oltin. Sen ham bizing holimizni tushungin. Xotinim seni o'ngida ham juda-juda ko'rgisi bor, u senga qo'l tegizib ko'rmog'chi, seni ushlab, silab-siy-pab, qandayligingni sezmoqchi, oltin makre. Baliqman, bularga nima alogam bor, deb o'ylama. Sen baliq bo'lsang ham, u negadir singlisini sog'inganday, imisini sog'inganday sog'inib yuribdi, farzand tug'ilguncha seni ko'rgisi bor. Qornidagi bola ham mamnun bo'ladi. Hamma gap ana shunda. Oltin makre, yaxshiligingni ayama. Beri kel, seni ranjimayman. So'z bera-man, niyatim yomon bo'lsa, sen buni allaqachon sezib olgan bo'larding. Qarmogga ilina qol, mushumdek go'sht ilib kutib o'tiribman, xohlaganingni tanlab ol. Ta'mini uzogdan sezingin deb, biroz hidlangan go'sht qo'ygannan. Tortinmay kelaver, yomonlikni o'ylama. Agar seni aldamog'chi bo'lib, yaltiroq temir baliqchani qo'yganimda, birinchi navbada o'shanga intilarding,

lekin bu men uchun vijdon yuzasidan bo'lmay edi. Sen uni yutishga yutarding-u, biroq suvga qo'yib yuborganimdan keyin ham ichingda temir bilan qanday yasharding? Bu g'irt aldam-chilik-ku axiri! Men esa chin gapimni aytib, qarmoq solib o'tiribman. Lablaring biror jarohatlanadi, xolos. Tashvish tortma, men katta sanoch¹ olib kelganman. Sanochni suv bilan to'ldiraman, sen vaqtincha o'sha yerda yotasan, keyin dengizninga qo'yib yuboraman, suzib ketasan. Biroq men bu yerdan sensiz ketmayman. Vaqt esa kutib tursaydi. To'liqlar kuchayib, shamol avjiga chiqayotganini nahot sezmayotgan bo'lsang, bolamning otasiz yetim bo'lib tug'ilishini xohlaysanmi? Yaxshilab o'yab ko'r-da, menga yordam ber...»

Dengiz yuzasiga qorong'ilik cho'ka boshladi. Qayiq goh to'liqlar uzra qalqib chiqar, goh to'liqlar orasida ko'rinnay ketib sohil tomon suzardi. Ko'piklanib, avjiga ko'tarilgan to'liqlarni arang kesib kelardi. Dengiz gurkirab, ichidan qaynab, dovuldan kuch olayotgandek jo'shib, har tomonga chayqalardi. Muzdek suv tomchilari yuz-ko'zlariga sachrab, qayiq eshkaklarini tutgan qo'llar sovuqdan ko'karib, shishib ketgan edi.

Ukkubola sohil bo'yab yurardi. Yuragi taka-puka bo'lib, o'tirolmay ancha vaqt ilgari sohil bo'yiga kelib, erini kudi. Baliqchiga tegaman deganida, daladagi chorvador qarindosh-urug'lar², turmushga chiqishdan oldin qanday og'ir hayot kechirishga jur'at etayotganini o'yab ko'rsang bo'lardi, sen baliqchiga emas, balki, baliq suzadigan dengizga tegayotirsan, dengiz bo'yida zor-zor yig'lab, unga hali necha bor iltijo qilarsan, deb aytishgan edi. Ukkubola Edigeysa bergan so'zidan qaytmadi, erim nima bo'lsa, men ham shu bo'laman, dedi...

Aytganlariday bo'ldi. Bu safar u ko'pchilik bilan emas, yolg'iz o'zi ketgan edi. Havo qorong'lashmoqda, tinchligini yo'qotgan dengiz esa guvullab sado chiqarardi.

Shu payt baland ko'tarilgan to'liqlar orasidan harakatdagi eshkaklar bilan qayiqning tushug'i ko'zga tashlandi. Qorini do'ppayib chiqqan Ukkubola jun ro'moliga o'rangancha to'li-

qlar urilayotgan sohliga yaqin kelib, Edigeysuzib kelguncha undan ko'zini uzmay kutib turdi. Sohliga kelib urilib turgan suv to'liqlari bir zarb bilan qayiqni sayoz joyga surib chiqarib qo'ydi. Edigeysuzib bir zumda iring'ib suvga tushdi-da, ho'kizni sudragandek qayiqni qirg'oqqa chiqarib qo'ydi. Boshdan oyog' sho'r suvdan shalabbo bo'lib ketgan Edigeysuzib roslagan edi, Ukkubola yaqin kelib uning plashch ostidagi suvga botgan muzdek bo'yundan quchoqladi.

— Kutaverib toqatim toq bo'ldi, shunchalar ham g'oyib bo'lib ketasami?

— Kun bo'yi kutdim, lekin kelmadi, nihoyat qarshimga suzib keldi.

— Nechuk? Oltin makre tutgani ketganimding?

— Ha, yalinib-yolvorib, oxiri ko'ndirdim. Ko'rishing mumkin.

Edigeysuzib qayiqdan suv to'ldirilgan katta sanochni sudrab chiqdi-da, suvini oltin makre bilan qirg'oqdagi shag'al ustiga to'kib yubordi. Nihoyatda go'zal baliq ekan. Oltin quyrug'i bilan quturganday iring'ishlab, burilib, shag'al toshlarni har tomonga sochib, qizg'ish og'zini katta ochardi, o'z olami — dengiz tomon, to'liqlar tomon iniltardi. Bu yangi olamga tasodifan tushib qolganidan, yun-yumaloq, musaffo ko'zlarini yummay, bir zumgina qinir etmay turib qoldi. Hatto notanish olamning qishki oqshom shu'lasidan gangib qoldi, shekilli, shu orada tepasida enkayib turgan kishilarning kirlagan ko'zlarini, sohilni, osmoni ko'rdi, so'ng olis-olislarda, ufqda dengiz ustidagi siyrak bulutlar orasidan ko'zni gamashtiruvchi o'tkir nurlarini sochib, botib borayotgan quyoşini ko'rdi. U nafasi qisilib, yana tipichilab, suvga yetmoqchi bo'lib, o'zini yerga urgancha talvasalay boshladi. Edigeysuzib oltin makre ni jabrasidan ushlagancha ko'tardi.

— Qo'lingni uzat, ushlat! — dedi u Ukkubolaga.

Ukkubola bolani ko'targandek baliqni ikki qo'llab ko'tarib ko'ksiga bosdi.

— So'liqlaganimi-ey! — deya xitob qildi u baliqning barq urib turgan ichki kuchini sezgan holda. Og'irligini qara-ya! Shundoqgina dengizning hidi kelib turibdi. Go'zalligini aytmay-

¹Sanoch — teridan qilingan idish; teri to'rtva; mesh, meshkob.

sannil! Ma, Edigey, minnaldorman, juda minnaldorman. Muro-dimga yetdim. Uni tezroq suvga qo'yib yubor!..

Edigey oltin makreni olib dengiz sari yo'naldi. Sohilga urilib qayayotgan to'lqinlarga qaramay tizza bo'yi suv kechib bordi-da, baliqni qo'yib yubordi. Baliq suvga tushgach, shu zahotiyoq boshidan to'quyug'igacha oltin tusta yalt-yult etib tovlanib, dengizga sho'ng'ib ketdi.

Kechasi qattiq shamol turib dengizda ulkan to'lqinlar ko'tarila boshladi. Uying nariji tomonida, jarlik ostida dengiz gurkirab-sharqirab turardi. Egri to'lqinlarning bo'rondan darak berishlariga Edigey yana bir bor ishonch hosil qildi. Tun yarim-lab qolgan edi – Edigey mudrab yotarkan, gurullagan to'lqinlar ovozi quloq solib, tilab olgan oltin makresini yodiga keltirdi. Hozir qanday suzib yurgan ekan? Dengiz tubida bunday to'l-qinlar bo'lmasa kerak. Baliq ham o'zining chuqur zulmat dunyosida suzib yurib, yuqorida to'lqinlar harakatini sezib tur-gandir. Edigey mamun bo'lib jilmaydi-da, ko'zi uyquga ketar ekan, qo'lini xotinining biqiniga qo'ydi-yu, kutilmaganda turki ovozini eshidi: bola dunyo yuzini ko'rishdan darak berayot-gandek edi. Edigey bunga ham quvonib jilmaydi-da, tinchgina uyquga ketdi.

Yil o'tmay urush boshlanishini va hayotda hamma narsa ag'dar-to'ntar bo'lib ketishini, dengizdan birato'la bosh olib ketib, uni keyin eslab yurishini koshki o'sha vaqtda bisa edi. Ayniqsa, boshidan ne kunlar kechishini bilganda edi o'shanda... Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqga tomon paydar-pay qatnab turadi...

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qop-langan hayhotday dashtlik – Sario'zak, o'racho'l yastanib yotadi.

Edigey Bo'ron uchun unutilmas o'sha dahshatli ellik uchinchi yilning qishi ham erta tushdi. Sario'zakda hech qachon bunday bo'lmagan edi. Oktabr oyi tugamasdan qor tushib, sovuq boshlandi. Yaxshiyamki, o'zlariga, Zarifaga Qumbeldan kartoshka olib kelib g'amlab qo'ygan ekan. Bilgandek shoshilib-di. Yuk poyezdi vagonlarining ochiq tamburida kelguncha

kartoshkani sovuq urnasin deb, keyingi safar tuyada borgan edi. Shuncha kartoshkani behudaga nobud qilmaslik uchun Qoronor Bo'ronga minib bordi-da, o'sha yerdagi kishilarning yordami bilan qopning birini tuyaning o'ng tomoniga, ikkinchisini chap tomonga ortdi. Ustidan kigiz to'shab, shamol urnasin uchun chekkalarini yopdi, o'zi esa ikki qop orasiga joylashib olib, xotirangina «Bo'ronli»ga yetib keldi. Qoronor ustida u o'zini xuddi filga minib olgandek sezardi. Odamlarning filga minib yurishlarini bu yerliklar yaqingacha bilishmasdi. Kuz mahali hind filmini ko'rsatishdi. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bu odamlari yopirilib kelishdi. Filmda bitmas-tugamas qo'shiq va raqslar qatori to'qayzorlarda fil minib, yo'lbars oviga chiqqan kishilar ko'rsatilgan edi. Bu filmni el qatori Edigey ham ko'rish-ga muvaffaq bo'ldi. Kasaba uyushmasi majlisiga «Bo'ronli»dan bekat boshlig'i bilan ikkovi delegat¹ bo'lib borishgan, majlis tugagach, depo klubida haligi hind filmi ko'rsatilgan edi. Gap-so'z o'shandan boshlandi. Kinodan chiqib borayotgan temir-yo'lichilar fil mingan hindistonliklarga qoyil qolib, bahs-muno-zara qilishardi. Kindir o'shanda baland ovoz bilan:

– Nimasiga hayron qolasizlar? Mana bu Edigeyning Qoronor Bo'roni gayisi fildan qolishadi? Qancha yuk orsang ham filday tortaveradi, jonivor! – dedi.

– Bu gaping ham to'g'ri, – deb kulishdi tevarakdagilar. – Filing nima bo'пти! – deya kimdir gapga qo'shildi. – Fil faqat issiq yurtlardagina yashaydi. U bizning Sario'zak qishiga kelib ko'rsin-chi, qotib qoladi. Qoranorga teng kelib bo'пти!

– Gapga quloq sol, Edigey, hoy Bo'ron, sen ham hindis-tonliklar fillari ustiga xonacha o'rnatib olgandek Qoranoring ustiga o'shanday bir kulba o'rnatib olsang bo'lmaydimi? Hind boylariga o'xshab o'sha xonachaga joylashib olarding.

Edigey kulib qo'ydi. O'roqlari Edigeyni mazax qilishar-di-yu, ammo unga mashhur tuyasi haqida aytilgan maqto'v

¹ Delegat (lotincha: delegatus – yuborilgan, yo'llangan) – biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.

so'zlari yoqib tushardi.

Biroq Edigey o'sha maqtalgan Qoranorri deb ganchalar azob-uqublatlar chekib qayg'urmadi, deysiz.

Bu hodisa o'sha qish chillasida ro'y berdi. O'sha kuni yo'lda bo'ralab yog'ayotgan dastlabki qalin qorغا duch keldi. Qor bundan avval ham bir-ikki yog'ib, tez erib ketgan edi. Bu safar esa butunlay o'zgacha: Sario'zak osmonini qora bulut qoplab, quyun ko'tarilib, qalin qor parchalari bo'ralab urardi. Unchalik sovuq bo'lmasa ham, qor yoqangdan kirib g'ashingni keltirardi. Hammadan yomoni qor tufayli tevarak-atrofi ko'z ilg'amassidi... Nima qilmoq kerak? Sario'zakda bu qor tinguncha kutib turadigan biron bir joydan darak yo'q. Qoranor Bo'ronning kuchiga, sezgisiga umid bog'larnasdan o'zga iloj qolmagan edi. Mol odarda o'z uyini topib bormaydimi! Edigey tuyani o'z erkiga qo'yib qo'ydi, o'zi esa yogasini ko'tarib, tepagini bostirib kiyib, chakmoniga burkanib olgancha ko'zga biror narsa chalinib qolar-kin, degan niyatda sabr-toqat bilan atrofga nazar tashlab ketaverdi. Ammo devor kabi to'sib olgan qordan boshqa narsa ko'rinmasdi. Xo'jayining endi unga xo'jayin bo'lmay qolganini, ustiga ortilgan yuk kabi churq etmay o'tirganini sezgan Qoranor qor quyunini nazar-pisand qilmay, shaxdam yo'l bosardi.

Qoranorga daladagi qalin qor usidan bunday og'ir yukni ko'tarib yurish uchun ancha kuch-quvvat kerak! Bor kuchi bilan yo'l bosib, issiq nafasi bug'lanib, ustida jimgina o'tirgan egasini ko'tarib borarkan, Qoranor gohida yirtqich hayvondek ovozi boricha bo'kirar, gohida uzog bo'zlab, yuz-ko'zlariga urilib yog'ayotgan qor orasidan hormay-tolmay tinimsiz yurib borardi...

Edigeyning xayolida yo'lning nihoyasi yo'qday tuyuldi. «Tezroq yetib olsam bo'lardi», deb o'ylardi u. Havo aynib turganida o'zining holi ne kechganini, qay alpolda yetib borishini, uydagilar o'ylab izitirob chekishayotganini tasavvur qilari edi. Ukkubola xavotirlansa ham, buni oshkor aytmasdi — u xayolidan kechgan hamma gapni lop etib aytib qo'yadiganlar xilidan emas. Eitimo!, Zarifa ham uni o'ylab, xavotirlanishi turgan gap, lekin churq etib og'iz ochmasligi aniq. U iloji boricha Edigeyning

ko'ziga ko'rinnas, yuzma-yuz kelib qolishdan o'zini olib qochar edi. Lekin chekinishning nima hojati bor, biror yomon savdo yuz beradimi? Na biron og'iz so'z, na biron qaltis harakat bilan odamlarning nadomat qilishlari uchun bahona tug'ilishiga yo'l qo'ymagan-ku. Oldin qanday bo'lsa, hozir ham shunday. Bor-yo'g'i bir zum hamroh bo'lib, so'ngra to'g'ri yo'ldan keyyap-mizmi deb bir-birlariga qayrilib qaradilar, xolos... So'ngra yana har kim o'z yo'lidan ketaverdi. Vassalom. Shu asnoda holi ne kechganligini uning o'zi biladi. Qismati shunday bo'lsa ne qilsin, ashi taqdirda shunday bitilgan bo'lsa ne qilsin? Bu narsa uning o'z ishi — simobday parchalangan qalbi bilan nima qilish kerakligi o'ziga ayon. Oldinda uni qanday ko'rguliklar kutayotgani-yu holi ne kechishi bilan kimning ishi bor! U go'dak emas, o'z aybi bilan battar chugalashib ketayotgan kalavanning uchini o'zi bir amallab topib olar...

Bitmas-tugannas izitirobli xayollar uni ezib borardi. Mana, Sario'zakka qish-qirov ham yetib keldi. U esa na Zarifani unuta olar, na Ukkuboladan voz kechar edi. Baxtga qarshi, Edigey Zarifaga ham, Ukkubolaga ham ehtiyoj sezar, ular bo'lsa ko'mak berishga ataylab shoshilmas edilar. Zohiran qaraganda, hech narsa o'zganmagan: ayollarning bir-biriga munosabati o'sha-o'sha, ikkala xonadonda o'sayotgan bolakaylar ham yagona oila farzandlariday bir jon, bir tan, mudom birga o'ynab-kulishar, goh bu uyga, goh narigi uyga chopqillashar edilar. Shu alpolda yoz ham, kuz ham o'tib ketdi.

Edigey Bo'ron bu qalin qor orasida yetimsirab, o'zini g'aribona sezardi. Atrof jimjit, biror jonzo't yo'q. Qoranor boshiga yopishgan qorni onda-sonda silkilib tushirardi-da, yetib borayotib, baqirib-chaqirgancha atrof sukunatini buzardi. Bu yo'lda egasining ahvoli tang edi. Edigey o'zini qo'lga ololmay qiy-nalardi, o'zini na tinchlantira olar, na uzil-kesil biror qarorga kelar olardi. Zarifaga ham dardini ochib-oydin aytolmas, Ukkubolani ham tashlab ketolmasdi. O'shanda o'zini-o'zi eng oxirgi so'zlar bilan so'ka boshladi: «Hayvonsan! Tuiyang ham, o'zing ham hayvonsan! Ablah! It! Miyasi aynigan!» Yana shunga o'xshash so'zlar orasida palid so'zlarni ham aytib, es-hushimni yig'ib olar-

mikanman, biror qarorga kelarmikanman, degan niyada jahl aralash, o'zini haqoratlab so'kardi. Ammo hech narsa foyda bermasdi... O'zi esa xuddi haligi bir qo'zg'alib, so'ng o'zini to'xtata olmaydigan yer ko'chkisi singari... Uni ovuta oladigan birdan bir kuch – kutayotgan bolalarigina, xolos. Ular Edigeyni turish-turmushi bilan sevisadi, aytadigan masalalar qo'yib, miyasini qotirishmaydi. Nima yordam kerak, uyu nima olib kelib, nimani o'nglash kerak – Edigey bu yumushlarni hamisha jon-dili bilan bajartadi. Mana hozir ham ikki katta qop kartoshkani yuklab borayotir. Qishlik o'tin ham g'amlab qo'yilgan.

Bolalar haqida o'ylaganda, Edigeyning joni taskin topardi, ruhiy azoblarini unutib yuborardi. Hozir «Bo'ronli»ga qanday yetib olishini, buni eshitgan bolalarning uy-uyidan yugurib chiqishlarini, uyu kiringlar desang ham qulq solmay, «Edigey amaki keldi! Qoratorga minib keldi! Kartoshka olib keldi», deya qor ostida qattiq qichqirishlarini tasavvur etib borardi. Edigey amirona tuyani cho'ktradi, qordan oppoq oqargan holda Qoratordan tushib, ust-boshini qoqadi, ish orasida bolalarning boshini silaydi, so'ng yukni tushira boshlaydi-da, Zarifa uyida bo'lsa chiqib qolar, degan umidda alanglab qaraydi. Zarifa chiqib yoniga kelgan paytda ham unga aytarliq biron narsa demaydi, Zarifa ham indamaydi, Edigey unga faqatgina bir nazar tashlab qo'yadi, xolos. U shunisiga ham rozi, yana sekin-asla tinkamadorini quritadigan, yuragini o'raydigan ham shu, ammo iloji qanchal Bolalar esa atrofiga o'ralashadi, ishlashga xalaqi berishadi, tuyaning bo'kirishidan qo'rtib-pisib, uning oldiga kelishadi-yu, yana qo'rtuvlarini bosib, unga yordam bermogchi bo'lishadi. Ana shuning o'zi Edigeyning butun azob-uqubatlarini yuvib ketgandek bo'lardi...

Abutolibning bolalari bilan tezroq uchrashishga u o'zini tayyorlar ekan, bu gal yosh do'stlariga nimalarni hikoya qilib berish haqida o'y surar edi. Yana Orol dengizidan gapirsimi? Eng sevimli hikoyalar dengizda kechnish vogear edi, bu vogearlarni ular muqarrar otalari bilan bog'lar va o'zlari sezmagan holda u bilan, uning xotirasi bilan ulab yuborishganini o'zlari ham sezmay qolardilar... Esizki, Edigeyning dengiz ha-

yoti haqida bilgani, eshitganlari tugab qolgan. Ularni bolalarga bir

necha martalab aytib bergan edi. Bor-yo'g'i olin baliq haqidagi qissa aytilmay qolgan edi, chamasi. Lekin bu vogearni ayitish kerak. Uzoq o'timishda sodir bo'lgan o'sha vogear zamirida nimalar yuz berganini o'zidan boshqa yana kimga tushuntira oladi?

O'sha qor bosgan kun Edigey butun yo'l bo'yi ana shunday og'ir o'y-xayollarga band bo'lib bordi. Qor esa hamon zabtiga olardi. Ana shu erta kelgan qor bilan birga Sario'zakka qish ham birato'la o'mashib oldi. Chilla sovu'g'i boshlanishi bilanq Qorator Bo'ronning norligi tutib, qutura boshladi – hech kim, hech narsa uning erkiga zid bora olmasdi. Bunday paytlarda hatto egasi ham biror falokatga duchor bo'lmalik uchun undan chekinishga intilardi.

Qor tushgandan so'ng uch kun o'tgach, Sario'zakning izg'irin shamoli kuchayib, qir-adirlarni tekislab, ana-mana deguncha qor yuzasini qatron qilib tashladi. Oyq ostidagi g'ijirlagan har bir tovush, har bir sharpa, yo'ldagi poyezdlarning ovozi uzoq-uzoqlardan ham qulogga chalinar. erta tongda Qoratorning qo'rada uvullab o'kirishidan cho'chib uyg'ongan Edigey tuyaning yer depsinib, qo'ra yog'ochlarini g'ijirlatib sindirayotganini eshitib yana jini qo'ziyapti, deb o'yladi. Darhol kiyimb qorong'ida u yoq bu yoqqa qoqinib qo'raga yaqin bordi-da, ach-chiq sovuq tomog'iga nashardek qadalganidan ovozinig borchia hayqirdi:

– Senga nima bo'ldi?! Yana o'z bilganingni qilmoqchimisani? Yana qonimni so'rmoqchimisani? Eh, hayvon, damingni o'chir! Damingni o'chir, deya pman. Bu yil negadir qilg'ingni erta boshlaydigan o'xshaysan. Eldan uylasang bo'lardi!

Edigey so'zlari yelga uchib ketayotgan edi. Ehtirosi jo'shib kelgan tuyani nazar-pisand ham qilmadi. U o'z bilganini talab qilardi. O'kirib-o'kirib, og'iz ko'pigini purkab, tishlarini dahshatli g'ijirlatgancha qo'rani buzib yotgan edi.

– Demak, qo'zg'agan ekan-da? – dedi egasi g'azabini ta'naga yo'ygan bo'lib. – Ha, tushundim, hozirning o'zidayoq kechikmay uyur tomon yugurib qolishing kerak-a? U yerda bir

kaymalcha' borligini sezib turtisan, shekitil? Obbo! Shovqin-suronsiz bajarish mumkin bo'lgan ishni nega Oloh Taolo tomondan yilda bir martagina bajaradigan qilib yaratilgan ekan. O'shanday bo'lganda senlar bilan kimning ishi bo'lardi? Endi esa xuddi yer ag'dar-to'ntar bo'lib ketayotgandek!..

– Baloga yo 'liqur-ey! – dedi Edagey yerga tupurib va yana jahil ustida qo'shib qo'ydi: – Yugur yaramas, kechikib qolasan!

Tushga borib Kazangap yetib keldi va dili og'riganday
ijlmayib turib aytdi:

– Biron yozga boshi og‘ib ketibdimi? Kalaka qilmasdan rostini ayta qol tezroq.

Ovymalcha – nova tuya.

ketib qolgan o'xshaydi deb. Biron narsaning hidini bilgan,

— Buncha xavotir olaverma. U yoqlarda ham man-man degan qutqur tuyalar bordir. axir. Ular Qororning boplab adabini berib qo'yishsa, katalaklangan iday dunmini qisib qaytib keladi. ochia mozoroga borarmidi.

Frontidan kelgan ma'lumot singari errasi kunyoq Qorator Bo'roning jangovarlik faoliyati to'g'risidagi xabarlar kela boshladi. Manzara yaxshi emas edi, albatta. Qaysi bir poyezd «Bo'ronli»ga kelib to'xtamasin, mashinist yo'ot yoquvchi, yoki konduktor biri-biriga gap bermay, yo'ldagi bekatlarga yaqin yerlarda yoyilib yurgan tuya podalari orasida Qoratorning beboshlik qilib, qing'in solib yurganini hikoya qilishardi. Aytilisharicha, Malagumidichop bekatida Qorator ikkita bo'g'rani o'lar holatga keltirib, g'ajib tashlagan emish, to'rtta urg'ochi tuyani keng dalaga haydab ketayotgan paytda egasi ularni arang ajratib olibdi. Odamlar osmonga qarab to'q uzib ham Qoratorni qo'rtqilolmadi. Boshqa bir yerda esa urg'ochi tuyani minib kelayotgan mabdi. Boshqa bir yerda esa urg'ochi tuyani minib kelayotgan egasini qulab, tortib olibdi. Nortuya urg'ochisi bilan o'ynab xumordan chiqqach, javobini berar deb, nodon egasi ikki soat dan ajralishni xohlamas emish. Shunda egasi bir mahal minib uyiga qaytish, niyatida tuyasiga yaqinlashgan ekan, hayvon hayvonligini qilib unga tashlanib, quvladi. Agar u bechora

mushtukdan qochgan sichqon singari chuqurga sakrab tushib jon saqlashga ulgurmaganda o'ldirib qo'yishi hech gap emas ekan. U o'ziga kelib, jarlik bo'ylab narigi tomondan chiqibdi-da, omon-eson qolganiga shukr qilib, uyiga jo'nabdi.

Yovuz Qoranorning sarguzashtlari to'g'risidagi bu kabi xabarlar Sario'zakning og'zaki telefoni orqali yetib keldi, ammo eng tashvishlisi va dahshatlisi Oqmo'ynoq bekatiidan kelgan xat edi. Yetib borgan joyini qarang-a, iblisi, Oqmo'ynoq degani Qumbel katta bekatiidan ham narida, ozmuncha yerni! U yoddan Kospan degan bir kimsa xat yozib yuboribdi. Bu ajoyib xatda bunday deyilgan edi:

«Salom hurmati Edige'y og'a! Sario'zakning atog'li kishisi bo'lsang ham, noxush gaplarni eshitishingga to'g'ri keladi. Men seni mard odam deb yurardim. Qirg'in keltiruvchi Qoranoringni bo'shatib yuborib, nima ish qilding? Sendan buni kutmagan edik. Tuva hamma yoqqa dahshat soldi-ku. Nor tuyalarini mayib qilib, eng yaxshi uchda urg'ochi tuyamizni olib ketdi. Bu yoqqa yolg'iz o'zi kelmadi, jabduqlangan allaqanday urg'ochi tuyani ham haydab kelibdi, ko'rinishdan egasini yo'lda haydab tushirgan. Bo'lmasa jabduqlangan holda kelarmidi! Xullas, haligi urg'ochi tuyani dalaga haydab ketgandan, buyon odamni ham, hayvoni ham yaqiniga yo'larmadi. Bu nima degan gap, axir? Bir yosh nor tuyamiz qovurg'alari sinib nobud bo'ldi. Osmonga o'q uzib, uni cho'chitib, tuyalarni qaytarib olib kelay desam, foydasi yo'q. Hech narsadan hayiqmaydi, yaqinlashganni tiriklayin g'ajib tashlaguday. Yumushingga xalal berna, degandek bo'ladi. O'tlamaydi ham, suv ham ichmaydi, urg'ochi tuyalarni birin-ketin qochirib, hamma yogni larzaga soladi. Bu ishlarni qanchalik yirtqichlaricha qilayotganini ko'rsang, ko'ngling ayniydi. Ayni paytda, qiyomat qoyim bo'lgandek beshbattar o'kiradiki, ovozi butun dalani tutadi. Quloqni qomatga keltiradi! Nazarimda, yuz yil tinimsiz shu ish bilan shug'ullanishga tayyor-dek ko'rinadi. Dunyoga kelib, bunday yovuz yirtqichni ko'rimgan edim. Qishlog'imiz odamlari qo'rquvdan esi chiqayozdi. Ayollar-u bolalar uylaridan chiqishga qo'rqishadi. Shuning uchun tezroq kelib Qoranoringni olib ketishini talab qilaman

va senga muhlat beraman. Agar ertagayoq kelib, bizni bu baladan qutqarmasang, mendan o'pkalama, qadrli og'a. Katta trubali miltiq'im bor. Guvohlar oldida jirkanch kallasiqa qarab o'q uzaman-da, shu bilan hamma ishni tugataman. Tervisini esa yuk tashuvchi o'ltinchi poyezdlarda berib yuboramiz. Bu — Qoranor Bo'ron, deb qarab turmayman. Men so'zining ustidan chiqadigan kishilardanman. Issig'ing borida koringni qil.

Oqmo'ynoqlik ining Kospan».

Xullas, ishlar mana shunaga. Afandichalish xat bo'lsada, undagi ogohlantiruv jiddiy edi. Edige'y Kazangap bilan maslahatlashgach, Oqmo'ynoq bekatiiga zudlik bilan yetib borilmasa bo'lmaydi, degan qarorga kelishdi.

Aytishga oson, biroq amalda bajarish qiyin. Ertasi kuni erta bilan yo'lga chiqdi. Ukkubola yo'l uchun yemish tayyorladi. Edige'y issiq kiyimib oldi.

Paxtalik shim, paxtalik nimcha, ustidan po'stin kiydi, oyog'ida esa kigiz etik, boshiga tulki terisidan tikilgan quloqchin kiyib oldi. Demak, orqa-oldidan shamol urmasdi, butun bo'yin-boshi mo'yna kiyimlar bilan o'rab olingandi, qo'lida esa issiqqina teri qo'lqop. Oqmo'ynoqqa borish uchun urg'ochi tuyani jabduqlayotganda Abutolibning ikki bolasi yugurib kelishdi. Dovul qo'lida to'qilgan yungli sharf olib kelarkan:

— Edige'y amaki, oyim bo'yni shamollab qolmasin deb berdi, — dedi.

— Bo'yin? Tomoq deb aytmaysammi?

Edige'y quvonganidan bolalarni bag'riga bosib qaytagaya o'pib qo'ydi, hayajonlanganidan so'z ham topolmadi. Bu Zarifaning Edige'yga ko'ngli borligidan bir nishona edi. Edige'y yosh bolalardak quvonib ketdi.

— Oyingga borib ayti, — dedi u bolalarga, — men tezda qaytaman, Xudo xohlasa, ertagayoq qaytib kelaman. U yerda bir daqiqaga ham ushlab qolmayman. So'ngra hammamiz yig'ilishib, choy ichamiz.

Qurg'ur Oqmo'ynoqqa ertaroq yetib, ertaroq qaytib kelsam, Zarifani tezroq ko'rib, ko'zlariga boqib, bu sharf taso-

diffiy bo'lmay, balki ma'lum bir ishora ekanligiga ishonch hosil qilsam, deb oshiqardi Edigey. U shu asnoda sharfni kamzulining ichki cho'ntagiga avaylab solib qo'ydi. O'vuldan chiqqanda ham, undan ancha uzoqlashib ketgandan keyin ham yo'ldan qaytmog'chi bo'ldi-yu, arang o'zini tiyib oldi. Jin ursin, bu Qoranol. Haligi Kospan degan kimsa otmog'chi bo'lsa olaversin, xohlasa, terisini ham yuborsin. Bebosh tuyaning azobini qachongacha tortadi, o'zidan ko'rsin! Mayli. Qilinishiga yarashal.. Qiziq ushda yana yo'ldan qaytmog'chi bo'ldi-yu, birov uyaldi, El oldida, hammadan ham Ukkubola, Zarifa oldida sharmada-yu sharmisor bo'lishini o'yladi. Nihoyat, niyatidan qaytdi. Toqatsizlikning birdan bir davosi iloji boricha tezroq borib, tezroq qaytib kelish, deb o'yladi o'zicha.

Shu zaylda u yetib borardi. Kun xiyala izg'irindi. Shamol o'zining achchiq tili bilan belarni yalaydi. Tulki terisidan tikilgan quloqchinni betni to'sadi. Tuyaning og'zidan chiqqan hovur quloqchinning mayin yungiga o'rashib qirov bosib qolardi. Aftidan, qish zabtiga olayotgan edi. Dala-dashlarni tuman qoplagan. Yon-berida tuman yo'qday, lekin sinchiklab qarasang uzoq-uzoqlarni tuman qoplagan. Ilgariga ildamlagan sayin tuman ham sen bilan birga yurayotganday tuyuladi. Yo'lovchi tumanaga Qanchalik yaqinlashib borsa, u shunchalik chekinadi. Oq choyshabga burkanib qotib qolgan Sario'zakning bag'ri sovuq edi.

Yosh, lekin yo'rg'a urg'ochi tuya bo'z yerdga qorni g'ir-chillatib ildam yurib boradi. Shunday bo'lsa-da, bu tezlikdan Edigeyning ko'ngli to'lmaydi. Qoranolning yurishi boshqacha edi-da. Uning odimlari o'ziga yarashgan. Burungilar bekorga aytishmagan:

Otdan o'ning farqi nimadir?

Arillagan yurishi bor, bilib qo'y.

Botirdan botirning farqi nimadir?

Farosati, aqli ortiq, bilib qo'y...

Yo'l yiroq, hamroh yo'q. Zarifa tufta qilgan sharf bo'lmaganda Edigeyning rosa tinka-madori qurigan bo'lardi. Butun

yo'l bo'yi o'sha odmigina narsa qalbini isitib bordi. Shuncha umr ko'rsa ham sevimli ayol sovg'a qilgan bo'lsa, bir parcha narsa dilini bu qadar ravshan qilishini bilmagan ekan. Butun yo'l bo'yi ana shunday shirin xayollar uning fikrini chulg'ab olgan edi.

Qo'lini qo'ltig'iga solib sharfni silar va nimadandir mamnun bo'lib, tabassum qilar edi. Shunda u birdan o'ylanib qoldi. Nima qilish kerak, bu yog'iga ne tariqa yashasin? Boshi berk ko'chaga kirib qolgan edi. Qanday qilish kerak? Tanasida joni bor odam bir maqsad uchun, shu maqsadga yetish uchun yashamog'i dardkor. Na maqsad, na unga erishish yo'li ko'rinar edi.

Sario'zakning ayozli dalalarini qoplagan sukuti tuman singari Edigeyning ko'z oldini g'ussali bir parda qoplagan. Edigey bu jumboqlarga javob topolmas, xunob bo'lar, iztirob chekar, ruhi tushar, nochor orzular bilan o'zini umidvor qilardi...

Shu zahotiyoyq uni bu sukunat va tanholik ichida dahshat bosardi. Nega uning chekiga shunday hayot tushdi-ykin? U qanday qilib Sario'zakka kelib qoldi? Taqdir quvg'ini haydagan bu baxtsiz oila qanday qilib «Bo'ronli» tarafdargal kelib qoldi? Bular barchasi bo'lmaganida u hech qanday azob-uqubatlar ham bilmas, o'z ko'yicha tinch, osoyishtagina istiqomat qilgan bo'lar edi-ku. Esini yo'qotmaganda noliq narsaga intilgan bo'lar-midi?.. Ustiga-ustak mana bu Qoranol quturib dahmaza bo'lib turibdi. Xudoning qahriga uchradi, ishi sira yurishmaydi. Chindan ham hayotda u omadsiz.

Edigey Oqmo'ynoqqa kechga yaqin yetib keldi. Tuyasi ancha hortgan edi. Ols yo'l, buning ustiga qish fasli.

Oqmo'ynoq deganingiz «Bo'ronli»ning baayni o'zi. Faqat suv o'zlaridan chiqadi, quduqlari bor. Boshga hech qanday farqi yo'q – Sario'zakning o'zginasi.

Oqmo'ynoqqa kelib tushishi bilan bir yigitdan Kospan degan kishi gayerda turishini so'rab-surishtirdi. Yigit Kospan xudai shu asnoda xizmatda ekanligini va hozir navbarchilikda turganini aytdi. Edigey o'sha yoqqa ravona bo'ldi. Navbarchi xonaga yetib ovoz bergan ediki, miqti, kulimsiragan, egniga po'stin kiyib olgan, oyoqlariga uringan kigiz etikni ilgan, boshi-

ga esa eski quloqchin kiygan bir kishi paydo bo'ldi.

– Salomatligingiz kerak, Edigey og'a! Qadrdonimiz Bo'ronli og'a! – deb yuzlandi haligi odam uni tanib. – Yetib kelibsiz-da. Biz bo'lsak ko'zimiz to'rt bo'lib kutib yotibmiz. O'ylab o'yimizga yetmaymiz kelarmikin, kelmasmikin deb.

– Shunday dag'dag'ali xat olganingdan keyin kelmay ko'r-chi? – deya jilmaydi Edigey.

– Bo'lmasa-chi? Xat-ku mayli-ya, birodar. Xat bir parcha qog'ozda. Bu yerda ahvol shundayki, sen tezda o'z Qoraningdan bizni xalos qilmasang bo'lmaydi. Aks holda, biz qurshovda qoldik. Cho'lga borishga yo'l bo'lsin! Birovning qorasini uzog'dan ko'rib qoldi deguncha, xuddi quturganday ezib tashla moqchi bo'ladi. Bu qanday shun maxluq o'zi? Bunday tuyaga ega bo'lish dahshat. – U tin olib Edigeyga nazar tashladi-yu, yana qo'shimcha qildi: – Hayromman, sen uni qanday qilib quruq qo'l tushovga olasan?

– Nega quruq qo'l bilan bo'lsin? Mana, mening qurolim. – Edigey xurjundan g'ilo'fga o'ralgan qanchini olib ko'rsatdi.

– Shu qanchin bilanni?

– Bo'lmasa-chi, tuyaga qarshi zambarak ishlatish kerakmi bo'lmasa?

– Biz esa miltiq bilan ham eplolmaymiz. Bilmadim, ehtimol seni xo'jayin deb bilib shashidan tushar... Hay, bilmadim-da, ko'zlariga qon quyilgan...

– Bu yog'ini ko'raniz-da, – dedi Edigey. – Vaqtni o'tkazib nima qilamiz. Avzoyingdan o'sha Kospan degani sen bo'lsang kerak. Agar shunday bo'lsa, meni yo'lla, qayerdaligini ko'rsat, qolganini menga qo'yaver.

– U yer uzoq, – dedi Kospan va chor atrofga ko'z tashladi, so'ngra soatiga qaradi. – Gap bunday Edigey og'a, vaqt kech bo'ldi. U yoqlarga yetamiz deguncha kech kirib qoladi. Qorong'ining ko'zi ko'r. Senga o'xshash odamlarni tuyga, so'yib ham mehmonga chaqira olmasan. Bu kech mehmon bo'l. Tong yoritishgach, ixtiyor o'zingda.

Ish bunday bo'lib chiqishini Edigey kutmagan edi. Agar Qoranimni ushlasa, shu bugunq tunda Qumbelga yetib olib,

bekat yaqinidagi tanish-bilishlarnikida tunab, erta tong mahalda uyga ravona bo'lishni mo'ljallagan edi. Edigey ketmoqchi bo'lganini paytagan Kospan qat'iy raddiya bildirdi.

– Bo'lmaydi, Edigey og'a, bu ishing durust emas. Xalga jahling chiqmasin, uzr. Bizning ham ilojimiz yo'q edi. Tuyang ho'l-jonimizga qo'ymadi. Biroq men senga javob berolmayman. Xudo ko'rsatmasin, bu kimsasiz cho'lga biron ishkal bo'lib qolguday bo'lsa, butun Sario'zak yurtiga badnom bo'lishni xohlamayman. Qolg'in, yo'q dema. Ertalab bilganingni qil. Huv chek-kadagi mening uyim. Yana bir yarim soatlik navbachilik qoldi. O'z uyingday joylashib ol. Tuyangni qo'raga qo'y. Yem bera-miz. Suv istaganingcha bor.

Hash-pash deguncha qosh qoraydi. Kospan va uning oila ahli ajoyib kishilar ekan. Kampir onasi, xotini, besh yashar o'g'li (katta qizi Qumbel internatida o'qir ekan), Kospanning o'zi mehmonning izzat-iktomini bajo keltirish bilan ovora edilar. Uy issiq, qandaydir ko'tarinkilik sezilardi. Oshxonada so'qim go'shti qaynamoqda. Choy ichib o'tirishdi. Kampir Edigeyga choy quyib uzatarkan, uy-joyidan, bola-chaqasidan, tirikchilikdan, ob-havodan gapirib, asli qayerlik ekanini so'rab-surishtirib o'tirdi. O'zi ham Ogmo'ymoq bekati'ga qachon va nechuk kelib qolganlarini so'zlab berardi. Edigey ham bajonidil subhaga aralashib, saryog'ni maqtab, issiq nondan sindirib, moydan yeb o'tirdi. Sario'zakda mol yog'i tabarruk. Qo'y, echki, tuyga yog'i ham chakki emas, biroq mol yog'i har holda mazaliroq. Ularga mol yog'ini qarindoshlari Uraldan yuborishgan ekan. Nonga moy surtib yeb o'tirgan Edigey bu yog'dan yaylov o'to'larlarining hidini sezib turibman degan edi, bu gapni kampirga juda yoqib qoldi. U o'zining tug'ilib o'sgan joylari – Jayik kengliklari, u yerdagi o'lloqlar, o'rmonlar-u daryolar haqida hikoya qila boshladi...

Shu mahal bekat boshlig'i Ertepes kirib keldi. Uni Edigey Bo'ronning mehmon bo'lib kelishi munosabati bilan Kospan taklif etgan edi. Ertepes kelishi bilan so'z darhol erkaklarning tirikchiligi, xizmat, transport, qor bosib qolgan yo'llar haqida ketdi. Ertepes bilan Edigeyning ilgari ham biroq tanishligi

bor edi. U temir yo'lda ko'pdan beri ishlardi. Endi esa yaqindan tanishishga to'g'ri keldi. Uning Edigeydan yoshi ulug'roq. Erlepes urush tamom bo'lishi bilan Oqmo'ynoq bekating boshlig'i bo'lib ishlab, bekat ahlining hurmatini qozongan edi.

Allaqachon kech kirib qolgan edi. «Bo'ronli»dagi singari bu yerda ham poyezdlar taraq-turuq qilib o'tishar, deraza oynalari sharaqlardi. Tashqarida guvullab shamol esardi. Garchi yana o'sha Sario'zak temir yo'li bo'yida o'tirgan bo'lsa ham bu yer bo'lakcha – Edigey butunlay o'zga kishilar orasida mehmon bo'lib qolgan edi. Bebo'sh Qoranorni deb kelgan bo'lsa ham uni munosib kutib olishdi.

Erlepes kelgach, Edigey o'zini qadr-qimmatini oshgandek his etdi. Erlepes ulfat odam edi. U qozoqlarning o'tmishini yaxshi bilardi. Bora-bora subbat o'tigan zamonlarga, atoqli kishilarga, mashhur voqealarga ulandi. O'sha kechasi Edigey oqmo'ynoqlik yangi do'stlari bilan apog-chapog bo'lib keldi. Buning boisi yozilib-yayrab qilingan subbatgina bo'lmay, balki uy egalariining samimiy mehribonliklari hamda yaxshi ziyofat va ichimliklarga ham ko'p jihatdan bog'liq edi. aroq bor edi. Sovuqda uzog yo'l bosib kelgan Edigey yarim stakan ichdi-da, pastak kina dumaloq stol ustidan yosh tuyaning sho'rlangan o'rkach yog'idan olib yedi va huzur qilganidan butun vujudi yayradi. Biroz kayf ham qildi, ruhi tetiklanib, yuziga tabassum yugurdi. Mehmon hurmati uchun Erlepes ham ichdi, u ham o'zini xushnud seza boshladi.

– Kospan, aylanayin sendan, borib do'mbiranni olib kelchi, – dedi u.

– Mana bu boshqa gap, – deb ma'qulladi Edigey. – Do'mbira chertgan kishiga bolaligidan buyon havas qilaman.

– Katta do'mbirachi emasman, Edike, biroq sening hurmatining uchun biror narsa qo'limdan kelib qolar, – deya Erlepes kamzulini yechib qo'ydi-da, yengini shimara boshladi.

Epehil va sergap Kospanga nisbatan Erlepes ancha vazmin edi. Yalpog yuzidan, barvasta jussasidan uning salobati kishi ekanligi sezilib turardi. Qo'lga do'mbirani olar ekan, har kungi tashvishlardan xuddi uzozlashgan kishidek fikr-o'yini

yig'ib oldi. Odarda, ichki sirlarini sirtga chiqarmog'chi bo'lgan kezlarda kishi ana shunday holatga tushadi-ku. Erlepes do'mbirasini sozlar ekan, aqlli ko'zlari bilan Edigeyga uzog tikildi – uning chagnab turgan katta gora ko'zlarida, dengiz yuzasidagi singari nur shu'lasti aks etardi. Qo'sh torli do'mbirasini ding'il-latib, o'ng qo'li do'mbiraning uzun bo'yni uzra u boshidan bu boshigacha yo'rg'alab o'tiganda turfa ohanglar yangrab ketdi. Kuylar har xil maqomda orombaxsh, sehlrovchi sado chiqarar ekan, Edigey uni shunchaki loqayd idrok eta olmasligini anglab yetdi. U keyin blisa, mehmondorchilikda o'tirib o'zini biroz unutib alaxsib qolgan ekan. Ammo do'mbira sadolari uni yana o'ziga keltirdi, butun vujudini yana g'am-alam girdobiga tortdi. Nimaga shunday bo'ldi ekan? Aftidan, bu kuy-larni yaratgan qadimgi odamlar Edigey Bo'ron boshiga ne-ne saydolar tushishini, ne-ne azob-uqubatlarga yo'liqlishini, peshanasiga nimalar yozilganini o'shandayoq bilishganga o'xshaydi. Bo'limasa, Erlepes chertgan kuy-lardan ular Edigeyning ichidagi g'am-alam-larni qanday qilib seza qolishdi? Edigeyning qalbi talpinib, to'liqlanib, nola torta boshladi. So'ng sirti dunyoning barcha eshiklari birdaniga ochilib keldi.

Erlepes do'mbirani chinakamiga sayratib yuborar edi. Xuddi gulxanda quruq o'tin chars-churs qilib yongani singari qalbarni yondirgan holda do'mbiraning torlarida o'timishda yashagan odamlarning oh-u'fig'onlari jonlanardi. Edigey shu asnoda kamzulining ichki cho'ntagida yashiringan shartli silab qo'yar ekan, bu yorug' dunyoda u sevgan bir mahbuba borligini o'yilashning o'ziyoq huzur va azob ekanini, uningsiz yashash esa dahshatli ekanligi, shuning uchun bu ayolni umrbod sevishini o'yilar edi. Erlepesning qo'lidagi do'mbira ham goh tinib, goh yonib xuddi shu to'g'rida nido chekar edi. Edigeyning qalbi ohanglar silsilasida to'liqlanib ustidan borayotgan qayiq singari jo'shib, qalqib borar edi. U xayolan yana Orol dengizida o'zini ko'rdi. Sohllarga urilib oqayotgan dengiz yodiga tushdi. To'liqlanilarning yo'nalishini ayol sochlari singari taralayotgan suv o'tlarining uzun va qalin tolalaridan blisa bo'lar edi. Bir vaqlar Ukkubolaning sochlari ham xuddi shunday taqimiga urardi.

Ulkubola cho'milgan paytlarida ham uning sochlari dengiz oqimi bo'ylab suv o'tlari singari taralib ketardi. Baxt rishtalari orasida suzib borayotgan qiz qah-qah urib kular, qorachadan kelgan vujudi go'zal va bejirim edi.

Ohanabo kuy Edigey Bo'ronga shu qadar xush keldiki, hayajonlanganidan chiroyi ochilib ketdi. Faqat shu kuyini deb Sario'zakdan butun qish kuni davomida uzoq yo'l bosib kelsa arziydi. «Qoranning bu yoqqa kelib qolgani ma'qul bo'lgan ekan, — deb o'yladi Edigey beixiyor. — O'zi kelgani yetmagan-day, meni ham yo'ldan ozdirdi. Do'mbiraning ovozi eshitib, hech bo'lmaganda bir yayrab olayin. Qandagini ur, Erlepesi! Mahoratingga tasamo! Bunchaligini bilimagan ekanman...»

Erlepesning kuylarini tinglab o'tirgan Edigey o'z turmushi haqida o'ylar, o'z hayotiga chetdan qarashga intilardi. Xayolida ovoz chiqarib, osmon-u falakda uchib yurgan burgutday qanoqlarini keng yozib yuborib pasga ko'z yugurtirdi. Ko'z o'ngida qishki Sario'zaking ulkan manzarasi namoyon bo'ldi. U yerda temir yo'lining bitinar-bilimas muyulishdagi yondosh qurilgan bir nechta xonadonlardan chiroq nuri ko'rinib turardi. Bu o'sha «Bo'ronli» bekat edi. Bu binolarning birida Ulkubola qizlari bilan yashaydi. Ehtimol, ular uxlab qolishgandir, Ulkubola, balki, uyg'oqdir. Nimanidir o'ylab, nimanidir yuragi sezi-yotgan bo'lsa kerak. Boshqa bir uyda Zarifa bolalari bilan. U hoynahoy uxlamagan bo'lishi kerak, qiyin bo'ldi boyaqishga. Hali u yana qanchadan qancha kulfat chekar. Bolalari-ku hali otasining nima bo'lganligini bilishmaydi. Iloj qancha, haqiqatni yashirib bo'larmidi.

Shunday yal-yal yonib tun bag'ini yorganicha poyezdlar o'tayotganini hamda atrof-tevarakni tilsiz cheksiz tun bosib yotganini tasavvur qilib ko'rdi. Hozir o'zi do'mbiraga mahliyo bo'lganicha mehmon bo'lib o'tirgan joyga yaqin bir yerda biyday dalada, qor va shamol bag'rida tinib-tinchimas Qoranoz uxlamay yuribdi. Mizg'ish nima, tinchish nima bilmaydi. Tabiatning karomatiga qoyil qolasan kishi. Yil bo'yi kuch-quvvat yig'adi, o'tlab yemini chaynab yuraveradi. Oshqozoni shunga moslashgan: kunduzi uni yemishga to'ldirib, tuni bilan kavsh qaytarib,

yemishini hazm qilib, hatto uyqusida ham jag'i tinmaydi jonivor-niing. Shu tariqa o'rkachiga kuch yig'adi. O'rkachi qanchalik pishiq va tik bo'lsa, o'rkach moyi qanchalik qattiq bo'lsa tuyaning qish mahalidagi yugurib yelishi ham shunchalik tezlashadi. Ana shunda qor ham, yog'in-sochin ham, sovuq-qirov ham — boshqalarni-ku qo'yavering, hatto o'z xo'jayini ham pisand emas unga. Bunday vaqtlarda kuchi oshib-toshib, mast bo'lib quturadi, o'zi xon, ko'lankasi maydon bo'ladi, charchash, toliqish, qo'r-qish nima — bilmaydi, qudratli, tizginsez natsoniyatini qondirishdan boshqani bilmaydi. Xuddi shuni deb yil bo'yi yashagan, xuddi shuni deb kun sayin kuch to'plagan! Ayni shu soatda Edigey Bo'ron iliqgina halovatl xonada mehmon bo'lib yeb-ichib, qo'shiq tinglab o'tirar va qayerdadir jimirlagan qor orasida o'z natsoniyatiga sodiq Qoranoz jini yoqdirgan urg'ochi tuyalarni siylab-sevib, ularni jamiki tashqi ofatlardan asrab-avaylab, parranda-yu darrandalarni-da yaqinlashtirmay, itni ham, bini ham ravo ko'rmay, tun bo'yi baqirib-chaqirib, chor atrofga chopgani-chopgan...

Do'mbira sadolari ostida Edigeyning xayolidan ana shular kechdi.

Kuy o'y-xayollarini bir zunda qadim zamonlardan hozirgi zamonga va yana o'tmishga olib ketardi. Shunda Edigey qalbida ajib bir istak paydo bo'lardi — hech kimga, hech narsaga yomonlikni ravo ko'rmaslik uchun aziz bo'lgan jamiki narsalarni, ko'z o'ngida namoyon bo'lgan butun olamni xavf-xatlardan saqlab qolsam, deb xayol qilardi. Edigey turish-turmushi bilan bog'liq bo'lgan hamma narsalar oldida o'zini qandaydir gunohkordek sezar va bu tuyg'u uni qayg'uuga solardi...

— O', Edigey, — deya ovoz qildi Erlepes xayol surib jilmaygancha, tortlarni sekin chertib, chalayotgan kuyini yakunlar ekan. — Yo'l yurib charchagansan. Men esa dam oldirishga ham qo'ymay do'mbiramni ding'illatib yotibman.

— Yo'g'e, nega endi Erleke, — dedi Edigey haqiqatdan ham uyaltib, qo'llarini ko'ksiga qo'yarkan. — Aksincha, ko'pdan beri hozirgiday rohatlangan emasman. Agar o'zing charchamagan bo'lsang, do'mbirangni chalaver. Xizmatini ayama.

Chalaver.

– Nimani eshitishni xohlarding?

– Bunisini o'zing yaxshi bilasan, Erleke. Usta o'z ishini yaxshi biladi. Rost, eski kuyilar yurakka yaqinroq. Nega shundayligini o'zim ham bilmayman, o'yga solib, ko'nglingga qanot bag'ishlaydi.

Erlepes tushungandek bosh chaygadi.

– Bizning Kospan ham ana shunday, – deb kuldi Erlepes odardan tashqari tinchib qolgan Kospanga qarab. – Do'mbirani eshidi deguncha erib ketadi-da, boshqa kishiga aylanib qoladi. Shunday emasmi, Kospan? Biroq bugun uyimga mehmoning bor. Buni unutm. Haligidan qitay tomizib qo'y.

– Quyishmi, mana hozir-da, – deya tetiklandi Kospan va stakanlarning tubiga qaytadan quyib chiqdi.

Ichib bo'lishgach, ketidan gazak qilishdi. Birozdan so'ng Erlepes yana do'mbirani qo'lga olib, tortlarni sozlay boshladi.

– Modomiki, eski kuyilarni yoqtirar ekansan, – dedi u Edigeyga o'g'irib, – bir voqeani senga eslatayin, Edike. Buni qariyalarning ko'pi bilishadi, sen ham bilishing kerak. Darvoqe, sizlarning Kazangap ham yaxshi biladi, lekin u faqat gapirib beradi, men bo'lsam kuyiga solib aytib beraman, butun bir teatrni ko'rsataman. Hurnating uchun, Edike: «Raymali og'aning inisi Abdilxonga qarata aytilgan so'zi».

Do'mbira sadosiga jo'r bo'lib kuyilayotgan Erlepesning mayin va bo'g'iq ovozi jirlovchi oqin¹ Raymali og'aning fojiali taqdirini ifodalashga juda mos bo'lib tushar edi. Raymali og'a oltinshdan oshganda yo'lidan yulduz kabi chagnab chiqqan keng dalaning o'n to'g'iz yashar erkin va erka jirlovchi Begimoyga oshiq bo'lib qoladi. Aslida, qiz unga oshiq bo'lib qolgan ekan. Biroq erkin o'sgan erka qiz Begimoy ko'ngli istagancha ish tutardi. Ko'pchilik esa el og'ziga tushgan Raymali og'ani koyirdi. Shundan buyon bu sevgi tarixini yoqlovchilari ham, mahkum

etuvchilari ham bor. Xolis qolgan kishi yo'q. Ba'zilar Raymali og'aning qilinishini qoralab, uning oti o'chsin, unutinglar deysishsa, ba'zi bironlar unga yuragi achishib kuyinib, muhabbatini topgan bu oqinning og'ir qismatini og'izdan og'izga, urug'dan urug'ga aytib kelishardi. Raymali og'a xususidagi rivoyat shu yo'sinda yashab kelmog'da. Qaysi zamonda bo'lmasin, Raymali og'aning o'z qoralovchilari va himoyachilari bo'lgan...

Abutolib Qutiboyev qog'ozlari orasida Raymali og'aning ukasi Abdilxonga yozgan xatlarini topib olib so'kinitib gapirgan chag'irko'z kishini eslatdi Edigey. Abutolib esa aksinch o'zi aytganday dala Gyotesi² haqidagi dostomni yuksak baholardi; ma'lum bo'lishicha, nemislarda ham ulug' va donishmand bir qariya bo'lib, u ham yosh qizga oshiq bo'lib qolgan ekan. Bolalarim o'sib ulg'ayganda o'qisin, degan unid bilan Raymali og'a haqidagi qissani Kazangap og'izidan yozib olgan ekan. Ba'zi bir voqealar, ba'zi bir kishilarning umri-taqdiri bo'ladiki, ulardan ko'pchilik bahra olishadi, der edi Abutolib, chunki bu qissalar sabog'ining bahosi shu qadar yuksak va o'z zamirida shu qadar katta mazmunni qamrab oladiki, bir odamning taqdiri o'sha zamonda yashaganlarning, hatto ancha keyinroq dunyoga keladiganlarning ham taqdiri bilan bog'lanib ketadi...

Uning qarshisida ilhom bilan do'mbrasini chalb, Erlepes kuyilab o'tirardi. U bekat boshlig'i sifatida temir yo'lning belgilangan qismida, avvalo, yo'l ishlari bilan band bo'lish o'rninga bechora Raymali og'aning allazamonlar ro'y bergan mudtish tarixini yuragida saqlab, o'sha azob-uqubatlarni o'zi boshidan kechirgandek ezilib, azob chekib nima ham qilardi? Qalbdan chiqqan qo'shiq bilan yurakni to'qimlantiruvchi kuy degani shu ekan-da, deb o'ylandi Edigey, bunday paytlarda o'lib, qaytadan tiril desalar, shunday qilishga ham tayyor edi... Eh, koshkiydi yorishib ketgan qalbingda shunday bir olov portlasa-

¹ Oqin (tojikcha-forachda: o'qimishli odam) – qozoq va qirg'izlarda: badihago'y sho'ir, kuychi; xalq sho'iri, baxshi.

² Yoxann Volfgang Gyote (1749-1832) – nemis yozuvchisi va mutafakkiri. «Ges fön Bertlinggen», «Prometej», «Ifigenya Tavridda», «Egmont», «Torkvato Tasso» kabi dramalar, «Yosh Verterning iztiroblari», «Vilxelm Maysterning o'qish yillari», «Vilxelm Maysterning darbdarlik yillari» kabi romanlar, «She'rivot va haqiqat» avtobiografik kitobi, «Ming rib-u-mashiq devoni», «Faust» tragediyasining muallifi.

yu, undan fikri-zikring tozalanib, eng noyob ezgu niyatlarining hamisha o'chmasdan senga hamroh bo'lib yursa...

Garchi Edigey yotish oldidan toza havoga chiqib aylanib kelgan bo'lsa-da, uy egalari unga qulay issiq ko'rpa-to'shak solib, mehmon otangdan ulug' deb maxsus saqlab qo'yilgan toza choyshab solib bergan bo'lsalar ham yangi o'rinda hadeqanda uxlay olmadi. U deraza yonida yotar kan, tashqaridan shamolning hushak chalib esishi, poyezdlarning dam u tomon, dam bu tomon qatnab turishi eshitilardi. Tong otishini kudi. Qutirib ketgan Qoranorni ushlab, ertaroq yo'lga chiqib, ertaroq «Bo'ronli»ga yetib olishga oshiqardi. Edigeyni ikki xonadon bolalari kutishayotgan edi. U ham bolalarning barchasini birdek sevardi, bu zaminda o'shalarni deb yashardi, ularning biron-tasi yomonlik ko'rmasin degan umidda yashab kelayotgan edi... U hozir Qoranorni qay yo'sinda ushlab olish yo'lini o'ylardi. Tuyasi boshqalarnikiday emas – tutqich bermaydi, buning ustiga o'lgudek badfe'l, odamlar uning ko'rinishidan qo'rqib qochishadi, endi esa o'tib o'ldirmog'chi bo'lishibdi. Biroq yaxshi bilan yomonning farqini hayvonga qanday qilib tushuntirish mumkin.

Bu yoqlarga boshi og'ib kelganligi behuda emas. Qoranor ulkan va qudratli, shu boisdan unga hech qanday to'siq pisanid emas, kimki yo'lga to'siq bo'lsa, uni dangal majalab tashlaydi... Nima qilish kerak, qanday qilib Qoranorni eplab bo'ladi? Uni zanjirband qilishga va qish bo'yi qo'rada saqlashga to'g'ri keladi, aks holda holiga voy, Kospan bo'lmasa boshqa biron kishi o'tib tashlaydi, vassalom... Ko'zlarini uyqu elitar ekan, yana bir bor Ertepesning qo'shig'ini, uning do'mbira chertishlarini esladi va tun bo'yi subhat qurganidan mamnun bo'ldi. O'sha do'mbira sadolaridan bir zamonlar sevgilisi tufayli sho'ri qutigan oqin Raymali og'aning iztiroblari qayta jonlanib, dilini g'ussa qoplad. Garchi ular o'trasida hech qanday umumiylik bo'lmasa-da, Edigey Raymali og'aning o'sha sevgi sarguzastlari bilan o'zining tuyg'ulari orasida qandaydir hamohanglik, qandaydir mustarak dard borligini his qildi. Yuz yillar chamasi muqaddam Raymali og'aning boshidan kechmish savdolar endilikda Sario'zak sahrolarida yasharnish Edigeyning qalbida

aks-sado berib turibdi. Edigey og'ir xo'rsinar, to'shakda ag'anar, bulut singari bosib kelayotgan qiynoqlardan uni gavg'u qoplad. Boshini qayvoqlarga olib ketisin va nima qilsin? Zarifaga ne deydi, Ukkubolaga qanday javob qiladi? U yo'ldan adashgan, sarson-sargardon, kalavasiining uchini yo'qotgandi. Uyguga ketar ekan, yana Orol dengizida ko'rdi o'zini... Lojuvard osmon, suv hamda shamol og'ushida mast bo'lib, boshi gir aylandi... O'sha vaqtlarda, bolalik chog'larida bo'lganiday xayolida oqqush singari parvoz qilish uchun dengizga ravona bo'ldi, sohil ustida erkin qanot yozdi. O'zining bu holatiga behad shodlanib, quvnab, dengizni tush ko'rar va do'mbira sadolari ostida Raymali og'aning baxtsiz muhabbati haqidagi Ertepesning qo'shiqlarini tinglar, yana dengizga qo'yib yuborilgan o'sha oltin baliqni eslar edi. Makre silliq va miqti bo'lib, uni suvga tomon yetaklar ekan, baliqning butun vujudini shundog'ina his etar, uning o'z makoni tomon jon-jahdi bilan intilganini sezib turardi. U suv yoqalab borar, dengiz unga tomon talpinar, nasimning yoqimli yuzlaridan bo'sa olar, so'ng esa barmoqlarini yozarkan, oltin baliq quyruq ko'kish havo bag'rda kamalakdek tovlanib porlar ekan, suvga sirg'anib tushishi uzog' vaqt davom etardi.

Xuddi shu zayida uzog'-uzoqlarda musiqaga nola qiladi. Kimdir o'z taqdiridan no'lib yig'laydi.

O'sha kechasi dalada izg'irin shamol esdi. Ayoq kuchayganidan kuchayardi. Qoranor Bo'ron tamlab olgan tuyalar tepalikning tubida, chuqurlikda turishardi. Shamol aralash qor quyuni tuyalarni savalardi, ular g'uj bo'lib, boshlarini bir-birovlarining bo'yinlariga qo'yishib isinishar edi. Ammo quturgan Qoranor bechoralarga tinchlik bermas, urg'ochi tuyalar atrofida yelib-yugurib, kimdandir qizg'anayotgandek g'azab bilan o'kirardi. Kindan ham qizg'ansin, biron jon zoti yo'q. Nahotki osmondagi bulutlar orasidan arang shu'la taralayotgan oydan qizg'anayotgan bo'lsa? Qoranor o'zini qo'yarga joy topmasdi. Qo'sh o'rkachli qora alvasi, uzun bo'yin, paxmoq kalla izg'irin shamol yalab ketgan qor ustida deysinib, nari-beri yurganicha atrofga qarab alanglard. Uning kuch-qudrati bitmas-tuganmasdek! Xumori qonmagan Qoranor hamon moda tuyalarining goh unisiga,

goh bunisiga tegishib, joni-holiga qo'ymay, to'pig'idan va sonidan qattiq tishlagancha chetga tortardi, biroq bunisi o'ta darajada haddan oshish edi. Urg'ochi tuyalar kunduzi yetarli ravishda Qoranning bema'ni istaklarini ishitiyoq bilan bajo keltirishardi, tunda bo'lsa, dam olishni istashardi. Shuning uchun ular ham bunga javoban adovat bilan baqirishar, ortiqcha yopishishlariga qarshilik ko'rsatib, inoat etish niyatida emas edilar. Kechasi tinchligina yotishni istar edilar-da.

Tongga yaqin Qoranol Bo'ron ham shashitidan tushib, tinchlanib qoldi. Uyuqdan uyg'ongan singari atrofga alanglab qarab, onda-sonda baqirib qo'yar, urg'ochi tuyalar esa yonida jimgina turishardi. Shunda ularning to'rtalasi ham bir-birlarining yonida bo'yinlarini cho'zishib, boshlarini yerga qo'yib bir zumgina mudrab olishdi. Bu urg'ochi tuyalarning tushiga o'zlarining yonlarida chopqillab yurgan, bu yoqlarga allagayoqlardan kelib, boshqa tuyalar bilan jang-u jadalda g'olib chiqib, o'z bag'riga olgan qora nortuyadan tarqagan jaji bo'taloqlar kirardi. Ularning tushiga yana yoz, yovshan bo'taloqlarning yelininga erikalanib talpinishlari kirar va yelinlari og'rib, ich-ichidan ignaday sanchir edi... Qoranol bo'lsa hamon sobit turardi. Shamol uning yollari orasida hushak chaladi.

Yer o'z doirasi bo'ylab aylanib, sirti shamolga yuvilganicha suzib borardi. Quyosh o'z o'qi atrofiga aylanarkan, oxiri bir yoni Sario'zakka to'g'ri keldi, bu yerda tong otdi. Ana shunda Qoranol Bo'ron ikki kishining tuyaga minib yaqinlashib kelayotganini ko'rdi. Ular Edigey bilan Kospan edilar. Kospan milting'ini ham olib chiqqan edi.

Bu odamlar u turgan joyga kelishga qanday jur'at etishdi, uyurga nechuk yaqinlashishadi, uning ra'yiga zid boshishga kimning haqqi bor, deya yotgandek Qoranol Bo'ron g'azabnok o'kira boshladi. Qoranol uzun bo'yini-yu boshini silkitib, ko'piklashgan dahshatli jag'larini katta ochib, tishlarini shaqirlatgancha bor ovozi bilan bo'kirardi. Og'zidan chiqqan issiq hovu shu zahotiyoq ayozli havoda hurpaygan junlariga yopishib muzlab qolardi. Jahlgina mingan hayvon o'zini tiya olmay, oyoqlarini kergancha shamolga qarataib chopitra boshladi – havoda siydik

hidi anqidi, to'ng'ib qolgan tomchilar uchib kelib Edigeyning yuziga urildi.

Edigey yerga iring'ib tushdi-da, po'stinini qor ustiga tashladi, ustida yengil kiyimi – paxtalik nimcha-yu paxtalik shirni qoldi, xolos. Qanchini yozib, yaxshilab ushlab oldi.

– O'zingni ehtiyot qil, Edike, agar hujum qiladigan bo'lsa, uni otib tashlayman, – dedi Kospan milting'ini tuyaga to'g'rilab.

– Aslo bunday qilma. Men uchun tashvish tortma. Men – egasiman, o'zim javob beraman. Ehtiyot bo'l, agar senga tashlangudek bo'lsa, o'zing bilib ishingni qilaver.

– Bo'pti, – dedi Kospan tuyasidan tushmay.

Edigey qanchini tarsillatib silkitgancha qor parchalarini to'zg'itib, Qoranol tomon yaqinlashaverdi. Qoranol uni ko'rgach, beshbattar quturib Edigeyga peshvoz chiqdi. Shu orada moda tuyalar ham turti tomonga yugura boshladilar. Odatda, temir yo'ldagi qor uyumlarini chana tuya tortirib tozalaganlarida ishlatadigan qanchisida yerni tarsillatib urib, ovozimdan tanir, degan umid bilan olisdan qattiq qiyqirib borardi Edigey.

– Ey, Qoranol! Jimnlik qilma! Jimnlik qilma, deya paman! Bu menman. Nima, ko'r bo'lib qoldingmi? Bu menman, deya paman!

Ammo Qoranol pinagini ham buzmasdi: qo'sh o'rkachlarini salanglatib, bostirib kelayotgan ulkan qora maxluqni ko'rganda Edigeyning esi chiqayozdi. Shunda u quloqchisini bostirib oldi-da, qanchisini ishga soldi; moylanib, obdan pishirilgan channadan to'qilgan yetti metr channasidagi uzun qanchi tekkan joy achishib og'irdi. Tuva, bo'yini cho'zib, o'kirib bo'kirgancha Edigeyni yiqitib, majalab tashlashga intilar, ammo Edigey uni o'ziga yaqinlashtirmas, bor kuchi bilan qanchilar, chap berib qochar, egasini tanisin, degan niyatida naridan beri yugurgan ko'yi hadeb qiyqirar edi. Ikki hujum hujumi bermay olishishardi. Qoranning tutqich bermay, jon-jahdi bilan tashlanayotganini ko'rib, Edigey hayratda qoldi; uni bir baxtdan mahrum etayotganligini tushundi, boshqa iloj ham yo'q edi. U

faqat bir narsadan, Qororning ko'ziga urib ko'r qilib qo'yishdan cho'chirdi. Qolgani hech gap emas. Inson jasorati oxirida hayvonning qaysarligini yengdi. Hayqirib-qiyqirib tuyani qamchi bilan savalab, bir amallab unga yaqinlashdi-da, bir sakrab yuqori labidan shu qadar kuch bilan ushlab oldiki, sal bo'lmasa uzib olayozdi! Shu zahoiyoq chaqonlik bilan oldindan tayyorlab qo'ygan o'rta sirtmoq tashladi. Qoronor chidab bo'lmaganda bo'kira boshladi. Uning qo'rquvi og'riq azobida xonasidan chiqayozgan dahshatli ko'zlarida Edigey xuddi ko'zguda ko'rgandek o'z aksini ko'rib qoldi va o'z vajohatidan o'zi cho'chib ketdi. Bunday dahshatli, g'ayritabiiy holat uning jumbishga kelgan, ter bilan qoplangan yuzlarini buzib aks ettirdi. Hatto atrofdagi qorlarning o'ngir-cho'ngirlarigacha Qororning telba qorachiqdarida ko'rinar edi. Hech gunohsiz jonivorni shunchalar qiyaganiga achindi va bu ishlarning hammasidan voz kechib, boshi oqgan tomonga ketgisi keldi. Lekin shu ondayoq o'ylanib qoldi: «Bo'ronli»ga Qoronorisiz qaytib borishi mumkin emasligini, Oqmo'ynoqdagi odamlar tuyani olib tashlashlarini ko'z oldiga keltirdi. U o'zini-o'zi yengib, g'olibona qiyqirgancha tuyasini cho'kira boshladi: uni jabduqlash lozim edi. Qoronor Bo'ron hamon baqirib o'kirar, og'zidan chiqayotgan issiq nafas bilan egasini qoplab olar edi. Edigey shashtidan qaytmadi. Oxiri tuyani yerga cho'kirtirdi.

— Kospan, egar-jabduqni bu yerga tashlagin-da, anavi tuyalarni buning ko'zidan nariga, tepalik orqasiga haydab yubor! — deb qichqirdi Edigey.

Kospan moya tuyu ustidan jabduqni yechib oldi-da, u tomon irg'ildi, o'zi esa Qoronor uyurini haydash uchun yugurdi, Edigey ungacha ishini bajardi-qo'ydi: Qoronorini tezda egarlab oldi, shu orada Kospan ham Edigeyning po'stinini ko'tarib yetib keldi. Edigey po'stinini kiya solib, jabduqlangan Qoronorga minib oldi.

Qoronor hali ham g'azabdan jo'shib, moda tuyalar safiga qaytib borish uchun intilardi, hatto bo'yini yon tomon cho'zib, egasini tishlab olmoqchi bo'lardi. Ammo Edigey o'z ishining ustasi edi. U yovuzlarcha baqirganiga ham, bo'zlaganiga ham

qaramay, Qoronorni qorli keng dalaga haydadi va qamchilab gap uqirmoqchi bo'ldi:

— Bas qil, yetar endi! — der edi unga. — Ovozini o'chir! Baribir, orgaga qaytmaysan! Miyasi aynigan! Men senga yomonlikni ravo ko'rarmidim? Men bo'lmaganimda seni quturgan yirtqich hayvon singari olib tashlashardi. Xo'sh, nima demogchisan? Quturganing chinni? Quturish ham shunchalik bo'ladimi? O'z uyuring ozlik qilgandek bu yoqlarda nima qilib yuribsan? Shuni unutmanginki, uyga yetib olganimizdan so'ng o'zga uyurlarga chopishni bas qilasan. Aks holda zanjirlab, bir qadam ham jildirmay qo'yaman seni!

Edigey Bo'ronning bu do'q-po'pisalari ko'proq o'zini oqlash uchungina aytilayotgan edi, xolos. Modomiki, Oqmo'y-noqgacha kelib uni tuyalardan zo'rg'a ajratib ketayotgani, umuman olganda adolatsizlik edi. Koshkiydi, Qoronor yuvosh maxluq bo'lsal! Unda ortiqcha tashvishga o'rin qolarmidi. Haligi minib kelgan tuyani Kospangacha tashlab kelyapit-ku. Vaqt-soati kelib uni «Bo'ronli»ga tashlab kelaman, deb va'da berdi Kospan. Bu yaramasning tashvishidan sira qutulmadi-da.

Sal vaqt o'tgach, Qoronor egar-jabduqqa ham, egasining minib yurishiga ham ko'nikib qoldi. Endi kamroq baqirib, ildam odimlab, bora-bora lo'killab chopgancha Sario'zakning olis yo'llarini bosib o'tardi. Edigeyning ko'ngli tinchidi; tuyaning ikki o'tkachi orasiga qulayroq o'mashib oldi-da, quloqchisini yugoriroq ko'tarib «Bo'ronli» qaydasan, deb boraverdi.

Biroq yo'l ancha olis edi. Oh-havo birmuncha yaxshi, faqat biroz shamol esib, osmon bulutlanib turardi. Yaqin orada qor bo'roni turishidan xavfsiramasam ham bo'lardi, ammo tunga borib bo'ron ko'tarilishi mumkin. Edigey Bo'ron Qoronorni no'xtalab olganidan, ayniqsa, kecha kechasi Ertepesning do'mb-rasi bilan kuylagan qo'shiqlarini tinglaganidan ko'ngli tog'day ko'tarilib borardi.

U shu yo'sinda xayol surib borarkan, yana beixtiyor o'tgan umrini esladi. Yechilmas muammo bo'ldi-ku! Qanday qilib «Zarifa, gap ana shunday, men seni yozdirib qoldim», deb ochiqdan ochiq aytishi mumkin. Agar Abutoibning bolalariga

otasining nomida bo'lish ziyon keltiradigan bo'lsa, Zarifa xohlasa, ular Edigeyning familiyasiga o'tib qo'ya qolsinlar. Familiyasi Dovul bilan Ermakka qo'l kelib qolsa, u o'zini baxtiyor hisoblardir. Ishqilib, ular musibat ko'rmasin, o'z kuchi, aql-idroki bilan obro'-e'tibor topsinlar... Butun yo'l bo'yi Edigey shunday o'yxayollarga botib kelardi.

Kun oxirlab qolgan edi. Avval qanchalik quturib qarshilik ko'rsatgan bo'lmasin, jilovlangan Qorator toliqish nimiligini bilmay tobora ildamlab borardi. Oldinda «Bo'rtonli» kengliklari ham ko'rinish qoldi. Mana, qor uyumlari bilan qoplangan qir-adirlar. Mana, kattakon tepalik, narigi tomonda, temir yo'lning burilish qismida esa «Bo'rtonli» bekat. Mo'rildan tutun chiqib turibdi. Qadrdon oila ahlining hoi ne kechdi ekan? Uydan chiqqaniga atigi bir kun o'tgan bo'lsa-da, go'yo oradan bir yil o'tib ketganday xavotirlanardi. Ularni sog'ingan edi, ayniqsa, bolalarni. Qorator ovulni ko'rgach, qadarni yana tezlatdi. Terlab-pishib, og'zidan hovurini buritsitib borardi. Edigey uyiga yaqinlashguncha bekatga ikkita yuk poyezdi kelib, qarama-qarshi tomonga o'tib ketishdi: biri mag'ribga, ikkinchisi mashriqqa...

Edigey Qoratorni birato'la qamab qo'ymoqchi bo'lib uy ortidagi qo'ra yomiga kelib to'xtadi. Shoshilganicha yakka qoziqqa bog'lab qo'yilgan yo'g'on zanjirning bir uchini olib tuyaning oldingi bir oyog'ini bog'ladi va «Teri biron qotsin, keyin egarini olarman», deya o'z holiga qo'ydi uni. Negadir juda shoshilardi. Uvishib qolgan bo'yni, oyoqlarini yozib qo'radan chiqib kelayotganda katta qizi Saula uni ko'rib yugurib keldi. Edigey po'stinda beso'nagay engashgancha qizini quchoqlab oldi-da, yuzlaridan o'pdi.

— Sovqotibsan-ku, — dedi u qizining yengil kiyinani ko'rib, — uyga chop, men hozir...

— Ota, — dedi Saula erkanib, — Dovul bilan Ermak ketib qolishdi.

— Qayoqqa ketib qolishadi?

— Butunlay ketishdi. Oyisi bilan birga. Poyezdga tushib ketishdi.

— Butunlay ketishdi? Qachon? — U gap nima to'g'risida

300

ketayotganini tushunmay, qizining ko'zlariga tikilib qayta so'radi.

— Bugun ertalab.

— Shunaga degin-a! — dedi Edigey ovozi titrab. So'ng uyga yugur, tezroq, deya qizini qo'yib yubordi. — Men keyinroq boraman. Keyin. Sen bora qol, hoziroq jo'na...

Saula burchakdan aylanib o'tdi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Edigey qo'raning eshigini ham yopmay, to'g'ri Zarifalarning uyi tomonga yo'l oldi. Borayotib eshitgan gaplariga ishonmadi: bunday bo'lishi mumkin emas! Eshik oldida to'p-to'p oyoq izlari ko'rinar. U chala yopilgan eshikni sharta ochib, ostonadan ichkariga kirdi-yu, eski-tuski kiyim-kechaklarning sochilib yotganini, allaqachonlar tashlab ketilgan bo'm-bo'sh uyni ko'rdi. Na bolalar, na Zarifa bor edi!

— Shunaga ham bo'ladingmi? — deya pichirladi Edigey nima bo'lganini hamon tushungisi kelmay. — Demak, ketishbdidai! — U uy egalarning ketgani aniq ko'rinish turgan bo'lsa-da, lekin ko'zlariga ishonmasdi.

Yuragi orqasiga tortib keldi. Hech qachon bunday og'ir ahvolga tushmagan edi. U xona o'rtasida, muzdek pechka oldida nima qilarni bilmay, ichdan qaynab chiqayotgan alarni bosolmay, tik turib qoldi. Deraza peshaxtasida Ermakning unutilib qoldirgan qirg bita folbinlik toshlari — umid va muhabbat toshlari sochilib yotardi. Allaqachon dunyodan o'tgan otaning qachon qaytib kelarini bilish uchun bu toshlar bilan fol ochishni Edigey ularga o'rgatgan edi. Edigey toshlarni hovuchlab oldi-da, kaftida silab ushlagancha, — mana, qolgan esdalik shulargina, dedi. So'ng devorga burilib, yuzlarini muzdek taxtalarga suykay-suykay, ho'ngrab yig'lab yubordi. Qo'lidagi toshlar birin-кетин yerga tusha boshladi. U qaltiragan qo'llari bilan toshlarni tutib qolmoqchi bo'lardi-yu, lekin panjalari qovushmasdi; toshlar birin-кетин yerga tushib, huvullab qolgan xonaning burchakburchaklariga yumalab ketdi...

Edigey devorni ushlagancha sekin-asta cho'qqayib o'tirib qoldi. U orgasi bilan devorga suyanan ko'yi xo'rsinib-xo'rsinib yig'lardi. Cho'rtagidan Zarifa bergan sharfni olib, ko'z

301

yoshini ardi...

Tashlandiq barakda nima voqea yuz berganiga aqli yetmay o'tiraverdi. Demak, Zarifa bolalarini olib ataylab Edigey yo'qligida ketgan. Edigey bundan xabar topsa, ketgani qo'y-maydi, deb o'ylagan. Haqiqatan ham, u hech qachon, har qanday sharoitda ham ketgani qo'ymasdi. O'zi bu yerda bo'lganida edi, oxiri nima bilan tugallanmasin, baribir, ruxsat bermagan bo'lardi. Safarga chiqmaganimda nima bo'lardi, deb bosh qotirish foydasiz. Endi ular yo'q. Zarifa yo'q! Bolalari yo'q! Axir, Edigey ulardan ajralmasdi-da. Buni yaxshi tushungan Zarifa uning yo'qligida ishini bitirgan. O'zining ketishini osonlashtirishga osonlashtiribdi-yu, ammo Edigeyni o'ylamabdi, uni, egasiz qolgan uyni ko'rib qanchalik dahshatga tushishini o'ylab ko'rmabdi.

Hoynahoy, kimdir bekatga chiqib poyezdni to'xtatib bergan! Kimdir... Kazangap-da. Kazangapdan boshqa kim bo'lishi mumkin! U Edigey singari Stalin vafot etgan kundagidek stop-kranni yulqib olgan emas, albatta, yo'lovchi poyezdlardan birini to'xtatib berishni bekat boshlig'idan o'tinib so'ragan. U ana shunaga kimsa... Ularni bu yerdan tezroq ko'chirib yuborishda Ukkubolaning ham qo'li bo'lsa kerak. Hap sizlarni, hali qarab turinglari!

Qon miyasiga urdi-da, hozir bor kuchini to'plab, «Bo'ronli» deb atalmish xudoning qarg'ishiga uchragan bekatdan qo'lga ilingan narsalarning barchasini tag-tugi bilan yakson qilib, kulini ko'kka sovurib yuborgisi, so'ng Qoranoriga mingancha Sario'zakning keng bo'shliqlariga bosh olib ketgisi, o'sha yerlarda yolg'iz o'lib ketgisi keldi. Edigey bu kimsasiz uyda shu zaylda holsizlanib, izitrob ichida esankirab, aqli yetmagan bir savolni bot-bot takrorlardi: «Nega keldi, qayvoqqa keldi? Nega keldi, qayvoqqa keldi?»

Oxiri u uyiga qaytdi. Ukkubola sukut saqlagancha po'stinini, telpagini, kigiz etigini olib burchakka eltib qo'ydi. Edigey Bo'ronning toshdek qotib, bo'zday oqarib ketgan yuzidan nimalarni o'ylab, nimalar qilish niyatida ekanini bilib bo'lmay edi. Go'yo hech narsani ko'rmayotganday ko'zlari hech narsani ifoda etmasdi. Edigey o'zini bosib o'tirish uchun haddan

ziyod ortiqcha kuch sarflaganini yashirardi. Ukkubola erining bosh ko'tarar mahallini kutib, ikki-uch bor samovarga o't qo'yib choy qaynatdi. Choy daynab, olov yonaverganidan samovar ichi kulga to'lib qolgan edi.

– Choy issiq, – dedi xotini. – Hozir o'tdan oldim.

Edigey unga qaradi-yu, indamay choyini ichaverdi.

Choyning qaynoqligini ham sezmad. Ikki-uch ham kim oldin so'z ochishini kutib, tumtuyib o'tirishardi.

– Zarifa ko'chib keldi, – dedi nihoyat Ukkubola.

– Bilaman, – dedi Edigey boshini ko'tarmay. Biroz sukundan so'ng: – Qayvoqqa keldi? – deb so'radi o'sha alpozda boshini ko'tarmay.

– Bunisini bizga aytmadi, – deb javob qildi Ukkubola.

Shu bilan ular yana xomush bo'lib o'tirishdi. Og'zi kuy-sa ham parvo qilmasdi, xayoli faqat bir narsa bilan band, ishqilib, o'zinni jahldan tiya olayin, quturgan tuyadek hamma yogni to's-to'polon qilmasam go'rga edi, bolalarning o'takasini yoritib, biron falokatni boshlamasam bo'lgani, deb o'tirardi Edigey ichida.

Choyini ichib bo'lgach, tashqariga chiqmoqchi bo'ldi.

Yana kigiz etigini, po'stinini, telpagini kiyydi.

– Qayvoqqa bormoqchisan? – deb so'radi xotini.

– Molga qaray-chi, – dedi u eshikdan chiqayotib.

Qishning qisqa kuni ham oxirlab, ana-mana deguncha tevarak-atrofini tun zulmati qoplab olayotgan edi. Borgan sari sovuq kuchayib, shamol jonlanib, qorni to'zg'itib uchirardi. Edigey qovog'ini solgancha qo'raga kirdi. Kirdi-yu, zanjirini yulqib tortayotgan Qoranorga jahl bilan qaragancha qichqirdi:

– Yana o'kirib-bo'kirayapsanmi? Sira to'ymas ekan-sanda?! Yalmog'iz, qarab tur hali! Masalangni endi uzil-kesil hal qilaman-qo'yaman. Endi menga baribir!

Edigey jahli aralash Qoranorning qorniga turti-da, so'krib, ustidan egarini olib irtg'irdi, oyog'idagi zanjirini yechdi. So'ng jilovini bir qo'lida, dastasiga o'ralgan qamchisini esa boshqa qo'lida ushlab olgancha xumori tutib bo'kirayotgan tuyasini yetaklab dala tomon yo'l oldi. Qoranor Bo'ron tinmay bo'zlab borayotgani uchun egasi bir necha bor uni qo'rqtmoqchi

bo'lib argonni siltab tortdi, foydasi bo'lmagach, yerga tupur-gancha e'tibor bermay ketaverdi. U o'jarlarcha qalin qorni ke-chib, zulmat qo'yniga cho'mayotgan dala sari shoshilar, entkib nafas olgancha borardi. Boshini quyi solib, govog'ini ochmay uzoq yo'l bosdi. Bekadan uzozlashib bir tepalikka yetganda to'xtadi-yu, tuyasidan qasdini olmogchi bo'ldi va yoppini qor-niing ustiga yechib tashladi-da, tuyaga qochib ketmasligi uchun no'xtaning uchini belbog'iga bog'ladi. So'ng qamchimini ikki qo'llab ushlab olgancha Qoronomi savalashga tushdi. O'zi ham tuyadan beshbattar baqirib, so'kinib savalardi.


— Mana, senga! Mana! Harom o'lgur, hayvon! Bularning bari sening kasofatingdan! Ha, hamma-siga sen sababchisan, Endi seni o'z erkingga qo'yib yuboraman, boshing oqqan yoqqa ketaverasan, lekin avval seni mulla qilib qo'yaman! Mana senga, ochofat! Bari senga ozlik qiladi! Ovloq joylarga ilqib yuguri-shing shartmidi? U esa bolalarini olib ketib bo'ldi! Ne kunlarga qolganin bilan hech biringizning ishingiz yo'q! Endi men qar-day yashayman? Qanday yashayman? Sizlarga baribir bo'lsa, menga ham baribir! Mana senga, it!

Qoronor qamchi azobiga dosh bermay baqirar, yulqinar, o'zini har tomonga urardi, bir mahal Edigeyni urib yiqitdi-yu, uni qor ustida sudragancha jo'nab qoldi. Ishqilib, o'sha zo'rlab olib kelishgan joyga yana yetib borsam, degan niyada egasini vahshi-yona bir kuchda xodani tortgandek tortib borardi.

— To'xtal! To'xtal! — deb baqirardi Edigey sudralib borar-kan goh qorga ko'milib, goh og'ziga qor tiqilganacha.

Quloqchin boshidan uchib ketdi, boshi qor yuqumlariga kirganda yuz-ko'ziga qor urilib, bo'yni-yu qo'ynilariga muz kirardi. Tuyani bir amallab to'xtatish, no'xtani belbog'idan ye-chib olishning hech qanday iloji yo'q edi. Tuyaga esa bundan faqat qochib qutulaman, deb sudragancha ketaverdi. Kim bilsin, agar Edigey bir amallab belbog'ini bo'shatib, najot topmaganda bu ish nima bilan tugardi? Edigey yana no'xtani ushlab tortgancha tuyaga uni yana bir necha metr joyga sudradi-da, keyin no'xtani bor kuchida tortib to'xtab qoldi.

— Uh, yaramas! — Edigey biron o'ziga kelgach, dillang



bo'lib, g'udrandi. — Qilar qilmishing shu bo'lsa, yo'qol, ko'zim-ga ko'rimal! La'nati hayvon, ikkinchi bor seni ko'rsam, ko'zim chiqsin! Harom o'lgur! O'lingingni qarg'a-quzg'unlar yeb bitsini! Quturgan it kabi dalada qolib, nom-nishoning o'chib ketini!


Qoronor baqirib Oqmo'ynoq tomon qochardi. Edigey esa unga yetib olib, qamchisida savalar, og'ziga kelgan so'z bilan so'kar edi. Qasos olishning, ayriliqning vaqti-soati yetdi. Edigey uning ketidan hamon qichqirardi:

— Ko'zimdan yo'qol, it uli! Yugur! Ochko'z maxluq! Peshanangdan o'qqa uchib o'lgur!

Qoronor qorong'ilashib borayotgan dalada qochib bora-yotib, qor bo'roni ichida darhol ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ahyon-ahyonda uzozqlardan bo'zlagan ovozi eshitilib turdi. Endi bu yaramas Qoronor Oqmo'ynoqqa yetib olmaguncha charchash nimaligini bilmay, tun bo'yi yetib-yuguradi, deb o'yladi Edigey o'zicha. So'ng «Tuf», deya o'zi sudralaverib payhon qilib yubor-gan yo'lak bo'ylab orqaga qaytdi. Quloqchinsiz, po'stinsiz, yuz-qo'li achishib, qamchisini sudragancha qorong'i tunda ten-tirab kelarkan, butunlay holsizlanib, notavon bir ahvolga tush-ganligini sezdi. Shunda u qorga cho'kdi-da, boshini changal-lagancha ho'ngrab yubordi. Mahobati! Sario'zak qo'ynida yakka-yu yolg'iz cho'ngayib olgan Edigey kuyun aralash yer bag'irlab esayotgan izg'irin shamolning hushak chalib esishini, tepadan savalab yog'ayotgan qorning shivirini eshitib turdi. Sevimli ayolingdan, suyumli bolalarindan ayrilib yashagan umring qursin, bunday umrning ma'nisi yo'q, degandek million-lab qor uchqunlari havoda mayin shittirlab, qulog'iga gapirayot-gandek bo'lib tuyuldi. Edigey shu yerning o'zidayoq qor ostiga ko'milib o'tishni afzal ko'rdi.

— Xudo yo'q! Hayotning ma'nosini u tushummagandan so'ng, boshqarlardan nimani kutish mumkin? Xudo yo'q! — der edi u Sario'zaking qorong'i tunida tanho qolib.

Shu paytgacha bunday so'zlarni hech qachon ovozi chi-qarib aytmagan edi. Hatto Xudoni doimo eslab tutadigan Yeliza-rov, ilm nuqtai nazaridan qaraganda, Xudo yo'q, deb ishonir-mogchi bo'lganida ham u inomagan edi. Endi esa inondi...



Yer o'z o'qi atrofiga aylana, koinot shamollari
yuvilib, suzib borardi. Quyosh atrofiga aylana va shu dam o'z
charxi bo'ylab aylangan ko'yi Sario'zakning qori dashtlarida tiz
cho'kib o'tirgan kishini olib ketmoqda edi. Edigey Bo'ron se-
vimli ayolidan ajralgan o'sha kuni shu qadar tushkunlikka tushib,
umidsizlikdan tiz cho'kdiki, hech bir qiról, hech bir imperator,
hech qanday hokimi mutlaq taxti-baxtidan ajralib qolgan chog'da
ham yorug' dunyo qarshisida bunchalik g'am-g'ussa bilan tiz
cho'kmagandir?! Yer esa suzib borardi...

Oradan uch kun o'tib, Edigey ombor eshigi oldida
Kazangapga yo'lliqdi: ular temir yo'l ta'miri uchun zarur bo'lgan
gulmish olishayotgan edi.

— Sen negadir odamovi bo'lib qolding, Edigey, — dedi u
temir-tersakni zambilga solayotib. — O'zingni mendan chetga
olib yurganga o'xshaysan, gaplashib olaylik desam, tutqich
bermayсан.

Edigey unga sharta o'girilganicha o'qayib qaradi:

— Sen bilan gaplashadigan bo'lsa, shu zahotiyoq
bo'g'ib o'ldirib qo'yishim mumkin. Buni o'zing ham yaxshi
bilasan!

— Menigina emas, boshqalarni ham bo'g'ib o'ldirishga
tayyor ekanligingga shubhalanmayman. Biroq bunchalik g'azab-
lanishingning boisi nimada?

— Uni bu yerdan ketib qolishiga sizlar majbur etgansizlar,
— dedi Edigey ko'pdan beri tinchlik bermay, iztirobga solib
kelayotgan o'y-fikrini to'kib socharkan.

— Topgan gapingni qara-yul! — dedi Kazangap boshini
chayqab. Jahli chiqqandami, uyalganidami qizarib ketdi. —
Aqlingga shu gap kelgan bo'lsa, unda biz tugul, o'sha kekin
to'g'risida ham yomon fikrda ekansan. Senga qaraganda uning
aqli butun ekan. Bu ishning oxiri nima bilan tugashini biror mar-
ta tanangga o'ylab ko'rganmiding? Keling aql yuritib, obro'yi borida
ketishga qaror qilgan. Ko'chirib yuborish uchun yordam so'ra-
gan edi, qarashib yubordim. Bolalarini yetaklab qayoqqa bora-
san, deb surishtirib ham o'tirmadim, u ham biron nima demadi.
Bunisini taqdiran o'zga hech kim bilmaydi. Tushundingni

endi? O'z shaniga ham, xotining shaniga ham dog' tushirmay
ketdi. Ikkovlari ham minnadorchilik bilan xayr-xo'shlashdi.
Seni yomon yo'ldan saqlab qolganliklari uchun har ikkalasiga
ham boshing yerga yetguncha ta'zim qilsang arziydi. Ukkubo-
laday ayolni bir umr izlab topolmayсан. Uning o'mida boshqa
birov bo'lganida ta'ziringni shunday berib qo'yardiki, Qorano-
dan ham oldinroq o'zing dunyoning narigi burchagiga bosh olib
ketishga majbur bo'larding...

Edigey indamadi. Nima ham derdi. Aslini olganda, Ka-
zangap haq gaplarni aytdi. Biroq Kazangap aql bovar etmagan
bir jumloqni anglab yetmabdi. Betgachopar Edigey ham bo'sh
kelmadi:

— Bo'ptil! — dedi-da, uni mensimagandek chetga qarab
tupurdi. — Bitta domishmandning aytgani shu bo'lsa, o'rguldim
sendek aqli tamizlardan. Shuning uchun yigirma uch yildan
buyon o'rningdan jilmay, farishta o'xshab yurgan ekansan-da.
Sen bunaqa ishlarni qayerdan ham tushunarding? Bo'pti. Pand-
nasihat eshitishga vaqtin yo'ql! — U shularni aytib, chetga burilib
ketdi.

— Mayli, bilganingcha qil! — degan so'zlarni eshitdi u
ortidan.

Ana shu gaplardan so'ng Edigey ko'ngli sovgan «Bo-
ronli» bekatini tark etmoqchi bo'ldi. Chindan ham ketishga qaror
qildi, chunki bu yerda o'zini ovutolmasdi, yurak-bag'ini ezayot-
gan g'am-alam, sog'inch azoblarini yengishga ojizlik qilardi.
Zarfasiz, uning bolalarisiz bu yerdagi jamiki narsalar huvullab,
bo'm-bo'sh bo'lib qolgan edi. Azoblardan qutulish uchun bekat
boshlig'iga rosmama ariza berib, ishdan bo'shab, xotin, bola-
chagasi bilan boshi oqqan tomonga ketishga abd qildi Edigey.
Ishqilib, bu yerlarda qolib ketmasa bo'lgani. Axir, u allaqa-
chonlar Tangri taoloning ham yodidan bu bekatga zanjirband
qilib tashlamagan-ku! Ko'pchilik odamlar boshqa tараflarda,
o'zga shaharlar-u qishloqlarda binoyidek yashashadi-ku. Ularni
bo'ynidan bog'lab qo'ysang ham bu yerlarda bir kun turishmas.
Nega endi Sario'zakda bir umr hakkaday hakalab yurishi kerak?
Qaysi gumohi uchun? Bas, ketadi. Orol dengiziga qaytadi yoki

Qarag'anda, Olmaota tomonlarga yo'l oladi. Yoruq' dunyoda bundan boshqa joylar qurib ketibdimi? O'zi yaxshi xizmatchi, to'rt muchasi sog', salomatligi joyida; hamma narsaga qo'l silaydi-da, jo' haydi-ketadi. Edigey Ukkubolaning oldidan o'tish, uni rozi qilishni o'ylardi, qolganlari cho't emas. U og'iz ochish uchun qulay fursat kutib, reja tuzib yurarkan, oradan bir hafta o'tib ketdi va bir kuni xo'jayini tomonidan haydab yuborilgan Qoranor paydo bo'ldi.


Edigey qarasaki, it uy oldida toqatsizlanib chopib, vovullab yana qaytib kelardi. Edigey tashqariga chiqdi-yu, qo'raga yaqin joyda bir maxluq – tuya serrayib turganini ko'rib qoldi. U xuddi qoqqan qoziqday qimir etmas edi, Edigey yaqin borgachgina bu maxluq o'zining Qoranori ekanligini tanidi.

– E, baxayr! Shu kunga qoldingmi, sen bechora. Dabdala bo'libsan-ku! – deb baqirib yubordi Edigey.

Oldingi Qoranordan bor-yo'g'i to'rttagina suyak qolgan edi, xolos. Qiltirab qolgan bo'yunda kattakon boshi osilib turardi. Tizzalaridan pastga osilib tushgan junlari go'yo o'zimiki emas, balki, ataylab yopishtirib qo'yilganday osilib turardi, qora gumbazday salobat bilan gurkirab turgan o'rtachalaridan darak ham yo'q; kampirlarning qup-quruq siynasidek shalvirab tushgan edi. Atanning shu qadar tinka-madori qurigan ediki, qo'raga sudralib borishga ham majoli yetmas edi. Nafas rostdab olish uchun shu yerda to'xtaganga o'xshaydi. Ilqib yurib, oxirgi madori qolguncha chopgan, endilikda shaldiragan bir qop suyak holida arang yetib kelgan edi.

– Barakalla! – deb piching qildi Edigey Qoranorni to'rt tomonidan o'tib tomosha qilarkan. – Ana sumbat-u, mana sumbat! Seni it ham tanimay qolibdi-ku! Bir vaqtlar naq atan eding! Balli! Na insof, na diyonat bor senda! Moyaklaring joyidami o'zi, yana yo'l-po'lda tushirib qoldirmadingmi? O'zing ham takaday sasib ketibsan. Organgga qo'ng'itroqchalar osilibdi-ku, quruq ustixonining qolibdi-ku! Bechora!

Qoranor qimir etmay turardi, na oldingi kamolidan, na burungi vigoridan darak bor. Boshini chayqab-chayqab zo'rg'a turardi.



Atanga Edigeyning rahmini keldi. U uyga borib bir chelak bug'doy keltirdi. Ustiga yarim hovuch tuz sepi va:

– Ol, yemingni yegin, – deb idishni tuyaning oldiga qo'ydi. – Shoyad kuchga enarsan. Keyin men seni qo'raga eltib qo'yaman. Yotib, o'zingga kelasan.


O'sha kuni u Kazangap bilan suhbatlashdi. Uning uyiga borib gap ochdi:

– Men sening huzuringga bir ish bilan keldim, Kazangap. Hayron bo'lma kecha gaplashgisi kelmovdi, ali-bali deb xarxasha qiluvdi, bugun o'zi kelibdi, deb. Jiddiy gapim bor. Men Qoranorni senga qaytarmoqchiman. Qulluq qilgani keldim. Bir vaqtlar bo'taloq ekanida menga uni sovg'a qilgan eding. Rahmat senga, birodar. U og'irinni yengil qildi. Yaqinda toqatim-toq bo'lganidan uni haydab soluvdim, bugun o'zi kirib kelibdi. Hozir qo'rada yotibdi. Ikki haftalardan so'ng oldingi holiga qaytadi. Kuch-quvvatga to'ladi. Faqat boqib turish kerak.

– Labbay? – deya uning so'zini bo'ldi Kazangap. – Gapni qayoqqa buryapsan? Nima, he yo'q, be yo'q, menga Qoranorni qaytarib beradigan bo'lding? Men senga tavallo qilgan edimmi? Ana shunda Edigey dilida bor gapini aytdi: oilamni olib kelmogchiman, dedi u. Sario'zak me'daga tegdi, boshqa yoqqa kelmogchiman. Ehtimol, bu xayri bo'lar. Kazangap Edigeyning so'zlarini diqqat bilan tinglagach, unga shunday javob qildi:

– Nachora, ixtyoring. Shunisi borki, nazdimda, nima qilmogchi bo'layotganingni o'zing ham tushumasang kerak. Xo'sh, ketding ham deylik, lekin o'zingni tark eta olmaysan-ku. Qayoqqa uloqmagin sho'ringni qurita olmayсан. Qayoqqa bor-sang, u sen bilan birga boradi. Yo'q, Edigey, agar sen erkak bo'lsang, mana shu yerda o'zingni o'zing yengib ol. Ko'chib ketish mardning ishi emas. Hamma ham keta oladi. Lekin o'zini o'zi yo'lga solish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

Ha deganda, Edigey uning fikriga qo'shila vermadi, lekin adi-badi ham aytishib o'tirmadi. U o'yga cho'mdi va og'ir xo'rsingancha sukut saqladi. «Har qalay, boshqa yoqlarga jo'nab yuborsammikin? – deb o'ylardi u. – Ammo unuta olarmikan-man? Nega unutishim kerak? Nima qilam ekan? Aytam, tilim



kuyadi, aytmassam – dilim. Zarifaning holi ne kechdiykin? Go'daklari bilan qayovlarda tentirab yuribdi? Boshiga biron ish tushib qolsa, holine ne kechdi, deb so'raydigan odam topilarmikin? Ukkubolaga ham oson tutib bo'lmaydi, mana necha kun bo'ldiki, mening yovvoyiligimga churq etmay chidaydi...»

Kazangap Edigeyning dilidan nima kechayotganligini tushunardi. Uning ahvolini yengillatish, e'tiborini tortish uchun bir yo'talib olib, gapira boshladi. Edigey boshini ko'targach, shunday dedi:

– Sirasini aytganda, nega men senga saboq berishim kerak, Edigey. Xuddi menga biron nafi tegayotganday?!

O'zing ham oq-qorani yaxshi ajratasan, gapning indallosini aytganda, sen – Raymali og'a, men esa Abdilxon emasimiz. Qolaversa, atrofigimizda birgina qaqqaygan daraxt ham yo'qki, unga seni qo'l-o'yo'gingdan bog'lab qo'ysam! Inon-ixityoring o'zingda, bilganingni qil. Faqat jilish oldidan o'ylab ko'r.

Kazangapning so'zlari uzqoq vaqtgacha Edigeyning yodidan chiqmadi.

X

Raymali og'a o'z zamonasining mashhur oqini edi. U yoshligidan elga tanildi. Xudo yorlagagan jirlovchi edi; ham shoir, ham o'z she'rlariga kuy bastalagan bastakor, ham nafasi o'tkir oqin. Zamondoshlarini hayratga solgan jirchi el-yurt yig'inlarida do'mbirasini qo'lga olishi bilan kuyga payvast qo'shiq quyilib kelaverardi. U kuylagan qo'shiq ertasiga og'izdan og'izga ko'chib, yod bo'lib, ovuldan ovulga, qo'nalg'adan qo'nalg'aga targ'alib ketardi. O'sha kezlar yigitlar og'zidan tushmay kuylab yuritilgan mana bu qo'shiq ham Raymali og'aniki edi.

**Olis yo'ldan kelayotgan tashna otga
Uchrab qolsa jimir-jimir ko'm-ko'k chashma**
– shudir dunyo rohati.

**Qo'msab kelib visolingga bir yetganim,
Egardan enkayib, bo'sa olib ketganim**
shudir dunyo rohati...

Raymali og'a orasta kiyimib yurardi. Buni ham Xudoning o'zi ravo ko'rgan edi. Ayniqsa, mo'yna qoplangan har mavsumga mo'ljallab tikilgan galpoq kiyishni xush ko'rardi. Uning ajralmas hamrohi – hammaga ma'lum va mashhur, oltin-dek tovlanib turadigan axaltekin zotli Sarala degan oti bo'lib, u turkmanlarning katta bir to'yida tortiq qilingan edi. Xalq oqimini qanchalik alqasa, uning otini ham shunchalik maqtashardi. Saralaning qaddi-qomati-yu ko'rkam va ulug'vor yurishiga qarab shivandalar huzur qilishardi. Shu sababli ham Raymalining bor mol-dunyosi qo'lidagi do'mbirasi-yu Saralaning yo'rting'alashi, deb hazil qilishardi odamlar.

Haqiqatda ham shunday edi. Raymali og'a butun umrini ot egar ustida, do'mbira chertib o'tkazdi. Xalq orasida shuhrat qozongan bo'lsa ham mol-dunyo ortirmadi. Bahor bulbuliday hamisha katta yig'inlarda, to'y-tomoshalarda xalqning izzat-hurmati-yu e'zozida yashadi. Uning sevgan oti ham siylov-u parvarishda bo'ldi. Biroq ba'zi bir o'ziga baqvvat, davlatmand odamlar uni yoqtirishmasdi. Daydi shamol singari behudaga umrguzaronlik qilib yuribdi, deb orgavaroidan gapirishib ham yurishardi.

Biroq Raymali og'a katta to'y-tomoshalarga kelib, do'mbirasini qo'lga olib kuylay boshlashi bilan hamma, hatto uning turmush tarzini yoqtirmagan haligi odamlar ham sechirab qo'yganday qo'llari-yu yuz-ko'zlariga qarab angrayib qolishardi. Do'mbira sozlab, ohanrabo kuyalar chalb, insonning qalb tuyg'ularini qo'zg'agan uchun uning qo'llariga termilishardi; butun tafakkur kuchi-yu ruhiiy holati o'tdek chagnab turgani, yuzlaridan nur yog'ilayotgani uchun hamma unga termilardi. Kuylayotganda nurlu yuzi shabadadan yengil mavjlanayotgan dengiz singari o'zgarib turardi...

Xotinlari arazlab, toqati toq bo'lib tashlab ketishardi, begona juvonlar esa uni bir ko'rishga mustaq bo'lib, tunlari

bedor yig'lab chiqishardi.

Shu tariqa u qo'shiqdan qo'shiqqa, kechadan kechaga, to'ydan to'yga o'tib unmr o'tkazavergan, qariilik ham zindandan yetib kelgan. Avval murtiga oq oralab, so'ng soqoli oqara boshladi. Saralaning ham sillasi quridi, yoli va dum sityraklashdi. Uni qadimgi Sarala ekanini yurishdangina anglab olish mumkin edi, xolos. Raymali og'a hech nimaga bo'y bermay so'ppayib yolg'iz o'sgan, qurib borayotgan ulkan terak singari umrining qish fasliga qadam qo'ygan edi... Mundaq o'ylab qaralsa, uning na oilasi, na bir tayin uy-joyi, na mol-holi, na boshqa biror dunyosi bor. Kichik ukasi Abdilxon uni o'z qaramog'iga oldi. U, avvalo, yaqin qarindoshlarini to'plab, o'zining bu ishdan noroziligini bildirib koyigan bo'ldi-yu, lekin unga alohida uy berib, non-tuzidan, kir-chiridan xabardor bo'lib turishni amr eldi...

Raymali og'a endi ko'proq keksalik haqida kuylaydigan, oxirat to'g'risida o'ylaydigan bo'lib qoldi. Allaqanday mahobatli qo'shiqlar to'qidi o'sha kezlarda... «Inson nega yorug' dunyoga keladi?» – deya azal-azaldan donishmandlar bosh qotirib kelgan o'y-fikrlar endi uni ham o'ylanitib qo'ygan edi. Endi avvalgiday el oralab to'yma-to'y yurishlardan qoldi. Ko'pincha uyda tanholikda qolib hazin kuyilar chaladi, kechmisini birma-bir ko'z oldiga keltiradi yoki bu foni dunyo haqida keksalar bilan uzoq vaqt suhbatlashib o'tiradi...

Yoshi qaytgan chog'ida butun borlig'ini alg'ov-dalg'ov qilgan bir voqea sodir bo'lmaganida, Xudo shohidiki, Raymali og'a qolgan umrini osoyishta o'tkazgan bo'larmidi.

Kunlarning birida Raymali og'a uyda qamali o'tira olmay, qari oti Saralani egartib, ko'ngil yozib kelish uchun katta bir ma'rakaga yo'l oldi. Har ehtimolga qarshi, do'mbrasini ham-yoniga oldi. E'tiborli kishilar, qadrdon ulfatlari kuylamasang ham, hech bo'lmasa, mehmon bo'lib ketasan, deya o'tinib so'rashgan edi. Raymali og'a tezroq qaytib kelarman, degan o'y bilan yo'lga tushdi.

Borgan yerida uni izzat-iktrom bilan kutib olishdi. Aziz mehmonlar o'tirgan eng yaxshi o'tovga – bo'z uyga taklif qilishdi. Tanqli odamlar qatorida o'tirib qimiz ichdi, to'y egasining

sha'niga iliq so'zlar aytib, oqsoqollarga xos bama'ni gaplardan so'zlab o'tirdi.

Ovulda to'y-tomosh qizigandan qizidi, chor atrofdan yosh-yalanglarning quvnoq o'yin-kulgisi-yu ashula sadolari yangradi, bazmi-jamshid avjiga chiqdi. Kelin-kuyovlar sharafiga ot poygasiga tayyorgarlik ko'rilayotgani, qozon-tovoq boshida uymalashgan jonsarak oshpazlarning gangir-gungirlari, nariyi tomondagi otlar uyurining do'pir-do'piri-yu kishlab o'ynashlari, berigi yoqdagi daydi itlarning o'ynoglab vovullashi allaqanday yoqimli tuyulardi. Dasht bo'ylab esayotgan mayin shabada esa gullab yotgan g'iyohlarning xushbo'y hidini dimoqqa urardi... Hammasidan ham qo'shni o'tovlardan eshitilayotgan kuy va qo'shiqlar, qizlarning atrofga taralayotgan jarangdor kulgisi Raymali og'ani o'ziga maftun etib, uning butun vujudini qamrab olgan edi...

Keksa jirtochining yuragi jiz etib ketdi. Sirtidan qaraganda, Raymali og'a subhadoshlariga sir boy bermay bamay-lixotir o'tirgan bo'lsa ham aslida xayoliida o'timish umrining qanoitida parvoz qilib yurganday his qilardi o'zini: yosh va ko'hlik davri, qirchillama o'ynog' tulpori Saralada dala kezib yeldeklar uchib yurgan kezlari, o'ining tuyuqlari ostida yanchilgan maysa-giyohlar ham so'lib, ham kulib boqqan chog'lari, u kuylagan qo'shiqlarini tinglab quyosh unga talpingan damlar, do'mbrasining ovoizidan odamlar qalbida qon jo'shgan paytlar, og'zidan chiqqan har bir so'z dillarni rom etib sehtlab qo'ygan vaqlar, o'zi ham seva bilgan, ham kuya bilgan, ot ustida xayt-xo'shlasha turib sevgi izitroblardan ko'z yoshi to'ka bilgan zamonlar o'ti-keti... Bularning nima keragi bor edi? Qo'r ostida so'nib borayotgan cho'g'ga qarab keksaygan chog'ingda afsus-nadomatlar chekish uchun kerak edimi?

Raymali og'a onda-sonda bir gapirib, o'yga cho'm-gancha mung'ayib o'tirardi. Shu mahol o'tovga yaqinlashib kelayotgan qadam tovushi, odamlarning gangir-gunguri, bo'yintumor tangalarining jiringlashi va shohi ko'yalak etaklarining yoqimli shiritlashi qulog'iga chalindi. Kimdir o'tov eshigidagi kashali pardani baland ko'targan edi, bo'sag'adan do'mbrasini

ko'ksiga qisib ushlab olgan ochiqchehrali qora ko'z, kamon qosh, qarashlari sho'x, mag'rur, sarvqomat, liboslari ham o'ziga yarashiq, tabiatning mohir qo'llari tomonidan yaratilgan bir qiz bo'sag'ada paydo bo'ldi. Uning qiyofasi g'oyada jur'atli ekandani dalolat berardi. Qiz ostonada dugonalari va bir nechta yigitlarning qurshovida ta'zim bajo keltirib, hurmati kishilardan uzr so'rab turgan edi. O'tirganlardan biron kishi og'iz ochishga ham ulgurmasdan qiz Raymali og'aga yuzlanib ajib mahorat bilan do'mbrasini chertgancha muborakbod qo'shigini baralla kuylab yubordi:

«Chanoq'in qondirmoqchun olisdan yo'l tortib, quduq izlab kelayotgan sarbon singari huzuringga shoshdim men, dovrug'li Raymali og'a. Shovqin-suron ko'tarib, bostirib kelganimiz uchun kechir, to'y-tomosh, bazmi-jamshid degani shu emasmi? Jur'atimdan tang qolma, Raymali og'a, kuylab kirmoqqa jazm etdim, ilk muhabbatimni izhor etgandagiday sirti qo'rquv ichra iztirob chekib keldim. O'qlangan multiqday o'klam bo'lib tug'il-dim, afv etgaysan, Raymali og'a. To'y va tomoshalarda doimo erkin kuylab yurgan bo'lsam-da, qatralardan bol to'plagan asalari singari, bu uchrashuvga umr bo'yi intildim. G'uncha yangilig' shu kunga intiq edim, ming shukrki, niyatimga erishdim!...»

«Ijizat ber, go'zal qiz, kimsan o'zing?», deb so'ramoqchi bo'ldi Raymali og'a, ammo uning qo'shig'ini bo'lgisi kelmadi. Butun borig'i bilan qiz tomon intildi-da, hayratdan lab tishlab o'tirdi. Yuragi hapriqib ketdi, agar shu mahal odamlar o'zgacha nazarga ega bo'lganlarida edi, uning parvozdag'i burgut singari talpini, qanot qoqib qolganini paytagan bo'lar edilar, Ko'zlari yayrab, ravshanlashib keldi, orziqib kugani osmon-ufalakdan bir nido eshutilganday hushyor tortdi. Mana shunda Raymali og'a qariligini unutib, boshini mag'rur ko'tardi...

Qo'shig'chi qiz esa kuylashda davom etardi: «Kimligimni aytayin, ulug' jirlovchi, quloq sol.

Yoshligimdan sevaman – egam bergan oqinsan, Raymali og'ajon. Qayerlarga bormagin, qayerlarda kuylamagin, o'ringdan izma-iz ergashib yurdim, Raymali og'a. Ma'zur tugin, jirlovchim, oqinlarning oqini, senday oqin bo'lishni ko'pdan

orzu qilaman. Soyaday ergashib, so'zlaringni, kuylaringni yod oldim, sehtlandim, san'atinga topindim. Baxtim kulgan bir kuni sen bilan salom-alik qilib, sevgimni izhor etsam, g'oyibona ta'zim etganimni oshkora aytib bersam, deb niyat qilib, Tangri-dan madad so'radim. Baxtim kulgan kuni huzuringda soz chertib kuylab bersam, yengilib qolsam ham mayli, mening bu beodobligimni yana Xudoning o'zi kechirsin, sendek ulug' jirlovchi bilan bir aytishib ko'rsam, deb niyat qildim. O, Raymali og'a, visol onlarini kutgan oshiq singari men bu sadatli damlarni sog'imib, entikib kutdim. Biroq men yosh edim, ulug' oqin sen bo'lsang, el ardog'ida mast bo'lib, davr-u davron surib, shon-shuhratga g'arq bo'lib ketdingki, to'y-tomoshalarda, ko'pchilikning ichida mendek yoshgina bir qizni qayoqdan ham payqar eding? Men esa kuylaring asiri bo'lib, sevgimni aytishga uyalib, seni qalbinda pinhon saqladim; yuzma-yuz kelib, tortimmasdan sirimni oshkora aytmoq uchun ertaroq ayol bo'lsam, deb o'zimni o'zim oshiqitirib yurdim. So'ng huzuringga kelib, hech qancha ikkilanmay, sinovchan ko'zlaringdan cho'chimay muhabbatim izhor etib, aytishuvga tortmoq uchun so'z san'ati-yu do'mbira sehtini sen qadar o'rganayin, ustozim, kuylamakni sen qadar o'rganayin, ustozim, deb ont ichdim. O'sha qiz – mana men, hamhangizning qarshingizda turibman. Balog'atga yetguncha, gul bo'lib ochilguncha shoshilgandan shoshildim. Ammo damlar imillab o'tardi, axiri bu yil yozida o'n to'qiz yoshga to'ldim. Sen esa, Raymali og'a, hali ham o'sha o'shasan – mening bolalik chog'larimdagidayсан. Faqat soch-sog'olingga biroz oq oralabdi. Ammo bu sevgiga xalal bermaydi, shop mo'ylovli yigitlar ham sening o'ringni bosa olmaydi. Mana, men huzuringdaman. Endi esa ochiq aytib, haqiqatni so'zlashga ijizat ber: qiz bola, deb taklifimni rad etsang, erking o'zingda. Biroq meni jirlovchi sifatida kamsitilmaysan, modomiki, sen bilan mushoiraga kelib turibman. Ayitishuvga taklif etaman, ustozim, endi navbat o'zingal!»

– O'zing kim bo'lasan? Qaydan kelding? – deya xitob qildi Raymali og'a va o'rimdan turdi. – Ismi-sharifing nima?

– Ismin Begimoy.

– Begimoy? Shu vaqtgacha qayda eding? Qaydan kelyapsan, Begimoy? – deb yuborganini Raymali og‘aning o‘zi ham sezmay qoldi-yu, boshini quyi egdi.

– Aytdim-ku, Raymali og‘a, yosh edim, voyaga yetdim.

– Hammasini tushunaman, – deb javob qildi Raymali og‘a. – Faqat bir narsaga – o‘z taqdiringga tushuna olmayapman! Umrimning qish fasli kirib kelayotgan paytida nega buncha suluv qilib yaralding? Nega? O‘tgan umrimdan noimasan, ko‘radiganlarimni ko‘rdim deb, shu yoshga yetganimda seni ato etib, diydoringni ko‘rsatib, ovozingni eshitirib, azobli rohatga duchor etgani Tangining, qasosini bu!

– Bunchalik qayg‘urishing na hojati bor, Raymali og‘a, – dedi Begimoy. – Agar o‘z taqdiringni mening siymomda ko‘rib turgan bo‘lsang, unda ko‘ngling to‘q bo‘lsin, Raymali og‘a. Cheksiz mehr-muhabbatim, sevgi-sadoqatim-u dilrabo qo‘shiq-larim bilan seni mahliyo qilib, huzur baxsh eta olsam – bas, dunyoda menga bundan ortiq baxt yo‘q. Ko‘ngling to‘q bo‘lsin mendan, Raymali og‘a, baribir, seni behad sevaman. Har qanday sinovlarga bardosh berib, sen bilan ayritishvga kirishganimdan behad faxrlanaman.

– Nimalar deyayotirsan! So‘z aytuvda sinashuv deysan-mi, Begimoy! Dahshatli sevgi sinovi oldida mushoira sinovi nima degan gap? Yo‘q, Begimoy, sen bilan maydonga tushishga haddim sig‘maydi. Kuchdan ketgannan yoki otash nafasim so‘nib qolgan deb ayta olmayman. Gap unda emas. Men faqat sen bilan zavqlanishim, sening kuyingda g‘am chekib o‘tishim va shu sevgi bobidagina sen bilan sinasha olishim mumkin, Begimoy.

Shu so‘zlarni aytgach, Raymali og‘a do‘mbirasini olib sozladi-da, daf‘atan yangi bir qo‘shiqni kuylay boshladi, kuy-la-ganda ham odadagiday, goh mayin shabadadek mayсалarini silab, goh guldiragan momaqaliroq singari baland ovoz bilan kuylay boshladi. Shu-shu, «Begimoy» deb atalmish bu qo‘shiq yer yuzida yangraydi:

«...Kelsang chanoqab yiroqdan, suv ichsam deb buloq-dan, sarin esgan yel kabi yo‘ling to‘siq chiqsam men va poying

uzra bajonildi cho‘ksammen, Begimoy. Taqdiringga yozilgani –

tugab turgan bo‘lsam ham, lekin hali o‘limdan yiroqman, Begimoy. Aytilganim o‘zingdan, aytilganim ko‘zimdan, shuning uchun Begimoy, asrlar o‘lar-ketar, ammo seni deb qariltikka bo‘y bermay, o‘lim sari yo‘l tutmay mangu yashab qolaman...»

«Begimoy», degan ashulani u shunday kuyardi.

O‘sha kun kishilar xotirasida uzoq saqlanib qoldi. Raymali og‘a bilan Begimoy to‘g‘risida mish-mishlar tarqaldi. Og o‘tovdan kelinni kuyovnikiga kuzatish kuni bezatilgan otlardagi suvorilar orasida, yasan-tusan xaloyiq huzurida, qalliqni kuzatib borayotgan karvon boshida Raymali og‘a va Begimoy viqor bilan turfa maqomda ashulalar aytib, to‘y kechasini qizitib bordilar. Yonna-yon yuritib, uzangilari bir-biriga tegib, ikki oqin borar, o‘zlarini ko‘z-ko‘z etishib, el ko‘zini yayratib, kelin-kuyovlarga baxt tilab qo‘yishardi jo‘r bo‘lib, jo‘ra bo‘lib. Do‘mbirada kuy-lashardi, nay tilida so‘ylashardi; goh unisi kuyardi, goh bunisi kuyardi, biri qo‘yib, biri jirlardi...

Bunday sehiri qo‘shiq-larni tinglab ulus hayratda qoldi, o‘t-o‘lanlarga jon kirib, gulxanlar shu‘la sochaverdi. Qushlar quvnoq sayrashib, toy mingan bolakaylar chuv-chuvlashib toy-chog‘ini gijinglata boshladi.

Keksa oqin Raymali og‘a hammani sehlrab, hang-u mang qilib qo‘ygan edi. Odadagidek ovozi jarangdor, avvalgi-dek epcnil va chechan, yam-yashil o‘tloqqa tikilgan oq o‘tov ichidagi qo‘sh chiroq singari ko‘zlari yog‘du sochardi. Hatto Sarala oti ham bo‘ynini gajjak etib, egasi bilan faxrlangandek edi.

Ammo Raymali og‘aning bu ishini hamma ham ma‘qul ko‘lmayotgan edi. Ko‘pchilik ichida g‘ijini o‘tirardi. Ular oqin-ning qabildoshlari – Baraqboy urug‘iga mansub kishilar. «Shu ham ish bo‘ldi-yu, qarigan chog‘ida Raymali es-hushini yeb qo‘yibdi. Bu qari ko‘ppak bizni bunaga maxxara qilib o‘tirganda, seni navbatdagi saylovda bo‘lislikka! qanday ko‘tara olamiz, sharmanda bo‘lmaymizmi?», deb uning ukasi Abdilxonning

¹ Bo‘lls (ruslar: болоты – egallik qilmog) – (1) o‘tmishda Rossiya va unga tobe hudud-larda uyved tarkibidagi bir qancha qishloqni o‘z ichiga olgan ma‘muriy bo‘linma;

qulog'ini qoqib javrashib o'tirishgan edi. Eshityapsammi, xuddi yosh ayg'ir kishnayotgandek-a? Jononasi ham o'ziga monand ekan, bergan javoblarini tinglayapsammi? Bundan ortiq sharmanda-yu sharmisorlik bo'ladimi! Hammaning ko'z o'ngida uning aqlini shoshirib yotibdi. Oqibat yaxshilik bilan tugamaydi. Bu betamiz bilan qanday ilashib qoldi ekan? Bu hangoma ovulma-ovul doston bo'lmisligi uchun uning tanobini tortib qo'yish kerak...

Abdixon yo'ldan ozgan akasining bunday bema'ni ishlaridan ko'pdan beri g'azablanib yurardi. Qaridi, horidi, endi nuroniy chol bo'ldi deganda, buni qarangki, aksini qilib, butun Baraqboy urug'iga isnod keltiryapti.

Shunda Abdixon ot o'ynatib akasi o'tirgan to'da ichiga yoritib kirdi va qamchi o'qtagancha tahdid solib baqirdi: «Esingni yig', uyga qayt!» Ammo dilrabo qo'shiq og'ushiga cho'mgan akasi uning ovozi ham eshilmadi, o'zini ham ko'rmadi. Oqinlarni zich qurshab olib, biron so'zini ham ogizmay-tomizmay miringib tinglayotgan ixlosmand suvoriolar to'dasi esa shu zahotiyoq yopirilib kelib Abdixonni chetga surib chiqarishdi, hatto bo'ymiga ketma-ket qamchi tushirishga ham ulgurishdi. Kimning qamchisi ekanini qayoqdan bilsin. Abdixon otini burtib, tuyog'ini shiqillatib qoldi...

Hamon qo'shiq ketidan qo'shiq yangrardi. Yana bir yangi qo'shiq dunyoga keldi.

«...Oshiqona oq marol erta tongda un solib xushorini chaqirsa, qir-u soyda jaranglar», – deb Raymali og'a kuylardi.

«...Modasidan aytilgan oqqush, erta turib quyoshga boqsa, quyosh yuzi mutlaqo dog'ga botgan ko'rinar», – deya javob qilardi unga Begimoy.

Kelin-kuyovlar sha'niga qarata ular shu tarzda kuylashardi – goh unisi, goh bunisi, goh unisi, goh bunisi kuylardi...

Shu asnoda qalbi qo'shiq sehiri bilan to'lib-toshgan Raymali og'a intigom o'tida yong'an qarindoshlarining, Baraqboy urug'i vakillarining qoni qaynab, qahr-g'azabga to'lib qochib

borayotgan Abdilboy ortidan izma-iz quvlab borayotganlarini ham sezmay qoldi. O'zini qanday jazoga loyiq ko'rishlarini ham xayoliga keltirmasdi....

Hamon qo'shiq ortidan qo'shiq taralardi – goh unisi, goh bunisi, goh unisi, goh bunisi kuylardi...

Qora bulut singari egarga qayishib olgan Abdixon yeldek uchib borardi. Ovul tomon, uyi tomon! Hamyurtlari quturgan bo'rilar to'dasi kabi u bilan yonna-yon qushday uchib borisharkan:

– Akangni shayton yo'ldan uribdi. Aqldan ozibdi! Falokat bosdi! Darhol oldini olmoq kerak! – deb qiyqirishardi.

Ko'shiq esa hamon charx urardi; goh unisi, goh bunisi, goh unisi, goh bunisi kuylardi...

Shu tariqa ular kelin-kuyovlar to'dasini manzilga qadar tantanavor kuy va qo'shiqlar sadosi ostida uzatishib, yana bir bor ashula aytishib, ezgu-tilaklar bildirishib xo'shlashdilar. Shunda Raymali og'a xalqqa murojaat qilib, shuncha yoshga kirganda, taqdir kulib boqib aytishuvda unga teng keladigan Begimoydek yosh oqinni yo'ltirganidan baxtiyor ekanligini aytdi. Yana shuni aytdiki, chaqmoqtoşga chaqmoqtoş urilmaguncha o't chiqmaydi. Qo'shiqchilik san'atida ham xuddi shuning singari oqinlar bir-birlariga ergashib kuch sinashmagunlaricha san'at siri va sehrini ocholmaydi. Biroq Raymali og'a uchun hammadan ham aziz va mo'tabar, hammasidan ham muqaddas narsa shu ediki, u tobora to'lishib, kattarib, bor kuchi bilan parpiragancha borliqqa nur sochib, botib borayotgan quyosh singari umrining oxirida izlaganini topganini, o'zi ham kuch-quvvatga to'lganini, to'lganda ham umr bo'yi o'zi payqanmay yurganini endi anglab yetdi. Shu alpozda kuylar edi keksa oqin.

– Raymali og'al – deya javob qaytardi Begimoy. – Men niyatimga erishdim. Endi sening izingdan qolmayman. Ayrgan joyingga, ayrgan vaqtingda darhol do'mbiram bilan yetib borayin, til-tilga, dil-dilga qovushsin. Taqdir deganlari shu bo'lsa, mayli, hayotimni bag'ishladim.

Shu tarzda ashula yangrardi.

So'ng ular endigi uchrashuvimiz ertangi sarbozorda

2) shunday ma'muriy-hududiy bo'limma hokimi.

bo'lsin, har tараfdan kelgan xaloyiqqa aytib beraylik, deb el orasida va'dalashishdi.

Shu zahotiyoq oqinlarni kuzatar ekanlar, bozor kuni Raymali og'a bilan Begimoy ashula aytilsharkan, degan xabar chор-atrofга targaldi:

– Sarbozorga!

– Sarbozorga boramiz! Otni egartlang!

– Sarbozorda, jirlovga marhamat!

Duv-duv gaplar og'izdan og'izga ko'chib, aks sadodek targaldi:

– Haqiqiy bayram endi bo'ladi!

– Ana tomosha-yu mana tomosha!

– Rosa tomosha!

– G'irt sharmandalik!

– Tasqara!

– Behavollik!

Raymali og'a bilan Begimoy yo'l o'tasida xayrlashishdi:

– Sarbozorda uchrashguncha, dilbandim Begimoy!

– Sarbozorda ko'rishguncha, Raymali og'a!

Uzoqlashib borisharkan, uzangida tik turishib, yana sado berishdi:

– Sarbozorda uchrashguncha-a-a!...

– Sarbozorda ko'rishguncha, Raymali og'a-a-a!

Kech kirib, bepoyon dashtlik uzra asta-sekin oqshom cho'ka boshladi. Yoz qaytib, pishib yetilgan o't-ko'katlarning dimoqni qitqilovchi xushbo'y hidi taraldi. Tog'-toshlarga yom-g'ir yog'ib o'tgan. Kun botish oldidan yer bag'irlab bamaylixotir uchib borayotgan kalxatlar ko'zga tashlanadi. Darrandalar osoyishta, so'lim kechani sharaflab madhiya o'qiyotganday chug'urlashadi...

– Sukunat og'ushida savlat to'kitib, yastanib yotgan qadrdon dalami! – dedi Raymali og'a beixtiyor otining yolini pan-jalari bilan silab, mayin tarab borarkan. – Eh, Sarala, eh, qarim-sog'im, dovtug'dorim, nechun hayot bu qadar lazzatli! sochingga qirov tushganda ham shunchalik sevish mumkinmi?!

Sarala goh-goh pishqirgancha, zalvarli yuritib borar, tun bo'yi egarlog'liq yuritib toliqganidan hordiq chiqarish, oqar suvdan qonib ichish va oydin kechada o'tlab yurnoq uchun uyga shoshilardi.

Mana, daryoning muyulishida ovul ham ko'trinib qoldi. Ana uylar, hovlilardan ko'tarilayotgan tutun allaganday gashhti tuyuladi.

Raymali og'a shoshilayotgan edi. Otidan tusha solib, uni qantariq qo'ydi va ichkariga kirmasdan o'choq boshiga biroz cho'qqayib o'tirganicha dam olganday bo'ldi. Kimdir uning yoniga keldi, qarasa, qo'shninging bolasi ekan.

– Raymali og'a, sizni chodirga chaqirishyapti.

– Kim ular?

– O'zimizning odamlar, hammalari Baraqboy urug'idan. Ostona hatlab ichkariga kirarkan, Raymali og'a uyda urug' oqsogollarining yarim doira qurib o'tirishganini ko'rdi. Biroz chetroqda esa ukasi Abdilxon go'yo odamlar nigohidan o'zini olib qochganday boshini quyi solib o'tiradi.

– Assalomu alaykum, jamoat jam-kul! – dedi Raymali og'a. – Tinchlikni o'zi?

– Seni kutaymiz, – dedi to'rda o'tirgan ulug'lardan biri.

– Agar meni kutayotgan bo'lsalaringiz, mana, men keldim, – dedi Raymali og'a. – Avval joy topib o'tirib olay.

– To'xtal! Ostona da tura tur! Tiz cho'ki! – degan farmon eshitildi.

– Bu nimasi?.. O'tovning egasi menman-ku.

– Yo'q, sen o'tov egasi emassan! Esini yegan chol o'tov egasi bo'la oladimi!

– Labbay?

– Gap shundaki, bundan buyon hech qachon va hech qayerda kuylamayman, to'y-ma-to'y tentirab ham yurmayman, sizlarni va o'z obro'yimni unutib, sog'olimni oqini esdan chiqarib, bugungidek haligi qiz bilan hayosizlarcha kuylamayman, ikkinchi marta uni ko'rsam, ko'zim chiqsin, – deb ont ichgin.

– Bekorga ovora bo'lyapsizlar. Ertadan keyin u bilan birga Sarbozorda, el-yurt oldida kuylayman.

Shunda qiy-chuv, to'polon boshlandi:

– U bizni sharmanda qilmogchi!

– Esing borida etagingni yopi!

– Esini yeb qo'ygan bu!

– Qani jim bo'ling! Shovqin solmang! – dedi katta biy!
ularni tartibga chaqirib. – Demak, shunday qarorga keldingmi, Raymali?

– Ha, aytar so'zim shu.

– Eshitinglarmi, Baraqboy urug'i vakillari, bu beorning hozir nima deganini?

– Eshidik.

– Unday bo'lsa so'zimni tinglanglar. Avvalo, senga aytadiganim shu, sho'rlik Raymali, butun umringni yolg'iz oida yuritib, to'y-tomoshalarda o'tkazib, do'mbirangning qotirini qashlab, masxarabozlik qilib kelding – hayotingni boshqalarning ko'nglini xushlashga sarflading. Beboшлиingini shu paytgacha yosh deb kechirib keldik. Endi sharting ketib, parting qoldi, yo'rg'alik ketmaydi. Sendan hazar qilamiz, taqdirga tan berib, oxiratni ham o'ylashing kerak. Sen bizning maslahatimizga kirmay, urf-odatimizni oyoqosti qilib, allaqanday qiz bilan begona ovullarda ko'ngil ochib, hammaga mayna bo'lib yuribsan. Xo'sh, nima ham derdik, seni xudovandoning o'zi jazolasin, uvoling o'zingni tutsin. Yana shuni aytmogchimaniki, Abdilxon o'ringdan tur-chi, qarog'im, u bilan bir qorindan talashib tushgansizlar, tayanchimiz ham, umidimiz ham sensan. Seni butun Baraqboy urug'i nomidan bo'lsilikka ko'tarsak, degan fikrdamiz. Ammo akang aqldan ozib, nima qilayotganini o'zi ham tushunmay turibdi. Bu ahvolda u ishimizga ziyon keltirishi turgan gap. Esini yegan o'jar akang odamlar orasida yuzimizni shuvut qilmasligi, o'zgalar bizni masxaralab kulib yurishmasin uchun uni nima qilaman desang ham, haqiqiy bor!

– Hech kim menga payg'ambarlik ham, qozilik ham qila

¹ Biy – 1) qabilaning yoki qabilalar ittifoqining boshlig'i, to'rasi; 2) yuqori mansabi; kishilarni ulug'lash uchun ishlatilgan so'z yoki ularga berilgan unvon; 3) ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning urug' oqsoqollariga berilgan unvon.

olmaydi, – deya tilga kirdi Raymali og'a peshgiriklik qilib. – Bu

kengashda ishtirok etayotgan va hozir bo'lmagan boshqa xesh-agrabolar ham, hammalarning ham bir go'r – gumrohlardirsiz. Sizlarga achinaman. Sizlar aybsiz aybdor deb hisoblangan kimsa ustidan xalq oldida emas, balki o'z bilganlaringizcha o'zboshimchalik bilan hukm chiqarmogchi bo'lasizlar. Bu dunyoda haqiqat qayerda-yu, baxt qayerda ekanini ko'rmayotirsizlar. Axir, kuy quyilib kelsa, kuylamogning nima aybi bor? Hayot menga umr shomida sevgi hadya etgan bo'lsa, sevmogning nima uyati bor? Bu dunyoda sevishtganlar baxtiyorligidan ham ortiq narsa bormi? Modomiki, sizlar kechikib topgan sevgim quvonchini tap tortmay kuylaganim uchungina meni telbaga chiqarayotgan bo'lsalaringiz, unda sizlardan yuz o'g'irganim bo'lsin! Odam keng, kunim sizlarga qolgan bo'lsa, boshim oqqan yoqqa ketaman. Hoziroq Saralaga minaman-da, sevgilimga boraman yoki kuygo'shiglarimiz-u fe'l-atvorimiz bilan sizlarni bezovta qilmaslik uchun u bilan birga boshqa o'lkalarga bosh olib ketamiz.

– Yo'q, ketmaysan! – dedi boyadan beri sukut saqlab o'tirgan Abdilxon dahshatli xirillagancha. – Hech qayoqqa chiqmaysan, hech qanday Sarbozorga ham yo'l yo'q sen uchun. Es-hushing o'ziga kelguncha, biz seni davolatamiz.

U shunday dedi-yu, darhol akasining qo'lidan do'mbira-sini tortib oldi.

– Mana senga! – deb podachiga tashlangan quturgan bugaday nozik asbobni oyoqlari ostiga olib, sindirib tashladi. – Bundan buyon kuylash nima ekanini xayolingga ham keltira ko'rmal! Hoy, yigitlar, ana u qirchang'i Saralani bu yoqqa keltiringlar! – ishora qildi u.

Tashqarida ishoraga shay turganlar zumm o'tmay bog'loqlik turgan Saralani yetaklab kelishdi.

– Egar-jabduq'ini oli! Bu yoqqa tashla! – deya Abdilxon berkitib qo'yilgan boltani qulay ushlab olgancha buyurib turdi.

– Mana senga! Bir qadam ham jilmaysan! Hech qanaqa Sarbozorga ham bormaysan! – deb jazavasi tugancha egar-jabduqlarni parchalab, uzangi qayishlarini kesib tashladi, uzangi-ning birini u yoqqa, birini bu yoqqa – butalar orasiga uloqitirib

tashladi.

Jonivor Sarala bo'lsa o'zining boshiga ham shunday qismat tushishini sezganday suvliqni chaynab, xirillab, orqa oyog'larida cho'ngayganicha yulqina boshladi.

– Bundan chiqdiki, hali Saralaga minib Sarbozorga bormogchi ekanlar-da?.. Ko'rsatib qo'yaman.

Ko'zi qonga to'lgan yigilar shu zahotiyoq Saralani shahd yiqitishdi-da, hash-pash deguncha to'rttala oyog'ini qil argon bilan chandib tashlashdi. Abdilxon esa temirdek panjasi bilan Saralani g'ippa bo'g'ib, bo'g'ziga pichiq tiradi.

Raymali og'a jon-jahdi bilan ushlab turganlar qo'llidan yulqinib chiqishga intildi.

Shu vaqt pichiq tig'idan tizillab otilib chiqqan issiq qon Raymali og'aning kunini tunga aylantirib, ko'z o'ngini zimiston qildi-qo'ydi. Ust-boshi Saralaning bug' ko'tarilib turgan qoniga belangan Raymali og'a gandraklab, yerdan arang ko'tarildi.

– Behuda urinyapsan! Axir, piyoda boraman-ku. Emaklab bo'lsa ham boraman! – dedi tahqirlangan oqin choponining bari bilan yuzlarini artib.

– Yo'q, piyoda ham bormaysan! – deya tishlari tirjayib qolgan Saralaning kallasi uzra boshini keskin ko'tardi Abdilxon. – Bu yerdan endi bir qadam ham jilmaysan! – dedi bosiq ovoz bilan va shu zahotiyoq yana dag'dag'a qila boshladi: – Ushlang-lar! Ko'ryapsizlarni, u telbalanib qoldi! Bog'langlar, bo'lmasa o'ldiradi!

Yana qiy-chorv, to's-to'polon boshlandi:

– Chilvirmi bu yoqqa olib keli!

– Qo'llini qayiri!

– Qattiqrog' bog'la!

– Esi og'ib qoldi. Tavba!

– Ko'zlariga qara!

– Voy-bo'y, aqldan ozib qoldi!

– Qani, bu yoqqa tort!

– Qayin tomonga sudra!

– Tezrog' bo'!

Oy qoq tepaga kelgan mahal. Yer-u ko'kada osoyishtalik.

Allaganday afsungarlar kelib, gulxan yoqishib, jazavasi tutgan-day gir aylanib, aqil merovlanib qolgan ulug' oqinga yopishib olgan jin-ajinalarni hayday boshlashdi.

Oqin esa qo'li orqasiga qayrilib, qayinga chirmab bog'langan holda turardi...

So'ng domla kelib, Qur'on suralaridan o'qib, din nomidan pand-nasihatlar aytdi.

Oqin esa qo'li orqasiga qayrilgan kuyi qayinga chirmab bog'langan holda turar edi.

Raymali og'a Abdilxon tomon yuzlanib birdan kuyilab yubordi: «So'nggi zulmat – barin olib tun ketar, tong bo'zarib yana yorqin kun kelar. Biroq, mening yorug' kunim qorong'i. Badbaxti inim, Abdilxon, sen quyoshim o'chirding, yorug' kunim tun etding. Yoshim qaytib, Rabbim menga sevgi ato etganda, dilbandimdan judo etib, motamsaro gerdayding, quvonchingning boisi ham shundadir. Ammo sho'rlik inim Abdilxon, qalbim urishdan to'xtab, nafasim chiqmay qo'lunga qadar qanday sevgi bilan band bo'lib, qanday sevgi bilan yashayotganimni bilganingda edi! Sen meni daraxtga bog'lab tashlading, biroq men bu yerda emasman, ukam, Abdilxon. Bu yerda jismimgina bandi, xolos, jonim-dilim esa sabo kabi keng dalani quchib, yomg'ir kabi yerga singib ketmoqda. Men har lahzada u bilan biga, uning qoni, tandagi joni bo'lib yashayman. Subhidanda noz uyqudan turganda yovvoyi kiyik kabi tog'dan sakrab tushaman va uning xironon qadamlar bilan o'tovdan chiqishini kutib qoyada intizor bo'lib turaman. Dilbarim kechuvdan o'tmoqqa chog'lansa, ot chopitirib suv kechsa, men uning lovullagan yuzlari-yu qo'llariga tuyog' ostidan otilib chiqqan kumush tomchilar bo'lib sachrayman. Dilbandim kuylaganda men uning dilbar qo'shig'i bo'lib yangrayman»...

Tong yeli mayсалarni sekin shiritlatib, yangi kun boshlanganidan darak berardi. Raymali og'a jinni bo'lib qolibdi, deb tevarak-atrofdan kelgan hangomatalab qo'shnilar oltaridan tushmay, naritqda to'planib turishardi.

Oqin esa qo'llari orqasiga qayrilgan holda egni-boshi tilka-pora bo'lib, qayinga bog'langanicha turardi. U qo'shiq ayta

boshladi. Bu qo'shiq keyinchalik xalq orasida yoyilib ketdi:

*Qoratorvdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda
Qo'limni yechib yubor, inijonim Abdilxon.*

*Olatovdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda
Qo'limni yechib yubor, qiyin jonim, Abdilxon.*

*Saralani joylading, qo'l-oyog'im boylading,
Sendan xo'rlik ko'rishni o'ylamabman, Abdilxon.*

*Qoratorvdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda,
Olatovdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda
Ko'limni yechib yubor, inijonim Abdilxon,
Erki-la uchib ketisin tanamdag'i tirik jon...*

*Qoratorvdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda
Sarbozorga yetmasman, Begimoy.*

*Olatovdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda
Sarbozorda kutma meni, Begimoy.*

*Sarbozorda sen bilan men sirlasholman yayrashib,
Saralam ham joylandi, qo'l-oyog'im boylandi.*

*Qoratorvdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda,
Olatovdan ko'ch kelar, ko'ch kelganda
Sarbozorda kutma meni, Begimoy.*

*Ruhday yengil falakka uchib ketgum,
Seni suyib vasingga qachon yetgum...
Bu kechinishing hangomasi ana shunday.*

Edige'y Kazangapni so'nggi manzilga – Ona Bayit qabristoniga uzatib borarkan, yo'l-yo'lakay ana shu voqealar uning xayolidan nari ketmasdi.

XI

Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi.

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayoiday dastlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi...

Har qanday masofa Grinovich meridianidan o'tchangani singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'tchanadi...

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Ular bir zamonlar Nayman ona manguqt o'g'lini izlab gir aylanib yurgan Malaqumdichop jarligi bo'ylab o'tishgach, Ona Bayit qabristoni yaqiniga kelib qolishganday bo'lishdi. Edige'y Bo'ron goh soatiga, goh Sario'zak tepasidagi quyoshga muntazam ravishda qarab borar ekan, hammasi ko'ngilidagiday bora-yotganiga ishonch hosil qildi. Marhumni dafn ekanlaridan so'ng ular vaqtida bekatgacha qaytib kelib, ma'raka o'tkazishga ham ulgurishadi. To'g'ri, kun oxirlab qoladi. Har bir ishning o'z vaqtida bo'lganiga nima yetsin. Eh, hayot shunaga ekan-da! Kazangap Ona Bayitdan o'z tinchini topardi, bular esa uyga qaytib kelgach, marhumni yaxshi so'zlar bilan yana bir bor yodga olishar...

Hamon avvalgiday – oldinda popukli g'lam to'shab bezatilgan Qorator ustida Edige'y, ketidan tirkalma arava, uning ortidan esa qo'ng'izsimon «Belorus» eskavatori borardi. Ular tilini osiltirgancha bamaylixotir yo'rtib borayotgan malla it – Yo'lbarsning kuzatuvida Malaqumdichopdan o'tib, Ona Bayit tekisligiga chiqib olishgan edi. Xuddi mana shu yerga kelishganlarida birinchi ishal hodisa yuz berdi. Kutilmaganda tikantli sim bilan o'ralgan to'siqqa dуч kelib qolishdi.

Birinchi bo'lib Edige'y to'xtab qoldi. Ana xolos! U hatto uzangida tik turib Qorator ustidan o'tnga, so'lga qaradi – har besh metrga o'rnatilgan to'rtburchak temir-beton ustunlarga bir necha qator qilib tortilgan, o'tib bo'lmaz tikantli sim cho'l bag'rida ko'z yetgan joygacha ilondek cho'zilib ketgan edi. Bu to'siq

shunchaki bo'lmay, hamishalikka o'rnatilgan edi. Uning qayerdan boshlanib, qayerda tugashini bilib bo'lmadi. Balki, uning poyoni yo'qdir. O'tib ketadigan biron yo'l ham ko'rinmaydi. Endi nima qilishadi? U yog'iga qanday qilib o'tib olishadi?

Bu orada orqadagi traktorlar ham to'xtadi. Kabinadan birinchi bo'lib Sobitjon, ortidan esa Edilboy Daroz sakrab tushishdi.

– Nima gap? – dedi Sobitjon to'siq tomonga ishora qilib. – Boshqa yoqdan chiqib qoldikmi?

– Nega boshqa joy bo'larkan? Ayni o'ziga keldik, faqat manavi simto'siq qayqandir paydo bo'lib qolibdi. Jin ursini!

– Nima, oldin to'siq yo'qmidi?

– Yo'q edi.

– Endi nima qildik? Qanday qilib o'tamiz?

Edigey indamadi. Nima qilishni uning o'zi ham bilmasdi.

– Ey, traktoringni o'chirsang-chi! Yetar akillagani! – dedi Sobitjon kabinadan boshini chiqarib turgan Qalibekka.

U motorni o'chirdi – ekskavatorning ovozi o'chdi. Atrof butunlay jimib qoldi. Edigey tuyasida qovog'i solingan ko'yi o'tirar, yonida Sobitjon bilan Edilboy Daroz, Qalibek bilan Jumag'ali traktorlari kabinasida qolishdi. Oq namatga o'ralgan Kazangapning jasadi tirkalma aravada, yonida aroqxo'r kuyovi – Oyzodaning eri. Malla it Yo'lbars paytdan foydalanib, traktor g'ildiragi ko'lankasiga borb, tumshug'ini yuqoriga ko'targan-cha, cho'qqayib o'tirib oldi.

Bepoyon Sario'zak cho'li osmon ostida olanning u chekkasidan bu chekkasigacha yastanib yotar, ammo Ona Bayit mozori sari yo'l yo'q edi. Hammalari hayron bo'lishib, sim to'siqlari qarshisida turib qolishdi.

Jimilkn avval Edilboy Daroz buzd:

– Edike, bu yerda ilgari to'siq bo'lmaganmide-a?

– Hech balo yo'q edi! Birinchi marta ko'rib turishim.

– Bundan chiqdi, maydon ataylab o'ralgan. Ehtimol, kosmodrom uchun mo'ljallashtirildi? – deb taxmin qildi Edilboy Daroz.

– Shunaga o'xshaydi. Bo'lmasa, yap-yaydoq dalaga

bunchalik mehnat sarflashga na hojat bor? Kimningdir aqliga shu o'y kelib qolgan-da. Nimani o'ylashsa, shuni qilishaveradi, jin urgurlar! – deb Edigey so'kina boshladi. – Jin-pin deb so'kinishdan ne foydal! Shunday olis yo'lga otlanishdan ilgari hamma-sini surishtirib bilish kerak edi, – to'ng'illadi Sobitjon.

Oraga og'ir jimlik cho'kdi. Edigey tepadan Qorazor yonida turgan Sobitjonga yovqarash qildi.

– Sen, qarog'im biroz sabr qil, ko'pam bezovtalanavermi, – dedi u iloji boricha o'zini bosib. – Bu yerda ilgari hech qanday simto'siq yo'q edi, bunday bo'lishini kim bilibdi, deysan?

– Men ham shuni aytyapman-da, – deya ming'irladi Sobitjon teskari o'girilgan-cha.

Yana jim qolishdi. Edilboy Daroz aql bermogchi bo'lganday, nimanidir mulohaza qilib turgan edi.

– Endi bu yog'i nima bo'ldi, Edike? Nima qilish kerak? Mozorga bundan boshqa birona yo'l bormikan?

– Ha, bo'lishi kerak. Nega bo'lmasin? Bundan beSh chaqirimcha narida, o'ng tomonda yo'l bo'lguchi edi, – deb javob berdi Edigey atrofga alanglab qarar ekan. – Qani, shu tomonga qarab yuraylik-chi. Nahotki u yoq bu yoqqa o'tadigan birona yo'l bo'lmasa.

– Bu – aniqmi, u yerda yo'l borligi aniqmi o'zi? – de Ya tag'in me'daga tega boshladi Sobitjon. – Yo'qsa, na u yoqqa, na bu yoqqa o'ta olmay, mushkul ahvolga tushib qolmaylik.

– Bor dedim-ku, bor! – deb ishonirdi Edigey. – Joylaringizga o'tiringlar, jo'nadik. Vaqtni zo'ye o'tkazmaylik.

Ular yana yo'lga tushishdi. Traktorlar yana tarilay boshlashdi. Tikanli sim yovalab ilgariylashdi.

Edigey juda qiyinaldi. Ko'nglisiz voguea uni esankratib qo'ygan edi. Bunisi qanaga bo'ldi deb ichida g'ijini borardi. Hamma yoqni o'rab-to'sib tashlashibdi-yu, mozorga borish yo'lini ko'rsatishmabdi. Shu ham tirikchilik bo'ldi-yu! Shunday bo'lsa-da, bu tarafdin, janub tomondan ham qandaydir yo'l o'tishi kerak, degan umid bor edi unda. Shunday bo'lib chiqdi

ham. To'ppa-to'g'ri ko'tarma g'ovning usidan chiqib qolishdi.

Ko'tarma g'ovga yaqinlashar ekanlar, o'tkazish punkti-ning astoydil did bilan mustahkam ishlanganiga e'tibor qilibdi: kiraverishdagi ikki qanot qatig' betonida yaxlit toshdan ishlangan, biroz yurib borilgach, yo'lining chekkasida chor-atrofi kuzatib turish uchun g'ishtdan qurilgan oynavand uchga; kechasi yo'lni yoritib turish uchun bo'lsa kerak, tekis tom ustiga ikkita proyektor fonari o'rnatilgan. Ko'tarma g'ovdan ichkariga qarab asfalt yo'l kirib ketadi. Edigey bunday mustahkamlikni ko'rib, tashvishlana boshladi.

Ular paydo bo'lishi bilanog, qorovulxonadan avtomat-ning stivolini¹ yerga qaratib yelkasiga osib olgan yoshgina, hali judayam yoshgina mallarang askar bola chiqib keldi. U yo'l-yo'lakay vigor bilan gimnastyorkasining etagini tortib to'g'rilab, boshidagi furajkasini ham yaxshilab qo'ndirib olgach, ola-bula ko'tarma g'ovning o'rta-siga kelganda qotib turib qoldi. Biroq, Edigey yo'lni to'sib turgan yakkacho'pga yaqinlab kelavergach, har holda, u birinchi bo'lib salom berdi.

– Salom, – deya chekkasiga qo'lini qo'ydi sog'chi bola-larnikidek beg'ubor ko'zlarini Edigeyga tikib. – Kim bo'lasizlar? Qayogga ketyapsizlar?

– Biz shu yerlik bo'lamiz, askar. Oqsoqolimiz qazo qildi, uni mozorga qo'ygani olib kelyapmiz.

– Ruxsatnomasiz ruxsat yo'q, – deya askar bola boshini chayqadi-da, Qoranning kavsh qaytarayotgan tumsug'idan seskanib ketganday o'zini nari oldi. – Bu yer qo'riqlanadigan zona, – deb tushuntirdi u.

– Tushunaman, biroq biz qabristonga borayotgan kishi-larniz. U mana shu yerda, uzog' emas. Nima bo'пти borsak? Dafn etamiz-u, organimizga qaytamiz. Boshqa ishimiz yo'q.

– O'tkaza olmayman, haqqim yo'q, – dedi sog'chi.

– Menga qara, qarog'im, – Edigey ko'ksidagi jangovar orden va medallari yaxshiroq ko'rinsin uchun egardan engashdi,

¹ Stvol (ruscha) – poyat, shoxcha) – miltiq, to'p singari o'tish qurollarining o'q o'tib chiqadigan nuysimon qismi.

– begona odamlar emasmi. «Bo'ronli» bekaidamiz. Eshigan bo'lsang kerak. Marhumni ko'mish kerak-ku, axir. Qabristonga kiramiz-u, izimizga qaytamiz.

– Tushunaman, axir, – sog'chi soddalik bilan yelka qisib endi gap boshlagan edi, shu payt Sobitjon shoshib turgan marta-bati kishidek bemavrid soxta yurish qilib kelib qoldi.

– Nima gap o'zi? Men viloyat kasaba uyushmasidan-man, – dedi u xirillab. – Nega to'xtab qoldik?

– Kirish man etilgan.

– Axir, o'trog' sog'chi, men viloyat kasaba uyushmasidan-man, deb aytdim-ku.

– Qayerdan ekaningizning menga ahamiyati yo'q.

– Buni qanaqa bo'ldi? – dedi Sobitjon tayssallab.

– Shunaga. Qo'riqlanadigan zona!

– Unda gapni cho'zib o'tirishga na hojat bor? – dedi Sobitjon izza tortib.

– Kim cho'zyapti? Men sizga emas, manavi tuya mingan cholni hurmat qilganidan tushuntiryapman tushunib olsin deb. Aslini aytganda, begona odamlar bilan gaplashishga haqqim yo'q. Postda turibman.

– Demak, mozorga yo'l yo'qmi?

– Darvoqe, shunday. Qabristonga o'tish u yoqda tursin, unuman, bu yerdan o'tish endi man etilgan.

– Nachora, o'ylaganimday bo'lib chiqdi, – deya zarda qildi Sobitjon. – Shunday bo'larini bilib, qo'yinglar, bu ishni desam, yo'q bo'lmadi! «Ona Bayit!» Ona Bayit!, deb quloq miyanni yedinglar. Mana endi senga «Ona Bayit!» – u shu so'zlarni aytib g'azab bilan yerga tupurgancha nari keldi.

Sog'chi oldida Edigey o'zini noqulay sezdi.

– Kechir, o'g'lim, – dedi u otalarcha mehribonlik bilan.

– Hammasi ravshan, sen xizmat burchingni o'tayapsan. Biroq marhumni nima qilamiz endi? Bu, axir g'ola emas-ku, ag'dar-sang-da, ketaversang.

– Men tushunib, turibman, biroq ilojim qancha? Menga nima deyishsa, shuni bajatishim kerak. Bu yerda boshliq emasman-ku, axir.

– Ha-a, shunaga-a. – Edigeyning hafsalsasi pir bo'ldi. O'zing asli qayerlik bo'lasan?

– Vologdadan, otaxon, – sogchi uyaliib, bolalarcha xursand bo'lib «o» ga urg'u berib gapirdi. Bunday savolga javob berish maroqli ekanini yashirmay ifayib turadi.

– Nima, u yozda sizlarning Vologdangizda ham mozor-da sogchilar turishadimi?

– Bu nima deganingiz, otaxon, nega endi! Bizda qabris-tonga qachon xohlasang va qancha xohlasang, boraverasan. Gap unda emas-ku. Bu yer yopiq zona. Axir, sizning o'zingiz ham, otaxon, harbiy xizmatni o'tagan ekansiz, ko'rib turlbman. Xizmat xizmatligicha qoladi. Istaysanmi-yo'qmi, bu burch, undan hech qayoqqa bosh olib keta olmaysan.

– Shundaylikka shunday-a, – deya ma'qulladi Edigey, – biroq marhumni nima qilamiz?

Ular jim qolishdi. Moviy ko'zli, mallaqoshi askar jiddiy o'ylanib turib, afsuslangancha bosh chayqadi:

– Yo'q, otaxon, bo'lmaydi! Haqim yo'q!

– Nima ham qilardik, – dedi Edigey mushkul ahvolda qolib.

Hamrohlari tomon qarashga uning yuzi chidamadi. Chunki Sobitjon borgan sari tutaqib, Edilboy Darozga nimalar-nidir gapirayotgan edi. Uning achhechiq-sanchiq so'zlari ekska-vatorning yonida turganlarga ham eshitiylayotgan edi:


– Aytmadimmi, shunchalik olis joyga borib yurishning hojati yo'q deb. Bu – eskilik qoldig'i, xurofotning kasofati! Ham o'zlarimgizni, ham boshqalarni miyasini achilasizlar. O'ilkni qayerga ko'mishning nima farqi bor? Yo'q, o'lamam Olloh, nima bo'lsa ham Ona Bayitga eltib ko'mamiz, ketaver, sensiz ham ko'mib kelamiz, deysan! Mana, ko'maver endi! ;

Edilboy Daroz indamay undan uzoglashdi.

– Menga qara, og'ayni, – dedi u ko'tarma g'ovning oldi-ga kelib sogchiga. – Men ham xizmat qilgaman, bilaman ba'zi tartib-qoidalarini. Telefonning bormi?

– Bor, albatta.

– Unday bo'lsa qorovul boshlig'iga qo'ng'iroq qil. Shu



yerlik kishilar kelib, Ona Bayitga o'tishga ruxsat so'rashyapti, deb aytgin.

– Nima, nima? Ona Bayit? – deb qayta so'radi sogchi.

– Ha, Ona Bayit. Ota-bobomiz yotgan qabriston shunday deb ataladi. Telefon qil, og'ayni, boshqa ilojimiz yo'q. O'zi bizga ruxsat olib bersin. Biz esa ishonaver, darhol qaytamiz, mozordan boshqa biron narsa bizni qiziqitmaydi.

Sogchi og'iriligini dam u oyog'iga, dam bu oyog'iga tashlab turarkan, qovog'i solingancha o'ylanib qoldi.

– Sen shubha qilma, – dedi Edilboy Daroz. – Hammasi ustav bo'yicha bo'ladi. Postga begona odamlar kelishdi, sen qorovul boshlig'iga axborot beryapsan. Bo'lgani shu. Qiziq ekansan! Aytib qo'yish sening vazifang-ku, axir.

– Xo'p, mayli, – deb bosh iring'adi sogchi. – Hozir qo'n-g'iroq qilaman. Biroq qorovul boshlig'i ko'pincha postlarni ku-zatib, aylanib yuradi – o'rinda bo'lmasiligi ham mumkin. Hudud-ning esa o'zlarining ko'rib turlbsizlar, qanchalik katta ekanini!

– Balki, menga ham ruxsat berarsan yoningda bo'lsan? – deb so'radi Edilboy Daroz iltimos qilib. – Kerakli gaplarni aytib turaman.

– Bo'pti, yuring, – rozi bo'ldi sogchi.

Ikkalasi qorovulxonaga kirib ketishdi. Eshik ochiq, Edigey hamma gaplarni eshitib turardi. Sogchi qayogqadir qo'n-g'iroq qilib hamon qorovul boshlig'ini so'radi. Uni esa topmasdi.


– Yo'o-o'q, menga qorovul boshlig'i kerak! – deb tushuntirardi u. – Shaxsan o'zi... yo'g'-e. Muhim ish bor.

Edigey asabiylashdi. Qorovul boshlig'i g'ayisi go'rda ekan? Ish bir o'ngidan kelmadimi – bo'ldi!

Nihoyat, topildi.

– O'troq leytenant! O'troq leytenant! – sogchi jarangdor ovoz bilan hayajonlanib gapirdi. – Mahalliy kishilar eski qabristonga bir kimsani ko'mishga kelishibdi. Nima qilayin?..

Edigey hushyor tortdi. Leytenant bir og'iz o'tkazib yu-bor, desa bo'ldi. Barakalla, Edilboy Daroz! Nima qilsa ham fahm-farosati yigit. Biroq sogchining gapi hamon tugamayotgan edi. Endi u hadeb savollarga javob berardi.



— Oh-bo... Qancha deysizmi? Oltira. Marhum bilan yetti kishi. Qandaydir chol o'libdi. Ularning boshlig'i tuya minib olgar. Yana pritsepl¹ traktorlari ham bor. Traktor ortida esa ekskavator... Qanday? Men nima deyin? Demak, mumkin emas?!

Ruxsat yo'q deng. Xo'p, aytaman.

Shu choq Edilboy Darozning ovozi yangradi. U go'shakni tortib olgan edi.

— O'rtoq leytenant! Bizning ahvolimizni tushuning. O'rtoq leytenant, «Bo'ronli» bekatidan keldik. Endi qayerga boramiz? Ahvolimizni tushuning, o'rtoq leytenant. Biz shu yerlik odamlarniz. Hech qanday yomon fikrimiz yo'q. Faqat o'likni ko'mamiz-u, izimizga qaytamiz... A? Nima? Bu qanaqasi bo'ldi? Keling, kelib o'z ko'zingiz bilan ko'rsangiz, ishonch hosil qilasiz! Bu yerda bizni boshlab kelgan oqsoqolimiz bor. Urush qatnashchisi. Unga o'zingiz tushunting.

Edilboy Daroz qorovulxonadan asabiylashib chiqdi: leytenant hozir o'zi kelib, masalani shu yerda hal qilishini aytibdi. Uning ortidan kelgan soqchi ham shu gapni ayib, biroz yengil tortganday bo'ldi, chunki bu yog'ini qorovul boshlig'ining o'zi hal etishi kerak edi. U endi ola-bula ko'tarma g'ovning oldida u yoqdan bu yoqqa yurib turardi.

Edigey Bo'ron o'yga toldi. Yo'lining bunday bo'lishi kimning xayoliga kelibdi, deysiz. Leytenantning kelishini kutishdan boshqa iloj yo'q. Edigey shu mahal tuyasidan iring'ib tushidda, uni yetaklab borb ekskavatorning cho'michiga bog'lab qo'ydi. So'ng yana ko'tarma g'ov tomon qaytdi. Traktorchi Qalibek bilan Jumag'alilar o'zaro gangur-gangur subbatlashib o'tirishar edi. Sobitjon odamlardan cheida bo'zchining mokisiday u yoqdan bu yoqqa o'zicha g'ijini yurib turgandi. Kazangapning kuyovi — Oyzodaning eri esa hamon avvalgiday tirkalma arava ustida marhumning yonida o'tirardi.

— Edike, u yoqda nima gap, bizni o'tkazib yubormoqchi bo'lishdimi? — deb so'radi u Edigeydan.

¹ *Пritsep* (ruscha: прицеп — tirkamoch, ulamoch) — o'z yuruar transport vositalariga tirkalgan arava (motorsiz vagon, platforma); traktorga tirkalgan mashina, qurol.

— O'tkazib yuborishar. Hozir boshliq — leytenantning

o'zi keladi. Nega qo'yishmas ekan? Nima, biz josusmidik. Aravadan tushib, biroz oyog'larini yozsanglar bo'larmidi.

Soat uch bo'lib qolgan edi. Ular esa hali ham Ona Bayitga yetib kelishmagan.

Edigey soqchining yoniga qaytib:

— O'g'lim, boshlig'ingni hali ancha kutamizmi? — deb so'radi.

— Yo'g'-e. Hozir kelib qoladi, ostida mashinasi bor. O'n o'n besh daqiqalik yo'l.

— Ha, mayli, unda kutamiz. Bu tikanli simlarning tortilganiga ko'p bo'ldimi?

— Ha, ancha bo'ldi. Uni biz tortganimiz. Bu yerda xizmat qilayotganimga bir yil to'ldi. Demak, tevarakni o'rabo'yga-nimizga yarim yilcha bo'lay, deb qolibdi.

— Shuni aytyapman-da. Bunaga to'siq borligini men ham-bilmasdim. Marhumni bu yoqqa dafn etish uchun men boshlab kelgan edim, endi esa gunohkorday bo'lib turman. Bu yerda bizning qadimiy mozorimiz — Ona Bayit joylashgan. Marhum Kazangap esa juda yaxshi odam edi. Bekatchada o'ttiz yil birga ishladik. Hammasi ko'ngildagidek bo'lsin, degan edim.

Soqchi, aftidan, Edigey Bo'ronga hamdardlik bildirayotganday edi.

— Menga qarang, otaxon, — dedi u uddaburonlik qilib. — Hozir qorovul boshlig'i Tansiqboyev kelishi bilan yaxshilab tushuntiringlar, U ham odam-ku, axir. Yuqoridagilarga xabar qilsin. Ehtimol, ular ruxsat berib qolishar.

— Yaxshi maslahating uchun rahmat. Bo'lmasa, biz nima qilamiz? Nima deding, Tansiqboyev dedingmi? Leytenantning familiyasi Tansiqboyevmi?

— Ha, Tansiqboyev. Bu yerga kelganiga ko'p bo'lgani yo'q. Nega so'raysiz, tanishmi? U sizlarning millatingizdan. Balki, biron yaqin kishilaringiz bo'lib chiqar?

— E, yo'q, — deb kulimsiradi Edigey. — Sizlarda Ivanovlar ko'p bo'lganidek bizlarda kim ko'p — Tansiqboyevlar ko'p. Shunchaki, shunaga familiyadagi bir kishi esimga tushib qoldi.

Shu payt postdagi telefon jiringlab, soqchi o'sha yoqqa yugurtib ketdi. Edigey yolg'iz qoldi: qoshlari hurpayib, mashina ko'rimayaptimi, deganday yo'lga ma'yus qarab, boshini chay-qab qo'ydi. «Bu o'sha — chag'irko'zning o'g'li bo'lib chiqsa-ya? — o'yladi u va o'zini-o'zi koyiy ketdi ichida. — Yana qaysi baloni o'ylab topding? Miyasiga kelgan narsani qara-ya! Banaqa familiyadagilar ozmunchami. Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas». U Tansiqboyevlar bilan keyinchalik orani ochiq qilib olgan butunlay... Har nechuk, yer yuzida haqiqat bor! Bor! Qanday bo'lmasin, haqiqat har doim bo'ladi...

U bir chetga chiqdi-da, leytenant Tansiqboyevning ko'ziga darhol ko'rinsin uchun dastro'molchasini olib ko'ksidagi orden va medallarini, zarbdor mehnati uchun olgan ko'krak nishonlarini erimasdan yaltiratib artdi.

XII

Haligi chag'irko'z Tansiqboyevning keyingi hayoti bunday bo'lgan edi.

1956-yil bahorining oxirlarida Qumbel deposida katta miting bo'lib, unga hamma bekat va bekatchalardan temir-yo'ichilar to'planishgan edi. O'sha kuni faqat yo'lida navbatchilikda turganlarga o'z postlarida qolishdi. Edigey Bo'ron o'z umrida ne-ne yig'ilishlarni ko'rgan bo'lsa ham, bu miting uning uchun unutilmas bo'ldi.

Ular parovoz ta'mirlash sexiga yig'ilishdi. Hamma yoqda tunonat odam. Ayrinlar joy bo'lmaganidan naqd shiftning tagigacha tirband bo'lib, to'sinlarning devordan chiqib turgan joylarigacha o'tirib olishgan edi. Biroq eng muhimi — qanday zo'r nutqlar so'zlanmadi! Beriyanning butun qilimishlari boshdan

¹ Lavrentiy Pavlovich Bertya (1899-1953) — 1941-1946-yildan boshlab SSSR Xalq Komissariati Kengashi raisi, SSSR Vazirlar Kengashi raisining birinchi o'rinbosari, SSSR Davlat Mudofaa Qo'miyesi raisining o'rinbosari lavozimlarda ishlagan. SSSR da ko'plab qatag'on va surgunlar shuning buyrug'i asosida amalga oshirilgan. 1953-yil 23-dekabrda Vatanga xoinlik qilish va jossuslikda ayblanib o'tib o'ldirilgan.

oxirigacha ochib tashlandi. Yaramas jallodning sharmadasini chiqarishdi! To'kechgacha so'zga chiqishlar davom etdi, depo ishchilarining o'zlari birma-bir minbarga ko'tarilaverishdi, birov odam ketmadi, go'yo hamma o'z o'rnida mixlanib qolganday edi. Faqat ovozlari to'liqini xuddi o'tmonning shovullashidek guvullab turardi. Kimningdir olomon qatoridan toza ruscha talaffuzda: «Xuddi bo'ron oldidagi dengizga o'xshaydi-ya», degani ham xotirada qoldi. Haqiqatan ham shunday bo'ldi. Uning yuragi duk-duk urardi, frontida hujum oldidan shunday bo'lardi, u juda chinigqan edi. Tomog'i quritib borardi. Ammo olomon ichida qayerdan suv topib bo'lardi? Suv qidirishga vaqt ham yo'q edi, chidashga to'g'ri keldi. Tanaffusda Edigey odamlar orasida turtinib zo'rg'a depo partiya tashkilotining rahbari, sobiq katta bekat boshlig'i Chernov yoniga o'tib oldi. U prezidiumda' edi.

— Menga qara, Andrey Petrovich, men ham so'zga chiqsamkin-a?

— Mayli, agar zarurat bo'lsa.

— Xohishim bor, hatto juda ham xohlayman. Lekin oldin sen bilan maslahatlashib olishimiz lozim. Esingdami, bekatimizda Qutitboyev degan kishi bo'lardi. Abutolib Qutitboyev. Revizor unga Yugoslaviya haqida xotiralar yozyapti, deb ayb taqdan edi. Abutolib u yoqda partizanlar safida jang qilgan. Yana har xil bo'lmag'ur ayblarni qo'shib yozgan o'sha revizor. Keyin beriyachilar kelib bechorani bandi qilib ketishdi. U shu bo'yi o'lib ketdi, bekordan bekorga yo'q bo'lib ketdi sho'rtlik! Esingga tushdimi?

— Ha, eslayman, xotini ma'lumotomaga kelgan edi.

— Ana o'sha! Keyin oilasi ham ko'chib ketdi-ku. Bugungi gaplarni eshitib o'tirib, o'ylanib qoldim. Yugoslaviya bilan do'st bo'lsak, hech qanday ixtilofimiz bo'lmasa, nega begunoh odamlar jabr ko'rib ketaverar ekan? Abutoibning bolalari ham katta bo'lib qolishdi, maktabga qatnashyapti. Shunday bo'lgach,

¹ Prezidium (*lotincha*: presidence — oldinda o'tirmoq, raislik qilmoq) — 1) majlis, kengash va shu kabi katta yig'ilishlarni boshqarib borish uchun saylangan kishilar guruh; huy'at; 2) bo'zi tashkilot, jamiyat yoki ilmiy muassasaning saylab qo'yiladigan rahbarlik organi.

masalani oydinlashtirib olish kerak. Aks holda, hamma ularga ta'na toshini otaveradi. Bolalar ko'p jabr ko'rishdi – otasiz qolishdi, axir.

– Sabr qil, Edigey. Demak, sen shu haqda gapirmoqchisan, shundaymi?

– Shunday.

– Hali revizorning familiyasini bilasanmi?

– Bilib olish qiyin emas. Men uni keyin hech uchratmadim.

– Shu tobda kimdan bilasan? Undan keyin, u aynan nima yozganligi haqida qo'lingda biror hujjatning, dalil-ishtobing bormi?

– O'shandan boshqa kim ham yozardi?

– Bu o'rinda faktik dalillar kerak bo'ladi, og'ayni Bo'ron. Mabodo sen o'ylaganday bo'lib chiqmasa-chi? Bu hazilakam gap emas. Menga qara, Edigey, maslahatga qulqol sol. Shularning hammasi haqida Olmaotaga xat yoz. Bu voqea qanday bo'lganini, butun tafsiloti bilan aynan yozib, respublika partiya Markaziy Qo'mitasiga jo'nat. U yerda o'zlari aniqlab olishadi. Paysalga solib o'tirishmaydi. Partiya bu ishga qattiq kirishdi. O'zing ko'rib turibsan-ku.

Boshqalarga qo'shilib o'sha mitingda Edigey Bo'ron ham: «Partiyaga shon-sharaflar bo'lsin! Partiyamiz yo'lini qo'llab-quvvatlaymiz!», deya baland ovoz bilan hayqirdi. Keyin, miting oxirida orqaroqda kimdir «Internatsional» ni boshlab yubordi. Unga bir necha ovoz qo'shildi, biror daqiqadan keyin butun olomon deponi to'ldirib barcha zamonlarning buyuk madhiyasini, barcha mazmlar madhiyasini bir odamdek kuylay boshlashdi. Edigey hech qachon bunchalik ko'p odamlar orasida kuylamagan edi. Tantanavor, mag'rur, ayni paytda achchiq alam ifodalalayotgan kuy sadosi xuddi to'liqindek ko'tarilib, uzoq-uzoqlarga ketayotgandek tuyulardi. Kommunistlar² madhiyasi qalblarda jasorat tuyg'ularini toshirib, baxti kelajak uchun ku-

rashga chorlardi.

Edigey ko'pincha, qattiq hayajonlangan paytlarida bo'lgani kabi hozir ham o'zini Orol dengizida yurgandek his etdi. Uning xayollari to'liqlilar ustida uchib yurgan erkin chayqalar singari bepoyon osmon bo'ylab parvoz qilardi.

Ana shunday quvonchli tuyg'ularga ko'milib, uyiga qaytdi. Choy ustida Ukkubola mitingda bo'lgan gaplarni butun tafsiloti bilan hayajonlanib hikoya qilib berdi. O'zining ham so'zga chiqmoqchi bo'lgani, hozircha partorg Chernov unga boshqa maslahat berganini ham aytib o'tdi. Ukkubola erining so'zlarini murtiqib tinglar, unga dam-badam samovardan issiq choy quyib uzatardi.

– Senga nima bo'ldi, bir samovar choyini ichib qo'yding-ku! – deya hayron bo'ldi xotini jilmayib.

– Bilasanmi, mitingda nima sababdandir shunchalar changadimki, asti qo'yaverasan! Nihoyatda hayajonlandim. Odam ko'p edi, qimirlab bo'lmaydi. Miting tugagandan keyin otilib chiqib, suvga chopdim. Qarasam, bir tarkib biz tomonga jo'namoqchi. Yugurib borib mashinistning yoniga chiqib oldim. O'zimning yigit bo'lib chiqdi: to'g'roqtomlik Jondo'st ekan. Yo'lda suvidan ichdim, albatta, lekin changoqni qondirib bo'lmadim!

– Shuning uchun ekan-da, ko'rib turibman, – deb so'z qotdi Ukkubola. U yana qaytadan choy quyarkan, dedi: – Gap bunday, Edigey, sen Abutolibning bolalarini eslab yaxshi qilibsan. Shunday ekan, yetimlar yelkasini qisib yurmasin desang, jur'atliroq bo'l. Xat yaxshi, ammo to'yoziq, yetib borguncha o'qilib, tegishli odamlar o'ylab ko'rguncha ko'p vaqt o'tadi. Yaxshisi o'zing Olmaotaga bora qol. Bo'lgan voqeani o'sha yerning o'zida aytasan-qo'yasan.

– Seningcha, Olmaotaga o'zim borishim kerakmi? To'ppa-to'g'ri eng katta boshliqqa uchrashaymi?

– Ha, nima bo'пти? Ish yuzasidan borasan-ku. Do'sting Yelizarov qanchadan beri chaqirgani-chaqirgan. Har safar manzili qoldirib ketadi. Men bormaganimdan keyin, sen bor. Men uyni tashlab chiqolmasam, bolalarni kimga qoldiramiz? Sen

¹ Internatsional – Sobiq Ittifoq kommunistik partiyasining gimi.

² Kommunist – sotsializmning va kommunizmning ashladiy taraflari, kommunistik partiyaning a'zosi. Sobiq Ittifoqda 1991-yilgacha, Xitoy, Vetnam, Kub va Shimoliy Koreyada hozir ham mavjud bo'lgan tuzumning faollarning umumiy nomi.

bu ishini paysalga solma. Ishdan ta'til ol. Shuncha yil ichida qancha o'puska olishing mumkin edi – yuz yillik. Bitor marta ol, borib o'sha yerining o'zida katta odamlarga ayt.

Edigey xotinining aqliga qoyil qoldi.

– Rost, xotin, gapning po'stkallasini aytapsan. O'ylab ko'rish kerak.

– Ko'p o'ylayverma. Mulohaza qilib o'tiradigan vaqt emas hozir. Qancha etaroq harakat qilsang, shuncha yaxshi. Afansiy Ivanovich senga, albatta, yordam beradi. Qayerga borish, kimga uchrashish kerakligini u yaxshi biladi.

– To'ppa-to'g'ri.

– Shuning uchun aytapman-da. Kechiktirishning hojati yo'q. Bir yo'la uyga kerakli narsalar ham ola kelasan. Qizlaringiz ham katta bo'lib qolishdi. Saula kuzda maktabga boradi. Internatga joylashtiramizmi yo nima qilamiz? Bu haqda o'ylab ko'ringmi?

– O'ylab qo'yganman, o'ylamay bo'larimdi! – qizlari-ning tez o'sganidan, yaqinda maktabga borishi mumkinligidan hayron qolganligini yashirishga urindi Edigey Bo'ron birdan o'z xatosini fahmlab.

– Agar o'ylagan bo'lsang, – deya davom etdi Ukkubola, – bor, biz o'sha yillari ne kunlarni boshdan kechirganlarimizni odamlarga yetkaz. Ular yetimlarga otalarining ta'na-malomatidan qutulishlari uchun yordam berishsin. Keyin vaqtig bo'lsa, qizlaringga, menga u-bu narsa qarasang yomon bo'lmadi. Men ham axir endi yosh emasman.

Edigey xotiniga qaradi. Qiziq, hamisha ko'rib yuritib payqamagan narsangni bir qarashda anglab qolasan ekan. Albatta, u yosh emas, ammo keksalikka ham hali ancha uzoq edi. Lekin u xotinining qarashlarida oqilalik paydo bo'lganligini tushundi. Sochiga oq oralaganini ham payqadi. Uning chakalaridagi oq sochlari uch-to'rtadan ko'p emasdi, ammo shuning o'ziyoq boshidan kechirganlari to'g'risida guvohlik berib turardi...

Oradan bir kun o'tgach, Edigey Qumbel bekatida yo'lovchi sifatida turardi. Darvoqe, Olmaota poyezdiga chiqish uchun «Bo'ronli»dan bir qadam orqaga yurishga to'g'ri keldi. Edigey

bunga afsuslanmadi. Chunki, avvalo, borayotgani haqida Yelizarovga telegramma jo'natishi kerak edi. Buning uchun katta bekatga borish zarur edi.

Keyin Moskva – Olmaota poyezdi yetib keldi, Edigey shu poyezdda o'zining «Bo'ronli» bekatini orqali Olmaotaga jo'nab ketdi. Uning joyi kupeli vagonida, yuqori polkada edi. Edigey narsalarini joylashtirib, o'z bekatini ko'may o'tib ketmaslik, uni yo'lovchi sifatida poyezddan turib kuzatish maqsadida darhol yo'lakka chiqdi va vagon derazalari yoniga keldi, shundan keyin o'z polkasiga chiqib olib uxlayverishi mumkin-ku. Oldinda ikki sutkalik yo'l bor. Dastlab shunday deb o'ylagan Edigey ikkinchi kunioq majburiy bekorchilikdan o'zini qayerga qo'yishini bilmay qoldi. Poyezdda faqat yeb-ichish va uxlashdan boshqani bilmaydigan ishlovqomslarni ko'rib hayratlandi.

Biroq birinchi kuni, xususan, birinchi soatlardan o'lasidan uzoq muddatga chiqib ketishga odatlanmaganidan ko'ngli no'qinch bo'lib, tashvishlana boshladi. U vagon derazalari oldida birmuncha hayajonli, ust-boshi tartibli turardi: katta bekatdagi magazindan shunday kunlarda kiyish uchun sotib olingan yangi shlyapa, egnida toza ko'ylak va Kazangapning urush davridan beri yaxshigina saqlab yurgan kireli. Unga bu kirelni Kazangap majburiy kiydirgan, orden va medallarini ko'ksingga taqib ol-sang, galfi shim-u o'fsetlar kiyadigan xrom etik bilan juda yarashadi, degan edi. Bu etikni Edigey ahyon-ahyonda kiy-sa ham, nihoyatda yoqitardi. Edigey odam savlati ko'rinishi uchun eng avval yaxshi etik va yangi bosh kiyim bo'lishi kerak, deb hisoblar edi. Hozir unda bularning ikkalasi ham bor.

Deraza oldida u shunday holada turardi. Vagondan u yoq bu yoqqa o'tganlar unga hurmat bilan nazar tashlab o'tir-dilar. Edigey Bo'ron qiyofasida butun fazilatlari va iztiroblari ifodalangan bo'lsa-da, boshqalardan ajralib turar edi.

Poyezd Sario'zak yalangliklari bo'ylab go'yo oldinda yugurib ketayotgan ufqning tiniq gardishini quvib yetishga sho-shilayotganday yeldak uchib borardi. Dunyoda faqat ikki tabiiy kuch mavjud edi: osmon va yalang cho'l. Uzoqda ular tutash-gandek ko'rinar, tezyurar poyezd ham o'sha tomonga intilardi.

«Bo'ronli» yerlari ham yaqinlashib qoldi. Bu yerda har qariyb yetti, har bir tosh tanish. «Bo'ronli»ga yaqinlasha borarkan, Edigey ruhi ko'tarilib, derazaga yaqin keldi, miyig'ida iljayib qo'ydi, go'yo ko'p yillar bu yerda bo'lmaganday his qildi o'zini. Mana, bekatgacha ham yetib keldi. Semafor, uychalar, yonmayon qurilgan binolar-u ombor yonida taxlab qo'yilgan rejslar va shpallar ko'z o'ngidan lip-lip o'tib turdi. Edigey hatto o'z qizchalarini ham taniy oldi. Ular bugun mag'ribdan mashriqqa yo'l olgan barcha yo'lovchi poyezdlarini kuzatgan bo'lishlari mumkin.

Saula va Sharofat shu yerda ekanliklarini bildirish uchun ham qo'llarini silkitib, sakrab-sakrab qo'yishar, vagon derazalariga qarab jilmayishardi. Ularning mayda o'rigan sochlari silkinar, ko'zlari porlar edi. Edigey beixtiyor derazaga yopishib oldi-da, ularga qarata qo'l silkitdi, ming'irlab erkalovchi so'zlar aytdi, lekin qizlari uni ko'rishmadi yo taniy olmadi. Shunga qaramay, ular poyezd o'tib ketishini kutib turganligidan Edigey xursand bo'ldi. Biroq yo'lovchilardan hech biri hozirgina uning bolalari, uyi, bekati ortda qolib ketganligini payg'amadi! Ayniqsa, bekatchadan nari yoqdagidalada tuyalar g'allasida uning mashhur Qoranori yurganligini hech kim tasavvur ham etolmasdi. Edigey esa uzoqdan ko'rib, uni darhol tanidi va ko'zlarida quvonch paydo bo'ldi.

Keyinchalik, uyidan bir necha bekat uzoqlashgach, Edigey uyquga ketdi. U vagon g'ildiraklarining bir maromdagi taqat-tuq ovozlari, yo'lovchilar subbatarining allalovchi sadolari ostida anchagacha shiringina uxlad.

Ikkinchi kuni tushdan keyin Chinkentdan to butun Yetisuv bo'ylab cho'zilib ketgan Olatov tog'lari boshlandi. Bu tog'lar shu qadar chiroyli ediki, odamning ko'zi quvonardi! Edigey Bo'ron temir yo'l bilan yonmayon to Olmaotagacha cho'zilib ketgan qorli cho'qqilarning ulug'vor qiyofasini ko'rib, har qancha sevinmasin, ularga qarab to'ymadi. Uning uchun, Sario'zaklik cho'l kishisi uchun bu bir mo'jiza bo'lib, abadiylikni tomosha qilayotgandek edi. Olatov tog'lari uni faqat maftun etibgina qolmasdan, chuqur o'yga toldirdi ham. Tog'larga qarab

turib o'y surish unga yoqar edi. Shu tarzda u xayolan hali o'ziga notanish bo'lgan, o'tmishdagi xatolar endi sira takrorlanmasligi kerakligini aytgan mas'ul kishilar bilan uchrashuvga, ularga Abutolib oilasining achchiq qismati to'g'risida so'zlab berishga tayyorlanardi. Tekshirib ko'rishsin, qanday qilib bu ishni to'g'rilash masalasini hal qilishsin. Abutolibning o'zini-ku, tiriltirib bo'lmaydi, biroq uning bolalarini hech kim ranjirmasligi, ularga ham yo'l ochib qo'yilishi kerak-ku, axir. Kattasi Dovul shu yil kuzda maktabga boradi, hech kimdan xavotirlanmay bermalol o'qisin. Lekin hozir qayerda ular? Qismati nima bo'ldi? Zarifa nima qilib yurgan ekan?

Shu haqda o'ylarkan, Edigeyning ko'ngli qattiq ranjidi. Endi o'tgan voqealarni unutilib, g'azabdan tushadigan vaqt keldi. Ular o'tmishda qolgan ekan, bu haqda butunlay o'ylamaslik mumkin-ku, axir. Lekin nima unutildi, nima unutilmadi – bu faqat yolg'iz Xudoning o'ziga ma'lum! Edigey Bo'ron xafa bo'ldi, taqdirga tan berib, o'zini bosdi. Buni kimga ham ayta olardig-u, kim tushunardi? Osmonga tirkovich bo'lib o'tirgan qorli tog'largani – ularning yerdagilar tashvishi bilan qanchalik ishi bor. Shuning uchun ham ular tog', ulug'vor Olatov sanaladi, ming-minglab odamlar kelaveradilar, ketaveradilar, bu tog'lar esa abadiy turaveradi, odamlar ularga qarab o'y o'ylaydilar-u, tog'lar esa metindek, jim qolaveradi...

Edigey xayolga berilib, Abutolibning «Raymali og'aning inisi Abdilxonga murojaati»ni yozib olganidan keyin, bu rivoyat ustida ko'p o'ylaganini, bir subbada Raymali og'a bilan Begimoy kabi kishilar hayot yo'lida uchrashib qolib, bir-birlariga qancha baxt keltirsalar, shuncha qayg'u-alam ham keltirishi, hatto biri ikkinchisining boshiga kulfat solish, biroq hech bir kimsa o'z atrofidagi kishilar hukmidan qochib qutulmasligi to'g'risida aytganlarini birma-bir esladi. Raymali og'aga yaxshilik qilishni ravo ko'rgan yaqin kishilari unga nisbatan o'zlari o'ylaganlaricha ish tuidilar. Bu bir paytlar Edigey uchun dono so'zlarigina edi, chunki hali u bu so'zlarning haq ekanligini sinab ko'rmagan, azob-uqubatlarni boshidan kechirmagan edi. Mayli, Zarifa-yu u bunday voqealardan yer bilan osmondek uzoq

bo'lishsin – ularning oralarida hech vago bo'lmagan. Bartir, Zarifa haqida ko'p o'ylar, uni chin didan sevardi. Biroq Zarifa o'sha muqarrar qiyinchilikdan qutulish uchun birinchi bo'lib o'zini zarbaga tutib berdi. U o'zi uchun shunday qildi, to'niirdagi qonni to'xtatib qo'ygandek birdaniga shu qarorga keldi, lekin u Abutolib haqida o'ylamadi, o'zining bu qarori unga qanchalik qimmatga tushishi mumkinligini xayoliga ham keltirmadi. Yaxshiki, u tirik g'oldi. Endilikda shunday ko'rgulik yaqinlashguday bo'lsa, uni bir ko'rishi yoki eshitishi bilanog dunyoning narigi chekkasigacha qochib ketishga tayyor edi.

Edigey o'zidan kulib, bir vaqtlar Abutolibdan Germaniyada Gyote degan mashhur shoir bo'lganligini eshitib, ajablanganligini ham eslab qo'ydi. Uning nomi qozoqchada unchalik jarangdor eshitilmaydi-yu, lekin gap bunda emas. Har bir shaxs taqdir taqozosi qilgan ismi bilan yuradi. Kessa Gyote yoshi yetmishdan oshganida yoshgina suluvga ko'ngil qo'yg'an, qiz ham sho'irni sidqidildan sevgan, deysinadi. Buni hamma bilgan-u, hech kim Gyotening oyoq-qo'lini bog'lab qo'yib, uni aqldan ozganlikda ayblamagan... Raymali og'aga nisbatan qanday munosabatda bo'ldilar! Insonni xo'rladilar, yo'q qildilar, aslida esa unga yaxshilik qilmoqchi edilar... Zarifa ham o'zicha eriga yaxshilik qildi... Shu sababli u Zarifadan norozi emas. Sevgan kishisidan xafa bo'lish mumkin emas-ku, axir. Aksincha, o'zingni nimadandir gunohkor qilib, aybdor hisoblayсан, o'zingga og'ir bo'lsa mayli, xotiningga aslo yomon bo'lmasin... Agar qo'lingdan kelsa, xotining seni tashlab ketganda ham, uni yodindan chiqarma va sevl...

Edigey Bo'ron ana shunday o'ylar bilan xotinini eslab va suyub, Abutolibni, uning yetim qolgan bolalarini xotirlab, yo'lida davom etdi.

Edigey Olmaotaga yaqinlasharkan, birdan o'ylab qoldi: bordi-yu, Yelizarov joyida bo'lmasa-chi? Unda nima qilaman? Obbo! Nega bu fikr uydа xayoliga kelmadi? Ukkubola ham bu haqda o'ylab ko'rmabdi. O'zlari istaganlaricha ish tutishibdi. Sario'zakdan hech qayoqqa chiqmay yashaydiganlar, albatta, boshqalarni ham xuddi shunday deb o'ylardilar-da. Axir, Afana-

siy Ivanovich uyida bo'lmasiligi mumkin-ku. U akademiyada!

ishlaydi, joylarda borishini orziqib kutishadi, shunday olimning ishlari kam bo'lmaydi. Ish bilan boshqa shaharga ketgan bo'lishi, u yerda bir necha kunga qolib ketishi ham ehtimoldan xoli emas. Shularni o'ylarkan, Edigey: «Ishim o'ngidan kelmaydi», deb tashvishlandi. Agar shunday bo'lsa, Edigey qozoq tilida chiqadigan gazeta tahririyatiga murojaat qilishi mumkinligini o'yladi, chunki gazetaning har bir sonida uning manzili ko'rsatilgan bo'ladi. Tahririyadagilar unga qayerda, kimga uchrashish kerakligini tushuntirishadi, albatta. Biroq shunday masalalar bilan qayerga borish, kimga uchrashish kerakligini gazeta xodimlari bilmasligi ham mumkin-ku. Uyda bular hammasi osongina tulyulgan edi. Yo'lga otlandi-yu, jo'nadi-kendi. Endi-chi, mo'ljallagan joyiga yaqinlashgan sayin Edigey Bo'ronning tashvishi orta bordi, yomon ovchi uyida o'tirib ovni o'ylaydi, degan gap bekorga aytilmagan. U ham xuddi shunday bo'ldi. Lekin Yelizaroyga ishongan edi-da, Yelizarov o'zining odami, ko'p yillik qatdoni, uning bekindagi uyida bir necha marta bo'lgan, Abutolib Qutiboyev tarixini ham biladi. Yelizarov bo'lsa-ku, yaxshi-ya, og'zidan bir so'z chiqar-chiqmas hammasini tushunadi. Notanish odamlarga kuni qolsa qanday qilib aytadi, gapni nimadan boshlaydi, sudda guvohlik qilgandek nutq so'zlash yoki ma'ruza qilishni uddalay oladimi? Uning gaplarini birov tinglamikin, tinglasa, qanday javob gaytararkin? Aslida sen o'zing kimsan-u, nega Abutolib Qutiboyevni oqlash uchun hammadan ko'proq sen qayg'urishing kerak? Senga nima? Unga sen kim bo'lasan: akami yoki uka, qudami yoki boja?

Poyezd Olmaotaga yaqinlashib qolgan edi. Yo'llovchilar taraddudlanib, yo'lakka chiqishgan va poyezd to'xtashini kutardilar. Edigey ham tushishga shaylandi. Ana, vokzal ham ko'rindi g'oldi, yo'l ham oxirladi. Perron odamlar bilan to'lib ketgan – birovni kutib olishga chiqqan, birov tomonga jo'nashga shoshila-

¹ Akademiyа (yunonchа: Асаdemiа – аkаdеmiviy qаhramоn Аkаdеm nоmi hаmdа Plаtоn o'z ta'limоlаdаn dаrs bеrgаn, Аfina yaqinidаgа kichik o'rmon nоmidаn) – 1) ilim-fаn yoki sаn' аtini rivojlаntirish uchun tuzilgаn, yuqоrti mа'lаkаtli оlimlаrگа eга bo'lgаn оliy ilmiy mаssаsа (bu yerdа shu mа'nоdа); 2) bu 'zi bir оliy o'quv yurtlаrining nоmi.

yotgan turli-tuman kishilar son-sanogʻsiz.

Poyezd sekiniab toʻxtadi. Edigey Boʻron birdaniga derazadan peronda turgan kishilar orasida Yelizarovni koʻrdi-yu, xuddi yosh boladay quvonib, terisiga sigʻmay ketdi. Yelizarov ochiq chehra bilan unga qarab shlyapasini ohista silkitar va vagon bilan yonma-yon qadam tashlab borardi. Omadni qarang-al Edigey Yelizarov uni chiqib kutib olishini xayoliga ham keltirmagandi. Oʻtgan kuzdan buyon koʻrismagandilar ham. Yoʻq, Afanasiy Ivanovich ancha yoshga borib qolgan boʻlsa-da, oʻzgarmabdi. Oʻsha-oʻsha, serharakat, qotmagina. Kazangap uni argʻumogʻ, yaʼni zoti toza chavandoz ot, deb atagan edi. Argʻumogʻ Afanasiy – bu uning uchun katta maqlov edi. Yelizarov bu gapni eshitib, ochiqkoʻngillik bilan kulgan, mayli, sen aytgancha boʻla qolsin Kazangap, degandi. Keyin qoʻshimcha qilgan: keksa argʻumogʻ, ammo, baribir, argʻumogʻ-da! Shunisiiga ham rahmat, degan. Odatda u Sarioʻzakka kirza etik, rangini yoʻqotgan eski-tuski shapka kiyib keldi. Hozir esa egnida toʻq kulrang kostyum-shim, galstuk ham taqgan. Kiyimi unga juda yarashgan, gavdasiga, ayniqsa, yarmi oqargan sochi rangiga juda mos tushgan edi.

Poyezd toʻxtaguncha Afanasiy Ivanovich vagon derazasi oldida turgan Edigeyga qarab, yurib keldi. Yelizarovning malla kiprikli qoʻy koʻzlari orziqib kutilgan uchrashuvdan samimiy qoniqish bilan portlab turardi. Bu Edigeyning koʻnglini yorish-tirib, yoʻldagi shubhalarini tumanday targatib yubordi. «Boshlanishi yaxshi, – xursand boʻldi u, – Xudo xohlasa, ishim oʻngidan keladiganga oʻxshaydi».

– Nihoʻyat, tashrif buyuribsan-da! Necha zamonlar oʻtib-al Salom, Edigey! Salom, Boʻroni doʻstim! – deya kutib oldi uni Yelizarov.

Ular mahkam quchogʻlashib koʻrishdilar. Atrofda odam koʻpligidan, quvonchining zoʻrtigidan Edigey biron oʻzini yoʻqotib qoʻydi. To vokzal oldi maydomiga chiqib olishguncha, Yelizarov savollarga koʻmib tashladi. Hammam birma-bir soʻrab chiqdi: kim qanday turmush kechiryapti, Kazangap, Ukkubola, Boʻkey, bolalar qalay, hozir bekat boshligʻi kim, hatto Qoranomni

soʻrashni ham unutmadi.

– Sening Qoranor Boʻroning qanday yuritibdi? – deb qiziqdi u nima uchundir quvnoq jilmayib. – Haliyam oʻshanday – arslonday naʼra tortib yuritdimi?

– Yuritibdi, naʼra tortib, – deya javob qildi Edigey. – Sarioʻzakday keng dalada yayrab yashaydi. Unga yana nima kerak?

Vokzal oldida yap-yangi qop-qora katta mashina turardi. Bunday mashinani Edigey birinchi marta koʻrayotgan edi. Bu «ZIM» – elligʻinchi yillarning eng yaxshi avtomobili.

– Bu mening Qoranorim, – deb hazillashdi Yelizarov, – oʻtir, Edigey, – dedi soʻng oldingi eshikni ocharkan. – Ketdik.

– Mashinani kim haydaydi? – soʻradi Edigey.

– Oʻzim, – dedi Yelizarov rulga oʻtirarkan. – Keksayganimda bir tavakkal qildim-da. Bizning amerikaliklardan nimamiz kam?

Yelizarov motorni yurgizdi. Mashinani yurgizishdan oldin kulimsirab, mehmonga savol nazari bilan qarab qoʻydi.

– Mana, nihoʻyat yetib kelding ham. Endi rostini ayt: bu yerda ancha vaqt boʻlasami?

– Men ish bilan kelganman, Afanasiy Ivanovich. Shuning yoʻrigʻiga qaraymiz. Avval sizning maslahatingizni olishim kerak.

– Oʻzim ham bilgandim, ish bilan kelasam faqat, aks holda seni Sarioʻzagingdan qoʻzgʻatib boʻlarmidi? Qanday ish ekan? Kel, bunday qilaylik, Edigey. Hozir biznikiga boramiz. Oʻsha yerda yashaysan. Hech qanday mehmonxona kerak emas! Kunda kelayotganing yoʻq. Sarioʻzakda men sizlar uchun qanday boʻlsam, sen ham bu yerda men uchun shundayasan. Siylaganni siylash lozim – qozoqchasiga shundaymi, axiri! Hurmat qilsang, hurmat topasan.

– Shundaylikka shundayku-ya, – tasdiqladi Edigey.

– Shunday boʻlsa kelishdik. Men ham zerikmayman. Bizning Yuliy Moskva – oʻgʻlimnikiga kelgan, yana nevara koʻrdi. Quvonganidan yoshlarning yonida boʻlay, deb shoshapisha joʻnab qoldi.

– Ikkinchi nevara! Tabriklayman! – dedi Edigey.

– Buni qara, allaqachon ikkinchi, – dedi Yelizarov hayrat bilan yelka qisib. – Bobo bo'lganingda mening holatimni tushunasmi! Hali bunga uzog'dir-a? Sendayligimda boshimda shamol o'ynardi. Shuni g'ʻalatiki, sen bilan biz yoshimizdagi tafovutga qaramay, bir-birimizni yaxshi tushunamiz. Demak, yurdik. Butun shahar bo'ylab yuramiz. Tepalikka chiqamiz. Ho', tog'larni ko'ryapsanmi, cho'qqilarida qor turibdi. O'sha yoqqa, tog'ning etagiga, Medeoqa. Men senga aytib bergandim chamasi, uyimiz shahar tashqarisida, qariyb qishloq joyda deb.

– Esimda, Afanasiy Ivanovich, uyingiz daryoning bo'y-ginasida, suvning sharqirab oqishi hamisha eshitilib turadi, deb aytgandingiz.

– Hozir o'z ko'zing bilan ko'rsan. Jo'nadik. Qorong'i tushmasidan shaharni ko'rib qol. Bahor-da, qara, hamma yoq gullarga ko'milgan.

Yo'l to'g'riga, tik ketgan bo'lib, teraklar-u, bog'lar oralab shaharni kesib o'tar, bora-borguncha yuqoriga o'tlar, nihoyasi yo'qday ko'rinar. Yelizarov mashinani shoshmasdan haydardi. Yo'lda qayerda, nima joylashganini u aytib borar – ularning aksariyati turli muassasalar, magazinlar, turar-joy binolari edi. Shaharning qoq o'tasida keng maydonda hamma tomoni ochiq mahobatli bir bino turar, Edigey uning rasmini ham ko'rgan, bu – hukumat uyi edi. Markaziy Qo'mita, bosh irg'ib ko'rsadi Yelizarov.

Bino oldidan o'tisharkan, ertasi kuni ish yuzasidan baayni shu binoga kirishlarini xayollariga ham keltirishmadi. To'g'ri yo'ldan chap tomonga burilganlarida tag'in bir bino Edigey Bo'roning ko'ziga tanish ko'rindi. Bu – Qozog'iston opera teatri edi. Ikki daha so'ng Medeoqa eltuvchi tog' yo'liga qayrilishdi. Shahar markazi orqada qoldi. Yo'l tog'ning toshqin suv'ari to'lib oqayotgan ariqlar yoqalab ketgan edi. Chor taraf-dagi bog'lar gulga burkangandi.

– Chiroyli! – deb qo'ydi Edigey.

– Safaring ayni shu paytga to'g'ri kelganidan xursand-man, – dedi Yelizarov. – Olmaotada bunday fusunkor payt

bo'lmasa kerak. Bu yerlar qishda ham chiroyli bo'ladi. Hozir boshqacha – dil yayraydi, dil.

– Kayfiyating yaxshiga o'xshaydi, – dedi xursand bo'lib Edigey.

Yelizarov unga nigoh tashlab oldi-da, bosh irg'adi, jiddiylashdi, so'ng kulib yubordi.

– Bu bahor o'zgacha, Edigey. O'zgarishlar bahori. Shuning uchun ham, garchi yoshing bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, yashaging keladi. Esimni yig'ib oldik, bosgan izimizga nazar tashlab, o'z kamchiliklarimizni payqadik. Sen hech vaqt yangidan hayot ta'mini totishga intilganmiding?

– Esolmayapman, – soddadilik bilan javob qildi Edigey. – Kontuziyadan keyingi holatimni hisobga olmaganda...

– Ho'kizday baquvatsan-ku! – hazillashdi Yelizarov. – Men boshqa narsa haqida gapiryapman, o'rni kelib qoldi-da. Eshit. Partiyamizning o'zi bor gapki ro'yi-rost aytdi. Men ana shundan, garchi taqdirimda bunga aloqador gap bo'lmasa ham, juda xursandman. Xuddi yoshlik chog'imdagidek ko'nglimda yana yangi umid uchqunlayapti. Yoki bu keksayib qolganimning alomatimikin, a? Nima deysan?

– Afanasiy Ivanovich, men shu masala yuzasidan kelgandim.

– Xo'sh, xo'sh, qanday masala ekan u?

– Balkim, esingizdadir? Men sizga Abutolib Qutitboyev haqida gapirib bergandim.

– Bo'lmasam-chi, esimda Juda yaxshi eslayman. Mana, gap qayvoqda degin. Sen masalaning ildizini ko'ryapsan. Zo'rsan. Paysalga solib o'tirmay darhol kelganingni qara-yal!

– Men emas bularni rejalashtirgan. Ukkubolaning aqli bu. Faqat nimadan boshlash kerak? Qayerga uchrashayin? Shunga...

– Nimadan boshlash kerak? Buni ikkalamiz o'ylashib ko'ramiz. Uyda, choy ustida, bamaylixo'r kengashib olamiz. – Biroz jim qolgach, Yelizarov ma'nodor qilib dedi: – Zamona o'z-garganini qara, Edigey, uch yil oldin shunaga masala yuzasidan bu yoqqa kelish bironing xayoliga ham kelmasdi. Bugun bo'lsa

– hech qanday xavotirsiz... Aslida o'zi shunday bo'lishi lozim. Endi har bir kishi mana shu adolat etagidan mahkam tutishi kerak. Shunday qilaylikki, istisno tariqasida hech kimga hech qanday huquq berilmasin. To'g'rimi?

– Albatta. Sizga hammasi besh qo'lday ma'lum bo'lsa kerak, axir olim odamsiz, – dedi Edigey. – Bizlarda, depomizda bo'lgan mitingda ham shu haqda gapirildi. O'shanda Abutolib esimga tushdi, uning dardi anchadan buyon yuragimning bir chetida turadi. Mitingda so'zga chiqmoqchi ham bo'ldim. Masala nafaqat adolat xususida. Abutolib bechoraning bolalarini aytmasizmi, axir, eslarini tanib qolishdi, kuzda kattasi maktabga boradi...

– Hozir qayerda ular?

– Bilmayman, Afanasiy Ivanovich, dom-daraksiz. O'sha ketishganicha. Yaqinda shungayam uch yil to'ladi.

– Mayli, bu yog'ini o'ylamasa ham bo'ladi. Izlaymiz, topamiz. Hozir hamma gap, yuristlar tili bilan aytganda, Abutolib ishiga oid masalani qo'zg'ashda.

– Ha, dangal gapni aydingiz. O'zi, men sizning oldingizga shuning uchun keldim-da.

– To'g'ri qilgansan.

O'ylaganidek bo'lib chiqdi: Edigey qaytqach, uch hafta o'tar-o'tmas Olmaotadan xat keldi. Unda «Bo'ronli» bekatining sobiq ishchisi, tergov davrida vafot etgan Abutolib Qutiboyev jinoiy ish qilmaganligi uchun to'la oqlandi, deb yozilgan edi. Ha, xuddi shunday deyilgan, hujjat jabrdiyda ishlagan jamoatga o'qib eshittirilishi lozimligi uqtirilgan edi.

Hujjat qatori Afanasiy Ivanovich Yelizarovdan ham xat keldi.

U muhim ahamiyatga molik edi. Edigey uni oltaning kerakli hujjatlari – bolalar guvohnomalari-yu jangovar mukofotlar, frontda yarador bo'lgani haqidagi qaydnoma hamda mehnat tavsifnomalari qatori bir umr saqlab keldi...

Afanasiy Ivanovich unda Abutolib ishi tez ko'rilib, u oqlanganligidan bag'oyat xursand bo'lganligini xabar qilgan edi. Shu faktning o'ziyoq, deb yozgandi u, zamonamiz yaxshilanib

borayotganidan dalolat beradi. Uning ta'biricha, bu bizning o'zimizning ustimizdan o'zimiz qozongan g'alabamiz edi.

Xatning davomida u Edigey qaytqach, ikkalasi birga kirgan o'sha muassasalarga yana borgan, kerakli gaplarni bilib olgani haqida yozgan edi. Birinchiidan, tergovchi Tansiqboyev ishdan bo'shatilgan, xizmat unvoni olib tashlangan, olgan hukumat mukofotlari bekor qilingan va jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ikkinchiidan, unga ma'lum qilishlaricha, Abutolib Qutiboyev oilasi Pavlodarda yashar ekan. (Qarang, taqdir ularni qayovqlarga boshlab ketibdi!) Zarifa maktabda muallimlik qilarg ekan. Oltaviy alvoli: turmush quribdi. Uning yashash joyidan olingan hujjatlarda shunday ma'lumotlar bor emish. Yana u, sening haligi revizor haqidagi shubhalarining Edigey, ishini qayta ko'rib chiqishda tasdiqlandi, deya yozardi, Ma'lum bo'lishicha, aynan shu revizorning o'zi Abutolib Qutiboyevga tuhmat qilgan, hujjatlarni bichib-to'qigan ekan. «Nega u bunchalikka bordiykin? Bunday abtaliikka nima uni majbur qildiynkin? O'zim bilgan voqealarni, sening hikoyalaringni eslab, bu haqda juda ko'p bosh qotirdim, Edigey. Shularni o'ylarkannan, bu adolatsizlik sabablari-yu mohiyatni tushunishga ozmuncha urimnadm. O'ylab o'yimga yetolnadm. Men, bu shaxs o'ziga yetti yot bo'lgan Abutolib Qutiboyevga nisbatan bunchalar nafratni qayoqdan olgan ekan – haligacha ham tushunolmayman. Balki, bu bir illat, muayyan bosqichda odamlarni zaharlaydigan kasallik – epidemiyadir¹. Balki, halokatga olib boruvchi bu xususiyat insonda hasaddan tug'ilar. U huvullab qolgan qalbda to'planarmikin, deb o'ylayman. Yana hayron bo'laman. Axir, Abutolib nimasi bilan boshqalarda hasad uyg'otishi mumkin, deysan? Bu savol hamon jumboqligicha qolib kelayotir. Jazo usullariga kelisak, u ko'hna dunyoning o'zi kabi juda qadimiydir. Kimdir vaqtida bironvi kofir, deb gap tartaqsa yoki chaqimchilik qilsa, bundaylarni Buxoro bozorida toshbo'ron qilishgan, Yevropada esa gulxanda kuydirishgan. O'shanda bu haqda ko'p gaplash-

¹ Epidemiy (yunoncha: epidemia – yalpi, keng tarqalgan (kasallik)) – yuqumli kasalliklarning muayyan hudud uchun g'ayrioddiy tarzda yalpi, keng tarqalishi.

ganmiz, Edigey. Abutolib ishinig qayta ko'rilishi natijasida aniqlangan faktlar yana bir bor shunga amin etdiki, odamlar hali bu iltizdan – inson shaxsiga nafat hissidan qutulish uchun uzoq kurashishlariga to'g'ri keladi. Shunchalar uzoq kurashiladiki, uning qachongacha davom etishini hatto aytish ham qiyin. Hayot shunisi bilan ajoyibki, yer yuzidan adolatni sidirib tashlab bo'lmaydi. Mana, bu safar ham u yana tantana qildi. Juda ko'p qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, tantana qildi! Hamisha, dunyo turguncha shunday bo'laveradi. Men shundan xursandmanki, Edigey, tamagiriksiz adolat tantanasiga erishding...

Edigey bir necha kun shu xatdan olgan taassurotlari bilan yurdi. Ayni paytda o'zidagi o'zgarishdan hayron bo'ldi. Bir qarashda hech narsa o'zgarmaganday, ammo sinchiklab qarasang, nimasidir ancha tiniqlashganday, ulug'vorlashganday tuyuladi. Shunda u ilk daraja, keksalik fastiga kirib borayotganini chuqur his etdi...

Yelizarovning maktubi Edigeyning hayotini belgilaydigan qandaydir bir chegara bo'ldi: maktubgacha kechgan umri, eng muhimi, Zarifaning turmushga chiqqanligini bilib oldi. Bu xabar Edigeyni xayollar girdobiga tortdi. Zarifaning qayterdiligini, bolalari bilan begona odamlar orasida qanday yashayotganligini bilmasa ham, ichki bir tuyg'u sabab, uning turmush qurganiga ishonar, o'zini tinchlantirishga urinardi. Poyezdda Olmaotadan qaytayotganda buni aniq ko'z o'ngiga keltirgan. Nima sababdan shunday xulosaga kelganiga o'zi ham hayron. Ammo shunisi aniqki, qalbida noxushlik sezganidan emas bu, Aksincha, Olmaotadan Edigey yaxshi kayfiyat bilan qaytdi. Yelizarov ikkalasi qayerga kirishmasin, xayrixohlik ila qabul qilishdi. Bu esa o'z-o'zidan qilayotgan ishlarining to'g'riligini, hammasi xayri tugashiga ishonchni oshirdi. Shunday bo'lib chiqdi ham. Edigey Olmaotadan jo'natilgan kuni Yelizarov uni vokzalidagi restoranga, tushlikka olib kirdi. Poyezd jo'nashiga ancha vaqt bo'lganligidan ko'ngilli o'tirishdi, ozroq ichishdi ham, do'stona bahslashishdi ham. Ana o'sha subarda, Edigeyning fahmlashicha, Afanasiy Ivanovich ko'ngil xazinasida saqlab qo'ygan o'y-fikrlarini bayon qildi. U – sobiq moskvalik vatan-

parvar, yigirmanchi yillardayog Turkiston o'lkasiga kelib,

bosmachilarga qarshi kurashgan, bu o'lkada bir umrga ildiz o'tib, palak yoygan, geologiya ilmi bilan shug'ullangan odam butun yer yuzi Oktabr inqilobi boshlab bergan yangi hayotga behuda katta ishonch va umid bilan qaramagan, bu ishonch oqlangan, deb hisoblaydi. Yo'l qo'yilgan xatolar, kamchiliklar qanchalik qimmatga tushgan bo'lmasin ko'z ko'rib, quloq eshitmagan taraqqiyot yo'lidagi olg'a bosish bir daqiqaga ham to'xtab qolmadi – tarixning mohiyati ham mana shunda. Yana u shuni ta'kidladiki, endi bu harakat yangi kuch bilan davom etadi. Jamiyatning o'z-o'zini tuzatish, o'z-o'zini tozalash yo'li bilan ravnaq topishi buning tasdig'idir. «Hamonki biz hali o'z-o'zimizga nuqsonlarimizni ochiq ayta olarkamiz, demak, bizda kelajagimizni ta'minlay oladigan qudrat bor», – degandi o'shanda Yelizarov. O'shanda subatlari bir umrga tatigulik bo'lgan edi.

Ana shu kayfiyat bilan Edigey Bo'ron o'zining Sario'zagiga qaytib kelgandi. Olmaotadan qaytishda yana uning ko'z oldida ancha narida butun Yettisu bo'ylab cho'zilgan ko'kintir-qori Olatov tog'lari paydo bo'lib, u tushgan poyezd bilan birga harakatga tushdi. Yo'lda u Olmaotada bo'lgani to'g'risida o'y-larkan, qandaydir ichki tuyg'u bilan Zarifa allaqachon erga tegib kelgan, deb ko'nglidan o'tkazdi.

Baland tog'larga, yam-yashil dalalarga tikilib, Edigey bu olamda Yelizarov singari ajoyib kishilar borligi, agar so'zi bilan ishi bir bo'lgan shunday odamlar bo'lmaganida, hayoti og'ir kechishini xayolidan o'tkazdi. U tezkor va shunchalik o'zgarib turuvchi zamonaning bevafoiligidan biroz ranjidi. Agar Abutolib tirik qolganida uning bo'yniga qo'yishgan aybni yuvib tashlashtar, balki, o'z oilasi, bolalari bag'rda qayta ko'karib, baXti kulib ketarmidi. Tirik bo'lganida edi! Shu jumlada hammasi jamuljam. Agar u tirik bo'lganida, Zarifa so'ngi nafasigacha kutardi. Bu – turgan gap! Bunday xotin boshiga har qancha kulfat tushsa ham erini kuta olardi. Kutadigan hech kimi, hech vaqosi bo'lmasa, yoshgina juvonga yolg'izlikda yashashning nima keragi bor. Shunday bo'lgach, tengi topilganidan keyin erga chiqadida, nega chiqmasin? Bu mulohazalardan Edigeyning ta'bi xira-

lashdi. U xayolini chalgitmoqchi bo'ldi, o'ylamaslikka harakat qildi. Ammo buning iloji yo'q edi... Shundan so'ng vagon-restoranga kirdi. Bu yerda odam kam. Hamma yoq ozoda, havo sof edi. Edigey deraza yaqiniga borib o'tirdi. O'zini nima bilandir ovuntirish uchun avval bir shisha pivo so'radi. Vagon-restoran keng, bir yo'la tog'larni ham, cho'lni ham, osmonni ham tomosha qilish mumkin edi. Bu – yam-yashil kengliklar bir tomondan cho'qqilari qor bilan qoplangan baland tog'lar ulug'vorligi, ikkinchi tomondan ruhini ko'tarib amalga oshuvchi qiyin bo'lgan orzular sari yetaklagan edi. Endi... Alamlardan ichigisi keldi. U aroq keltirishlarini so'radi. Bir necha qadad ichsa ham, hech ta'sirini sezmad. Shundan so'ng yana pivo buyurdi-da, o'yga toldi. Qosh qorayib borardi. Temiryo'lining ikki tomondagi yerlar qochib borayotgandek ko'rindi. Qishloqlar, bog'lar, yo'llar, ko'priklar, odamlar va podalar ko'z oldidan lip-lip o'tar, bular hammasi Edigeyga sira ta'sir qilmay, xayolini band etgan og'ir g'ashlik kayfiyatini buzib, qalbini ezmoqda edi.

Shu payt yana Raymali og'aning so'zlari esiga tushdi:

***Ko'chmanchilar ketganida qora tog'lardan,
Ko'chmanchilar ketganida moviy tog'lardan,
Kutma meni Sarbozorda, Begimoy...***

Edigey Bo'ron xuddi Raymali og'a kabi o'zini argon bilan qayinga bog'lab qo'yilganday his qildi...

Shu tariqa to qorong'i tushib, vagon-restoran odamlar bilan to'lgunicha va tamaki tutunidan nafas olish qiyinlashguncha o'tirdi. Edigey atrofidagilar nega bunchalik beg'am-betashvish ekanligini, stol atrofida o'tirishib, sariq chagaga arzimaydigan gap-so'z bilan mashg'ulligini, nima sababdan ular aroq va tamakidan huzur-halovat topishlarini sira tushummas edi. Erkaklarga ergashib bu yerga kelgan ayollar ham unga yoqmad. Ayniqsa, kulishlari... U o'midan turdi.

Patnis ko'targancha harsillab yurgan ofitsiantkani¹ cha-

qirib, hisob-kitob qildi-da, kupesi tomon yurdi. Edigey tebranib borar ekan, yolg'izligidan ezilib, o'zini g'ariblardek his qila boshladi.

Yashashning nima keragi bor edi, qayoqqadir borish kimga zarur edi? Endi uning uchun qayerdan kelib qayerga borayotgani, yarim tunda tezyurar poyezd qayoqqa shoshilayotganligining ahamiyati yo'q edi. U qaysi bir vagon tanburida to'xtadi-da,,o'idek yonayotgan peshanasini muzdek oynaband eshikka taqab, hech kimga qaramay, yo'lovchilarga ham e'tibor bermay turaverdi.

Poyezd chayqalganicha ilgariylab borardi. Vagon eshigini ochishi ham mumkin, Edigeyda temiryo'lichilarda bo'ladigan kalit bor... Edigey qorong'ilikda qayerdadir uzoqdan millitlagan ikkita chiroqni ko'rdi. Bu chiroqlar anchagacha ko'rinish turdi. Ular biror uyning derazasidan ko'ringan yorug'mi yoki kichik bir gulxan shu'lasini – bilib bo'lmaydi. O'sha chiroqlar atrofida qandaydir odamlar yurganga o'xshardi. Ular kim bo'ldi ekan? U yerda nima qilib yurishibdi? Eh, o'sha yerda Zarifa bolalari bilan bo'lsa edi! Poyezddan hoziroq sakrab tushib, unga qarab yugurur, bir zunda yetib borib, oyoqlari ostiga yiqilar va hamma dard-alamlarini, gayg'u-hasratlarini ko'z yoshlari bilan to'kar, uyalmay-netmay yig'ilar edi...

Edigey Bo'ron ko'rinnay qolayotgan o'sha gulxanlarga qarab bo'lg'iq ovoqda ingrab yubordi. U tanbur oldida xo'rsinib yig'ilagan ko'yi ancha turib qoldi. Ko'z yoshlari yuzini yuvib tushar edi... Shu payt tanbur eshigi ochilib, u vagonga kirdi... Poyezd chayqalganicha lamon ilgariylab borardi.

***Ko'chmanchilar ketganida qora tog'lardan,
Ko'chmanchilar ketganida moviy tog'lardan,
Kutma meni Sarbozorda, Begimoy...***

...Bu o'lkalarda poyezdlar mashriqdan miag'ribga tomon,

¹ *Ofitsiant (otinish, ofitsiantis – xizmatchi, xizmat qiluvchi) – restoran, kafe*

va shu kabllarda xo'ranchalarga xizmat qiluvchi, ulardan buyurtma olib, ovqat keltirib beruvchi xodim(a).

mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi.

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dastlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi...

Har qanday masofa Grinovich meridianidan o'lchangani singari bu yerlarda masofa temir yo'lga nisbatan o'lchanadi...

Poyezdlar esa mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Malagumdiehop jarligidagi inidan ko'tarilgan kattakon oquyruq-kalxat atrofi kuzatib kelish uchun osmonga parvoz qildi. U o'ziga tegishli yerlarda kuniya ikki marta: tushga qadar va tushdan so'ng kuzatuv parvozi o'tkazardi.

Kalxat sahroni ko'zdan kechirarkan, pasida qimir elgan har bir tirik jonni – o'rnatlab ketayotgan qo'ng'izlar-u epchil kaltakesaklarga cha hamma-hammasini nazar-e'tiboridan o'tkazib, dastlik uzra mag'rur qanot qoqib uchar, cho'l sayhonliklarini yanada kengroq, ravshanroq ko'rish ilinjida tobora balandlikka ko'tarilar, ayni paytda, bir maromda qanot sirpab o'zining xush ko'rib ov qiladigan joyi – yopiq zona tomon yaqinlashib boraverardi. Bu tekislikning chor atrofi o'rab olinganidan keyin turli xil mayda jonivorlar-u parrandalarning soni sezilarli darajada ko'paydi, chunki ularning kushandasi bo'lgan yirtqich hayvonlar bu yoqlarga bimalol kirib kela olmaydigan bo'lib qolgandi. Ammo kalxat uchun bu joyini ko'rish hech qanday pisand emas edi. U o'zining mana shu imkoniyatidan foydalanardi. Bu unga omad keltirdi: uch kun davomida bir quyunchani tepadan turib kuzatdi. Nihoyat uning turgan joyini nishonga olib, o'zini o'qdek otgandi, quyvon epchillik bilan simto'siqning ostiga kirib ketdi, shunda kalxat tikonning ustiga ag'anashiga bir balya qoldi; qanotlari o'tkir tikonlarga ilinib, arang o'zini o'nglab olgancha jon talvasasida osmonga parvoz qildi. Ko'ksidan ilinib chiqqan patlari havoda to'zg'iganicha qoldi. Shu bo'yi sim to'sig'laridan uzogroqda uchadigan bo'ldi oquyruq.

O'sha soatda mag'rur, bu yerlarning hokimidek, yerdagi jonzo'larni biror ortiqcha harakati bilan cho'chitmay, sokin parvoz qilardi. Ertalab birinchi parvozi va tushdan keyingi ikkinchi

parvozi davomida kosmodromning beton yotqizilgan keng dala-

sida odamlar-u mashinalarning gayjumlashib qolganini payqadi.

Mashinalar nari-beri yurar, raketalar turgan qurilmalarning yonida ko'proq uymalashardi. Osmonga qarab qo'yilgan bu raketalar allaqachonlardan beri o'z maydonchalarida alohida-alohida turishar, kalxat ham ko'pdan beri ularga ko'nikib qolgan edi. Biroq bugun bu yerda nimadir sodir bo'layotgandi. Mashinalar ham ko'p, odamlar ham ko'p, g'ala-g'ovur...

Hatigi tuyu minib dala kezib kelayotgan odam ham, ikkita shalog'i chiqqan traktor ham, palmog' malla it ham kalxatning nazar-e'tiboridan chetda qolmadi. Ular tikantli sim to'sig'i oldida o'tolmay turishar edi. Malla it o'zining behuda yurishi bilan kalxatning g'ashini keltirayotgandi, ayniqsa, odamlar orasida o'ralashib yurishi unga yoqmadi. Oquyruq bamaylixtir aylanarkan, endi bu yog'i nima bo'ladi, malla it odamlar orasida dumini likillatib yana nima qilmog'chi ekan, deb uni ta'qib ostiga olgancha kuzatardi.

Edigey sog'olini selkillatib osmonga qararkan, falakda parvoz qilib yurgan kalxatga ko'zi tushdi. «Oquyruq ulkan ekan, – deya o'yladi o'zicha. – Eh, qani kalxatga aylanib qolsam, kim yo'limni to'sa olardi, bimalol uchib borib. Ona Bayit maqbarasiga qo'nardim!...» Shu payt oldinda, yaqinlashib kelayotgan mashinaning ovozi eshitildi. «Kelyapi! – deya xursand bo'lib ketdi Edigey Bo'ron. – Ishqilib, ishimiz o'ngidan kelsin-da!» «Gazik» ko'tarma g'ovning yoniga shitob bilan keldi-da, qorovulxona eshigi oldida taqqa to'xtadi. Qorovul mashinaning yaqinlashishini kutayotgandi. U shu zahotiyoq qaddini g'oz tutib, «Gazik»dan tushgan qorovullar boshlig'i leytenant Tansiqboyevga chest berdi-da, bo'lib o'tgan voqealardan xabardor qildi:

– O'troq leytenant, sizga ma'lum qilamanki...

Ammo qorovullar boshlig'i ishora bilan uni to'xtatdi, sog'chi so'zining yarmida qo'lini chakkasidan tushirarkan, ko'turma g'ovning narigi tomonida turganlarga o'girildi.

– Begona odamlar shularmi? Kim meni kutyapti? Sizmi? – so'radi u Edigey Bo'ronga qarab.

– Biz, bizg'oy, qarag'im. Ana-Beyike jelpoy tush qal-

diq. Qalayda bo'lsa, jardamdesh, qarag'im¹, – dedi Edigey ko'kragidagi ordenlariga yosh ofitserning ko'zi tushishiga harakat qilib.

Leytenant Tansiqboyevga buning hech qanday ta'siri bo'lmadi, u shunchaki yo'talib qo'ydi, keksa Edigey yana qayta gapirishga og'iz juftlaganda esa sovuqgina ohangda:

– O'rtoq begona odam, menga rus tilida murojaat qiling. Men hozir xizmadaman, – tushuntirgan bo'ldi u chag'ir ko'zlari ustidagi qora qoshlarini chimirib.

Edigey Bo'ron uyali b ketdi:

– E-e, uzr, uzr. Xato qilgan bo'lsam, kechir meni, – dedi-yu, o'zini yo'qotib, gapirmoqchi bo'lgan gapini ham esidan chiqarib jim qoldi.

– O'rtoq leytenant, iltimosimzni bayon qilishimizga ruxsat bering, – cholni xijolatdan qutqarish uchun murojaat qildi Edilboy Daroz.

– Bayon qiling, faqat qisqacha, – ogohlantirdi qorovullar boshlig'i.

– Bir daqiqa. Bundan marhumning o'g'li ham xabardor bo'lsin. – Edilboy Daroz Sobitjon tomonga o'girildi. – Sobitjon, hoy Sobitjon, bu yoqqa qara!

Ammo nari-beri yurib turgan Sobitjon o'zini chetga olib, loqaydlik bilan qo'l silkitib qo'ydi.

– O'zlaring gaplashaveringlar.

Edilboy Daroz xijolat tortganidan qizarib ketdi.

– Kechirasiz, o'rtoq leytenant, u ishning bunaga bo'lib turganidan xafa. Qariyamiz marhum Kazangapning o'g'li shu. Uning kuyovi ham birga kelgan, huv ana, o'tiribdi.

Kuyov bola o'zini chaqirishyapti deb o'yladimi, tirkalma aravadan tusha boshladi.

– Mayda-chuyda gaplarning menga keragi yo'q. Masalaning mohiyatini ayting, – dedi qorovullar boshlig'i.

¹ Biz, bizg'oy, qarag'im. Ana-Beytike jetpey tursih qalldiq. Qalayda bo'lsa, jardamdesh, qarag'im – Biz, bizniz qarag'im, Ona Bayitiga yetolmay qoldik. Qanday bo'lsa ham yordamini ayama, qarag'im.

– Yaxshi!

– Qisqa va tartib bilan so'zlang.

– Yaxshi. Qisqa, tartib bilan so'zlayman.

Edilboy Daroz bo'lgan vogueani: kim ekanliklarini, qayerdan kelayotganlarini, bu yerga nima uchun va qay maqsad-da kelganlarini bir boshdan gapirib berdi. U gapirayotgan paytda Edigey leytenant Tansiqboyevning yuziga sinchkov razm solib, undan biron-bir yaxshilik chiqmasligini sezdi, u ko'tarma g'ovning narigi tomonida, shunchaki bu begona kishilarning arziini tinglash uchungina qulog' solib turardi. Edigey buni payqab, yuragi orqasiga tortib ketdi. Kazangapning o'limi bilan bog'liq bo'lgan ishlarning hammasi – yo'lga chiqish taraddudi, marhumni Ona Bayitga qo'yish zarurligini aytib yoshlarni ko'ndirguncha ona suti og'zidan kelgani, o'zining butun o'y-xayollari, Sario'zak tarixi bilan bog'liq bo'lgan barcha voguea-hodisalar – mana shularning barchasi bir lahza Tansiqboyev oldida foydasiz, chaqaga ham arzimaydigan narsaga aylandi-qoldi. Edigey ezuq niyatlari barbod etilib haqoratlanganday bo'ldi. Kechagina aroqqa shubat qo'shib ichib, xudolar-u radio bilan boshqariladigan odamlar haqida safsata so'tib, bo'ronliklarni o'z bilimdonligi bilan qoyil qoldirmoqchi bo'lgan qo'rtoq Sobitjonning ayni paytda o'zini chetga olib, lom-mim demay turishini ko'rgan Edigeyning bir yig'lagisi va bir kulgisi keldi! Qororning popuki yopiq yopib behuda yasatilganligini ko'rib ham xo'rliqi keldi – kimga va nimaga keragi bor edi endi uning! Ona tilida so'zlashni xohlamagan yoki bundan cho'chigan kimsa, leytenantcha Tansiqboyev Qoranor ustidagi marosim jilozlarining qadriga qayvoqdan yetisin! Kazangapning bechora piyonista kuyovi kechadan beri og'ziga bir tomchi ichlik olmay, shaqiragan tirkalma aravada marhumning yonida bo'lish maqsadida keldi, endi esa qabristonga o'tkazib yuborishar, degan umidda tobutning yoniga o'tib turdi – buni ko'rib Edigeyning bir yig'lagisi va bir kulgisi keldi. Hatto mana shu malla iti Yo'lbarsni ko'rib ham Edigeyning bir yig'lagisi va bir kulgisi keldi. Axir, it nima uchun o'z erki-la ularga ergashdi, nima uchun chidam bilan ularning yana yo'lga chiqishlarini kutib o'tiribdi? Xo'sh, bu ishlarning

itga nima daxli bor? Balki, boyaqish it xo'jayinining shunday ahvolga tushishini oldindan his qilib, shunday paytda yonida bo'lish uchun birga kelgandir. Ana kabinalarda traktorchi yosh yigitlar Qalibek bilan Jumag'ali o'tiribdi — endi ularga nima deydi?

Xo'rlandib, yurak-bag'ri ezilgan Edigey g'azabga to'lib, yuragida goni jo'shib ketayotganligini va unga erk berish g'oyatda xavfli ekanligini yaqol sezgani holda o'zini itroda kuchi bilan bostirishga, alaminini ichiga yutishga harakat qilardi. Yo'q, o'zini qo'lga olmasdan boshqa iloji yo'q edi, chunki uning yonida tirkalma aravada hali dafn etilmagan o'lik yotardi. Keksa kishining o'kirib-baqirib ovoz solishi odatdan emasdi. U shu daqiqalarda qalbida nimalar kechayotganini sirtiga chiqarmaslikka intilib, tishini-tishiga qo'yib turardi.

Edigey kutganiday Edilboy Daroz bilan qorovullar boshlig'ining subhati ana-mana deguncha, aksiga burila boshladi.

— Yordam berolmayman. Zona ichkarisiga kirish begona kishilar uchun qat'iyan man qilingan, — dedi leytenant Edilboy Darozning so'zini tinglab bo'lgach.

— Bundan xabarimiz yo'q, o'rtog' leytenant. Bilganimizda shuncha yerdan kelib ovora bo'larmidik? Hamonki, ovora bo'lib kelgan ekanniz, katta boshlig'ingizdan iltimos qiling, marhumni ko'mishga ruxsat bersin. Axir, uni qaytarib olib ketolmaymiz-ku.

— Men bu haqda xabar qilganman. Qanday bahona bilan bo'lmasin, hech kim ichkariga kiritilmasin, degan ko'rsatma oldim.

— Bahona deganing nimasi, o'rtog' leytenant? — hayron bo'ldi Edilboy Daroz. — Bahona qidirishning nima hojati bor? Iltimiz adashibdimi, buning nima qizig'i bor bizga? O'lik bo'lmaganda, shuncha yo'lga ovora bo'lib kelib yurarmidik?

— Sizga yana bir bor aytyapman o'rtog', begona odam, bu yozga hech kim qo'yilmaydi.

— Begona deganing nimasi! — deya kutilmaganda so'z qotidi shu paytgacha indamay o'tirgan piyonista kuyov.

— Kim begona ekan? Biz begonamizmi? — dedi u zahil yuzi qizarib, lablari ko'kargancha.

— Ha-ya, qachondan beri biz begona bo'lib qoldik? — Uni quvvatladi Edilboy Daroz.

Odob chegarasidan chiqmaslik uchun piyonista kuyov ovozini balandlatmadi, faqat o'zining rus tilini yomon bilganligidan tutilib, so'zlarini to'g'riylab davom etdi:

— Bu bizning Sario'zak qabristonimiz. Sario'zak xalqi odamlarini shu yerga dafn etishga haqlimiz. Bir zamonlar Nayman ona bu yerga ko'milganida yopiq zona bo'ladi, deb kimning xayoliga kelibdi, deysan!

— Men sizlar bilan bahslashib o'tirmoqchi emasman,

— dedi qat'iy leytenant Tansiqboyev. — Ayni paytda, qorovullar xizmatining boshlig'i sifatida yana bir karra aytamanki, qo'riqlamayotgan zona hududiga hech kim, hech qanday sabab bilan kiritilmaydi!

Hamma jimib-qoldi.

«Ishtiqilib, o'zinni tutib turayin-da, uni so'kib yubor-masam bo'lgani!» — dedi Edigey Bo'ron o'z-o'ziga qasam ich-ganday bo'lib. U bir lahza ko'kka qararkan, yana uzoqda ohista uchib-aylanib yurgan o'sha kalxatga ko'zi tushdi. Bu gal ham erkin, kuchli qushga havasi keldi va nihoyat, «Endi bo'lar ish bo'ldi, qaytib ketishga to'g'ri keladi, zo'rlik bilan ish bitmaydi», degan qarorga keldi. Kalxatga yana bir nazar tashlab olarkan, leytenantga dedi:

— O'rtog' leytenant, mayli, biz qaytib ketamiz. Ammo kattangiz generalni, undan kattaroqmi, aytib qo'ygin — noto'g'ri qilyapsizlar! Men bir kekse askar sifatida aytyapman — bu ishlarim noto'g'ri!

— Nima to'g'ri-ya, nima noto'g'ri — yuqoridan berilgan buyruqni muhokama qilishga mening haqqim yo'q. Yana bundan keyin bilib qo'yishlaringiz kerak — buni aytib qo'yish menga buyurilgan: qabriston tugatishi lozim ko'rilgan!

— Ona Bayit-a? — hayratlandi Edilboy Daroz.

— Ha. Agar u shunday deb atalsa.

— Nima uchun? Mozor kimga xalag'i beryapti? — g'azablandi Edilboy Daroz.

— U yerda yangi shaharcha quriladi.

– Barakalla! – deya qo'llarini yozdi Edilboy Daroz. – Nima, sizlarga boshqa joy qurib qoldimi, yer yetishmayaptimi?

– Loyihada shunday ko'zda tutilgan.

– Menga qara, sening otang kim o'zi? – so'radi Edigey Bo'ron leytenant Tansiqboyevga tikilib qaragancha.

Leytenant hayratga tushdi.

– Bunisi nimaga kerak bo'lib qoldi? Ishingiz nima?

– Ishim shuki, sen bu gapni bizga aytmasdan, mo'zori-mizni buzmoqchi bo'lganlarga tushuntirish kerak edi. Yoki sening ota-bobolaring o'lmaganmi, yoki o'zing hech qachon dunyodan o'tmaysanmi?

– Ishga buning hech qanday tegishi joyi yo'q.

– Yaxshi, bo'lmasa, ishdan gaplashaylik. Unda kel, o'troq leytenant, sizlarda kim eng katta boshliq bo'lsa, o'shanga ayt, arzimni tinglasin. Men eng katta boshliqqa shikoyatimni aytishga ruxsat berishlaringni talab qilaman. Aytginki, keksa frontchi, Sario'zaklik Edigey Jonkelidning unga ayadigan ikki og'iz gapni bor!

– Men bu ishini qilolmayman. Nima qilishim belgilab qo'yilgan.

– Sen nimani hal qilolasan? – yana gapga aralashdi piyonista kuyov. – Bozordagi melisa ham sendan yaxshiroq muomala qiladi.


– Beboshlikni bas qiling! – dedi qaddini g'oz tutib, rangi o'chib qorovullar boshlig'i. – Bas qiling! Manavini simto'siqdan olib tashlab, yo'lni traktordardan bo'shat.

Edigey bilan Edilboy Daroz piyonista kuyovning qo'ltidan olib, bir chekkaga, yo'ldagi traktorlar tomonga tortishdi. U bo'lsa endi orgasiga o'g'irligancha qichqirardi:

– Senga yo'l ham yetmaydi, yer ham! Tupurdim sendaylarga...

Shu paytgacha og'ziga mum solib, bir chekkada u yoqdan bu yoqqa xomush yurib turgan Sobitjon endi o'zini ko'rsatib qo'ygisi keldi:

– Qalay? Darvozaga yetganda, orqalaringga tepishdimi? Shunday ham bo'lishi kerak edi! Ona Bayit, Ona Bayit, deb rosa



uchib-qo'ndilaring! Mana sizlarga Ona Bayit! Mana endi kaltaklangan idek bo'ldilaringmi?

– It deganing kim o'zi? – deya jahldan arang o'zini bosib turgan piyonista kuyov Sobitjonga tashlandi. – Agar oramizda it bo'ladigan bo'lsa – o'sha sening o'zingan, ablah! Anavi it nima-yu, sen nima? Yana maqtanganiga o'laymi, men davlatning odami, davlatning odami deb! Sen umuman odam emassan!

– San piyon, tilingni tiy! – qichqirib po'pisa qildi Sobitjon postdagilar ham eshitisin deb ovozi balandlatib, – men ularning o'rinda bo'lganimdami, sendek muttahanni shu gaplaring uchun olib boradigan joyimga olib borardim, toki arvohing ham qaytib kelmaydigan qilib! Senlardan jamiyatga nima foyda, senga o'xshaganlarni yo'qotish kerak!

Shu gaplarni aytib bo'lib, Sobitjon orgasiga o'g'irildi, bu bilan u senga ham, yoningdagilarga ham tupurdim, degandek birdan faollashib, qattiqgo'lib boshliqlardak baland ovozdagi traktorlarga baqira boshladi:


– Sizlar nega angrayib turibsizlar? Qani, traktorlarni yurgizinglar-chi! Qanday kelgan bo'lsak, shunday ketamiz. Jin ur-sin! Qani ortga bur! Yetar endi! Senlarning gapingga kirib ahmoq bo'lganim qoldi!

Qalibek traktorini o't oldirib, sekin yo'lga bura boshladi, shu payt piyonista kuyov tirkalma aravaga sakrab chiqib, marhumning yonidan yana o'z joyini egalladi. Jumag'ali esa Edigey Bo'ron o'z Qoratorini ekskavator cho'michidan yechib olishini kutib turardi.

Buni ko'ra-bila turib, Sobitjon yana qichqirdi:

– Sen nega qarab turibsan? O't oldir, hechqisi yo'q, orgaga bur! O'lganni ko'mish shunaga bo'lar ekan-da, e-e! Boshda aytgan edim-al! Bas! Yetar endi! Uyg'a haydal!

Edigey Bo'ron tuyaga minish uchun yerga cho'ktirib, jabduqlab uni o'midan turg'izgancha, traktor kutib turmasdan kelgan yo'lidan ancha ilgariab ketdi. Ularni birinchi traktorning kabinasiga o'tirib olgan Sobitjon shoshiltirgan edi...



Falakda hamon o'sha kalxat aylanib yurardi. U balanddan turib hali ham o'zining bema'ni harakatlari bilan g'ashini kelirayotgan malla imi kuzatardi. Traktorlar qo'zg'alganda it nega ularga ergashmay tuyali kishi yonida qoldi, odam tuyaga minib olguncha kutib turdi-da, so'ng oridan yo'rtta boshladi — bu hol kalxat uchun jumbog' edi.

Oldinda ikki traktor, ularning izidan tuyali kishi, ortidan esa yo'rtib borayotgan malla it — hammalari Sario'zak cho'li bilan Malaqumdichop jarligi tomon borishardi. Malaqumdichopning suv o'yib ketgan quyi bir qismida kalxatning imi bor edi. Boshqa paytda bo'lganda kalxat bezovtalanib, olisdan bo'lsa-da ko'zini uzmay, kurkurlashib ovoz chiqarib, parvozini tezlashtirib, o'ziga qarashli qonuniy yerlardan ov qilib yurgan modasini yordamga chaqirar, har ehtimolga qarshi o'z imini birgalikda qo'rtqardi. Ammo bu safar oqquyruq-kalxat bezovtalanmadi, chunki bolalari allaqachon palapon bo'lib, uyani tark etishgan edi. Hozir bu qahrabo ko'zli, qayritima tumshuqli kalxatchalar kundun kunga to'lishib, qanoatlari kuchga kirib, allaqachon, mustaqil hayot kechira boshlagan. Sario'zak kengliklarida o'z yerlariga ega bo'lib, hatto bu keksa kalxatning o'zini ham, yo'ltayotgan ularning o'lkalariga ko'z tashlab o'tishini ham xush ko'rishmasdi...

Kalxat odatiga ko'ra, o'z yerlarida qimirlagan har bir tirik jomni kuzatganiday, orqaga qaytayotgan odamlarni kuzatishda davom etdi. Ayniqsa, odamlardan sira ajralmasdan birga yurgan o'sha malla, palmog'ining harakatlari unda alohida qiziqish uyg'otayotgandi.

Imi bu odamlarga nima bog'lab turgan ekan? Nega u o'zicha ovini qilib yuravermasdan, o'z ishi bilan band bu odamlar ortidan dumini ikkillatib chopgani-chopgan? Bunday yashashning unga nimasi yaxshiykin? Yana kalxatning diqqatini tuyada ketayotgan odamning ko'ksidagi allaqanday yaltiroq narsalar ham tortdi. Shuning uchun ham kalxat tuyali odamning traktorlar izidan keta turib o'z yo'lini keskin o'zgartirganini ham payqadi. Traktorlar aylanib borguncha, soy orqali yo'lini kesib o'tmoqchi bo'ldi-yov.

Bu odam gannchisini o'ynatib tuyasini tobora qichab haydar, shunda ko'ksidagi yaltiroq narsalar sapchib, jiringlagancha ovoz chiqarar, tuyasi katta-katta odimlab, yo'rtib borar, malla it ham ularning ortidan sakrab chopar edi. Tuva mingan odam Malaqumdichop darasiga olib boradigan yo'lini kesib chiqqunga qadar oradan ma'lum vaqt o'tdi. Shu orada traktorlar ham yoniga kelib to'xtashdi:

— Nimaga gap? Yana nima voguea sodir bo'ldi? — deya so'radi kabinadan boshini chiqarib Sobitjon.

— Hech narsa. Motorni o'chir, — buyurdi Edigey Bo'ron.

— Gap bor.

— Yana qanaqa gap? Yo'lini to'sma, shuncha sayr qilganimiz yetarli!

— Yo'lini o'zing to'sib turtibsan. Kazangapni ana shu yerga dafn etamiz.

— Yetar shuncha xo'rlik! — deb qizishib ketdi Sobitjon ushlanaverib mijig'i chiqib ketgan galstugini tortqilab. — O'zim ko'maman bekatga olib borib, gap tamom.

— Sabr qil, Sobitjon! Bu sening otang, hech kim buni inkor qilmaydi. Ammo bu dunyoda faqat yolg'izsen o'zing yashamaysan-ku. Sen, har qalay, o'zingdan kattaning gapiga quloq sol. U yerda nima bo'lganini o'zing ko'rding. Hech qaysimiz bunday bo'lib chiqishiga aybdor emasmiz. Sen boshqa narsa haqida o'ylab ko'rgan. Qayerda ko'rgansan, o'likni o'z uyiga qayta olib kelishganini? Bunaqasi hech zamonda bo'lmagan. Bu bizning sha'nimizga dog' bo'lib tushadi...

— Men tupurdim bularning hammasiga, — e'tiroz bildirdi Sobitjon.

— Hozir sen shunday deysan. Jahl ustida nimalar deyilmaydi. Ammo ertaga uyaliq qolasan. Yana bir o'ylab ko'r. Uyat o'limdan qattiq, ismoldi hech nima bilan yuvib bo'lmaydi. Uydandan olib chiqilgan o'likni yana qaytarib olib kelmaydilar, axiri! Shu paytda Edilboy Daroz ekskavator kabinasidan tushdi, piyonista kuyov ham tirkalma aravadan tushib keldi, ekskavatorchi Jumag'ali ham nima gapligini bilish uchun yaqinlashdi. Edigey Bo'ron Qoronor ustida ularning yo'lini to'sib turardi.

– Gapga quloq solinglar, yigitlar, – dedi u. – Odam-zotning urf-odatlariga qarshi bormanglar, tabiatga qarshi zid ish qilmanglar! Mozordan o'likni orqaga qaytarish hech qachon bo'lmagan ish. Kimniki ko'mishga olib ketildimi, ko'mib kelinishi kerak. Boshqacha yo'l bo'lishi mumkin emas. Mana, Malagundichop jartigi. Bu ham bizning yerimiz, Sario'zak yerlari! Mana shu Malagundichopni tayanch bilgan Nayman ona marsiya aytib, zor qaqshab yig'lagan. Edigey qariyalarining gapiga quloq solinglar. Kazangapning qabri shu yerda bo'lsin. Mayli, meni ham shu yerga ko'mingiz. Xudo xohlasa, o'zlaring ko'masizlar. O'tinib so'rayman sizlardan buni. Hozir esa hali kech emas, vaqt bor – hu ana u yerga, jarting tepasiga marhumni dafn etamiz!

Edilboy Daroz Edigey ko'rsatgan joyga ko'z tashladi.

– Nima deysan, Jumag'ali, ekkavatoring o'toladimi? – so'radi u.

– Ha, o'toladi, nega o'imasin. Hu narigi tomondan o'tish mumkin.

– To'xta, narigi tomoning nimasi! Sen avval mendan so'ral – gapga aralashdi Sobitjon.

– So'rayapmiz-ku, – deb javob qildi Jumag'ali. – Eshitingmi Edigeyning nima deganini? Senga yana nima kerak?

– Yetar endi hazil-mazaxlaring! Yana tahqirlashmi? Qani, ketdik bekatga.

– Marhumni mozordan uyga qaytarib olib ketamiz deyishingning o'zi haqorat emasmi? – dedi Jumag'ali. – Shunday ekan, yaxshilab tanangga o'ylab ko'r.

Hamma jim qoldi.

– Bo'lmasa, – dedi Jumag'ali, – sizlar bilganlaringizni qilinglar, men esa qabrni qaziyverayin. Mening vazifam qabrni chuqurroq qilib qazish. Hozircha vaqt bor. Qorong'ida hech kim bu ishni bajara olmaydi. Sizlar bu yerda janjallashib turaveringlar.

Shunday dedi-yu, Jumag'ali o'zining «Belorus» ekskavatori tomon yurib, tezda motorni yurgizdi va traktorni yo'lning chekkasiga burib Malagundichop qirliqi tomon ko'tarila bosh-

ladi. Uning ketidan Edilboy Daroz, so'ng Qoranorida Edigey Bo'ron yura boshladi.

Piyonista kuyov traktorchi Qalibekka dedi:

– Agar bu yoqqa yurmaydigan bo'lsang, – u jartik tomonga ishora qildi, – traktorning ostiga o'zinni tashlayman. Bu men uchun hech gapmas. – Shunday deya traktorchi oldida tik turib oldi.

– Nima qilay, qayoqqa hayday? – deb so'radi Qalibek Sobitjondan.

– Hammalari ablahlar, hammalari ifte'llar! – so'kinardi Sobitjon. – Nega qarab turibsan, yurgiz traktoringni, hayda o'shalarining ketidan!

Osmondagi kalxat endi odamlar jarlik tepasida g'imirlashayotganini kuzadi. Mashinalardan biri joyida turib olib, xuddi o'z ini oldidagi yumronqoziqday yerni kovlab, oldiga tuproq uya boshladi. Shu payt orqadan tirkalma aravali traktor chiqib keldi. Unda hali ham o'sha bir odam oq namatga o'ralgan g'alati, harakatsiz narsa yonida yolg'iz o'tirardi. Malla, pahlmoq it odamlar yonida suykali yurardi-yu, ko'pincha tuya yoniga borib, oyoqlari ostiga yotib olardi.

Kalxat bu kelganlar yer qaziyotganini ko'rib, ular hali bu jarlikda uzoq turib qolishlarini sezdi. U ohista qanot qoqib bir tomonga burildi-da, dastlik uzra keng doira yasab, yopiq zona tomon ov qilib kelish va yo'l-yo'lakay kosmodromda nima voqealar bo'layotganini bilish uchun uchib ketdi.

Mana, ikki kundirki, kosmodromda kecha-yu kunduz ish to'xtamasdi. Butun kosmodrom barcha maxsus xizmat postlari-yu zonalarini kechalari yuzlab kuchli proyektorlar bilan yoritilib turardi. Yer sahni kunduzgidan ham yorug', o'nlab og'ir, yengil va maxsus mashinalar, ko'plab olim-u injenerlar! «Chambarak» operatsiyasini tayyorlash ishi bilan band edilar.

Fazoda uchuvchi apparatlarni urib tushirish uchun tayyorlangan raketalar allaqachonlardan beri osmonga qadalgan

¹ *Injener* (Fransuzcha: *ingenieur* yoki *l'ingénieur*; *ingenium* – tug'ma xislat, aql, fikrkorlik) – texnikaning bitor sohasi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis, muhandis.

kosmodromning maxsus maydonchalarida turishardi. Ammo bu raketalar OSV¹ – 7 bitimiga ko'ra, maxsus shartnoma vaqi tugagunga qadar ishlatmaslik maqsadida to'xtatib qo'yilgan edi. Amerika tomoni ham shunday qilgandi. Endi ular «Chambarak» transkosmik operatsiyasini o'tkazish uchun favqulodda dasturga muvofiq o'zining yangi vazifasida qo'llanishi mumkin. Xuddi shunday robot-raketalar «Chambarak» operatsiyasi bo'yicha sinxron uchirishga mo'ljallab Amerikaning Nevada kosmodromida ham tayyorlanayotgan edi.

Sario'zak kengliklaridan uchiriladigan raketa starti kechki soat sakkizga mo'ljallangan. Roppa-rosa sakkiz-u nol-nolda raketalar start oladi. Shundan keyin har bir yarim daqiqa oraliqda uzoq kosmosga yo'l-dosh urib tushiruvchi to'qizta Sario'zak raketasini yo'l olishi, ular G'arb – Sharq halqasi yasab, Yer shari ustida hamisha harakaida bo'lgan chambarak hosil qilishi va o'zga sayyoralaridan keladigan uchuvchi apparatlarga qarshi turishi lozim edi. Nevadaalik robot-raketalar esa Shimol – Janub halqasi hosil qilish vazifasi yuklangan edi.

Roppa-rosa tushki soat uchda «1-Sario'zak» kosmodromida «Besh daqiqa»lik nazorat start oldi tizimi ishga tushirildi. Har besh daqiqada barcha ekranlar-u tablolar² ovozdublyajlari³ bilan ogohlantiruvchi quyidagi yozuv paydo bo'lar-di: «Startga to'rt soat ellik besh daqiqa bor! Startga to'rt soat ellik daqiqa bor!..» Startga uch soat qolganda «Daqiqa» tizimi ishga tushirilishi kerak edi.

Bu orada «Partiet» samoviy bekat o'zining koinotdagi uchish parametrlarini o'zgartirishga ulgurdi va shu orada 1 – 2 va 2 – 1 partiet-fazogirlar bilan hech qanday aloqa qilmaslik uchun bekatning bort tizimidagi radioaloqa kanallarining kodi

¹ OSV (ruscha: Об ограничении стратегических вооружений) – Strategik qurallarni cheklash.

² Tablo (fransuzcha: tableau – surat, tasvir, kartina; e'lonlar taxtasi) – tekshirish obyektingin atrofi yoki musobaqaning borishi va natijalari, tijorat xabarlari va e'lonlari yozib ko'rsatib turiladigan signal taxtasi.

³ Dublyaj (fransuzcha: doublage – ikki marta, ikki karta ko'paytmoq) – boshqa bir tilidagi ovozi filmni ikkinchi bir tilga tarjima qilib, dialoglar tarjimasini film qahramonlari og'iz harakatiga moslashtirgan holda yaratilgan fonogramma.

yangilandi.

Ayni paytda, koinotdan huda-behudaga 1-2 va 2-1 partiet-fazogirlarning uzluksiz radiosignallari aloqani uzmaslikni o'tinib so'rashar edi. Ular Qo'shmarboshning qaroriga e'tiroz bildirmay, To'qayto'sh taraqqiyoti bilan bog'lanish muammolarini qayta-qayta o'rganishni taklif qilishar, bundan, birinchi navbatda, yerliklar manfaatdor bo'lishlarini ta'kidlashar, birdan shoshma-shosharlarcha favqulodda choralar ko'rmaslikni, ularning bunday tadbirlari har ikki tomon galaktikalararo manfaatdorlikka bo'yusundirilishi lozimligini; biroq «Chambarak» operatsiyasini to'xtatilsin, negaki bu operatsiya har ikki tomon munosabatlari qayta rahna solishini va umuman, butun Yer atrofini keng miqyosda halqa bilan o'rab olish insoniyatga koni zarar va buning uchun kamida minglab yillar talab qilinishini uqtirishdi. Ammo endi kech edi... Bu olamda hech kim ularning ovozi eshitmas, bu olam kengligida ovozlari unsiz chiqayotgani hech kimning xayoliga ham kelmas edi...

Bu paytda «1-Sario'zak» kosmodromida allaqachon «Daqiqa» tizimi ishga tushirilgan, qaytarib bo'lmaz «Chambarak» operatsiyasi boshlanishiga esa sanoqli daqiqalar qolgandi...

Kalxat navbatdagi kuzatuv parvozida tag'in Malaqum-dichop jarligi tepasida paydo bo'ldi. Odamlar hamon o'z ishlari bilan band, belkuraklarda yer qazishardi. Ekskavator bo'lsa katta tuproq uyumini qazib chiqargan, endi cho'michini xandaqning chuqur yerigacha cho'zib, so'nggi tuproq qoldiqlarini olayotgandi. Oxiri tarillashini sekinlatdi-da, bir chetga chiqdi, odamlar bo'lsa, xandaqning tubiga tushib olib, yana qo'shimcha nimani-dir kavlay boshladilar. Tuya o'z o'mida turar, ammo malla it ko'rinnasdi: qayoqqa ketishi mumkin? Kalxat yaqinlab uchib, jarlik tepasida ohista aylandi, boshini goh o'ngga, goh chapga burib qaradi, nihoyat, malla itning tirkalma arava ostida, shundogina g'ildiraklarning yonginasida cho'zilib yotganini ko'rdi. U dam olayotganga o'xshaydi, balki, mudrayotgandir? Kalxat bilan uning qancha ishi bor? Kalxat ustidan kun bo'yi necha bor aylanib uchib o'rdi, u bo'lsa biror marta boshini ko'tarib osmonga qaramadi ham. Hatto yumronqoziq ham tik turib olib, biron

xavf-xatar yo'qmikin, degandek tevarak-atrofga sinchkov qarab olgandan so'ng osmonga bir qarab oldi. It bo'lsa, odamlar orasida yashashga o'rganganligidanni, hech nimadan xavotirlanmaydi ham, tashvishi ham yo'q. Kerilib yotganiga qaramay-senga! degandek dum o'sidan pirt etkazib oq-ko'kish paralo-g'ini oldi va yana yengil parvoz qilaverdi. Nimadir osmondan Edigey Bo'ronning yengiga tap etib kelib tushdi. Qarasa, qushning axlati ekan. Bu qayodan tushdi? Edigey yengini qoqib tashladi-da, boshini ko'tarib osmonga qaradi. «Yana o'sha oqquyruq, o'shaning o'zi. Boyadan beri tepadan ketmay uchib yuribdi. Bu nimaning alomati bo'lsaykin? Unga qanday mazza-yal Havoda qanot sirpab suzib yuribdi». Uning xayolini chuqur-ning tubidan qiyirgan Edilboy Darozning ovozi bo'ldi:

– Qalay, Edike, qarab ko'r-chi! Bo'ladimi yoki yana qaziyveraymi?

Edigey qovog'ini solganicha, qabrning chekkasidan enkayib qaradi.

– Nariqi burchakka o't, – dedi Edilboy Darozga qo'lib bilan ishora qilib. – Sen esa, Qalibek, chigaver, barakalla senga. Nazarimda chuqurligi yetarli bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, Edilboy, lahadni yana biroz kengaytir, «O'lsang go'ring kengroq bo'lsin» degan naql bor musulmonlarda,

Edigey Bo'ron ishini buyurgach, suv to'la kichik yoqilg'i solinadigan idishni oldi-da, ekskavatorning nariqi yog'iga o'tib, odat bo'yicha namoz oldidan tahorat oldi. Mana shundagina uning ko'ngli ozmi-ko'pmi taskin topdi: har qalay, Kazangapni Ona Bayitga ko'mishning imkoni bo'lmagan esa-da, harna bo'lganda ham isnodga qolishmadi. Jasadni dafn etolmay, uyga qaytarib ketishmadi. Agar u qat'iyat ko'rsatmaganda shunday bo'lishi turgan gap edi. Endi qanday bo'lmasin, qorong'i tushmasdan marhumni yerga topshirib, «Bo'ronli»ga yetib borish zarur. Uyda, albatta, ularni kutib o'tirishibdi, soat oltiga qolmay yetib kelamiz, deyishgan. U yoqda kutishadi, kechika-yotganligimiz uchun bezovta bo'lishadi. Mana, soat to'rt yarim ham bo'lib qolibdi. Hali o'likni ko'mish va Sario'zak dashini

bosib o'tish kerak. Qanchalik tez yurilganda ham kamida ikki soatsiz yetib olishadi. Ayni paytda, dafn marosimini qonun-qoidasiga amal qilmay, naridan-beri o'tkazish ham odaddan emas. Juda bo'lmasa, janozani xuftonga borib o'qishar. Boshqa illoj gancha...

Tahorat olgandan so'ng yengil tortgan Edigey endi marosimni o'tkazishga o'zini haqli deb bildi. Kanisturning qalpog'ini yoparkan, u ekskavator ortidan sogol-mo'ylovini silagancha, salobat bilan chiqib keldi.

– Ollolning quli Kazangapning farzandi Sobitjon, mening chap tomonimda tur, sizlar to'rtovlarning jasadni qabrning chetiga olib kelib, marhumning boshini kunchiqar tomonga qarab qo'yinglar, – buyurdi u birmuncha tantanavor ohangda. Bularning barchasi bajarilgach: – Mana endi hammamiz muqaddas Ka'ba tomonga qarab o'tiramiz. Kaftlaringni yozinglar, Ollol Taoloni yodga olinglar, bizning fikr-u xayolimiz uning dargohida qabul bo'lsin, – dedi.

Qizig'i shunda ediki, Edigey o'z ortidan hech qanday ishecho, kulish, shivir-shivir ovozlarni eshitmadi. U shunisiga ham rozi edi. Bo'lmasa: «Qo'ysangiz-chi mo'ysafid boshini og'ritmay, siz qanaga massxaravoz mullasiz, keling, yaxshisi, o'likni tezroq ko'maylig-u, ertaroq uyga qayta qolaylik», – deyishlari ham mumkin edi-da. Buning ustiga, Edigey janozani qabr ustida o'tirib emas, balki tik turgancha o'qishga jazm qiladi: islom dini kelib chiqqan arab mamlakatlardagi qabristonlarda Qur'oni tik turib o'qishlarini bilmondan kishilardan eshitgandi. Haqiqatan ham shundaymi, yo'qmi, har qalay, nima bo'lganda ham Edigey boshi bilan Tangriga yaqin bo'lishni istadi.

Biroq janozani o'qish oldida yorug' dunyoning o'ng tomoniga bir, so'l tomoniga bir bosh egib, ta'zim qilib, olamni yaratganing o'ziga sig'inib odam zoti bu yolg'onchi dunyoga tasodifan kelib, bir kuni, xoh kunduz, xoh kechasi olandan o'tishini yodga olib, xudo bir, rasul barhaq deya ko'kka bosh ko'tarib qararkan, Edigey yana o'sha oqquyruq kalxamni ko'rdi. U bamaylixotir sekin-asta qanot sirpab, bir tekisda doiralat yasab, yaqinlashish payida parvoz qilib yurardi. Ammo kalxat

o'y-xayollariга aslo xalal bermadi, alaxsitmadi, aksincha, fikrlarini bir yerga jamlab olishiga yordam berdi.

Chuqur qazilgan qabr yonida, zambil tobutda oq namatga o'ralgan Kazangapning jasadi yotardi. U hammaga va har bir kimsaga, oxirat dunyogacha bo'lgan barcha davr va zamonalarga mo'ljallab, oldindan bashorat qilib aytib qo'yilgan Qur'on oyatlarini pichirlab o'qirdi, marhumlar uchun ham, tiriklar uchun ham, bandasi qaysi davrda yashamasin va kim bo'lishidan qat'i nazar va hatto tug'ilishi zarur bo'lgan yangi avlod ham xudoning quli ekanligi, demak payg'ambarlarning meros qilib qoldirib ketgan va jamiki narsani o'zida mujassam etgan turmushning ana shu umumiy formulasi haqidagi so'zlar hammaga tegishli ekanligini pichirlab tilovat qilardi. Edige'y Bo'ron ularni o'z qalbidan chiqqan va hayot tajribasidan olgan o'z shaxsiy fikrlari bilan ham to'ldirishga harakat qildi. Inson dunyoga shunchaki kelib ketavermaydi-ku, axiri!

«O, Tangrim, agar tinglayotganing rost bo'lsa, otobobolarim kitoblardan yod olib aytib o'tgan Qur'oni men ham ular izidan borib, qayta takrorlayotganimni eshit. O'ylaymanki, mening aytgan fikrlarim ortiqcha bo'lmas.

Mana, biz Malaqumdichop jarligida, kimsasiz va begona joyda, Kazangap uchun qazilgan qabr ustida turibmiz. Uni o'zi vasiyat qilgan qabristonga dafn etish ilojini topolmadik. Katlarimizni yozib Kazangap bilan vidolashayotganimizda osmondan oqquyruq qushning qiziqib qarab turibdi. O, Yaratgan egam, agar o'zing bor bo'lsang, bizni afv et, gunohimizni kechir, quling Kazangapni o'z panohingga lutfan qabul et, agar u shunga loyiq bo'lsa, ruhiga mangu orom bag'ishla. Biz qo'limizdan kelganini qildik. Qolgani o'z erkingda!

Endi esa senga shunday daqiqalarda murojaat qilardikanman, ko'zim tirikligida, fikr yuritishga qodir ekanligimda meni eshit. Bandalaringni senga aytari aniq: rahm qil, madad ber, panohingda saqla! Gunohsizlar ham, gunohkorlar ham sendan ortiq darajada ko'p yordam kutishadi. Hatto qotil ham seni o'z tomoniga tortgisi keladi. Sen esa hamon sukutdasan. Nimasini aytay, bizning nazarinizda, kimki juda qiynalib qolganda, o'sha

odam uchun sen majjudsan. Senga qiyin, tushunaman, axir bizning iltijolarimizning cheki yo'q. Sen esa yolg'izsan. Men sendan hech narsa so'ramayman. Ushbu damlarda dilimda kechayotgan gaplarni aytmoqchiman, xolos.

Nayman ona orom olayotgan tabarruk qabristonimizdan bundan buyon mahrum etilganligimiz uchun suyagim qaqshaydi. Binobari, shunday ekan, men ham uning muqaddas poyqadamini tekkan Malaqumdichopda yotishni istayman. Ha, biz hozir tuproqqa topshirayotgan Kazangap bilan yonna-yon yotayin. Odan o'lgandan so'ng ruhi nimagadir aylanishi rost bo'lsa, unda men chumoliq emas, balki oqquyruq kalxatga aylana qolayin. Negaki, huv osmondagi kalxadek Sario'zak uzra qanot qoqib parvoz qilib, yuksaklardan qadrdon zaminimizga suqlanib qarayin. Vassalom.

Vasiyatimni esa bu yerga men bilan kelgan yoshlarga aytib ketaman. Meni shu yerga ko'mishlarini ularga vasiyat qilaman. Biroq tepanda Qur'oni kim o'qiydi, buni bilolmayman. Bular Xudoga ishonishmaydi, buning ustiga, hech qanday oyatni ham bilishmaydi. Axir, olamda Xudo borligini hech kim bilmaydi va hech qachon bilolmaydilar ham. Birov «bor» desa, boshqasi «yo'q», deydi. Men sening borligingga ishongim keladi, sen mening qalbindasan, o'y-xayolimdasan, Qur'on o'qiyotib senga murojaat etardikanman, aslini olganda, o'zingga sen orgali murojaat qilganday bo'laman. O'shanda sen qanday o'ylagan bo'lsang, men ham shunday o'ylagan bo'laman, yaratgan egam. Hamma gap shunda-da! Yoshlar bo'lsa bu haqda o'ylashmaydi, Qur'on deganni nazar-pisand qilishmaydi. Ajabo, o'lim daqiqalarida ular o'zlariga va yana boshqalarga nima deya olisarkan? Ularning har biri o'zini xudo sanab yurgani bilan o'z insoniy qadr-qimmatini anglab yetmagandan so'ng yuksak insoniylik ma'nosini qayerdan ham tushunsin? Bu masxaraomuz so'zlarim uchun afv et... Ularning biron-tasi xudo ham bo'la olmaydi, biroq unga intilmasang, odamiylik qiyofasidan ham chiqasan. Inson o'zini maxfiy ravishda Xudo sanab sen bandalaring uchun jon kuydirganing kabi jon kuydirganlarida edi, yaratgan egam, unda sening o'zing ham bo'lmagan bo'lar eding-

da... Men esa sening benom-u nishon yo'qolib ketishingni xohlamas edim...

Mening arz-armonlarim shular. Oshkora aytgan bo'lsam, afv so'rayman. Men oddiy odamman, shunga yarasha fikrlayman. Hozir janozani o'qib bo'lganimdan so'ng, dafn qilishga kirishamiz. Omin, ollohu akbar...»

— Omin, — deb fотиha qildi-da, Edigey Bo'ron biroz jimit qoldi, keyin osmondagi kalxatga yana bir daf'a qayg'u aralash tikilib olgach, ortda turgan odamlarga qarab o'g'irildi — ular to'g'risidagi fikrlarini endigina Olloh Taolaga aytib bo'lgandi. Tangri bilan bo'lgan suhbat tugadi. Qarshisida hamrohlar, niho-yat cho'zilib ketgan dafn marosimini birga o'tkazishlari lozim bo'lgan besh kishi turardi.

— Mana, — dedi u o'ychan, — janozada o'zim uchun ham, sizlar uchun ham aytishim lozim bo'lgan gaplarni aytdim. Endi ishga kirishamiz.

Edigey Bo'ron ordenli kamzulini yechib tashlagach, o'zi qabr tubiga cho'kdi. Unga Edilboy Daroz yordamlashdi. Sobitjon marhumning o'g'li bo'lgani uchun qo'shimay, bir chekkada qayg'uli bosh egib turdi. Qalibek, Jumag'ali va piyonista kuyov — uchulasi zambildan namatga o'ralgan murdani olib, qabrlarning ichiga, Edigey bilan Edilboy Darozning qo'lliga uzatishdi.

«Vidolashish mahali ham keldi! — deb o'yladi Edigey Bo'ron Kazangapning jasadini manguga lahadga uzatar ekan. —

Ertadan beri joy topolmay ovora bo'lib yurganligimiz uchun kechir. Kun bo'yi seni goh u yoqqa, goh bu yoqqa olib yurdik. Nachora, shunday bo'ldi-da. Seni Ona Bayitga dafn etolmaganligimiz uchun biz aybdor emasmiz. Ammo xafa bo'lma, bu ishini men shundayligicha goldirmayman. Qayerga borish lozim bo'lsa, boraman. Ko'zim tirik ekan, jim turmayman. Aytadiganimni aytaman ularga! Tinch yot o'zing, yotgan joyingda. Zamin naqadar poyonsiz, senga esa bir parcha yer shu yerdan nasib etgan ekan. Bu yerda sen yolg'iz emassan. Yaqinda men ham yoningga kelaman, Kazangap. Biroz kutgin meni. Ko'ngling to'q bo'lsin. Agar biror baxtsiz hodisa yuz bermasa, o'z ajalim bilan o'lsam, yoningga kelaman va yana birga bo'lamiz. Biz Sario'zak

hokiga aylanamiz. Ammo buni o'zimiz bilmay qolamiz-da. Bu tiriklargaгина ravo ko'rilgan. Shuning uchun ham senga gapirayotganim bilan, aslida o'zingga gapirayapman. Ha, biz bordan yo'qlik sari shunday ketaveramiz. Poyezdlar bo'lsa Sario'zak bo'yab yelaveradi, bizning o'rnimizga ham boshqalar kelaveradi...»

Uzoq yillar mobaynida «Bo'ronli» bekatida birga yurib, issiq-sovuqni birga tatib, qayg'u va quvonchlarini birga baham ko'rishib kechirgan hayot ikki og'iz vidolashuv so'ziga jo bo'lib joni achigan Edigey shu yerga kelganda chidab tura olmadi, xo'rsimib yig'lab yubordi. Insonga buyurganining qanchalik ko'p va qanchalik ozligiga qarang!

— Gapimni eshiyapsammi, Edilboy? — dedi Edigey lahadning ichida yelkama-yelka turarkan. — Sen meni ham shu yerga dafn et, yonginasida yotay. Meni o'z qo'llaring bilan mana bunday qilib joylashtir. Qulay yotishim uchun hozir qanday qilyotgan bo'lsak, xuddi shunday qilib yotqiz. So'z berasammi? — Bas qil, Edike, keyin gaplashamiz. Endi tepaga chiqaver. Chalasini o'zim bitiraman. Xotirjam bo'l, Edike, qani, chiqaqol. Iztirob chekaverma muncha.

Ter bosgan Edigey yuzidagi tuproqni artar ekan, qabr tubidan ko'tarildi, yuqorida turganlar unga qo'l cho'zishdi, u allaqanday mungli so'zlarni aytib entikib yig'lagancha tepaga chiqdi. Qalibek cholning yuvini olishi uchun suv solingan kamistini olib keldi.

Keyin lahadga bir sigindan tuproq tashlab, shamolga teskari turgancha tuproq tortib boshladilar. Dastlab belkurak bilan ko'mishdi, so'ng Jumag'ali buldozeri bilan tuproqni surib berdi, so'ngra yana belkuraklarda qabr usidagi tuproqni tekislab shibbalashdi...

Oqquyruq kalxat esa bulutlar ortidan Malaqumdichop jarligida ehang-to'zon ko'tarib ishlayotgan bir to'da kishilarga nazar tashlab, qanot qoqqancha sayr qilib yurardi. Lahad o'rmi

¹ Buldozer (inglizcha: bulldozer — katta kesaklarni maydalovchi) — yer surish va tekislash uchun maxsus keskich-surgich bilan uskunaliangan traktor.

tuproq uyumi bino bo'lgach, kalxat odamlar orasida qandaydir bir jonlanishni sezdi. Malla it ham tirkalma arava ostidagi o'rindan turib, odamlar oldida aylanib qoldi. Unga nima bor ekan? Faqat popukli yopiq solingan qari tuyagina tinimsiz kavshanib, piagini buzmay kavsh qaytarardi.

Aftidan, odamlar ketishga hozirlanyapti. Yo'g'-e, ana, ulardan biri – tuyaning egasi kaflarini ochib, yuziga tortdi, boshqalari ham xuddi shunday qilishdi...

Vagt o'tib borardi. Edigey Bo'ron yonida turganlarga shoshmasdan sinchkovlik bilan ko'z yugurtirib chiqdi-da, dedi:

– Mana, tugatdik. Kazangap qanday odam edi-i-i?

– Yaxshi odam edi, – javob berishdi boshqalar.

– Unda hech kimning qarzi qolmadimi? Mana, bu yerda uning o'g'li turibdi, otasining qarzlari bo'lsa, bo'yniga olisin.

Hech kimdan sado chiqnadi. Shunda Qalibek hamma-ning nomidan:

– Yo'q, unda hech kimning qarzi qolmagan, – dedi.

– Xo'sh, sen nima deysan, Kazangapning o'g'li Sobitjon? – murojaat qildi unga Edigey.

– Hammalaringga rahmat, – qisqa javob qildi u.

– Unday bo'lsa, uyg'a jo'nadiki! – dedi Junag'ali.


– Hozir. Yana bitta gapim bor, – uni to'xtatdi Edigey

Bo'ron. – Oralaringda eng keksasi o'ziman. Hammalaringga iltimosim bor: agar shunday hol yuz bersa, meni ham mana shu yerda, Kazangapning yoniga qo'yinglar. Eshityapsizlarmi? Buni mening vasiyatim, deb bilinglar.

– Buni hali hech kim bilmaydi, Edike, hali nima bo'ladi, nima qo'yadi, eldan burun gapirishning nima keragi bor, – dedi Qalibek.

– Baribir, – deya o'z gapini ma'qulladi Edigey. – Aytib qo'yish menga qarz, uqib olish sizlarga farz. Vaqit-soati kelganda vasiyat qilib ketgan edi, deb eslaysizlar.

– Yana qanday vasiyatlar bor? Edike, bir yo'la ayta qol, – vaziyatni o'zgartirish uchun hazil qildi Edilboy Daroz. – Sen aralashma, – xafa bo'ldi Edigey. – Men jiddiy gapiryapman.



– Eslab qolamiz, Edike, – uni tinchlantirdi Edilboy Daroz. – Agar biror gap bo'lsa, hammasini sen istagandek ado etamiz. Xotirjam bo'l.

– Mana bu – yigiting gapi, – dedi qanoat hosil qilganday Edigey.

Traktorlar qo'zg'ala boshladi. Ular jarlik tepasidan pastga tushguncha Edigey Bo'ron Qoranorning jilovidan ushlab, Sobitjon yonida bordi. U ichini tirnayotgan narsa haqida Sobitjon bilan yolg'iz gaplashib olmoqchi edi.

– Gapimga quloq sol, Sobitjon, mana qo'limiz ham bo'shadi, endi bir narsani gaplashib olishimiz lozim. Qabrstonimiz Ona Bayit borasida endi nima qilamiz? – savol ohangida dedi u.

– Nima ham qilardik? Bosh qotirib o'tirishning hojati yo'q, – dedi Sobitjon. – Loyiha loyiha-da. Uni loyiha bo'yicha yo'q qilishadi. Bor gap shu.


– Men bu haqda gapirmoqchi emasdim. Unda har qanday ishga qo'l sillab, tashlab ketaversa bo'ladi. Mana, sen shu yerda tug'ilib, shu yerda unib-o'sding. Otang seni o'qitdi. Mana bugun esa uni ko'ndik. Biyday dalaga ko'ndik, dilga taskin beradigan birgina narsa – nima bo'lsa ham o'z qadrdon yeriga dafn etdik. Savodning bor, viloyatda ishlaysan, xudoga shukr, istagan kishining bilan tillasha olasan. Har xil kitoblar o'qigansan...

– Bundan nima foyda? – uning gapini bo'ldi Sobitjon.

– Gap shundaki, ertagayoq bu yerning boshlig'iga birgalashib borsak, u bilan gaplashishimga yordam bersang, bu shaharchaning eng kattasi bordir-ku, axir. Ona Bayitni yer bilan yakson qilishlariga yo'l qo'yib bo'lmaydi! Axir, bu yerda tarix yotibdi.

– Bularning bari eski cho'pchaklar, tushunsang-chi, Edike. U yerda olamshumul, koinotga doir masalalar hal etiladi, biz bo'lsak qandaydir bir qabrston xususida shikoyat qilib boramizmi. Buning kimga keragi bor? Ular uchun bu – fu! Baribir, bizni u yoqqa kiritishmaydi.

– Bormasak, qo'yishmaydi-da. Agar talab qilsak, kiritishadi. Agar iloji bo'lmasa, boshliqning o'zi kelmasmikan. U tog'emaski, o'rindan qo'zg'almasa.



Sobitjon Edige'ga g'azabkorona nazar tashladi.

– Bu bema'ni gapingni qo'y, qariya. Mendan esa umid qilma. Shaxsan mening hech qanday keragi yo'q.

– Ha-a, shundoq demaysanmi. Gap tamom. Cho'pchaklar emish?..

– Sen nima deb o'ylaganding? Oyog'ini qo'lga olib yugurib qoladi, deb o'ylagansan-da, meni! Xo'sh, mening oilam, ishim, bola-chaqalarim bor. Nimaga endi shamolga qarshi chop-tirishim kerak? Bu yerdan qilingan bitta qo'ng'iroq tufayli organga bir tepib ishdan haydasinlarmi? E, yo'q, rahmat!

– Rahmatning o'zingga buyursin, – dedi Edige'y Bo'ron va jahl aralash qo'shimcha qildi: – Organga bir tepib ishdan haydasinlarmi, dedingmi?! Bundan chiqdi, sen faqat organg uchun yashab yurgan ekansan-da!

– Sen esa nima deb o'ylaganding? Xuddi shunday! Bu senga oson. Kim bo'psan? Hech kim. Bizlar esa organiz uchun yashaymiz. Og'zimizga shirinroq luqma tushsin, deb shunday yashaymiz.

– E, ha! Ilgari bosh uchun e'zozlashardi, bundan chiqdi, endi orgalaring uchun e'zozlashar ekan-da.

– Qanday istasang, shunday tushunaver. Biroq ah-mog'ingni topib bo'psan.

– Tushunarli. Gap bitta! – uning gapini cho'r't kesdi Edige'y Bo'ron. – O'tangning ma'rakalarini o'tkaz, Xudo xohlasa, sen bilan boshqa uchrashmaymiz.

– Shunday qilishga to'g'ri keladi, – yuzini burishtirdi Sobitjon.

Shu gapdan keyin ajralib ketishdi. Edige'y Bo'ron tuyaga minib olguncha traktorlilar motorni yurgizib, kutib turishdi. Ammo Edige'y ularning iloji boricha tezroq borishlarini, ma'rakada odamlar kutib qolishganini, o'zining esa tuyada istagan yo'l bilan sekin-asta borajagini aytdi.

Traktorlilar jo'nab ketishdi. Edige'y joyidan qimirlamay, bundan buyon qanday yo'l tutish kerakligini o'ylardi.

Endi u sodiq iti Yo'lbarsni hisobga olmaganda, Sario'zak dashtida tanho o'zi qolgan edi. It, avvalo, ketayotgan

traktorlar ortidan chopdi, so'ngra, egasi bilan ularning yo'li bir emasligini anglab, ortiga qaytdi. Ammo Edige'y unga e'tibor bermadi. Mabodo it u yga qochib ketganida ham chol buni sez-magan bo'lardi. Yuragiga qil ham sig'masdi. Sobitjon bilan oralarida bo'lib o'tgan gapdan so'ng yuragini ezayotgan, ruh-y tushkunlikka solgan qalb tug'yonini bosolmasdi.

Edige'y Bo'ron o'kinardi, u bilan gaplashgani uchun qattiq o'kinardi – so'zlarini yelga sovurdi. Maslahatlashishga va yordam so'rashga arziydigan odammi Sobitjon? Savodli, ma'lumotli, o'ziga o'xshaganlar bilan oson til topishadi, deb umidvor bo'lgandi-da. Turli kurslarda, institutlarda ta'lim olgan bo'lsa nima qilibdi? Ehtimol, uni hozir qanday bo'lsa, shunday bo'lishi uchun o'qitishgandir. Ehtimol, qaylardadir Sobitjonni boshqa birov emas, aynan Sobitjon bo'lib yetishishi uchun ko'p mehnat sarf qilgan iblisdek o'tkir aql sohibi bordir. Axir, Sobit-jonning o'zi radio orqali boshqariladigan odamlar haqidagi be-ma'ni bir narsani butun tafsilotlari bilan hikoya qilib bergan edi-ku. Shunday vaqt yaqinlashib kelayotganmi? O'sha ko'rin-mas va har narsaga qodir kuch bularni allaqachon radio orqali boshqaryotgan bo'lsa-chi...

Edige'y chol bu haqda o'ylagan sari, zilday xayollardan battar xunobi oshdi, boshi berk ko'chaga kirib boraverdi.

– Sen manqurtсан! Haqiqiy manqurt! – Sobitjondan nafratlanib va achinib ichida shivirladi u.

U murosaga kelishni istamas, hali bu kuchayib qolmasidan nimadir qilish kerakligini yaxshi tushunardi. Agar chekinadigan bo'lsa, barchaning ko'zi oldida mag'lubiyatga uchragan bo'ladi. Buni Edige'y Bo'ron juda yaxshi tushunardi. U Ona Bayit bora-sida nimadir qilish lozimligini anglar, lekin nimadan boshlash, qanday harakat qilish, qayoqqa borish, qanday tadbir ko'rish kerakligini aniq bilmasdi.

Edige'y Qoranol ustida o'tirib, zalvarli xayollarga cho'mganicha, atrofini kuzatardi. Chor atrofi jimjit sahra. Mala-qumdi chopning qizil qumli jarlarida shomgi soyalar paydo bo'ldi. Traktorlar allaqachon ko'zdan g'oyib bo'lib, ovozlari ham tinib qolgandi. Yoshlar ketishdi. Sario'zak haqidagi bor haqi-

qatni bilgan, xotirasida saqlab qolganlardan biri bo'lmish keksa Kazangap endi poyonsiz sahr o'rtasidagi yaqindagina tuprog'i tortilgan yakka qabrda yotibdi. Bu tepa asta-sekin cho'kib, kichrayib, Sario'zak gullariga burkanishini, keyinchalik bu qabri boshqa yerlardan ajratib bo'lmashligini Edigey tasavvuridan o'tkazardi. Ha, shunday — hech kim yerdan uzoq yashamaydi, hech kim taqdiridan qochib qutulolmaydi...

Kechga yaqin quyosh og'irlashib qolgandek sekin-asta ufqqa tomon yonboshlay boshladi. Uning nurlari daqiqda sayin o'zgarardi. Kunbotar yogda moviylik bilan qorong'ilik bilinar-bilinnas darajada qorishib, kech kira boshlagan edi.

Edigey Bo'ron vaziyatni hisobga olib ko'rgach, zonaga o'tiladigan ko'tarma g'ov yoniga qaytib borishga qaror qildi. Boshqa yo'lni o'ylab topolmadi. Dafn marosimi ham ortda qoldi, endi hech kim va hech narsaga bog'liq emas, xullas, o'ylaganlarini amalga oshiradigan eng qulay fursat kelgan edi. Hammasidan ham avval qorovulda turganlarga katta boshliq oldiga olib borishlarini, sog'chilar nazorati ostida bo'lsa ham mayli, muhimi, boshliq oldiga olib borishlariga ko'ndirishni dilliga tugdi. Agar buning iloji bo'lmasa, o'sha boshliqni ko'tarma g'ov yoniga kelib, Edigey Bo'ronning gaplarini tinglashga majbur qilish kerak. Ana shunda u bor gapini yuziga aytadi...

Bularning hammasini puxta o'ylab olgandi. Endi Edigey Bo'ron bu rejasini imillamasdan amalga oshirishga qaror qildi. U ko'tarma g'ov oldida qat'iyat ko'rsatib, kirishga ruxsatnoma olishga yoki boshliq bilan uchrashishga erishishi kerak. Ha, shundan boshlaydi. Qandaydir Tansiqboyev emas, eng katta boshliq gapini eshitmaguncha tinchimaligini, qorovulda turganlarni tushunishga majbur etishi kerak...

U ruhan dadillandi:

— Tavakkal! Agar itning egasi bo'lsa, bo'roning Xudosi bor! — o'ziga dalda berdi u va o'sha yoqqa yo'l olarkan, Qorano'rga qamchi bosdi.

Shu asnoda ofto'p botib, qorong'ilik quyuglasha boshladi. U zonaga yaqinlashib qolganda, atrofini zulmat qoplagan edi. Post chiroqlari aniq ko'rinib, simto'sigga yarim chaqirimlar

qolganda, Edigey birdan shoshila boshladi. U tuyadan sirg'alib tushdi. Bunday ishda tuyaning nima keragi bor! Kim bilsin, qanaga boshliqqa duch keladi. Ehtimol, gaplashishni o'ziga ep ko'tmay: «Tuyang bilan daf bo'l. Qayodan paydo bo'lding? Seni qabul qilmayman», deb xonasiga ham kirgizmas. Zero, Edigey o'z rejasining nima bilan tugashini, u yerda qancha kuti-shi kerakligini hali bilmasdi, Qoranorni esa hozircha tushovlagancha dalada qoldirsa bo'ladi.

— Sen hozircha shu yerda kutib tur, men borib urinib ko'raman, — tuyaga qarab po'ng'illadi u aslida o'ziga dalda bermogchi bo'lib. Tuyani cho'ktrishga to'g'ri keldi, xurjundan tushovni olish kerak edi.

Edigey tushov bilan ovora bo'larkan, atrof jimjit edi. Atrofga shunday sukunat cho'kkan ediki, u o'zining nafas olishini, havodagi qandaydir hasharotlarning dam-badam chirillashi, vag'llashini eshitib turardi. Boshi uzra sonsiz yulduzlar charaqlardi. Borliq shunday sokin ediki, hozir nimadir sodir bo'lishi kerakdek edi. Borliq allaninmani kutgandek sukutda...

Hatto Sario'zak sukunatiga ko'nikib ketgan Yo'lbars ham sergak tortib, nimagadir g'ingshirdi. Bu sokinlikda uni nima bezovta qilayotgan ekan?

— Hali ham oyoqlarim ostida o'ralashayapsanmi! — dedi norozi ohangda itning egasi. So'ng o'ylab qoldi: itni nima qilish kerak? U, baribir, organdan qolmaydi. Haydasang ham ketmaydi. U yerga it bilan borish yaxshi emas. Yuzimga aytishmasa ham manavi cholni qaranglar, haqligini himoya qilib kelibdi, yonida esa itdan boshqa hech kim yo'q, degan xayolga boradilar. Itsiz borgani ma'qul. Edigey itni uzun arqon bilan tuyaning abzaliiga bog'lab qo'yimogchi bo'ldi. Qaytib kelgunicha it bilan tuva birga bo'lgani tuzuk. Shu maqsadda itni chaqirdi: «Yo'lbars! Yo'lbars! Bu yoqqa kel!» U itning bo'yniga arqon solish uchun egildi. Xuddi shu mahol havoda nimadir yuz berdi, osmonda nimadir kuchayib borayotgan vulqondek gumburlab qo'zg'aldi. Yaqin-ginada, kosmodrom zonasida dahshatli olov ustunining yorqin alangasi shiddat ila osmonga ko'tarildi. Edigey Bo'ron qo'rguv-

dan o'zini orgaga tashladi, tuya bo'lsa bo'kirib, o'rtidan sapchib turib ketdi. It dahshatdan egasining oyog'i ostiga o'zini tashladi.

Transkosmik to'suvchi «Chambarak» operatsiyasi bo'yicha birinchi harbiy raketa-robot havoga ko'tarila boshlagandi. Sario'zakda roppa-rosa soat kechki sakkiz. Birinchisidan so'ng ikkinchisi, ortidan uchinchisi ko'tarildi va yana, yana... Raketalarning shari atrofini doimiy harakatlanuvchi kardon bilan to'sish uchun olis fazoga yo'l olayotgan edilar. Yerdagi ishlarda o'zgarish bo'lmasiligi uchun, hammasi qanday bo'lsa shundayligicha qolishi uchun qilinayotgan edi bu ishlar...

Alanga aralash kulrang-ko'kish tutun burqirab otilib chiqdi-da, go'yo bosh uzra ag'darilib tushgandek bo'ldi... Odam, tuya, it – bu oddiy jonzorlar aql-hushini yo'qotib, bu yerdan uzog'roqqa qochishardi. Ular bir-birini yo'qotib qo'yishdan qo'r-qib, mahobatli olovli yashin bilan yoritilgan cho'l bo'ylab qochishardi...

Ular qanchalik uzoq chopishmasin, xuddi bir joyda turib chopayotgandek edilar, har bir yangi portlashdan borliqni yorug'lik qamrab olar va atrofini yakson qiladigan gumbur-gumburlar boshlari uzra yangirardi.

Odam, tuya va it orgalariga qaramasdan qochishardi. Kutilmaganda Edigeyning yonginasida oq qush, Nayman ona o'z o'g'li – Manqurtning o'qidani egardan qulagan paytida uning oq ro'molidan bino bo'lgan oppoq qush paydo bo'ldi. Oq qush gumburlash va to's-to'polonda odam bilan yonna-yon uchar, qichqirardi:

– Kimning o'g'li-san? Sening isming nima? Ismingni esla! Sening otang Do'nanboy, Do'nanboy, Do'nanboy...

Zichlashayotgan qorong'ilikda uning ovozi yana uzoq vaqt yangrab turdi...

Bir necha kundan so'ng, Qizil O'rdadan «Bo'ronli» bekati-ga Edigeyning ikkala qizi – Saula bilan Sharofat erlari, bolalari bilan yetib kelishdi. Ular Kazangapning o'limi haqida telegramma olishgach, har bir yomonning bir yaxshisi bor, deganlaridek ta'ziya bildirish, shu bahonada, bir-ikki kun otalari huzurida mehmon bo'lib ketish uchun ham kelishgan edi.

Ular bir to'da bo'lib poyezddan tushib, Edigeyning ostonasiga qadam qo'yishganda otalari uyda yo'q edi. Ukkubola yugurib chiqdi, u bolalari bilan quchoqlashib yig'lab, o'pishib ko'risharkan, tinmay javvardi:

– O'zingga shukur, egam! Ayni vaqtda keldilaring! Otalaring qanchalar xursand bo'ladi. Qanday yaxshi, hama-laring yig'ilib kelibsizlar! Otalaring xursand bo'ladi!

– Otamning o'zi qayerda? – so'radi Sharofat.

– U kechgacha yaqin qaytadi. Ertalabdan Pochta qutisiga, u yerning boshliqlari oldiga ketdi. Qandaydir ishlari bor! Men keyinroq aytib beraman. Voy, nega qarab turibsizlar? O'z uylaring axir, bolalarim...

Bu o'lkalarda poyezdlar odatdagidek mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi.

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotdek dashtlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi.

Cho'lponota, 1979-yilning dekabr – 1980-yilning mart oylari



JAHON ADABIYOTI DURNONALARI
Chingiz AYTMATOV

ASRNI QARITGAN KUN
(roman)

Tarjimon:
Asil RASHIDOV

Nashrga tayyorlovchi:
Ergashboy MATYOQUBOV

Mas'ul muharrir:
Lolaxon QO'ZIBOYEVA

Qo'shimcha izoh va iqtiboslarni kirituvchi:
Ergashboy MATYOQUBOV

Musabih:
Lolaxon QO'ZIBOYEVA

Kompyuterda sahifalovchi:
Ergashboy MATYOQUBOV

Litsenziya raqami AI № 274. 15.07.2015 da berilgan.

Bosishga 2018 10.04. yilda ruxsat etildi. Bichimi – 84x108 1/32.
Bosma to bog'i – 12. Garnitura – «Times New Roman».
Qog'oz – ofset bosma. Adadi 1200 nusxa.
Buyurtma raqami – 28. Bahosi kelishilgan narxda.

“Yosh kuch press matbuoti” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Muqimiy ko'chasi 178-uy.